O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRUGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“MAKTABGACHA TA’LIMNING RIVOJLANISH STRATEGIYALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“DEVELOPMENT STRATEGIES OF PRESCHOOL EDUCATION" MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

“СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ” МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

I Tom



04.04.2024,
Navoiy shahri

“Maktabgacha ta’limning rivojlanish strategiyalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2024. – 356 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi tomonidan 2024-yil 4-aprel kuni o‘tkazilgan **“Maktabgacha ta’limning rivojlanish strategiyalari”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrirlar:

B.Sobirov – Texnika fanlari doktori, professor.
R.Davlatova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Taqrizchilar:

D.Lutfullayeva – O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori.

S.Sayitov – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

G.Ermatova – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

D.Jabborova – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.O‘tamurodova – Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Texnik muharrir:

M.Norqobilov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti v/b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Kengashining 2024-yil 6-apreldagi 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi. Ma’ruzalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar ma’suldirlar.

© Navoiy davlat pedagogika instituti, 2024.

1-SHO‘BA. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM TIZIMI UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASHGA INNOVATSION YONDASHUV

MAKTABGACHA TA’LIMNING RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti rektori,
t.f.d., akademik Sobirov Bahodir Boypo‘latovich

“Qaysi sohani olmaylik biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”

Sh.M. Mirziyoyev

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning boshlang‘ich, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Mamlakatimizda yosh avlodni yanada sog‘lom, bilimli va zukko qilib tarbiyalash maqsadida maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 30 mingga yaqin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2 milliondan ziyod o‘g‘il-qiz tarbiyalanmoqda. So‘nggi besh yilda 422 ta davlat bog‘chasi qurilishi hamda 21 mingdan ortiq nodavlat muassasalar ochilishi hisobiga 1 million 200 ming o‘rin yaratilgan. Tizimga bolalarni qamrab olish ko‘rsatkichi 72 foizga yetgan.O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

“Ilk qadam”-bilimlar dunyosiga birinchi qadam, birinchi muvaffaqiyat, go‘zallik, yaxshilik, samimiylik, umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashning ilk asoslari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312 sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”ning tasdiqlanishi maktabgacha ta’lim sohasidagi keyingi bosqich chora-tadbirlarini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2020 yilning 17 iyun kunidan boshlab “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirdi. Bu Qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan.

Ushbu Qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish

sharoitlarini yaratish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyati yaratilishini ko‘zda tutmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimi oldiga qo‘yiladigan davlat talablari ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida takomillashtirilmoqda. Janubiy Koreya tajribasi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilayotgan ta’lim berish uslublari, moliyalashtirish va to‘lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta’minoti hamda sohalarga tegishli dasturlarning yaratilgani, boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o‘yinlarning mavjudligi bu tarbiyalanuvchilarda erta bolalikdan jamiyatda o‘zini tutish kabi alohida jihatlari muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

2023-2024 o‘quv yilida Navoiy davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi kunduzgi bo‘limda 467 nafar talaba tahsil oladi. Shundan bitiruvchi kurs talabalarimiz 183 nafarni tashkil etadi. Sirtqi bo‘limida 1182 nafar talabalar qabuli amalga oshirilib, o‘quv jarayonlari davom etmoqda.

Navoiy davlat pedagogika institutining kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-3-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi ta’ minlangan.

Institutda 2019-2020 o‘quv yilida **ilk bora** Maktabgacha ta’lim magistratura mutaxassisligidan 5 nafar magistr bitirdi. 2022-2023 o‘quv yiligacha 70110201-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) magistratura mutaxassisligida 67 nafar magistrimiz bitirdi.

Maxsus sirtqi bo‘limining 232 nafar talabasi “Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi” ixtisosligi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘ldi. Bu orqali Navoiy viloyatining chekka hududlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli kadrlar bilan ta’minlashdek muhim vazifaga o‘z hissamizni qo‘shmoqdamiz.

Navoiy davlat pedagogika instituti bilan Navoiy viloyati Maktabgacha ta’lim boshqarmasi, Navoiy shahar Maktabgacha ta’lim bo‘limi va Navbahor tumani Maktabgacha ta’lim bo‘limlari hamkorligida innovatsion loyihalar asosida shartnomalar tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda zamonaviy, xalqaro standartlarga mos maktabgacha ta’lim tizimini shakllantirish va intellektual salohiyatli yosh avlodni voyaga yetkazish bo‘yicha mustahkam poydevor yaratilmoqda.

RAQAMLI TA’LIM MUHITINING BOLA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI: MUAMMOLAR, XAVFLAR VA YECHIMLAR

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri
f.f.d-ri (DSc.) Davlatova Ra’no Haydarovna

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonida ta’lim muhitining bolalar rivojlanishi uchun xavfsiz bo‘lishi, shaxsiy va ma’naviy olamiga, milliy qadriyatlariga ta’siri, bolalarga salbiy ta'siri, xavfsiz rivojlanish haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar, mehr-oqibat, bir-biriga yordam, do‘stona muloqotga ehtiyoj, muammolar, xavflar, yechimlar, global raqamlashtirish.

Аннотация: в данной статье раскрыта информация о безопасном развитии образовательной среды для развития детей, влиянии на личностный и духовный мир, национальные ценности, негативном влиянии на детей, безопасном развитии.

Ключевые слова: дети, доброта, помощь друг другу, потребность в дружеском общении, проблемы, риски, решения, глобальная цифровизация.

Abstract: this article discloses information about the safe development of the educational environment for the development of children, the impact on the personal and spiritual world, national values, the negative impact on children, safe development.

Key words: children, kindness, helping each other, the need for friendly communication, problems, risks, solutions, global digitalization.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan va ularga javob izlashni talab qiladigan muammolar global ijtimoiy sharoitda rivojlanmoqda. Dunyoda davom etayotgan o'zgarishlar (global ta'lim, jahon ko'nikmalari, migratsiya jarayonlari va boshqalar), global demokratik siljishlar, millatlararo ziddiyatlar, madaniyatlararo aloqalar va ko'p qirrali hayot kechiradigan yosh avlodni tarbiyalashning semantik-qiymat markazini polietnik muhitda qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Ta'lim strategiyalari 21- asrning muammolariga javob beradigan, insoniy va axloqiy qadriyatlarga yo'naltirilgan, tinch ijodga tayyor bo'lgan vakolatlar, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yangi avlodlarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yangi raqamli ta'lim muhiti, ma’naviyat va jamiyatni raqamlashtirish global muammoga aylandi. Ijtimoiy va kommunikativ funktsiyalarni o'z zimmasiga olgan raqamli texnologiyalarning jadal o'sishi bolalik hayoti va bola shaxsiyatining rivojlanishiga katta ta’sir o’tkazmoqda. K.Frumkinning ta'kidlashicha, raqamli muhit nazoratsiz axborot oqimining rolini, kommunikativ erkinlik darajasini oshiradi, shu bilan birga, bolaning ijtimoiy va psixologik xavfsizligi va "xavfli faoliyat" paydo bo'lishi muammolarini kuchaytiradi.

Bugungi kunda bolalar kattalar bilan doimiy aloqada bo'lish tizimidan chiqib ketganligini nafaqat ta’kidlash, balki bong urush lozim. Jamiyatni raqamlashtirish kattalarning bolalarga ta’lim berish va tarbiyalashdagi rolini pasaytirdi. Bolaning raqamli vositalar bilan tez-tez va tizimsiz aloqasi uning fikrini o'zgartiradi, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishni kamaytiradi, qaramlik, yolg‘izlik kabilarni shakllantiradi. Raqamli muhit pedagogdan ularni kasbiy faoliyatga, ota-onalar va bolalarning ehtiyojlariga "moslashtirish" uchun raqamli kompetentsiyalarni o'zlashtirishni va bolalarni o'qitish va ijtimoiylashtirishda rivojlanish ta'siriga erishishni talab qiladi. Qulog’imizga tez-tez: ishlab chiqarishni raqamlashtirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, ta'limni raqamlashtirish kabi iboralarning chalinishi odatga aylandi. Aynan ta'limni raqamlashtirish – yosh avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalash uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Bugungi kunda ta'lim (ta'lim va tarbiya) sifati va bolalarning xavfsiz rivojlanishiga putur etkazmasdan, uni raqamlashtirishni oshirish mumkinmi?

Raqamlashtirish tarafdorlari bizni oddiy ta’limni raqamli tizimga o’tkazishga ishontirishadi. Masalan:

• o'yinlar va simulyatorlarni joriy etish - ular o'rganishni yanada vizuallashtirishga yordam beradi va bolaga jamoada ishlashga imkon beradi;

• masofaviy ta'lim tizimini yaratish, bunda siz qulay bo'lgan joyda o'qiysiz;

• har bir kishi uchun individual o'quv dasturini tanlaydigan tizim yaratish [14; 15].

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu jozibali so'zlarning barchasi odamlarni va'dalar bilan sotib olishga va bolalar uchun planshet o'yinchoqlari, smartfonlar va go'yoki o'quv dasturlari bilan boshqa elektron jihozlarni sotib olishga undaydigan oddiy marketing hiylasidir. Bugungi kunda ta'limni dastlabki raqamlashtirish amaliyoti (ko'p soatlar kompyuterda o'tirish, onlayn o'rganish, o'quv dasturlarini tomosha qilish va videokonferentsiya orqali o'qituvchi bilan muloqot qilish) sog‘liqqa zarar etkazishi, ma'lumotni o'zlashtirish samaradorligining pastligi va yaxlit bilimlarning yetishmasligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, juda muhim bo'lgan bolaning jamoada ishlash qobiliyati, atrofidagilar bilan nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, yutqazganda yomonlikni eslamaslik va hokazolar ham klassik shaxsni tarbiyalashda ijobiy ta'lim tajribasi hisoblanadi. Raqamlash bunday shaxsiy ta'limni ta'minlay oladimi?

Economist Intelligence Unit tomonidan Microsoft Education bilan birgalikda o'tkazilgan global tadqiqot natijasida [18; 19], butun dunyoda mingdan ortiq o‘qituvchilar o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq uchta asosiy xavfni nomladilar.

• qo'lda yozish qobiliyati kabi an'anaviy ko'nikmalar va bilimlarni yo'qotish;

• virtual dunyoga juda chuqur sho'ng‘ish. O'qituvchilarning 34 foizi o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlar va chatlarda juda ko'p vaqt o'tkazishlarini va jonli muloqotga kam e'tibor berishlarini tan olishdi;

• gadjetlar bolalarni dars va mashg‘ulotlardan chalg‘itadi.

To'g‘ri, xorijlik pedagoglar ta’limni raqamlashtirishda nafaqat xavf va kamchiliklarni ko'rishadi, balki ijobiy tomonlarini ham e’tirof etishadi: bolani fanga qiziqtirish: interaktiv o'yin, robotlarni o'rgatish, virtual va kengaytirilgan olam bilan tanishuv; mustaqil o‘qish imkoniyati.

Ta’limni raqamlashtirishning barcha ko‘zga ko‘ringan afzalliklari va qulayliklariga qaramay, I.Ashmanov (axborot texnologiyalari sohasidagi yirik ekspert) fikricha, xavf-xatarlar undan-da katta va bu xavflar juda xilma-xildir: bolalar salomatligi bilan bog‘liq jiddiy muammolar ta'lim sifatining keskin pasayishiga olib keladi.

Bugun raqamlashtirish nafaqat maktablarga, balki bolalar bog‘chalariga ham kirib bormoqda, bu yerda esa biz bilamizki, o'rganishdan ko‘ra o‘yin muhim o‘rin tutadi. Ammo planshet o'yinlari, interaktiv doska, zamonaviy o'yinchoqlar, gapiruvchi qo'g‘irchoqlar, yorqin rangli masofadan boshqariladigan mexanizmlar jonli, o‘zaro hamkorlikda o‘ynaladigan o‘yinlar o‘rnini bosa olmasligi barchamizga ma’lum.

Bola uchun o'yin - bu dunyoni tushunishning eng muhim usuli, lekin birinchi navbatda, bu kognitiv qobiliyatlarni, do‘stlari bilan insoniy munosabatlarni o‘rnatishning tarbiyaviy vositasi hamdir.

Ta'limni raqamlashtirish nafaqat pedagoglar, ota-onalar, bolalar, oilaviy hayotning o'ziga xos an'analari, maktab yoshi ierarxiyasi, bolalar jamiyati qonunlari, balki bola-ota-ona-inson munosabatlarining butun tizimi uchun haqiqiy muammodir. Bolalikning xavfsiz rivojlanishini tushunishga asoslanib, biz bolaning shaxs sifatidagi an'anaviy uch qismli tabiatiga muvofiq raqamlashtirishning haqiqiy xavflari va tahdidlarini ko'rib chiqamiz: jismoniy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy.

Jismoniy xavflar. Talim sohasida raqamlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar va psixologlar, psixofiziologlar, pediatrlar va sog‘liqni saqlashni jalb qilgan holda ulardan foydalanishning yosh standartlarini ishlab chiqish. Wi-Fi tarmoqlari va elektromagnit maydonlarning kattalarga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ularning kognitiv qobiliyatlari va xotirasi pasayganini va yuqori sezuvchanlik bilan saraton, ayniqsa miya shishi rivojlanish xavfini oshirishi aniqlangan. Raqamli texnologiyalar bilan uzoq muddatli ishlash, maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshida eshitish qobiliyatining yo'qolishi, ko'rishning yomonlashishi, kompyuterda harakatsiz turmush tarzi - metabolik kasalliklar, skolyoz, mushaklarning holati va bosh.

Ruhiy holat, psixologik xavflar. Bolaning kognitiv funktsiyalarining rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Gadjetlardan (iPadlar, iPhone, smartfonlar va boshqalar) foydalanadigan zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq (disleksiya va disgrafiya) bilan bog‘liq muammolar har yili o'sib bormoqda: Kompyuterlar va gadjetlar, qadriyatlarni ma'noga, ma'lumotni bilimga aylantira olmaydi. Bugungi kunda bolalarda miyaning ma'lum sohalari (masalan, o'qish va yozish qobiliyati uchun javobgar bo'lgan Brok markazi) ishtirok etadigan yozma til ko'nikmalarini to'liq o'zlashtirish yo'qolib bormoqda.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, raqamli avlod bolalari tarqoq fikrlar va yuzaki mulohazaga ega; bolalar o'z fikrlarini shakllantirishga qodir emaslar. Ularning imlo, tinish belgilari va grammatika bo'yicha bilimlarini qo'llashdagi savodxonligi qoniqarli emas, chunki barcha gadjetlarda avtomatik tuzatish funksiyasi mavjud. Xulosa shunday: agar bola nutqida jonli muloqot qilish, fikrni shakllantirish va ifodalash amaliyotiga ega bo'lmasa, psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'laqonli tafakkur shakllanmaydi.

Bolalar o‘z vaqtini Internetda va ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazganlarida ijtimoiy aloqalarning deformatsiyasini boshdan kechiradilar. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj aloqaning surrogat shakli bilan almashtiriladi. Bunday bolalar va o'smirlar uchun insoniy, do'stona, sherik yoki oila qurish qiyin bo'ladi.

Ma'naviy va axloqiy rivojlanishdagi xavflar. Raqamlashtirishning eng zararli ta'siri bolalarning xavfsiz rivojlanishining shaxsiy va ma’naviy olamiga, milliy qadriyatlariga tahdiddir. Insoniuyat uchun zaruriy bo‘lgan mehr-oqibat, bir-biriga yordam, do‘stona muloqotga ehtiyoj o‘rnini virtual olam egallamoqda.

Global raqamlashtirishning bolalarga salbiy ta'sirini kamaytirish va ularning xavfsiz rivojlanishini ta'minlash yo'llari bo‘yicha ayrim tavsiyalar:

-ta'limni raqamlashtirish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish zarur. Bolalarni ta'lim muassasalarida va oilada o'qitish va tarbiyalash uchun noqonuniy kontentdan himoya qilishning ishonchli tizimini yaratish zarur. Bolalar bilan bog‘liq hayotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan to'g‘ri foydalanishni rag‘batlantirish uchun konstruktiv qonunchilik yechimlari zarur;

• oilada, ota-onalar va vasiylarga bolalar gadjetlaridan foydalanishni cheklashni qat'iy tavsiya qilish kerak, ayniqsa, erta va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun;

• raqamli televidenie ekrani, ayniqsa teleseriallar, filmlar va fojiali yangiliklarning reklamasi tungi efirga o'tkazilishi yoki bolalar ko'rishi ta’qiqlanishi kerak;

• raqamli o'yinlar va o'yinchoqlar, shuningdek, barcha o'yin mahsulotlari, bolaning o'yinda bir o‘zi ishtirok etganligi sababli, maxsus tartibga solishni talab qiladi, ya'ni o‘yin mahsulotlari to‘g‘risida qonun qabul qilish masalasini ko‘rib chiqish lozim. Kompyuter o'yinlari alohida nazorat ostida bo'lishi kerak: ularning mazmuni, grafikasi, yosh chegarasi;

• Internetdagi noqonuniy kontentdan jabrlangan bolalar sonini kamaytirish uchun konstruktiv yechimlar zarur;

• bolalarning bilim sifati va psixologik holatiga putur yetkazmagan holda talabalar uchun IT elementlaridan maqbul foydalanishni adekvat izlash juda muhimdir.

Ko‘rinadiki, kattalarning asosiy va qiyin vazifasi nafaqat himoya qilish, taqiqlash (ikkinchisi mumkin emas), balki raqamli gigienani rivojlantirish va singdirishdir. Biz bolani bunga majburlay olmaymiz, biroq uning o'z taqdiri va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat bilan ulg‘ayishini o‘rgatish buyuk tarbiyaviy san'atdir.

Adabiyotlar:

1. Цифровизация образования. https://plusiminusi.ru/cifrovizaciya-obrazovaniya-osnovnye-plyusy-i-minusy/

2. Правда и ложь о цифровом образовании: http://www. ug.ru/archive/75140

3. Экспертиза печатных изданий, игр и игрушек для детей как механизм защиты психологического здоровья и развития ребенка // Правовые и криминологические проблемы защиты прав несовершеннолетних. Ч. I: Сб. науч. тр./ *В.В.Абраменкова, О.В.Пристанская* и др. М., 2008. 109 с.

4. New research from The Economist and Microsoft shows digital preparedness helped organizations adapt to COVID-19. By Microsoft News Center6 May, 2021 https://news.microsoft/com

5. *Norton P.* Computer Potential and Computer Educators: a Proactive View of Computer Education // Educational Technology 1983. Vol. 23. No. 10. P. 25–28.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMLARINING UZUKSIZLIGI VA MAKTABGACHA TA’LIM

O‘zbekiston, NavDPI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor professor D.X.Narzikulova

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’lim tizimlarining uzuluksizligi, maktabgacha ta’lim ta’lim tizimlarining poydevori sifatida unda olib borilgan islohotlar haqida ma’lumotlar yortilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimlari, uzluksizlik, tizimlilik, samaradorlik, maktabgacha ta’lim, integratsiya, takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyat, kadrlar salohiyati.

Аннотация: данная статья содержит информацию о реформах, проводимых в нашей стране, преемственности системы образования, а также проводимых в ней реформах как фундаменте систем дошкольного образования.

Ключевые слова: образовательные системы, преемственность, системность, эффективность, дошкольное образование, интеграция, совершенствование, повышение качества образования, интеллектуальный, кадровый потенциал.

Abstract: this article contains information about the reforms carried out in our country, the continuity of the education system, as well as the reforms carried out in it as the foundation of preschool education systems.

Key words: educational systems, continuity, consistency, efficiency, preschool education, integration, improvement, improving the quality of education, intellectual potential, human resources.

O‘zbekistonda ta’lim tizimlarini rivojlantirish, samaradorligini yuksak hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida amalga oshiralayotgan ta’lim tizimlarining ilg‘or tajribalarini milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish jarayonlari yoritib berilgan bo‘lsa[4], bugungi kunda “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar va maqsadlarda ta’lim tizimlariga ham e’tibor qaratilib, ta’limning ilk bosqichi maktabgacha ta’lim haqida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan[3]. Bunda maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi kundagi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish**,** maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022–2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish masalalari qamrab olingan[3].

Maktabgacha ta’lim tashkiloti - uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy qatlamidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimlarining uzluksizligi va o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, bunda:

Ta’lim tizimi:

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;
- ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;
- ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi[1].

Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir. Ushbu Qonunda ta’lim turlari:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta;
- o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim etib belgilab berilgan.

Ushbu Qonunning 8 - moddasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, bu tashkilot bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy - axloqiy, etnik, etika, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turi ekanligi va maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi ko‘rsatib berilgan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun bilan va shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi[1].

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullanib, 16 dekabrda tasdiqlanib, 2020 - yil 16 - iyundan boshlab amalda qo‘llanilmoqda. Bu 11 bob, 58 moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa Qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi[2].

Barcha turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016 yil 29 dekabrdagi PQ – 2707 -son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari Maktabgacha ta’lim Vazirligi tasarrufiga kiradi. Respublikamizda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan birga nodavlat, xususiy, davlat sherikchilik va oilaviy MTT ham faoliyat yuritadi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va boshqa normativ- huquqiy hujjatlarga, shuningdek Nizomga amal qiladi. Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va

integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati NIZOM asosida tartibga solinadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”[5], - deb ta’kidlagan edi.

Mamlakatizimda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish, bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo‘lgan davrda har tomonlama puxta ta’lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularni singdirish, ularni maktabda qanday o‘qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jihatdan ularning maktabgacha ta’lim tashkilotida oladigan tarbiyasiga bog‘liqdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlangich ta’lim tashkilotlariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, vazirliklar tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta’lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o‘zgartirish, ularni eng ilg‘or oliy ta’lim tashkilotlari tarkibiga o‘tkazish orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga eng kuchli va tajribali professor-o‘qituvchilar ta’lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet
2. “Maktabgacha ta`lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun T.:2019-yil, 16-dekabr, O‘RQ – 595-son.
3. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.
4. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича [матн] / Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети – Т.: «Маънавият» нашриёти, 2017- йил, 190-б.
5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2017 yil.

TARBIYANING AKSIOLOGIK ILDIZLARI

O‘zbekiston, NavDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,
f.f.d., professor Safarova Nigora Olimovna

Muallif fikricha, hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasi, odob axloq, hurmat- izzatni teran anglash va ularni yoshlar qalbiga mustahkam singdirishdan iborat bo‘lishi kerak. Yoshlarga yetkazilishida albatta ajdodlarimiz merosini o‘rganish, ulardan ta’lim-tarbiya, odob-axloq, ezgulik, fidoyilik, bag’rikenglik kabi ulug’ fazilatlarga targ’ib qilishda keng foydalanib, ezgu qadriyatlarimizni zamonaviy pedagogik texnologiyalari bilan hamohang o‘rganib borilsa, yoshlar ta’lim-tarbiyasi borasida qo‘yilgan yuksak maqsad-vazifalarga yanada samarali erishish mumkinligi tahlil etilgan.

По мнению автора современное образование должно большое внимание уделять процессу воспитания. На такие качество как порядочность, доброта, уважение к старшим. Необходимо изучать наследие наших предков при передаче молодежи, широко использовать его для пропаганды таких великих качеств, как образование, манеры, доброта,

самоотверженность, толерантность, а также изучать наши благородные ценности в синхронизации с современные педагогические технологии.

According to the author, modern education should pay great attention to the upbringing process. For such qualities as decency, kindness, respect for elders. It is necessary to study the heritage of our ancestors when passing on to the youth, to widely use it to promote such great qualities as education, manners, kindness, dedication, tolerance, and also to study our noble values in sync with modern educational technologies.

O‘qituvchi va murabbiylik kasbi katta mas’uliyatli va shu bilan birga sharafli kasbdir. *Imom Keshiy Jobir(r.a)dan rivoyat qilgan hadisda:* “Men, Payg’ambar (sav)ni: “Allohdan foydali ilm so‘rab, foydasiz ilmdan panoh so‘rangizlar” – deb aytganlarini eshitdim dedilar”.[1] Ushbu hadisda insoniyat va jamiyat uchun manfaati bor bo‘lgan foydali ilmlarni o‘rganishga chorlab, insoniyat va jamiyat uchun foydasi bo‘lmagan ilmni olishlikdan qaytarilmoqda. Shu o‘rinda mulohaza to‘g’iladi, Islom dini chaqirayotgan ilm qanday ilm o‘zi? Faqat diniy ilm-mi? Yo‘q, islom dini jamiyat uchun foydali bo‘lgan ilmni olishga targ’ib etgan. Boshqa bir hadisda, Payg’ambar (sav): "Ilm Chin (xitoy)shahrida bo‘lsa ham borib o‘rganinglar" deb aytgan. Bu hadisdan olinadigan xulosa shuki, islom dinining avvalida, diniy ilmlar faqat arablar diyorida bo‘lib, Xitoyda hunarmandchilik, ishlab chiqarish va jamiyat uchun zarur bo‘lgan ilm rivojlangan. Mazkur hadisda o‘rganish lozimligi ta’kidlangan ilm bu hunarmandchilik, dunyoviy ilmlar, insoniyat va jamiyat uchun manfaati bor bo‘lgan bilim hamda hunarmanchilikdan iborat.

Yoshlar ta’lim tarbiyasini shakllantirishda albatta ma’naviy merosimiz va muqaddas dinimizning asrab avaylab uning ezgu g’oyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta’lim-tarbiya, odob-axloq, ezgulik, fidoyilik, bag’rikenglik kabi ulug’ insoniy fazilatlarga targ’ib qiluvchi hadislardan namunalar keltirib o‘tamiz: Imom Keshiy *Abdulloh ibn Umar (ra)dan:* “Rasulullоh (sav): “Sizlarning har biringiz tarbiyachi va har bir kishi o‘z tarbiyasi (haqida) so‘raluvchidir”, dedilar”.[2] Mazkur hadisda, jamiyatdagi har bir shaxs kim va nima kasb qilmoqligidan qat’iy nazar u tarbiya borasida masu’liyatni anglab zimmasidagi vazifani bekam qilib, ado etishga chaqirilgan. Albatta har bir kishi mas’uliyatni teran anglab, uni bajarilishini ta’minlasa yuksak ma’niviyatli, yetuk shaxs, barkamol avlodni ta’lim-tarbiyasi va odob-axloqi chiroyli bo‘lishligi ta’minlanadi. Hadisda ta’kidlanganidek, tarbiya bu bir toifa kishilar zimmasidagi vazifa emas, balki har bir kishi ma’lum doirada tarbiyachi ekanligi belgilab berilgan. Oila, mahalla, ta’lim muassasalari, jamiyat va hakozo tashkilotlar tarbiya borasida hamkorlikda faoliyat olib borishlari lozimligi aytilmoqda. Ushbu hadisdan ma’lum bo‘ladiki ta’lim-tarbiya sohasi jiddiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan soha bo‘lib, bunga hamma barobar javobgarligi ta’kidlangan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak-ki, yoshlar tarbiyasi, xalq pedagogikasining ijodkori va shu asosda avlod-ajdodlarimizni barkamol kishilar qilib tarbiyalab kelgan birinchi va to‘ng’ich pedagog-o‘qituvchi bu xalqdir[3].

Abdulhamid Keshiy Ayyub ibn Muso (ra)dan rivoyat qiladi: “Rasulullоh (sav): “Ota-ona o‘z farzandiga chiroyli xulqdan ko‘ra afzalroq narsa taqdim qilolmaydi” dedilar”. [4] Xalqimizda "Qo‘sh uyasida ko‘rganini qiladi" degan hikmatli naql bor. Bu hikmatli so‘zning zamirida bola tarbiyasi uning odob-axloqi, chiroyli xulqiga ota-ona, oilaning o‘rni qanchalik muhimligiga yorqin ishora yotibdi. Mazkur hadisda farzandlar tarbiyasi, ularning xulq-atvoriga ota-onalar javobgarligi aytilib, ota-ona farzandiga chiroyli xulqdan boshqa avloroq narsa bera olmasligi ta’kidlangan. Haqiqatdan ham ota-onalar dunyo ne’matlarini o‘z farzandlariga taqdim etsa-yu, ularni chiroyli odob, chiroyli xulq va foydali ilmdan benasib qoldirsa hayotda ko‘p narsadan benasib qoldirgan bo‘ladi. Ilmu-odobning molu-dunyodan afzalligi haqida ko‘p hikmatlar bor chunki mol-dunyoni inson

[1] Абдулҳамид Кеший. Мунтахаб мин муснади Абд. Риёз. Дору-л-баласия, 2009. Ҳ – 1095.

[2] Абдулҳамид Кеший. Мунтахаб мин муснади Абд. Риёз. Дору-л-баласия, 2009. Ҳ – 745.

[3] Ўзбек педагогикаси онтологияси. Таҳрир ҳайъати, М.Хайруллаев, И.Искандаров ва б. Т.: “Ўқитувчи” 1995 йил. 1-жилд. –б.22.

[4] Мазкур асар. Ҳ – 362.

qo‘riqlaydi, insonni esa uning ilmi–odobi qo‘riqlaydi shu jihatdan ham ilmu-odob ustundir. Farzandlar odobining go‘zalligi va uni saqlash borasida Vahb ibn Munabbih degan ulug’ zot shunday degan: "Yomon xulq xuddi bir singan chinni idishga o‘xshaydi: uni yamab ham, loyga qaytarib ham bo‘lmaydi".[5] Xulosa, chinni idish sinmasdan uni saqlashga harakat qilinganidek, odob-axloqni ham saqlash lozim bo‘ladi, zero u ketadigan bo‘lsa, uni qayta tiklash qiyinlashadi. *Abdulhamid Keshiy Ibni Abbos (ra)dan rivoyat qilgan hadisda: Payg’ambar(sav):* “Sizlarning eng yaxshilaringiz, xulqi chiroyli bo‘lganlaringizdir” dedilar.[6] Insonlar yaxshisi xulqi va odobi chiroyli bo‘lib, yuksak ma’naviyati hamda ibratli muomala madaniyati borlari ta’kidlangan. *Abdulhamid Keshiy Ibn Abbos (ra)dan keltirgan hadisda:* “Payg’ambarimiz (sav): “Kim-ki, yoshlarga rahmli va keksalarga hurmatda bo‘lmasa, ular bizdan emas”, dedilar”.[7] Xalqimizning azaliy urf-odatlarida shunday insoniy sifatlar mujassam etgan-ki, bularning asosida milliy va diniy qadriyatlarimiz o‘rni beqiyos. Yuqorida keltirilgan hadisda ham ana shunday doimiy xalqimiz amal qilib, yoshlar ong-tafakkuriga singdirilgan, o‘zbek xalqiga xos ajoyib fazilat haqida bayon qilinmoqda. Yoshlarga mehribon va rahmli, kattalarga hurmat-ehtiromda bo‘lishlik bizning ta’lim tarbiyamiz, odob-axloqimizga yoshlikdan oila maktabida singdirilib kelinayotgan ezgu ishlardan hisoblanadi. Yana bir ulug’ fazilatlardan sanalgan kengqalb va bag’rikeng bo‘lib, bu haqda *Ibn Abbos(ra)dan rivoyat qilanadi:* “Rasulullоh (sav): “Dinning Allohga eng mahbub jihati haqida so‘ralganda, “To‘g’rilik va keng qalblilikdir” - deb javob berdilar” dedi.[8] Insonlar dinining yaxshiroq jihati, Alloh taolaga mahbubroq tomoni ularning keng qalbli bo‘lib, faqat to‘g’ri yo‘lda bo‘lishliklari aytilmoqda. Haqiqatdan ham muqaddas islom dinining asosiy ta’limoti ana shu kabi ezgu ishlarni bajarishdan iborat. Bag’rikenglik, kengqalblik, ochiq yuzlik, shirin so‘xanlik, o‘zgalar manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yish, to‘g’ri yo‘lga boshlash, o‘zi xo‘sh ko‘rgan narsani o‘zgaga ham ravo ko‘rish, hyech kimga zarar bermaslik kabi o‘zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassam etgan ta’lim-tarbiya, odob-axloq namunalarini targ’ib etuvchi hadislar nihoyatda ko‘p bo‘lib, biz bu mavzu doirasida Abdulhamid Keshiyning "Musnad" asarida keltirilgan ana shunday hadislardan ayrimlarini o‘rganishga harakat qildik.

Mazkur hadislardan tarbiyaning o‘chog’i bo‘lgan bevosita ta’lim beruvchi muassasalar (oila maktabi, maktabgacha ta’lim muassasasi, maktablar, lisey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari) milliy g’oya va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda ularni tariximiz va boy ilmiy merosimizdan xabardor qilishda keng foydalanish zarurati bugungi ta’lim-tarbiya ishlari oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa oilalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani zamon ehtiyojlari darajasida yo‘lga qo‘yish hayotiy zaruratga aylanib qoldi.

Zotan, o‘zbek oilasi, o‘zbek xonadoni odobi, tartib qoidasi ana shu benazir qadriyatlar asosida shakllangan, oila nomusi, oila sha’ni, ota-onalik va farzandlik burchi va mas’uliyati singari tushunchalar azaldan qaror topib kelgan. Shu bois biz ajdodlarimiz qadriyatlariga tayanib, oila muqaddasligini, butunligini saqlash, farzandlarimizni yurtparvar, yuksak e’tiqodli, odob axloqli va barkamol etib tarbiyalashga intilishimiz zarur bo‘ladi.

Shundan kelib chiqqan holda milliy tariximiz va ilm-fan taraqqiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan allomalarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini har tomonlama tahlil qilib, ulardagi insoniy fazilatlar, odob-axloq, fidoyilik, bag’rikenglik g’oyalarini yoshlar ta’lim-tarbiyasida tadbiq etib borish muhim vazifalardan etib belgilangan.

---

[5] Алимов У. Ёшлар келажагимиз.Т.: Мовароуннаҳр. 2008. –Б.11.

[6] Абдулҳамид Кеший. Мунтахаб мин муснади Абд. Риёз. Дору-л-баласия, 2009. Ҳ – 500.

[7] Мазкур асар. Ҳ – 586.

[8] Мазкур асар. Ҳ – 589.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI UZVIYLIGINI TA’MINLASHDA INNOVATSION BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

O‘zbekiston, NavDPI Magistratura bo‘limi boshlig‘i
professor, i.f.d. Murodova Nodira Qulliyevna
tayanch doktorant Yo‘ldosheva Gulhayyo Valiqulovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining ta’lim tizimi uzviyligini ta’minlashda innovatsion boshqarishni rivojlantirish masalasining muhimligi, ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ta’lim uzviyligi, innovatsion boshqarish, inson resursi, rahbar kompetentligi, intellektual rivojlantirish

Аннотация: В данной статье говорится о важности развития инновационного менеджмента в обеспечении целостности образовательной системы руководителей дошкольной образовательной организации, его значении в обеспечении эффективности образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, образовательная целостность, инновационный менеджмент, человеческие ресурсы, лидерская компетентность, интеллектуальное развитие.

Abstract: This article talks about the importance of the development of innovative management in ensuring the integrity of the educational system of the heads of the preschool educational organization, its importance in ensuring the effectiveness of education.

Key words: preschool education, educational integrity, innovative management, human resources, leadership competence, intellectual development

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida fan, ta’lim, ishlab chiqarishda inson omilidan samarali foydalanish muammolarini hal etishga kompleks yondashuvni ta’minlovchi iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida, jumladan, ta’lim sohasida inson resurslarini boshqarish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur holat inson resurslarini boshqarish borasida zamonaviy konsepsiyalardan foydalana oladigan, inson resurslarini kelajak uchun rejalashtirish va mehnat resurslari bozorini rivojlantirish tendensiyalarini maktabgacha ta’lim bosqichidanoq aniqlay oladigan va tahlil qiladigan, aynan mazkur tizimda inson resurslarining o‘rni va ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etib qarorlar qabul qilish malakasiga ega kadrlarni tayyorlash zarurati dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida demokratik qadriyatlarni rivojlantirish yo‘lida inson resursi iqtisodiy va siyosiy hayotning faol subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bunday talab o‘z navbatida, yosh avlodni butun hayoti davomida o‘rganish va ta’lim olish qobiliyati bilan qurollantirish zarurligini ko‘rsatadi. Uzluksiz ta’lim ijodiy, ijtimoiy faol hamda ma’naviy boy shaxsni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta’limning yagona tizimida esa maktabga tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, ilmiy tadqiqotlar natijalari, inson o‘z umri davomida o‘zlashtiradigan barcha axborot va ma’lumotlarning qariyb 70 foizini 5 yosh bo‘lgan davrda egallashini tasdiqladi. Mazkur omil uzluksiz ta’limning yagona tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida maktabgacha ta’limning ahamiyatini belgilaydi. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o‘z ona tilini o‘zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga bo‘lgan mehri uyg‘onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo, oila asosiy rol o‘ynasa, maktabgacha ta’lim tashkilotning hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas bo‘lagiga aylangan [1].

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida ko‘pgina islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning barchasi tarbiyalanuvchilar va tarbiyachi - pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi va

maktabgacha ta’lim sifatini tubdan yaxshilashga qaratilayotganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Maktabgacha ta’limni ham an’anaviy, ham butkul yangi shakllarda rivojlantirish davlatning asosiy ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Biroq, O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichi boshlanmasidan avval maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratilmadi. 2017 yilga kelib vaziyat butunlay boshqa tomonga o‘zgardi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi [3] Qaroriga muvofiq maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi bog‘chalarni qurish uchun 2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish Dasturi hamda 2030-yilga qadar maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 80,8 foizga yetkazish maqsad qilingan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi [6].

Bundan tashqari, alohida rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, nodavlat ta’lim muassasalari, jumladan nodavlat bog‘chalar tarmog‘ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida va muassasalar rahbarlari boshqaruvida ham sog‘lom raqobat yuzaga keldi.

Ta’lim tizimining globallashuv jarayonida asosiy e’tibor innovatsion boshqaruv haqida so‘z ketar ekan, rahbarning ta’lim muassasasi oldidagi burchi bu uning o‘zi boshqarayotgan tashkilotning rivojlanishida, uning kreativligida, yangilik yaratishga qodirligida, ta’lim samaradorligini oshishida va faoliyat yuritayotgan xodimlar muvaffaqiyatlarini ta’minlash jarayoniga innovatsiyalarning ta’sirini erta anglay bilishi va shu asnoda oqilona qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi. Bir so‘z bilan aytganda, “Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak”[4].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarida tizimni innovatsion boshqaruvni rivojlantirish zarurati yuzaga kelar ekan, boshqaruvning quyidagi eng muhim tamoyillarini tatbiq etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, jumladan:

- maktabgacha ta’limni rivojlantirishda strategik rejalashtirish;
- tizimda maqsad va vazifalarni aniq belgilash;
- boshqaruvda to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilish;
- muntazam ravishda tizimli tahlil olib borish;
-korporativ boshqaruvni singdirish;
- taym-menejmentdan samarali foydalanish;
- kadrlarni boshqarishda prioritetlarni to‘g‘ri tanlash;
- yuksak boshqaruvchilik madaniyatiga ega bo‘lishi;
- moliyaviy resurslarni to‘g‘ri taqsimlay olishi;
- mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlash, umumiy strategik manfaatlar yo‘lida harakat qiluvchi kuchli jamoani shakllantira olishi;
- boshqaruvga zamonaviy uslublarni, innovatsiyalarni tatbiq etish;
- har bir xodimning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga innovatsion muhitni yaratishi;
-maktabgacha ta’limning kadrlar professionalizmi va kompetentligini rivojlantirishi;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti imidjini oshira olishi;
- boshqalarga ta’sir ko‘rsata olishida siyosiy iroda, ijtimoiy intellekt, ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallagan darajasining yuqoriligi;
- pedagog, uslubchi va tarbiyachi faoliyatini KPI (samaradorlikning bazaviy ko‘rsatkichlari) asosida baholay olishi shart.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishda va ta’lim uzviyligini ta’minlashda ularni intellektual rivojlantirish maqsadi muassasani boshqarishning ustuvor vazifasiga aylanishi zarur. Uzluksiz ta’limning yakunida esa mazkur talablarga javob bera oladigan, sifatli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish imkoniyati vujudga keladi. Buning uchun maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab bolalarni ijtimoiylashtirish, maktab bilan uzviy

aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimini tashkil etishni boshqarish talab etilmoqda.

Ilmiy tahlillar maktabgacha ta’lim tizimi uzviyligini ta’minlash innovatsion boshqarishning xususiyatlariga qaratilar ekan shu o‘rinda ulug‘ sohibqiron, markazlashgan davlat asoschisi, taktik va strategik bilimlar sohibi Amir Temurning boshqaruvga oid fikrlarini keltirish joiz deb hisoblaymiz: “Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim, adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim. Men sifatlarimning eng avvalgisi deb beg‘arazlikni tushundim. Hammaga bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymadim. Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonlariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim” [2].

Boshqaruv borasida tarixda alohida iz qoldirgan sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvi xususiyatlarini ayni bugungi, zamonaviy ta’lim muassasalarni boshqaruv jarayoni bilan taqqoslar ekanmiz demak, rahbar: liderlik qobiliyatiga ega bo‘lishi, o‘zini boshqarish, self-menejmentni va konflikt-menejmentni ya’ni, nizolarni boshqarishni chuqur o‘zlashtirishi, xodimlarni va tarbiyalanuvchilarni insonlarni tinglay olishi, tizimli fikrlash va muloqot kompetensiyalariga ega bo‘lishi, innovatsion g‘oyalar generatsiyasi va boshqaruv maqsadini to‘g‘ri shakllantira olishi, mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlay olishi, mas’uliyatni zimmasiga ola bilishi va yuksak ma’naviy-axloqiy bilimlarga ega bo‘lishi yangi ta’lim tizimining talabi ekanligini anglaymiz [5].

Tadqiqotchi olimlar fikri bilan aytganda zamonaviy rahbar: o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishning ichki zaxirasi sifatida o‘zini o‘zi bilishi, o‘zini o‘zi boshqarishi va rahbarning o‘z aqliy resurslarini rivojlantirishi va ulardan foydalanishi, ichki holatini o‘zgartirish orqali boshqaruvchilik faoliyatida kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi, muammolarni yechish yo‘lida kuchli irodali munosabatni shakllantirishi zarur [3].

Tahlillarimiz xulosasi shundaki, zamonaviy rahbarning innovatsion boshqaruv xususiyatlarining rivojlanishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining o‘zini ustida ishlashi, kasbiy va shaxsiy sifatlarini uyg‘un rivojlantirishi, boshqaruvga innovatsion yondashuv zaruriyatini anglashi, to‘g‘ri qaror qabul qabul qilishi, menejmentga ularni tatbiq etishi boshqaruvda ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishi bilan birga maktabgacha ta’lim tizimi uzviyligini ta’minlashda muhim asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akmalova M.Z. Maktabgacha ta’lim tizimi –davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida.//Kiber kursach. 2021. №2.

2. Axmedov B. “Temur tuzuklari”. Forschadan A. Soguniy va H.Karomatov tarj; B.Ahmedov tahrir. ostida. T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. -144 b.

3. Зеер Е.Ф. Психология профиссии – 2-е изд., – М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – С. 53.

4. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” T.:“O‘zbekiston” – 2017. 20-bet.

5. Сиренова А.А. Менеджмент: Учебно-методическое пособие – Улан-Уде:

6.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ 4312-son.08.05.2019 yil

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Узбекистан, кафедра Психологии ТерГПИ,
к.пс.н., и.о.профессор
Нарбашева Мехри Ачиловна

Аннотация. В статье говорится о некоторых проблемах, возникающих в процессе современного дошкольного образования. Освещен вопрос правильного взаимодействия родителей и педагогов в ДОУ.

Ключевые слова: дошкольник, общение, сюжетно-ролевая игра, проблемы обучения, взаимодействия родителей и педагогов

Annotation. The article talks about some of the problems that arise in the process of modern preschool education. The issue of proper interaction between parents and teachers in preschool educational institutions is covered.

Key words: preschooler, communication, role-playing game, learning problems, interaction between parents and teachers.

Несомненно система современного дошкольного образования очень важна и актуальна. В настоящее время есть и проблемы современного образования. Хочется отметить, что именно в дошкольном возрасте у ребенка закладываются все основные особенности личности и определяется качество дальнейшего его физического и психического развития. Если проигнорировать особенности развития ребенка в этом возрасте, то это может неблагополучно сказаться на его дальнейшей жизни.

Обратим внимание на общение ребенка. Общение - большая проблема. К общению необходимо отнести - умение слышать и слушать, умения входить в контакт со сверстниками и взрослыми, умение выражать свои мысли, понимать речь. Но полноценное общение невозможно без коммуникативных умений, которые необходимо развивать с самого детства в процессе сюжетно-ролевой игры. Но не смотря на все плюсы сюжетно-ролевой игры не все воспитатели уделяют должное время этому виду деятельности. И часто бывает, что воспитатель проводит сюжетно-ролевую игру только по просьбе детей. Так же хочется рассмотреть тему — семья. На сегодняшний день большое количество неполных семей, где воспитываются дети. Отсюда и вытекают ситуации. Когда родителю некогда заниматься своим ребенком, он отдан на произвол судьбы. Большинство современных родителей не желают сотрудничать с дошкольное образовательное учреждение ссылаясь на занятость. И таких проблем в современном образовании можно перечислить очень много, такие как проблемы развития произвольной памяти, проблемы обучения непосредственно образовательная деятельность. И все упирается на методики. Необходимы внедрение новых технологий и методик. Хочу перейти непосредственно к самому современному образованию. Перечисляя проблемы образования, хочется выяснить, каким же все-таки должно быть современное образование. Мы предлагаем рассмотреть несколько совершенно разных линий современного образования.

Первая — воспитатель и взрослые самостоятельно строят работу с детьми. Ребенок до школы впитывает в себя информацию как «губка», ребенок часто активен в познании нового, и заинтересован новым. Отсюда появляется у взрослых желание воспользоваться этим периодом и немного сместить время, когда ребенок пойдет в школу, на год или на пару лет. И эти случаи двояки. В первом случае взрослый хочет оставить ребенка в детском саду на большее количество времени. Во втором же случае родитель настаивает на том, что ребенку необходимо раньше пойти в школу, обращая внимание лишь на его физиологическую готовность к школе и совсем забывая о психологической готовности к школе. Это показывает то, что практика раннего обучения детей знание, умение и навыков может привести к исчезновению учебной мотивации. И часто может быть, что ребенок дважды

изучает программу первого класса.Отсюда можно сделать вывод, что результатом вышесказанного является замедление цели раннего образования. Принеся за собой отрицательные эффекты, такие как например- потеря детьми интереса к учебе, возникают проблемы с преемственность в системе образования между ДОУ и начальной школой. Хотелось бы добавить, что наличие знаний ребенка не определяет успешность обучения, намного важнее, чтобы ребенок самостоятельно их добывал и применял.

Вторая- образование строится на интересах самого ребенка и интересах его семьи, т. е. его законных представителей. Личностно-ориентированный подход нацелен на развивающий тип образования. Она учитывает возрастные и индивидуальные особенности, ориентируется на интересы каждого ребенка. Но хочется отметить, что далеко не каждый воспитатель может увидеть эту грань в развивающем образовании. И не для каждого ребенка можно реализовать цели развивающего образования из-за некоторых причин. Можно заметить, что такой образования носит как развивающий эффект, так и развитие или продвижение. Воспитатель должен ставить перед собой цель — обеспечения развития с помощью этих знаний и умений. Если ребенок активный и любознательный, можно предположить, что идет процесс развития. И так, подведя итоги вышесказанного, хочется сказать, что проблемы в образовании а в частности в современном образовании есть, и они очевидны. Без общения невозможно развить коммуникативную сторону личности ребенка, что далее может следовать неблагоприятному социогенезу. Без сотрудничества родителей с ДОУ невозможно полноценное развитие ребенка. Необходимо влиять на родителей таким образом, чтобы они старались быть с ребенком на протяжении всего дошкольного возраста, помогали ему. А что касается нескольких линий образования, хочется добавить, что они совершенно противоположные, но часто встречающиеся. Конечно более эффективное обучение — то, которое происходит в личностно-ориентированном стиле, но все зависит от воспитателя, от его целей, что воспитатель принимает на первый план, что на второй. И именно от взрослых зависит, будут ли решаться проблемы в современном образовании или нет.

Литература

1. Закон Республики Узбекистан “О дошкольном образовании и воспитании” от 16.12.2019г № ЗРУ – 595 https://lex.uz/docs/4646931

2.“Илк қадам” такомиллаштирилган 2-нашри Мактабгача таълим ташкилотлари учун Давлат ўқув дастури. Тошкент, 2022 98б

3. Норбошева М.О. Ота-онанинг педагогик-психологик саводхонлигининг болани мактабга тайёрлашга таъсири. Замонавий таълим журнали, 2019 6-сон, 57-62б

4. Норбошева М.О. Мактабгача ёшдаги боланинг мулоқот субъекти сифатида ижтимоий-психологик ривожланиш хусусиятлари. Педагогика илмий журнали 2020, 6-сон.

JAMIYATNING STRATEGIK YANGILANISH SHAROITIDA TA’LIM TIZIMINING GLOBALLASHUV O‘ZGARISHI

Filippov Olgerd Aleksandrovich,
“PROFI UNIVERSITY” Navoiy filiali nodavlat oliy ta’lim muassasasi rektori
olgerdphilippow@gmail.com

Annotatsiya: Global integratsiya jarayonlari munosabati bilan hozirgi vaqtda global ta’lim makonida uning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun globallashuv tendensiyalarini hisobga olgan holda ta’limning yangi konsepsiyasi shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlari bozoridagi doimiy o‘zgaruvchan vaziyat bu jarayonga alohida dinamikani beradi. Ta'lim tizimining mavjudligining zamonaviy bosqichi G'arbni passiv idrok etishga, shuningdek, uning globalistik rivojlanishining har doim ham istiqbolli bo‘lmagan bosqichida yoki an'anaviy, tarkibiy va mazmunli eskirgan modellarga to‘liq qaytishga emas, balki o‘zlarining innovatsion ta'lim mahsulotlarini, dasturlarini, atrof-muhitni yaratishga muhtoj zamonaviy ta'lim tashkiloti – bu ko‘p

qirrali ko‘p funktsional ekotizim bo‘lib, uni amalga oshirish jamiyat, mintaqa, uning mavjudligining ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy muhiti va tashqi muammolar majmuasiga bog'liq.

Kalit so‘zlar: globallashuv jarayonlari, integratsiya, raqamli iqtisodiyot, akademik erkinlik, raqamlashtirish.

GLOBALIZATIONAL TRANSFORMATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE CONDITIONS OF STRATEGIC RENOVATION OF SOCIETY

Filippov Olgerd Alexandrovich,
Rector of the non-governmental higher educational institution
“PROFI UNIVERSITY” Navoi branch
olgerdphilippow@gmail.com

Abstract: In connection with global integration processes, a new concept of education is currently being formed, taking into account globalization trends to ensure its competitiveness within the global educational space. At the same time, the constantly changing situation in the educational services market gives special dynamics to this process. The modern stage of the education system's existence does not need a passive perception of Western ones, which are also at different, not always promising, stages of their globalist development, or a complete return to traditional, structurally and meaningfully outdated models, but rather the creation of their own innovative educational products, programs, and environments, taking into account the fact that a modern educational organization – It is a multifaceted multifunctional ecosystem, the implementation of which depends on the needs of society, the region, the socio-cultural and economic environment of its existence and a complex of external challenges.

Key words: globalization processes, integration, digital economy, academic freedom, digitalization.

ГЛОБАЛИЗАЦИОННОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ РЕНОВАЦИИ ОБЩЕСТВА

Филиппов Ольгерд Александрович,
Ректор Навоийского филиала негосударственного
учреждения высшего образования
“PROFI UNIVERSITY”
olgerdphilippow@gmail.com

Аннотация: В связи с общемировыми интеграционными процессами в настоящее время идет формирование новой концепции образования с учетом тенденций глобализации для обеспечения его конкурентоспособности в рамках мирового образовательного пространства. При этом постоянная меняющаяся ситуация на рынке образовательных услуг придает особую динамику этому процессу. Современный этап существования системы образования нуждается не в пассивном восприятии западных, также находящихся на разной, не всегда перспективной, стадии своего глобалистического развития, или полном возвращении к традиционным, структурно и содержательно устаревшим, моделям, а в создании собственных инновационных образовательных продуктов, программ, среды, с учетом того факта, что современная образовательная организация – это многогранная мультифункциональная экосистема, реализация которой зависит от потребностей общества, региона, социокультурной и экономической среды своего существования и комплекса внешних вызовов.

Ключевые слова: глобализационные процессы, интеграция, цифровая экономика, академическия свобода, цифровизация

В связи с общемировыми интеграционными процессами в настоящее время идет формирование новой концепции образования с учетом тенденций глобализации для обеспечения его конкурентоспособности в рамках мирового образовательного пространства. При этом постоянная меняющаяся ситуация на рынке образовательных услуг придает особую динамику этому процессу. Для постсоветского пространства характерно выстраивание реформ на основе модели тех западных держав, которые считаются более развитыми, при этом перенимались не только экономические, но и политические, социальные, культурные принципы, при этом реформы часто воспринимались как прямое калькирование, без серьезного изучения и апробации. Российский исследователь образования, философ М.В. Розин отмечал, что подобные модификационные процессы, опираясь на традиционное и давно потерявшее смысл понимание образования и его форм, стремятся перенять западное потребительское восприятие образования в его культурно-массовом осознании с наличием разнообразных имитаций образованности [1].

Следует признать, что реформирование отечественной системы образования за годы независимости носило и интенсивный, и экстенсивный характер. После утверждения нового Закона «Об образовании» в 1998 году реформирование стало напоминать «догоняющую» модернизацию, активно началось внедрение разнообразных педагогических и других технологий, началось заимствование элементов зарубежных систем без их соотнесения существующей ситуации и имеющейся национальной модели. Это было характерно для многих стран СНГ, так исследуя модификационные процессы образования Российской Федерации в 90-х годах М.В. Богуславский отмечал, что «догоняющая модернизация», или «модернизация с опозданием» является неорганической, вызванной внешними причинами и связана более с имитационными процессами, чем с эволюционным развитием. Такой тип модернизации очень неэффективен особенно в интеллектуальных сферах, социокультурных институтах, так как связан с копированием готовых моделей без изменения, улучшения условий, без осознания и реализации новых целей [2].

Позже, в 2000 годы, особенно после 2016, особенность изменений образования и высшей школы связана с глубинными переменами политического, экономического, социокультурного характера, хотя и продолжается курс, характерный для «догоняющей» модернизации, хотя именно он значительно снижает конкурентоспособность образования на фоне глобализации. При многих негативных влияниях глобализационных процессов следует отметить, что именно благодаря им усиливаются индивидуальные возможности будущего специалиста и условия для его саморазвития, расширяется сфера применения им профессиональных и творческих компетенций, создаются условия для аккумуляции человеческого капитала, появляется возможность повышать конкурентоспособность условий труда и уровня заработка, создаются острова интеллектуальных ресурсов и борьба за их обладание между странами. Концепции модернизации высшей школы должны опираться на эти тенденции и включать в свои дорожные карты.

Как считал вышеупомянутый М.В. Богуславский, эффективная стратегия реформирования образования должна опираться на так называемую «возвратную» модернизацию, то есть ориентируясь на традиционализм национальных моделей образования, при этом не отвергая глобалистических тенденций и не копируя модели других стран, а синтезируя их в национальную модель в ее новой модификационной репрезентации [3].

Это очень разумная стратегия, особенно для нашей страны, которая знала периоды мощного развития научной и духовной сфер в периоды первого и второго Ренессанса. Всемирно известны научные исследования и труды замечательных мыслителей Узбекистана – Мухаммада ал-Хорезми, Абу Насра ал-Фараби, Абу Райхана ал-Беруни, Мирзо Улугбека, Абу Али ибн Сины, Бахоуддина Накшбанди, Жалолиддина Кубро, Захириддина Мухаммада Бобура, Алишера Навои и многих других. Они не только получили образование в медресе, которое по сути своей, структуре и содержанию образовательных программ могут быть соотнесены с первыми университетами Западной Европы, но и сами внесли большой вклад в

развитие и преподавание фундаментальных наук в них [4]. Здесь же имеет смысл упомянуть и мощный образовательный потенциал, привнесенный в развитие образования нашей страны джадидами.

Современный этап существования системы образования нуждается не в пассивном восприятии западных, также находящихся на разной, не всегда перспективной, стадии своего глобалистического развития, или полном возвращении к традиционным, структурно и содержательно устаревшим, моделям, а в создании собственных инновационных образовательных продуктов, программ, среды, с учетом того факта, что современная образовательная организация – это многогранная мультифункциональная экосистема, реализация которой зависит от потребностей общества, региона, социокультурной и экономической среды своего существования и комплекса внешних вызовов. Глобальная «знаниевая» экономика подразумевает формирование такой образовательной среды, которая будет создавать уникальные образовательные услуги и продукты, имеющие возможность конкурировать на образовательном рынке на правах монополии [5].

Таким образом, становится очевидным, что устойчивое развитие государства, планомерное вхождение в глобальную цифровую экономику, рост благосостояния населения возможен только при грамотном, концептуально обоснованном реформировании системы высшего образования, учитывающим все позитивные и негативные последствия цифровизации и прагматизации знания, используя на основе широких научных исследований лучшие модели зарубежного опыта соответствующие национальным ценностям и ментальности нашего народа, а также позволяющем в конечном итоге получить не просто человеческий ресурс на конкурентном рынке труда, а высококвалифицированного специалиста, способного к адаптации в перманентно меняющихся условиях, способного к самосовершенствованию и обладающего критическим мышлением, действующего на основе глубоко осознанных духовно-нравственных ценностей.

Литература:

1. Розин В.М. Философия образования: этюды-исследования. М.: Изд-во Моск. психолого-социальн. ин-та; Воронеж: Изд-во НПО «МОДЭК», 2007. С. 21.
2. Богуславский М.В. Методология, содержание и технологии образования (историко-педагогический контекст): монография. М.: Научная книга, 2007. С. 93-95.
3. Богуславский М.В. Современная стратегия модернизации отечественного образования: историко-педагогический контекст // Известия ВГПУ. 2014. № 6 (91). С. 43-47.
4. Халмуратов Р.И. Исторические корни высшего образования Узбекистана/ СФЕРА КУЛЬТУРЫ 2/2020с.135
5. Богуславский М.В., Неборский Е.В. Концепция развития системы Высшего образования в России // Интернет-журнал «Мир науки» 2016, Том 4, номер 5 http://mir-nauki.com/PDF/07PDMN516.pdf

ZAMONAVIY SHAROITLARDA INSONIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHI VA UNING GENOFONDINI SAQLASH MUAMMOLARI

O‘zbekiston, NDPI Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim fakulteti dekani, dots. Shamsidinova G.D.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini olib borishda o‘quvchilarda fiziologik tushunchalarni shakllantirish, biologik ta’limning olib borilish jarayonlari, muammolari, uzluksiz ta’lim turlarida tabaqashtirilgan yondashuv, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ehtiyojiga yarasha bilim berish va kasbga yo‘llash, umumiy ta’limni ixtisoslashtirish va insoniyatni sog’lom genofondini asrash masalalari asosiy o‘rin tutadi.

Аннотация: The article focuses on the formation of physiological concepts in students when conducting the educational process in modern educational institutions, processes and problems of conducting biological education, a differentiated approach in the types of lifelong education,

support for gifted children, training and vocational guidance in accordance with their needs, specialization of general education and preservation of a healthy gene pool of humanity.

Annotation: In conducting the educational process in modern educational institutions, the main place in the article is the formation of physiological concepts in students, the processes of carrying out biological education, problems, a differentiated approach in the types of continuing education, the support of gifted children, the provision of knowledge and guidance to the profession, the specialization of general education and the preservation of a healthy.

Kalit so‘zlar: Mamlakatning barqaror taraqqiyoti, ekologik muammolar, inson genofondining buzilishi, mutatsion o‘zgarish, irsiy kasalliklarning paydo bo‘lishi, irsiyat va o‘zgaruvchanlik, "o‘sish chegaralari".

Ключевые слова: Устойчивое развитие страны, экологические проблемы, нарушение генофонда человека, мутационное изменение, возникновение наследственных заболеваний, наследственность и изменчивость, "пороги роста".

Keywords: Sustainable development of the country, environmental problems, violation of human gene pool, mutational change, the emergence of hereditary diseases, heredity and variability, "growth limits".

Ilmiy-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanib, mamlakat iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan davlatlar bilan hamkorlik qilayotgan bugungi globallashuv jarayonlarida O‘zbekiston Respublikasida “2024 – Yoshlar va biznesni qo‘llab- quvvatlash yili” Davlat dasturida ko‘zda tutilganidek, ta’lim tizimiga oid me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi, ularning mamlakat istiqbolidagi o‘rni, iqtisodiy ahamiyati, ta’lim resurslaridan foydalanish va ularni amaliyotga joriy qilish, mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun mavjud intellektual salohiyatni samarali ishga solish, ta’lim sohasi mutaxassislarining o‘z sohasiga ongli yondashuvini shakllantirish, ularning shaxsiy mas’uliyat va tahabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish hamda ta’lim sohasiga oid strategik davlat dasturlarini qabul qilish va unga rioya etish juda katta ahamiyatga egadir.

Zamonaviy sharoitlarda atrof- muhitning global darajada ifloslanishi hamda turli ekologik muammolarning kelib chiqishi natijasida inson genofondini bo‘zilib ketayotganligi va mazkur jarayonlarni oldini olish jamiyat oldida turgan eng asosiy muammolardan biridir. Sog’lom genofondni saqlash muammolari, insoniyat oldida turgan nihoyatda muhim vazifalardan bo‘lib, ularni hal etishda barcha birdek mas’uldir. Odamlardagi iste’dod, qobiliyat, aql-idrok nasldan naslga beriluvchi belgilar qatoriga kirib, odamlar irsiyatini baholash va uning kelajagini oldindan rejalashtirib, sog’lom avlodlar dunyoga kelishini nazorat qilish lozimdir. Hozirgi vaqtda insoniyat genomi to‘liq o‘rganilib, ta’lim tizimi oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardir:

- Inson tanasida ruy beradigan mutatsion o‘zgarish jarayonlarini o‘rganish;
- Genlarda yangi nuqsonlar paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Inson umrini uzaytirishning genetik va mutatsion yo‘llarini kashf qilish;
- Gen injenerligini rivojlantirishning eng maqbul, zamonaviy yo‘llarini izlab topish;
- Irsiy kasalliklarning paydo bo‘lish sabablari, ularning avloddan –avlodga berilish qonuniyatlarini aniqlash va mazkur holatlarni oldini olish va hokozolar.

Gen injenerligi rivojlanishi bilan transgen o‘simliklar va hayvonlar hosil qilinib, ularning mahsuldorligini ko‘paytirish har qanday jamiyatning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy tibbiyot tizimida tibbiy muammolarni hal etishda odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanlarining o‘rni ahamiyatli bo‘lib, yer yuzidagi tug’ilgan bolalarning 4-5 % ida turli irsiy kasalliklar: asab, endokrin, qon, moddalar almashinuvi bilan bog’liq boshqa kasalliklar uchraydi. Odam va hayvonlarlarning irsiy kasalliklari alohida genlarning va xromosomalarning o‘zgarishi bilan aloqadordir. Odamning normal rivojlanishi 46 xromosoma bo‘lganda amalga oshib, xromosomaning yetishmasligi yoki ortiqchaligi turli irsiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Irsiyat va o‘zgaruvchanlik jarayonlari qarama qarshi xossa bo‘lishiga qaramasdan, organizmlar taraqqiyotida bir vaqtda namoyon bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyotida irsiyatsiz o‘zgaruvchanlik, o‘zgaruvchanliksiz irsiyat kuzatilmaydi. Irsiyat va o‘zgaruvchanlik hodisalarisiz yer yuzida hayot evolyutsiyasi sodir etilmasligini inobatga olib, irsiyat o‘simlik va hayvonlarning har bir turining o‘ziga xos belgi va xossalarni bir qancha avlodlarda turg’un saqlanib qolishini

ta’minlaydi. Irsiyat orqali organizmlar o‘zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga moslashib, yashab qoladi. O‘zgaruvchanlik tufayli paydo bo‘lgan belgi-xossalar irsiyat orqali keyingi avlodlarda saqlanib qolgandagina ya’ni irsiylangandagina evolyutsiyada o‘rin tutishi mumkin. Organizmning belgi va xususiyatlarining o‘zgarishi bir yoki bir necha genlarning ta’siri oqibatida ro‘y berib, bu mutatsion, organizmlarning individual rivojlanish jarayonida morfologik, fiziologik, biokimyoviy va boshqa xususiyatlarining qonuniyatli o‘zgarishi esa ontogenetik o‘zgaruvchanlik deb atalib, mazkur jarayonlar fanlar taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa egadir.

Modifikatsion o‘zgaruvchanlik esa – tashqi muhit omillari ta’sirida genotipni o‘zgarishsiz kechadigan organizmlar fenotipining o‘zgarishi, irsiylanish esa jinsiy ko‘payishda gametalar yoki jinssiz ko‘payishda somatik hujayralar orqali irsiy axborotning o‘tkazilish jarayonidir. Irsiy omillarning yig’indisi - genotipni organizm urug’lanishda ota-onasidan olib, organizmlarning genotipi uning moslanish imkoniyatlari va tashqi omillarga javob reaksiya meyyoriyini belgilab beradi. Organizm barcha belgilarining yig’indisi genotipda kodlashtirilgan irsiy axborot va uning amalga oshish darajasiga bog’liq bo‘ladi. Genotip yoki rivojlanish jarayoni amalga oshishining buzilishi turli anomaliyalarga olib keladi.

Barqaror rivojlanish jarayoni— hozirgi avlodlar hayotiy ehtiyojlarini kelgusi avlodlar ehtiyojlarini qondirishga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanish bo‘lib, mazmun bo‘yicha ekologik rivojlanish tushunchasiga juda yaqindir. 1968-yili 10 ta davlatdan 30 kishidan iborat fan, madaniyat, maorif, biznes vakillari "Rim klubi" deb nomlangan nodavlat tashkilotni tuzib, klub a’zolari insoniyatning hozirgi va kelajakdagi murakkab ahvolini muhokama qilish va inqirozdan chiqish yo‘llarini o‘rganishni asosiy maqsad deb belgiladilar. 1972-yil 13-martda "Rim klubi" uchun tayyorlangan "O‘sish chegaralari" ma’ruzasi e’lon qilinib, unda yer sayyorasining kelgusi ekologik holatini bashorat qilish bo‘yicha global model tahlil qilingan. Modelda sayyorada o‘sishni va uning chegarasini belgilaydigan 5 asosiy omil asos qilib olingan. Bular quyidagilardir:

1. Aholi sonining oshib borishi;
2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining takomillashuvi;
3. Tabiiy resurslarning mavjudligi va ularning musaffolik holati;
4. Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi;
5. Atrof- muhitning ifloslanishi va uni oldini olish.

1972-yil 5-iyunda Stokgolmda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning atrof muhit bo‘yicha birinchi umumjahon konferensiyasi o‘tkazilib, unda 113 ta davlatning vakillari qatnashdilar. Konferensiyada ko‘tarilgan ekologik rivojlanishning asosiy talablari, unda qabul qilingan 26 tamoyillardan iborat "Stokgolm deklaratsiyasi"da keltirilgandir. Mazkur tamoyillardan birida “Har bir inson o‘zi uchun qulay bo‘lgan atrof muhit sharoitida yashash huquqiga ega va taraqqiyotga erishadigan darajada bo‘lishi lozim" deb ta’kidlangan edi. Konferensiyada qabul qilingan "Tadbirlar rejasi" 109 banddan iborat bo‘lib, bular jamiyatda ekologik barqarorlikni shakllantirishga qaratilgandir.

Stokgolm konferensiyasidan keyin jahon hamjamiyati ekologik yo‘naltirilgan taraqqiyotga erishish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashlab, 1975-yili aholi soni 4 milliard, 1987-yili 5 milliarddan oshdi. Dunyoning turli chekkalaridagi ekologik inqiroz vaziyatlari chuqurlashdi: Orol dengizining qurishi, Shimoliy Afrika mamlakatlaridagi qurg‘oqchilik, okeanlarning neft mahsulotlari bilan ifloslanishi, ozon tuynuklarining paydo bo‘lishi va kengayib borishi muammolarining chegara bilmasligi, mintaqaviy va global oqibatlari bilan namoyon bo‘la boshladi.

1992-yilning 3-4-iyun kunlarida Braziliyaning Rio-de Janeyro shahrida BMTning atrof muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi bo‘lib, unda 179 davlatlarning rahbarlari, hukumat vakillari, ekspertlar, nodavlat tashkilotlar, ilmiy va ishbilarmon doiralarning vakillari qatnashdilar. Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining GFR yoki AQSh aholisi hayot darajasiga yetishishlari uchun yana bir yer sayyorasi resurslarini o‘zlashtirish lozim bo‘ladi. Yer esa koinotda yagona bo‘lib, tabiat va jamiyatning mutanosib rivojlanishi - koevolyutsiya deb yuritiladi. Jamiyatning rivojlanish sur’atlari juda yuqori, tabiat evolyutsiyasi tezligi esa o‘zgarmay, koevolyutsiya jarayoniga erishish uchun jamiyat o‘zining ayrim ehtiyojlaridan voz kecha olishi lozimdir.

XXI - asrda jamiyatning atrof-muhitga ta’sir sur’ati yuqoriligicha qolib, tabiatda turli ko‘rinishdagi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning barqaror rivojlanish yo‘lidagi sa‘yi-harakatlari ijobiy natijalarini bermoqda. Rivojlangan davlatlarda ekologik inqirozlarning oldini olish tadbirlariga yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning 1,5- 2,5% ulushi sarflanishi lozim. Atrof-muhit muhofazasi ancha ayanchli holga tushib qolgan mamlakatlarda esa, bu ko‘rsatgich 4-5% dan kam bo‘lmasligi kerakligi ta’kidlanadi. Jamiyatda ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, mazkur jarayonda jamoatchilik rolini oshirish, ishlab chiqarishga ekologik texnologiyalarni joriy qilish barqaror rivojlanish jarayonlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda tabiat va inson hayotining ekologik xavf ostida qolish jarayonlari yanada murakkablashib bormoqda. Atrof-muhit bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqalar muvozanatining buzilishi, tabiiy holatga putur yetkazmoqda. Yer yuzi tabiatning barqarorligi, turg‘unligi va uning o‘ziga xos qonunlarini insoniyat tomonidan buzilishining asosiy sabablaridan biri, kishilarning atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarining yetishmasligi hamda tabiatning kelajakdagi ekologik holatini ko‘ra bilmasliklaridir. O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunda barcha ta’lim muassalarida ekologik ta’lim majburiy deb belgilangan. Umumta’lim maktablari, akademik litseylar va maxsus ta’lim muassasalarida ekologiya bo‘yicha alohida fanlarning o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur jarayonlar barqaror rivojlanish uchun ta’limning asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.O‘z.R.Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiysidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha risola.T.”Ma’naviyat”2017 y.183 b.

2.BMT Asosiy omillar.Toshkent,2001 yil.

3.BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha strategiyasi.-T., 2007.

4. Rajamuradov Z.T., “Odam va hayvonlar fiziologiyasi”, Tib.kitob,T, 2010 yil.

MAKTAB O‘QUVCHILARI XULQIDAGI MEYORDAN OG‘ISHLAR ILMIY TADQIQOTLAR TALQINI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi dotsenti,
p.f.n. Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich
“Profi” xususiy universiteti Navoiy filiali o‘qituvchisi
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Annotatsiya: Maqola o‘rta umumta’lim maktablari o‘quvchilarining xulq-atvorlaridagi og‘ishlar, ularni kelib chiqish sabablari va namoyon bo‘lish xususiyatlaritadqiq etilgan ilmiy ishlar tahlili va og‘ish turlarining talqiniga bag‘ishlangan. O‘quvchilar xulqidagi og‘ish turlarining talqini og‘ishlarni tasniflashga yangicha yondashish, og‘ishlarning tabiatini, ularning nafaqat salbiy, balki ijobiy mohiyatga ega bo‘lishi mumkinligini va bunday toifaga mansub bo‘lgan bolalar bilan amalga oshiriladigan profilaktik hamda korreksiyalash faoliyatlar mazmunini belgilashda muhim axamiyat kasb etishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, xulq-atvor, og‘ish, salbiy og‘ish, ijobiy og‘ish, rivojlanish, shaxsiy va xarakterologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy passivlik, profilaktika, korreksiya.

Аннотация: Статя посвящена анализу научных исследований отклонений в поведении учащихся средних общеобразовательных школ, их причин и проявлений, а также трактовке видов отклонений. Трактовка типов отклонений в поведении учащихся представляет собой новый подход к классификатсии и характеру отклонений, их возможности имет не толко отритсателный, но и положителный характер. Подчеркнуто значение определения содержания характера отклонений в организатсии и эффективности профилактических и коррексионных мероприятий проводимых с детми, относящихся к данной категории.

Ключевые слова: учащийся, поведение, девиатсия, негативные девиатсии, позитивные девиатсии, развитие, личностно-характеристические особенности, сотсиалная среда, сотсиалная пассивност, профилактика, коррексияю

Abstract: The article is devoted to the analysis of scientific research on deviations in the behavior of students in secondary schools, their causes and manifestations, as well as the interpretation of types of deviations. The interpretation of the types of deviations in student behavior represents a new approach to the classification and nature of deviations, their ability to have not only a negative, but also a positive character. The importance of determining the content of the nature of deviations in the organization and the effectiveness of preventive and corrective measures carried out with children belonging to this category is emphasized.

Key words: school student, behavior, deviation, negative deviations, positive deviations, development, personal characteristics, social environment, social passivity, prevention, correction.

Mamlakatimizda yoshlarga oid qabul qilingan qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta’minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo‘qotgan, ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab- quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish hamda yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish masalalariga alohida urg‘u berilganю

Ma’lumki inson xulq-atvori, shu jumladan xulqdagi og‘ish masalasi "me’yoriy xulq” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Me’yorning bir qator mezonlari mavjud. “Me’yoriy xulq” deganda, odatda, ijtimoiy muhitning aksariyat sub’ektlariga xos bo‘lgan me’yoriy tasdiqlangan xatti-harakatlar, jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga muvofiq keladigan xulq-atvor tushuniladi.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv shaxs xulq-atvorini jamiyatga integratsiyalashuvida, ijtimoiy muhitga adaptatsiya jarayonida o‘z aksini topadi. Shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olib tarbiyaviy tadbirlarni tashkillashtirish esa ushbu jarayon samaradorligingi sezilarli darajada oshiradi.

Yuridik pedagogikada muayyan shaxsning xulq-atvorini quyidagi umumiy xususiyatlardan foydalanib tavsiflanadi: motivatsiya (shaxsning ehtiyojlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishga ichki tayyorlik), adaptatsiyaviylik (moslashuvchanlik – ijtimoiy muhitning asosiy talablariga muvofiqligi), muvofiqlik (individual xatti-harakatlarning mosligi, ularni mazkur shaxs uchun tabiiyligi va mutangsibligi), mahsuldorlik (ongli maqsadlarni amalga oshirish), adekvatlik (muayyan vaziyatga muvofiqlik), faollik darajasi (quvvat-energiya, tashabbuskorlik), hissiy ekspressivlik (sodir bo‘ladigan affektlarning kuchi va tabiati), onglilik (o‘z xatti-harakatlarini tushunish, uni tushuntira olish qobiliyati), turg‘unlik (turli vaziyatlarda namoyon bo‘lishdagi turg‘unlik), dinamizm, erkinlik (o‘z-o‘zini nazorat qilish) vamoslashuvchanlik (muhit o‘zgarishiga mos ravishda xulq-atvorning o‘zgarishi). [Yuridicheskaya pedagogika, 2008. –S. 320-322] Ushbu xususiyatlar asosida shaxs xulq-atvoridagi ijtimoiy va pedagogik og‘ishlarni tavsiflashda ham qo‘llash mumkin, deb hisoblaymiz.

Qiyin o‘smir – bu xulq-atvori asotsial yo‘nalishdagi kichik yoshli xuquqbuzar bo‘lishi bilan birga, turli nevrotik simptomlardan aziyat chekayotgan o‘spirin hamdir. Buning oqibatida, ya’ni ushbu guruhlarga aniqlik kiritilmaganligi yoki qat’iy ta’rif berilmaganligi sababli, faqatgina bir holatdan boshqa holatga o‘tish tendensiyasi bayon qilinadi.“Tarbiyalash og‘ir” deganda, o‘smirning pedagogik ga’sirga qarshilik ko‘rsatishi tushuniladi. Tarbiyalash og‘ir, qabul qilingan me’yor va qoidalarga tarbiyalanuvchi tomonidan amal qilinmasligi fanda deviatsiya (og‘ish) xodisasi orqali o‘rganiladi.

Xozirgi kunda xulqdagi salbiy (negativ) og‘ishlarga bezorilik, qo‘pollik, yo‘llarda beparvolik; avtomobil boshqaruvida mas’uliyatsizlik, jinoyat, haqorat qilish, jinsiy zo‘ravonlik, insest, pedofiliya, zoofiliya, nekrofiliya, giyohvandlik, odobsiz xatti-harakatlar, ko‘rgazmachilik, fohishalik, qimor, vandalizm, qotillik, o‘ziga tan jarohati yetkazish, o‘z joniga qasd qilish va boshqalar. Zamonaviy deviantologiyaning asoschilaridan biri – fransiyalik sotsiolog Emil Dyurkgeym “Suicide” (“O‘z hayotiga suiqasd”) nomli klassik asarida “anomiya” tushunchasini kiritgan bo‘lib, ushbu tushuncha “radikal ijtimoiy o‘zgarishlar yoki krizisli davrlarda chalkashliklar va faoliyat yo‘nalishini yo‘qotish holati” ma’nosini anglatib, to‘satdan sodir bo‘ladigan iqtisodiy ko‘tarilish va inqirozlar vaqtida odamlar tomonidan o‘z joniga suiqasd qilish hollarining ko‘payishi bilan tushuntirgan. Dyurkgeymning izdoshi, amerikalik sotsiolog Robert King Merton o‘zining tarkibiy funksionalizm nazariyasi doirasida odam xulq-atvor reaksiyalarining ijtimoiy tasniflaridan birini yaratgan.

“Deviatsiya” tushunchasi “gurux me’yorlaridan og‘ib ketuvchi” deb baholanuvchi xulq-atvor va xatti-harakat ma’nsini anglatib, “ijtimoiy deviatsiya” va “og‘ishgan xulq” tushunchalari kabi shaxsning nisbatan keng tarqalgan va umumqabul qilingan ijtimoiy me’yorlardan og‘ish ma’nosini beradi. Ushbu toifaga kiruvchi o‘smirlarni ko‘p hollarda “xatar guruhi”ga kiruvchi bolalar, “qiyin” bolalar, voyaga yetmagan xuquqbuzarlar, pedagogik og‘ishgan bolalar, ijtimoiy og‘ishgan, tarbiyasi og‘ir bolalar deb nomlanadilar. [Paatova M.E. i dr., 2012]

Xulosa. “Deviant xulq” termini faqatgina 5 yoshdan katta bo‘lgan bolalarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Maktabda xulqi og‘ishgan o‘quvchilar qatoriga shaxsiy yo‘nalishi beqaror bo‘lgan va ijobiy og‘ishgan voyaga yetmaganlarni ham kiritish va ulardagi og‘ishlarning xususiyatlarini o‘rganib profilaktika va korreksiyalash tadbirlarini tashkil etish zarur. Bunday tadbirlar o‘smirlartomonidan tasodifan, bolalarga hos motivatsiya yoki haqiqiy oqibatlarga noto‘g‘ri baho berish natijasida jinoyatlar sodir etilishining oldini oladi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni / https://lex.uz/docs/4312785

2.Akramova G. R., Gulyamov Dj. R., Azimjonova R. R. K вопросу педагогического отклонения в поведении учащихся: сущност, факторы и причины возникновения // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Эl.J: 2023 yil, aprel. -B.155-162.

3.Adler Alfred. Vospitanie detey. Profilaktika polov. SPb., 2000.Belicheva S.A. Osnovы preventivnoy psixologii. M.: Sotsialnoe zdorove Rossii, 1993.–S. 25.

4.Bojovich L.I. Etapы formirovaniya lichnosti v ontogeneze // Voprosы psixologii.1978. № 4. S. 4-15.

5.Gilinskiy Ya.I., Afanasev V.S. Sotsiologiya deviantnogo (otklonyayuщegosya) povedeniya. –S.Pb., 1993.

6.Gromov I. A., Maskevich I. A., Semyonov V. A. Zapadnaya sotsiologiya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. — SPb.: OOO «Izdatelstvo DNK», 2003. — 560 s. — (Klassicheskoe obrazovanie). — ISBN 5-901562-41-0. — S. 532.

7. Xakimova I.M. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.

TURKIYADA MAKTABGACHA TA’LIM DASTURI: ASOSIY TAMOYILLAR, YO‘NALISHLAR VA TALABLAR

Turkiya, Bartin universiteti Filologiya fanlari doktori, professor
Xudaybergenova Zilola Narbaevna

Har qanday jamiyatning tamal toshi bolalarning ta’lim-tarbiyasidan boshlanadi. O‘ta nozik va dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladigan maktabgacha ta’lim sohasida ham xorij tajribalarining o‘rganilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Turkiya tajribasining tadqiqi ham diqqatni jalb etishiga hsak-shubha yo‘q. Turkiya Respublikasida 1900 yilgacha maktabgacha

ta’limga oid umumiy dastur va asosiy tamoyillar tayyorlangan bo‘lsa-da, Turkiye Milliy ta’lim vazirligi tomonidan ilk asosiy dastur 1953 yılda qabul qilingan. Bundan keyin Turkiyaning Maktabgacha ta’lim milliy dasturu 7 marta qayta ishlangan va to‘ldirilgan bo‘lib, en oxirgi varianti 2024 yil fevral oyida tasdiqlandi.

Turkiyada Milliy ta'limning umumiy maqsadini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- turk millatining barcha shaxslarini Otaturk inqilobi va uning tamoyillariga, Konstitutsiyada ifodalangan Otaturk millatchiligiga amal qiladigan; Turk millatining milliy, axloqiy, insoniy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarini qabul qiladigan, himoya qiladigan va rivojlantiradigan; oilasini, vatanini, millatini sevadigan va uni doimo ulug'lashga harakat qiladigan; demokratik, dunyoviy va ijtimoiy huquqiy davlat bo‘lgan Turkiya Respublikasiga nisbatan inson huquqlari va Konstitutsiyaning boshida turgan asosiy tamoyillariga nisbatan o‘z burch va mas’uliyatini biladigan va ularni hayotga tatbiq etgan fuqarolar qilib tarbiyalash;
- jismonan, aqlan, axloqan, ruhan va hissiyoti sog‘lom, erkin va ilmiy tafakkur qudratiga ega, keng dunyoqarashli; inson huquqlarini hurmat qiladigan, shaxs va tashabbusni qadrlaydigan, jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qiladigan; konstruktiv, ijodkor va samarali insonlar qilib tarbiyalash;
- bolalarning qiziqish, iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga zarur bilim, ko‘nikma, xulq-atvor va birgalikda ishlash odatlarini berish orqali hayotga tayyorlash hamda ularni baxtli qiladigan, baxtiga hissa qo‘shadigan kasb-hunar egallashlarini ta’minlash;

Shunday qilib, turk milliy ta’limi, bir tomondan, turk fuqarolari va turk jamiyatining farovonligi ta’minlash, baxtli-saodatli bo‘lish darajasini oshirish; boshqa tomondan, milliy birlik va yaxlitlik doirasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash va tezlashtirish va nihoyat Turk millatini zamonaviy sivilizatsiyaning konstruktiv, yaratuvchi va hurmat-ehtiromga loyiq a’zosiga aylantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari milliy ta'limning umumiy maqsadlari va asosiy tamoyillariga mos keladi;

1. bolalarning jismonan, aqlan va hissiy rivojlanishini, yaxshi odatlarga ega bo‘lishini ta'minlash;
2. ijtimoiy hayotga moslashishlarini qo‘llab-quvvatlash;
3. ularni boshlang'ich maktabga tayyorlash;
4. noqulay muhit va oilalardan kelgan bolalar uchun umumiy tarbiya muhitini yaratish;
5. bolalarning turk tilida to‘g'ri va chiroyli gapirishlarini ta'minlash.

Maktabgacha yoshdagi davr hayotning asosidir. Bu davrda o‘rganish darajasi juda yuqori. Har bir yosh guruhining umumiy rivojlanish xususiyatlari ushbu yosh guruhidagi barcha bolalar uchun umumiydir; Biroq, har bir bolaning o‘ziga xosligini ham unutmaslik kerak.

Turkiyadagi maktabgacha ta'lim ba'zi asosiy tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar quyidagilardir:

1. Maktabgacha ta'lim bolaning ehtiyojlari va individual xususiyatlariga mos kelishi zarur.
2. Maktabgacha ta'lim bolaning motorli, ijtimoiy va hissiy, til va kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi, o‘z-o‘zini parvarish qilish ko‘nikmalarini ta'minlashi va uni boshlang'ich maktabga tayyorlashi darkor.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun demokratik ta'lim uchun mos o‘quv muhiti tayyorlanishi kerak.
4. Faoliyatni tashkil qilishda bolalarning qiziqishlarini va ehtiyojlarini, shuningdek, atrof-muhit va maktab imkoniyatlarini hisobga olish lozim.
5. Ta'lim jarayonida bola o‘zi bilgan narsadan boshlashi va unga sinab ko‘rish orqali o‘rganishiga imkon berishi darkor.
6. Bolalarning sevgi, hurmat, hamkorlik, mas'uliyat, bag'rikenglik, hamkorlik, hamjihatlik va baham ko‘rish kabi his-tuyg'ulari va xatti-harakatlari maktabgacha yoshdagi ta'lim orqali rivojlantirilishi lozim.
7. Ta'lim bolada o‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonchni rivojlantirishga imkon berishi kerak; Bu esa, unga o‘zini o‘zi boshqarishni ta'minlashi uchun zarur.

8. O‘yin bu yoshdagi bolalar uchun eng mos o‘rganish usuli hisoblanadi. Barcha tadbirlar o‘yin asosida tashkil etilishi darkor.

9. Bolalar bilan muloqot qilishda bolalarga ularning shaxsiyatiga zarar yetkazadigan munosabatda bo‘lish, bosim va cheklovlar bo‘lmasligi lozim.

10. Bolalarning mustaqil xatti-harakatlarini rivojlantirishga yordam berish kerak va ularga yordam kerak bo‘lganda, kattalarning yordami, yo‘l-yo‘rig‘i va ishonchli yaqinligi ta'minlanishi kerak.

11. Bolalarni o‘zlarining va boshqalarning his-tuyg'ularini anglashlarini dastaklash zarur.

12. Bolalarning tasavvurini, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini, muloqot va his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini rivojlantirish lozim.

13. Dasturlarni tayyorlashda oila va atrof-muhitning xususiyatlarini hisobga olish darkor.

14. Bola va oilaning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq.

15. Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish xizmati maktabgacha ta'lim jarayonlari bilan uyg'un bo‘lishi kerak.

16. Bolaning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim dasturi muntazam ravishda o‘ranilishi va baholanishi zarur.

17. O‘rganish va baholash natijalari bolalar, o‘qituvchilar va dasturni rivojlantirish uchun samarali ishlatilishi kerak.

Turkiyaning Maktabgacha ta'lim dasturini quyidagicha tavsiflash mumkin**:**

Maktabgacha ta'lim dasturi maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnaydigan bolalarning o‘rganishga boy tajribasi orqali sog'lom rivojlanishini va o‘sishini; motorik, ijtimoiy va hissiy, til va kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish borasida rivojlanishining eng yuqori darajasiga yetishi, o‘z-o‘zini asrash va parvarish qilish ko‘nikmalarini egallashi va boshlang'ich maktabga tayyor bo‘lishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lim dasturi qo‘llab-quvvatlovchi va profilaktika o‘lchovlariga ega bo‘lgan ko‘p qirrali dastur bo‘lib, u bolalar rivojlanishini dastaklash hamda rivojlanishning barcha yo‘nalishlarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan.

Dastur bolalarning rivojlanish darajalari va xususiyatlariga asoslangan va shu ma'noda bolalarni barcha rivojlanish sohalarini mukammaltirishga asoslangan "rivojlantiruvchi" dasturdir. Yondashuv nuqtai nazaridan "spiral" shaklga ega bo‘lgan ushbu dastur model jihatidan "eklektik" hisoblanadi, ya’ni ta’limning turlu metodlari jamlanmasini namoyon etadi.

Dastur "yutuqlar" va "ko‘rsatkichlar" ga asoslangan. Dasturda bolalarning rivojlanish xususiyatlari yosh guruhlariga ko‘ra tavsiflaydi, yutuqlar va ko‘rsatkichlar esa bir butun tizim sifatida ta’riflanadi. İlmiy tadqiqotlarning natijalari hisobga olingan holda, bolalarning rivojlanish xususiyatlari uch xil yosh guruhlari bo‘yicha tartibga solinadi, lekin o‘qituvchi o‘z guruhidagi bolalar uchun dasturdan yutuq va ko‘rsatkichlarni tanlashda bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Zarur bo‘lganda, dasturga kiritilmagan natija va / yoki ko‘rsatkich o‘qituvchi tomonidan belgilanishi va ta'lim rejasiga qo‘shilishi mumkin. Biroq, bunday vaziyatlarda sabablar aniq belgilanishi kerak. Dasturga qo‘shimcha qo‘shillgan yutuq va ko‘rsatkichlarning Turk milliy ta’lim maqsadlari, maktabgacha ta’lim maqsadlari, dasturning asosiy falsafasi, maqsad va xususiyatlariga mos kelishiga e’tibor qaratish lozim.

Ushbu dasturda turli yoshdagi bolalar uchun o‘qituvchi tayyorlaydigan mashg'ulotlarga misol bo‘lishi uchun "Faoliyat namunalari" berilgan. Bundan tashqari, dasturdan foydalanish uchun "Milliy ta'lim vazirligi maktabgacha ta'lim dasturi oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha integratsiyalashgan ta'lim qo‘llanmasi" (“Millî Eğitim Bakanlığı Okul Öncesi Eğitimi Programı ile Bütünleştirilmiş Aile Destek Eğitim Rehberi (OBADER)”) yaratildi.

Dasturning asosiy xususiyatlari:

Dastur bolalarga yo‘naltirilgan:

O‘qituvchilar'quv jarayonida bolalarga o rejalashtirish, amalga oshirish, tashkil qilish, savol berish, tadqiqt qilish, muhokama qilish va yaratishlari uchun imkon qadar ko‘proq imkoniyatlar taqdim etishi kerak. Bolada maktabga, o‘qishga va izlanishga ijobiy munosabatni yuzaga keltirish uchun ularda o‘z-o‘zini idrok etish, o‘z qadr-qimmatini his qilish, o‘z tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan muloqotda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari,

bolaga tadbirlarda faol ishtirok etish, ta'lim muhitida mashg'ulotlar va o‘ynash uchun materiallarni tanlash erkinligi berilishi kerak.

Bolalarda o‘qishga ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi;

Maktabgacha ta’lim dasturi bolalarda o‘qish, maktab va o‘rganishga nisbatan ijobiy munosabatni, o‘z-o‘zini anglash, o‘z qadr-qimmatini his qilish, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan muloqotda bo‘lishga yordam berishni maqsad qiladi. Bu, bolalarning tajribalarini, o‘rganish motivatsiyasini va o‘qishga bo‘lgan qarashlarini shakllantiradi, zero, ularning o‘qishga bo‘lgan munosabati ham bolalarning rivojlanishi va o‘rganishiga ta’sir qiladi. Maktabgacha ta'lim dasturlari bo‘yicha ta’lim olayotgan bolalar turli yoshlarida bo‘lganligi sababli o‘rganishga turlicha yondashuvlarga ega. Bu farqlar bolalarning maktabga tayyorgarligi va akademik muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Qat'iyat va e'tibor kabi ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lgan bolalarning rivojlanish va o‘rganish salohiyati maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan bolalarga qaraganda yuqori bo‘lishini unutmaslik lozim.

Dastur bolada mavjud bo‘lgan ijobiy nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlaydi:

Bolalar kuchli, o‘ziga ishongan, topqir, yaxshi muloqotga kirishadigan va hamkorlikda o‘yin o‘ynashni avzal ko‘rishadi. Ular bilganlarini, tushunganlarini va his qilganlarini og'zaki yoki ramziy iboralar bilan ifodalashlari mumkin. Maktabgacha ta'lim dasturida bolalarning ana shu kuchli tomonları va qobiliyatlariga e'tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi bolalarning yashirin qobiliyatlarini ochib beradigan usullardan foydalanadi. O‘qituvchi bolalarning kuchli tomonlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan materiallar va vositalarni taklif qiladi, o‘rganish usullarini tanlaydi va bolalarga nimani taklif qilishi mumkinligini loyihalashtiradi. Bolalar yangi narsalarni kashf qilishlari va o‘rganishlari jarayonida o‘qituvchi ishtirok etadi va ular bilan hamkorlik qiladi. Shunday qilib, u bolalarning o‘quv jarayonida mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladi va bolalarni yangi g'oyalar bilan oziqlantiradi. Bu holat bolani har tomonlama ta’limning maqsadiga aylantiradi. Maktabgacha ta'lim dasturi bolalarning rivojlanishi va ta'limini yaxlit nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi va shu bilan bolalarning kognitiv, hissiy, ijtimoiy va jismoniy ehtiyojlarini qondiradi. Bolalarning rivojlanishi va ta'lim sohalari o‘zaro bog'liqdir. Masalan, ijtimoiy omillar kognitiv rivojlanish va o‘quv muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi; Kognitiv rivojlanish sohasi ijtimoiy va hissiy rivojlanish sohasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun o‘qituvchilar jismoniy, ijtimoiy va hissiy sohalarni qamrab olgan holda bolalarni rivojlantirish va ularning o‘rganishini tashkil etishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashlari kerak.

Dastur bolalarning hissiyotchan davrlarini hisobga oladi:

Erta yoshda olingan tajribalar to‘planadi va bolalarning rivojlanishi hamda o‘rganishiga ta'sir qiladi. Rivojlanish va o‘rganish bilan bog'liq bo‘lgan muayyan vaziyatlar uchun mos vaqt oralig'i mavjud. Ushbu vaqt oralig'ini rivojlanishning eng yaxshi vaqti sifatida belgilash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, maktabgacha ta'lim dasturi istalgan natijalarga erishish uchun rivojlanishning eng mos vaqtlariga e'tibor qaratishi kerak. Shu sababli, dasturdagi yutuqlar va ko‘rsatkichlar rivojlanish xususiyatlariga muvofiq olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni hisobga olgan holda uch xil yosh guruhlari bo‘yicha yaxlit tarzda tartibga solingan. O‘qituvchilar har bir yosh guruhi uchun tayyorlangan rivojlanish xususiyatlaridan foydalanib, rivojlanishning hissiyotchan davrlarini aniqlashlari mumkin.

Dastur bolalarga rivojlanishning keyingi bosqichiga o‘tishga yordam beradigan tajribalarni taklif qiladi:

Rivojlanish osondan qiyinga bosqichma-bosqich o‘tadi va bolalarning rivojlanish qobiliyatlari tobora murakkablashib boradi. Rivojlanish va o‘rganish, bolalar o‘zlarining rivojlanish darajasidan biroz yuqoriroq qiyinchiliklarga erishishlari kerak bo‘lganda va hozirgina o‘rganganlarini takrorlash uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lganda, yuzaga keladi. Shuning uchun o‘qituvchilar birinchi navbatda bolalarning rivojlanish darajasini aniqlashlari kerak. Keyin u bolalar darajasiga mos keladigan tajribalarni taklif qilishi lozim, lekin bunda o‘qituvchi tajribalarni biroz qiyinlashtiradi, natijada bolalarni keyingi bosqichga olib chiqadi. Ayni paytda maktabgacha ta'lim dasturlarida erishilgan yutuqlar va ko‘rsatkichlar bolalarning darajalariga to‘g'ridan-to‘g'ri mutanosib bo‘lishi kerak. Shuning uchun bolalarning ahvoli, dasturning yutuqlari va o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash usullari bir-biri bilan uyg'unlikda rejalashtirilishi kerak.

Dastur moslashuvchandir:

Dastur bolaning, jismoniy muhitning va oilaning o‘zgaruvchan xususiyatlariga ko‘ra moslashtirilishga va individuallashtirilishga muvofiqdir. U o‘qituvchiga kunlik yoki bir lahzada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga qarab ta'lim jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi. Ushbu dasturdan foydalangan o‘qituvchi ta'lim rejalarini o‘zi tayyorlaydi, amalga oshiradi va baholaydi. O‘qituvchi dasturdagi maqsad, ko‘rsatkich va tushunchalarni turli yo‘llar bilan birlashtirishi mumkin; o‘z faoliyatini yaxlit yoki alohida tayyorlashi mumkin; turli mavzular, faoliyatlar, muhit va materiallardan foydalanish orqali o‘quv jarayonlarini boyitishi mumkin.

Dasturning amalga oshirilishi spiralsimon yo‘nalishga ega:

Spiralsimon yo‘nalishga ega dastur natijalar va ko‘rsatkichlarni ta’lim jarayoni davomida, kerak bo‘lganda turli tadbirlar orqali qayta-qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu usul tatbiq etilganida, yuqori natijalar va yutuqlarni mustahkamlash va doimiyligini ta'minlash mumkin. Mazkur yondashuv dasturda asos sifatida qabul qilinadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar jadal rivojlanishda va o‘zgarishda bo‘lganlıklari uchun ularning o‘rganish jarayoni jamlanma shaklidagi faoliyatnı talab qiladi.

Dastur eklektik xarakterga ega:

Turli mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim dasturlari o‘rganilganda, dasturlarning turli yondashuv va modellar asosida yaratilganligi ko‘rinadi. Dasturda XXI-asrda zamona ruhiga mos, milliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom hissiga ega shaxsni tarbiyalash uchun turli xil ta'lim nazariyalari va modellarida ilgari surilgan, bolaning rivojiga yo‘naltirilgan usullar sintez qilingan.

Dastur mutanosiblik tamoyiliga asoslangan:

Dastur bolalarning rivojlanishini ko‘p jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi sababli, barcha rivojlanish yo‘nalishlari bilan bog'liq yutuqlar va ko‘rsatkichlar ta'lim rejalarida mutanosib tarzda berilgan. Ayni shaklda passiv va faol harakatlar, faoliyat turlari (turk tili, matematika, o‘yinlar va boshqalar), ish uslublari (katta guruh, kichik guruh, individual), faoliyat amalga oshiriladigan joy (ichkarida va tashqarida) va ajratilgan vaqtni mutanosblashtirish muhimdir.

Dastur o‘yinga asoslangan:

Bola o‘yin orqali o‘rganadi, o‘yin orqali o‘zini va u yashayotgan dunyoni bilib oladi, o‘yin davomida o‘zini eng yaxshi tarzda ifodalaydi, o‘yinda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallaydi. Bolaning tili o‘yindir, boshqacha qilib aytganda, o‘yin bolaning ishidir. Dasturda yutuq va ko‘rsatkichlar muhokama qilinar ekan, o‘yindan usul va/yoki faoliyat sifatida foydalanish tavsiya etiladi. O‘yin orqali o‘rganish bu dastur va maktabgacha ta'limning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Kashf etish orqali o‘rganish ustuvor hisoblanadi:

Kashf etish orqali o‘rganishda bolaning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi, o‘rganganlarini turli vaziyatlarga tatbiq etishi va undan yangi vaziyatlarda foydalanishni bilishi muhim ahamiyatga ega. Dastur bolani atrofida sodir bo‘layotgan voqealarni anglashga, o‘zi qiziqqan mavzular bo‘yicha savollar berishga, o‘yin orqali izlanishga, kashf etishga va o‘rganishga undaydi. Shunday qilib, yodlash asosida o‘rganish o‘rniga mazmunli o‘rganish amalga oshadi.

Ijodkorlikni rivojlantirish birinchi o‘rindadir:

Bolalarning o‘qish ehtiyojlari va ta'lim uslublariga mos keladigan muhitda o‘zlarini turli yo‘llar bilan va original tarzda ifoda etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratilishi kerak. Shu maqsadda bolalarning individual xususiyatlarini o‘quv jarayonida turli materiallar va turli usullar bilan qo‘llab-quvvatlash kerak. Dasturda ijodkorlikka alohida soha sifatida qaralmagan, lekin yutuq va ko‘rsatkichlarda bu masalaga alohida urg‘u berilgan. Mazkur dasturni bu maqsadiga muvofiq amalga oshirish uchun o‘qituvchilar ham ijodkor bo‘lishi kerak.

Dastur kundalik hayot tajribalari va yaqin atrofdagi obyektlardan ta'lim maqsadlarida foydalanishni rag'batlantiradi:

Dasturda kundalik hayot tajribalaridan foydalanish ta’lim jarayonini ham boyitadi, ham osonlashtiradi. Yaqin atrofdagi resurslardan foydalanish, asboblar, jihozlar va materiallar bilan ta'minlashda xilma-xillik ham iqtisodiy jihatdan foydalidir. Shu sababli o‘qituvchining yaqin atrof-muhitni va bolaning hayotiy tajribasini yaxshi bilishi va kuzatib borishi muhimdir. Dasturning shu

xususiyati tufayli har qanday muhit va bola uchun tayyor rejalardan foydalanish dasturning asosiy falsafasiga ziddir.

Dasturda mavzular maqsad emas, vositadir:

Maktabgacha ta'limda o‘qitishning yutuq va ko‘rsatkichlarida ma’lum bir fan yoki mavzuga yo‘naltirilgan ta'lim yo‘q, lekin ta'lim jarayonini rejalashtirishda turli fanlardan foydalanish mumkin. Bu yerda asosiy maqsad fanni o‘rgatish emas, balki shu fan yordamida yutuq va ko‘rsatkichlarga erishishhdir. Yutuqlar, ko‘rsatkichlar va tushunchalar turli faoliyatda qayta-qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

O‘yin doiralari mühim ahamiyatga ega:

O‘yin doiralari – bu, bolalarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil ajratuvchi materiallari bilan ajratilgan o‘quv maydonlari bo‘lib, bolalar kichik guruhlarda diqqatlarini jamlashlari mumkinva o‘zaro muloqot qilish orqali o‘ynashlari mumkin. Bolalar erkin tajriba va erkin harakat qilishlari mumkin bo‘lgan muhitda yaxshiroq rivojlanadi va o‘z mahoratini namoyish eta oladi. O‘yin doiralari ochiq havoda ham, yopiq joylarda ham tashkil etilishi kerak.

Madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni hisobga oladi:

Bolalarning o‘zlari yashayotgan jamiyat qadriyatlarini tanishlari, ularni qabul qilishlari, qadriyatlar uchun mas’uliyatni his etuvchi shaxs bo‘lib ulg‘ayishlari uchun madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, dastur qadriyatlardagi farqlarni hurmat qilishni va turli xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar bilan uyg'unlikda, bag‘rikenglikda yashash tajribasini orttirishni rag'batlantiradi. Dasturda qadriyatlar ta’limi alohida soha sifatida ko‘rilmagan bo‘lib, yutuq va ko‘rsatkichlar bo‘limlarida yaxlit tarzda ta’kidlangan.

Oilaviy ta'lim va ta’limda oila ishtiroki mühim:

Oilaviy ta'lim va ta’limda oila ishtiroki maktab va uy o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlash orqali olingan bilim, ko‘nikma va munosabatlarning doimiyligini ta'minlaydi. Shu sababli, "Milliy ta'lim vazirligining maktabgacha ta'lim dasturi va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha integratsiyalashgan ta'lim qo‘llanmasi (OBADER)" tayyorlangan. O‘qituvchilar ushbu qo‘llanmadan dastur bilan birga samarali foydalanishlari kerak.

Baholash jarayoni ko‘p qirrali bo‘lishi kerak:

Maktabgacha ta’limda natija emas, jarayon muhim bo‘lgani uchun dasturda jarayonni ko‘p qirrali baholash birinchi o‘ringa chiqadi. Bolaning, dasturning va o‘qituvchining o‘zini o‘zi baholash jarayoni bir-biriga bog'langanligi sababli, biridan olingan xulosalar boshqalarni baholashda ham qo‘llaniladi. O‘qituvchilar keyingi amaliyotlarda ham avvalgi baholash natijalarini hisobga olishlari kerak.

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashuvlarni o‘z ichiga oladi:

Maktabgacha ta’lim alohida ehtiyojli bolalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda barcha bolalarning o‘qishi va boshlang‘ich maktabga tayyorlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Sinfda alohida ehtiyojli bola bo‘lsa, o‘qituvchilar o‘zlari tayyorlagan mashg'ulotlarda alohida ehtiyojli bolaga moslashgan materiallarni tayyorlashlari kerak bo‘ladi. Faoliyatdagi moslashuvlardan tashqari, o‘qituvchilar ham Individuallashtirilgan ta'lim dasturini (IEP) amalga oshirishlari kerak. Mazkur moslashuvlar alohida ehtiyojli bolalarni butun ta'lim jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan. Sinfda alohida ehtiyojli bola uchun faoliyatni moslashtirishda o‘qituvchilar mashg'ulot usulini, foydalanilgan materiallarni va o‘quv jarayonida e'tiborga olishi kerak bo‘lgan fikrlarni tushuntirishlari kerak.

Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish xizmatlariga ahamiyat beradi:

Bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, jamoaviy ishlarni sog‘lom yo‘lga qo‘yishda o‘qituvchilarning gid-maslahatchilar bilan hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik oilalar tarbiyasiga katta hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Turkiyaning maktabgacha ta’lim dasturning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur dastur bu sohaga doir rıvojlangan nazariyalar va usullar yordamida ishlab chiqilgan. İkl bora Turkiya Milliy ta’lim vairligi tomonidan 1953 yilda tasdiqlangan dastur shu paytgacha yetti marta qayta ishlangan va to‘ldirilgandir. Eng oxirgi varianti 2024 yıl fevral oyida tasdiqlangan dasturda maktabgacha ta’liö muassasalari faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tamoyillar, qo‘llaniladigan usullar

va shakllar jamlangan. Dasturning asosiy maqsadi har tomonlama – aqlan, jismonan va hissiy tomondan rivojlangan fuqarolarni tayyorlashga qaratilgan va bu boradagi talablarni qamrab olgan.

Adabiyotlar

1. Turkiya Cumhuriyeti Milli Eğitim Bakanlığı Okul Öncesi Eğitim Programı. Ankara, 2013.
2. Turkiya Cumhuriyeti Milli Eğitim Bakanlığı Okul Öncesi Eğitim Programı. Ankara, 2024.

ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТДА МТТ ТАРБИЯЧИЛАРИ ПРОФЕССИОНАЛ-КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСПЕКТЛАРИ

Ўзбекистон, Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти директори, педагогика фанлари доктори, академик
Ибраимов Холбой Ибрагимович

Мамлакатимизда таълим тизимига давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилмоқда. Ўтган давр мобайнида мамлакатимизда ўсиб бораётган авлодни соғлом ва ҳар томонлама етук вояга етказиш, таълим-тарбия жараёнига самарали таълим ва тарбия шакллари ҳамда усулларини жорий этишга қаратилган мактабгача таълимнинг самарали тизимини ташкил этиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Шу билан бирга, олиб борилган таҳлил, болаларнинг мактабгача таълим билан қамровини таъминлаш, мактабгача таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик материаллар ва бадиий адабиётлар билан тўлдириш, соҳага малакали педагог ва бошқарув кадрларини жалб қилиш масалаларини ҳал этиш зарурлигини кўрсатмоқда.

Илмий кузатиш ва тадқиқотлар натижасида инсон ўз ҳаёти давомида оладиган барча маълумотнинг етмиш фоизини беш ёшгача бўлган даврда олиб улгуриши аниқланган. Дарҳақиқат, бу даврда инсон боласи дунёни англайди, ўз она тилини ўзлаштиради, ота-она, оила, маҳалла, Ватанга меҳри уйғонади, умр давомида оладиган билимларга замин ҳозирлайди. Бунда, энг аввало, оила асосий рол ўйнаса, мактабгача таълим муассасасининг ҳиссаси ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этади. Шу боис мамлакатимизда айнан мактабгача таълим узлуксиз таълим тизимининг ажралмас бўлагига, таъбир жоиз бўлса, унинг дебочасига айланган.

2024 йилнинг 21-феврал куни “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги Президент фармони қабул қилинди.

Давлат дастурида болаларнинг мактабгача таълим билан қамров даражасини 76 фоизга етказиш кўзда тутилган. Бунинг учун 1400 та давлат-хусусий шериклик асосидаги, шу жумладан, оилавий мактабгача таълим ташкилотларини ташкил этиш ҳамда инвестиция дастури доирасида 43 та мактабгача таълим ташкилотини қуриш ва 133 тасини реконструкция қилиш орқали 5570 та қўшимча янги қувватлар яратиш белгиланган.

Албатта, ўтган етти йиллик вақт ва тажрибадан келиб чиқиб қаралса, соҳага давлат-хусусий шериклик механизмларининг жорий этилиши туфайли ҳар йили бу йўналишда давлат дастурларида белгиланган вазифа ва чора-тадбирлар ортиғи билан бажариб келинмоқда. Хусусан, йирик шаҳарларимиздан тортиб, чекка туманлар, қишлоқ ва овулларимизда янги-янги замонавий боғчалар барпо этиляпти.

Ушбу натижалар нафақат ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, шу билан бирга, минглаб оналарга ўз ҳудудларида ташкил этилган янги санот корхоналарида ишлаб рўзғорлари фаровонлигини ошириш, касб-ҳунар ўрганиш имконини ҳам яратиб бермоқда.

Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, мамлакатимизда Мактабгача таълим вазирлиги ташкил этилмасдан аввал тизимда замонавий дастурлар жорий этилмаган, болаларни мактабга тайёрлаш бўйича муқобил, мослашувчан моделлар етарли даражада ривожланмаган. Тараққий этган мамлакатлардаги каби болаларни ижтимоий, шахсий, ҳиссий, нутқий, математик, жисмоний ва ижодий ривожлантириш, атроф-муҳит билан танишувга йўналтирилган махсус давлат таълим дастурлари татбиқ қилинмаган эди. Давлат мактабгача

таълим муассасаларида фаолият юритаётган педагог кадрларнинг аксарияти ўрта махсус маълумотга эга бўлиб, болаларни мактаб таълимига талаб даражасида тайёрлаш имконини бермас эди.

Қадимги машҳур юнон файласуфи Афлотун «Агар косиб ёмон уста бўлса, бундан давлат жуда катта нарса йўқотмайди – фақат халқ ёмонроқ кийинади, холос. Лекин ёшлар тарбиячиси агарда ўз вазифаларини ёмон бажарса, у ҳолда мамлакатда нодон, жоҳил, билимсиз ва аҳмоқлар тоифаси вужудга келади» [1], деган экан.

Мамлакатимизда ҳам педагог кадрларга, хусусан МТТ ташкилотлари тарбиячиларини тайёрлаш ва малакасини ошириш масалаларига, уларнинг маънавий қиёфаси, ақлий салоҳияти ҳамда касбий маҳоратига нисбатан ҳозирги куннинг заруриятидан келиб чиқиб, жиддий талаблар қўйилмоқда.

Мутахассис фаолияти ўзагини, шубҳасиз, профессионал-коммуникатив компетентлик ташкил этади. Профессионал-коммуникатив компетентлик МТТ тарбиячиси томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда сифатли қўллай олиши ҳисобланади. Профессионал-коммуникатив компетентлик ҳар бир алоҳида соҳа бўйича зарур билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутади. Шунингдек, профессионал-коммуникатив компетенция билимларини доимо бойитиб бориш, янги маълумотларни ўрганиш, зиммасидаги талабларни англай олиш, янги ахборотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай билишни тақозо этади.

Педагогик ва психологик адабиётлар шарҳи шуни кўрсатдики, педагог ва тарбиячиларнинг профессионал-коммуникатив сифатлари мураккаб интегратив феномен сифатида мутахассиснинг таълим жараёни бошқа қатнашчилари билан алоқа ўрнатиши, уни давомий сақлаб туриши ва ривожлантиришини таъминловчи профессионал малакалари сифатида намоён бўлади [2]. Умуман инсоният эволюцион тараққиёти давомида бир қанча босқичларни босиб ўтган: "homo habilis" (тик юрувчи одам), "homo potentis" (уддабурон одам), "homo sapiens" (ақл-заковатли одам). Бизнинг давримизни эса кўп тадқиқотчилар "homo loguens" яъни сўзлашувчи одам деб номлашни таклиф қилишган [3]. Чунки, хар бир инсон маълумот узатиш ёки уни қабул қилиш жараёнидан четда эмас, бу эса ўз навбатида профессионал-коммуникатив фаолият аҳамиятини янада оширади.

Профессионал-коммуникатив компетентлиги фақатгина касбий фаолият учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакалар, шахсий сифатлар мажмуи сифатиа эмас, балки, мулоқот қила олиш, ўз-ўзини такомиллаштириш ва ривожлантириш, касбий фаолиятга ижодкорлик ва масъулият билан ёндашиш кабиларни қамраб олади.

Шунингдек, профессионал-коммуникатив компетентлик тарбиячи шахсининг ўзига хос хусусиятлар мажмуи бўлиб, касбий фаолиятнинг мустақил ташкил этишни таъминловчи, рефлекс асосида амалга оширувчи жараён ҳисобланади. У тарбиячининг мукаммал ижодий касбий вазифасини бажариш санъатидир. Ҳар бир таълим олувчига шахс сифатида шаклланиши учун ижтимоий-психологик шароит яратиш, ақлий ривожланишини юқори даражада таъминлаш, уларда одоб-ахлоқ сифатларини тарбиялаш ва маънавий жиҳатдан бойитишдан иборат.

Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячилари, шунингдек қуйидаги компетенцияларга эга бўлиши ва уларни доимий равишда ривожлантириб бориши керак. Ҳар бир тарбиячи эга бўлиши зарур бўлган компетенциялар:

1) Ижтимоий компетентлик – ижтимоий масалаларда фаоллик кўрсатиш кўникма ва малакаларига эга бўлиш.

2) Махсус компетентлик – касбий-педогогик фаолиятни ташкил қилишга тайёрланиш, касбий муаммоларни ҳал қилиш, фаолиаят натижаларини оқилона баҳолаш [4]. Бу тур компетенциялар бир неча турларга ажратилади:

а) Психологик компетентлик – педогогик жараёнда соғлом психологик муҳитни ярата олиш, тарбияланувчи болалар билан самарали мулоқот жараёнини ярата олиш, улар билан тил топишиш.

б) Методик компетентлик – жараённи методик жиҳатдан тўғри ташкил қилиш, тарбия фаолияти шаклларини оқилона танлаш, метод ва воситалардан мақсадга мувофиқ фойдалана олиш.

с) Креатив ва комуникатив компетентлик – ўзининг ижодкорлигини намойиш эта олиш ҳамда таълим ва тарбия жараёнининг барча иштирокчилари билан самарали мулоқотда бўлиш, уларга ижобий тасир ўтказиш ва тинглай билишда намоён бўлади.

Маҳоратли тарбиячи тарбияланувчиларда конструктив қобилиятни ривожлантира олиши, шунингдек, машғулот жараёнида тарбияланувчилардаги мавжуд билимларни келгусида оладиган билимлар билан уйғунлаштиришга эришиши лозим. Кўпчилик тарбиячилар ташкилий ва коммуникатив фаолият жараёнида қийинчиликларга дуч келадилар. Бу эса таълим жараёнини самарали ташкил этишга ҳалал беради. Тарбиячининг бундай қийинчиликка учрашининг асосий сабаби яратувчанлик кўникмасини етарли эмаслиги ҳамда олдиндан машғулот жараёнини лойиҳалаштира олмасликдир. Тарбиячилар мунтазам равишда болалар психологияси ва мактабгача таълим соҳасига оид маълумотлардан хабардор бўлиш ва уларни амалиётга қўллаш малакасига эга бўлишлари лозим [5]. Педагогик маҳоратнинг юзага келиш хусусиятлари касбий компетентлик даражаси билан узвий боғлиқ.

Хулоса сифатида айтгпндп, мактабгача таълим ташкилотларининг асосий вазифаси жисмоний ва психологик жиҳатдан соғлом, маънавий баркамол, меҳнатга тайёр шахсни шакллантириб беришдан иборат. Шу сабабли МТТ тарбиячилари профессионал-коммуникатив компетентлигини ривожлантириш бугунги куннинг долзарб масаласи ва келажак учун тикилган маънавий инвестиция ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. http://www.filosense.ru/vzglyadi_platona_na_vospitanie-433.htm. – Из фундаментального сочинения Платона «Государство».
2. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=22877941
3. Соловьева Э.Б. Формирование профессиональной коммуникативной компетентности будущего учителя иностранного языка : Дис. ... канд. пед. наук : - Магнитогорск, 2001.- 156 с.
4. Oizi T. K. S. Topical Issues Formation of Inclusive Competence of Future Teachers in the Republic of Uzbekistan //JournalNX. – С. 103-106.
5. Тоджибаева К. С. К. Профессиональная педагогическая компетентность учителя: феноменология понятия //Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 27 (39). – С. 95-97.
6. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." – T.: Fan va texnologiya, 288 (2008).
7. Ibraimov Kh. I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018. – No. 3 (27). – P. 44-46.
8. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Shaffof”, 2023, 416-bet.
9. Ibragimovich Kh.I. Peculiarities of using credit-module technologies in the higher education system of Uzbekistan //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - P. 209-214.
10. Ibraimov Kh. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.
11. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
12. Ibraimov X.I., M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). –T., “Shaffof”, 2023, 416-bet.
13. Ibragimovich I. K. et al. PEDAGOGICAL ABILITIES OF A TEACHER, STRUCTURE AND DEVELOPMENT //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – Т. 48. – №. 12
14. Ибрагимов Х. И. ПЕДАГОГИКА И ВОСПИТАНИЕ //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 608-611.

15. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. "Intensive methods of teaching foreign languages at university." Вопросы науки и образования 27 (39) (2018): 78-80.

16. Ибраимов Х. И. Педагогические и психологические особенности обучения взрослых //Academy. – 2019. – №. 10 (49). – С. 39-41.

17. Ибрагимов Х. И. Организация самостоятельной работы студентов в условиях цифровизации вузовского образования //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 7 (54). – С. 74-75.

ZAMONAVIY BO‘LAJAK TARBIYACHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM INNOVATSIYALARINING MUHIM YO‘NALISHLARI

O‘zbekiston, Buxoro davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori,
Professor Olimov Shirinboy Sharofovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida faol, maqsad sari intiluvchan, ijodkor shaxs ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishda ta’lim innovatsiyalarini qo ‘llashning dolzarb muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, pedagogik mahorat, islohotlar, pedagogik texnologiya, barkamol avlod.

Аннотация: В данной статье проанализированы актуальные проблемы применения образовательных инноваций в развитии образования активной, целеустремленной, творческой личности на современном этапе развития нашего общества.

Ключевые слова: современное образование, педагогическое мастерство, реформы, педагогические технологии, гармоничное поколение.

Abstract: This article analyzes the pressing problems of applying educational innovations in the development of the education of an active, purposeful, creative person at the current stage of development of our society.

Keywords: modern education, pedagogical skills, reforms, pedagogical technology, harmonious generation.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo‘lida barkamol avlodning o‘rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta’lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog‘liq. Shu bois ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni sifatini oshirish, innovatsion hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llay olishga o‘rgatish, shuningdek, ta’lim jarayoni ishtirokchilariga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat. O‘quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ulardan unumli natija ola bilish esa pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi.

Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelgan. Buyuk donishmand Abu Ali Ibn Sino o‘z pedagogik qarashlarida “Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”, degan g‘oyani ilgari suradi. Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy va boshqa yirik mutafakkirlar ta’lim-tarbiya haqidagi masalalarni hal qilishda asosiy e’tiborni (o‘quvchi) shogirdning bajarishi talab qilinadigan shartlarga qaratganlar. Darhaqiqat, pedagogning eng muhim sifati – har doim biror narsani o‘ylab topishga intilish, o‘quvchilarni ham shunday faoliyatga undash hisoblanadi. “Bolalarni o‘ylashga o‘rgatish uchun ularda o‘ylab topish ko‘nikmasini shakllantirish kerak” (Dj.Rodari). Aynan o‘z-o‘zini rivojlantiradigan, doimiy takomillasha oladigan pedagoggina zamonaviy maktab ta’limi oldiga qo‘ygan vazifalarni bajara oladi. Bunday pedagog o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi.

An’anaviy pedagogika (Ya.A.Komenskiy, I.Gerbart, A.V.Disterverg, I.G.Pestalossi) ta’lim jarayonini katta yoshlilar, pedagoglarni sub’ekt sifatida o‘z tajribasini bolaga ko‘chirish, deb ta’riflagan. Bunda o‘quvchi-harakat yo‘nalgan obyekt deb qabul qilingan. Ta’lim tizimining asosiy maqsadi esa – o‘quvchini hayotga tayyorlash, uni o‘qitish mazmuni, usullarini pedagog belgilaydi.

Jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida faol, maqsad sari intiluvchan, ijodkor shaxsga bo‘lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Shuning uchun ham o‘quv-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy vazifa pedagog-pedagog zimmasiga tushadi. Pedagog har bir o‘quvchining o‘quv ehtiyojlarini qondirishi, ularning mayllari, qiziqishi va imkoniyatlarini aniq hisobga olgan holda ta’lim berishi kerak.

Hozirgi kun zamonaviy ta’limining rivojlanishi yangi yo’nalish - innovatsion faoliyatni taqozo etmoqda. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo’lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G’arbiy Yevropa va AQShda paydo bo’lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg’or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion rivojlanishlarni boshqarish, ta’limdagi o’zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «Hayoti va faoliyati» uchun zarur bo’lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik olimlardan biri E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo’lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

“Innovatsion ta’lim texnologiyalari” tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega. Usbu tushunchani izohlash uchun avvalambor “innovatsiya”, “ta’lim”, “texnologiya” tushunchalarining har biriga alohida to‘xtalib o‘tish zarur.

“Ta’lim” tushunchasi (arabcha. ilm olmoq – o‘qish, o‘rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui) bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli xildagi o‘quv tashkilotlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham anglatadi. Chunki ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib yanada takomillashib borgan.

Ta’lim - mashg’ulot berish jarayonini, ya’ni pedagog (o‘qituvchi) faoliyatini, umuman, o‘quvchining bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya’ni o‘quvchi faoliyatini bildiradi. Ta’lim jarayoni - ta’lim beruvchi - o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Ta’lim avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi: kishilarning ijtimoiy, tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan o‘quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir.

Ta'limdagi innovatsiyalar esa o‘qitish va o‘rgatish sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalarni ifoda etadi. Innovatsiyalar ta’lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O‘quv jarayonida bilim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetentsiyalardir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o‘z ichiga oladi.

2. Zamonaviy, innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash. Bunday usullar bo‘lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, o‘quvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o‘qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo‘llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi omillar orasida yetakchi o‘rinlarni quyidagilar egallaydi:

- ta’lim tashkilotlarining kompyuter va elektron vositalari bilan yetarli darajada jihozlanmaganligi (ayrim oliy o‘quv yurtlarida barqaror internet ta’minoti mavjud emas, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish uchun elektron qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar yetarli emasligi);
- professor-pedagoglarning AKT bo‘yicha malaka darajasining yetarli emasligi;
- ta’lim tashkiloti rahbariyatining o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga e’tibor qaratmasligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Маслоу А. Мотивация и личност. 3-е изд./ СПб: Питер, 2009. Б -120
2. Подласий И.П. Педагогика: дарслик. Москва. Высшее образование. 2007. Б -326
3. R.G.Safarova va boshq. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida modulli o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mexanizmlariToshkent. “Tafakkur qanoti”, 2017, b-3.
4. Samiyeva S. Yangi O‘zbekistonda bo‘lajak mutaxassislar kreativ qobiliyatini tarbiyalashning zamonaviy yo‘nalishlari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
5. Samiyeva Sh., Narzulloyeva F. Oliy talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, //Obrazovaniye i innovatsionniye issledovaniya mejdunarodniy nauchno-metodicheskiy jurnal. – 2022. – №. 1. – S. 163-177.
6. Qizi Axmadova N. M., Samiyeva S. X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida o ‘qish va yozish kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion pedagogik texnalogiyalari //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 453-458.

ИННОВАЦИОННАЯ ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО РЕЧЕВОМУ И ПОЗНАВАТЕЛЬНОМУ РАЗВИТИЮ В ЦИФРОВОЙ, ПОЛИЛИНГВАЛЬНОЙ, ПОЛИТЕХНИЧЕСКОЙ СРЕДЕ ДОО И СЕМЬИ

Шабева Гузель Фагимовна,
кандидат педагогических наук, доцент, заведующая кафедрой дошкольной педагогики и психологии Института педагогики ФГБОУ ВО «Башкирский государственный педагогический университет им. М. Акмуллы», город Уфа, Россия,
e-mail: 89649645959@mail.ru

Аннотация. В статье определены подходы к организации инновационной подготовки студентов, магистрантов, педагогов инновационных экспериментальных площадок в условиях сетевого взаимодействия высших учебных заведений на базе центров развития компетенций, мастерских, технопарка к речевому и познавательному развитию воспитанников в поликультурной и полилингвальной, политехнической среде ДОО и семьи. Представлена краткая характеристика организации партнерского, сетевого взаимодействия по речевому и познавательному развитию детей некоторых структурных подразделений ВУЗа и детских садов - инновационных площадок кафедры дошкольной педагогики и

психологии. Перечислены и кратко раскрыты совместные инновационные проекты кафедр теории и методик дошкольного образования МПГУ, г. Москва и кафедры дошкольной педагогики и психологии БГПУ им. М. Акмуллы, г. Уфа в формате сетевого взаимодействия по речи и обследованию речи детей, представлена характеристика цифровых инструментов для педагогов нового поколения по ранней профориентации детей в сфере инженерных профессий.

Ключевые слова: подготовка педагогов, речевое развитие детей дошкольного возраста, педагогическая диагностика речевого развития, мастерская, центр развития компетенций, технопарк вуза, полилингвальная среда, политехническая среда, ранняя профориентация.

Annotation. The article defines approaches to the organization of innovative training of students, undergraduates, teachers of innovative experimental sites in the conditions of network interaction of higher educational institutions on the basis of competence development centers, workshops, technopark for the speech and cognitive development of pupils in a multicultural and multilingual, polytechnic environment of preschool and family. A brief description of the organization of partnership, network interaction on the speech and cognitive development of children of some structural divisions of the University and kindergartens - innovative sites of the Department of Preschool Pedagogy and Psychology is presented. The joint innovative projects of the departments of theory and methods of preschool education of the Moscow State State University and the Department of Preschool Pedagogy and Psychology of the BSPU named after M. Akmulla, Ufa in the format of network interaction on speech and speech examination of children are listed and briefly disclosed, the characteristics of digital tools for teachers of the new generation are presented

Keywords: teacher training, speech development of preschool children, pedagogical diagnostics of speech development, workshop, competence development center, university technopark, multilingual environment, polytechnic environment, early career guidance.

В современных условиях модернизации производства, науки и образования в процессе использования инновационных технологий и цифровизации всех сфер деятельности, проблема повышения качества подготовки студентов становится острее. Происходит трансформация форм преподнесения информации и обобщения и передача, трансляция опыта: цифровые ресурсы, цифровой контент, расширяющий профессиональные навыки обучающихся в онлайн режиме, дистанционной форме и др. Изменение парадигмы образования влекут и изменения процесса подготовки кадров, педагогов, готовых функционировать в информационно-компетентностной, цифровых системах.

Модернизация как процесс в сферах российского общества, выступает как условие решения социокультурных и социо - экономических проблем, стоящих перед сообществом, предпосылкой для роста национальной конкурентоспособности, что зависит от подготовки специалистов, готовых к реализации проводимых изменений, способных функционировать в условиях дифференциации и цифровизации современной образовательной практики, что является основной задачей высшего образования в педагогических вузах в режиме реформирования. В формате подготовки студентов по направлению подготовки «Педагогическое образование», «Психолого-педагогическое образование» по профилю «Дошкольное образование» в рамках изучения дисциплин «Теории и технологии речевого развития детей», «Практикум по выразительному чтению» и др. Подготовка будущих педагогов, способных ориентироваться и применять теоретико-методологические основы организации речевого развития детей дошкольного возраста в соответствии с ФГОС ДО, федеральной образовательной программой дошкольного образования: знать закономерности онтогенеза речевого развития, процесс организации педагогической диагностики речевого развития дошкольников, планирование и моделирование индивидуальных маршрутов речевого развития, а так же инновационные технологические решения использования интерактивного оборудования и программирования в процессе организации речевого развития детей дошкольного возраста: интерактивные речевые игры с интерактивной

панелью SMART Board, интерактивные кубы, интерактивная песочница, matata Lab, робототехника и другое. В связи с этим появляется потребность в организации деятельности по формированию цифровой культуры студента, как новый вид культуры – средство решения поставленных задач инновационной подготовки специалистов: познание действительности в целом, применяя инновационные цифровые инструменты, способ освоения культурной реальности цифровизации 21 века: обобщение и трансляция практического опыта и познавательного запаса у педагогов-новаторов, исследователей, синтезирующих информацию в соответствии с запросом производства и науки в условиях цифровой среды, педагогическое интерактивное знание, прохождение профессиональных проб на базе мастерских ВУЗа в соответствии с требованиями движения World Skills Russian Агентства развития навыков и профессий РФ и центров развития компетенций.

Основное направление работы кафедры дошкольной педагогики и психологии сегодня - это подготовка современных педагогов дошкольного образования, владеющих как традиционными методиками обучения и воспитания детей, так и инновационными технологиями развития ребёнка на базе центров развития компетенций, мастерских по требованиям агентства развития навыков и профессий, технопарка ВУЗа.

Осуществлять подготовку будущих воспитателей в целях формирования профессиональных компетенций и готовности реализовывать трудовые функции в соответствии с современными требованиями профессионального стандарта педагога позволяют структурные подразделения кафедры – Центры развития компетенций «Педагог электронного дошкольного образования», своя школа и детский сад: Акмуллинская академия развития детей и семейного образования «Акмуллинские соты» и мастерские по компетенции «Дошкольное воспитание», оснащённые самым современным интерактивным оборудованием, где работают профессорско-преподавательский состав, высококвалифицированные эксперты демонстрационного экзамена и чемпионата World Skills Russia по компетенции «Дошкольное воспитание». Основной задачей является отработка компетенций студентов Акмуллинского университета в качестве педагогов дополнительного образования детей дошкольного возраста. Проведение совместно с профессорско-преподавательским составом научно-методических, экспериментальных исследований (контрольных, курсовых работ, выпускных квалификационных работ, выполнение государственных заданий МИНПРОСРФ, по запросу производства и др.). С каждым годом, количество программ дополнительного образования реализуемых центром, мастерской, технопарком увеличивается, расширяются направления деятельности, постоянно работают более 15 студий и секций для воспитанников и обучающихся, их родителей: карате, хореография, английский / родной языки, вокал, мультстудия, робототехника, ранняя профориентация (поварёнок и др.).

Кафедрой дошкольной педагогики и психологии Акмуллинского университета проводится масштабная деятельность по охвату дополнительного образования для педагогов-практиков, а также осуществляется стажировочная подготовка специалистов на уровне СПО, ВО. Реализуются современные программы профессиональной переподготовки и повышения квалификации. В сетевом взаимодействии с образовательными организациями республики реализуются проекты: «Сетевой электронный детский сад», «Детский сад - студенческой семье», «Институт семьи и детства», «Родительское просвещение», «Технологии цифрового образования», «Семейный детский сад-школа», «Речевая готовность детей к обучению в школе в условиях трилингвизма», «Студенты БГПУ – детям», «Остаз» (баш.яз. – «Наставник»), Интерактивный проекториум, «Студенческий акселератор» и др.

В 2022 г. посетили семь регионов РФ: детские сады г. Елабуги Республики Татарстан, Чувашию – г. Цивильск, г. Чебоксары и др. научная экспедиция ученых – методистов из Республики Башкортостан ФГБОУ ВО «БГПУ им.М.Акмуллы» в рамках реализации государственного задания Министерства просвещения РФ на основании дополнительного соглашения …о выполнении государственного задания по оказанию государственных услуг (выполнение работ) №073-03-2022-009/3 от 11 апреля 2022 г. научно-исследовательских работ по заявленной теме [1]».

Проведена комплексная педагогическая диагностика речевого развития детей старшего дошкольного возраста (русский, татарский, английский языки; исследование когнитивных функций и поликультурный компонент) с использованием авторского мобильного приложения диагностического инструментария уровня речевого развития старших дошкольников (Яшина В.И., профессор МПГУ, Шабаева Г.Ф. доц. БГПУ и др.) [1, 2, 3, 4, 5]: комплексный тестовый метод диагностики речевого развития детей старшего дошкольного возраста состоит из двенадцати игровых заданий, направленных на выявление уровня развития сторон речи таких, как: лексическое развитие, развитие звуковой культуры речи, развитие грамматического строя речи развитие связной речи, ознакомление с художественной литературой, подготовка к обучению грамоте. Выявление и развитие способностей воспитанников осуществляется в различных формах образовательного процесса. Педагоги успешно используют такие формы работы с детьми, как беседы, наблюдение, сюжетно-ролевые игры, дидактические и сюжетно-дидактические игры, развивающие игры, игры-путешествия, игры-инсценировки, экспериментирование, исследование, проблемно-поисковые ситуации, просмотр презентаций и видеофильмов, викторины, конкурсы, лаборатория, проектная деятельность, творческая мастерская, детская студия, виртуальные экскурсии, календарно-обрядовые праздники, фольклорные фестивали и др.

Содержание образовательной программы с элементами полилингвальности реализуется в процессе образовательной ситуации; образовательной деятельности, осуществляемой в ходе режимных моментов; самостоятельной детской деятельности; взаимодействия с семьями воспитанников. Система дополнительного образования является естественным продолжением образовательного процесса и используется для мотивации детей к познанию и творчеству, развитию их способностей в различных видах деятельности.

Среди языков, которые целесообразно применять в дошкольных организациях помимо русского (государственного), воспитатели называют родной (башкирский, татарский и др.), английский, немецкий, китайский, французский. 80% из них считают, что раннее лингвистическое образование является эффективным с точки зрения конечного результата, то есть уровня владения вторым (третьим) языком. Желание родителей дать детям раннее языковое образование связано с будущей успешностью их детей, владеющих несколькими языками. Как говорит пословицы «Один язык – один ум, два языка – два ума, три языка – три ума».

Воспитатели-практики отмечают, что в реализации полилингвального образования к проблемным аспектам относятся отсутствие в достаточном количестве современных дидактических материалов для развития навыков говорения на родном языке; методических пособий и конспектов занятий по обучению дошкольников родному языку в русскоязычной среде; программы, соответствующей интересам современных детей, с интерактивными игровыми технологиями; недостаточный уровень педагогической компетентности педагогов в вопросах использования культурных практик, поддержки детской инициативы и самостоятельности; низкая мотивация части педагогов к внедрению инноваций в образовательный процесс, недостаточный уровень ИКТ-компетентности педагогов; эмоциональное выгорание части педагогов, низкая мотивация к внедрению инноваций в образовательный процесс. Высказывается пожелание в научно-методической помощи и поддержке: программы, современные разработки, пособия, в том числе видео, аудио пособия, ориентированные на интересы современных детей.

Центр развития компетенций, мастерская, технопарк - это оборудованная современная развивающая предметно – пространственная среда для развития научного, образовательного, творческого потенциала, как студентов, магистрантов, педагогов экспериментальных площадок, так и воспитанников и обучающихся, является образовательным и социальным центром: собственной базой учебной и технологической, производственной практики университета; выполняет социальную функцию по обеспечению детей студентов, магистрантов, аспирантов и сотрудников присмотром, уходом и развитием, площадкой

профессионального развития, бизнес-инкубатор предпринимательского роста, площадкой для разработки и апробации цифровых инструментов современного педагога.

Большое внимание уделяется международному сотрудничеству как в научной сфере (проект «Билингвизм / Трилингвизм»), так и в образовательной деятельности (подготовка магистров, реализация программы двудипломного образования).

С 2016 г. эффективно работает Экспертный совет по дошкольному, начальному и инклюзивному образованию (руководитель экспертного совета директор Института педагогики, к.п.н., доц. Боронилова И.Г.), координирующий деятельность сети инновационных экспериментальных площадок кафедры на базе детских садов РБ (г. Благовещенск: МАДОУ д/с 11, 15, 16; г. Ишимбай МАДОУ 26; г. Уфа: 60, 92, 107, 264 и др., научный руководитель: к.п.н., доц. Шабаева Г.Ф.). С целью развития практико-ориентированного обучения кафедрой реализуются формы сетевого взаимодействия с ДОО, с производителями игр и игрушек. Основные научные направления кафедры «Социоигровая педагогика в современном образовательном пространстве детства», «Современные технологии раннего развития детей», «Научно-методическое сопровождение педагогов, участвующих в реализации полилингвальной модели образования», «ранняя профориентация средствами коснтруирования в полилингвальной и политехнической среде.

Список литературы

1. Балабанов Д.С., Шабаева Г.Ф., Яшина В.И., Старцева О.Г. Разработка интерактивного приложения для телефона и планшета «тестирование речевого развития и выявление коэффициента общего речевого развития детей (КОРР)»: инструкция пользователя // Материалы Международной научно-практической конференции: Актуальные проблемы дошкольного образования: теория и практика: (к 55-летию со дня основания «БГПУ им.М.Акмуллы», 190-летию со дня рождения башкирского поэта и просветителя Мифтахетдина Акмуллы), 23 декабря 2021 года // ФГБОУ ВО «БГПУ им.М.Акмуллы», 15 февраля 2022 г., г. Уфа / Отв. ред. Шабаева Г.Ф., Боронилова И.Г. – Уфа: Изд-во «БГПУ им. М.Акмуллы», 2022. – 268 с., с 17 -24.

2. Боронилова И.Г., Шабаева, Г.Ф. Подготовка педагога электронного обучения в дошкольной образовательной организации в условиях технологии цифрового образования вуза (научная статья) Проблемы современного педагогического образования*. – Сборник научных трудов: – Ялта: РИО ГПА, 2021. – Вып. 70. – Ч. 4. – 403 с. 44-47.

3. Шабаева, Г.Ф. Формирование готовности студентов к педагогической диагностике речевого развития детей дошкольного возраста: диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.07 / Шабаева Гузель Фагимовна; [Место защиты: Моск. пед. гос. ун-т].- Москва, 2009.- 241 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-13/1822.

4. Шабаева Г.Ф., Яшина В.И., Ушакова О.С., Hristo Kyuchukov Организация сетевого полилингвального комьюнити на базе ВУЗ-ДОО (научная статья) // Традиции и инновации в национальных системах образования. Сборник материалов международной научно-практической конференции (Уфа, 17-18 декабря 2020 г.). – Уфа, 2021, с. 302-307.

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРДА УМУМКАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ

Ўзбекистон, Навоий инновациялар университети доценти, PhD
Санаева Сурайё Бобоназаровна
hulkaryulduzi81@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада бўлажак педагогларнинг таълим ва тарбия жараёнида эгаллаши лозим бўлган компетенциялари ва булғуси педагогик фаолиятида компетентли кадр бўлишининг асосий функционал вазифалари ҳақида баён этилган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасида олий педагогик таълим муассасалари таълим-тарбия жараёнида талабаларни касбий ривожлантириш мақсадида уларга компетенциявий ёндашувни тадбиқ этиш ва бунинг натижасида бўлажак педагогларда умумкасбий компетенцияларни

ривожлантиришнинг аҳамияти ҳамда талаба шахсини касбий ривожланишида компетенциявий ёндашувнинг муҳим жиҳатлари ва ўзига хосликлари кенг очиб берилган.

Калит сўзлар. Бўлғуси педагог, компетенция, компетенциявий ёндашув, компетенциявий ёндашувнинг муҳим жиҳатлари, умумкасбий компетенциялар таснифи, талабаларнинг умумкасбий компетенциясини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайдиган йўналишлар, умумкасбий компетенцияларни ривожлантирувчи психологик ва педагогик шарт-шароитлар.

THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF UNIVERSAL COMPETENCIES IN FUTURE EDUCATORS

Sanaeva Surayyo Bobonazarovna
Uzbekistan, Navoi Innovation University Associate Professor, PhD
hulkaryulduzi81@gmail.com

Annotation. In this article, the main functional tasks of the competencies of future educators to occupy in the educational process and the competency frame in the pedagogical activities of are described. Also, in the Republic of Uzbekistan, higher pedagogical educational institutions are widely revealed the importance of introducing a competency approach to students in order to professionally develop them in the educational process and, as a result, the development of universal competencies in future educators, as well as important aspects and specifics of a competency approach in the professional development of the student personality.

Keywords. Future educator, competence, competency approach, important aspects of the competency approach, classification of universal competencies, directions that play an important role in the development of universal competence of students, psychological and pedagogical conditions that develop universal competencies.

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ УНИВЕРСАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Санаева Сурайё Бобоназаровна
Доцент Навоийского инновационного университета, PhD
hulkaryulduzi81@gmail.com

Аннотация. В данной статье изложены компетенции, которыми должны обладать будущие педагоги в процессе обучения и воспитания, и основные функциональные задачи становления компетентным кадром в педагогической деятельности. Также в целях профессионального развития студентов в учебно-воспитательном процессе высших педагогических учебных заведений Республики Узбекистан широко раскрывается важность применения к ним компетентностного подхода и, как следствие, развитие общепрофессиональных компетенций у будущих педагогов, а также существенные аспекты и особенности компетентностного подхода в профессиональном развитии личности студента.

Ключевые слова. Будущий педагог, компетентность, компетентностный подход, важные аспекты компетентностного подхода, классификация универсальных компетенций, направления, играющие важную роль в развитии универсальной компетентности студентов, психолого-педагогические условия, развивающие универсальные компетенции.

Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини янада ривожлантиришнинг асосий йўналиши сифатида мамлакат тараққиёти учун янги ташаббус ва ғоялар билан майдонга чиқиб, уларни амалга оширишга қодир бўлган, интеллектуал ва маънавий салоҳияти юксак янги авлод кадрларини тайёрлаш, таълим ташкилотлари битирувчилари замонавий касб эгалари бўлишлари учун уларда зарур кўникма ва билимларни шакллантириш масаласига алоҳида урғу берилмоқда [1]. Республикамизда баркамол авлодни шакллантириш, ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларни олиб борилаётган ислоҳотларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда. Сўнгги йилларда бўлажак

педагогларда замонавий билим ва кўникмаларни шакллантириш, таълим тизимлари ҳамда илм-фан соҳаси ўртасида яқин ҳамкорлик ва интеграцияни, таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида тизимли ишларни бунга мисол қилиш мумкин.

Ҳозирги замон талабаларнинг ижтимоий - маданий имкониятлари бошқа ёшлар гуруҳига қараганда ўз хатти-ҳаракатини режалаштириш учун кенгроқ имкониятга эгадир. Талабаларнинг аксарияти "ҳаёт дастурлари"ни, жумладан касбий фаолиятининг истиқбол режасини ва ўз ҳаётларини турли томонлама шахсий ривожлантиришга қодир саналади.

Республикамизда таълим соҳасини модернизациялаш бўлажак педагогларнинг интеллектуал ва маънавий баркамол ўсишини назарда тутади. Бу эса уларда демократик тамойилларни англаш малакаларини шакллантиради. Бўлажак педагогларда ташкилий, ижтимоий муносабатларни шакллантириш уларда касбий ривожланиш элементи саналади.

Бўлажак педагогларда умумкасбий компетенцияларнинг шаклланиш асосини уларнинг аудиторияда ҳамда аудиториядан ташқари фаолиятининг ташкил этилиши, шунингдек, олий педагогик таълим дидактик тизимининг тарбиявий салоҳиятини ошириш орқали кўриб чиқиш лозим, деган хулосага келиш мумкин. Компетенциявий ёндашувнинг моҳияти олий таълим тизимида таълим ва тарбия жараёнини инновацион бошқаришда намоён бўлиб, унинг замирида компетенцияларнинг – касб соҳиби бўлмиш шахснинг хусусиятлари ва фазилатларини шакллантириш ётади.

Олий таълим муассасаси бўлажак педагогларининг умумкасбий компетенцияларини ривожлантириш жараёнининг ўзига хосликларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- бўлажак педагоглар томонидан ҳар бир касб соҳиби бўлмиш фуқаро учун зарур бўлган умумкасбий (универсал) компетенцияларнинг айнан уйғунликда эгалланиши ва уларнинг шахс учун аҳамиятли янги фазилатларга айланиши;
- аудиториядан ташқари фаолиятнинг турли шаклларида (ижодий, тадқиқий, амалий касбий йўналишдаги ёки ўхшаш соҳаларда) назарий билим кўникмалар, бўлғуси касбга ижобий мотивациянинг қарор топиши, мустаҳкамланиши;
- касбий аҳамиятга йўналтирилган фаолиятда (касбий, таълимий, ижтимоий, юридик, иқтисодий, ахборот ва ҳакозо) компетенцияларнинг ихтиёрий-индивидуал (талабанинг ёши, ҳаётий ва иш тажрибаси, шахсий, жисмоний, ақлий, руҳий қобилиятлари ва имкониятлари инобатга олинган ҳолда) ўзлаштирилиши;
- муайян фаолият тури, шакли субъекти – талабанинг асосий фаол ижодий позицияси;
- компетенциялар шаклланиши натижаларининг кўргазмалилиги, ўзгариб бориши; шахс учун аҳамиятли муҳим сифат (устуворлик) ва миқдорий (ижтимоий, маданий) кўрсаткичларнинг уйғунлиги;
- бўлажак педагоглар ва ўқитувчиларнинг ҳаётий фаолияти, уларнинг ҳамкорлик доираси – муҳити;
- амалиётнинг янги эҳтиёжларига оператив муносабатни қарор топтириш[4].

Умумкасбий компетенцияларнинг шаклланганлиги сифат кўрсаткичлари бўлажак педагогларнинг ўқув жараёнида ҳамда аудиториядан ташқари мустақил (касбий, кўп қиррали меҳнат, ижтимоий) фаолиятида уларнинг янги сифатлари: мустақиллик, ижодкорлик, касбий етуклик, маъсулиятлилик кабиларда намоён бўлади ва уларни талабанинг ўзи, тенгдошлари, ўқитувчиларига кузатиш имконини тақдим этади.

Бўлажак педагогларни касбий ривожланишида компетенциявий ёндашувнинг муҳим жиҳатлари:

- сифатли касбий-педагогик таълим ва тарбиянинг методологик асосидир (компетенциялар ва компетентлилик – таълим-тарбия жараёнининг сифат кўрсаткичларидир);
- таълим-тарбия жараёнини инновацион бошқарувга илмий ёндашув бўлиб, унинг асосида бўлажак педагогларни тайёрлаш моделларини яратиш ва касбий компетенцияни шакллантиришнинг технологиялари ётади;
- касбий-педагогик таълим тизимида тарбиянинг ҳамда талабалар ва ўқитувчиларнинг касбий ва шахсий камолотининг сифат кўрсаткичлари – касбий компетентлиликнинг таркиб

топиши асоси бўлмиш умумкасбий, касбий, умуммаданий компетенцияларни шакллантиришга қаратилган тарбиявий жараённи амалга оширишга замонавий комплекс илмий ёндашувдир.

Бўлажак педагогларни касбий ривожланишида умумкасбий компетенцияларнинг ўзига хос жиҳати – компетенцияларни уларнинг ўзаро алоқалари, боғлиқликлари, ўзаро бир-бирини тўлдириши – бойитиши билан боғлиқликда қараб чиқилиши ва аниқланиши бўлиб, бу унинг амалга оширилиши натижасини талаба эгаллаши лозим бўлган компетенциялар тизими сифатида тасаввур этиш имконини беради.

Олий таълим муассасаларида компетенциявий ёндашувнинг хусусияти педагогик ходимида унинг мутахасислиги ва малакасидан келиб чиққан ҳолда у эгаллаши лозим бўлган компетенцияларнинг мавжудлигида намоён бўлади. Уларнинг шаклланганлик кўрсаткич-натижалари талабалар ва педагогларнинг ўқув, аудиториядан ташқари, ижтимоий ва бошқа фаолият турларида иштирок этиш шакллари ва усулларида, таълим фаолиятининг мунтазам тизимли таҳлилини ўтказиш жараёни, ўз-ўзини таҳлил қилиш орқали баҳоланади[3].

Тадқиқотга асос қилиб турли йўналишлар бўйича педагогик кадрларни тайёрлаш бўйича таълим стандартларида кўрсатилган ва аниқлаштирилган қуйидаги умумкасбий компетенциялар таснифи асос сифатида қабул қилинди:

- турли ахборотларни олиш (ўзлаштириш), сақлаш, ўзгартириш ва қўллаш билан боғлиқ билишга доир (гностик);
- мутахассис фаолиятининг мақсадли-мотивацион жиҳати, унинг жамиятда ва касбий муҳитда юзага келган қадриятларни, маънавий-ахлоқий меъёрлар ва қоидаларни ўзлаштириш ва қабул қилиш қобилиятини аниқлаштириб берувчи қадриятга йўналтирилган;
- шахслараро ўзаро таъсирлашув доирасини, касбий фаолият соҳасида, жамиятда, турли ижтимоий институтларга хос мулоқотга оид муаммолар ва уларни ҳал этиш йўлларини белгилайдиган коммуникатив;
- ўзи ва жамоа фаолиятининг асосий принципларини, бу фаолиятни режалаштиришнинг усуллари ва воситаларини, техникани лойиҳалаштириш ва ҳисоблаш, ишлаб чиқариш (ёки бошқа турдаги) жараён технологиясини очиб берувчи техник-технологик;
- касбий фаолият жараёнини такомиллаштириш (юқори даражали касбий кўникмаларга эришиш) билан ҳам, меҳнат маҳсулининг (саноат ва бошқа турдаги фаолиятда ишлаб чиқарилган буюмлар, маҳсулотлар ва асарларнинг дизайн ва таркибий-функционал ва ҳоказо жиҳатдан) мукаммаллигини таъминлаш билан ҳам боғлиқ эстетик;
- мутахассиснинг жисмоний имкониятларига қўйиладиган жами талабларни ва муайян психомоторик ҳаракатларни бажариш усулларини ўз ичига оладиган жисмоний ва ҳ.к.[2]

Кўриниб турибдики, умумкасбий компетенцияларнинг тузилмаси ва таркибининг вақт ўтиши ва жамиятда юзага келаётган эҳтиёжларни инобатга олган ҳолда ўзгаришини қонуният сифатида қабул қилиш ва бу ҳолатни бўлғуси мутахассисларнинг умумкасбий компетенцияларини шакллантиришнинг назарий асоси сифатида қабул қилиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармонида
2. Руденко И.В. Воспитание в профессиональном контексте // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. – Тольятти, 2012. – № 1. – С.259-262.
3. С.Б. Санаева. Необходимость развития общепрофессиональных компетенций у студентов. Colloquium-journal, 13-15. 2022.
4. Sanaeva Surayyo Bobonazarovna. The ways of organizing students’ educational activity in higher pedagogical institutions. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2022

5. SS Bobonazarovna. The ways of organizing students' educational activity in higher pedagogical institutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary …, 2022

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHDA “GROW MODELI”DAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O‘zbekiston, NamDU, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarni badiiy asarlar bilan tanishning metodik tizimi adaptiv GROW (maqsad, reallik, imkoniyat, harakat rejasi) modelini shaxs rivojining motivatsion, emotsional, intellektual sohalariga jadal ta’sir ko‘rsatuvchi adabiy-badiiy markaz (kitob burchagi, videoteka, fonoteka, sahnalashtirish) bilan qayta aloqasi identivligini turli yosh guruhlari bilan ishlash jarayonida differensiyalash orqali takomillashtirish yaxshi samara berishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy adabiyot, GROW modeli, maqsad, reallik, imkoniyat, harakat rejasi, kitob burchagi, videoteka, fonoteka, sahnalashtirish*

Аннотация: *В данной статье методической системой ознакомления детей с произведениями искусства является адаптивная модель РОСТ (цель, реальность, возможность, план действий), литературно-художественный центр (книжный уголок, видеотека, аудиотека), имеющий сильное воздействие на мотивационную, эмоциональную и интеллектуальную сферы развития личности., драматизация), говорят, что совершенствование идентичности путем дифференциации в процессе работы с разными возрастными группами даст хороший эффект.*

Ключевые слова: *художественная литература, модель GROW, цель, реальность, возможность, план действий, книжный уголок, видеотека, аудиотека, постановка.*

Abstract: *In this article, the methodological system of familiarizing children with works of art is the adaptive GROW (goal, reality, opportunity, action plan) model, a literary and artistic center (book corner, video library, audio library) that has a strong impact on the motivational, emotional, and intellectual spheres of personal development. , dramatization), it is said that improvement of identity through differentiation in the process of working with different age groups will have a good effect.*

Key words: *fiction, GROW model, goal, reality, opportunity, action plan, book corner, video library, audio library, staging*

Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta’sirchan vositasi bo‘lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo‘shadi. Badiiy adabiyot she’riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi.

Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a’zolariga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar badiiy asarlar orqali estetik va axloqiy tasavvurlarini boyitib boradilar. Tarbiyachi badiiy adabiyoti bilan tanishtirish faoliyatida ularning yoshga xos imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda tasjkil etishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘qiy olmaydi. Ularda o‘qishning o‘rnini eshitish va ko‘rish qoplaydi. Shu bilan birga, bolalar tinglash, rasmlarga qarash, eshitganlari haqida o‘ylash, adabiy matnda nima sodir bo‘layotganini boshdan kechirish kabi o‘qish faoliyatining kichik shakllarida o‘zini namoyon etadilar. Adabiy asarlarni tinglagan bola, uning ko‘z oldida tasvirlangan voqealarni real ko‘rmaydi. U o‘z tajribasiga asoslanib, ularni taasurotlari yordamida aytib beradi. Badiiy adabiyot bilan tanishish, asar g‘oyasi va qahramonlar harakatlarini anglash va farqlash maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan o‘quv-pedagogik jarayon mahsulidir. Bunda tarbiyachi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘quv-pedagogik jarayonning samaradorligi mazkur badiiy asarlarni bola ongiga yetkazib berishdagi mahoratga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Tarbiyachi tomonidan mazkur faoliyatni qanday borishi avvaldan bahoratlansagina, ta’limda sifat

ko‘rsatkichiga erishish kafolatlanadi.

Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishning metodik tizimi adaptiv GROW (maqsad, reallik, imkoniyat, harakat rejasi) modelini shaxs rivojining motivatsion, emotsional, intellektual sohalariga jadal ta’sir ko‘rsatuvchi adabiy-badiiy markaz (kitob burchagi, videoteka, fonoteka, sahnalashtirish) bilan qayta aloqasi identivligini turli yosh guruhlari bilan ishlash jarayonida differensiyalash orqali takomillashtirish yaxshi samara beradi. GROW modelining mazmun-mohiyati, tadqiqot muammosi yuzasidan amalga oshirish tartibi quyidagi rasmda atroflicha yoritilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. “GROW modeli” asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish mazmuni

“GROW modeli” turli sohalarda, jumladan, maktabgacha ta’limda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan murabbiylik va murabbiylik asosidir. Ushbu model to‘rt bosqichli jarayon bo‘lib, mazkur modelga asoslanib, bolalarga badiiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida uni o‘rganishdan maqsad qo‘yish, ularning hozirgi voqeligini baholay olishiga erishish, yangi g‘oyalar yaratish va o‘quv maqsadlariga qayta e’tibor qaratishda yordam berish uchun ishlatilishi mumkin. Yuqoridagi jadvalda aynan badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida tarbiyachi bilan hamkorlikda olib boriluvchi jarayon tasvirlangan.

GROW modeli Jon Uitmor (1937-2017) tomonidan 1980-yillarda hamkasblari bilan birgalikda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1992-yilda nashr etilgan “Ishlash uchun murabbiylik” kitobi orqali butun dunyoga tarqatilgan. Hozirgi kunga kelib 25 ta tilga tarjima qilingan (Whitmore, 2019).

Maktabgacha ta’limda “GROW modeli” bolalarni o‘rganish va rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlash maqsadida, barcha guruhlarga adaptivligini qat’iy ta’minlash asosida keng tatbiq etish mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga maqsadlar qo‘yishga yordam berishdir. Buni bolalardan nimani o‘rganishni yoki erishmoqchi ekanligini so‘rash orqali amalga oshirish mumkin.

Ikkinchi bosqich – bolaning amaliy faoliyatidagi, mamshg‘ulotlar jarayonidagi hozirgi holatini baholash. Bu bolaning hayotiy ko‘nikmalari va kuzatishlariga asoslangan bilimlarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Uchinchi bosqich – yangi g‘oyalarni yaratish. Bu o‘z maqsadlariga erishishning yangi usullarini topish uchun bola bilan aqliy hujumni o‘z ichiga oladi. Yakuniy bosqich esa bolaning ta’lim maqsadlariga qayta e’tibor qaratishdir. Bu bolaga o‘z maqsadlariga erishishda yordam berish va ularga erishish rejasini tuzishni o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘qituvchi

bolaning hayvonlar yoki turli madaniyatlarni o‘rganishdagi muvaffaqiyatini adabiyot orqali kuzatish uchun o‘qish jurnalini yaratishi mumkin.

GROW modelidan foydalanib, tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga erishish mumkin. Ushbu model bolalarga maqsadlar qo‘yishga, ularning hozirgi haqiqatini baholashga, yangi g‘oyalarni yaratishga va o‘quv maqsadlariga qayta e’tibor qaratishga yordam beradi. Bu orqali bolalarda kitob o‘qishga mehr uyg‘otishi, qimmatli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin.

Fonoteka esa yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “tovush” va “saqlash” degan ma’nolarni anglatadi. Bugungi kunda ko‘proq musiqa sohasida arxivlarda mavjud bo‘lgan klassik musiqa va boshqa audio yozuvlarni saqlash, eng keng tarqalgan va ommabop bo‘lgan audio mahsulotlarni aholiga yetkazish maqsadida fonotekalar tashkil etilgan. Tadqiqot doirasi, asosan, badiiy asarlarning audio nushalarini to‘plash maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, guruhlarida tashkil etiluvchi audio axborotli ma’lumotlarni to‘plash va saqlash maqsadidagi xususiy to‘plamdir. Masalan, ertaklar asosida ishlangan multfilmlar, she’rlarning audio versiyasi va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish jarayoni samarali kechishi ta’limning eng so‘nggi yutuqlarini milliy ta’lim tizimiga integrallashtirish, adaptive GROW modeli asosida o‘qitishning yuqori samaradorligiga erishishini kafolatlovchi zamonaviy metod va vositalarning qat’iy produktivligini ta’minlash ijtimoiy zaruriyatga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik “Sano-standart” nashriyoti - Toshkent.: 2017. 416-b.
2. Maxmudova D.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning pedagogik mexanizmlari. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. https://doi.org/10.5281/zenodo.7214533.
3. Флерина Е. А. Изобразительное творчество детей дошкольного возраста. М.,Гос. уч. пед. изд-во Минпроса РСФСР, 1956.-е. 160.
4. Grosheva I.V. va boshqalar. O‘yin orqali ta’lim olish. Metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2020.
5. Abduraximova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Avtoref. p.f.d.(DSc). -T.:2020. - 74 b.

ЖАДИДЛАР СИЙМОСИ ЁХУД МИЛЛИЙ РУҲ ҚЎРҒОНИ

Қозоғистон, Чимкент, Мухтор Ауэзов номидаги
Жанубий Қозоғистон тадқиқот университети
филология фанлари бўйича (PhD) фалсафа доктори
Ярмухаммат Худайбергенович Мадалиев
E –mail: madaliev_61@ mail.ru

Аннотация: Таълим тизимидаги ўқитиладиган ҳар бир ўқувчиларда мутахасислик кўникмаларини эмас, балки унда шахслик сифатларининг муайян қирраларини шакллантриш.

Аннотация: Формирование у каждого обучающегося в системе образования не навыков мастерства, а определенных аспектов качества личности. Formation of advanced aspects of quality personality in the Qajad service system.

Калит сўзлар: Ўтган аср, миллат, илм, ахлоқ, келажак.

Ключевые слова: Прошлые века, народ, наука, нравственность,будущее.

Ўткан асрнинг бошида жадид боболаримиз миллат ёшлари келажаги учун қайғуриб, илғор янгиликларни жорий этишга интилганлар. Шу маънода Мунавварқори Абдурашидхонов “ Қардошларим миллатдошларим кўзимни ғафлат уйқусидан очиб,

атрофимизга назар солмоғимиз лозимдир. Ҳар бир миллат ўз истиқболлигининг бирлиги воситаси илм ва маърифга ортиқ даражада эътибор қаратмоғи лозимдир. Илм ва маъориф маданиятининг бирлиги дарбозаси бу мактабдур", деган эди.

Абдулла Авлоний эса " Тарбия биз учун ё - ҳаёт ё - мамот ё - фалокат масаласидир. Тарбияни туғилган кундан бошламоқни кучлантирмоқ , зеҳнимизни эса ривожлантирмоғимиз лозим" деб бир аср аввал миллат ёшлари келажаги учун қайғуриб, илғор илғор янгиликларни жорий этишга интилишган.

Глобаллашган постмодерн дунёда тинимсиз ўзгаришлардан бошқа ўзгармас нарса йўқлиги учун бугунги одам шиддатли ва тўхтовсиз эврилишлар оғушида яшашга маҳкум. Мулоқот имкониятининг ортиши ер сайёрасининг кичрайиб, одамзоднинг ўзи яшайдиган маконга сиғмай, жуғрофий чегараларни ошиб ўтишга иштиёқмандлигини кучайтирди. Глобаллашув табиий рав-ишда фақат амалиётчиликка таяниб, маданий, миллий ва руҳоний ўзига хосликни инкор қилади ҳамда ижтимоий ва руҳий қиёфасизликни юзага келтиришга мойил бўлади. Ер маъносидаги лотинча "глобус" сўзидан олинган "глобаллашув" атамаси аслида истилоҳ сифатида халқаро савдонинг гуркираб ўсишини англатиш учун ишлатилган. Бу атамани илк бор Карл Маркс 1850-йилда Фридрих Энгелсга ёзган бир хатида "шитоб билан ўсаётган халқаро савдо" маъносида ишлатган эди. Орадан бир юз-ўттиз йил ўтгач, 1980-йилда бозорнинг глобал-лашуви ҳақида машҳур Ҳарвард университетининг профессори Теодор Левит томонидан ёзилган бир мақола "глобаллашув" атамасининг башарият луғатидан мустаҳкам ўрин олишига сабаб бўлди.

Глобаллашув дунё аҳлини бир-бирига тезкорлик билан яқинлаштирди. Бу жараён турли этносларга хос универсал, ўртоқ жиҳатларга куч бериб, миллатлардаги маънавий, миллий, руҳоний ўзига хос жиҳатларни емириб бормоқда. Глобаллашувнинг гуркираб ўсаётган халқаро савдо маъносини англатиши бежизга эмас. Маълумки, савдода фойда кўриш асосий кўрсаткич саналади. Шу сабаб глобаллашув одамдаги миллий, руҳий, маънавий, ахлоқий ўзига хосликни эмас, балки қандай қилиб бўлсада, фойдага эриша билиш хислатини ривожлантиришга устуворлик беради.Глобаллашув жараёни, биринчи навбатда, инсоннинг истеъмолчилик истакларини қондиришга хизмат қиладиган, уни моддий манфаатга интилтирадиган майлларни универсаллаштиради. Аввало, биологик яратиқ экани сабаб одам бу ҳолатга жуда ҳам мойилдир.

Истеъмолчилик эҳтиёжларининг глобаллашуви турли этнослардаги ўзига хосликни силлиқлаб, одамларнинг интилишларини бир хиллаштириб бормоқда. Ҳозирда бу жараён жуда куч олган. Шундай шароитда ҳар бир миллат аҳлининг ижтимоийлашган ва дунё билан интеграциялашган ҳолда ўз қиёфасини ҳам сақлаб қолишига эришиш ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Глобаллашув алоҳида миллат ва элатларни шунчаки Ер сайёрасининг аҳолисига айлантириб, улардан шахс-лар эмас, балки оммага сингишиб кетадиган қиёфасиз МИЛЛИЙ РУҲ ҚЎРҒОНИ ўртача одамни юзага келтиради. Шу жиҳати билан глобаллашув глобал муаммоларни келтириб чиқармоқда. Бу жаҳоний кечимдир ва у бутун инсониятни, демакки, барча миллий адабиёт ва маданиятларни ҳам қамраб олади. Глобаллашув жараёни сабаб майда халқлар ва маданиятлар ўз миллий қиёфасидан маҳрум бўлиш хавфи олдида қолади. Бадиий адабиёт табиатига кўра ўзида миллатнинг этник-эстетик хотирасини, маънавий-ахлоқи ўзига хослигини сақлайди. Шу боис жамият аъзолари маънавиятининг юксалишида бадиий адабиётнинг тенгсиз ўрни бор. Ўзлигини таниган, ўзининг миллий қиёфасини ташкил этган ақлий, ахлоқий, руҳоний белгилардан хабардор шахс ташқи таъсирлар натижасида қиёфасини йўқотиб қўймайди. Шунинг учун ҳам узлуксиз таълим тизимининг барча босқичларида адабиёт ўқитиш ҳар бир шахсдаги ўзликни сақлаб қолишга қаратилиши керак бўлади. Кўринадики, адабиёт миллий руҳ ва этник қиёфани сақлаб қолувчи қўрғон вазифасини бажаради. Ҳар қандай шахснинг шаклланишида бадиий асар ўқишнинг беқиёс ўрни бор. Негаки бадиий асардаги қаҳрамонларнинг ҳолат-у кайфиятлари, изтироб-қувончлари, ҳақ-ноҳақликлари билан танишиш ва туйиш орқали кишида одамийлик сифатлари қарор топади. Одам ўзини ўзга билан солиштира билганда, ўзини бошқанинг, бошқани эса ўзининг ўрнига қўя олгандагина чинакам одамга айланади. Бу ҳолат фанда шахснинг ижтимоийлашуви дейилади. Ижтимоийлашмаган одам индивиддир, холос. Ҳали

унда истеъмолчиликда ўзга бирор инсоний сифат шаклланмаган бўлади. Бадиий асар ва унинг қаҳрамонлари тақдири билан танишиш орқали одам ўзига ёққан нарсанинг ўзгага ҳам ёқиши, ўзини ранжитган тутум ўзгани ҳам ранжитиши мумкинлигини билибгина қол-майди, балки туяди ҳам. Шу тариқа унда одамийлик сифатлари таркиб топа боради. Мана шу ҳолат мактабда адабиёт ўқитишнинг тенгсиз ўрнини таъминлайди. Баъзан айрим ўқувчилар: “Мен келажакда адабиётчи ҳам, шоир ёки ёзувчи ҳам, журналист ҳам бўлмоқчи эмасман. Шундай экан, нима учун “Адабиёт” дарслигидаги материалларни ўзлаштиришим, бунинг устига, бадиий асарлар ҳам ўқишим керак?” деб ўйлайдилар. Баъзан очиқчасига шундай масала қўядилар. Шуни билиш керакки, умум таълим мактабларида ўқувчилар бирор соҳанинг мутахассислигига эмас, балки ҳаётга тайёрланади. Қандайдир касбнинг эгаси бўлиш учун ўрта мактабдан кейин яна ўқиш керак бўлади. Адабиёт эса ўқувчининг ижтимоийлашуви, яъни жамиятнинг бошқа аъзолари билан уйғунлашиб, улар орасига сингишиб, ўзининг ўрнини топиб кетишига хизмат қилади.

Одам жамиятнинг бошқа аъзоларига яқин савияда фикрлай олса, уларнинг ўйларини тушунса, туйғуларини ҳис қила билса ва шундай сифатларга эгалиги сабаб бошқаларга халақит бермай яшай олсагина, ижтимоийлашган бўлади. Адабиёт сабоқлари ўқувчиларда шундай кўникмаларни шакллантиришга ҳамда кўпчилик одамга хос туйғу ва сезимлардан хабардор қилишга йўналтирилиши керак. Адабиёт ўқитувчиси зиммасига жамият томонидан ана шу ўта мураккаб юмушни амалга ошириш юкланади.

Ўқитувчининг ғоят масъулиятли шу вазифани камроқ куч сарфлаб кўпроқ самарага эришган ҳолда уддалаши унинг тайёргарлик даражасига боғлиқ.Айтилганидек, глобаллашув кечими одамнинг турмуш тарзи, руҳияти ва фикрлашини ҳам ўзгартиб юборди. Олдинлари тўғри фикр фақат биттагина бўлади деган қараш ҳукмрон эди. Ўзиникига ўхшамаган фикр эгасига, кам деганда, ётсираб қараларди. Эндиликда ҳақиқатлар кўп бўлиши мумкинлиги, битта нарса-ҳодиса ҳар кимга ҳар хил таъсир қилиши, ҳар хил кўриниши ва турлича баҳоланиши мумкинлиги англаб етилмоқда. Бугун фикрлаш, дид, эътиқод плурализми ёйилиб бормоқда. Бундай шароитда одамдан ўз манфаатини унутмаган ҳолда ўзгалар манфаатига ҳам дахл қилмасдан яшай билиш кўникмасига эга бўлиш талаб этилади. Бугунги адабиёт сабоқлари жамиятдаги одамларни борича қабул қиладиган, уларнинг эркига зуғум ўтказмайдиган ана шундай шахсни шакллантиришга йўналтирилиши лозим. Дунё миқёсида юзага келган янги вазият, янги шароит адабиёт ўқитишни ҳам янгича йўлга қўйишни талаб қилади.

Бугунги одам дунёдан узилиб яшай олмагани сингари бугунги миллий таълим ҳам очун ўқитиш тажрибасидаги янгиликлардан четда туриб, кўзланган натижаларга эриша олмайди. Шуларни ҳисобга олган ҳолда дунё адабий таълим тажрибасидаги бизнинг шароитимизга тўғри келадиган, самара келтириши аниқ бўлган янгиликларни бугунги ўзбек адабиёт ўқитиш амалиётига қўллаш керак. Биринчи навбатда, умум-таълим мактабларининг функсиясига соғлом мантиқ нуқтайи назаридан қарашни йўлга қўйиш лозим бўлади.

Мактаб олий ўқув юртларига талабгор тайёрлайдиган жой эмас, балки катта ҳаётда яшаб кета оладиган шахсларни тарбиялайдиган маскан экани англаб етилиши керак. Бунда ўрта адабий таълим тизимига ёндашув ракурси бутунлай ўзгариши зарур бўладиШунингдек, мактаблардаги фан ўқитувчиларининг ўқувчиларга бўлажак мутахассислар сифатида ёндашуви ҳам тамомила барҳам топиши керак.

Ҳозирда ҳар бир фан ўқитувчиси ўқувчиларга ўз фанини ўзлаштириши шарт бўлган обектлар, бўлажак физик, математик, филолог, тарихчи, ҳуқуқшунос сифатида қарайди. Ҳолбуки, биринчи навбатда, ўқувчи – бетакрор шахс. Таълим тизимидаги ўқитиладиган ҳар бир фан ўқувчиларда мутахассислик кўникмаларини эмас, балки унда шахслик сифатларининг муайян қирраларини шакллантиришга йўналтирган бўлиши керак.

Мактабда ўқувчи муайян миқдордаги илмий ҳақиқатларни ўзлаштириб оладиган обект эмас, олам-у одамда юз берадиган ҳар қандай воқеа-ҳодиса ва ҳолатга ўз нуқтайи назари билан мантиқли муносабат билдира оладиган шахс сифатида шакллантирилиши зарур.Шунда мусиқа, расм, жисмоний маданият, адабиёт сингари ўқув фанлари шу соҳаларнинг бўлажак мутахассисларини эмас, балки бу тезкор ва шиддатли замонда одамга

муносиб яшаш кўникмасига эга, мусиқани тинглай оладиган, тасвирий саньат асарини кўра биладиган, бадиий асар ўқишга қизиқадиган, ўқиганини тушуниб, завқланадиган ва бу завқни таъминлаган омилларни биладиган маданиятли кишини тайёрлашга йўналтирилади. Адабиёт сабоқларини ўқувчига йўл кўрсатиш, насиҳат қилиш воситаси сифатида тушунишдан қутулиб, уларни ўқувчилар учун керакли ва қизиқарли педагогик юмушга айлантириш учун дидактик инноватсиялардн фойдаланиш керак. Негадир, биздаги педагогик амалдорлар барча фойдали педагогик инноватсиялар фақат чет мамлакатларда бўлади, деб ҳисоблашади. Ҳолбуки, таълимдаги инноватсиялар четники бўлгани учун эмас, балки самарали бўлгани учун ўқитиш амалиётида қўлланиши керак.

Педагогик лавозимдорлариз ўзларига янгилик бўлиб туюлган метод ва усулларни барча мактаблардаги барча ўқув фанларини ўқитишга бирданига ва бир хилда жорий этилишини истайдилар. Ҳозирда инноватсион ёндашувларни қўллаб самарага эришишдан кўра талаб этилганидай қўллаш фактининг ўзи муҳимдай бўлиб турибди.Таълим тизимини ташкил этишда моҳиятдан кўра кўриниш, мазмунга қараганда шакл устуворроқ мартабада.

Таълим кечимидаги барча босқичларни имкон қадар юқоридан туриб бошқаришга интилинмоқда. Бошқариш осон бўлиши учун эса бир хиллик лозим бўлади. Ўқитишдай жонли кечимни бир хиллаштириш амалда уни самарасиз қилиш демакдир. Педагогларда профессионал эрк йўқ. Чегарасиз чекловлар педагоглардаги ижодкорлик-у изланишнинг йўқолиб кетишига сабаб бўлади.Ўқитиш амалиётининг кўп асрлик тажрибаси кўрсатадики, бирор одамнинг иш тажрибасини шундоғича ўрганиб ва ўзлаштириб бўлмайди. Ҳар бир мутахассис бу тажрибадаги асосий ғояларнигина ўзига мослаб ўрганиши ва ўзлаштириши мумкин. Ташқаридан келаётган педагогик янгиликларга ушбу ҳақиқатдан келиб чиққан ҳолда ёндашиш лозим.Адабиёт сабоқларидаги энг бирламчи ва бош вазифа қайси ёшда бўлишидан қатъи назар ўқувчиларни бадиий асар ўқишга ўргатишдан иборатдир. Бадиий асар ўқиш ўқувчиларга уч жиҳатдан ғоят муҳим юмуш саналади. Биринчидан, у одамни китобга боғлаб қўяди: асар қаҳрамонлари билан кейин нима бўлганини билишга қизиқиш уйғотади, ҳаётдаги турли-туман қутилмаган воқеа-ҳодисалар билан таништирадики, бунинг ўзи ўқувчида қизиқиш уйғотади. Иккинчидан, бола ўзига мутлақо нотаниш одамлар, ўзгача тақдирлар билан танишади, ижодкор маҳорати сабаб уларга бефарқ бўлолмайди, янги сўзлар ўрганади ва бундан завқ олади, фойда кўради.

Бадиий асар ўқишнинг аҳамиятини таъминлайдиган учинчи ҳал қилувчи жиҳат: бадиий асар ўқувчида ўзгани ҳис этиш, бировга туйғудош бўлиш фазилатини шакллантиради. Бу илмий тилда эмпатия дейилади. Глобаллашиб бораётган ҳозирги шошқин дунёда яшаётган одамларда айнан эмпатия туйғуси камайиб бормоқдаки, бу етишмовчиликни бадиий китоб ўқиш орқалигина тўлдириш мумкин бўлади.Ўқувчиларга китоб тавсия этишда ҳам эҳтиёт зарур. Баъзи ўқитувчилар кўп ўқилган, қайта-қайта муҳокама қилинган асарларни болаларга тавсия этгиси келмайди. Ҳолбуки, ўқитувчига чайналган бўлиб туюлган асар ўқувчи томонидан энди илк бор кашф этилади. Китоб ўзгармагани билан унинг истеъмолчиси янгиланаётганини ҳисобга олиш керак.Айримлар китоб ўқишнинг ўрнини кино ёки телекўрсатув билан қоплаш мумкин, деб ўйлашади. Ҳолбуки, кино, видео ёки телекўрсатув томоша қилаётган киши бошқа бир одам билан бўлаётган воқеаларнинг шунчаки кузатувчиси бўлади, холос. Китоб ўқилганда эса одам қанчадир ҳарф ва тиниш белгилари ёрдамида ўзига янги бир дунё очиб олади, бу дунёсига турли одамларни жойлаштириб, уларга хилма-хил тақдирлар беради. Одамнинг ўзи томонидан сўзлар ёрдамида яратилган образлар қайсидир жиҳатлари билан уни маълум даражада ўзгартиради ҳам. Китоб одамга у ёлғиз эмаслигини, атрофида ҳам ўзи каби инсонлар борлигини, уларни ҳам ҳисобга олиб яшаш кераклигини ўргатади. Бу ҳолат одамни фақат ўзини ўйлаб, ўзидан бошқа билан иши бўлмайдиган ўзчил (худбин) кимсага айланишдан сақлаб қолади.

Бундан ўттиз-қирқ йиллар олдин одамлар ахборот етишмаслигидан нолишарди. Эндиликда башарият ахборот тўри ичида қолди. Очундаги барча нарсани билгувчи Гоогле ходими Эрик Шмидтнинг айтишича, инсоният ўзининг ибтидосидан то 2003-йилга қадар бўлган даврда қанча ахборот дунёга келтирган бўлса, ҳозир ҳар икки кунда шунча миқдорда

ахборот яратилаётган эканЭндиликда ахборотлар босими остида қолган одам туйғу етишмовчилигидн қийналмоқда.

Бадиий асар уни ўқиган одамга ҳам ахборот беради, ҳам уни бошқа инсонлар, уларнинг тақдири, руҳий дунёси, кечинмаларига яқинлаштириб, туйғулантиради. Кўркам адабиёт бугунни кўрсатгани сингари жуда узоқ ўтмишда яшаб ўтган ва неча юз йилликлардан сўнг дунёга келадиган одамлар билан ҳам ошно қилади.

Хуллас, тобора глобаллашиб бораётган одам зотига юксак маънавий сифатлар, нозик туйғулар, ўзганинг ҳолатини ҳис қилиш сингари эзгу сифатларни бадиий адабиётгина бера олади. Одамни бадиий адабиётга ошно қилиш эса адабий таълим соғлом педагогик-психологик асосларда йўлга қўйилгандагина самара келтиради.

Фойдаланган адабиёт

1. https://www.nur.kz/1781425-cto-takoe-globalizacia-prostymi-slovami-ee-vlianie-i-posledstvia.html

2. http://www.adme.ru/tvorchestvo-pisateli/pochemu-nashe-buduschee-zavisit-ot-chteniya-579605/

THE IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES TO ATTRACT FOREIGN INVESTORS

Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети
“Инсон ҳуқуқлари ва медиа”
кафедраси катта ўқитувчиси, PhD
Мирсултанова Ҳамида Алишер қизи

Annotatsiya: Ушбу тезисда хорижий тилларни ўрганишнинг аҳамияти, янги методлари, онгни ривожлантириш усуллари ҳақида сўз боради. Чет тилларини ўзлаштириш хориж инвесторлари билан эркин мулоқотни таъминлаб беради.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается важность изучения иностранных языков, новые методы, методы развития сознания. Изучение иностранных языков обеспечивает свободное общение с иностранными инвесторами.

Annotation: This thesis discusses the importance of learning foreign languages, new methods, methods of developing consciousness. Learning foreign languages provides free communication with foreign investors.

Kalit so‘zlar: Чет тиллари, онг, манипуляция, тадқиқот, ёшлар, тараққиёт, ривожланиш, инвестор.

Ключевые слова: Иностранные языки, сознание, манипулирование, исследования, молодежь, развитие, развитие, инвестор.

Keywords: Foreign languages, consciousness, manipulation, research, youth, development, development, investor.

Learning foreign languages has become a requirement of the time for everyone due to the demands of history, present and future. This can be explained as follows: the main goal should be to study our historical heritage, at the same time to teach it to people of other nationalities, as well as to get acquainted with the culture and information of other peoples. This is especially important for an international journalist. The reason is that any idea he wants to say and serve for development will, of course, emerge in his native language, as well as in foreign languages.

By the end of the twentieth century, the results of psychotechnology and psycholinguistic research, as well as manipulation, began to be widely used in influencing public opinion [4; 35]. The contribution of human psychology to success is 80 percent, and the method is only 20 percent. Some may have strong ability and interest in language learning. By knowing the psychology of language learning, the ability to speak a foreign language fluently and correctly is achieved in a short period of time. When dealing with a foreign language, one should always control the emotions, i.e. not lose the qualities such as passion, enthusiasm, kindness and patience. One should

also be cheerful while listening to audiobooks or reading a book. Experts acknowledge that maintaining and shaping a positive emotional inner experience is more powerful than the methods used in language learning.

Research has shown that in some cases a person may not be able to fully demonstrate his or her perfect knowledge of a language. For example, asbestos leads to a decrease in volume when speaking a foreign language, resulting in incorrect pronunciation of words. Naturally, this leads to the conclusion that people do not know a foreign language well.

While the person is speaking, if someone corrects his mistake, there will be a pause in his mind and he will forget what he is about to say. Unfortunately, in some cases it is possible to stutter, to worry. This leads to the loss of the positive mood mentioned above. Many years of research by Dr. Stephen Krashen have shown that negative emotions such as boredom, stress, feeling unwell, constant worry, and forced practice can quickly lead to fatigue and slow down assimilation [3,15]. As a result, the brain's ability to receive information is impaired, it does not perform its function properly and completely. If a person is tired or bored during exercise, the process should be stopped for a while. It is recommended that he continue it only after he has lifted the mood.

Steve Kaufman, a linguist who developed a new way to learn a foreign language using the Internet, the founder of Lingvist and one of the inventors of the foreign language learning program LingQ, once again proved in his experience that it is possible to learn a foreign language in a short time [3;15]. The secret to achieving such a high result was formed during the study of nine languages. He first learns the rhythm, sound, and pronunciation of the language, and then enjoys reading.

Man is also capable of manipulating himself [2; 48]. At the same time, first of all, it is necessary to get acquainted with the optimal methods and rules, proven on the basis of experience in learning foreign languages quickly, easily and correctly. Learning a language does not require special skills, innate talent, but rather effort, hard work. Alisher Absalomov's book "The most effective ways to learn Russian" states that a person must develop a number of skills for learning a foreign language:

1. When learning a language, memorize phrases, not individual words;
2. Not trying to memorize grammatical rules, mastering the language through thinking and pronunciation;
3. Learning with the ears, not with the eyes, gives good results;
4. Learn grammar with the help of interesting, short conclusions;
5. Reading or listening to simple, popular stories;
6. Read a short text and answer questions;
7. Learn to speak in correct and expressive pronunciation, phrases.

It should be noted that strengthening memory is one of the most important conditions in language learning. Because it is a great help in gaining vocabulary wealth. Mnemonic technology, on the other hand, is a method of memorizing long data, numbers, dates, and important information in the form of artificial associations, with the maximum use of the brain's capabilities. One of the most effective ways to direct memory correctly and remember long-term information is imagination, association, space, and repetition. With the help of mnemonics, data can be stored in the "memory box" in a reliable way for a long time.

A person uses only 10% of the capacity of his brain. The remaining 90% goes to information processing [8]. Memory can be scientifically divided into audio, visual, and kinesthetic types of memory. While audio memory holders recall information by hearing, visuals use images and images, while kinesthetics store important information in memory for a long time by experimenting with those events in practice. In general, each of us has all three forms of memory.

Most students forget 90% of the topic covered in the lesson in 30 days. The big part of the information is forgotten when it is overlooked. There are several reasons for this right. The first reason is to ignore the lesson and not listen to it diligently. There are 3 basic principles of memory: "location", "imagination", "repetition". These are called space, imagination, repetition in our native language. To remember an information, you can associate it with that space. If a person does not

have good imagination, memory will also be weak. In the words of the great philosopher Albert Einstein, "Imagination is stronger than knowledge". Repeating a piece of information over and over again after reading it has a positive effect. Repetition of knowledge ensures that it is sealed in memory for a lifetime.

From a scientific point of view, memory is not divided into any bad and good memory. Almost all people have an average memory. But the working principles of the human brain are different. Anyone can develop their memory in artificial ways. The basic rule of this is association imagination, repetition and space. When reading any information, remembering it by linking it to something else gives an effective result. By means of imagining the situation, the information in the brain is stored for a long time with images [6; 12].

Imagination is far from simple and emotional, which makes it better to remember. It is not easy for the brain to remember very, very simple information, but the interval between repetitions of any information also causes it to be placed in a long-term part of memory. For example, you need to hang words that need to be memorized in a visible place. Every time we see it, the human brain sends information and consolidates it in memory. Repetition of knowledge is the mother of learning, says a Russian proverb. Even when repeating information and necessary information, simply not repeating them will help you to memorize it with high quality by concentrating it and repeating it at intervals. Just as a noble goal cannot be achieved in a bad way, a great goal cannot be achieved with little effort. Insignificant action results in insignificant results [1; 26].

In short, human ability is infinite. His dreams and goals are boundless. Any confusing problem will also have a positive outcome if the goal, or more precisely, the planned system, is defined before any work is done. It is natural for someone to think that learning a foreign language is easy, for someone it is difficult. It should not be forgotten that a person who knows one language in any situation is capable of knowing another language. At the same time, it is necessary to understand that learning foreign languages is necessary for every age, and through this it is possible to attract foreign investors to the country.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абсаломов А. Рус тилини ўрганишнинг энг самарали усуллари, Т.: Янги аср авлоди. – 2013.
2. Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. Москва, сентабрь 1998 – февраль 2000 г.
3. Krashen A., Stephen D. Second Language Acquisition: Theory, Applications, and Some Conjectures. Cambridge University Press, 2014.
4. Очилов А. ОАВнинг жамият фикрини шакллантиришдаги ўрни// “Оммавий коммуникация: назарий ва амалий талқинлар” ЎзДЖТУ халқаро журналистика факультетининг илмий мақолалар тўплами, Т.: 2013.
5. Cambridge University Press, 2014.
6. Қулмуродова О. Мнемоника – хотира санъати // “Ma’rifat” газетаси, 2014 йил 29 январь.
7. www.thelinguist.com
8. www.human-memory.net

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗРЕНИЯ, ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

Узбекистан, PhD и.о. доцент. Навоийский государственный педагогичекий институт
Шамсутдинова Нигина Каримовна
E-mail:nigina11@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-2618-6371

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические принципы и методы великого ученого и философа Ибн Сины. Рассмотрены такие аспекты, как индивидуальный подход к

обучению, связь образования и морали, а также практическое применение знаний. Так же представлены методы обучения, разработанные Ибн Сины, включая систему вопросов и ответов, использование аналогий и метафор, применение практических заданий и развитие эмоционального интеллекта. Влияние педагогических идей Ибн Сины на современное образование, включая интерактивные методы обучения, учет индивидуальных особенностей учеников, развитие этической компетентности и практическое применение знаний в реальной жизни.

Ключевые слова: педагогика, интеллект, мышления, индивид, интерактивные методы, метод, мораль.

ABU ALI IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARI, TAMOYILLARI VA METODLARI

Annotatsiya: Maqolada buyuk olim va faylasuf Ibn Sinoning pedagogik tamoyillari va usullari haqida so‘z boradi. Ta’limga individual yondashish, tarbiya va axloq o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda bilimlarni amalda qo‘llash kabi jihatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan o‘qitish uslublari, jumladan, savol-javoblar tizimi, o‘xshatish va metaforalardan foydalanish, amaliy topshiriqlardan foydalanish va hissiy intellektni rivojlantirish masalalari ko‘rsatilgan. Ibn Sino pedagogik g‘oyalarining zamonaviy ta’limga ta’siri, jumladan, interfaol o‘qitish usullari, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, axloqiy kompetensiyani rivojlantirish va bilimlarni hayotda amaliy qo‘llash.

Kalit so‘zlar: pedagogika, intelekt, interaktiv metod, dunyoqarash, axloq, metodika.

THE PEDAGOGICAL VIEWS, CONCEPTS AND METHODS OF ABU ALI IBN SINA

Abstract: The article discusses the pedagogical principles and methods of the great scientist and philosopher Ibn Sina. Such aspects as an individual approach to learning, the connection between education and morality, as well as the practical application of knowledge are considered. The teaching methods developed by Ibn Sina are also presented, including a system of questions and answers, the use of analogies and metaphors, the use of practical tasks and the development of emotional intelligence. The influence of Ibn Sina's pedagogical ideas on modern education, including interactive teaching methods, taking into account the individual characteristics of students, the development of ethical competence and the practical application of knowledge in real life.

Key words: pedagogy, intellect, thinking, individual, interactive methods, method, moral.

Ибн Сина, также известный как Авиценна, был выдающимся персидским ученым, жившим в IX-XI веках. Он прославился своими достижениями в медицине, философии и педагогике. Его работа является важным вкладом в эти области знаний и продолжает оказывать влияние на современное образование. Ранние годы жизни Ибн Сины, его учеба и ранние научные исследования положили основу для его будущих трудов и достижений. Философия и педагогика были важными областями интересов Ибн Сины. Он разработал свою философскую систему, основанную на сочетании аристотелевской и неоплатонической философии. Это система включала в себя учение о природе, человеке и божественном. В области педагогики Ибн Сина выделил несколько основных принципов, включая индивидуальный подход к обучению, развитие критического мышления, связь образования и морали, а также практическое применение знаний. Его идеи и методы до сих пор оказывают влияние на современные педагогические практики.[1]

Ибн Сина разработал несколько основных педагогических принципов, которые были важными для его подхода к обучению. Они включали индивидуальный подход к каждому ученику, развитие критического мышления, связь образования и морали, а также практическое применение знаний. Эти принципы были основополагающими для его педагогической философии и помогли ему создать уникальную систему образования, которая до сих пор остается актуальной. Авиценна придавал особое значение

индивидуальному подходу к каждому ученику. Он понимал, что каждый человек обладает уникальными способностями и потребностями, и именно поэтому образование должно быть адаптировано под каждого ученика. Он старался создать обстановку, в которой ученики могли бы проявить свой потенциал и максимально развить свои способности. Ибн Сина учитывал уровень подготовки и интересы каждого ученика, чтобы обеспечить им эффективное обучение.[2]

Связь между образованием и моралью считалась одним из главных принципов педагогической философии Ибн Сины. Он считал, что образование должно не только передавать знания, но и формировать высокую мораль и этические ценности учеников. Авиценна уделял внимание развитию морали и этики в своих учениках, помогая им осознавать важность добродетелей, этического поведения и справедливости. Он считал, что только тогда образование будет полноценным и полезным для общества.

Ибн Сина придавал особое значение практическому применению знаний. Он считал, что образование должно быть не только теоретическим, но и направленным на практическое применение полученных знаний. Мыслитель практиковал активное включение учеников в практические задания, которые помогали им применять усвоенные знания в реальной жизни. Практическое обучение позволяло ученикам лучше усваивать материал и понимать его применимость, что способствовало их развитию и успешной адаптации в обществе.

Методы обучения, разработанные Мыслителя, были основаны на его философии образования. Он предлагал систему вопросов и ответов, которая помогала студентам активно участвовать в процессе обучения. Эта методика способствовала развитию критического мышления и позволяла проверить понимание материала. Ибн Сина также использовал аналогии и метафоры для объяснения сложных концепций, что помогало студентам лучше усвоить информацию. Применение практических заданий было еще одним методом обучения, который позволял студентам применить свои знания на практике и укрепить связь между теорией и реальной жизнью. Наконец, Авиценна придавал большое значение развитию эмоционального интеллекта, что помогало студентам развивать эмоциональную и социальную компетентность.

Также он уделял большое внимание развитию эмоционального интеллекта студентов. Он считал, что развитие эмоциональной и социальной компетентности является неотъемлемой частью образования. Для достижения этой цели, Ибн Сина предлагал различные методы, такие как участие в коллективных проектах, обсуждение этических вопросов и развитие эмпатии. Развитие эмоционального интеллекта помогало студентам лучше понимать себя и других людей, улучшало их коммуникативные навыки и способствовало развитию лидерских качеств.

Педагогические воззрение Авиценны оказали значительное влияние на современное образование и его взгляды к обучению основывается на индивидуальном подходе к каждому ученику, учитывая его особенности и потребности. Разработанная мыслителем интерактивные методы обучения, которые активно привлекают учеников к учебному процессу и позволяют им активно участвовать в обсуждениях и открыто высказывать свои мысли. Развитие этической компетентности является важной составляющей образования в соответствии с идеями Ибн Сины. Ученики учатся не только получать знания, но и применять их в реальной жизни, что способствует практическому использованию знаний.

Интерактивные методы обучения, предложенные Ибн Сины, нашли широкое применение в современной педагогике. Они активно вовлекают учеников в учебный процесс и позволяют им активно участвовать в обсуждениях и решении задач. Такие методы как дискуссии, групповая работа, ролевые игры и проектные задания стимулируют мышление, развивают коммуникативные и творческие навыки учеников. Интерактивные методы обучения способствуют формированию критического мышления и активной позиции ученика в процессе обучения. Педагоги учитывают разные стили обучения, особенности уровня знаний и способности каждого ученика. Индивидуальный подход позволяет эффективно адаптировать образовательный процесс под потребности каждого ученика,

создавая условия для его развития и успеха. Благодаря учету индивидуальных особенностей учеников образование становится более эффективным и инклюзивным.[3]

По мнению ученного мира развитие этической компетентности является важным аспектом современного образования, вдохновленным идеями Ибн Сины. Ученики изучают не только предметные знания, но и принципы морали и этики. Это включает в себя развитие навыков межличностного общения, уважительного отношения к другим и культуры толерантности. Развитие этической компетентности помогает ученикам стать ответственными гражданами и формировать правильные ценности в своей жизни.[4]

В заключении статьи становится ясно, что педагогические принципы и методы Ибн Сины имеют значительное влияние на современное образование. Индивидуальный подход к обучению, развитие критического мышления, связь образования и морали, а также практическое применение знаний - все эти принципы идеально соответствуют современным потребностям образовательной системы. Методы, разработанные Ибн Сины, такие как система вопросов и ответов, использование аналогий и метафор, применение практических заданий и развитие эмоционального интеллекта, также являются актуальными и эффективными в современном обучении. Интерактивные методы обучения, учет индивидуальных особенностей учеников, развитие этической компетентности и практическое применение знаний в реальной жизни - все это получило вдохновение от педагогических идей Ибн Сины. Таким образом, вклад Ибн Сины в образование остается значительным и актуальным на сегодняшний день.

Использованная литература:

1. Сагадеев А.В. Ибн-Сина (Авиценна). – М., «Мысль», 1980.
2. Ramziddin, I., 2023. REFLECTION OF ISLAMIC METAPHYSICS IN THE WORKS OF IBN SINA. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 8, pp.5-13
3. Verbeke G. Le statut de la métaphysique // Simon Van Riet. Avicenna Latinus, liber de philosophia prima sive scientia divina 1-IV. Louvain: E.Peeters; Leiden: E.J.Brill, 1977. P. 27
4. Safarova, N. O. Philosophy of the algorithm of Abu Raikhan Beruniy.// Theoretical & Applied Science. 12(104) 2021.- Pages 419-421. https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.12.104.28

TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR PEDAGOGIK TAJRIBALARI

O‘zbekiston, Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim samaradorligini oshirishda xorijiy va zamonaviy tajribalarni O‘zbekiston ta’lim sohasida qo‘llash bo‘yicha chora-tadbirlar haqida so‘z yuritilgan, shuningdek Rossiya, Qozog’iston, Koreya, Italiya kabi ilg'or xorijiy ta’lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta’lim dasturlari qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xorij tajribalar, ta’lim islohotlari, maktabgacha ta’lim, innovatsiya, islohotlar.

Аннотация: В данной статье рассказывается о мерах по применению зарубежного и современного опыта в сфере образования в Узбекистане для повышения эффективности образования, а также кратко анализируется структура, опыт и современные образовательные программы передовых зарубежных систем образования, таких как Россия, Казахстан, Корея, Италия.

Ключевые слова: зарубежный опыт, образовательная реформа, дошкольное образование, инновации, реформы.

Abstract: This article discusses measures for the application of foreign and modern experiences in the educational sphere of Uzbekistan in improving the effectiveness of education, as well as a brief analysis of the structure, experience and modern educational programs of the advanced foreign education system such as Russia, Kazakhstan, Korea, Italy.

Key words: foreign experiences, educational reform, preschool education, innovation, reform.

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Rossiyaning ilg'or innovatsion pedagogik tajribalari. Maktabgacha ta'lim. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari: maktabgacha ta'limning mavjudligini ta'minlash va sifatini oshirish hisoblanadi. Ushbu muammolar "Rossiya Federatsiyasida ta'lim to'g'risida" Federal qonunining 89-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan ta'lim tizimini samarali boshqarish orqali hal qilinadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati Rossiya Federatsiyasining Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (1991) o'z aksini topgan. Qonun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi, ularning funksiya va majburiyatlarini belgilab berdi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli dasturlar bo'yicha ishlash huquqini ta'minladi.

Bugungi kun ta'lim standartlari "Bolalar huquqlari Xalqaro Konvensiya"sida ifodalanib, unda quyidagilar ta'kidlanadi:

– bolalar ta'lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;

– kattalar bolalarga o'qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;

– ta'lim o'z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o'z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo'lishi zarur;

– o'quv jarayoni qatnashchilarining o'zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifodalashga asoslangan bo'lishi kerak.

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukammallashib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go'dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari (MTM) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan. Ayrim mutaxassislar bolalar bog'chalariga hojat yo'q, maktabgacha tarbiya esa to'liq ota-onalar zimmasiga yuklatilsin va ularning o'zlari bolani 1-sinfga qaerda va qanday qilib tayyorlash yo'lini hal qilsinlar, deb ta'kidlaydilar. Lekin statistik ma'lumotlarga ko'ra, MTMlar xizmatidan aksariyat ota-onalar foydalanadilar. Shuning uchun ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi kelajakda Rossiya maktabgacha tarbiya modernizatsiyasini birinchi darajali masalalaridan biri deb belgilaydi.

Qozog'istonning ta'lim tizimi. Maktabgacha ta'lim. Shaxsning shakllanishida, jamiyatda o'rnini topa olishida va uning rivojiga qo'shadigan hissasida erta yoshdagi ta'limning ahamiyati katta. Ommaviy axborot vositalarida ko'p takrorlanadigan "barkamol avlod" kabi ideal maqsadga erishish uchun aynan shu narsa zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim darajasi umumiy o'rta ta'lim darajasidan ancha farq qiladi. Barkamol avlodni yetishtirish o'rta maktabdan emas, maktabgacha bo'lgan davrdan boshlanadi.

Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilish imkoniyatini beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlarni chegaralashga imkon beradi. Shu sabali ta'limda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish ham maktabgacha ta'lim tizimiga yangiliklarni qo'llashda muhim sanaladi.

Fransiya ta'limi hamda maktabgacha ta'lim tizimi. Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqidagi qonun»i 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim

strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet-el pedagogikasidagi ilg‘or texnologiyalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.

Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh (2- 4 yosh),
- o‘rta guruh (4-5 yosh),
- katta guruh (5-6 yosh).

Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang‘ich ta’lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang‘ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o‘qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O‘quv mashg‘ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish 5 yil bo‘lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Italiya ta’limi. Maktabgacha ta’lim. Italiya-ta'lim darajasi yuqori bo‘lgan mamlakat sanaladi. XV asrda bu erda birinchi fanlar akademiyasi - "Linchei akademiyasi" tashkil etilgan. 12-asrda Evropadagi eng qadimgi Boloniya universiteti Italiyada tashkil etilgan. Bir oz vaqt o‘tgach, Padua, Neapol, Rim, Pizada universitetlar ochilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning soni 30 nafardan oshadi. Italiya ta'lim tizimi murakkab va bir necha yo‘nalishlardan iborat. Boshlang‘ich maktabda 5 yillik o‘qish muddati mavjud. Keyin 3 yoshli quyi o‘rta maktab bosqichi boshlanadi. Ushbu ikki bosqichda ta‘lim olish har bir fuqarodan qat‘iy talab qilinadi. To‘liq o‘rta ta'lim turli xil litsey va kasb-hunar maktablari tomonidan ta'minlanadi. Evropaning madaniy qadriyatlarining qariyb 60 foizi Italiyada to‘plangan. Rasmiy tili – italyan tili bo‘lib hisoblanadi.

*Koreya ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta‘lim***.** Janubiy koreya ta’lim tizimi Janubiy Koreya Respublikasi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo‘lgan asosiy vazifa - o‘z an’anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an’anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog‘lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta’lim tizimi UNISEF ekspertlari xulosasiga ko‘ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi” deb tan olingan.

Janubiy Koreyada bolalar bog‘chasi umumta’lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha tashkilotlarga beradilar. Bu tashkilotlarda mashg‘ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba’zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat.

Vatanimiz ta’limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limning qadr-qimmati, obro va nufuziga teng darajada unnig ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmogi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati:

1. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? - Boshlang‘ich ta’lim“ jurnali. 2019-yil. 12-son
2. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilm-fan (metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.

3. G.Anorqulova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
4. Samiyeva S. Yangi O‘zbekistonda bo‘lajak mutaxassislar kreativ qobiliyatini tarbiyalashning zamonaviy yo‘nalishlari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
5. Samiyeva S. Zamonaviy o ‘qituvchining pedagogik va loyihalash mahoratini rivojlantirish–davr talabi //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 33. – №. 33.

MAKTABGACHA TA’LIMDA MENEJMENT FAOLIYATI TURLARI VA BOSHQARUV TIZIMI

O‘zbekiston, Taylanova Shohida Zayniyevna

O‘zbekistonda ta’lim tizimlarini rivojlantirish, samaradorligini yuksak hamda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida amalga oshiralayotgan ta’lim tizimlarining ilg‘or tajribalarini milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish jarayonlari yoritib berilgan bo‘lsa[9], bugungi kunda “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar va maqsadlarda ta’lim tizimlariga ham e’tibor qaratilib, ta’limning ilk bosqichi maktabgacha ta’lim haqida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan[10]. Bunda maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi kundagi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish**,** maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish[11], maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022–2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tizimida byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish masalalari qamrab olingan[12].

Maktabgacha ta’lim tashkiloti - uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bosqichi, jamiyatning eng muhim ijtimoiy qatlamidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim tizimlarining uzluksizligi va o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, bunda:

Ta’lim tizimi:

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

[9] 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича [матн] / Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети – Т.: «Маънавият» нашриёти, 2017- йил, 190-б.

[10] “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.

[11] Yuqoridagi manba, 37-bet.

[12] “2022-2026 yillarga mo`lgallangan yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.

- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;
- ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;
- ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi[13].

Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir. Ushbu Qonunda ta’lim turlari:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta;
- o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim etib belgilab berilgan.

Ushbu Qonunning 8 - moddasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, bu tashkilot bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy - axloqiy, etnik, etika, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turi ekanligi va maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi ko‘rsatib berilgan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun bilan va shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi[14].

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullanib, 16 dekabrda tasdiqlanib, 2020 - yil 16 - iyundan boshlab amalda qo‘llanilmoqda. Bu 11 bob, 58 moddadan iborat.

Ushbu Qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa Qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi[15].

Barcha turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016 yil 29 dekabrdagi PQ – 2707 -son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari Maktabgacha ta’lim Vazirligi tasarrufiga kiradi. Respublikamizda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan birga nodavlat, xususiy, davlat sherikchilik va oilaviy MTT ham faoliyat yuritadi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga va boshqa normativ- huquqiy hujjatlarga, shuningdek Nizomga amal qiladi. Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va

[13] “Ta’lim to‘g‘risida”gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet.

[14] Yuqoridagi manbaa, 4 - bet.

[15] “Maktabgacha ta`lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun T.:2019- yil, 16-dekabr, O‘RQ – 595-son.

integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati NIZOM asosida tartibga solinadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”[16], - deb ta’kidlagan edi.

Mamlakatizimda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish, bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo‘lgan davrda har tomonlama puxta ta’lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularni singdirish, ularni maktabda qanday o‘qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jihatdan ularning maktabgacha ta’lim tashkilotida oladigan tarbiyasiga bog‘liqdir.

Majlisda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlangich ta’lim tashkilotlariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, vazirliklar tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta’lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o‘zgartirish, ularni eng ilg‘or oliy ta’lim tashkilotlari tarkibiga o‘tkazish orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga eng kuchli va tajribali professor-o‘qituvchilar ta’lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2017 yil.

2. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили»да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича [матн] / Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети – Т.: «Маънавият» нашриёти, 2017- йил, 190-б.

3. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 36-37-betlar.

4. “Ta’lim to‘g‘risida”gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL VA OLIY TA’LIM UZVIYLIGINING KONSEPTUAL ASOSLARI

O‘zbekiston, NamDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti Qoraboyeva Zohida To‘lanboyevna

Annotatsiya: maqolada uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida faoliyat yuritadigan yangi avlod kadrlarini tayyorlashda professional va oliy ta’lim uzviyligining me’yoriy asoslari va pedagogik imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kadrlar siyosati; uzviylik; maktabgacha ta’lim yo‘nalishi; pedagog kadrlar; pedagogika kolleji; ta’lim yo‘nalishlariaro uzviylik; fanlararo uzviylik; mavzulararo uzviylik.

Аннотация: в статье говорится о нормативных основах и педагогических возможностях интеграции профессионального и высшего образования при подготовке кадров нового поколения, работающих во всех звеньях системы непрерывного образования.

[16] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2017 yil.

Ключевые слова: кадровая политика; единство; дошкольное образование; педагогический персонал; педагогический колледж; интеграция между образовательными областями; междисциплинарность; межпредметная согласованность.

Key words: personnel policy; unity; preschool education; teaching staff; College of Education; integration between educational fields; interdisciplinarity; interdisciplinary consistency.

Mamlakatimizda davlat va Hukumat tomonidan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakl va usullarini tatbiq etishning samarali mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Ma’lumki, ta’lim sifatini ta’minlashning etakchi omillaridan biri – pedagogik xodimlar (rahbarlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi-murabbiylar)larning bilim darajasi va pedagogik mahoratga ega bo‘lishidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash va qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish [1] zarurligi xalq ta’limini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tirof etildi.

Ushbu Farmonga muvofiq qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, malakali professional kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish xalq ta’limi tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiritildi va unda pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarini ta’limning kredit tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish, pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika kabi fanlarga alohida e’tibor qaratgan holda, o‘quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko‘zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash maokazlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, bo‘lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish, shuningdek, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining sirtqi ta’lim yo‘nalishlari uchun qabul kvotalarini oshirish [2] kabi muhim vazifalarni amalga oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari (maktabgacha, umumta’lim, professional va oliy ta’lim)da faoliyat yuritadigan ma’naviy va intellektual salohiyati yuksak bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlashda uzviylik tamoyiliga tayanish dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda “uzviylik” tushunchasiga kasbiy ta’lim nuqtai nazaridan yondashish ko‘zda tutiladi. Bunda uzviylik ta’lim turlari o‘rtasidagi davom etayotgan o‘qitish jarayonida yangi ma’lumotlarni o‘rganish mazmuni oldingisini mantiqan davom ettirishi, qisman takrorlashni ifodalaydi. Muallif G.G.Yuldasheva ta’limdagi uzviylik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar rivojlanishidagi turli bosqichlar orasidagi bog‘lanish ekanligini ta’kidlab, ilgarigi bosqichda o‘zlashtirilgan bilimlar saqlanadi va yangi bilimlar yaxlit holga keladi, deb ta’riflaydi [4].

Uzluksiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirilishida malakali kadrlarning o‘rni kattadir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kamida o‘rta maxsus pedagogik ma’lumotga ega bo‘lishlari, agarda boshqa yo‘nalish bo‘yicha o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lganlar maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kurslarini o‘tagan bo‘lishlari talab etiladi. Shuning uchun uzviylik tamoyili asosida professional ta’lim tizimidagi pedagogika kollejlari va oliy ta’lim muassasalarida maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashda uzviylik tamoyiliga e’tibor berish zarur deb hisoblaymiz.

2017 yilga kelib, maktabgacha ta’lim tizimining oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini hududlar bo‘yicha o‘rganish va tahlil natijalariga ko‘ra pedagogika yo‘nalishiga

ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalariga maqsadli qabul kvotalarini shakllantirish chora-tadbirlari belgilandi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan, ta’lim va tarbiyaning ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirgan pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadida pedagogika kollejlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018/2019 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2018-2019 yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarida “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash o‘qish muddati 3 yil bo‘lgan bakalavriat ta’lim dasturlari doirasida amalga oshirila[5] boshlandi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejalari malakali mutaxassislarga qo‘yilayotgan talablarga muvofiq ishlab chiqilib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda tasdiqlandi. Respublikada maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan, ta’lim va tarbiyaning ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirgan pedagog kadrlar va mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Qarorda pedagogika yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarini qayta tashkil etish taklif ma’qullandi[3]. Bugungi kunda respublikamizning barcha viloyatlarida pedagogika kollejlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun 4.11.02.01-Maktabgacha ta’lim yordamchi tarbiyachisi va 4.11.02.02-Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kasbi bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Professional va oliy ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim sohasiga malakali kadrlar tayyorlash uzviyligini quyidagi pedagogik ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘ib, bunda davlat ta’lim standartlari va malaka talablari, umumkasbiy va ixnisislik fanlarini oqitish jarayoni va mazmuni, ta’lim shakllari va vositalari orasidagi integratsiyani ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini e’toborga olsh nazarda tutiladi (1-rasm).

Pedagogik ta’lim yo‘nalishlari	
Professional ta’lim	Oliy ta’lim
4.11.01.01 – Musiqiy ta’lim 4.11.02.01-Maktabgacha ta’lim yordamchi tarbiyachisi 4.11.02.02 - Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi 4.11.04.01- Jismoniy tarbiya	60110100 - Pedagogika va psixologiya 60110200 - Maktabgacha ta’lim 60110300 - Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi 60110500 - Boshlang‘ich ta’lim 60111300 - Musiqa ta’limi 60111900 - Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya va sport 60112600 - Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (tiplar bo‘yicha)

1-rasm. Professional va oliy ta’lim tizimidagi pedagogik ta’lim yo‘nalishlari.

Yuqorida qayd etilgan ta’lim yo‘nalishlari o‘rtasidagi uzviylik quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topishi mumkin:

- professional ta’limdan keyingi bosqichda o‘qishni davom ettirish istagida bo‘lgan talabalar seleksiyasi;
- o‘quv jarayonlariaro uzviylik: nazariy va amaliy ta’lim, pedagogik va malakaviy amaliyot bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- fanlararo: majburiy fanlar, ixtisoslik fanlari, tanlov fanlari mazmuni bo‘yicha uzviylik;
- mavzulararo uzviylik shakllari: ixtisoslik fanlaridan mavzular, boblar; bo‘limlari o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslangan o‘quv materiallari (o‘quv – didaktik ta’minot)ni yaratish;
- malakali professor-o‘qituvchilarning pedagogika kollejlarida va oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashdagi ishtirokini ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim sohasiga malakali kadrlar tayyorlash uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida uzviylik tamoyiliga asoslanishi, bunda professional va oliy

ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari katta bo‘lib, bunda tizimlilik, ta’lim mazmunida yaxlitlik, o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuv yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoniga 1-Ilova.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 418-sonli Qarori
4. Yuldasheva G.G. Fizikani o‘qitishda uzviylikni o‘rni //EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. www.in-academy.uz Volume 2 Issue 13, December 2022. 856-859-betlar.
5. http://uza.uz/oz/documentsida-zbekiston-respublikasining-oliy-talim-mu-05-06-2018.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Узбекистан, директор центра дошкольного и общесреднего образования при Университете Пучон в г. Ташкенте
Пак Светлана Викторовна

Annotatsiya: maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishini boshqarish sohasida maktabgacha tarbiya fakulteti talabalarining kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlarga bag'ishlangan. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishi bolaning mantiqiy, ijodiy va kreativ fikrlashiga asos yaratadi, bu esa o‘z navbatida kattalar hayotidagi qiyin muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Abstract: The article is dedicated to modern approaches to forming professional competencies of students from the preschool education department in the field of managing the mathematical development of preschool children. The mathematical development of preschoolers lays the foundations for a child's logical, creative, and innovative thinking, which in turn will help in solving complex tasks in adult life.

Аннотация: Статья посвящена современным подходам к формированию профессиональных компетенций студентов дошкольного факультета в области управления математическим развитием дошкольников. Именно математическое развитие дошкольников закладывает основы для логического, творческого и креативного мышления ребенка, что в свою очередь поможет в решении сложных задач во взрослой жизни.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim, kasbiy kompetentsiyalar, matematik rivojlanish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

Keywords: preschool education, professional competencies, mathematical development, personality-oriented approach.

Ключевые слова: дошкольное образование, профессиональные компетенции, математическое развитие, личностно-ориентированный подход.

Область дошкольного образования считается основным звеном системы непрерывного образования и имеет чрезвычайно важное значение в воспитании здорового и всесторонне развитого ребенка. За последние годы система образования и воспитания компетентного поколения в республике были подняты на уровень основных приоритетов государственной политики, определены стратегические задачи, особое внимание уделялось повышению качества образования. За счет повышения качества дошкольного образования и

внедрения альтернативных форм подготовки детей к школе обеспечивается дальнейшее совершенствование образовательного процесса.

Государственный образовательный документ в области дошкольного образования в стране подразумевает под собой создание необходимых благоприятных условий для всестороннего развития личности ребенка. Основным условием воспитания и обучения детей дошкольного возраста является содержание предметно-развивающей среды, которое предусмотрено Государственными требованиями к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан.[1] Также Государственная учебная программа Илк кадам для дошкольной образовательной организации подчеркивает роль и важность содержания и организации образовательно-воспитательного процесса, направленного на формирование гармонично-развитой личности ребенка. [4]

Анализ передового опыта зарубежных стран характеризуется направленностью на создание условий для развития дошкольников в современных дошкольных организациях, демонстрацию возможностей позитивной социализации ребенка, его всестороннего духовно-нравственного и сознательного развития. Физическое, умственное, социально-эмоциональное развитие дошкольников в организациях дошкольного образования и охрана их здоровья, развитие свободомыслия детей, творческих способностей, нравственной и духовной подготовки к школьному обучению зависит от мастерства, знаний и опыта педагогов дошкольного образования. Перед высшими учебными заведениями стоит задача по подготовке будущих педагогов дошкольного образования, способных создать такую образовательную среду, в которой есть место для критического и креативного мышления, для развития эмоционального интеллекта. А это говорит о том, на сколько будущий педагог может овладеть не просто знаниями и умениями в области дошкольной педагогики, а каким образом он будет применять современные методики, каким образом будет происходить интеграция областей развития, на сколько деятельность, организованная для детей, способна решать современные задачи.

Совсем недано мы стояли на пороге информационных технологий, а сегодня мы погружены в мир искусственного интеллекта и цифровизации. Это еще больше подчеркивает роль и место математики в жизни человека. Актуальность вопросов математического развития дошкольников привлекают все больше внимания специалистов в области педагогики. Математические компетенции играют важную роль в формировании когнитивных процессов у детей, поэтому необходимо обеспечить будущих педагогов необходимыми знаниями и навыками в управлении математическим развитием детей дошкольного возраста.

В.А.Крутецкий характеризует математические способности как "индивидуально-психологические особенности человека, помогающие ему при прочих равных условиях относительно быстрее, лучше и глубже овладевать знаниями, умениями и навыками в области математики". [5]

В процессе обучения дошкольников математике, важно рассматривать формирования профессиональной готовности студентов по методике математического развития дошкольников. Современные подходы к формированию профессиональных компетенций студентов в области управления математическим развитием детей дошкольного возраста включают в себя использование инновационных методов обучения, акцент на практическое применение знаний и навыков, а также учет современных методов обучения и индивидуальных особенностей каждого ребенка.

На сегодняшний день самым важным является внедрение игровых методик в обучении математике. Игровой подход позволяет детям учиться через игру, что способствует более легкому и интересному усвоению материала. Будущим педагогам дошкольникам необходимо получить навыки по разработке игровых занятий и дидактических игр, которые способствуют развитию математических навыков у дошкольников. Другим важным подходом является применение личностно-ориентированного подхода в организации обучения. Студентам дошкольного факультета важно изучить методики диагностики и работы с детьми с разным уровнем математических способностей, что позволяет им

адаптировать образовательный процесс под индивидуальные потребности каждого ребенка. Опираясь на этапы, предложенные Абашиной В.В. в исследовании по подготовке будущих педагогов к управлению математическим развитием детей, такие как: планирование, организация и контроль. При планировании необходимы такие педагогические умения, как проектировочные и конструктивные. При организации деятельности важны организаторские умения. Контроль включает в себя сам контроль деятельности, оценка результатов и определение новых педагогических задач. [2]

Развитие мышления детей осуществляется путем формирования первых элементарных математических представлений. При этом первые математические представления формируются в каждодневном опыте ребенка путем счета, сравнения размеров, определения положения. Одновременно с этим педагогу необходимо создавать среду, в которой будет происходить развитие таких мыслительных операций, как анализ, синтез, сравнение и другие. Это позволит дошкольникам приобрести навыки логического мышления уже в дошкольном возрасте и создаст необходимую почву для положительного отношения к изучению математики.

Сегодня мы говорим о личностно-ориентированном подходе в обучении, но сталкиваемся с проблемой, что педагоги-воспитатели не способны в полной мере предоставить детям выбор, всегда исходить из интересов детей, потому что сегодня не всегда педагоги обладают навыками творческого подхода к организации учебной деятельности по математике. Поэтому при подготовке будущих специалистов дошкольного образования по формированию математических представлений детей необходимо показывать целесообразные методы по изучению математики, применять лучшие зарубежные опыты и современные педагогические технологии, которые помогут в практической работе педагогов-дошкольников организовать учебный процесс, а также обеспечивать формирование навыков самостоятельного мышления у дошкольников. Очень важно формировать математическое воображение, которое впоследствии повлияет на усвоение математических знаний. В современной методике использование современных технологий обучения является важным фактором обеспечения целостности образования. Современной дошкольной организации нужен педагог, который способен с учетом дидактических принципов, опираясь на возрастные и индивидуальные особенности детей, планировать и организовывать педагогически грамотную и целесообразную систему работы, осуществлять субъект – субъектное взаимодействие с детьми, направленное не только на их развитие, но и саморазвитие, регулировать и корректировать ход и результаты образовательного процесса с учётом обратной связи. [3]

Таким образом, современные подходы к формированию профессиональных компетенций студентов дошкольного факультета в области управления математическим развитием дошкольников играет важную роль в подготовке будущих педагогов дошкольных образовательных организаций. Использование инновационных методов помогают студентам приобрести необходимые знания и навыки для успешной работы в области дошкольной педагогики. Внедрение современных подходов позволит обеспечить высокое качество образования и развития дошкольников в области математики.

Список литературы:

1. Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан.

2. Абашина В. В. Профессиональная подготовка будущих педагогов к управлению математическим развитием детей дошкольного возраста: Дис. канд. пед. наук: 13.00.01: Сургут, 1998. - 184 с.

3. Абашина В.В. О профессиональной компетентности будущих педагогов дошкольного образования. Межд. журнал эксперим. образования. – 2016, №4 (часть 2) - 205 с

4. Грошева И.В., Мирзиеева Ш.Ш., Евстафьева Л.Г., Махмудова Д.Т., Набиханова Ш.Б., Пак С.В., Назарова В.А., Исакова М.Р., Абдуназарова Н.Ф. Государственная учебная программа «Илк кадам» для дошкольных образовательных учреждений Республики Узбекистан \издание второе, дополненное\ – Т., 2022

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Xodjiyeva Farog‘at Oltiyevna
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimidagi islohotlar, Alisher Navoiy ijodiy merosining barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati va maktabgacha ta’lim tizimida mutafakkir ijodini o‘rganish muammolari hamda tashkil etish shakl, yo‘llari haqida fikr bayon etilgan

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, Alisher Navoiy, tarbiya, reja va dasturlar.

Annotation: This article describes reforms in the education system, the significance of Alisher Navoi’s creative heritage in the education of the mature generation, the problems of studying the thinker’s creativity in the preschool education system, as well as forms and methods of organization.

Keywords: preschool education, Alisher Navoi, education, plan and programs.

Аннотация: В данной статье описаны реформы в системе образования, значение творческого наследия Алишера Навои в воспитании зрелого поколения, проблемы изучения творчества мыслителя в системе дошкольного образования, а также формы и способы организации.

Ключевые слова: дошкольное образование, Алишер Навои, образование, план и программы

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni[1] ga asosan jamiyatimizning barcha sohalarini, jumladan, ijtimoiy soha, ta’lim-tarbiya tizimi va maktabgacha ta’limni rivojlantirish va jahon standartlari darajasiga ko‘tarish vazifalari belgilandi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimiga katta e’tibor berilib, unga oid qator farmon va qarorlar chiqarildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo‘lmay ulg’ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to‘g’risida”gi PQ-3305-sonli, “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2707-sonli Qarori maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz... Bu vazifani amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz[2]”, degan so‘zlari o‘tmish allomalarimizning merosidan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, buyuk mutafakir Alisher Navoiy merosi o‘zining umrboqiyligi va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati bilan alohida o‘rin tutadi.

Bugungi kunda ziyolilar, o‘qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biri ham o‘tmish ma’naviy merosimizni yosh avlodga yetkazish va buni yetkazishning yanada samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Navoiy dahosiga alohida ehtirom bilan qaraganlari bizga ibrat namunasi bo‘lib xizmat qildi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar ijodini keng o‘rganish va ularni targ’ib etish, ayniqsa, kitobxonlikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Prezidentimizning alohida ko‘rsatmalari asosida “Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy – ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazib kelinmoqda.

Navoiy shahar maktabgacha ta’lim muassasalarida 2018 yil noyabr oyida Navoiy shaharining 60 yillik yubilieyi munosabati bilan “Ona shahrim Navoiy” mavzusida bir hafta mobaynida kechalar tashkil qilinib, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosiga hamda shahrimizning 60 yil mobaynida erishilgan yutuqlari bolalar yoshiga moslab tashkil etilib o‘tkazildi.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxs-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligi, obodonchilik ishlariga, ilm-san’at va adabiyot taraqqiyotiga bag’ishladi. Alisher Navoiy tarixning besh arsdan ziyod g’oyatda murakkab va g’oyatda to‘lqinli sinovidan o‘tib, avlodlar va asrlarga hamroh bo‘lib, ularga ma’naviy madad berib, yaxshilikka, insonning baxt-saodati uchun kurashga da’vat etadi. U qoldirgan madaniy, ilmiy va badiiy meros, uning vasiyatlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Navoiy merosining ahamiyati kundan –kunga ortib bormoqda. Uning asarlarida ilgari surilgan g’oyalar hozirgi kunimiz uchun ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun Alisher Navoiyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini keng o‘rganish va yoshlar, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar o‘rtasida targ’ib qilish, ularning murg’ak qalblariga, ongiga komil insonga xos bo‘lgan eng muhim axloqiy fazilatlarni singdirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida Navoiy ijodiy merosi asosida ma’naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishda xilma-xil usullar qo‘llaniladi:

- maktabgacha ta’lim mashg’ulotlarida mavzu mazmuniga mos holda Alisher Navoiyning asarlaridan foydalanish;
- bolalar nutqini rivojlantirishga oid mashg’ulotlarda alloma hayoti, ijodi va asarlari yuzasidan turli suhbatlar o‘tkazish;
- turli ertaliklar, bayramlar o‘tkazish jarayonida Navoiy hikmatlaridan foydalanish;
- badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayonida bolalarning yoshini inobatga olgan holda Alisher Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganish.

Buyuk bobomizning siymosi maktabgacha ta'lim muassasalarida ikki xil usulda o‘rgatilmoqda. Ya'ni, shoir obrazi yaratilgan asarlar (afsona, rivoyat, yozuvchilarning asarlari) hamda bevosita Navoiyning ayrim asarlaridan olingan hikoyatlar, hikmatlar orqali. Bunday uzviylik ta'lim tizimidagi uzluksizlikni ta'min etib, kichkintoylarning ulug' bobolari haqida hech qiynalmay har tomonlama ma'lumot olishlariga imkon beradi.

Alisher Navoiyning nasriy, nazmiy, ilmiy asarlari, jumladan, “Xamsa” tarkibidagi “Hayrat ul-abror” asari maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat o‘quv dasturi “Ilk qadam”da “Nutqni rivojlantirish” va “Badiiy adabiyot” mashg’ulotlari kiritilgan bo‘lib, ularda Navoiy merosidan foydalanishning imkoniyati mavjud. Ushbu mashg’ulotlarda Navoiyning “Sher bilan Durroj”, “Himmatli bo‘lsang”, “Ikki vafoli yor”, “Bir kabutar” kabi hikoyatlarini hikoya qilib berish mumkin. Tarbiyachi bu hikoyatlarni bolalarga so‘zlab beradi, hikoya qilish chog’ida bolalar gap nima haqida ketayotganligiga e’tibor berishlarini nazorat qilib turishi shart. Kerakli o‘rinlarda savollar bilan murojaat qilib, bolalarni bahsga tortishi lozim. Bunda bola erkin fikrlashga, o‘z fikrini bemalol bayon qilishga o‘rganadi, qolaversa boshqalar fikrini eshitishga, hurmatlashga o‘rganish orqali odob-axloq normalarini o‘zlashtirib boradi.

“Sher bilan Durroj” hikoyati orqali bola yolg’onchilikning oqibatlari xususida Durrojning yolg’on gapirishlaridan bilib oladi. Tarbiyachi bu o‘rinda qahramonlarni alohida ta’riflab o‘tsa yaxshi bo‘ladi. Sher – bu o‘rmonlar shohi. U hech narsadan qo‘rqmaydi. Lekin u o‘z bolalarini o‘ylaydi. Durrojning u yoqdan – bu yoqqa qilgan tinimsiz harakatlari bolalari tinchligini buzayapti. Shuning uchun katta bo‘lishiga qaramasdan Durroj oldida bosh egib, u bilan do‘stlashdi. Mana shu

o‘rinda tarbiyachi bolalarga o‘z onalarining ular uchun hamma narsaga tayyorligini ta’kidlab, shuning uchun onalarining qadriga yetishi, ularni har doim yaxshi ko‘rishi, ardoqlash, aytganlarini so‘zsiz bajarishi kerakliligini aytib o‘tsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Vaziyatga qarab bolalardan navbatma-navbat onalariga qanday munosabatda bo‘lishlari haqida so‘rab borilsa ham o‘rinli bo‘ladi.

Durrojning mahmadonaligi, o‘zbilarmonchiligi, yolg’onchiligi o‘z boshiga kulfat olib kelganligini tarbiyachi obrazli qilib bolalarga yetkazishi lozim. Bolalardan bu holatga munosabatlarini ham so‘rasa yaxshi bo‘ladi. Shunda bolaning yolg’on va yolg’onchilikka nafrati oshadi, oqibati yomon bo‘lishini sezib yolg’on gapirmaslik lozim degan fikrni miyasida mustahkamlaydi. Boladagi rostgo‘ylik xususiyatining shakllanishi uning ma’naviyati yuksalayotganligidan dalolat beradi. Har bir hikoyat bola dunyoqarashini kengaytirib, undagi insoniy fazilatlarni o‘stirishda ko‘maklashadi.

Bulardan tashqari “Hayrat ul-abror” dostonidagi adablilik odati, qanoat, saxiylik to‘g’risidagi hikoyatlarni ham dastur tarkibiga kiritish lozim. Ularda aks etgan insoniy sifat va xususiyatlar orqali bolalar tafakkuri shakllantirilsa maqsadga muvofiq ish bo‘lar edi.

Alisher Navoiyning “Sher bilan Durroj” masali asosida bog’cha bolalari uchun nafaqat rasmli o‘yinchoq kitoblar, balki go‘zal multifilm yaratish mumkin. Qolaversa “Yolg’onchi”, “Hotami Toy hikoyati”, “Ko‘rlar va fil” hikoyati, “Marhamatli Ayub va o‘g’ri”,” Suhayl va Mehr”, “Muqbil va Mudbir” kabi o‘nlab syujetlar mazmuniga mos go‘zal rasmlar ishlab shu xildagi rang - barang rasmli kitobchalar hamda multifilmlar, qo‘g’irchoq teatri spektikllari yaratishda navoiyshunos olimlar, rassomlar, dramaturglar, rejissyorlar, aktyorlar va noshirlarning hamkorligi zarur.

Maktabgacha ta’lim muassasaida o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda ham mutafakkir merosidan foydalanishning imkoniyatlari keng.

Maktabgacha ta’lim tizimida buyuk mutafakkirlar, allomalar, jumladan Alisher Navoiy ijodiy merosidan foydalanishda quyidagi qator muammolar mavjud:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalari mashg’ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarini tashkil etishda Navoiy merosidan foydalanish yo‘llari uslubiy ta’minlanmagan va uni o‘rganishning noan’anaviy uslublari ishlab chiqilmagan.
2. MTMlarda Alisher Navoiyning merosini o‘rganishga bag’ishlangan ishlanmalar, dasturlar, uslubiy tavsiyanomalar yetishmaydi.
3. Milliy-ma’naviy tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zaruriy yangi qo‘llanmalar, yo‘l-yo‘riqlar yaratilmagan. Bu borada tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hozirgi zamon talablaridan orqada qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, mutafakkir merosini mashg’ulotlar jarayonida o‘rganish quyidagi izchillikda takomillashtirilmog’i lozim:

- Alisher Navoiy ijodiy merosidan maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari yoshi va tafakkuriga mos keladigan materiallarni tanlab olish va muammoni hal etishni pedagogik texnologiya asosiga qurish.
- mashg’ulotlarining namunaviy ishlanmalarini ishlab chiqish, tavsiyanomalar yaratish.
- maktabgacha ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning yangi, milliy, tarbiyaviy imkoniyatlarini va yo‘llarini qidirib topish va ularni amaliyotda izchil qo‘llash.
- maktabgacha ta’limga mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta’lim va pedagogik yo‘nalishdagi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonini, reja va dasturlarini takomillashtirish.
- mashg’ulotlar samaradorligini oshirishning pedagogik, psixologik va uslubiy mexanizmini takomillashtirish.

Ana shundagina, milliy, ma’naviy, tarixiy qadriyatlarimizdan, xususan Alisher Navoiy merosi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo‘ladi.

Yirik adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning: yoshlarimiz Navoiyni qanalik chuqur va puxta bilsa, ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so‘zlari diliga o‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi.

Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o‘z-o‘zidan xalq dardu tashvishlarini yengillatishga bel bog’laydi, fikrni-fikrsizlikka, ilm-ma’rifatni - nodonlik va jaholatga qarshi qurol o‘rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish - odamiylik, diyonat va iymon -e’tiqodning kuchiga ishonch demak. Ko‘nglida shu ishonch g’olib bo‘lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko‘paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi, - degan fikrlari Alisher Navoiyni o‘rganishga ehtiyoj bugungi kunda yanada oshib borayotganligini bildiradi. Shundan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar ma’naviyatini shakllantirishda Navoiy merosidan foydalanishni ham davr talab qilayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **«O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g’risida»**gi Farmoni, 2017 yil, 7-fevral

2.Мирзиёев.Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.-Т., 2017 й, 22 б

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сон Фармони.

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2707-сонли қарори. 2016 йил.

5.“Илк қадам”, Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури, Тошкент – 2018 йил

1. Навоий Алишер. Ҳайрат ул-аброр, МАТ,7-жилд, Тошкент, 1991

ОБЩЕНИЕ КАК ВАЖНЕЙШЕЕ УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ

Узбекистан, НГПИ
DSc. Давлатова Раъно Хайдаровна

Дошкольная ступень сохраняет самоценность дошкольного детства, формирует фундаментальные личностные качества ребёнка, сохраняя «радость детства». Дошкольное образование - первая ступень, обеспечивающая преемственность воспитания и обучения ребенка в условиях дошкольной образовательной организации, семьи и школы. Центральное место на данной ступени занимают отношения между детьми и взрослыми, отношения с окружающим социумом.

Проблема развития речи детей - одна из важнейших в общей и специальной психологии и педагогике. Это обусловлено той ролью, которую речь играет в жизни человека, как основное средство общения, поэтому проблема обучения конструктивному речевому общению имеет социальную значимость и приобретает особую актуальность применительно к дошкольникам с речевыми дефектами.

Общение – взаимодействие двух (или более) людей, направленное на согласование и объединение усилий с целью налаживания отношений и достижения общегорезультата. Основной признак общения как осознанного психического процесса –двусторонняя активность, в ходе общения каждый участник выступает как полноправный партнёр, как личность.

Основным средством общения является речь. Но она возникает лишь на определенном этапе общения. Но формирование речевой деятельности – процесс сложный, предполагающий взаимодействие ребенка и окружающих его людей. Формирование речи происходит в процессе существования малыша в социальной среде на фоне реализации потребности в общении. Потребность в общении – одна из самых важных человеческих потребностей. Отношения с близкими, рождают наиболее острые и напряженные переживания, которые наполняют смыслом наши действия и поступки. Самые тяжелые переживания человека связаны с одиночеством или непонятностью другими людьми. А наиболее радостные и светлые чувства – любовь, признание, понимание – рождаются связанностью с другими и близостью.

Общение по праву считается одной из наиболее значимых человеческих ценностей. Концептуальные основы разработки проблемы общения заложены в трудах Л.С. Выготского, А.Н. Леонтьева, Д.Бабаева и других отечественных педагогов и психологов, которые рассматривали общение как одно из решающих условий психического развития человека, формирования его личности. Много исследований было посвящено вопросу о значении общения в жизни ребенка, в частности на первом году жизни. Этой проблеме посвящены работы М.И.Лисиной, Н.М.Аксариной, С.М.Кривиной, Л.А.Венгера, В.С.Мухиной, Е.Г.Курбяковой.

В дошкольном возрасте формируются две внеситуативные формы общения со взрослым: внеситуативно познавательная и внеситуативно личностная.

Таким образом, общение многолико; включает много форм, видов. До сих пор не существует единства в толковании понятия «общение», его механизмов. Это порождает различные подходы к изучению общения, однако, практически все исследователи отмечают, что без человеческого общения невозможно полноценное развитие ребенка; общение - важнейший фактор формирования личности, так же общение – это наилучший путь для того, чтобы познать себя. Функции общения:

1) организация совместной деятельности людей;

2) формирование и развитие межличностных отношений.

Эти функции определяют главные направления в развитии общения детей совзрослыми и сверстниками. Психологи А. В. Запорожец, Д.Б. Эльконин, А.А.Леонтьев рассматривали развитие ребёнка как процесс усвоения детьми общественно-исторического опыта, накопленного поколениями, который осуществляется только при помощи взрослых и который невозможен без общения. Общение со взрослыми обогащает содержание детского сознания. Для полноценного развития личности ребёнка необходимо общение с ухаживающим за ним взрослым, так как происходит обогащение опыта ребёнка (в общении задача, выдвигаемая взрослым, с го-товностью принимается ребёнком), подкрепление действий ребёнка (их поддержкаи коррекция). Общение со взрослым – главное условие для разрешения противоречий междуцелями и имеющимися в распоряжении ребёнка средствами общения, между желаемыми и достигнутыми формами и содержанием высказывания. Эти противоречия есть те движущие силы, которые стимулируют развитие речи ребёнка.

Появление речи в процессе общения происходит постепенно. Вначале ребёнок проявляет эмоции по отношению ко взрослому, затем происходит обмен эмоциями взрослого и ребёнка по поводу предмета (игрушки), при этом взрослый показывает и называет предмет или действие с ним, ребёнок начинает связывать данное слово с предметом. В дальнейшем эти совместные действия с предметом приводят к неполному речевому общению: взрослый говорит, а ребёнок голосом реагирует (гуканье, гуление, лепет). Подражание речи взрослого на уровне предречевых элементов в процессе общения развивает у ребёнка стремление инициативногопроцесса ко взрослому. Таким образом, в процессе ситуативно-личностного общения у ребёнка формируются все предпосылки для возникновения речи.

Литература:

1.Авдеева, Мещерякова. 1991. Вы и младенец: У истоков общения. М.

2.Аксарина Н.М. 1972. Воспитание детей раннего возраста. М.

3. Babayeva D. Nutq o‘stirish metodikasi. -Toshkent, 2009.

4.Галигузова,Смирнова. 1992. Ступени общения: От года до семи лет. М.

5.Развитие общения дошкольников: Характеристика основных форм общения со взрослым у детей от рождения и до семи лет.1974. / Под ред. А. В. Запорожца, М.И. Лисиной.

6.Общение и речь: Развитие речи у детей в общении со взрослым.1985. / Под. ред. М.И. Лисиной. М.

МУТАХАССИСНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Ўзбекистон, Мактабгача таълим методика кафедраси доцент
п.ф.н.НамДУ, Абдуллаева Масуда

Аннотация: Мутахассиснинг коммуникатив тайёрлиги, унда эмпативликни, хушмуомалаликни, дўстоналиликни, ўртоқлик ҳиссини, жамоатчиликни ривожлантиришни, касбдошлари билан ўзаро алоқалар муносабатларга тайёрлиги ва қодирлигини, ўзаро муносабатларда кераксиз кескинликларни юзага келтирмасликни, юзага келган қийинчиликни тўғри ҳал эта билишни, ишда ходимлар, касбдошлари билан муносабатларда муросага келишни кўзда тутади.

Калит сўзи: Мутахассис, коммуникатив, эмпативликни, хушмуомалаликни, дўстоналиликни, ўртоқлик ҳиссини, жамоатчиликни ривожлантиришни, касбдош, ходимлар муносабатлар.

Аннотация: Коммуникативная готовность специалиста, включающая в себя эмпатию, вежливость, дружелюбие, чувство товарищества, общительность, готовность и умение взаимодействовать с коллегами, не создавать лишней напряженности в отношениях, умение правильно решать возникшие трудности, идти на компромисс в отношениях с сотрудниками и коллегами по работе намерен приехать.

Ключевые слова: профессиональный, коммуникабельный, чуткий, вежливый, дружелюбный, товарищество, развитие сообщества, профессионал, отношения с работниками.

Annotation: Communicative readiness of a specialist, inclusive of empathy, care, friendship, feeling of friendship, communication, readiness and the ability to interact with colleagues rabote nameren priehat.

Key words: professional, communicative, quick, friendly, friendly, friendly, razvitie soobshchestva, professional, relationship with workers.

Мутахассиснинг касбий тайёргарлиги мураккаб кўп даражали ва тизимли психик кўриниш шаклга эга бўлиб, биринчи навбатда одамнинг шахсий кўриниши асосий ўрин эгаллайди. Шу билан бирга касбий тайёргарлик мутахассисда керакли даражада жисмоний соғлиқни, касбий фаолият учун зарцур бўлган жисмоний сифатлар шаклланганлиги ва ривожланганлигини талаб қилади. Чунки ҳар қандай касбий фаолият инсонинг қандайдир куч, жисмоний энергия сарфлашини кўзда тутади.

Мутахассиснинг касбий тайёргарлигида иккита ўзаро боғлиқ бўлган томонларни кўрсатиш мақсадга мувофиқ. Бу ўзаро боғлиқ томонлар психологлар М.И.Дьяченко ва А.М.Столяренколар томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

1. Шахснинг касбий фаолиятга дастлабки салоҳиятли тайёрлиги. Мутахассиснинг бу тайёрлиги қуйидагилардан иборат бўлади, яъни статик компонентлар касбий фаолиятнинг психик асослари, билим, кўникма, малакалар касб учун муҳим ҳисобланган шахснинг сифатлари, унинг муносабати, мазмун ва қадриятлари афзалликлари ҳамда умуман шахснинг зарур бўлган касбий имкониятлари даражаси;

2. Шахснинг касбий фаолиятга бевосита айни вақтдаги тайёрлиги. Мутахассиснинг касбий тайёрлигининг ушбу томони тезкорлиги, ўзгарувчанлиги, ҳар қандай ҳолат ва шароитда аниқ масалаларни ечиши, мутахассиснинг руҳий ва жисмоний ҳолати, жамоадаги маънавий- психологик муҳитга боғлиқлиги билан ифодаланади.

Касбий фаолиятнинг самарадорлиги шартларидан бири мутахассиснинг касбий тайёргарлиги ҳисобланади. Касбий тайёргарлик деганда унинг руҳияти ва жисмоний соғлиғи ҳамда ҳолати, ундаги сифатларининг бажараётган фаолият талабларига мослиги даражаси тушунилади.

Машҳур рус психологи К.К.Платонов: “Мутахассиснинг касбий тайёргарлиги бу ўзининг муайян касбий фаолиятини бажаришга қодир ва тайёргарлик кўрган деб ҳисобловчи ва уни бажаришга интилувчи шахснинг субъектив ҳолатидир”, - деб ҳисоблаган.

Мутахассиснинг бевосита психологик тайёргарлиги дастлабки тайёргарликни фаоллаштириш натижаси сифатида иштирок этади. Мутахассиснинг касбий фаолиятга дастлабки салоҳиятли тайёрлиги бевосита айни вақтдаги тайёрлигининг асоси ҳисобланади. Шунинг учун мутахассисни олий ўқув юртида тайёрлаш унда касбий фаолият учун етарли бўлган сифатларни шакллантириш лозим. Баъзи вақтларда ҳатто касбий масалаларни ҳал этишга яхши тайёргарлик кўрган мутахассис ҳам зарур пайтда керакли фаолият учун тайёр бўлмай қолиши мумкин, яъни касбий хулқи ва фаолиятини руҳий бошқариш етарли даражада бўлмайди. Бундай ҳолатда фаолиятни муваффақиятли амалга ошириб бўлмайди ёки самарасиз бўлади.

Кўриниб турибдики, мутахассиснинг касбий тайёрлиги унда касбий билимдонликни керакли даражасини, касбий маҳоратини ҳамда ўзини бошқариш, ўзини керакли фаолиятга йўналтиришга, ўзининг касбий (маънавий шахсий ва жисмоний) имкониятларини ҳал этишга йўналтира билиш қобилияти мавжудлигини назарда тутади.

Мутахассиснинг касбий тайёрлигининг асосий ва энг мураккаб томони бу психологик бўлиб мутахассис руҳиятининг касбий тайёргарлиги ҳисобланади. Бу мутахассис психикаси руҳий кучларининг касбий масалаларни ҳал этишга ўзининг вазифаларини бажаришга тайёрлиги ва йўналганлиги даражасидир.

Мутахассис руҳиятининг касбий тайёрлигининг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат:

- Йўналтирувчи интеллектуал билиш. Бу таркибий қисми мутахассис шахсининг билиш соҳасини ўз ичига олади: касбий идроки, фикрлаши, тасаввур, хотираси, диққатини ва булар биргаликда мутахассис шахсининг касбга интеллектуал тайёрлигини ташкил этади.
- Мотивацион тайёрлиги. Мутахассиснинг мотивацион тайёрлигининг асослари ўз касби мутахассислигини тушуна олиши, ўзида позитив муносабати таркиб топтира олиши ўзини баҳолай билиш фаолиятига қизиқишлари ҳисобланади. Олий ўқув юрти шароитларида мутахассисни тайёрлашда касбий фаолиятга мотивацион тайёрлиги талабаларнинг касбий ва шахсий ривожланишига ва таълим олиш жараёнида ўзини ривожлантириш мавжуд мотивацион доиранинг йўналтирилганлигида намоён бўлади.
- Ижрочилик. Бу таркибий қисми касбий маҳоратни (билим малака кўникмалар), касбий хулқ одатлари каби муҳим касбий сифатларнинг тўплами, касбий қобилиятларни ривожланганлик даражаси ва мутахассиснинг иродавий тайёрлиги, унинг хулқи ва фаолияти давомида ўзини бошқаришга қодирлиги, операционал функцияли тайёргарликни ўз ичига олади.

Мутахассиснинг касбий тайёргарлигининг асосини шахснинг касбий йўналганлиги ва касбий маҳорати ташкил этади.

Ҳозирги замон мутахассисининг касбий тайёргарлигида унинг коммуникатив тайёрлиги алоҳида аҳамиятга эга. Бундай тайёргарлик мутахассисда одамлар билан касбий муҳит билан конструктив ва самарали ўзаро яқин алоқалар, ходимлар ва раҳбарлар билан амалий ва шахсий ўзаро муносабатларга тайёрлиги ва бундай ўзаро муносабатларни ўрната олишга ҳамда ривожлантиришга қодирлигини кўзда тутади.

Шахснинг коммуникатив тайёрлиги фақатгина одамнинг нутқий маданияти етарлича даражада ривожланганлигида у сўз ва тилдан тўғри фойдаланишни билганидагина мавжуд бўлади. Шахснинг нутқий маданияти унинг фикрлаш маданияти ривожланганлигининг кўрсаткичи ҳисобланади. Шунинг учун мутахассиснинг шахсий ва касбий камол топишини муҳим шартларидан бири унинг касбий нутқий маданиятини ривожлантириш ҳисобланади.

Мутахассиснинг коммуникатив тайёрлиги, унда эмпативликни, хушмуомалаликни, дўстоналиликни, ўртоқлик ҳиссини, жамоатчиликни ривожлантиришни, касбдошлари билан ўзаро алоқалар муносабатларга тайёрлиги ва қодирлигини, ўзаро муносабатларда кераксиз кескинликларни юзага келтирмасликни, юзага келган қийинчиликни тўғри ҳал эта билишни, ишда ходимлар, касбдошлари билан муносабатларда муросага келишни кўзда тутади.

Мутахассис фаолияти муваффақиятлилигини яна бир муҳим шарти унинг касбий ва шахсий жиҳатдан тайёрлиги ва қодирлиги ҳисобланади. Бу йўналишда унинг фаоллиги даражаси иштирок этади. Касбий масалаларни ҳал этишда, ходимлар, касбдошлари билан ўзаро муносабатларда ҳам ўзини тўла ва ҳар томонлама кўрсатишга интилишдан иборат бўлади.

Мутахассиснинг бундай ўзини ташкил этиш кўп жиҳатдан унинг муваффаққиятга эришиш истагига ва интилишига боғлиқ бўлади. Замонавий психологияда муваффаққият муаммосига бағишланган кўплаб ишлар мавжуд бўлиб уларда мазкур муаммо амалий ва назарий жиҳатдан ўрганилган.

Муваффақият деганда шахснинг ўз олдига қўйган мақсадларига эришиш тушунилади. Одамнинг бажараётган ишини муваффақиятлилигини ҳис этиши иккита ҳал этувчи вазиятларга боғлиқ бўлади. Ҳақиқий натижа ва ушбу вазиятларда унинг қизиқишлари даражасига, улар одам ўз фаолиятида қўйган мақсадларини ифода этиш шакли сифатида иштирок этади.

Касбий фаолият жараёнида муваффақиятга эришишда мутахассиснинг шахсий хусусиятлари муҳим роль ўйнади. Ҳаётий муваффақиятга эришиш учун зарур бўлган кўплаб шахсий сифатлар ҳақида В.Крофорд ўзининг “Суҳбат ва мунозара” китобида Конфуцийнинг ғоясига таяниб дўстоналикни, доноликни ва ботирликни кўрсатади. Муаллиф одамга ишида муваффақиятга эришиш учун нима етишмаслгини аниқлаш мақсадида қизиқарли методикани ишлаб чиқди. В.Крофорд ҳозирги замон мутахассиси муваффақиятга эришиш учун кўрсатилган 3 та тушунчадан ташқари касбий маҳорат ҳам кераклигини айтиб ўтди.

Ҳозирги замонавий тадқиқотлар муваффақиятга эришиш учун қуйидаги асосий шарт-шароитларни кўрсатади: мутахассис ўзига ишонган бўлиши керак; мақсадга эришишга кучли интилиш бўлиши керак; нимага эришиш истагини аниқ билиши керак; ишга позитив йўналганлик; омад алоҳида муваффақиятларни кўра билиш ва шу пайтда қувонч ва бахтни ҳис этиш зарур.

Тадқиқотлар натижаларига кўра одамнинг ҳаёти ва касбий фаолиятидаги муваффақият ўртасидаги узвий боғлиқлик борлигини кўрсатади. Шунинг учун мутахассиснинг тайёргарлик жараёнида юзага келадиган объектив ва субъектив омилларни ролини ўрганиш муҳимдир. Айниқса, мутахассис шахсини назарий билимлар билан қуроллантириш билан бирга амалий билим, тажриба ва кўникмаларни шакллантириш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T:. 2013 y.
2. Xasanboeva O. U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2012 y.
3. Ro‘zieva D., Usmonboeva M va Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013 y.- 136 b.
4. Shayxova X. Intellektual salohiyat – taraqqiyot mezoni. – T.: O‘zbekiston, 2011 y. – 112 b.
5. Kamoldinov M., Vaxobjonov. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “Talqin”, 2010 y.
6. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ISLOHOTLAR-DAVR TALABI

O‘zbekiston, NDPI “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi dotsenti, Sayitov Sayyom Sayitovich

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor, islohotlarni amalga oshirilayotgani, qaror, farmon va farmoyishlarni qabul qilnganligi, yangi maktabgacha ta’lim shakllarining barpo etilishi haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’limning yangi shakllari, turlari, islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, kompleks chora-tadbirlar.

Аннотация: в данной статье уделяется внимание системе дошкольного образования, реализуются реформы, приняты решения, постановления и распоряжения, освещены сведения о создании новых форм дошкольного образования.

Ключевые слова: новые формы, виды дошкольного образования, реформы, нормативно-правовые документы, комплексные меры.

Abstract: this article pays attention to the preschool education system, reforms are being implemented, decisions, decrees and orders have been made, and information about the creation of new forms of preschool education has been covered.

Key words: new forms, types of preschool education, reforms, regulatory documents, comprehensive measures.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o‘zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida o‘z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o‘zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadrlar bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlarining o‘ni beqiyosdir.

Davlatimiz tomonidan bu tizimga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305, 5839-sonli qarorlari bayon etilgan.

Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to‘garaklar, ma’naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an’analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san’atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo‘lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Umumiy aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta’minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olishni ta’minlashga imkon bermayapti.

Aytish kerakki, bu o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning doimiy e’tiborida bo‘lmoqda. 2017 yil 9 sentyabr kuni qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir.

Qarorda maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o‘quv jarayonini takomillashtirish, MTMlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tizimini tanqidiy o‘rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta’lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo‘shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag‘batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o‘rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o‘rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishi ham sohada o‘ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo‘sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida “Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va navbatga qo‘yish bo‘yicha elektron dastur”ni joriy etish bo‘yicha topshiriq berildi. Shuningdek, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta’minlanganlik va internet tarmog‘iga ulanganlik holati tanqidiy o‘rganilib, ularni bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta’minlash va internet tarmog‘iga ulash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish zarurki, maktabgacha sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, ushbu sohaga xizmat qiladigan barcha tashkilotlar bo‘layotgan o‘zgarishlarga ongli ravishda fidoiyligi, mehnati bilan o‘z hissasini qo‘shmog‘i, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar bilimli, malakali kadrlar bo‘lib yetishishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori, 2016.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni, 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3955-son Qarori, 2018.
7. “2022-2026 yillarga mo‘lgallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60, 2022.
8. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora–tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi // “O‘zbekiston ovozi”, 2018.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMI UZVIYLIGI VA UZLIKSIZLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Germaniya, Bonn shahri Rochusschule to‘liq kunlik maktabida guruh rahbari Nurgul Berdikulova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Germaniyadagi maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi haqida hamda ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirishda qilinayotgan bir qancha samarali usullar haqida so‘z boradi.

Аннотация: Данная статья посвящена дошкольному образованию и школьному образованию в Германии, а также некоторым эффективным методам, которые используются для развития этих направлений.

Annotation: This article is about pre-school education and school education in Germany and about some effective methods that are being used to develop these areas.

Kalit so‘zlar: „Sog‘lom o‘tish“ tamoyili, bolalar bog‘chasi, ijtimoiy munosabatlar, maktabga tayyorgarlik ko‘rish, maktab muhiti, muvaffaqiyatli ta’lim, professional pedagogik ishtirokchilar.

Ключевые слова: принцип «Здоровый переход», детский сад, социальные отношения, подготовка к школе, школьная среда, успешное образование, профессиональные педагогические участники.

Key words: "Healthy transition" principle, kindergarden, social relations, preparation for school, school environment, successful education, professional pedagogical participants.

Erziehung ist Beispiel und Liebe – sonst nichts.
Friedrich Wilhelm August Fröbel[17]

Bolalar bog‘chasidan boshlang‘ich maktabga o‘tish bolalarning ta'lim olishi uchun muhim bosqichdir, chunki rivojlanish yo‘nalishi ijobiy va salbiy jihatdan shakllanishi mumkin. Bundan tashqari, o‘tish jarayonini maktabga borishdan ancha oldin boshlangan va undan keyin ham davom etadigan jarayon sifatida tushunilishi kerak. Bolalar bog‘chasidan maktabga o‘tish nafaqat tegishli muassasalar va bolaning o‘ziga, balki boshqa odamlar va ijtimoiy munosabatlarga, ayniqsa oilalar va ota-onalarga ham ta'sir qiladi.

Maktabga o‘tish bola uchun qiyinchiliklar bilan bog‘liq, chunki rivojlanish turli darajalarda bajarilishi kerak. Bolaga majbur bolalar bog‘chasidan maktab o‘quvchisiga shaxsni o‘zgartirishni amalga oshirish, bu asosan mustaqil o‘yindan bilim va aniq ko‘nikmalarni (individual daraja) egallashga o‘tish bilan birga keladi.

Agar bola bu qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib chiqa olsa, ular o‘sishi mumkin bo‘lgan rivojlanish vazifasi sifatida o‘tishni boshdan kechiradilar. Biroq, agar bola qiyinchiliklarni haddan

[17] Friedrich Wilhelm August Fröbel (1782–1852), deutscher Pädagoge, Schüler von Pestalozzi, gründete 1840 den ersten Kindergarten.

tashqari talab sifatida boshdan kechirsa, bu o‘zgarish shaxsning ta'lim tushunchasida stressli vaziyatga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, jalb qilingan professional pedagogik ishtirokchilar - o‘qituvchilar va o‘qituvchilar - mas'uliyat bilan o‘tishni shakllantirishlari va bolalarning maktabga tayyorgarligiga erishishda yordam berishlari juda muhimdir. Bu esa bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich maktab o‘rtasida ota-onalarni jalb qilgan holda qizg‘in almashinuv va yaqin hamkorlikni taqozo etadi. Misol uchun, o‘qituvchilar bolalarni maktabga tegishli ma'lum ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi loyihalar bilan maktabga tayyorlashlari mumkin.

Bolalar bog‘chasidan maktabga boradigan bolalarni tayyorlashda quyidagi tamoyillarga tayanib ish yuritish samarali natijalarga olib boradi:

Rivojlanish mavzusi sifatida "Sog‘lom o‘tish" tamoyili:

Ota-onalar va bolalar bog‘chasi o‘qituvchilari o‘rtasida rivojlanish muhokamalari muntazam ravishda amalga oshiriladi. Rivojlanish muhokamalari, shuningdek, o‘tish davrida bolani qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun muhim vosita bo‘lganligi sababli, bu mavzu rivojlanish muhokamalariga qayta-qayta kiritilishi kerak.

o‘tishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Maqsad-

• ota-onalar o‘tish nazariyasiga asoslanadi, o‘tishning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish;

• bolalar va ularning ota-onalariga taalluqli talablar va yangi vazifalarni muhokama qilish;

• ota-onalarga maktabgacha bo‘lgan vaqt haqida umumiy ma'lumot berish;

• ota-onalarning bolalar bog‘chasiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

• ota-onalarning sog‘lom o‘tish haqidagi savollari va istaklariga murojaat qilish.

Maktab nimani taklif qiladi?

Ochiq eshiklar kuni-ota-onalar darslarni kuzatish, maktab tadbirlariga tashrif buyurish va maktab muhiti bilan tanishish uchun yaxshi imkoniyatdir.

Kelajakdagi bolalar va ularning ota-onalari ushbu maktablarni suratga olishlari, bolalar suhbatlashishlari mumkin. Olingan ma'lumotlar va taassurotlar oilalarga maktabga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi yoki boshqa maktabni tanlash imkoniyatini ham yaratadi.

Ma'lumotni taqdim etishning maqsadi ...

• Bo‘lajak maktab o‘quvchilari va ularning oilalari uchun maktabga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish;

•Oilalarga maktab(lar) to‘g‘risidagi haqiqiy ma'lumotlarga ega bo‘lishlariga imkoniyat yaratib berish.

Maktab o‘quvchilari bolalar bog‘chasiga tashrif buyurish uchun kelishadi.

Oldindan belgilangan kunda kichik bir maktab o‘quvchilari guruhi tashrif buyuradi.

Hamkorlik maktabining maktab o‘quvchilari o‘qituvchisi yoki mas‘ul shaxs bilan birga bolalar bog‘chasiga boradilar hamda o‘zlarining maktab anjomlarini olib kelishadi. Kundalik maktab hayoti va bolalar bog‘chasi bolalarining savollariga javob berish uchun maxsus mutaxassislar mavjud bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, shu bog‘chada tarbiyalangan yoki ularning maktabga qatnaydigan opa-ukalari bolalar bog‘chasiga taklif qilinishi mumkin.

Tashrifdan maqsad ...

•Bolalarga maktab mavzusini muhokama qilish uchun muhit yaratib berish;

•Bolalarga boshqa bolalardan ma'lumot olish imkoniyatini berish,

ular uchun (shaxsan) muhim va mazmunli bo‘lgan savollarga javob olish olish;

• maktab o‘quvchilari va bog‘cha bolalarining ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Bolalar bog‘chasidagi bolalar maktabga borishadi

Bo‘lajak maktab o‘quvchilari o‘zlarining tarbiyachisi bilan birga hamkorlik maktabida

1-2- sinflar yoki maktab boshlang‘ich bosqichi sinflarida darsga kirishlari, tanaffus, maktab va maktab hovlisi, sport zali va oshxonalar bo‘ylab ekskursiya qilishadi.

Maktabga borishdan maqsad ...

• bolalarga kelajakdagi maktab muhiti bilan tanishish va o‘zlarining tasavvurlaridagi maktab bilan haqiqiy maktab hayotini solishtirishga imkon yaratish;

• Umumiy darsda qatnashish.

Bolalarning bog‘chadan boshlang‘ich maktabga o‘tish muvaffaqiyatli ta'lim uchun markaziy ahamiyatga ega. Har ikki muassasa o‘z oldiga ta'lim va institutsional hamkorlikni mustahkamlash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, bolalar bog‘chasi va maktab muassasalari o‘zlarining tashkiliy tuzilmalarida, balki ta'limga bo‘lgan yondashuvlarida ham farqlarga ega, bu integratsiyani qiyinlashtiradi va shuning uchun hamkorlikning yangi kontseptsiyalari va strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bernd Rudow. Beruf Erzieherin/Erzieher-mehr als Spielen und Basteln. Waxman 2017.
2. https://www.kindergartenpaedagogik.de
3. https://www.savethechildren.de
4. Štěpánka Busuleanu, Isabelle Norkeliunas-Kaeber, Ilka Ruhl. Gesund von der Kita in die Schule:Kinder und Familien im Übergang begleiten. 2021. S 13-14

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA’LIMI INNOVATSION ISHLARNING SHAKLI SIFATIDA

O‘zbekiston, Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim texnologiyasi kafedrasi
dotsenti Ravshanova Nargiza Norboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik teatr va bolalar bog‘chasining ekologik brigadasi bolalarda ekologik madaniyat tamoyillarini shakllantirish va kattalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha yangi ish shakllari sifatida ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: Ekologik teatrning, ekologik tarbiya, an’anaviy shakllari, usullar, kognitiv, ta’lim, ekologik brigada.

Аннотация: В данной статье экологический театр и экологическая бригада детского сада рассматриваются как новые формы работы по формированию принципов экологической культуры у детей и развитию экологической культуры взрослых.

Ключевые слова: Экологический театр, экологическое образование, традиционные формы, методы, познавательное, воспитание, экологическая бригада.

Abstract: In this article, the ecological theater and the ecological team of the kindergarten are considered as new forms of work on the formation of the principles of environmental culture in children and the development of environmental culture in adults.

Key words: Ecological theater, environmental education, traditional forms, methods, cognitive, education, environmental team.

Bugungi kunda ta’limning strategik muhim masalalaridan biri yosh avlodni ekologik tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta’limning ta’lim standartlari maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishini aniqlashda faol yondashuvni nazarda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limi barcha ta’lim sohalarida amalga oshirilishi mumkin.

Ekologik ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat bilan o‘zaro ta’siri bolaning ruhiyatini, jismoniy faolligini rivojlantiradi va uni jismonan kuchli va sog‘lom qiladi.

Pedagogik faoliyatimda ekologik ta’limning an’anaviy shakllari va usullari bilan bir qatorda (suhbatlar, kuzatuvlar, adabiyotlarni o‘qish, ko‘rib chiqish, tashkil etilgan ta’lim faoliyati, amaliy faoliyat) men innovatsion shakl va usullarni qo‘llayman. Men o‘z tajribamda ishlatilgan maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashning turli innovatsion yo‘nalishlariga misollar keltiraman.

Pedagogikada tasniflash usullarining bir qancha tizimlari mavjud. Ta’lim usullarining bilim manbasiga qarab eng ko‘p qo‘llaniladigan tasnifi. Agar bilim manbai kuzatish, illyustrativ

ko‘rgazmali materialni idrok etish va boshqalar bo‘lsa, bular ko‘rgazmali usullar, agar amaliy faoliyat (tabiatdagi ish, oddiy tajribalar) amaliy usullar; agar o‘qituvchining so‘zi (hikoya, tabiiy tarix fantastikasini o‘qish, suhbat) og‘zaki usullarga kiradi.

Ekologik ta’lim metodologiyasida barcha usullar bolalarning tabiat bilan to‘g‘ridan - to‘g‘ri aloqa qilish orqali, ya’ni tabiatning haqiqiy ob’ektlari bilan aloqa qilish orqali yoki bilvosita tanishish orqali-rasm, slayd va boshqalar orqali tanishishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi. Tabiat bilan bevosita aloqani ta’minlaydigan usullarga kuzatuvlar, oddiy tajribalar, tabiatdagi mehnat, tabiiy materiallar bilan o‘yinlar kiradi. Tabiat bilan bilvosita tanishish usullariga tasviriy vizual materiallar, filmlar shaffofligi, modellar, pedagogning hikoyalari, bolalar tabiatshunoslik kitobini o‘qish, suhbatlar namoyish etiladi.

Bolalarning kognitiv faolligi darajasiga qarab o‘qitish usullarini tasniflash kamroq qo‘llaniladi:

1) tushuntirish va tasviriy;
2) reproduktiv;
3) evristik yoki qisman qidirish;
4) muammoli;
5) tadqiqot.

Bolani o‘rab turgan tabiiy hodisalar va ob’ektlarga ongli ravishda to‘g‘ri munosabatda bo‘lish bo‘yicha ishlarni iloji boricha erta boshlash kerak, shu bilan birga ta’lim faoliyatiga yangi yondashuvlardan foydalanish kerak. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali usuli bu nafaqat bilimlarni uzatish, balki mavjud muammolarni hal qilish va bashorat qilish uchun zarur bo‘lgan fikrlash tarzini shakllantirishdir.

Kuzatishlar kabi an'anaviy ish shakllari bilan bir qatorda, tajribalar o‘tkazish, ekologik mavzudagi badiiy adabiyotlarni o‘qish, yurish va ekskursiyalar, o‘yin mashg‘ulotlari, ekologik mashg‘ulotlar, pedagoglar bolalarni ekologik teatr orqali ekologik va tabiiy tarix ta’limi bilan tanishtiradilar.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari ushbu ishning maqsadini ekologik dunyoqarashni va yosh avlodning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, kollektivizm, mas'uliyat hissini rivojlantirish, axloqiy xulq-atvor tajribasini shakllantirishda ko‘rishadi.

Ekologik teatrning vazifalari quyidagilardan iborat:

shakllarni takomillashtirish va dasturiy ta’minot samaradorligini oshirish ekologik ta’lim;

bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

bolalarni faol ekologik faoliyatga jalb qilish;

atrof-muhit muammolariga aholining e’tiborini jalb qilish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagoglar va atrof – muhit pedagogidan iborat ijodiy guruh tashkil etildi, ular 2 yilga mo‘ljallangan «maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik teatr yaratish» muammosi bo‘yicha ilmiy va uslubiy ishlarning uzoq muddatli rejasini ishlab chiqdilar.

Bosqichlar	**Uslubiy tadbirlar**
• Dr. Montessori's work quickly gained recognition, and in 1917, the Spanish government invited her to open a research institute. This was followed by the establishment of teacher-training courses in London and the founding of the Association Montessori Internationale (AMI) in 1929.

2. Global Spread and Evolution

• The Montessori movement experienced periods of flourishing and decline, with its impact felt worldwide. Dr. Montessori and her son, Mario Montessori, traveled extensively, teaching others and opening new schools, contributing to the global spread of Montessori philosophy. .

• The Montessori curriculum continued to evolve, with the establishment of the American Montessori Society (AMS) and the development of certified Montessori teacher training programs in the U.S.

3. Enduring Legacy

• Dr. Maria Montessori's legacy continues to thrive, with the Montessori Method being applied internationally. The Montessori curriculum has expanded to cater to various age groups, including adolescents and toddlers, and has been recognized for its success in preparing children for the challenges of the future .

Why do schools choose the Montessori Approach?

The Montessori approach to education offers several benefits that contribute to the holistic development of children. Here are some key points to consider:

1. Child-Centered Approach: Montessori education helps develop all aspects of the child, fostering rigorous, self-motivated growth in cognitive, emotional, social, and physical areas.

2.Emphasis on Independence and Freedom: The Montessori method emphasizes independence, freedom within limits, and respect for a child's natural psychological, physical, and social development. It provides a supportive, thoughtfully prepared learning environment that values the human spirit and the development of the whole child.

3. Hands-On Independent Learning: Montessori classrooms emphasize hands-on independent learning, with children directing their own learning using meticulously designed learning aids. The emphasis on creating a beautiful and accessible environment is of paramount importance, as it supports children's self-directed learning.

4. Support for Natural Development: Montessori education supports, nurtures, and protects natural development, recognizing the unique potential of each child and guiding them through the learning process using materials that fit their specific needs and pace.

5. Positive Impact on Child Development: Research has shown that high-fidelity or classic Montessori implementations are associated with better outcomes for children, and the method has been successful in diverse cultures throughout the world for over 100 years.

6. Promotion of Independence and Social Interaction: The Montessori approach recognizes the importance of play and social interaction, providing children with time to engage in imaginative play and social activities to promote social and emotional development.

Montessori students grow up to be confident, enthusiastic, and self-directed learners and citizens, accountable to both themselves and their community. They think critically, work collaboratively, and act boldly and with integrity. From interview conducted by American Montessori Society the parents said that:

"All children are different They have a different outlook, a different spirit. Montessori caters to those differences."

"Students develop leadership skills, find their own way. "

"Montessori gave [my children] a foundation for all of their academic achievement."

"Montessori is life preparation."

MAKTABGACHA TA'LIMDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

O'zbekiston, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi dotsenti, PhD.
Agzamova Malohat Nadjimovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti
Nilufar Xolsaidova

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishi maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishga yordam beradigan zamonaviy texnologiyalarni o'rganishga bag'ishlangan. Jamiyat jadal o'zgarib borayotgan va ta'limni raqamlashtirish sharoitida bolalarga nafaqat moliya asoslari bo'yicha bilim berish, balki o'z moliyasini samarali boshqarish qobiliyatini ham berish muhim ahamiyat kasb etadi.Tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv jarayonini yanada qiziqarli, qulay va samarali qilish imkonini beradigan ta'lim dasturlari, o'yinlar, multimedia resurslari va boshqa innovatsion texnikalar kabi turli xil zamonaviy texnologiyalar tahlilini o'z ichiga oladi.Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalarning bolalarning moliyaviy savodxonligini oshirishga ta'sirini o'rganish, ularning pul qadrini tushunish, byudjetni tuzishni o'rganish, moliyaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, iqtisodiy tamoyillarni yoshligidanoq tushunishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, Iqtisodiy savodxonlik, Iqtisodiy ta'lim, moliyaviy ta'lim, zamonaviy raqamli texnologiyalar.

Аннотация: Данная научно-исследовательская работа посвящена изучению современных технологий, способствующих формированию экономической грамотности у детей дошкольного возраста. В условиях быстро меняющегося общества и цифровизации образования важно дать детям не только знания об основах финансов, но и умение эффективно распоряжаться собственными финансами.Включает в себя анализ различных современных технологий, таких как мультимедийные ресурсы и другие инновационные методы.Исследование направлено на изучение влияния современных технологий на

повышение финансовой грамотности детей, понимание их ценности денег, обучение составлению бюджета, формирование навыков принятия финансовых решений и понимание экономических принципов с раннего возраста.

Ключевые слова: Дошкольное образование, Экономическая грамотность, Экономическое образование, финансовое образование, современные цифровые технологии.

Abstract: This research work is devoted to the study of modern technologies that help to form economic literacy in preschool children. In the conditions of rapidly changing society and the digitization of education, it is important to give children not only knowledge about the basics of finance, but also the ability to effectively manage their own finances. Includes the analysis of various modern technologies, such as multimedia resources and other innovative techniques. The research focuses on studying the impact of modern technologies on increasing children's financial literacy, understanding their value of money, learning to make a budget, forming financial decision-making skills, and understanding economic principles from a young age.

Key words: Pre-school education, Economic literacy, Economic education, financial education, modern digital technologies.

Zamonaviy jamiyatning o‘zgaruvchan sharoitlarida uzluksiz iqtisodiy ta’lim, iqtisodiy munosabatlari boshlang‘ich tajriba maktabgacha yoshdan boshlanishi kerak.Farzandlar shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy hayotda, pulning rolini qanchalik erta bilib olsalar, sog‘lom moliyaviy odatlar shunchalik tez shakllanadi .

Iqtisodiy ta’limning mohiyati iqtisod bo‘yicha maxsus ta’limni tashkil etishda emas, balki bolalar faoliyatining turlarini iqtisodiy mazmun bilan boyitishdadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini asosiy iqtisodiy ma’lumotlar bilan to‘ldirish haqiqiy iqtisodiy fikrlashni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa bu jarayonni yanada ongli bajaradi. Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi MTM tuman pedagoglar bilan bo‘limida bo‘lib o‘tgan “Bolalarga iqtisodiy ongni shakllantirish” mavzusidagi suhbatlar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun dasturiy va uslubiy qo‘llanmalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu yo‘nalishda maqsadli ish tizimi hali ishlab chiqilmagan. Iqtisodiy madaniyatning zaruriy sharti sifatida, mualliflar faqat iqtisodiyot sohasidagi bolalar uchun mavjud bo‘lgan bilimlarni va asta-sekin shaxsiy bo‘lib ketadigan faoliyat sifatini ajratib ko‘rsatishdi.

Bundan kelib chiqadiki Maktabgacha ta’limda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari yuzasidan tegishli tadqiqotlarni olib borish va tarbiyachilarning bu boradagi bilimlarini oshirish bugungi mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Ko‘plab Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’limda iqtisodiy yondashuv va usullardan foydalanish bolalarda moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy fikrlashning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yillar davomida va hozirga qadar Maktabgacha ta’limda hamda moliyaviy savodxonlik asoslarini shakllantirish rolli o‘yinlar asosida amalga oshirilib kelinadi. Masalan, “Do‘kon- dokon” , “Kafe” , “Supermarket” , “Yarmarka” va boshqalar. Albatta bu o‘yinlar bolaning iqtisodiyotga ijtimoiylashishiga yordam beradi.

Ta’limning asosiy shakli - o‘yin. Aynan o‘yin orqali bola dunyoni o‘zlashtiradi va tushunadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin orqali o‘rganish tabiiydir.[1]

Rolli o‘yinlar iqtisodiyotni tushunarli qilishga yordam beradi. Shunday qilib, kasblarda o‘ynab, bolalar mehnatning ma’nosini tushunadilar, kattalarning mehnat jarayonlarini takrorlaydilar va shu bilan birga iqtisodiyotni o‘rganadilar. Syujetli rolli o‘yinlarda real hayotiy vaziyatlar simulyatsiya qilinadi masalan: oldi-sotdi operatsiyalari, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish va boshqalar.O‘quv-o‘yin va hayotiy faoliyatning uyg‘unligi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkab iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirishda eng samarali hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilimlarni intellektual topshiriqlar mazmuni murakkablashganda o‘yin orqali oladilar. Murakkablik sifatli xarakterga ega bo‘lib, bolalarning muayyan iqtisodiy tushunchalarni chuqur ochib berishga imkon beradigan muammoli o‘yin, muammoli-amaliy, muammoli-kognitiv vaziyatlarni yaratishni talab qiladi.[2]

– Interfaol ilovalar, onlayn o‘yinlar va o‘quv platformalari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikni samarali rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta’limda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning zamonaviy texnologiyalarini samaradorligini o‘rtanish maqsadida “iqtisodiy ta’lim” borasidagi klassik usullarda ham ko‘rib chiqsak:

- *Iqtisodiy ta’limning klassik shakllari:*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bu moliyaviy savodxonlik asoslarini rivojlantirish uchun eng maqbul shakllardan biridir.

“Kelajakda kim bo‘lish kerak?”, “Oila byudjeti” kabi didaktik o‘yinlarda bolalarning iqtisodiy hodisalar va atamalar olami haqidagi tasavvurlari oydinlashtiriladi va mustahkamlanadi. Yangi iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtiriladi. Nutq aloqasi dialog shaklida amalga oshiriladi. O‘qituvchi aniq, iqtisodiy jihatdan savodli savollarni tuzadi va bolalar o‘z taxminlarini aniq ifodalashni o‘rganadilar.

Syujetga asoslangan rolli o‘yinlar ham iqtisodiyotni tushunarli qilishga yordam beradi. Shunday qilib, kasblarda o‘ynab, bolalar mehnatning ma’nosini tushunadilar. Rolli o‘yinlarda real hayotiy vaziyatlar simulyatsiya qilinadi: oldi-sotdi operatsiyalari, xizmatlar uchun to‘lovlar, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish va hokazo.Sayohat o‘yinlari bolalar uchun juda qiziqarli va hayajonli. Masalan, “Pul muzeyi”, “Bolalar bog‘chasi hududi bo‘ylab sayohat” (xodimlarning kasblari bilan tanishish uchun), “Ob’ektlarning o‘tmishiga sayohat” va boshqalar. Turli xil ekskursiyalar har doim ijobiy natija beradi va bolalarni masalan, bankka, savdo joylariga, yaqin atrofdagi ko‘chalardagi tashqi reklamalarni ko‘rish uchun qiziqtiradi, bu ularga haqiqiy ob’ektlar bilan tanishish imkonini beradi.[3]

Suhbatlar va munozaralar bolalar bilan ishlash shakllaridan biri bo‘lib, bu bolalarga turli mavzularda bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Namunaviy mavzular: “Mehnat – hayot asosi”, “Pul qanday ixtiro qilingan?”, “Pul nima, u nimaga kerak va u qayerdan keladi?” va boshqalar...

Ko‘pgina iqtisodiy hodisalarni tushunish badiiy adabiyotni o‘qish orqali sezilarli darajada osonlashadi. Asarlar ko‘plab tushunarsiz iqtisodiy hodisalar uchun tushunishga imkon beruvchi hodisalarni tasvirlaydi. Ertaklar teatrlashtirilgan interaktiv mini-spektakllar uchun yaxshi. Ular maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega.[4]

Ammo bolani dunyoni oqilona bilish vositalari bilan faqatgina matematika qurollantiradi, ular o‘lchash, elementar hisob-kitoblar bola turli muammolarni, shu jumladan iqtisodiy muammolarni hal qilishda foydalanadigan usullardir. Shu bilan birga, voqelikning iqtisodiy sohasi bilan tanishish bolaning matematik bilimlarni rasmiy o‘zlashtirishdan yangi sohada ongli ravishda qo‘llashga o‘tishiga yordam beradi.

- *“Zamonaviy iqtisodiy ta’lim texnologiyalar”(1-jadval)*

Loyiha faoliyati bolalarga mustaqil ravishda yoki kattalar bilan birgalikda yangi amaliy tajribani kashf qilish, uni eksperimental, tadqiqot usullari orqali olish, tahlil qilish va o‘zgartirish imkonini beradi. Loyihalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy va oilaviy moliya dunyosi haqida yangi tushunchalar va g‘oyalarni o‘rganadilar.
Vaziyatli topshiriqlar– muayyan vaziyatni tahlil qilish misolidan foydalangan holda o‘qitish. Ushbu texnologiya boshqa usullarga qaraganda yaxshiroq, aniq shartlar va haqiqiy moliyaviy ma’lumotlarni hisobga olgan holda paydo bo‘lgan muammolarni qanday hal qilishni o‘rgatadi. Bola o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishni va u yoki bu hodisalarning rivojlanishining sabablarini tahlil qilishni o‘rganadi. Ular yanada murakkablashganda, bunday vaziyatlar, qoida tariqasida, bolaning kognitiv qiziqishini faollashtirishga, shuningdek, ma’lum bir tajribani shakllantirishga imkon beradi.[2]

“Situation of the month” texnologiyasi bolalarning bilim va ko‘nikmalarini “Vaziyat” ning boshida diagnostika qilish, darslarda vizual materiallardan foydalanish va turli shakllarda bolalarning o‘tmish tajribasini faollashtirishni o‘z ichiga oladi: viktorina; suhbatlar; Viktorinalar va tanlovlarni axborot va ko‘ngilochar kontentdan foydalangan holda kognitiv faoliyatning o‘ziga xos shakllari deb hisoblash mumkin. Barcha ta’lim yo‘nalishlari integratsiyasi amalga oshirilmoqda. Viktorinaga misol qilib: “Ertaklar qahramonlarining sarflangan mablag‘lari”, “Kasb tanlang”, “Ismni toping.” Endi siz o‘zingizni ertaklar rolida topasiz va “Ertaklar viktorinasida” ishtirok etasiz.
TRIZ-O‘qituvchi tomonidan ushbu texnologiyaning texnikasi va usullaridan mohirona foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasavvurni, dialektik fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi va sodir bo‘layotgan jarayonlarni tushungan holda tizimli fikrlashga o‘rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ – bu asosiy dasturni o‘zgartirish uchun emas, balki uning samaradorligini oshirish uchun mo‘ljallangan jamoaviy o‘yinlar va tadbirlar tizimi.[4]

– Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim dasturiga iqtisodiy elementlarning integratsiyalashuvi bolalarning iqtisod fanlarini o‘rganishga qiziqishini oshirish, moliyaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

– Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, savodxonlikni rivojlantirishning ilg‘or usullarini joriy etish, nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirish imkonini beradi, balki ta’lim jarayonining umumiy sifat jihatidan o‘sishiga ham xizmat qiladi. YTa’kidlash joizki har ikki holatda ham Ota-onalar iqtisodiy ta’lim asoslarini shakllantirishda pedagoglar bilan hamkorlikda ishlashdan muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makhmudova I.I. Conditions for determining the level of economic education of preschool age children. Collocium-journal, 2021. № 22.
2. Umnov D.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish // Yosh olim. -2019 yil. - № 34. – B. 70-71 [Elektron resurs]. – Elektron resurs: https://moluch.ru/archive/272/62103/
3. Haydarovna, D. R. (2020). Pragmatic analysis of the linguistic concept of person-referencing deixis and pronouns referring to it in the uzbek language. Journal of Critical Reviews, 7(5), 350-354.
4. Nikolaeva O.S. Maktabgacha ta’lim muassasasida katta maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash [Elektron resurs]: https://nsportal.ru/detskiy-sad/upravlenie-dou/2019/1l/06/ekonomicheskoe-vospitanie-detey-starshego-doshkolnogo-0 (27.04.2022).
5. Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.

O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI VA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

O‘zbekiston, NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti Ermatova Gulnoz Pirimovna

Annotatsiya: ushbu maqolad mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimi va undabugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar haiqa ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ta’lim, tarbiya, STEAM, bolalar, muhim xususiyatlar, ko‘nikmalar, ijodiy fikrlash.

Аннотация: данная статья содержит информацию о системе дошкольного образования в нашей стране и реформах, реализуемых в ней сегодня.

Ключевые слова: дошкольное образование, образование, воспитание, STEAM, дети, важные особенности, умения, творческое мышление.

Abstract: this article contains information about the preschool education system in our country and the reforms being implemented in it today.

Key words: preschool education, education, upbringing, STEAM, children, important features, skills, creative thinking.

O‘zbekistonda amalga oshirilyotgan islohotlar ta’lim tizimlarini boshqarish va uni samaradorligini oshirish jarayoni ta’lim tizimlarini ilk bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limdan boshlash hamda bosqichma-bosqich, tizimli amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqdi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikdan keyingi maktabgacha ta’lim tizimida olib borilgan islohotlarni ikki bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1991–2016-yillar.
- 2017-yildan keyingi yillar.

Maktabgacha ta`lim sifatini oshirish va unda ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va unga qulay shart-sharoitlar bilan bog‘liq “2022-2026 yillarga mo‘lgallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish asosida takomillashtirish jarayonlari maqsad qilib belgilangan[3].



Mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim tizimlarining uzluksizligi va o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berilgan. Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta;
- o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim belgilab berilgan.

Ta’lim tizimlarining ilk halqasi bo‘lgan maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi **“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”**gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi[3].



Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari quyidagi turlar bo‘yicha tashkil etiladi:

Davlat maktabgacha ta’lim tashilotlari.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashilotlari.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarda Ustav asosida bolani qabul qilish yoshi belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoni 2-sentabrda, 31-maygacha davom etadi. Yozgi sog‘lomlashtirish davri 1-iyundan, 31-avgustgacha davom etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi guruhlar ularda bolalarning bo‘lishi davomiyligiga qarab:

- ❖ bolalar qisqa vaqt bo‘ladigan guruhlar (kuniga 3 - 4 soat);
- ❖ to‘liq kunli guruhlar (kuniga 9; 10,5 va 12 soat);
- ❖ bolalar kecha-yu kunduz bo‘ladigan guruhlar bo‘lishi mumkin.

Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoni o‘zbek, rus, ingliz, kores, qozoq, qoraqalpoq va tojik tillarida olib boriladi.

Davlat o‘quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo‘lib, ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tizimiga qamrab olinmagan 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorlash, ularni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” dasturi asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni frontal va markazlar faoliyatida amalga oshiriladi.

Rivojlantiruvchi markazlar STEAM uslubi asosida tashkil etilgan bo‘lib, bunda ta’lim o‘yin orqali amalga oshiriladi.

STEAM uslubi - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o‘yin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM - ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. 2022-2026 yillarga mo‘lgallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2022 yil, 28-yanvar, 22-23-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK O‘YINLARNI TASHKIL ETISH VA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika insitituti dotsenti
Eshim Mardanov
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika insitituti
Maktabgacha ta’lim yunalishi 3-kurs talabasi.
Abdusaidova Lobar Shermat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish yoritib berilgan. Hamda mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va uning natijaviyligiga doir fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, elementar matematika, rivojlanish, xorijiy davlatlar, elektron resurslar.

Annotation: In this article, the best practices of preschool education and upbringing in foreign countries are studied on the basis of comparative analysis. Formation and development of mathematical imagination of preschool children is covered. At the same time, the contents of the reforms implemented in the field of preschool education and upbringing in our country and their results were highlighted.

Key words: preschool education, elementary mathematics, development, foreign countries, electronic resources.

Аннотация. В данной статье на основе сравнительного анализа изучается лучший опыт дошкольного образования и воспитания в зарубежных странах. Освещается формирование и развитие математического воображения дошкольников. При этом было освещено содержание реформ, реализуемых в сфере дошкольного образования и воспитания в нашей стране, и их результаты.

Ключевые слова: дошкольное образование, элементарная математика, развитие, зарубежные страны, электронные ресурсы.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar istiqbolda o‘z mevasini berishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ―Ayni paytda islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog‘cha ta‘limining barcha bo‘g‘inlarini izchil isloh qilmoqdamiz [1][18] degan edilar. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar berilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda prezidentimiz tomonidan 1 ta Farmon, 2 ta Qaror imzolandi. Hamda alohida maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning huquqiy asoslarini yanada mustahkaslash uchun ―Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjati qabul qilindi. Shuningdek maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta’limning birinchi turi sifatida ―Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda ham o‘z aksini topdi. Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrida olar ekan.[19][2] Ma`lumki, bolalar jismoniy tarbiya mashqlari, o‘yinlarni bajarganda 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 gacha sanash, yaqin, uzoq, baland, past, chamalash, doira, aylana, to‘g‘ri chiziq, to‘g‘ri turish, uchburchak, to‘rtburchak, kabi so‘zlarni eshitadi va so‘zlaydi, bu so‘zlar maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda ham ishlatiladi. Demak, maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida o‘rgatiladigan elementar matematika tasavvurlarini shakllantirish bo‘yicha na’munaviy dasturda berilgan elementar matematik bilimlarni bolalarga

o‘rgatish jarayonini bilim va ko‘nikmalarini samarali bo‘lishini, bolalar ongida yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlashda,o‘yinlarni bajarish davomida quyidagi elementar matematik tasavvurlarni: son, sanoq, to‘plam haqida, miqdor, shakl, miqdorviy tasavvur, vaqt haqida olgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hozirgi kunda dolzarb va ahamiyatga molik bo‘lib, maktabgacha ta’limda fanlar aro aloqadorlik bolalarni u yoki bu fandan olgan bilimlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Matematik tushunchalar bir-biriga uzviy bog‘liqlik asosida hosil qilinadi. Har bir davlat o‘zidagi qonun va dasturlar asosida barcha sohalarda qator tizim va usullar ishlab chiqadi. Eng samarali va ijobiy natijalar keltirgan metodika amaliyotga joriy etiladi. Dunyo mamlakatlari orasida matematik bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bo‘yicha AQSh, Xitoy, Yaponiya va Rossiya davlatlari yetakchilik qilmoqda. Rivojlanish ko‘rsatkichi bo‘yicha har bir sohada, jumladan ta’lim tizimida ham Amerika Qo‘shma Shtatlari yetakchilik qiladi. Quyida keltirib o‘tilgan usullar ham Amerika maktabgacha ta’lim tizimida matematik tasavvur va tafakkurni shakllantirishda qo‘llanilib kelinadi. Amerika bog‘chalarida matematikani o‘rgatishning 5 ta usuli:

1. Yangi ma’lumotni taqdim qilish va bolalar bilan birgalikda mashqlar qilish;
2. Ko‘pgina savol so‘rash va bunga bolalar bergan javoblarni tekshirish;
3. Ko‘rgazmalar bilan ta’minlash;
4. Faoliyat bajarish jarayonida bolalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;
5. Qiyin faoliyatlar uchun oldindan namuna ko‘rsatish.

MTTga mashg‘ulotlarini o‘tishda quyidagi matematik o‘yinlardan foydalaniladi

- miqdoriy munosabatlarni mustahkamlashga doir o‘yinlar

-predmetlar miqdor haqidagi tushunchalarni aniqlashtirishga doir o‘yinlar

-geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish

-fazoda yo‘nalish olishni takomillashtirishga doir o‘yinlar.

-vaqt tasavvurlarni mustahkamlashga doir o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

“RAQAM BAYRAMI” o‘yini

Maqsad: qo‘shish va ayirish ko‘nikmalarini mustahkamlash. Tavsif: har kuni ma’lum bir sanada bayram deb e’lon qilish. Shu kuni Tug‘ilgan kun bayrami boshqa raqamlarni tashrif buyurishga taklif qiladi lekin shart bilan: har bir raqam o‘zi uchun do‘st tanlashi kerak bu kunning raqamga aylanishiga yordam beradi. Masalan yetti raqamli bayram.7 raqami 5 raqamini tashrif buyurishga taklif qiladi va kim unga hamroh bo‘lishini so‘raydi 5 raqamni o‘ylaydi va Javob beradi. “2 yoki 12”.[3][20]

“RAQAMLAR BILAN SUHBAT” o‘yini

Maqsad: to‘g‘ridan to‘g‘ri va teskari hisoblashni birlashtirish.

O‘yin jihozlari va ko‘rgazmali qurollar: raqamlar yozilgan kartalar. Tavsif: bolalar –“raqamlar” kartalarni olishadi va tartibda birin ketin turishadi “4- raqam” 5- raqamga aytadi “ Men sendan kamman” 5- raqam”” 4- raqam” ga nima javob berdi ? Va hokazo 6_ raqam nima dedi.[4][21]

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba’zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, “teng”, “katta”, “kichik”, “butun va bo‘lak” kattaliklar orasidagi bog‘lanishlarni, o‘lchov kattaliklari bilan son o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlay bilish ko‘nikmasini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko‘tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko‘z bilan hamda ichida sanashga o‘rgatib boriladi. Ularning ko‘z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobilyati rivojlanadi. Maktabga tayyorlov guruhida matematika bo‘yicha haftasiga 2 ta mashg‘ulot, yil davomida 72 ta mashg‘ulot o‘tkaziladi.

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagi o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir. Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakillantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar,individual yondashish,mustaqil shug‘ullanishga o‘rgatish va hk) hamda milliy istiqlol g‘oyalari bilan qurollangan bo‘lishlari kerak. Nazariy jihatdan to‘la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta’lim jarayoniga qo‘llash eng dolzarb masalaga aylangan.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda matematik o‘yin o‘yin faoliyati orqali elementlar matematik tushunchalarni shakllantirish usulqridan foydalanishga doir mashq va topshiriqlarni bosqichma bosqich bajarishga o‘rgatish ular yordamida tahlil qilish, tadqiqot o‘tkazshni, kichik o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha tarbiyalanuvchilarning mantiqiy ilk matematik faoliyat tadbiqlarini amaliy faoliyatda zarurligi va qo‘llash faoliyatida zarurligi va qo‘llash usullariga foydalanish ularning bilim saviyalarining oshishiga va fikrlashni o‘stirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T.: 2022, 23- bet.

2. Karimov I.A. (2018) Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch.T.: 2008, 33-bet.

3. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013.

4.E.M Mardonov “Matematik tassavurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” Samarqand 2021.

5. “Qiziqarli matematika”didaktik to‘plamidan foydalanish uchun metodik yo‘riqnomaMaktabgacha ta’lim Vazirligi Toshkent 2020.

6. E.M.Mardanov, SH.Fayzullayev, Q.Ostonov, “Maktabgacha ta’limda matematik o‘yinlarini tshkil etish” Samarqand-2019.

7. N.U. Bikbayeva, Z. I. Ibrohimova, X. I. Qosimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” Toshkent-1995.

8. N.U. Bikbayeva “ Matematika o‘qitish metodikasi”O‘qituvchi-1996.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

O‘zbekiston, NavDPI, dotsent S.S.Sayitov
NavDPI, Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta‘lim) magistranti Qurbonova Shalola

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi globalashuv davrida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlanishidagi qator islohotlar va bu islohatlar maktabgacha yoshdagi bolalar va zamonaviy pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilganligi va maktabgacha ta’lim sohasidagi bugungi kun rivojlanishi, yangiliklari va yutuqlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Yangi O‘zbekiston, zamonaviy maktabgacha ta’lim, faoliyat, qobiliyat, faollik, tasavvur, yaratuvchanlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается ряд реформ в развитии системы дошкольного образования в современную эпоху глобализации и то, что эти реформы направлены на обслуживание интересов дошкольников и современных педагогов, а также на повышение качества дошкольного образования а также представлена информация о сегодняшних разработках, новостях и достижениях в области дошкольного образования.

Ключевые слова. Новый Узбекистан, современное дошкольное образование, активность, способности, активность, воображение, творчество.

Abstract. In this article, a number of reforms in the development of the preschool education system in the current era of globalization and the fact that these reforms are aimed at serving the interests of preschool children and modern pedagogues, as well as improving the quality of

preschool education, and today's development, news and achievements in the field of preschool education information is provided.

Keywords. New Uzbekistan, modern preschool education, activity, ability, activity, imagination, creativity.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.[1]

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari endilikda, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy yetuk, ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom tarzda maktab ta'limiga tayyorlashi bilan birga ularning ichki yashirin qobiliyatlarini namoyon qilish, erkin fikrlay olish, liderlik, boshqaruvchanlik, ijodiy faoliyatlarini kashf etish va ochib berishini talab qilmoqda. Bu esa tarbiyachi-pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.[5]

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g‘risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Ma'lumki, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil dasturlar ishlab chiqilmagan edi. Rivojlangan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi. Biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g‘risida"gi qaroriga asosan mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihalar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.[4]

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutgan holda Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari belgilaydi:

- ✓ maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- ✓ maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ✓ maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

✓ maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

✓ maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash.[1]

Qabul qilingan bu me’yoriy-huquqiy hujjatlar faqatgina maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasi faoliyatini huquqiy asoslash yoki himoyalash bilan cheklanmaydi. Bu asoslar uzluksiz ta’limning eng asosiy tayanch bo‘g‘inini isloh qilishni, rivojlantirishni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda xorijiy tajribalarni o‘rganish, ularning ilg‘or tajribalarini milliy ta’lim va tarbiya bilan taqqoslash hamda ularning yutuqlarini sohaga moslashtirish orqali joriy etish davr talabi hisoblanadi. Har qanday ta’limning asosi — metodikadir, shu jumladan, maktabgacha ta’limniki ham. Maktabgacha ta’limni sifat bosqichiga ko‘tarishda yangi ta’lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi MTTning moddiy-texnik bazasi yuqori bo‘lsa-yu, pedagog bolalar bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma’lumotlarni yetkazib bermasa, hamma qilingan say-harakatlar o‘z natijasini ko‘rsatmaydi va biz ko‘zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Sohadagi mutaxassislar mahoratini oshirish, ularga zaruriy metodik ko‘mak berish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Maktabgacha ta’lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Qabul qilinayotgan barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga eng zarur hayotiy tushuncha va ko‘nikmalarni o‘rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg‘or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g‘oyat dolzarb vazifa edi. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi qabul qilindi. Endilikda zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan 1070 tasida tarbiyachi-pedagoglar bolalarni erkin qo‘ygan holda faollik markazlarida o‘yin mashg‘ulotlari orqali yangi ma’lumotlarni bolalarga yetkazib bermoqda.[3]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida butun ta'limiy faoliyat bevosita o'yin orqali amalga oshirilishi lozim. Bu esa pedagogdan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini, o'z kreativligini namoyon qilgan holda dastur asosida berilgan mavzu yuzasidan bolalar uchun qiziq bo'lgan va eng muhimi, bu o'quv-faoliyat bolalarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Hozirgi zamonaviy hayotda maktabgacha yoshdagi bolalar ziyraklik bilan axborot texnologiyalarini o'zlashtirib olayotganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv tarbiya dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash kerakligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. “maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun.
3. Abdiganieva n uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning tutgan o‘rni. Zamonaviy fan nazariyasi va amaliyoti 2022.
4. Axmedova M. F. *Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv* academic research in educational sciences 2022.
5. Isoyeva N.M Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usullari va texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi Science and Education 2024.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОИЗВОЛЬНОЙ САМОРЕГУЛЯЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Россия, доцент РГПУ им. А.И. Герцена
кафедры психологии развития и образования, PhD
Пежемская Юлия Сергеевна
Россия, обучающийся РГПУ им. А.И. Герцена,
педагог-психолог
Назаренко Маргарита Николаевна

Аннотация: В статье представлены результаты пилотажного исследования применения нейропсихологического подхода в детском саду для формирования таких показателей произвольной саморегуляции у детей дошкольного возраста как: переключение, устойчивость, продуктивность внимания, процесс оттормаживания нерелевантных реакций, умение действовать по правилу и самостоятельно по инструкции взрослого.

Ключевые слова: произвольная саморегуляция, метод замещающего онтогенеза, нейропсихологический подход.

Abstract: The article presents the results of a pilot study of the use of a neuropsychological approach in kindergarten for the formation of such indicators of voluntary self-regulation in preschool children as: switching, stability, productivity of attention, the process of inhibiting irrelevant reactions, the ability to act according to the rule and independently according to the instructions of an adult.

Key words: voluntary self-regulation, method of replacement ontogenesis, neuropsychological approach.

Формирование произвольной саморегуляции у детей дошкольного возраста – одна из актуальных проблем в современной психологии и педагогике. Обзор исследований показывает, что проблема эмоциональной и волевой регуляции в период подготовки детей к школе вызывает большой интерес. Обновление программ дошкольного образования и методов начального обучения в школе требует пересмотра целей, задач обучения дошкольников для обеспечения развития не только познавательной, но и эмоционально-волевой сферы дошкольников. Установлено, что, недостаточное развитие функций произвольной регуляции является одной из наиболее распространенных причин неготовности ребенка к школе [1, 6]. Поэтому очень важно учить детей управлять своими чувствами и эмоциями, учить контролировать себя и свое поведения именно в дошкольном возрасте для дальнейшего развития личности.

Исследование проводилось в детском саду Приморского района Санкт-Петербурга в группе детей дошкольного возраста 5-6 лет. В исследовании приняли участие 30 детей (13 девочек и 17 мальчиков).

В рамках исследования был проведен пилотажный формирующий эксперимент для того, чтобы проверить основную гипотезу, о том, что применение элементов нейропсихологического подхода способствует улучшению показателей произвольной саморегуляции.

Нейропсихологический подход при формировании произвольной саморегуляции детей дошкольного возраста рассмотрен нами на примере метода замещающего онтогенеза А.В. Семенович [5], включающего в себя взаимодополняющие двигательные и когнитивные методы. Метод А.В. Семенович основан на теории А.Р. Лурия [3] о трех функциональных блоках мозга и учении Л.С. Цветковой о нейропсихологической реабилитации психических

процессов. Метод позволяет развивать высшие психические функции оказывая воздействие на сенсомоторный уровень.

С респондентами исследования из экспериментальной группы был проведен курс групповых занятий по программе нейропсихолога Пивоваровой Елены Викторовны, направленных на формирование произвольной регуляции и контроля поведения. Продолжительность курса составила 21 занятие. Занятия с детьми проводились в течение 2,5 месяцев с периодичностью два раза в неделю, продолжительность каждого занятия 30 минут.

В каждом занятии с детьми было задействовано пять основных блоков:

- дыхательные упражнения;
- глазодвигательные упражнения;
- растяжки;
- упражнения двигательного репертуара;
- познавательные компетентности;

Программа была направлена на формирование произвольной регуляции средствами психопрофилактики нарушений речевой, познавательной и эмоционально-волевой сфер детей старшего дошкольного возраста на основе нейропсихологического подхода.

Выбранная программа универсальна и представляет собой базовый вариант использования метода замещающего онтогенеза в психолого-педагогическом сопровождении детей. Программа рассчитана на работу с детьми, начиная с 4 лет, с любым типом онтогенеза: от «нормы» до «патологии», исключения составляют, дети с повышенной эпиготовностью [4].

Диагностическое исследование показателей произвольной саморегуляции у детей проводилось до начала программы и после её завершения.

Для диагностики регуляторных функций у детей старшего дошкольного возраста использовались:

1) «учебная» серия, которая моделирует ситуацию школьного обучения, дети выполняют бланковые задания самостоятельно, сидя за столами, применялся групповой вариант пробы «Реакция выбора».

2) групповая игровая серия – игра «Голова - ноги».

Для определения уровня развития продуктивности и устойчивости внимания детей была использована методика «Корректурная проба».

Для диагностики уровня произвольности поведения детей применялись методики «Графический диктант» Д.Б. Эльконина и «Домик» Н.И. Гуткиной [2].

Результаты диагностики показали, что выраженность средних значений показателей регуляторных функций таких как: усвоение инструкции, переключение внимания и процесс оттормаживания нерелевантных реакций, соблюдение правил игры, преодоление желания нарушать правила в игровой и учебной сериях стали значительно лучше у детей в экспериментальной группе. Необходимо обратить внимание на то, что усвоение инструкций в игровых пробах оказалось доступным для большинства детей. Только дети с отчетливой слабостью произвольной саморегуляции не справились с усвоением инструкции в игровых пробах. Уровень выраженности умения действовать по правилу, а также самостоятельно по указанию взрослого после внедрения программы также улучшился.

Наибольшую сложность для большинства детей при выполнении методики «Графический диктант» Д.Б. Эльконина до и после формирующего эксперимента вызвала задача самостоятельно продолжить узор, что может говорить о том, что дети пока не могут выстроить внутренний план действий и дать речевую инструкцию про себя, однако они хорошо следуют инструкции взрослого. После проведения курса занятий по представленной программе количество просматриваемых строк детьми увеличилось, а количество допущенных ими ошибок уменьшилось, об этом говорят показатели средних значений параметров устойчивости и продуктивности внимания, такие как: темп, продуктивность и точность выполненной работы. Дети научились лучше переключать своё внимание с одного объекта на другой, стали более внимательными и сосредоточенными.

Результаты статистического анализа полученных различий (расчет Т-критерия Вилкоксона) до и после формирующего эксперимента показали, что у респондентов экспериментальной группы по таким показателям как: переключение внимания, процесс оттормаживания нерелевантных реакций, умение действовать по правилу, а также самостоятельно по указанию взрослого, выраженность параметров устойчивости и продуктивности внимания обнаружен сдвиг в сторону значимости, что говорит об эффективности применения программы с использованием элементов нейропсихологического подхода для развития произвольной саморегуляции.

Результаты статистического анализа полученных различий (расчет U-критерия Манна-Уитни) после формирующего эксперимента показали, что в экспериментальной группе после проведения курса занятий результаты лучше по сравнению с результатами контрольной группы. Полученные эмпирические значения U-критерия Манна-Уитни таких показателей регуляторных функций, как: переключение внимания, процесс оттормаживания нерелевантных реакций, умение действовать по правилу, а также самостоятельно по указанию взрослого, выраженность параметров устойчивости и продуктивности внимания (темп, продуктивность) находятся в зоне значимости.

Вывод: полученные результаты подтверждают выдвинутую гипотезу исследования о том, что применение нейропсихологического подхода способствует улучшению показателей произвольной саморегуляции детей дошкольного возраста.

Литература

1. Баянова Л. Ф., Веракса А. Н., Попова Р. Р., Никанорова С. А. О регуляторных функциях дошкольников в контексте нормативной ситуации // Современное дошкольное образование. – 2018. – №5(87). – С. 4–15
2. Гуткина Н. И. Диагностическая программа по определению психологической готовности детей 6-7 лет к школьному обучению. - М.: МГППУ, 2002 - 3-е изд., переработанное - 68 с.
3. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2003. — 384 с.
4. Семенович А. В. Нейропсихологическая коррекция в детском возрасте. Метод замещающего онтогенеза. М. – 2008 – 480 с.
5. Семенович А. В. Нейропсихологическая профилактика и коррекция. Дошкольники. Учебно-методическое пособие - М.: Дрофа, 2014. – 240 с.
6. Семенова О. А., Кошельков Д. А., Мачинская Р. И. Возрастные изменения произвольной регуляции деятельности в старшем дошкольном и младшем школьном возрасте // Культурно-историческая психология. - 2007. - Т. 4. - С. 39-49.

ОБЩЕНИЕ КАК ВАЖНЕЙШЕЕ УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ

Узбекистан, НГПИ
DSc. Давлатова Раъно Хайдаровна

Аннотация: данная статья содержит информацию о развитии речи детей дошкольного возраста посредством общения.

Ключевые слова: этап дошкольного образования, дети дошкольного возраста, личностные качества, «радость детства», речь, некоторые недостатки речи.

Abstract: this article contains information about the development of speech in preschool children through communication.

Key words: stage of preschool education, preschool children, personal qualities, “the joy of childhood,” speech, some speech deficiencies.

Дошкольная ступень сохраняет самоценность дошкольного детства, формирует фундаментальные личностные качества ребёнка, сохраняя «радость детства». Дошкольное

образование - первая ступень, обеспечивающая преемственность воспитания и обучения ребенка в условиях дошкольной образовательной организации, семьи и школы. Центральное место на данной ступени занимают отношения между детьми и взрослыми, отношения с окружающим социумом.

Проблема развития речи детей - одна из важнейших в общей и специальной психологии и педагогике. Это обусловлено той ролью, которую речь играет в жизни человека, как основное средство общения, поэтому проблема обучения конструктивному речевому общению имеет социальную значимость и приобретает особую актуальность применительно к дошкольникам с речевыми дефектами.

Общение – взаимодействие двух (или более) людей, направленное на согласование и объединение усилий с целью налаживания отношений и достижения общегорезультата. Основной признак общения как осознанного психического процесса –двусторонняя активность, в ходе общения каждый участник выступает как полноправный партнёр, как личность.

Основным средством общения является речь. Но она возникает лишь на определенном этапе общения. Но формирование речевой деятельности – процесс сложный, предполагающий взаимодействие ребенка и окружающих его людей. Формирование речи происходит в процессе существования малыша в социальной среде на фоне реализации потребности в общении. Потребность в общении – одна из самых важных человеческих потребностей. Отношения с близкими, рождают наиболее острые и напряженные переживания, которые наполняют смыслом наши действия и поступки. Самые тяжелые переживания человека связаны с одиночеством или непонятностью другими людьми. А наиболее радостные и светлые чувства – любовь, признание, понимание – рождаются связанностью с другими и близостью.

Общение по праву считается одной из наиболее значимых человеческих ценностей. Концептуальные основы разработки проблемы общения заложены в трудах Л.С. Выготского, А.Н. Леонтьева, Д.Бабаева и других отечественных педагогов и психологов, которые рассматривали общение как одно из решающих условий психического развития человека, формирования его личности. Много исследований было посвящено вопросу о значении общения в жизни ребенка, в частности на первом году жизни. Этой проблеме посвящены работы М.И.Лисиной, Н.М.Аксариной, С.М.Кривиной, Л.А.Венгера, В.С.Мухиной, Е.Г.Курбяковой.

В дошкольном возрасте формируются две внеситуативные формы общения со взрослым: внеситуативно познавательная и внеситуативно личностная.

Таким образом, общение многолико; включает много форм, видов. До сих пор не существует единства в толковании понятия «общение», его механизмов. Это порождает различные подходы к изучению общения, однако, практически все исследователи отмечают, что без человеческого общения невозможно полноценное развитие ребенка; общение - важнейший фактор формирования личности, так же общение – это наилучший путь для того, чтобы познать себя. Функции общения:

1) организация совместной деятельности людей;

2) формирование и развитие межличностных отношений.

Эти функции определяют главные направления в развитии общения детей совзрослыми и сверстниками. Психологи А. В. Запорожец, Д.Б. Эльконин, А.А.Леонтьев рассматривали развитие ребёнка как процесс усвоения детьми общественно-исторического опыта, накопленного поколениями, который осуществляется только при помощи взрослых и который невозможен без общения. Общение со взрослыми обогащает содержание детского сознания. Для полноценного развития личности ребёнка необходимо общение с ухаживающим за ним взрослым, так как происходит обогащение опыта ребёнка (в общении задача, выдвигаемая взрослым, с го-товностью принимается ребёнком), подкрепление действий ребёнка (их поддержкаи коррекция). Общение со взрослым – главное условие для разрешения противоречий междуцелями и имеющимися в распоряжении ребёнка средствами

общения, между желаемыми и достигнутыми формами и содержанием высказывания. Эти противоречия есть те движущие силы, которые стимулируют развитие речи ребёнка.

Появление речи в процессе общения происходит постепенно. Вначале ребёнок проявляет эмоции по отношению ко взрослому, затем происходит обмен эмоциями взрослого и ребёнка по поводу предмета (игрушки), при этом взрослый показывает и называет предмет или действие с ним, ребёнок начинает связывать данное слово с предметом. В дальнейшем эти совместные действия с предметом приводят к неполному речевому общению: взрослый говорит, а ребёнок голосом реагирует (гуканье, гуление, лепет). Подражание речи взрослого на уровне предречевых элементов в процессе общения развивает у ребёнка стремление инициативногопроцесса ко взрослому. Таким образом, в процессе ситуативно-личностного общения у ребёнка формируются все предпосылки для возникновения речи.

Литература

1.Авдеева, Мещерякова. 1991. Вы и младенец: У истоков общения. М.

2.Аксарина Н.М. 1972. Воспитание детей раннего возраста. М.

3. Babayeva D. Nutq o‘stirish metodikasi. -Toshkent, 2009.

4.Галигузова,Смирнова. 1992. Ступени общения: От года до семи лет. М.

5.Развитие общения дошкольников: Характеристика основных форм общения со взрослым у детей от рождения и до семи лет.1974. / Под ред. А. В. Запорожца, М.И. Лисиной.

6.Общение и речь: Развитие речи у детей в общении со взрослым.1985. / Под. ред. М.И. Лисиной. М.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TASHKIL ETILADIGAN SAYOHATLARNING TARBIYALANUVCHILAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

O‘zbekiston. NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD. Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari bilan turli joylarda uyushtiriladigan sayohatlar orqali bolada intellektual, axloqiy, estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi hamda bola organizmini chiniqtirish, faolligini oshirish, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashishi izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: sayohat, turizm, ekskursiya, chidamlilik, jismoniy taraqqiyot, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, istirohat bog‘lar, turizm ma’muriyati, marshrut, instruktor, chang‘i, chana, skuter.

Аннотация: В данной статье описано положительное влияние на интеллектуальное, нравственное, эстетическое развитие ребенка посредством поездок, организуемых с детьми дошкольной образовательной организации в разные места, а также тренировки организма ребенка, повышения его активности, совершенствования его движений и физических качеств. качества.

Ключевые слова: путешествие, туризм, экскурсия, выносливость, физическое развитие, государственная образовательная программа «Илк Кадам», парки отдыха, управление туризма, маршрут, инструктор, лыжи, санки, самокат.

Annotation: This article describes the positive impact on the child's intellectual, moral, aesthetic development through the trips organized with the children of the preschool educational organization in different places, as well as training the child's body, increasing its activity, improving its movements and physical qualities.

Key words: travel, tourism, excursion, endurance, physical development, "Ilk kadam" state educational program, recreation parks, tourism administration, route, instructor, ski, sled, scooter.

Maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish davrida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilariga ta’lim xizmatlari tarmog‘ini, jumladan, kundalik mashg‘ulotlarning

boshqa turlarini, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidan tashqari kengaytirish va chuqurlashtirishga ruxsat beriladi. Ushbu yangi turlardan biri maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan, turli joylarda uyushtiriladigan sayohatlar ya’ni turizm bo‘lishi mumkin. Bunday tashkil etiladigan sayohatlar bolaning jismoniy, intellektual, axloqiy, estetik rivojlanishiga hissa qo‘shadi [1].

Sayohatlar davomida bolalar uzoq vaqt ochiq havoda bo‘lishlari, ularning sog‘ligiga va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy tadqiqotlarda ham isbotlab berilgan. Bolaning ochiq havoda bo‘lishi natijasida qon kislorodga to‘yadi, temperaturaning o‘zgarib turishi, havoning namligi, shamol ta’siri termoregulyasion apparatni mashq qildiradi, organizmni chiniqtiradi, bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi [3].

O‘tkaziladigan sayohatning tashkiliy jihatlari, mazmuni va metodikasini tarbiyachilar puxta o‘ylashlari lozim. Sayohatga yig‘ilish ko‘p vaqtni olmasligi, buning uchun bolalarni bir tartibda kiyinish va yechinishga o‘rgatib borish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sayohatlar rejasiga atrof-olamni, hayotni kuzatish, sport mashg‘ulotlari, mehnat faoliyati va o‘yinlar kiradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun sayohatlar, sayrlar tabiat qo‘ynida past-baland joylarda (istirohat bog‘lari, dalalar, tog‘lar, qishloqlar va h.k.) o‘tkaziladi.

Tarbiyachilar tomonidan Vatanimizning manzarali joylari haqida suhbatlar uyushtiriladi. Yengil harakatlar bilan 2,5 km masofaga yuriladi. Turizm sayyohatlariga doir ishlar turizm ma’muriyati tomonidan qat’iy belgilangan marshrut asosida (5 dan 25 km gacha instruktor nazoratida) olib boriladi [6].

Sayohatlar davomida turgan joyni yo‘nalishni aniqlashni, turistik anjomlardan foydalanishlari, to‘siqlardan oshib o‘tib qiyinchiliklarni yengish, palatka tutish, ovqat pishirish, bir-biriga yordam berish, tabiatni sevish va uni asrashni ham bolalarga o‘rgatish hamda bilim berish ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Sayohatlar vaqtida tarbiyachi bolalarga o‘simliklarni ehtiyot qilishni, gulzorlarni toptamaslikni, ulardan gul uzmaslikni yoki nihollarni bosib tashlamaslikni, shohlarini sindirmaslikni eslatadi. Shuningdek, tarbiyachi bolalarga daraxt kasal bo‘lmasligi uchun shohlari kesilgan joylariga bo‘yoq surkalishi, ildizlarini sovuq olmasligi uchun qishda daraxt tagiga qor to‘plab qo‘yilishini (agar daraxtning ildizi muzlasa u qurib qoladi) ko‘rsatadi.

Yilning turli davrlarida, turli ob-havo sharoitida tabiat hodisalarini kuzatish estetik va axloqiy tarbiyaning birligi uchun sharoit yaratadi. Bolalar go‘zallikni ko‘rish, tushunishga o‘rganadilar.Tabiat bilan muloqot bolada quvnoq kayfiyatni vujudga keltiradi, bu esa o‘z navbatda uning tengdoshlari, jamoadagi xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Bola atrofga xayrxoh bo‘lib boradi [2].

Oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyachi bolalarni qabul qilish xususiyatini yanada faollashtirish maqsadida turli xil o‘yinlarni o‘ylab topadi va ulardan foydalanadi. Masalan, bolalarga savollar beradi, ma’lum bir predmetni o‘rganib chiqishni taklif qiladi, ob’ektlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ma’lum bir obyektlarning tabiat hodisalari bilan aloqasini aniqlab beradi.

Sayohatlar davomida tabiatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni kuzatish orqali bolalarda sayohatlarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish mumkin. Kuzatishlar yakka tartibda yoki 3-6 kishidan iborat bo‘lgan kichik guruhlar bilan, ba’zida butun guruh bilan o‘tkaziladi. Kuzatishga bunday yondoshish tarbiyachining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga bog‘liqdir. Mashg‘ulotlarda jonivor va o‘simliklar, kattalarning qilayotgan mehnatlarini kuzatish mumkin. Bu vaqtda bolalar bilan ishlash kichik guruhlar yoki frontal tarzda tashkil qilinadi. Sayohatlar kichik guruhlar bilan yoki yakka tartibda tashkil qilinadi [2].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan sayohatlar sharoitga qarab piyoda, chang‘ida, chanada, skuterlarda, velosipedda, ekskursiya avtobuslarida olib borilishi mumkin.

Tarbiyachining sayohatga tayyorlanishi. Tarbiyachi sayohatni rejalashtirar ekan, sayohat mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, sayohat o‘rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg‘itmaydigan) yo‘lni belgilaydi. Sayohat o‘rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan sayohatlar kichkintoylar

uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo‘lning xususiyatlarini, ob-havo holatini hisobga olish zarur [4].

Sayohat uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo‘lmasin, u bir-ikki kun oldin o‘sha joyni ko‘rib chiqishi lozim. Boriladigan sayohat joyida bo‘lgan tarbiyachi marshrutni aniqlaydi, kerakli obektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo‘lgan joyni belgilaydi.

Sayohatlarni tashkil etishda obyekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt yaxshi holatda bo‘lishi kerak, ya’ni o‘simlik so‘limagan, navlari o‘ralmagan, hayvon qo‘lga o‘rgatilgan, sog‘lom, bolalardan cho‘chimaydigan va xavfsiz joy bo‘lishi zarur. Kuzatish tabiat burchagida bo‘lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo‘lishi, unga yaqinlashish qulay bo‘lishi uchun yorug‘lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o‘ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o‘zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat burchagida qulay joylashib o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Sayohatlarni boshqarish. Sayohatni o‘tkazishdan oldin tarbiyachi uni o‘tkazish usullarini atroflicha o‘ylab ko‘radi va sayohat qiziqarli o‘tishi uchun oldindan she’r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi.

Tarbiyachi bu jarayonni birinchi marotaba o‘tkazayotgan bo‘lsa, dastlab bolalarda hosil bo‘lgan qiziqishlarini orttirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1—2 daqiqa tomosha qildirib turadi.

Bolalar kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan — bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab ko‘rish, qiyoslash, o‘yin harakatlaridan foydalanadi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma’umotlarni aytishi, kuzatiladigan obektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she’rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarda esa badiiy asarlarni o‘qishdan foydalanadi.

Tarbiyachi bolalar bog‘chasidan tashqariga qilinadigan sayr kuni bolalarning ko‘p kuch sarflamasdan, xotirjam o‘ynashlariga e’tibor beradi.

Bolalar sayrga tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etishlari lozim. Ular tarbiyachi bilan birga kerakli bo‘ladigan anjomlar va jihozlarni tanlaydilar, ko‘tarib borish oson bo‘lsin uchun ularni o‘zaro taqsimlab oladilar.

Sayrga otlanayotganda unga tashqi ko‘rinish berish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan: har bir bola kichik nonushta solingan (konfetlar, pechene, olma, sabzi va h.k.) yelkaga osadigan xaltacha taqib oladi.Uning og‘irligi 300-400 g.dan oshmasligi kerak [6].

Sayrda barcha yosh bolalarini erkin, istasalar guruh- guruh bo‘lib yurishlari mumkin (odatda juft bo‘lib yurish bir bolani ikkinchisiga bog‘liq qilib qo‘yadi va nerv sistemasi holatiga nohush ta’sir etadi, salbiy emotsiya uyg‘otadi, erkin harakat qilishga tabiat va uning go‘zalligini his etishga imkon bermaydi). Faqat muayyan sharoitlarda, masalan, bolalar transport yuradigan kesib o‘tishlari kerak bo‘lgandagina juft bo‘lib saflanishlari mumkin. Kichik guruh bolalarini tarbiyachidan tashqari yana kattalardan biror kishi kuzatib borishi kerak. U bolalarni yo‘ldan o‘tkazishga, yalanglik va boshqa joylarda o‘yin uyushtirishga ko‘maklashadi.

Sayr qish fasllarga qarab ham rejalashtiriladi: bolalar oldindan ogohlantiriladilar va tarbiyachi bilan birgalikda kerakli narsalarni tayyorlaydilar.

Sayrlarni muntazam o‘tkazish bolalarning harakat ko‘nikmalarini takomillashtiradi, organizmni chiniqtiradi, chidamlilikni tarbiyalaydi, hayotiy taassurotlarni yangilaydi, atrof muhitni bilishga yordam beradi, sayohatlarga nisbatan qiziqish uyg‘onadi hamda zavq baxsh etadi [5].

Sayohatdan bir necha kun oldin bolalarda mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o‘tkazadi, ya’ni sayohat vazifalarini qo‘yadi, topshiriq va vazifalami taqsimlaydi, sayohatdagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan sayohatlar tarbiyalanuvchilarni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlantiradi. Tabiatga

nisbatan mehr-muhabbatli qilib, ekologik madaniyatini oshiradi. Shu bilan birga turizmga nisbatan qiziqish, tetik ruh, chidamlilik, jamoa hissi paydo bo‘lishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Abrorov E. “Tabiat va ekologik tarbiya”. Toshkent-1995 yil
3. Frolov V.G. “Sayrlarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, o‘yinlari va mashqlari” Toshkent. O‘qit. 1998 yil
4. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. “Turizm asoslari”.T.,“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” 2011yil.
5. Sharipova D., Toirova M., Muxamedova S. “Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desangiz” Toshkent “Ilm Ziyo” -2006 yil
6. Usmonxo‘jaev T.S., Toirova M.T. “Bolalar bog‘chasida sayrlarni o‘tkazish”. T.: Cho‘lpon. 2008 yil.

BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHDA ZAMONAVIY VA SHARQONA TA’LIM UYG‘UNLASHUVINING AHAMIYATI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,
Tarix fakulteti dekani
R.M.Qarshiyev, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: barkamol insonni tarbiyalashda o‘zbek xalqining milliy va umuminsoniy qadriyatlari bilan uyg‘unlashgan zamonaviy ta’lim va tarbiya berish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: barkamol inson, pedagogik jarayon, zamonaviy ta’lim, pedagogik texnologiya.

Аннотация: рассказывается о современном образовании и воспитании, которое сочетается с национальными и общечеловеческими ценностями узбекского народа в воспитании совершенного человека.

Ключевые слова: совершенный человек, педагогический процесс, современное образование, педагогические технологии.

Annotation: it is described about modern education and upbringing, which is combined with the national and universal values of the Uzbek people in raising a perfect person.

Key words: perfect person, pedagogical process, modern education, pedagogical technology.

Zamonaviy va sharqona ta’limning uyg‘unlashuvi jamiyat taraqqiyoti va kadrlar salohiyati hamda yoshlarni jahon andozalari asosida tayyorlaydigan shunday ta’lim jarayoniki, bu ikki jarayonning hamohangligi yoshlarni fan cho‘qqilarini kengroq egallashlariga, ma’naviy bilimlarining kengayishiga, o‘zbekona va umuminsoniy qadriyat, an’ana va udumlarimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga o‘rgatadi.

Darhaqiqat yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga e’tibor berilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Milliy dasturi”da belgilangan vazifalarga muvofiq yoshlarning yuragidagi cho‘g‘ni alanga oldirgan holda, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish bugungi kunning dolzarb

vazifasidir. Shuningdek,yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tashabbuskor, qolaversa, tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan bu davrda ularni vaqtdan unumli foydalanish, ishni puxta rejalashtirish va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kabi xususiyatlarni tarkib toptirish zamonaviy ta'limimizning oldida turgan muhim talablardan biridir. Bu to‘g‘risida birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov: "Ta'lim muassasasining modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz",-deb aytgan fikrlari bugungi kunda o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy ta'lim deganda, bugungi kun talablari asosida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish ya'ni bir so‘z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha qarash va yangicha yondashib o‘quvchilarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, bunyodkorlik sifatlarini tarkib toptirishdan iborat bo‘lgan ta'lim jarayonini tushunamiz. Bu jarayonda esa ta'lim samarasi yangi bosqichga ko‘tariladi, ya'ni:

- Talaba, o‘quvchining qiziqishi, talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- Talaba, o‘quvchining o‘quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi oshadi;
- Talaba, o‘quvchining bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- Talaba, o‘quvchida o‘z bilimini o‘zi boyitishiga ishonch paydo bo‘ladi;
- Talaba, o‘quvchida mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ixtirochilik kabi sifatlar rivojlanadi;
- Yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini tezroq topib olish uchun muhit yaratiladi.

Yoshlar egallaydigan bunday zamonaviy bilim, malaka va ko‘nikmalar sharqona ta'lim bilan uyg‘unlashtirilsa, ularda vatanga muhabbat tuyg‘usi, iymon – e'tiqod, mehr-oqibat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat kabi insoniylik fazilatlar rivojlanadi. Bu esa jamiyatimizning har tomonlama taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi",- deb bejizga aytmaganlar.

Buyuk bobokalonlarimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan barkamol inson tarbiyasi haqidagi ilmiy ma'naviy meroslar bugungi zamonaviy ta'limimizni yuksaltirishga va undan ijodiy o‘zlashtirishimizga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ulug‘ mutafakkirlarimizning sharqona qarashlarida bu xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin:

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy deyarli barcha asarlarida barkamol insonning ta'lim-tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini talablarini ko‘rsatadi va ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olish kerakligini aytadi. Zamonasining peshqadam ziyolisi bo‘lgan Abdulla Avloniy esa bolalarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda ularning fikriy tarbiyasiga to‘xtalar ekan, bu - muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur",- deb fikr bildiradi. Shuningdek, O‘rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri Abu Nasr Forobiy inson shaxsini kamol toptirishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib, tarbiyalash ikki xil uslub yordamida, ya'ni, ixtiyoriy-majburiy tarzda olib borilishi mumkinligi, agar tarbiyalanuvchi aqliy va axloqiy xislatlarni, bilimli bo‘lish, hamda to‘g‘rilik, haqiqatni sevish, jasurlik, do‘stlarga sadoqat kabi fazilatlarni egallashga intilmasa, uni tarbiyachi, muallim o‘rgatishi kerakligi haqida aytadi.

Ulug‘ mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi buyuk insonlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi sharqona qarashlari bilan yo‘g‘rilgan boy meroslari hamda o‘zbek xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarisiz zamonaviy ta'limizni aslo tasavvur qila olmaymiz.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o‘zbek xalqining milliy an'ana va qadriyatlari ijtimoiy - madaniy hayotimizdagi uslublarning vorislik rishtalari uzib yuborilmasligi kerak. Qolaversa, bugungi zamonaviy ta'limimizning asosida sharqona ta'lim usullari mujassam. Ulug‘ alloma bobokalonlarimiz bugungi ilg‘or texnologiya usullaridan o‘z zamonasida qo‘llagan. Ulardan Abu

Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Sohibqiron Amir Temur, Ahmad Farg‘oniy kabi allomalar o‘zlarini qiynagan muammolarini yechishda interfaol metodlardan keng foydalanishgan. Bu ulug‘ mutafakkirlar bu metodni “kengash”, “mashvarat”, “maslahat” deb atashgan. Masalan, Sohibqiron Amir Temur saltanatning oldida turgan muammolarni yechishda mashvarat chaqirib, barcha saroy ahlini, vaziru - ulamolari va farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va shular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko‘proq harbiy yurishlar oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur jang-u jadallar oldidan g‘anim ustiga lashkar tortmoqchi bo‘lganda, u: “... urush-yarashdan o‘rtaga so‘z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so‘z ochsalar, uning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko‘rardim, agar urushga moyil bo‘lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko‘rardim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shuni ixtiyor qilardim”-degan fikrining zamirida bugungi zamonaviy ta’limimizning bilish, anglash, tahlil etish, sintez qilish, baholash, xulosalash, natijaga erishish kabi mezonlari yotganligini ko‘ramiz.

Yuqorida aytilganlarni barchasining asosida birinchi prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “sharqona qarash va sharqona hayot falsafasi” mujassam. Bu birlikni biz pedagoglar hech qachon unutmasligimiz va diqqat markazimizda doimo saqlashimiz lozim bo‘ladi. Shunday ekan, bugungi zamonaviy ta’limimiz mazmunining markaziy komponenti o‘zida g‘oyalarning eng maqbul jihati hamda umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi zarur. Taniqli olim L. S. Vigotskiy jamiyat taraqqiyotidan ilgarilab ketgan ta’limgina samarali bo‘lishi mumkinligini shunday ta’riflaydi: “Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirayotgan ishini ertaga o‘zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o‘rgatadigan, qobiliyati qadamba - qadam o‘sish imkonini yaratadigan tafakkurining yangi-yangi qirralarini ochadigan ta’lim va tarbiyaga, pedagogik metodlarga ega bo‘lingan taqdirdagina erishish mumkin”. Shuning uchun zamonaviy ta’limimizning asosiy maqsadi yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol insonlarni tarbiyalash, ma’naviy qadriyatlarimizni bugungi avlod mulkiga aylantirish, ajdodlarimizning an’ana va tajribalarini o‘rganish asosida mustaqil fikrlaydigan, el-yurt sha’ni va qadr-qimmatini ko‘klarga ko‘taradigan, vatanining yuksalishi va taraqqiyoti uchun olijanob maqsadlar sari intiladigan, “Elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan” vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi uchun kurasha oladigan barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazish ta’lim sohasida ishlaydigan barcha o‘qituvchi pedagoglarning oldida turgan, zimmasiga yuklatilgan oliy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.https://lex.uz/
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1.-Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
4. Islom Abdug‘anievich Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent “Ma’naviyat” 2008 yil.
5. Ishmuhamedov. R “Innovattsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. – T .: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
6. “ Q.Tolipov, M. Usmonboyeva “Pedagogik” texnologiya asoslari Toshkent “Fan” nashriyoti 2001.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022– 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
9. Chori Nasriddinov. “Inson, ong, hayot”. Toshkent “O‘zbekiston” 2010 y
10. Muhammad Quronov. “Ezgu g‘oyalar ro‘yobi”. Toshkent “Ma’naviyat” 2011 yil.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ

Узбекистан, доцент кафедры
«Методика дошкольного образования»
ТГПУ имени Низами, PhD. Ким Ирина Николаевна

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, audio kitoblar, interfaol darslar, mnemonik jadvallar.

Аннотация: в данной статье рассматриваются инновационные подходы к развитию речи дошкольников.

Ключевые слова: Инновационные технологии, аудиокниги, интерактивные занятия, мнемотаблицы.

Annatation: this article discusses innovative approaches to the development of speech in preschool children.

Keywords: Innovative technologies, audio books, interactive lessons, mnemonic tables.

В современном обществе, где информационные технологии занимают все более значимое место, важно учить детей владению речью с самого раннего возраста. Ведь развитие языковых навыков и навыков общения играют ключевую роль в успешной адаптации к социальной среде.

Инновационные технологии в обучении речи дошкольников стали великолепным инструментом для изучения и развития языка. Они не только делают обучение увлекательным и интересным, но и активизируют детскую познавательную деятельность.

Одной из важнейших технологий в работе с дошкольниками является использование интерактивных игр и приложений на планшетах и компьютерах. Такие приложения разработаны с учетом возрастных особенностей детей и позволяют им активно взаимодействовать с изображениями, звуками и текстом. Таким образом, дети получают возможность развивать слуховое восприятие, учатся правильно произносить звуки и слова, обогащают свой словарный запас.

Использование различных электронных устройств и технологий также позволяет развивать ораторские навыки у детей. Например, можно организовывать интерактивные занятия, на которых ребята выступают с небольшими рассказами перед камерой или аудиторией. Такие моменты помогают развивать навыки публичного выступления, уверенности в себе и правильности речи.

Среди инновационных методов обучения можно также выделить использование современных устройств чтения вслух (audiobooks) в рамках занятий. Аудиокниги помогают развивать у детей навыки культурного слова и правильного интонирования. Благодаря наличию аудиосопровождения они позволяют стимулировать интерес детей к чтению и образованию, что имеет важное значение для развития речи.

Мнемотаблицы также можно использовать в качестве эффективного средства развития речи дошкольников. Мнемотаблицы представляют собой эффективный инструмент развития речи у детей дошкольного возраста. Они основаны на принципах ассоциативного запоминания, позволяя усвоить и запомнить новые слова и понятия при помощи визуальных образов и ассоциаций. В развитии речи дошкольников особенно важно обратить внимание на формирование словарного запаса. Использование мнемотаблиц позволяет создать благоприятную среду для активного усвоения языка и стимулирует интерес к обучению. Изучение новых слов в игровой форме помогает повысить мотивацию и внимание детей, способствует лучшему усвоению и пониманию материала.

Мнемотаблицы включают в себя набор картинок, символически представляющих отдельные слова или понятия. Эти картинки затем связываются с понятиями или словами при помощи ассоциаций. Например, для запоминания слова "солнце" можно использовать картинку с изображением солнышка, которое ассоциируется с ярким светом и теплом. Таким образом, каждая карточка в мнемотаблице становится ключом к определенному слову или понятию. Применение мнемотаблиц ведет к формированию связных представлений в речи детей, улучшению их лексического запаса, развитию памяти и мышления. Дети легко запоминают новые слова благодаря визуальным образам, что способствует формированию устойчивых навыков речевой деятельности. Организация учебного процесса с использованием мнемотаблиц также предоставляет возможность для индивидуального подхода к каждому ребенку, учитывая его интересы и предпочтения. Дети могут самостоятельно выбирать карточки и создавать свои собственные мнемотаблицы, что способствует их творческому развитию и формированию самостоятельности.

Мнемотаблицы активно применяются в развитии речи дошкольников. Они эффективно помогают расширить словарный запас, развить память и мышление, а также стимулируют интерес к изучению. Благодаря игровой форме обучения, мнемотаблицы создают благоприятную атмосферу для комфортного и эффективного развития речи у детей.

В целом, инновационные технологии в обучении речи дошкольников играют неоценимую роль в формировании и развитии языковых навыков. Они помогают активизировать внимание детей, развивать слуховое и зрительное восприятие, а также формировать навыки публичного выступления и чтения вслух. Поэтому использование таких инструментов в процессе обучения необходимо включить в практику образовательных учреждений, чтобы помочь детям успешно вступить в мир речи и общения.

Литература

1. Гуревич П. С. Цифровизация образования в дошкольном учреждении: проблемы и перспективы. Вестник науки и образования, 2018, №4 (56), с. 12-16.

2. Дмитриева Е. В., Юрова И. В. Использование цифровых технологий в дошкольном образовании: опыт и проблемы. Педагогическое образование в России, 2015, №12, с. 122-129.

3. Казакова Е. Б., Круглова Н. С. Цифровые технологии в дошкольном образовании: современное состояние и перспективы. Современные проблемы науки и образования, 2019, №1, с. 98-104.

4. Ким, И. Н. (2023). Особенности использования цифровых технологий в дошкольном образовании. In Наука, технологии, инновации для развития экономики и общества (pp. 37-39).

5. Ким, И. Н. (2023). Значение цифровизации дошкольного образования в современном обществе. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(2), 55-57.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA SPORT MUSOBAQALARINING ROLI

O‘zbekiston, NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti Hojiyev Sherali Suvonovich

Annotatsiya: Sport bayramlari va musobaqalarini o‘tkazishda bolalar faol, mustaqil va tashabbuskor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu maqolada bolalarda jismoniy madaniyatni shakllantirishda sport musobaqalarining roli haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, musobaqa, bola, o‘yin, metodika

Annotation: Children will have the opportunity to be active, independent and initiative during sports events and competitions in preschool educational organizations. This article talks about the role of sports competitions in the formation of physical culture in children.

Key words: physical culture, physical education, sports training, competition, child, game, methodology.

Аннотация: У детей появится возможность проявить активность, самостоятельность и инициативность во время спортивных мероприятий и соревнований в дошкольных образовательных организациях. В данной статье рассказывается о роли спортивных соревнований в формировании физической культуры у детей.

Ключевые слова: физическая культура, физическое воспитание, спортивная подготовка, соревнование, ребенок, игра, методика.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga va o‘rganish predmetiga ega, ayni paytda u 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar jismoniy tarbiyasi qonuniyatlarini va shunga muvofiq bolaning ta’lim va tarbiya jarayonidagi rivojlanishini boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o‘rganadi.Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi har bir yosh bosqichini o‘rganib, ilmiy ma’lumotlar va amaliy tajribani umumlashtirib borib, jismoniy tarbiya vazifalarini belgilaydi, ularning mohiyatini, butun jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning juda samarali vositalari va metodlarini, maqsadga muvofiq shakllarini kompleks ravishda ochib beradi.

Sog‘lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o‘z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan, maktabdagi o‘qishga hamda kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish, jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama rivojlantirish asoslari sifatidagi alohida ahamiyatini belgilab beruvchi muhim vazifasi hisoblanadi. ilk yoshdagi va maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning quyidagi psixofiziologik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi: organizmning ish qobiliyati imkoniyatlari, yuzaga keluvchi qiziqish va ehtiyojlar, ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obraz va mantiqiy tafakkur formalari, ustun turuvchi faoliyat turining o‘ziga xosligi, bu faoliyat rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda bola psixikasida muhim o‘zgarishlar kechadi va “Bolaning yangi oliy rivojlanish bosqichiga o‘tishi”ga tayyorlanadi. Shunga muvofiq bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiyani tashkil qilish va ularni optimal pedagogik sharoitlarda amalga oshirishning barcha formalari mazmunini ishlab chiqadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bog‘chasidagi bolaning hayotini qiziqarli o‘yin-kulgilar, qiziqarli o‘yinlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ba'zilarda zukkolik, boshqalarda - zukkolik, boshqalarda - tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi, lekin ularni umumiy vazifa birlashtiradi - bolaning harakatga bo‘lgan ehtiyojini va hayotni hissiy idrok etishni tarbiyalash. Harakatlanayotganda, bola dunyoni va o‘zini o‘rganadi, unda harakat qilishni va maqsadli harakat qilishni o‘rganadi. Sport bayramlarini o‘tkazish, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil qilishda bolalar faolroq, mustaqil va tashabbuskor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tarbiyaning yana bir muhim jihatini ochadi: bolalarga vaqtinchalik va fazoviy mos yozuvlar ko‘rsatishning hojati yo‘q, chunki bolalar o‘z vazifalarini tinch va ishonchli bajaradilar. Jismoniy madaniyat – jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismi, ijtimoiy faoliyatning bo‘g‘ini sifatida salomatlikni mustahkamlash hamda inson jismoniy qobiliytalarini takomillashtirishga qaratilgan, moddiy hamda ma`naviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradigan, insonning jamiyatda faol faoliyat olib borishi, sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lishi, jismonan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur bo‘ladigan madaniyat ko‘rinishi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya – jismoniy barkamolikka erishish maqsadida harakat ko‘nikmalari hamda ruhiy-jismoniy xususiyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda unga umuminsoniy hamda milliy madaniy qadriyatlarni berish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida jismoniy tarbiya insonni har tomonlama rivojiga munosib hissa qo‘shib, uning ruhiy, ma`naviy, xloqiy taraqqiyotiga asos bo‘ladi. Shuningdek maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar orasidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlar, do‘stlik, mehribonlik, insonparvarlik, oqibat, saxovat kabi xususiyatlarni yanada mustahkamlaydi. Maqsadi har tomonlama yetuk, barkamol yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga ko‘maklashish. Buning uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o‘quvchilarda yuqori axloqiy, irodaviy, jismoniy fazilatlar tarbiyalanadi;
- o‘quvchi yoshlar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash amalga oshiriladi;
- o‘quvchilarning bo‘lajak kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya tashkil etiladi;
- o‘quvchilarga jismoniy tarbiya nazariyasi, metodikasi, amaliyoti bo‘yicha bilimlar bazasi shakllantiriladi.

Bolalarda jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanish organizmning funksional imkoniyatlarini, aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini, o‘quv mehnatining unumini oshiradi. Jismoniy tarbiya vositalaridan mohirlik bilan foydalanish, amaliy va boshqa maxsus intellectual sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Shuni ta`kidlab o‘tish joizki, harakatlanayotganda, bola dunyoni va o‘zini o‘rganadi, unda harakat qilishni va maqsadli harakat qilishni o‘rganadi. Sport bayramlari va musobaqalarini o‘tkazish, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil qilishda bolalar faolroq, mustaqil va tashabbuskor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tarbiyaning yana bir muhim jihatini ochadi; bolalarga vaqtinchalik va fazoviy mos yozuvlar ko‘rsatishning hojati yo‘q, chunki bolalar o‘z vazifalarini tinch va ishonchli bajaradilar. Bolalar estafeta kabi musobaqali o‘yinlarni yaxshi ko‘radilar. Bu esa o‘z navbatida ulardagi jismoniy mashqlarga bo‘lgan qiziqishlari yanada rivojlantiradi. Shuningdek, ular jamoalarga bo‘linishi, kapitanni tanlashi, o‘z jamoasining nomi va shiorini o‘ylab topish kerak. Bunday o‘yinlar ulardan ko‘proq epchillik, jasorat, mahorat talab qiladi. Musobaqalar bolalar tomonidan yaxshi ko‘rilganiga qaramay, ular kam harakatchanlik o‘yinlari, havaskor chiqishlar, ritmik raqslar, krossvordlar va rebuslar bilan almashtirilishi kerak. Sport bayramlari va musobaqalarning bunday qurilishi bolalardagi stressni yengillashtiradi. Sport musoboqalari bola shaxsiyatini shakllanishiga samarali ta`sir ko‘rsatadi. Birgalikda faoliyat, jamoaning yaxshi natijalarga erishishi, qiyinchiliklarni yengish jamoani birlashtiradi, ma`suliyat hissini (individual va jamoaviy) keltirib chiqaradi. Bolalar o‘rtoqlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklariga hamdard bo‘lishni, ularning yutuqlaridan xursand bo‘lishni, yaxshilik, do‘stona munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Ular nafaqat individual, balki jamoaviy muvaffaqiyatga erishish istagini tarbiyalaydi. Shu bilan birga, o‘yindagi sheriklarga, raqib jamoaga hurmat rivojlanadi. Musobaqalardagi o‘yinlar va mashqlarning raqobatbardoshligi maqsadga muvofiqlik, qat`iyatlilik va topqirlik, mardlik, qat`iyat va boshqa axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Jismoniy tarbiya bayramlarida qatnashish bolalarning harakat harakatlarida tizimli mashqlarning ahamiyatini chuqurroq anglash, kerakli natijalarga erishishga yordam beradi, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishga qiziqish uyg‘otadi. O‘yinlar, musobaqalar, estafeta poygalari, bolalarning jamoaviy chiqishlari, ular qanchalik kuchli, kuchli va tezkor bo‘lganliklarini namoyish etadilar. Bolalarda quvnoq kayfiyatni yaratish, sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishda sport maydonchasi yoki xonani tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu ko‘p vaqt talab qilmaydi. Xulosa o‘rnida shuni ta`kidalb o‘tisj joizki, sport bo‘sh vaqtlari, agar iloji bo‘lsa, kutilmagan daqiqalar bilan tugaydi: sovg‘alar yoki nishonlar bilan taqdirlash mashg‘ulot va musobaqalarning asosini tashkil etadigan jarayon hisoblanadi. Bolalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab – quvvatlash uchu biz ular bilan o‘tgan bayram haqida suhbatlashishimiz, ularga eng yoqqan narsalarni chizishni taklif qilish, keying yurishlarda katta qiziqish uyg‘otgan o‘yinlar va diqqatga sazovor joylarni o‘ynash lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ф.С. Фазлиддинов ВИДЫ СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ НАГРУЗОК В ФУТБОЛЕ- Web of Scientist: International Scientific Research…, 2022

2. F.S. Fazliddinov PSYCHOLOGICAL TRAINING OF ATHLETES- EConference Globe, 2021

3. D.Z. Safarov, BX Xamroev, MM Mavlonov. Ispolzovanie pedagogicheskix texnologiy v protsesse obucheniya gimnastike - Voprosы nauki i obrazovaniya № 14 (139), 2021

4. Xamroyev B. X, Safarov D. Z. Belbog‘li kurashchining funksional qobiliyati oshirish yo‘llari. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\\\ Volume: 1, ISSUE: 6

MASHG‘ULOTDA TARBIYACHINING YETAKCHILIK ROLI, INNOVATSION YONDASHUVI VA EKSKURSIYALAR O‘TKAZISH MAZMUNI

O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri Davlatova Ra'no Haydarovna
NavDPI , Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi Ikromova Sh. U.

Annotatsiya: Ma’lumki, bola ta’lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin. Bu jarayonda tarbiyalanuvchini maktab ta’limiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababdam maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda tarbiyachining yetakchilik roli innovatsion yondoshuvi va ekskursiyalar tashkil etish ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: bola, ta’lim, tarbiya, shaxs, rivojlanish, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi ekskursiya.

Аннотация: Известно, что ребенок должен достичь того уровня развития, который может соответствовать требованиям образовательного учреждения, только тогда ребенка можно отдать в школу. В этом процессе большое значение имеет подготовка воспитанника к школьному обучению, поэтому в статье рассматривается значение инновационного подхода, руководящей роли воспитателя и организации экскурсий в подготовке дошкольников к школьному обучению.

Ключевые слова: ребенок, образование, воспитание, личность, развитие, дошкольное образование, познавательная экскурсия.

Abstract: It is known that a child must reach a level of development that can meet the requirements of an educational institution, only then can the child be sent to school. In this process, preparing the pupil for schooling is of great importance, therefore the article examines the importance of an innovative approach, the leadership role of the teacher and the organization of excursions in preparing preschoolers for schooling.

Key words: child, education, upbringing, personality, development, preschool education, educational excursion.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy shaxsi hisoblanadi. Butun g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni 140 tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq hisoblanadi. Bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ko‘proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi. Tarbiyachining o‘ziga xos xususiyati uning yuksak kasb mahoratidadir. Eng muhimi bolaning ruhiyatini, yosh va o‘ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishidadir. Bolalar bog‘chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bolishini oldindan ko‘ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi, Tarbiyachi har bir boladagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o‘ziga xos xususiyatlarni (zararli bolsa] yo‘qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo‘yadi. Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha ta’lim yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo‘ladi. Chunki, bu davrdagi har bir taassurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo‘lmaydi. Mashg‘ulotda tarbiyachi o‘z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch

ovoz bolaga yaxshiroq ta’sir etishini pedagog bilishi zarur, bolaga qattiqroq va qat’iy gapirish mumkin, ammo bunda so‘z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim. Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo‘lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e’tibor berishi lozim. Bolaning ko‘p vaqt harakatsiz o‘tirishi uning sog‘lig‘i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi. Bolaning ko‘p harakatlarni o‘tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto‘g‘ri o‘sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar - nonushtaga kech qolyapmiz», «O‘yinchoqni tezroq yig‘ishtiringlar, sayrga yoki mashg‘ulotga kech qolyapmiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas. Ta’lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin. Bolalarning mashg‘ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo‘llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo‘llay olishlari ularning yaxshi o‘zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta’limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir. Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo‘lsa, ular bilan xilma-xil mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin, bu mashg‘ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydalanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg‘ulotlar odatdagi mashg‘ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o‘zi belgilash, qurilishni o‘zi o‘ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg‘ulotlar dasturning ayrim bo‘limlari bo‘yicha ta’limning yakunlovchi bosqichlarida o‘tkaziladi. Bolalar olgan bilimlaridan o‘z o‘yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo‘llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o‘yinlarning mazmunida aks ettiriladi. Ta’limdagi innovatsion faoliyat o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Birinchi xususiyat, innovatsion jarayon sub'yektlari bolalar, ota-onalar va o‘qituvchilar. Agar bu e’tiborga olinmasa, unda pedagogik innovatsiya haqiqatan ham ta’limiy bo‘lgan hamma narsani, innovatsion faoliyatning butun gumanistik tarkibiy qismini tashlab yuboradi. Pedagogik innovatsiyalarning ikkinchi ajralib turadigan xususiyati iloji boricha ko‘proq pedagogik muammolarni muntazam ravishda yoritib berish zarurati hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar samaradorligini belgilovchi shart bu xususiy metodologiyaning muammolarini hal qilishda umumiy savollar beriladigan va mavjud didaktik tamoyillarni yangicha qayta ko‘rib chiqishni boshlaydigan o‘qituvchilarning tadqiqot faoliyatidir. Tarbiyachi ekskursiyani rejalashtirar ekan, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, ekskursiya o‘rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg‘itmaydigan) yo‘lni belgilaydi. Ekskursiya o‘rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo‘lning xususiyatlarini, ob havo holatini hisobga olish zarur. Ekskursiya uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo‘lmasin, u bir ikki kun oldin o‘sha joyni ko‘rib chiqishi lozim. Bo‘lajak ekskursiya joyida bo‘lgan tarbiyachi yo‘lni aniqlaydi, kerakli obyektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo‘lgan joyni belgilaydi. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin tarbiyachi uni o‘tkazish usullarini atroflicha o‘ylab ko‘radi va ekskursiya qiziqarli o‘tishi uchun oldindan she'r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi. Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash. Ekskursiyadan bir necha kun oldin bolalarda faoliyatga qiziqish uyg‘otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o‘tkazadi, ya'ni ekskursiya vazifalarini qo‘yadi, topshiriq va vazifalami taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulq atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek anjomlarni va jihozlarni tayyorlaydi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbati, kollektiv bo‘lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to‘plash, bolalarning dam olish vaqtida to‘plagan materiallar bilan o‘ynashi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarni ekskursiya o‘tkaziladigan joyga olib kelgandan so‘ng tarbiyachi qisqa suhbatda ekskursiyaning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so‘ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o‘tadilar. Ekskursiyaning asosiy qismi jamoaviy kuzatishdir. Bunda faoliyatlarning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli

xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she'rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o‘yin usullari) ni qo‘llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishlarni o‘z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan to‘ldiradi. Kuzatishda asosiy e’tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko‘rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi. Kuzatish jarayonida hikoya, she'r va topishmoqlarni qo‘llash foydalidir. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og‘zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish) ko‘rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi. Ekskursiyaning asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to‘plash uchun imkoniyat berish zarur. Biroq material to‘plash uchun topshiriq berishda, to‘plangan material miqdorini qat'iy cheklash lozim, bu bolalar e’tiborini faqat ma'lum o‘simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashqari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir. Bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtda, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba'zan o‘simlikni qanday kavlab olishni, quruq novdani qanday qirqishni va shu kabilarni ko‘rsatib turishi kerak. Dam olish vaqtida to‘plangan materiallar saralanadi, jildlarga, savatchalarga joylanadi, ba'zilaridan o‘yin va mashqlarda foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyasi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyalari xilma-xildir: dala (yer haydash, ekish, hosil to‘plash), o‘tloq (mol boqish, hashak o‘rish) bog‘, ekinzor, mevazor, ferma, botanika bog‘i, issiqxona, parrandachilik fermasi va shu kabilarga ekskursiyalardir. Ekskursiya insonning tabiatga ta'sirini, ya'ni o‘simliklarni o‘stirishni va hayvonlarni boqishni ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar. Ekskursiyalarning o‘ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta'sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin. Qishloq xo‘jalik obyektiga uyushtiriladigan ekskursiya suhbat bilan boshlanadi. Qishloq xo‘jalik 144 ekskursiyalariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish obyekti bilan oldin o‘zi tanishadi, ekskursiya o‘tkazish uchun ruxsat oladi, ekskursiya vaqti, bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi va bolalarning ma'lum ishda band bo‘lgan kattalar bilan bo‘ladigan suhbatining mazmunini belgilaydi. Ekskursiya yakunida mazkur obyekt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi. Ekskursiyadan keyingi ish. Ekskursiyada olingan bilimlar mashg‘ulotlarda, o‘yinlarda, tabiat burchagida o‘tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ekskursiya vakunida to‘plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o‘simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrariumga, joylashtirish), o‘simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur. Ekskursiyadan 2-3 kun o‘tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o‘yinlar, mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o‘qiladi, boialarning ekskursiyadan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg‘ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o‘tkaziladi. Ekskursiyalari ma'lum tizimga muvofiq o‘tkaziladi. Ularni tabiatda bo‘ladigan mavsumiy o‘zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o‘ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim sohasiga kelsak, innovatsiyalarni yangi mazmun, usul, o‘quv jarayonini tashkil etish shakli yoki ta’lim sohasidagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishga yangi yondashuv shaklida, ota-onalarning haqiqiy iltimoslari asosida, ya'ni yangi innovatsiyalarning yakuniy natijasi deb hisoblash mumkin. Maktabgacha ta’limning yangi shakllari bu: Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish tarbiyachilar tarkibiga, ularning innovatsion g‘oyadan xabardorligiga bog‘liq, chunki innovatsion rejim sharoitida tarbiyachining shaxsini o‘zi belgilashning faol jarayoni mavjud bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari o‘rtasidagi munosabatlar tabiatida o‘zgarishlar mavjud. Bu jarayon uzoq davom etadi. Bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni asta-sekin murakkablashtirgan holda istirohat bog‘iga 3 marta ekskursiya uyushtirish lozim. Bu ekskursiyadan maqsad-bolalarni bahorgi o‘zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko‘rish hamda tabiatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sababini tushunish ko‘nikmalarini o‘stirishdir.

Xulosa qilib aytganga tarbiyachi yetakchilik roli orqali bolani ham aqliy ham jismoniy rivojlantira olishi mumkin.Bunda inovatsion yondoshuv va ekskursiyalar o‘tkazish bolaning rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

10. Умаров Б. М., Назаров А. С. Низоли вазиятларда бошқарув қарорларини қабул қилишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик механизмлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 7. – С. 352-353.

11. Nazarov, A. S. (2020). Қарор қабул қилиш бошқарув фаолиятининг психологик мезони сифатида. Молодой ученый, (11), 280-282.

1. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son. -14 b.

2. M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi" T.., 2004 yil.

ILM-MA'RIFATNING INSONIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,
Tarix kafedrasi dotsenti v.b. M.X.Norqobilov

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy jamoatchilikning jamiyat taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qiladigan progressiv g'oyalarini bugungi ijtimoiy hayot masalariga tatbiq qilish natijasida insonlarda ilm-ma'rifatga nisbatan yangicha dunyoqarashni shakllanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ilmiy jamoatchilik, progressiv g'oya, intellektual salohiyat, Ulug'bek va uning ilmiy maktabi, ilmiy salohiyatini yuksaltirish.

Аннотация. В данной статье говорится о формировании нового взгляда на науку у людей в результате применения прогрессивных идей научного сообщества, служащих развитию и благосостоянию общества, к проблемам современной общественной жизни.

Ключевые слова. Научное сообщество, прогрессивная идея, интеллектуальный потенциал, Улугбек и его научная школа, повышение научного потенциала.

Abstract. This article talks about the formation of a new outlook on science in people as a result of the application of the progressive ideas of the scientific community that serve the development and welfare of the society to the problems of today's social life.

Key words. Scientific community, progressive idea, intellectual potential, Ulugbek and his scientific school, raising scientific potential.

Mamlakatimizda yangicha dunyoqarashga tayangan bugungi kunda ilm-ma'rifat sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, buyuk mutafakkirlarimiz ilmiy merosini o'rganish yosh avlod ongida madaniy merosga nisbatan hurmat ruhini yuksaltiradi.

Jahon ilmiy jamoatchiligi ilm-fan va islom dini tamadduniga munosib hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ma'naviy merosini muhim ijtimoiy voqelik sifatida e'tirof etadi. Jamiyat taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qiluvchi progressiv g'oyalarni o'zida jamlagan mutafakkirlar ilmiy merosi bashariyatning ijtimoiy qiyofasini shakllanishida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mutafakkirlar asarlaridagi ilmu-ma'rifat bilan zamonaviy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali taraqqiyotga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlar bugungi kunda ob'ektiv zaruriyat sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, jamiyatni isloh etishda yangicha, zamonaviy fikrlaydigan kishilarga ehtiyojning mavjudligini bevosita ilm-fan sohasini rivojlantirish orqali qondirish mumkinligi anglab yetildi. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish davrida amalga oshiriladigan islohotlarning samaradorligi fuqarolarning intellektual salohiyati va madaniyatini taqozo etadi. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, intellektual salohiyatni rivojlantirish borasida nazariy-metodologik asoslar yaratildi.

Ma'lumki, Turon zamini azal-azaldan fan va madaniyat markazi, milliy qadriyatlar va ma'naviyat sarchashmasi, ulug' allomalar, olimu fozillar makoni bo'lib kelgan. Fanlar tarixiga

nazar tashlasak, dunyoviy ilmlar, avvalambor, Sharqdan G‘arbga tarqalganligining guvohi bo‘lamiz. Musulmon olamida ilm-fan markaziga aylangan shaharlar qatorida Urganch, Buxoro, Samarqand kabilar borligidan biz behad faxrlanamiz. IX-XII asrlar Uyg‘onish davrida yurtimizdan shunday buyuk zotlar yetishib chiqganki, ular bashariyatning bugungi taraqqiyoti uchun ham xizmat qilmoqdalar.

Ingliz olimi J.Bernalning rus tiliga tarjima qilingan “Jamiyat tarixida fanning o‘rni” asarida islom dunyosida ilm-fanning rivoji haqida quyidagi fikrlar o‘z aksini topgan: “Evropaning ko‘pchilik qismi Rim imperiyasining halokatidan kelib chiqqan falokatga botib yotgan davrda, musulmon dunyosi ajoyib taraqqiyotni boshidan kechirayotgan edi... Musulmon olimlari, taraqqiy etuvchi, jonli til yaratdilar. Eron, Hindiston va Xitoy tajribalarini o‘zlashtirib, bu olimlar grek matematikasi, astronomiya va meditsina fanlarining tor asosini kengaytirishga muvaffaq bo‘ldilar, algebra va trigonometriya, optika asosini yaratdilar. Kimyo yoki al-kimyoda ham musulmon fani hal etuvchi g‘alabaga erishdi”[22]. Mana ming yildirki, butun dunyo maktablarida va universitetlarida talabalar algebra fanini o‘rganib kelmoqdalar. “Fan tarixiga nazar tashlasak, al-Xorazmiy kashf etgan algebra fani hozir 50dan ortiq shohobchalarga bo‘linib, differensiallashib ketganining guvohi bo‘lamiz. Bular Mantiq algebrasi, Abel, Direxle, Gause, Gilbert, Jordano, Bul, Leybnits, Malsev Fure algebralari va hokazolari[23]”, - deb ta’kidlagan edi taniqli olim Omonulla Fayzullayev.

Ingliz olimi Jon Bernal aytganidek, “Musulmon allomalari falsafa, ilm-fanning ko‘pgina sohalarida ajoyib ixtirolar, yangiliklar yaratib, eskicha tafakkur, nazariya va dunyoqarashni tubdan o‘zgartirdilar, yangi tajriba va an’analarni boshlab berdilar”[24].

Aytish mumkinki, dunyo xalqlari ijtimoiy-ma’rifiy va axloqiy qiyofasining shakllanishida o‘zlarining munosib hissini qo‘shgan Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ma’naviy merosi hamda salohiyati sababidan jahon ilmiy jamoatchiligi xalqimizga alohida ehtirom ko‘rsatishadi.

Samarqanddagi Ulug‘bek akademiyasida qadimgi yunon, o‘rta asr musulmon dunyosi, vatandosh olimlar ilmiy ishlarini o‘rganish, muhokama etish, sharhlash, tarjima qilish, yangi kadrlar tayyorlash muammolari, ilmiy munozaralarga juda katta e’tibor berilgan. Ulug‘bek fan insoniyatga xizmat qilmog‘i, jamiyat farovonligini oshirish vositasi bo‘lmog‘i lozimligini o‘z ilmiy faoliyatida isbotladi.

Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi risolalari G‘arbiy Yevropa va hamda Amerikada tarqalgan bo‘lib, ayniqsa Peterburg olimlari tomonidan bu risolalardan o‘zlarining ilmiy ishlarida foydalanganlar[25].

Tarixchi olim B.Ahmedov ta’kidlaganidek, Movarounnahrda “Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy atrofiga uyushgan olimlar, shoirlar va boshqa ahli hunar tomonidan yaratilgan o‘nlab kitoblar, osori atiqalar o‘rta asr fani va madaniyatini bir muncha siljitdikim, bundan fan va madaniyatimiz taraqqiyoti tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan ko‘z yumib o‘tib bo‘lmaydi”[26].

Davlatimizda ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste’dodli va fidoiy olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, milliy an’analardan yuqori intellektual muhit yaratish borasida juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat hayotida ilm-fanning rivojlanishi ta’lim tizimi bilan bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, dunyo ilm-fanida insoniyatning ma’rifat orqali aqliy kamolotga erishuvi barcha zamon va makonlarda jamiyat ma’naviy taraqqiyotini belgilovchi birlamchi mezonlar sifatida e’tirof etilgan. Ayniqsa, hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan masalalarga yechim topishda kishilardagi aqliy kamolot takomili muhim ahamiyat kasb etadi. SHu jihatdan olganda, jamiyat hayotidagi munozarali munosabatlar va ularning yechimi sifatida paydo bo‘lgan ratsional bilim taraqqiyoti o‘rtasidagi ziddiyatli masalalarda mutanosiblik (muvofiqlik) ko‘zga

[22] Бернал Ж. Наука в истории общества. М.1956. С.170

[23] Омонулла Файзуллаев. Ўзбекистон: Қадимги фанимиз ва ҳозирги замон //Мулоқот.2002. май-июнь. 4-бет.

[24] Қаранг: Н.Конрад Запад и восток. М., 1971 г.

[25] Қаранг: Б.А.Розенфельд. Влияние Самаркандской школы Улугбека на развитие математики и астрономии за пределами Средней Азии. Из истории науки эпохи Улугбека. Ташкент. Фан. 1979. С.142.

[26] Аҳмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. Тошкент. Фан, 1967. 7-бет

tashlanadi. Masalaga yechim topilgan holatlarda esa ratsional bilim o‘zining nisbiy dominantligi yaqqol namoyon qiladi. SHu sababdan, inson hayoti davomidagi murakkab masalalarga YAratuvchi tomonidan berilgan ne’mat – aqliy salohiyatni to‘g‘ri taqsimlash asosida yechim topishga harakat qiladi. Pirovardida, jamiyat rivojini ta’minlovchi ijtimoiy hodisa sifatida, «insonning aql-zakosi,... butun mohiyati bilan hayotni o‘zgartiruvchi vositaga aylanadi va tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab beradi»[27].

BOLALAR FOLKLORINI O‘QITISHDA KONSTRUKTVIZM

O‘zbekiston, Renessans ta’lim universiteti, Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi, ***PhD.Musayeva Shaxlo Qudratovna***

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotning bosh bug‘ini hisoblangan bolalar folklorining o‘qitilishida zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan faoydalanishga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Bolalar adabiyoti, folklar, konstruktivizm, texnalogiya, pedagogik texnalogiyalar, ta’lim, tarbiya.

Аннотация: Данная статья посвящена использованию современных педагогических технологий в преподавании детского фольклора, который считается основой литературы.

Ключевые слова: Детская литература, фольклор, конструктивизм, технология, педагогические технологии, воспитание, обучение.

Abstract: This article focuses on the use of modern pedagogical technologies in the teaching of children's folklore, which is considered the mainstay of literature.

Key words: Children's literature, folklore, constructivism, technology, pedagogical technology, education, training.

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo‘nalishlariga jadal sur’atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo‘jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta’lim sohasida ham ulkan islohatlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ta’lim muassasalarida bilim oluvchilarni mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llash zaruratini yuzaga keltirdi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: “*Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir*!”[1], – deb ta’kidladilar.

Ma’lumki, Bolalar adabiyoti so‘z san’ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy,yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur.Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.Bolalar adabiyoti yoshlar imon-e’tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir[2] .Bolalar adabiyotining, umuman adabiyotning boshlang‘ich bug‘uni hisoblangan bolalar folklori ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish

[27] Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. -Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 235.

ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda bolalar folkloriga o‘quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi.

Binobarin, bolalar folklori - kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o‘zaro uyg‘unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og‘zaki ijodiyotining o‘ziga xos tarmog‘idir. Shunga qaramay, o‘zbek bolalar folklori namunalarini to‘plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o‘rganishga uzoq zamonlar e`tibor berilmay kelindi. XX asrning dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan esa-da, u uzluksiz jarayonga aylanmadi. Shu boisdan hali hamon bolalar folklori o‘zining yechimini kutayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bolalar folklorining shunday janrlari borki bolaning tabiyasiga,jismoniy rivojlanishiga balki uning nutqini ham tuzatishga yordam beradi.Bolalar bog‘chada,uyda, ko‘chada o‘rtoqlari bilan ko‘plab o‘yinlar o‘ynaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati o‘yindir. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan. O‘yin bolalar uchun haqiqiy hayotdir.

Bugungi kunda har qanday fan sohasi o‘zgaruvchanlik printsipiga muvofiq, o‘z modelini tanlash huquqiga ega ta’lim va pedagogik jarayonni tegishli g‘oyalar asosida loyihalashtirish va texnologiyalar ... Pedagogik jarayonning barcha subyektlari faoliyatining asosi namunadir "Men o‘zim o‘qiyman, ular menga dars bermaydilar", shunday zamonaviy o‘qituvchi butun pedagogik arsenaliga ega bo‘lishi kerak texnologiyalar, bolaning bilim faoliyatini rag‘batlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi tarkibdagi o‘zgarishlarga moslashuvchan javob berishga tayyor bo‘lishi kerak. Ta’lim, bolalarning paydo bo‘lgan va doimo o‘zgarib turadigan bilim qiziqishlarini hisobga olgan holda uni moslashtiring. Yangisini o‘zlashtirish - bolaning shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishining kaliti.

Bolalar folklorini o‘qitishda ana shunday zamonaviy pedagogiktexnalogiyalardan biri “konstruktivizm”dan foydalanish ta’limning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Konstruktivizm (lotin tilidan. qurilish — qurilish, qurilish bilan bog‘liq). Konstruktivizm (san’at) — san'atning yo‘nalishi. Konstruktivizm (matematika) — konstruktiv konstruktsiyalarni o‘rganadigan mavhum fan.

Ijtimoiy konstruktivizm - ijtimoiy va psixologik nazariya, inson faoliyatida ijtimoiy-psixologik dizayn jarayonlarini o‘rganadi.Iqtisodiy konstruktivizm-inson faoliyatida iqtisodiy haqiqatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarini o‘rganadigan iqtisodiy nazariya.

Konstruktivizm (falsafa) - epistemologik yondashuvlar, unda bilimni aks ettirish emas, balki mavzu tomonidan dunyoning talqinini (modelini) faol ravishda qurish sifatida qabul qilinadi. Konstruktivizm (etnik) — etnologiya, etnografiya, Madaniyatshunoslik, ijtimoiy va madaniy antropologiya, siyosiy fanlar va tarixdagi nazariya va yondashuv. Chet el san'atiga nisbatan "konstruktivizm" atamasi asosan shartli: arxitekturada u zamonaviy konstruktsiyalarning ifodasini, rasm va haykalni — avangardizm yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u erta konstruktivizmni (haykaltaroshlar N. Gabo, A. Pevzner) rasmiy ravishda qidirishdan foydalangan holda ta'kidlashni istagan funktsionalizm ichida mavjudlikni anglatadi. Shunday qilib konstruktivizim qanday sohada bo‘lsa ham shu sohaning tuzilishi, bunyod bo‘lishi ma’nolarini anglatadi.

Bolalar folklorini o‘qitishda konstruktvizm bolalar folklorining janrlaridan boshlashimiz maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari:



Biz jadvalda faqatgina folklorning xususiyatlarining tuzilishini jadval asosida taqdim qilib, Xalq og‘zaki poetik ijodi-folklorning o‘rganilishi uchun ilk namunalarni taqdim qilindi. Keyingi o‘rinlarda konstruktvizmdan foydalangan holda folklorshunoslikning janrlarini, turlarini xuddi shunday tuzib chiqilsa bolalar uchun o‘qib o‘rganishda ba’zi mulohazali o‘rinlar yechim topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017, 14-b.

2.MAMASOLI JUMABOYEV.Bolalar adabiyoti(Pedagogik yo‘nalishdagi kollejlar uchun qo‘llanma) “O‘qituvchi” nashriyot-Matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2004,3-,bet

3. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., “Fan”, 2004.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TURLI FAOLIYATLARIDA TA’LIM PRINSIPLARIDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston, Farg‘ona davlat universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi PhD M.Q. Jabborova

Annotatsiya: Ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlari va qadriyatlarini belgilaydigan ko‘plab ta’lim tamoyillari mavjud bo‘lib, bu tamoyillar ta’lim amaliyotini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi va shaxsning yuqori sifatli va har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: tamoyil, ijtimoiy, iqtisodiy, evolyutsiya, ijtimoiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, uzluksiz rivojlanish.

Аннотация: Существует множество образовательных принципов, определяющих основные направления и ценности образовательного процесса, и эти принципы играют важную роль в формировании образовательной практики и являются основой обеспечения качественного и всестороннего развития личности.

Ключевые слова: принцип, социальный, экономический, эволюция, социальное развитие, когнитивное развитие, непрерывное развитие.

Abstract: There are many educational principles that determine the main directions and values of the educational process, and these principles play an important role in the formation of educational practice and are the basis for ensuring high-quality and comprehensive development of the individual.

Key words: principle, social, economic, evolution, social development, cognitive development, continuous development.

Talim tamoyillarini maktabgacha ta’limida qo‘llash har bir tarbiyalanuvchining talab va qobiliyatini hisobga olgan holda individual rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Masalan, tabaqalashtirilgan ta’lim tamoyili tarbiyachilarga ta’lim jarayonini tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga, ularning bilim darajasi, moyillik va qiziqishlarini hisobga olgan holda moslashtirish imkonini beradi. Shuningdek, maktabgacha ta’limning barcha tarbiyalanuvchilari, shu jumladan alohida ehtiyojli bolalar uchun ochiqligi tamoyili va ta’limning uzluksizligi, butun umr davomida uzluksiz rivojlanish va o‘rganishni ta'minlash muhim tamoyillardir.

Ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlari va qadriyatlarini belgilaydigan ko‘plab ta’lim tamoyillari mavjud. Ta’limning ba'zi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Hamma uchun ta’lim olish imkoniyati: ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mavqeidan qat'iy nazar, ta’lim olish imkoniyatini ta'minlash.
2. Shaxsning yaxlit rivojlanishi: ta’lim jarayonini shaxsning barcha jabhalarini, jumladan, jismoniy, intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishga yordam beradigan tarzda tashkil etish.
3. Tizimli ta’lim: bolalarga bilimning barcha sohalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beruvchi izchil va yaxlit ta’lim tizimi.
4. O‘qitishni differentsiallashtirish: har bir bolani individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish, o‘qitishni ularning bilim va qobiliyat darajasiga moslashtirish.
5. Ta’limning kontekstliligi: o‘quv materiali va real hayotiy vaziyatlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, uning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini ta'minlash.
6. Ta’limning uzluksizligi: bolalikdan qarilikgacha butun umr davomida o‘rganish va rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash.

Bu tamoyillar ta’lim amaliyotini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi va shaxsning yuqori sifatli va har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

Maktabgacha ta’limda bolalarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadigan bir qator ta’lim tamoyillaridan unumli foydalanish muhimdir. Ulardan ba'zilari individuallik tamoyilini o‘z ichiga oladi, bu har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish va uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning rivojlanishi uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi; o‘yin o‘rganish printsipi, chunki o‘yin maktabgacha yoshdagi asosiy faoliyat bo‘lib, bolalarga tajriba va tajribalar orqali o‘rganishga yordam beradi; uzluksiz ta’lim faoliyati printsipi, bu bola shaxsining barcha tomonlarini, shu jumladan jismoniy, aqliy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Rasmiy baholarning yo‘qligi va ijobiy o‘zini-o‘zi imidjini targ‘ib qilish ham erta bolalik davridagi ta’limning muhim tamoyillari hisoblanadi. Bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bir nechta jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Avvalo, bolaning turli sohalarda rivojlanish darajasini hisobga olish muhim: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bu tarbiyachiga o‘quv jarayonini o‘z ehtiyojlariga va imkoniyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Har bir tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolaning individual moyilligi va manfaatlarini hisobga olgan holda, uning noyob qobiliyatlarini rag‘batlantirishi va ularni rivojlantirishi kerak. Bunda bolaning ta’lim olish uslubiga e’tibor berish muhimdir: ba'zi bolalar vizual idrok etish orqali, boshqalari eshitish yoki kinestetik idrok orqali yaxshiroq o‘rganadilar.

Shuningdek, bolaning individual ehtiyojlarini, shu jumladan uning sog‘lig‘i, psixomotor rivojlanishining xususiyatlarini, uning oilasining madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish

bir xil darajada muhimdir. Ushbu xilma-xil omillarni hisobga olgan holda, tarbiyachilar har bir bolaning ijtimoiy moslashuvini, har tomonlama to‘liq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi uchun ta’lim tamoyillaridan to‘g‘ri foydalanishi maqsadga muvofiqdir

Ijtimoiy rivojlanish bolani boshqalar bilan turli munosabatda bo‘lishini, ijtimoiy norma va qoidalarni tushunishini, empatiyani rivojlantirishni va munosabatlarni o‘rnatish jarayonini tavsiflaydi. U muloqot qilish, hamkorlik qilish, nizolarni hal qilish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish va madaniy farqlarni hurmat qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatga kirishish, ta’sir qilish orqali sodir bo‘ladi va bolaning oila, tengdoshlari, ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni va umuman jamiyat bilan muloqot qilishda olgan tajribasiga bog‘liq.

Bolaning kognitiv rivojlanishi uning kognitiv faoliyatining evolyutsiyasini tavsiflaydi, ya’ni idrok etish, fikrlash, eslash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va egallagan bilimlaridan foydalanish qobiliyatidir. Bu jarayon bolaning aqli, xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri, tasavvuri, mantiqiy fikrlashi va boshqa kognitiv funktsiyalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kognitiv rivojlanish bolaning tevarak-atrofdagi ma'lumotlar bilan o‘zaro munosabati, tajribasi, o‘rganish darajasi, intellektual vazifalar va o‘yinlarda faol ishtirok etishida namoyon bo‘ladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishida ta’lim tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Ta’lim prinsiplarini faoliyatlarda to‘g‘ri qo‘llash va foydalanish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limning samaradorligini oshirishga, bolalarni intellectual rivojlanishiga, maktab ta’limiga tayyorlanishida asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. Bo‘tayeva U, K. Oqilova Maktabgacha yoshdagi bolalarni shakllantirishda o‘yin-mashg‘ulotlarning o‘rni // metodik tavsiyanoma Samarqand 2009 yil.
3. M.Q Jabborova Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning rol Scientific progress volume 3 | issue 4 | 2022 issn: 2181-160
4. M.Q.Jabborova Sharq mutafakkirlarining ilmiy me’rosida barkamol shaxs ta’lim- tarbiyasi Science a«science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali. 19.11.2022nd innovation volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
5. Jabborova, M. (2022). Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning roli. Scientific progress, 3(4), 167-173.
6. Jabborova M. Q (2022). Tarbiyachi kasbining ma’naviy axloqiy negizlari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 64-70.
7. Элен Халперин "Границы возможного: Как дети учатся исследовать мир" (The Power of Limits: Proportional Harmonies in Nature, Art, and Architecture).
8. Ж. Пиаже "Интеллектуальное развитие ребенка" (The Intellectual Development of the Child).

MAKTABGACHA TA’LIMDA TA’LIM-TARBIYA ISHLARIGA INNOVATSION YONDOSHUV

O‘zbekiston,NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Ermatova Gulnoz Pirimovna
NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Mahmudova Sharofat Xusniddin qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimlarida ta’lim-tarbiya jarayonlariga innovatsion yondoshuv haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, ta’lim, tarbiya, zamonaviy ta’lim, metodlar, muaammo, yechim, moddiy-texnik ta’minot.

Аннотация: в данной статье представлена информация об инновационном подходе к образовательным процессам в системах дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитанник, воспитатель, воспитание, воспитание, современное образование, методы, проблема, решение, материально-техническое обеспечение.

Abstract: this article provides information about an innovative approach to educational processes in preschool education systems.

Key words: preschool education, pupil, teacher, education, upbringing, modern education, methods, problem, solution, logistics.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o‘tkazilmoqda, ularning barchasi kelajak avlod bo‘lgan bolalar va tarbiyachi-pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy tus berish ya`ni zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish jarayonida, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash avvalida uning ish rejasini tuzib olish asosiy vazifa sanaladi. Bu ish rejada:

- zamonaviy ta’lim metodlarining tashkil etishning muaammo va yechimlari;
-moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;
-faoliyatni takomillashtirish;
-ta’lim-tarbiya sifatini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
-tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompitentligi hamda bu jarayonlarni boshqarish, boshqaruvchining salohiyati, tadbirkorlik madaniyati va kasbiy kompitentligi aks etishi zarur.

Chunki zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi-pedagoglar ham zamonaviy bilimlar bilan qurollangan bo‘lishlari, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy eta olishlari muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun ehg avvalo pedagogik jarayonni loyihalashtirishtirib olish zarur.Xo‘sh, loyiha o‘zi nima? Buni ta’lim jarayoni bilan nima bog‘liqligi bor? Uni qanday amalga oshirish mumkin? Bu fikrlarimizdan ma`lumki, biz loyihaga ta`rif beramiz.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakatlar yig‘indisi. Loyiha dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g‘oya tashkil etadi.Tarbiyachi pedagogik jarayonni loyiha qilib oilishda avval loyihalashdan boshlab amalga oshiradi.

Loyihalash – boshlang‘ich ma`lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat. Loyihalash “g‘oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash jarayonida pedagog turli texnik vositalardan: kompyuter, vatmon, oddiy ish qog‘ozlari, chizg‘ich, qalam, marker, printer va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Tarbiyachi loyihani yaratish uchun pedagogik jarayonni bosqichma-bosqich yoritadi:

- maqsadni aniq belgilaydi;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlab oladi;
- o‘quv materiali mazmunini shakllantiradi;
- mashg‘ulot uchun savol va topshiriqlarni ishlab chiqadi va yakunlash jarayonini ishlab chiqadi.

Bu loyihani ishlab chiqish uchun tarbiyachi pedagogik mahorat va kasbiy kompitenetlikka, konikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Ta’lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi sxemasini ishlab chiqish hisoblanadi. Tarbiyachi o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishni quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Mashg‘ulotning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta’lim resurslarini tanlash.
4. O‘qitish va o‘qish strategiyasini belgilash.
5. Mashg‘ulot turini tanlash.
6. Mashg‘ulotning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Mashg‘ulot maqsadi va natijasini belgilash – o‘qitish va o‘qish jarayonlarining eng muhim omili bo‘lib, ta’lim jarayonida aynan ular yetakchi o‘rin tutadi. Mashg‘ulotning maqsad va natijasi Davlat talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, mashg‘ulotning maqsadi tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchiga qanday bilim, ko‘nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki tarbiyalanuvchilar tomonidan mashg‘ulotda qanday bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur.

Mashg‘ulot ishlanmasi – bu ta’limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, tarbiyachi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda tarbiyachi mashg‘ulot jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, mashg‘ulot mazmuni boyitish, ta’lim samaradorligini oshirish maqsadini ko‘zlaydi. Mashg‘ulot loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki mashg‘ulot “jonli” tashkil etilishi zarur. Mashg‘ulotning bu xususiyatiga ko‘ra uni hech qanday qolipga solib bo‘lmaydi. U mashg‘ulot turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

Endi mashg‘ulotdan namuna keltiramiz:

Mavzu: «Tulki bolalari bilan» sur’ati bo’yicha hikoya tuzish

Vazifalar:

- Mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish.
- Jumlani grammatik tahlil qilish.
- Fe’llarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qilish va o‘rinli qo‘llash malakasini mustahkamlash.

Kutilayotgan natijalar:

- Tarbiyalanuvchilarda ko‘rsatilgan rasm asosida hikoya tuzish malakasi shakillanadi.
- Jumlalarni mazmunli bog‘lash va so‘zlarni o‘rinli qo‘llay olish xususiyati shakillanadi.
- Guruh va jamoada o‘zini erkin tutish va so‘zlash qobiliyatini o‘stiradi.

Kerakli jihozlar:

«Tulki bolalari bilan» surati, Qahramonlar uchun maxsus kostyumlar.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan metod: “Aqliy hujum”, “Rolli o‘yin” metodlari.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarga suratni ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot bolalar uchun qiziqarli va yangi ma’lumotlarga boy bo‘lishi uchun bilishni “xoxlagan”lari haqida so‘raladi va mashg‘ulotning davomi shunga asosan tashkillashtiriladi.

“Esse”metodi

Tarbiyachi bolalarga ushbu metod haqida ma’lumot beradi va qoidaga asosan qisqa hikoya tuzishga kirishiladi.Hikoyani tarbiyachining o’zi boshlab beradi va rasm asosida tarbiyalanuvchilar davom ettiriladi. Masalan:

Bir bor ekan bir yo’q ekan qadim o’tgan zamonda, qalin bir o’rmonda tulki va bolalari yashar ekan ....

Hikoyaning o’xiri bo’lishi va u albatta yaxshilik bilan tugashi kerak.Tarbiyachi xulosa yasaydi.

Mashg‘ulotning nazariy qismidan so‘ng bolalarni harakatli o‘yinlarga jalb etish maqsadga muvofiq.Masalan “Rolli o‘yin” metodi

Mavzu yuzasidan uchraydigan hayotiy vaziyatlarning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Biz o‘zimiz yaratgan hikoya asosida rolli o‘yin yaratamiz.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar bolalarni ijodiy fikrlashga, yaxlit idrok qilishga, va qobiliyatlari rivojlantirishga hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.
4. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.
5. 5.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste‘dod, 2008.
6. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste‘dod, 2010.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA BOLANI TURLI HAYOTIY VAZIFALARNI HAL QILISHGA O‘RGATISH

O‘zbekiston, NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD. Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
O‘zbekiston, NIU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi Odilova Sitora

Annotatsiya: Mazkur maqolada hayotiy vaziyat - bu bolaning hayotini ob'ektiv ravishda buzadigan vaziyat ekanligi, nogironlik, qarilik, kasallik, yetimlik, qarovsizlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik, doimiy yashash joyining yo‘qligi, nizolar va zo‘ravonlik hamda oilada yolg‘izlik va hokazolar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: hayotiy vaziyatlar, nogiron, kasallik, yetimlik, qarovsizlik, ishontirish, muloqot, xulq-atvor, hissiyot, emotsiya, optimistik munosabat.

Аннотация: В данной статье жизненная ситуация – это ситуация, объективно нарушающая жизнь ребенка, инвалидность, старость, болезнь, сиротство, безнадзорность, бедность, безработица, отсутствие постоянного места жительства, конфликты и насилие, одиночество в обсуждаются семья, слежение и т. д.

Ключевые слова: жизненные ситуации, инвалидность, болезнь, сиротство, безнадзорность, уговоры, общение, поведение, чувство, эмоция, оптимистический настрой.

Abstract: In this article, life situation is a situation that objectively disrupts the life of a child, disability, old age, illness, orphanhood, neglect, poverty, unemployment, lack of a permanent place of residence, conflict and violence, and loneliness in the family. 'tracking‘ etc. are discussed.

Key words: life situations, disability, illness, orphanhood, neglect, persuasion, communication, behavior, feeling, emotion, optimistic attitude.

Hayotiy vaziyat - bu bolaning hayotini ob’ektiv ravishda buzadigan vaziyat (nogironlik, qarilik, kasallik, yetimlik, qarovsizlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik, doimiy yashash joyining yo‘qligi, nizolar va zo‘ravonlik) oilada, yolg‘izlik va hokazo) o‘z-o‘zidan yengib o‘tolmaydi. Ota-onalarning zamonaviy usullari erta yoshdan boshlab bolaning potentsial qobiliyatlarini maksimal darajada ochishga qaratilgan. Ilmiy va texnologik taraqqiyot atrofimizdagi dunyoni aqlbovar qilmas tezlik bilan o‘zgartirmoqda va bolalarni ular atrofdagi voqelikni etarli darajada idrok etadigan va ulkan axborot yukini osonlikcha o‘zlashtiradigan qilib tarbiyalash kerak. Shu sababli, bolalarni tarbiyalashning eskirgan usullaridan voz kechish kerak, chunki ular bolalarga xos bo‘lgan barcha imkoniyatlarni ochib berishga imkon bermaydi.Yaqin o‘tmishda fenomenal deb hisoblangan bolaning qobiliyatlari hozirgi voqelikdagi mutloq me'yordir. Hatto 10 yil oldin, uch yoshli bolaning televizorni tugmachasi bilan yoqish qobiliyati ota-onalar uchun chaqaloqning erta rivojlanishi bilan faxrlanish uchun sabab bo‘lgan va endi 2-3 yoshli bolalar noutbuk va planshetlarni o‘rganishganda juda kam uchraydi.

Erta bolalikda insonning asosiy qobiliyatlari shakllanadi, shuning uchun chaqaloq bilan deyarli tug‘ilishdan boshlab unga doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish kerak. Ota-onalarning asosiy vazifasi bolani to‘g‘ri tarbiyalashdir, buning uchun bolalarni tarbiyalash uchun to‘g‘ri uslubni tanlash kerak. Ushbu tanlov bolaning qanday ulg‘ayishiga, uning fe’l-atvoriga, boshqalarga bo‘lgan munosabatiga, jamiyatda moslashish qobiliyatiga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

Bolani tarbiyalashning ko‘p usullariga asoslangan ota-ona va bola munosabatlarining asosiy printsiplarini ko‘rib chiqing:

- Ishontirish yoki muloqot - xotirjam xayrixoh ohangda, bolaga vaziyat tushuntiriladi va uni qanday hal qilish kerak, bu vazifa yoki muammo bo‘yicha birgalikda ishlashni anglatadi;
- Ijobiy qo‘llab-quvvatlash - rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, maqtashdan iborat bo‘lgan bolaning harakatlaridan yoki harakatlaridan keyin ota-onalarning javoblari ketma-ketligi. Ota-onalarning bunday reaksiyasidan kelib chiqadigan ijobiy his-tuyg‘ular bola quvnoqligida, hayotga ijobiy munosabatda bo‘ladi;
- Salbiy mustahkamlash - bolaning yomon xatti-harakati yoki xatti-harakati natijasida jazolash yoki taqiqlash. Bu istisno holatlarda, chaqaloqqa nima uchun jazolanganligini tushuntirganidan va uni jazolashda ota-onalar ham juda xafa bo‘lganligini ko‘rsatgandan keyin foydalanish kerak. Tez-tez jazolanish chaqaloqning tajovuzkorligini va itoatsizlikka moyilligini keltirib chiqarishi mumkin;
- "Sabzi va tayoq" - o‘zaro bog‘liqlik printsipi nomidan aniq. Bola xayrli ish uchun rag‘batlantiriladi va yomon ishi uchun jazolanadi. Qoidaga qat'iy rioya qilish juda muhim, rag‘batlantirishni unutmaslik kerak, ammo bu holda qonunbuzarlik uchun jazo so‘zsiz bo‘lishi kerak;
Annotation: this article covers information about the organization of children's education, an important feature of upbringing,education.

Keywords: education, comprehensive education, modern education, affections,upbringing, thinking process, worldview, quality education,child education.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlanishi kishiga benihoya mamnuniyat baxsh etadi. Chunki bu g‘oya zamirida kelajagiga munosib poydevor yaratmoqchi bo‘lgan millatning yosh avlod kamoliga qay darajada e’tibor berishi yotadi. O‘z navbatida “sifatli ta’lim” tushunchasi ota-ona va murabbiy-ustozlar oldiga katta vazifa qo‘yadiki, ularning ichida eng mas’uliyatlisi, fidoyilik ila astoydil yondashishni taqozo etadigani yoshlar tarbiyasidir.

Farzand tarbiyasida esa har doim ilmga suyaniladi. Tarbiyachilar yuksak darajada bilimdon va axloqan namuna bo‘lmas ekanlar, ohanrobodek avlodlarni o‘z domiga tortib, buyuk madaniyatlar, tamaddunlarni evrilish nuqtasiga olib chiqayotgan ma’naviy tahdidlar millatni batamom yo‘q qilib yuborishi mumkin. Shuning uchun,ham buyuk mutafakkir,jadidchilik yetakchilaridan biri Abdulla Avloniy tarbiyaga juda go‘zal ta’rif berganlar: „**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”** .Bu so‘zlar qanchalar tarbiya har qanday vaziyatda,har qanday zamonda muhim ahamiyat kasb etishini

anglatadi.Bundan tashqari, tarbiyani erta yoshdan yoki bola aqlini olganda berilishi emas,ona qornidan boshlab amalga oshirilishi kerakligi donishmandlar tomonidan ta'kidlangan.Bolalar tarbiyasiga nafaqat ota-ona,balki tarbiyachi-pedagoglar,bundan tashqari,yetti mahalla ma'sul.Tarixdan olib qaraydigan bo‘lsak ham,yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi davlat masalasidek zaruriy darajaga ko‘tarilgan. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiydek ilm-u-donish ajdodlarimiz farzand tarbiyasi namunali bo‘lishi uchun ota-ona va bola atrofidagi insonlarning munosabatlari,hatti-harakatlarini nazorat ostiga olishgan.Tarbiyani davrlarga b'lib,o‘z asarlarida turli xil yo‘nalishlarda ko‘rsatib berishgan.

Buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliy bunday deydi: **“Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”**.Tarbiyani unib-o‘sayotgan niholga o‘xshatadigan bo‘lsak,unga e'tibor,mehr va parvarish zarur.Uni o‘z holiga tashlab qo‘yadigan bo‘lsak,u xarob bo‘ladi,yoki so‘lib boradi. Bir bolaga butun mahalla,jamiyat, davlat ma'suldir.Zero,bola o‘z tarbiyasi bilan oilasining,ota-onasining,jamiyatning yuzi bo‘ladi.Ammo,hozirgi kunda tarbiyaga berilayotgan e'ibor achinarli ahvolda. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Ammo bugun kishilarimizga ana shu haqiqatni aytsangiz sizga: **“Nima qilay, ishlamasang bo‘lmasa!”, “Ko‘ryapsiz-ku, osonmas, hayot tashvishlari, bolalarning yeb-ichishi-yu, kiyim kechagi ...”, “Ha endi o‘zi omon bo‘lsa, tarbiyasi bir gap bo‘lar...”**.Yo‘q, tarbiya **“bir gap bo‘ladigan”** narsa emas! Uning uchun jon kuydirish shart. Mol-dunyo, kiyim-kechakka hirs qo‘yish dardidan forig‘ bo‘lib, tarbiya bilan shug‘ullanish kerak.Go‘yo ko‘pchilikning farzand tarbiyasi bilan band bo‘lishga ortiqcha vaqti yo‘q emish. Vaholanki, tarbiya masalalari bilan ortiqcha vaqtda emas, har daqiqada shug‘ullanish darkor. Olimlar bir sutkada farzand tarbiyasi uchun faqatgina o‘n ikki daqiqagina vaqt ajratadigan ota-onalar bor ekanini aniqlaganlar. Bu daqiqalar ham asosan dasturxon atrofida o‘tirganda, bola ko‘chaga chiqayotganda, maktabga ketayotgandan beriladigan kichik tanbehlarga sarf bo‘lar ekan, xolos.

Zero, bugun ilm-fan va ta'lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta'limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta'lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta'lim berishdan maqsadi kelajagi porloq, vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash bo‘lsagina, bunday ta'lim-tarbiya o‘z samarasini bermay qolmaydi. Ya'ni, bugungi kunning o‘qituvchi va muallimi o‘zi ta'lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta'lim berishi, qolaversa, jonkuyar tarbiyachi bo‘lishi shart. Ayni damda tarbiya sohasida o‘qituvchi va muallimlar o‘quvchi yoshlarga shaxsan na'muna bo‘lishlari ham muhimdir.

“Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”. Bu mantiqli fikrlar orqali birinchi prezidentimiz tarbiya ta'limning ajralmas qismi ekanligi,ta'limni go‘zal tarbiyadan boshlash zarurligi haqida qayta-qayta ta'kid etganlar va bu tamoyil hozirgi kunda dasturiamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan, ta'lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borish talab etiladi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog‘liqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Albatta, ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, farzandlarimizni ilm-fan va ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o‘z o‘rnida tarbiya esa ma’naviyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasida esa ma’naviy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Eng muhimi, farzandlarimizni sog‘lom, komil inson qilib tarbiyalaylikki, ular o‘z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o‘z milliy qadriyatlarimizga, muqaddas dinimiz an’analariga sodiq bo‘lishsin.

Foydalingan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. “2022-2026 yillarga mo‘lgallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
5. Komensiya Yang Amos: O‘qituvchi o‘qituvchi ("Onalik maktabi", "Ajoyib didaktiklar" va boshqalar. Redf bilan.). M: Karapuz, 2008, 288 p.
6. Umumiy Pedagogika: X.Ibragimov,M.Qurbonov T.,”Sahhof”, 2023,134-bet.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI MUSIQA MASHG‘ULOTLARIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
“Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Majitov Shuxrat Murtazoyevich

Annotatsiya: Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri–ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Аннотация: Одним из важнейших условий развития музыкально-исполнительских способностей детей является формирование их музыкальных способностей.

Annotation: One of the most important conditions in the development of children's musical performance skills is the formation of their musical abilities.

Kalit so‘zlar: subyektiv**,** atributlar**,** component, emosional, sensor, atributlar.

Ключевые слова: субъективный, атрибуты, компонент, эмоциональный, сенсорный, атрибуты.

Key words: subjective, attributes, component, emotional, sensory, attributes.

Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning shart – sharoitlari

Musiqa mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rejalashtirish,loyihalashtirish va rivojlantirishda musiqa mashg‘ulotlarini olib borishda quyidagi faoliyat turlariga e’tibor beriladi.

Qobiliyat – ma’lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subyektiv sharti bo‘lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi.

Psixologiyaning ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron – bir qobiliyatning ro‘yobga chiqish va rivojlanish manbayi layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat o‘z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Bola musiqaga layoqat bilan tug‘ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo‘lgan layoqati rivojlanmay qoladi.Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda, kishiga ta’sir etadigan tashqi voqealar yig‘indisi tushuniladi. Muhit o‘z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo‘linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Odob, axloq, fe’l–atvor – shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta‘siri asosida vujudga keladi. Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri– ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki, musiqiy qobiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emotsional ta’sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi.

Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi» – deb ta‘kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o‘ziga xos ravishda amalga oshirish imkoni qobiliyatidir.

Zero,musiqa yosh avlodning ma’naviy,badiiy–axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o‘sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.Respublikamizdagi har bir maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda hozirgi kunda musiqiy estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda.Qobiliyat – ko‘nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o‘zlashtirish dinamikasidir. Qobiliyatlar – faoliyat davomida namoyon bo‘ladigan imkoniyatdir.Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san’atiga xos bo‘lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin. Faqat musiqagina insonning musiqiy hislarini uyg‘otadi. Musiqiy ta‘lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo‘lmaydi. Chunki ular musiqiy bilimlarni o‘zlashtirmaganlar.

Nazariya va amaliyotga asoslangan holda shuni aytish joizki, musiqiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.Bu qobiliyatlarni rivojlantirish ijtimoiy muhit, tabiatdan berilgan istedod, iqtidor, shaxsning iroda kuchi, faolligi, jismoniy va aqliy jarayonlarga ham bog‘liqdir.Demak,bolalarda musiqiy qobiliyatlar erta namoyon bo‘lishi, shuningdek ularning qobiliyatlari ta‘lim – tarbiya va atrof – muhit ta‘siri ostida shakllanishini hisobga olgan holda biz quyidagi xulosaga keldik. Uzluksiz ta‘lim tizimidagi musiqa mashg‘ulotlarida ijrochilik malakalarini rivojlantirishda musiqiy qobiliyatlar muhim omil bo‘lib xizmat qilar ekan.

Har bir musiqa rahbari har bir musiqa mashg‘ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko‘rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur.Mashg‘ulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- mashg‘ulot bayoni, yangi qo‘shiq, raqs harakatlari, foydalaniladigan cholg‘u asboblari uchun tayyorlangan ko‘rgazmalar;
- qismlarni bir-biriga uzviy bog‘lay olish;
- bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda sodda va past ohangda muloqatda bo‘lish;
- texnika vositalaridan foydalana olish;
- topishmoqlar va boshqotirmalar yordamida bolalar bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borish;
- musiqaviy harakatli o‘yinlarni atributlar va o‘yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.
- musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompozitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;
- ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko‘rgazmali qurollardan, tarqatma rasmlardan foydalanish;
- qo‘shiq aytishda rasmlarga qarab qo‘shiq nomini topish;

 laparlar va raqslarda atributlar (gullar, lentalar, bayroqchalar, koptoklar v.b) foydalanish;

Musiqali harakatli va obrazli o‘yinlarni o‘rgatilganda shu o‘yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o‘rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil harakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o‘rin egallaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan tavsiyalar mashg‘ulot jarayonida o‘z samarasini beradi.Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi, idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Musiqaviy – sensor qobiliyatlar;

Musiqa mashg‘ulotlarida bolaning – sensor qobiliyatlar tovushning balandligi, tembri, kuchi – hissi, musiqaviy eshitish; ritm tushunchasi; mahsuldor faoliyatning qobiliyati; ijodiy ijro mahorati rivojlanadi.

Musiqaviy faoliyatni to‘laroq ko‘rib chiqamiz;

1. Musiqaviylik musiqaviy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo‘ladigan sifat komplekslaridan tashkil topadi, uning barcha elementlari ularning struktura munosabatlarida ko‘rinadi.

2. Barcha qobiliyatlar emotsional va eshitish komponentlarining sintezligi bilan xarakterlanadi.Musiqaviy faoliyat barcha turlari emotsional rang – baranglik bilan xarakterlanadi.

3. Emotsional eshitish komponentlari bazasida birgalikda ikkita asosiy musiqaviy qobiliyat yotadi: qayg‘urish qobiliyati, fikrlash, tasavvur qilish va baland munosabatlarni eslash, qayg‘urish qobiliyati farqni ajratish, musiqaviy ritmni tasavvur qilish va eslash. Bu ikki asosiy musiqaviy qobiliyat istalgan musiqaviy faoliyatni bajarish paytida doimo kerak bo‘ladigan faoliyat turlaridir.

4. Musiqaviylik qobiliyatlar kompleksi kabi turli musiqaviy faoliyat jarayonida ko‘rinadi. Masalan: musiqaviy idrok qilish tarkibiga asosiy musiqaviy qobiliyat va boshqalar: ijro etish uchun vosita – musiqa cholg‘usi bilan, ovoz bilan – musiqa mazmuni kayfiyatini ifodalashga yordam berish, hayajonli jarayonlar, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, texnik qobiliyatlar – qo‘shiqchi intonasiyasining tozaligi, motor apparatning pastligi – kiradi. Ijodiy qobiiyatlar tarkibiga ijro etuvchilikni xarakterlovchi komponentlar: ifodalilik, to‘g‘rilik, samimiylik komponentlari va unumli ijodning farqlanishi komponentlari kiradi.

Musiqaviylik musiqaviy qobiliyat kabi bolada boshdan juda primitiv (qo‘pol) boshlanadi va turli musiqaviy faoliyat jarayonida rivojlanadi.Bola rivojlanishning birinchi bosqichlarida unda barcha asosiy musiqaviy qobiliyatlar ko‘rina boshlaydi va birining ikkinchisidan ustunligi faqat keyinroq ma‘lum bo‘ladi. Musiqaviy qobiliyatlarning ayrim bolalarda erta paydo bo‘lishi ularni zehniga bog‘liq deb ataladi. Lekin boshqalarda kechroq boshlanishi ularning orqada qolib ketishlaridan dalolat bermaydi.

1. Qo‘shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo‘shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taaluqli bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘zlashtiradilar.Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi.Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o‘lchov, lad, temp, nota yo‘li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo‘lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o‘z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlirini shakllantiradi.

2. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi, shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

Adabiyotlar:

1.Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / Toshkent - 2017, S.X. Jalilova, S.M. Aripova;

2.Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti.2021, B. Boltayev, J. A. Xodjayev;

3.Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘ll./ Toshkent -2007.G.M.Sharipova, Sh.A Yakubova;

4.Bolalar bog‘chasida musiqa. Ravshan Abdurahmonov, Samandar Mahkamjonov. «Iste’dod ziyo press» nashriyoti, Namangan-2022.

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi N.K.Musayeva
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi **Soyibova Sabina**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar nutqini rivojlantirishda kompyuter o‘yin-trenajyorlaridan foydalanish va bunday vositalar yordamida bolalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish hamda ularning barkamol bo‘lib rivojlanishlari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, rivojlanish, kompyuter o‘yinlari, multimediali ilovalar, mashg‘ulot.

Аннотация: В данной статье представлено использование компьютерных игр-тренажеров в развитии речи детей и устранение дефектов речи детей с помощью таких средств, а также их гармоническое развитие.

Ключевые слова: Речь, развитие, компьютерные игры, мультимедийные приложения, обучение.

Abstract: In this article, the use of computer games-trainers in the development of children's speech and the elimination of defects in children's speech with the help of such tools, as well as their harmonious development, are presented.

Key words: Speech, development, computer games, multimedia applications, training.

Bugungi kunda bolalar uchun mo‘ljallangan ko‘plab turli faoliyatga oid ta’limiy dasturlar asosida yaratilgan kompyuter o‘yinlari-trenajyorlar mavjud. Shunday trenajyorlarda bolalar maxsus topshiriqlarni bajara turib, o‘quv dasturi asosida olgan bilimini to‘ldiradi va nutqiy faoliyatini ham boyitib boradi. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari uchun mashg‘ulot o‘tishda ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shuni alohida aytish kerakki, bolalar nutqini to‘g‘ri, aniq va ravon bo‘lishida logoped-o‘qituvchilarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Hozircha logoped-o‘qituvchilar multimediali ilovalar yoki kompyuter o‘yinlaridan foydalanishda imkoniyatlari cheklangan. Shu maqsadda quyida bu boradagi ayrim tavsiyalar bayon etib o‘tmoqchimiz.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi. “Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy ma’naviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rganish vazifalari hali sifatli to‘liq holda yechilgani yo‘q”[1] - deb ta’kidlagan edilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Keyingi yilliklarda ta’lim tizimi tuzilmasida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bunda ikki o‘zaro bog‘liq jarayon yaqqol ko‘zga tashlandi: fan — texnika taraqqiyoti bilan birga, til madaniyati, nutqimiz ham o‘zgardi. A.R.Luriyaning ta’kidlashicha, bolaning o‘zini tutishida yuzaga keluvchi murakkab boshqaruv masalalarida nutq faoliyati asos bo‘ladi[2]. Hayotimizga kompyuter, mobil telefoni, televizor va boshqa maishiy texnika, internet kabi tushuncha va so‘zlar kirib keldi. Kundalik muloqotimiz ham shaklan ham mazmunan o‘zgardi. Bolalar hovli va bolalar maydonchalaridagi harakatli o‘yinlar bilan kamroq shug‘ullanadigan, buning o‘rniga ko‘proq kompyuter oldida o‘tiradigan, internet muloqotiga ko‘proq vaqt ajratadigan,

yuzma-yuz suhbatlashishdan ko‘ra, ko‘proq telefon orqali muloqot qilishni xush ko‘rib, kompyuterda tovush orqali emas, balki harf terish orqali muloqot qilishni afzal ko‘ra boshladilar.

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqidagi norasolikni korreksiyalashda qo‘llaniladigan kompyuter dasturlari ko‘p emas, bundan tashqari, ularning ko‘pchiligi mutaxassislar bilan emas, balki ota-onalar bilan birga amalga oshirishga mo‘ljallangan. Kompyuter o‘yin-trenajyorlari yordamida amalga oshirilgan logopedik mashg‘ulotlar bolalar nutqi va yozuvidagi nuqsonlarni nafaqat bartaraf etishda, balki ularning barkamol bo‘lib rivojlanishlarida quyidagi muhim ahamiyatga molik ustunliklarni taqdim etadi:

- kompyuter vositasida o‘tkaziladigan har bir dars korreksion ta’limning yaxlit majmuasidan iborat bo‘lsagina yaxshi samara beradi;
- kompyuter dasturlari asosan ko‘rib, idrok etish omillariga bog‘liq;
- kompyuter vositasida natijalarni kuzatib borish imkonini ham beradi;
- ayrim mashqlar so‘zlarni eshitib, amalga oshirishni talab etadi.

Shu tariqa, markaziy asab tizimi shartli reflektorlariga ta’sir etib, vizual-kinestetik mexanizmlarni faollashtirishga imkon beradi, turli logopedik mashqlarni bajarish orqali asosiy korreksion ishlarni: fonematika, leksika va tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish masalalari ustida ishlash mumkin. Multimediyali to‘g‘ri so‘zlashni o‘rganamiz o‘yini orqali suratga qarab, turli quvnoq, yengil hikoyalar tuzish va diqqat-e’tibor bilan tinglash orqali bolalarda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish mumkin.

AKTdan foydalanib maktabga tayyorlov guruhlarida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklarni bartaraf etishda turli o‘yinli dars usullaridan foydalanishi mumkin. Bu: logopedik ish jarayonini avtomatlashtirishi — bolalar nutqidagi turli kamchiliklarni: tovush va harflarni ifoda etish jarayonlarini, ularda interaktiv ta’lim yordamida fonematik irodani to‘g‘rilash va rivojlantirish, intellektual materiallar yordamida bolalar xotirasini mustahkamlash, bilimlarni chuqurlashtirish, fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarni har jihatdan barkamol bo‘lib o‘sishiga yo‘naltirilgan, zaruratga ko‘ra va korreksiyalaydigan yangi mashqlar kiritiladi. Trenajyorda matnni idrok etish o‘quv-malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan materiallar — «Qayta so‘zlab berish» mashqlari va bog‘langan nutqni tuzish malakasini shakllantirish uchun — «Suratga qarab hikoya tuzish» mashqini taqdim etish mumkin. «Qayta so‘zlab berish» mashqida tobora murakkablashib boruvchi matnlardan foydalanish zarur. Qayta so‘zlab berish uchun matnlarni tanlashda turli savol, topshiriq va tayanch so‘zlarni tayyorlash lozim. «Suratga qarab hikoya tuzish» mashqida turli janrga oid hikoyalar tuzish mumkin bo‘lgan taniqli rassomlar suratlari va manzaralaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bolalar nutqini rivojlanish ko‘rsatkichlarini quyidagicha kuzatish mumkin:

- kompyuter vositasida darhol natijalari namoyon bo‘ladigan turli xil test sinovlarini o‘tkazish, tashxis davrida logopedik kuzatuv materiallarining darhol qayd etilib borilishi;

- monitoring kartalarini yaratish ko‘p vaqt talab etilmaydi;

- ma’lumotlarni uzoq muddat mobaynida saqlash imkonini berganligi sababli o‘quv yili boshida va oxirida, zaruratga ko‘ra barcha o‘quv yillari uchun ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish mumkin bo‘ladi;

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun kompyuter vositasida elektron katalog va ma’lumotlar bazasini yaratish ish jarayonlarini osonlashtiradi;

- nutqiy rivojlanishdan orqada qolayotgan tarbiyalanuvchilar ro‘yxatini tuzish va ular bilan alohida shug‘ullanish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha, Ilmiy – uslubiy Risola. –T.: “Ma’naviyat ”2017 y. 195- b.
2. Лурия А.Р. Язык и сознание.- М., 1979.-С.53.
3. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalami to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish. -T .: 0‘qituvchi, 1990.
4. M. M. Kolsova. Rebyonok uchitsya govorit. M., 1973, 5- bet

5. Qodirova F.R., Kadirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -T.: Istiqlol, 2006.
6. E.G‘oziyev. Tafakkur psixologiyasi. T.: O‘qituvchi, 1990.
7. Internet saytlari.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT ASOSIDA BOLALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ergasheva Lobar Dilmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash, tasviriy faoliyat bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirish hamda bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: kreativ, bola, taafakkur, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ijodiy, mashg‘ulot.

Аннотация: В данной статье рассматривается полное понимание общего характера процесса развития творческих качеств у детей в дошкольных образовательных организациях, планирования деятельности по изобразительной деятельности, обучения детей самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: творчество, ребенок, мышление, дошкольная образовательная организация, творчество, обучение.

Abstract: In this article, a full understanding of the general nature of the process of developing creative qualities in children in preschool educational organizations, planning activities on visual activities, and teaching children to think independently are discussed.

Key words: creative, child, thinking, preschool educational organization, creative, training.

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan davlatlarini olmaylik, ta’lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san’at, xususan, tasviriy san’at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlarini tasviriy san‟atga bog‘lash bilan shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va ijodiy tafakkurini amaliyotga tatbiq etishga olib keladi. Tasviriy san’at o‘quv jarayonida mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta’lim texnologiyalari (“Ta’limda innovatsiya (STEAM)” loyihasi), interfaol metodlar (aqliy hujum, tushunchalarni aniqlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi) hamda (klaster, B-B-B chizmasi, «Nima uchun» chizmasi, «Qanday» diagrammasi va toifalash jadvali) kabi grafik organayzerlardan unumli foydalanish mumkin.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasviriy faoliyatning har bir turi o‘ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo‘lsa-da, ularni bir yo‘nalish, maqsad bo‘yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o‘ziga xos ko‘rinishlardagi tasviri) birlashadilar. Tasviriy faoliyat bo‘yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdagi mashg‘ulotlar soniga qat’iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg‘ulot qanday materiallar bilan o‘tkazilsa, maqsadga muvofiq bo‘lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog‘i lozim. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari – bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurishyasash mashg‘ulotlaridir. Bu

mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim muassasasining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, kun tartibi asosida uyushtiriladi.

Hamma mashg‘ulotlar uch qismga bo‘linadi:

– mashg‘ulotning boshlanishi

– topshiriqni tushuntirish;

– mashg‘ulotning borishi;

– topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi;

– mashg‘ulotning yakuni–bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rasm faoliyatini san’at markazlarida rejalashtiriladi.

San’at markazi: Ta’limiy rasm chizish.

Rasm: Kamalak va yomg‘ir.

Maqsad: Turli tasviriy vositalar orqali tabiat haqidagi tasavvurlarini mustaqil va ijodiy tasvirlashga o‘rgatishda davom etish. Kamalakni tasvirlashga nisbatan qiziqish uyg‘otish

Mashg‘ulotga tayyorgarlik: Kamalakning tasviri bilan tanishtirish. Kamalak to‘g‘risida topishmoq aytish.

Kerakli jihoz va materiallar: Katta hajmdagi oq va havo rangdagi qog‘oz (jamoaviy albom tuzilsa bir xil hajmdagi qog‘oz), akvarel bo‘yog‘i, turli hajmdagi mo‘yqalam, suv , mato va qog‘oz salfetkalar, mo‘yqalam uchun turgichlar. Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi bolalarga quvonch nima ekanligi to‘g‘risida fikr yuritishni va so‘zlashishni taklif etadi.

2. Tarbiyachi « kamalak» so‘zini tahlil etilishini so‘raydi (quyosh yoyi yoki quvonch yoyi, quvonchli yoy). Tarbiyachi kim haqiqiy kamalakni ko‘rganligini va bu quvonchli voqea to‘g‘risida gapirib berishni so‘raydi.

So‘ngra tarbiyachi bolalarning kamalak haqidagi u atmosfera hodisasi sifatida, yilning iliq kunlarida osmonda ko‘rish mumkinligini, mayda , iliq yomg‘ir bir yoqda, bir yoqda quyoshning nurlari sochganida, quyosh orasidan yomg‘ir tomchilari yoqqanida kamalak hosil qilishi haqidagi tasavvurlarini aniqlaydi. Tarbiyachi bolalardan kamalakning rangini bilishlarini so‘raydi, va hamma vaqt ham bu ranglar aniq bir tartibda joylashishini tushuntiradi.

Bolalarning intilishlaridan so‘ng kamalak ranglarini joylashish tartibini eslatadi: qizil, to‘qsariq, sariq, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha rang.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotari tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish ularning kelgusida kasbiy faoliyatlarida bolalarda ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishda hamda ta’lim sifati va samaradirligini oshirishda zamin bo‘ladi. Aytib o‘tish joizki, tarbiyachining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, guruh ham shunday bo‘la oladi. Pedagogning ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur. [3]

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli bolalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar bo‘lajak tarbiyachilarini erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent . Aloqachi. 2007.

2. Xasanov R.Tasviriy san’at asoslari. Toshkent.2009.

3. Saydullayeva N.I. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022. 132 bet

4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.

MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONINDA DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI BOLALARNING QOBILIYATINI ,TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Navoiy davlat pedagogika instituti Rus va qozoq filologiyasi fakulteti
Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Urkinbayeva Maqpal Amankeldiyevna

Annotatsiya. Amaldagi dastur bo‘yicha ushbu loyihada ko‘rib chiqilgan muammo shundaki, bolalar uchun didaktik o‘yin nafaqat bolalar tomonidan olingan bilimlarni tushunishni ma'lum qiladi, balki o‘ziga xos faol kognitiv faoliyat shaklidir. Shuning uchun o‘yinni ta’lim jarayoniga to‘g‘ri kiritish va uning barcha samarali xususiyatlaridan foydalanish juda muhimdir. Didaktik o‘yinlar yordamida bolalar mustaqil fikrlashga, olingan bilimlarni berilgan topshiriq bo‘yicha turli vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin faoliyatiga muhtoj, bu esa o‘yindan ta’lim vazifasi sifatida foydalanishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, aqliy tarbiya, olimlar, aqliy rivojlanish, matematika, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya.

Аннотация. Проблема, рассматриваемая в данном проекте по действующей программе, заключается в том, что дидактическая игра для детей не только способствует пониманию полученных детьми знаний, но и сама по себе является формой активной познавательной деятельности. Поэтому очень важно правильно включать игру в образовательный процесс и использовать все ее эффективные возможности. С помощью дидактических игр дети учатся самостоятельно мыслить, использовать полученные знания в разных ситуациях согласно поставленной задаче. Ребенку дошкольного возраста необходима игровая деятельность, позволяющая использовать игру как учебную задачу.

Ключевые слова: дидактические игры, интеллектуальное воспитание, ученые, психическое развитие, математика, нравственное воспитание, физическое воспитание.

Abstrakt.The problem considered in this project according to the current program is that the didactic game for children not only informs the understanding of the knowledge acquired by children, but is also a form of active cognitive activity in its own right. Therefore, it is very important to properly include the game in the educational process and use all its effective features. With the help of didactic games, children learn to think independently, to use the acquired knowledge in different situations according to the given task. A child of preschool age needs play activity, which makes it possible to use the game as an educational task.

Keywords: didactic games, intellectual education, scientists, mental development, mathematics, moral education, physical education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ***“Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi”*** deya ta’kidlaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta’lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e’tiborlari natijasidir. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi. Qanday qilib ta’lim jarayonini mushkullikdan quvonchli jarayonga aylantirsa bo‘ladi? Shuni aytib o‘tish joizki, sifatli ta’lim birinchi navbatda ta’lim beruvchi tarbiyachi, pedagogning kasbiy mahoratiga bog‘liqdir.

Aqliy rivojlanish - bu maktabgacha yoshdagi bolaning kelajakdagi hayotida umumiy aqliy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadigan fundamental ta’lim. O‘z navbatida, aqliy rivojlanish kognitiv qiziqish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan murakkab jarayondir. O‘yin, xususan, didaktik o‘yin bolalarda ijtimoiy hayot hodisalariga, tabiatga, tevarak-atrofdagi dunyo ob'ektlariga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi, ularning Vatan, turli kasblar, millat vakillari haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi va chuqurlashtiradi. Didaktika haqida tushuncha. Didaktika – qadimgi yunoncha so‘z bo‘lib, didaktikos – o‘qituvchi, didaskalos – o‘qituvchi ma’nosini bildiradi.

Didaktika - ta’lim va tarbiyaning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganuvchi pedagogika fanining bir tarmog‘i. Didaktika ta’lim va tarbiya mazmunini, o‘qitish tamoyillarini, o‘qitishni tashkil etish usullari va shakllarini ko‘rib chiqadi[1,]. Didaktika asosida alohida fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari ham o‘rganiladi. Chex o‘qituvchisi Yan Amos Kamenskiy (1592-1670) didaktikaning ilmiy asosini yaratdi. Uning «Buyuk didaktika» (1632) kitobida o‘qitishning maqsadi, usullari va tamoyillari hamda sinf tizimi yoritilgan. 17-asr Shveytsariya pedagogi Iogan Geynrix Pestalozsi (1746-1827) ta’lim tamoyillari tizimini ishlab chiqdi va isbotladi, boshlang‘ich ta’lim usullarining asosini yaratdi [2,61]. 19-asr Nemis o‘qituvchisi Fridrix Vilgelm Adolf Distervek (1790 -1966) o‘qitish didaktikasini ishlab chiqdi va tavsifladi. U ta’lim jarayonida 4xil qoidadan foydalanish qobiliyatini ta’kidlagan: ko‘rinish, jozibadorlik, ishtiyoq, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, yaqindan uzoqqa, osondan murakkabga o‘tish va hokazo [3,62].K.D. Ushinskiy Rossiyada rus didaktikasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi va Sovet hokimiyati yillarida N.K.Krupskaya, P.P. Blonskiy, S. T. Shatskiy va boshqalar. katta hissa qo‘shgan [4, 64]. B. P. Esipov, taniqli pedagog olim. M.A.Danilov, L.V.Zankov, M.N. Skatkin va boshqalar. o‘qitish masalalariga bag‘ishlangan asarlar nashr etildi. O‘qitish tamoyillari tizimini, o‘qitishni tashkil etish usullari va shakllarini isbotlab berdilar. Taniqli qozoq pedagog-olimlari pedagogikaning “Didaktika” yo‘nalishi bo‘yicha, ta’lim qahramonlari Ybyray Oltinsarin, Mag‘jan Jumabayev, Ahmet Baytursinov, Mirjaqip Dulatov, Jusipbek Aymautov, Sharapi Aljanov va b. o‘z davrida ijodiy mehnat qilib, bir qancha hissa qo‘shgan [5,89].Olima A.Edigenovaning fikricha, bolaning rivojlanish jarayoni uning butun hayoti davomida sodir bo‘ladi. Rivojlanish jarayonida bolaning kognitiv faolligi ortadi. 6 yoshli bolalar predmetlarni turi, rangi, o‘lchami bo‘yicha farqlay boshlaydi, ularning tuzilishi va foydalanish usullarini bilishni xohlaydi [6,81]. Kundalik hayot jarayonida boladan real olamning hodisa va predmetlarini aniqlay olish, inson tomonidan to‘plangan boy tajribani o‘rganish talab etiladi [7,112].Didaktik o‘yinlar, nomidan ko‘rinib turibdiki, bola ongini rivojlantirish va tushunchalarni farqlash usullaridan biridir. Didaktik o‘yinlar - o‘rganish maqsadini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining kuzatuvchanligi, tasavvuri, xotirasi, nutqi, fikrlash qobiliyati, hissiy yo‘nalishini rivojlantiradi. O‘yin davomida bolalar yangi bilim va usullarni o‘rganishlari kerakligini ham tushunadilar. A.Qunanboyev: “Bolalar yoshligidanoq o‘z-o‘zidan o‘rganishni xohlamaydi. Bolalarda bilimga bo‘lgan ishtiyoq paydo bo‘lguncha ularni majburlash orqali o‘rgatish kerak." O‘yinga qiziqqan bola o‘rganayotganini sezmasligi ham mumkin, lekin bola harakatlarini qayta qurishda qiynaladi (avtodidaktizm fenomeni). O‘yin davomida bola qo‘lidan kelganini qilishga harakat qiladi. Didaktik o‘yin o‘quv qurollari yoki o‘quv faoliyati davomida qo‘llaniladigan usul emas. Didaktik o‘yin ko‘p rejali, qiyin pedagogik hodisa bo‘lib, u bolalarni o‘yin usuli orqali o‘rgatadi, u ta’lim va mustaqil o‘yin o‘ynash, bolalarni har tomonlama rivojlantirish shaklidir. Didaktik o‘yin, o‘yin usuli sifatida, ikki jihatni ko‘rib chiqadi. O‘yin-ta’lim faoliyati. Bu o‘yinda asosiy rolni o‘qituvchi bajaradi, o‘qituvchi turli usullardan foydalanadi, o‘yin vaziyatini yaratadi, raqobat elementlaridan foydalanadi. O‘qituvchi faqat o‘yin davomida o‘ynamaydi, bolalarga ma'lum bilim beradi, o‘yin ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlar matematikada, tilni rivojlantirishda, atrof-muhit bilan tanishtirishda, hissiy madaniyatni rivojlantirishda qo‘llaniladi. O‘qituvchi bu erda ham o‘qituvchi, ham futbolchi sifatida. U o‘ynashni o‘rgatadi, bolalar esa o‘ynab o‘rganadilar. Agar o‘rganish jarayonida atrof-muhit haqidagi bilimlarni rivojlantirish chuqurlashtirilsa, didaktik o‘yinda bolalar uchun topishmoqlar, takliflar va savollar sifatida foydalanish mumkin. Didaktik o‘yin shaxsiy o‘yin faoliyati sifatida ushbu o‘yin faoliyati tajribasi sifatida qaraladi [8,78].Didaktik o‘yin bu jarayonni mustaqil o‘yin faoliyati sifatida boshdan kechirishga asoslangan. Agar bolalar o‘yin va qoidalarga qiziqsa, ular ushbu qoidalarni o‘zlashtirsalar, mustaqil o‘yin amalga oshiriladi. Agar o‘yin mazmuni unga tanish bo‘lsa, bola qachongacha unga qiziqishi mumkin? Bu deyarli bevosita ish jarayonida hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo. Bolalar o‘yinlarni yaxshi ko‘radilar, ular zavq bilan o‘ynashadi. Qoidalari bolalarga ma'lum bo‘lgan xalq o‘yinlari buni isbotlashi mumkin: "Rasm", "Bekinmachoq" va boshqalar.Har bir bunday o‘yinda harakatga qiziqish bor. Masalan, "Rasmlar" o‘yinida siz rang tanlashingiz kerak. Odatda, bolalar o‘zlarining sevimli va ajoyib ranglarini tanlaydilar: oltin, kumush. Rangni tanlagan bola haydovchiga yaqinlashadi va

uning qulog‘iga rang nomini pichirlaydi. "Yo‘l bo‘ylab bir oyoq bilan yuring", deydi haydovchi o‘yinchilar orasida etishmayotgan rangni nomlagan kishiga. Bolalar uchun juda ko‘p qiziqarli o‘yinlar mavjud! Shuning uchun bolalar doimo shunday o‘yinlarni o‘ynashadi. Ta’lim jarayonining muammosi shundaki, bolalar mustaqil ravishda o‘ynashlari, o‘zlarini rivojlantirishlari bilan o‘zlarini tashkil qilishlari, nafaqat ishtirokchilar va muxlislar, balki hakamlar ham bo‘lishlari mumkin. O‘quv jarayonida oldinga siljish, nafaqat texnik yo‘nalishni, balki estetikaning yangi rangini, axloqning obrazli tushunchalarini va boshqa qoidalarni ochib beradigan bir qator qoidalarni qo‘shish orqali o‘yinlarni murakkablashtirish kerak.Didaktik o‘yinlar bolalar nutqini rivojlantiradi: ularning so‘z boyligi boyib, faollashadi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish shakllanadi, bog‘langan nutq rivojlanadi, o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalashga odatlanadi. Ko‘pgina o‘yinlarning didaktik vazifalari bolalarni mustaqil ravishda oddiy hikoya tuzishga o‘rgatadigan tarzda tuzilgan. Juda ko‘p o‘yinlar jarayonida tafakkur va nutqning rivojlanishi uzviy bog‘liqdir. Bolalar o‘ynaganda, bahsli masalalarni hal qilganda va gaplashganda nutq faollashadi.Yosh bolalar bilan ishlashda didaktik o‘yinlarning asosiy mazmuni bolalarni madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarga, xulq-atvor madaniyatiga o‘rgatishdir. Bular mashhur amaliy o‘yinlar: "Qo‘g‘irchoqni uyquga qo‘ying", "Qo‘g‘irchoqning nonushtasi", "Keling, qo‘g‘irchoqni sayrga kiyintiramiz" va boshqalar. gigienik ko‘nikmalar, xatti-harakatlar normalari, shuning uchun ular ijobiy o‘yin munosabatlarini rivojlantiradilar. Bolalarning o‘yindagi xatti-harakatlarini kuzatish orqali biz bolani uning harakatlari orqali kashf qilishimiz mumkin.Sovet psixologlari L.S. Vygotskiy va A.V. Zaporojets bir necha bor ta'kidlaganidek, kattaroq maktabgacha yoshdagi bola vaziyatli xatti-harakatlardan ijtimoiy normalar va talablarga bo‘ysunadigan harakatlarga o‘tadi, ikkinchisi esa juda hissiy. Bu bosqichda bola va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarning kognitiv tipi o‘rniga shaxs tipi birinchi o‘ringa chiqadi, uning markazida insoniy munosabatlarga qiziqish mavjud. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bola odatda o‘z xatti-harakatlarida kattalar nimani yoqtirishini va yoqtirmasligini biladi va uning harakatlarining sifati va shaxsiy fazilatlarini etarlicha baholaydi[9,32].Maktab o‘quvchilari didaktik o‘yinlar uchun materiallar yaratish jarayonida ba'zi mehnat ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Agar bolalar o‘yin uchun atributlarni o‘zlari tayyorlasalar, ular diqqat bilan qarashadi. Shunday qilib, bolalar bilan tayyor (zavod) o‘yinlar bilan bir qatorda, ish uchun foydali materiallardan foydalanishingiz mumkin. Qolaversa, bu birinchi mehnatsevarlik va mehnat mahsuliga hurmatni tarbiyalashning yaxshi usulidir.Jismoniy ta’lim-tarbiya. O‘yin yoqimli hissiy yuksalish yaratadi, sizni yaxshi his qiladi va ayni paytda asab tizimida ma'lum bir kuchlanishni talab qiladi. O‘yin vaqtida bolalarning jismoniy faolligi bolaning miyasini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinchoqlar bilan o‘yinlar ayniqsa muhimdir, bu davrda qo‘lning kichik mushaklari rivojlanadi va mustahkamlanadi, bu bolalarni aqliy rivojlanishga tayyorlaydi, bolaning qo‘lini yozishga, tasviriy faoliyatga, ya'ni kelajakdagi maktab o‘qishiga tayyorlaydi.Yosh avlod tarbiyasi uchun jamiyat mas’uliyati chuqur his etilayotgan bugungi kunda mustaqil mamlakatimiz ta’lim tizimida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo‘lida barcha imkoniyat va resurslardan foydalanishdan iborat. jarayon. Biroq o‘quv jarayonining barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti. Bunday kam qo‘llaniladigan ta’lim vositalaridan biri o‘yindir.Maktabgacha yoshdagi bolalarning faolligini oshirishda o‘yinning asosiy maktabgacha faoliyati o‘yin bo‘lib, o‘quv va ta’lim jarayonida ular asta-sekin o‘yin faoliyatidan o‘rganish (idrok) faoliyatini amalga oshirishga moslashishi kerak. Dars davomida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Didaktik o‘yinlar o‘ziga xos maqsadga ega va aniq vazifalarni hal qiladi. O‘yinning maqsadi - bilim, ko‘nikma,U malakalar haqida tushuntirish berish, ularni shakllantirish, umumlashtirish va aniqlashtirish yoki tekshirish xarakteriga ega. O‘yinning vazifasi bolaning qiziqishini uyg‘otish va uning faolligini oshirish uchun tanlangan aniq tarkib bilan belgilanadi.Uslubiy adabiyotlarda keltirilgan va o‘qituvchilar amaliyotida qo‘llaniladigan ko‘plab didaktik o‘yinlar mavjud. Biroq ularning hammasi ham ta’lim mazmunidagi bugungi kun talablaridan kelib chiqadigan o‘zgarishlarga, shuningdek, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydi. Shuning uchun ham o‘yinlar tizimi va ulardan foydalanish metodikasini taqdim etish, ilmiy asoslangan didaktik o‘yin turlarini saralash va ko‘rib chiqish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.Xulosa:Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati katta.Ya'ni,

bola uchun o‘yin uning birinchi ishi. Shuning uchun bola bilan ishlashning eng samarali usuli bu o‘yindir. O‘yin orqali bolalarning qobiliyati, tafakkuri, bilimini rivojlantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishda matematikaga qiziqishni oshirish maqsadida matematikani o‘qitish usulini didaktik o‘yinlar orqali ishlab chiqishni samarali deb topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Bolangiz maktabga tayyormi?” O‘z. Res. Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-Madadkor nashriyoti.

2.М.Монтессоридің педагогиалық жүйесін енгізу бойынша әдістемелік нұсқаулық. Тәрбие құралы. 4/2013. 61бет

3. Столяр А.А. «Теории и технологии математического развития для детей дошкольного возраста». - М.:Детство-Пресс,2008. 62 бет

4.Щербакова Е.И. Теория и методика математического развития дошколников:- М,:Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж:Издательство НПО «МОДЭК»,2005. 64 бет

5. Амонашвили Ш.А. Здравствуйте, дети! - М., 1990. 89 бет

6. Аванесова В. Н. Дидактическая игра как форма организации обучения в детском саду. Умственное воспитание дошкольника / В.Н Аванесова. – Москва : Просвещение, 2015.81б.

7. Едігенова А.Ж. Отбасы қатынасының этикасы: Ата-аналарға арналған әдістемелік құрал, Семей 2007. 112б

8. Қазақ педагогикалық энциклопедия сөздігі. - Алматы: Республикалық Баспа кабинеті, 1995. 78б.

9. Выготский Л. С. Психология развития ребенка / Л. С. Выготский.

РОЛЬ КОМПЛЕКСНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ РЕФЛЕКСИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШЕСТИЛЕТНИХ ДЕТЕЙ

Узбекистан, Навоийский государственный педагогический институт учитель
Каршиева Шахноза Туракуловна

Аннотация: Представлены научно-теоретические сведения о сущности технологии рефлексивного обучения, используемой в образовательном процессе, основных принципах рефлексивного обучения, формах общения, рефлексивных способностях и рефлексивных компетенциях.

Ключевые слова и понятия: Рефлексивное мышление, мотивация, рефлексивное обучение, цель, принцип, инструмент, научность, креативность, рефлексивная способность, критическая, вспомогательная деятельность, дискуссия, интерактивный метод, инновационные технологии, интегрированная образовательная деятельность.

Понятие рефлексивность происходит от латинского слова «reflexio», что буквально означает «оглядывающийся назад».Теоретическая деятельность, направленная на понимание и понимание своих действий и их оснований, представляет собой особую форму познания. Мышление, самообладание. Теоретическая форма деятельности человека, ориентированная на размышления о его личных действиях и их законах. Думать о своем душевном состоянии — значит думать, думать, думать, анализировать его.

Рефлексивная деятельность – это процесс формирования выводов на основе самостоятельного анализа и понимания собственных понятий и действий.

Рефлексия и обсуждение: Все дети уникальны в своей индивидуальности. Понимание и признание этих индивидуальных различий каждого ребенка является важным фактором в создании групп, ориентированных на ребенка.

Рефлексия (сохранение индивидуальности, позитивное творчество, сохранение личности как личности в любой деятельности, средства самоопределения).

Большое значение в превращении детских знаний в умения и навыки имеет комплексная образовательная деятельность.

Интегрированная образовательная деятельность предлагает взаимосвязь различных содержаний образования и реализацию взаимообусловленности в более глубокой форме. Это деятельность, направленная на раскрытие всей сути определенной темы посредством различных видов деятельности, объединенных в широком информационном пространстве путем взаимного доступа и обогащения. Генерализованный возникает, когда элементы одной деятельности проникают в другую, то есть границы такого сочетания абстрактны, и отличить один вид деятельности от другого практически невозможно. В процессе интеграции также один вид деятельности является определяющим, другие способствуют более широкому и глубокому пониманию, но знания из разных областей в равной степени дополняют друг друга. В этом случае у педагога появится возможность решить несколько задач.

Интегрированные учебные мероприятия часто направлены на изучение новых тем посредством искусства. Цель – объединить различные виды детской художественной деятельности в целостный педагогический процесс, развивать детский мир, эстетическую культуру и творческие способности через искусство (музыкальное, сценическое, литературное и изобразительное искусство). Мероприятие планируется на основе общей темы нескольких мероприятий, которые могут выполняться несколькими педагогами . Содержание учебного материала разрабатывается вокруг конкретной темы.

Например: в подготовительной группе к школе тема «Сказочная птица – лебедь» включает в себя следующие методы обучения:

Учебная деятельность начинается с работы с общей группой:

- *Рассказать историю об образе жизни и особенностях лебедей ;*
- *Беседа: отношение человека к животному миру;*
- *Обсуждение образа лебедя в сказках «Дикие лебеди», «Рогатый султан», «Утка Иркит».*
- *прослушивание отрывка из балета Чайковского «Лебединая рука»;*
- *Творческое задание: показать, как двигаться под музыку (Физические моменты);*
- *прослушивание отрывка из балета Чайковского «Лебединое озеро»;*
- *Творческое задание Показать, как под музыку движется лебедь (физминута)* .

Потом дети расходятся по развивающим центрам:

- Просмотр картины Врубеля «Царевна-лебедь»;

- *Работа в малых группах Рисунок летящих лебедей Аппликация на тему лебедей Работа из глины на тему «Лебединое озеро»*
- *О жизни лебедей в центре «Наука и природа» узнавайте из детских энциклопедий или картинок в других книгах, где они зимуют, сколько у них шерсти, какой окраски имеют лебеди и т. д.*

Тогда задача педагога – спланировать деятельность детей в каждом центре исходя из темы. В этой образовательной деятельности обобщаются задачи окружающего мира, развития речи, музыки, изобразительного искусства. Основная цель этих заданий – сформировать представление детей о чудесной птице – лебедях. Также следует отметить, что в форме комплексной деятельности удобно собираться в общую группу и обобщать знания детей посредством математического КВН, сказок и экологических викторин.

Во-первых, для этой части характерен «открытый финал»: иногда ребенок сам решает, завершать ли работу в своем темпе, но при работе в группе он приспосабливается к этому ритму и обращает внимание на сверстников. Таким образом, ребенок учится связывать свои действия с действиями группы. Однако если ребенок не закончил, ему нужно дать возможность закончить позже.

Взрослые могут оценивать действия детей лишь косвенно, сравнивая результат с целью ребенка: что вы хотели сделать и что получилось?

Не нужно спрашивать детей, нравится им это или нет. Чтобы узнать, понимает ли ребенок цель, спросите: «Зачем ты сделал эти вещи?», или «Зачем они тебе понадобились?», «Понадобятся ли они тебе когда-нибудь?» Тогда необходимо найти тех, кто достоин похвалы не только за результат, но и за активность в рабочем процессе. Профессиональная позиция педагога в организации учебной деятельности означает, что он уважает любые слова ребенка по отношению к содержанию обсуждаемой темы. Необходимо заранее продумать, как обсуждать «предложения» детей, то есть вести их в равном диалоге, а не в строго оценочной форме (правильно – неправильно) . Только в этом случае дети стремятся быть «услышанными» взрослыми. При этом в ходе деятельности ребенок оказывается в ситуации, когда ему приходится спорить, возражать, спрашивать и оценивать, заниматься другими видами общения, то есть разговаривать.

Настроение и интересы детей часто меняются. В этом преимущество образовательной деятельности, изменений и интеграции в различных сферах. Преимуществом интеграции является также повышение интереса к обучению, в ходе которого интерес к явлению, формирующему знания, рассматривается с нескольких сторон.

Побуждая воспитанника к мышлению, комплексная деятельность в дошкольной образовательной организации учит детей получать информацию, нестандартному мышлению, сравнению и обобщению, делать выводы. Переключение на разные виды деятельности способствует привлечению внимания детей, что повышает эффективность деятельности, предотвращает утомление и стресс. Дети будут заниматься с большим интересом.

Литература

1. Газиев Э. «Общая психология» Ташкент-2010.
2. Нишонова З.Т., Алимова Г.К., Тургюнбоева А.Г., Асранбоева М.Г. «Детская психология и психодиагностика». Т.: 20 17 лет .
3. Газиев Э. Г. Онтогенная психология.Ташкент: «Наука и техника», 2010.
4. Джалилова С.Х., Арипова С.М. Психология дошкольников . - Ташкент: Издательство «Философы», 2013 .
5. Эрматова Г.П. Психологические факторы формирования социального интеллекта педагогов дошкольной образовательной организации Международные научно-практические конференции, 16-19.2023.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston, NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi Pirimova Nargiza Adilovna

Annotatsiya: maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga bag‘ishlangan. Bolalar salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: innovatsion muhit, mushak korseti.

Аннотация: статья посвящена созданию благоприятных условий для формирования здорового образа жизни у детей дошкольного возраста. Особое внимание уделяется правильной организации мероприятий по охране и укреплению здоровья детей.

Ключевые слова: инновационная среда, мышечный корсет.

Annotation: article posvyashchena sozdaniyu blagopriyatnykh usulii dlya formirovaniya zdorovogo obraza jizni u detey doshkolnogo vozrasta. Osoboe vnimanie udelyaetsya propernoy organizatsii meropriyatiy po okhrane i ukrepleniyu zdorovya detey.

Key words: innovative environment, muscular corset.

Respublikada aholining va o‘sib kelayotgan yosh avlodning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilinb kelinmoqda. Buni tasdig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to‘g‘risida"gi URK-394-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi boyicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi PF-4947- son Farmoni, 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport soxasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi "PF-5368-sonli, Prezidentimizning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus, ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularni sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish hamda "Bolalar sportini rivojlantirish" borasida qabul qilingan bu farmonlarga binoan va boshqa me’yoriy hujjatlar yuqoridagi fikrimizning yorqin isboti bo‘la oladi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining daslabki bosqichi hisoblanadi. Sog‘lom avlodni tarbiyalash vazifasi esa birinchi navbatda maktabgacha tarbiya muassasalari zimmasidadir. O‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining samarasi bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalarida qoniqarli va yetarli bilim, ta’lim-tarbiya olishlariga bog‘liqdir. Inson hayotning birinchi yetti yilligida bolalar sog‘ligiga zamin tayyorlanadi. Hayotiy zaruriy harakat malakalar shakllanadi, takomillashadi. Keyinchalik jismoniy rivojlanish uchun lozim bo‘lgan shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligi va jismoniy rivojlanishi muammosi ayniqsa dolzarbdir. Yosh avlod salomatligini asrash va mustahkamlash bugungi kunda ustuvor ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligi keskin yomonlashdi. Bolalar salomatligi bilan bog‘liq muammolar yangi yondashuvlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari, ota-onalar va mutaxassislar o‘rtasida ishonchli hamkorlikni talab qiladi.

Bolalar bog‘chasining vazifasi bolalarning psixo-emotsional va jismoniy salomatligini saqlashga yordam berishdir.Vazifa - o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash. Sog‘likni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui va to‘g‘ri ishlab chiqilgan sog‘liqni saqlash muhiti bolalarimiz salomatligini mustahkamlashga yordam beradi.

Biz qulay moddiy muhitni yaratamiz va bolani jismoniy faollik bilan ta'minlaymiz. Biz ota-onalar hamjamiyati bilan birgalikda barcha sport tadbirlarining o‘ziga xos belgisiga aylangan shiorni ishlab chiqdik: Sog‘lom - go‘zal, sog‘lom –avlod, sog‘lom - buyuk. Maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan bolalar bog‘chasida bolalar bilan jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlari tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, u maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogik xodimlari, ota-onalar va psixologlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Barcha ishlar 3 yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- diagnostika va davolash-profilaktika tadbirlari.

Bolalarning salomatlik guruhini aniqlash uchun shifokorlar tomonidan tekshirilishi. Profilaktik tibbiy va sog‘lomlashtirish tadbirlarini rejalashtirish, bolalarni ixtisoslashtirilgan mutaxassislar tomonidan tekshirish, vitamin terapiyasi, o‘simlik choyi. Tibbiyot xodimi tomonidan bolalar bog‘chasida jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlarining samaradorligini nazorat qilish bolalar bog‘chasi (jismoniy tarbiya darslari, qattiqlashuv protseduralari, yurishlar va boshqalar). Jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlarini baholash va sozlash maqsadida o‘tkaziladi;

- o‘qituvchilar bilan ishlash.

Professor-o‘qituvchilarning kasbiy bilim darajasi, muammolari, ishlashni hohlagan sohalari, qatnashmoqchi bo‘lgan kurslarni aniqlash maqsadida so‘roq qilish. Keyinchalik, ushbu anketalar asosida psixologiya, diagnostika, sog‘lomlashtirish tadbirlari bo‘yicha seminar va maslahatlar ishlab chiqildi. U o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik malakasini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

- bolalar bilan ishlash.

Jinsi va yoshni, vosita fazilatlarini va ularning o‘sish tezligini hisobga olgan holda bolalarning motor faolligini tekshirish, asab jarayonlarining yetuklik darajasini aniqlash va boshqalar.

Bu bolalarning jismoniy rivojlanishini aniqlash va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini individual va bolalar guruhi bilan uzoq muddatli rejalashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Bolalarda sport mashg‘ulotlariga muntazam qatnashish rivojlanadi: harakat faolligi, to‘g‘ri holatni shakllantirish, mushaklarning korsetini mustahkamlash, shuningdek, to‘g‘ri sog‘lom turmush tarzining asosini tashkil qiladi;

- ✓ o‘qituvchi-psixologning ishi:
- ✓ bolalarni diagnostika qilish va tekshirish (“Psixologik “maktab yetukligi darajasi”, “Bolaning aqliy rivojlanish darajasi”, “Moslashuv darajasi”, “Emosional soha muammolari”);
- ✓ korrektsion rivojlantiruvchi ish (bolalar bilan individual va guruh mashg‘ulotlari);
- ✓ ota-onalar bilan ishlash.

Oila, bolalar, oiladagi jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlariga munosabat, an'analar, ota-onalar va bolalar bilan keyingi ish uchun ma'lumot to‘plash uchun ota-onalarni so‘rov o‘tkazish

Ta'lim, maslahat, diagnostika. Tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslari, shuningdek, erkin harakatlanish, yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlarining faoliyatini yaxshilaydi, tayanch-harakat tizimini mustahkamlaydi, metabolizmni yaxshilaydi. Ular bolaning kasalliklarga chidamliligini oshiradi va tananing himoya kuchlarini safarbar qiladi. Bola qanchalik xilma-xil harakatlarni o‘zlashtirsa, hissiyot, idrok va boshqa aqliy jarayonlarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar qanchalik keng bo‘lsa, uning rivojlanishi shunchalik to‘liq amalga oshiriladi. Shunday qilib, biz sog‘lom turmush tarzi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga harakat qilamiz.

Bizning bog‘chamizda bola nima qilishni tanlash imkoniyatiga ega, chunki... Buning uchun sharoit yaratib beramiz.Farzandlarimiz uchun polimer qoplamali stadion bunyod etildi, bu yerda bolalar jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar, aerobika bilan shug‘ullanib, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarmoqda. Hovli instruktorining futbol darslarini olib borishi ham biz uchun an’anaga aylangan. Bolalar zavq bilan o‘qib, har yili viloyat shahar tanlovlarida qatnashib, sovrinli o‘rinlarni egallab kelmoqda. “Kichik chavandozlar” loyihasi ham ishlab chiqildi. Loyihaning maqsadi bolalarning go‘zal hayvonlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish va muloqot qilish imkonini beradigan ot minish orqali bolalarning jismoniy va psixo-emotsional salomatligi edi. Bu bolalar, ota-onalar jamoasi va umuman, butun bolalar bog‘chasi hayoti uchun quvonchli voqea bo‘ldi.

Barcha tadbirlar sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘ziga va atrofimizdagi dunyoga ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratilgan.

Keyinchalik, ota-onalar o‘rtasida so‘rov va so‘rovlar o‘tkazildi, ularda jismoniy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi, o‘tkir respiratorli infektsiyalar va o‘tkir respirator virusli infektsiyalar sonining kamayishi qayd etildi.

Shunday qilib, innovatsion vositalarni izlash, bolalar salomatligi va jismoniy rivojlanishida tizimli ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish bolaning jismoniy va ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bolaning tabiat bilan uyg‘un o‘sishiga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Bogina T. Bolalar salomatligini mustahkamlash / T. Bogina // Maktabgacha ta'lim. – 1994. – N6. Zmanovskiy Y.F. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o‘quv-uslubiy va sog‘lomlashtirish ishlari.

2. Yu.F. Zmanovskiy // Maktabgacha ta'lim. – 1993. – N9. Kolesnikova T. Vospitanie u rebenka nezhnosti byt zdorovym [Sog‘lom bo‘lishi kerak bo‘lgan bola tarbiyasi].

3. T. Kolesnikova // Maktabgacha ta'lim. – 2007. – N1. Latokhina L.I. Qanday qilib sog‘lom jon va tana bo‘lish mumkin. /

4. L.I. Latokhina // Maktabgacha ta'lim. – 1999. – N10. Runova M. Bola sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash. / M. Runova // Maktabgacha ta'lim. – 1999. – N6

TURLI YOSH GURUHLARIDA HARAKATLI O‘YINLARNI O‘TKAZISH METODIKASI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yosh davridagi turli yosh guruhlarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi to‘grisida hamda harakatli o‘yinlarning bolalarni har tomonlara rivojlantirishda tutgan o‘rni, harakatli o‘yinlarni tashil etish bo‘yicha bolalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni, harakatli o‘yinlarning asosiy xususiyatlari, tarbiyachi pedagog va jismoniy tarbiya yo‘riqchisining harakatli o‘yinlarni bajartirish jarayonida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, harakatli o‘yin, mazmunli o‘yin, mazmunsiz o‘yin, aqliy rivojlanish, jismoniy rivojlanish, jamoa, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье речь идет о методе организации и проведения подвижных игр в разных возрастных группах дошкольного возраста, а также о роли подвижных игр в развитии детей во всех аспектах.содержание проводимой работы, основные особенности. подвижных игр, аспекты, на которые следует обратить внимание воспитателю и руководителю физического воспитания при реализации подвижных игр.

Ключевые слова: дошкольное образование, активная игра, осмысленная игра, бессмысленная игра, умственное развитие, физическое развитие, команда, ловкость, быстрота, выносливость, развитие.

Abstract: This article deals with the method of organizing and conducting outdoor games in different age groups of preschool age, as well as the role of outdoor games in the development of children in all aspects. The content of the work carried out, the main features. outdoor games, aspects that the teacher and head of physical education should pay attention to when implementing outdoor games.

Key words: preschool education, active play, meaningful play, meaningless play, mental development, physical development, team, agility, speed, endurance, development.

Bugungi kundagi barkamol avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalashning bir qancha o‘ziga xos uslublari mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy sog‘lomlashtirish, chiniqtirish hamda jismoniy faolligini oshirish, jismoniy va ruhiy holatini o‘rganish, sohada harakatli o‘yinlar ilmiy-pedagogik asoslari, 3-7 yoshli tarbiyalanuvchilarga asosiy harakatlarni o‘rgatish, 3-7 yoshlilar bilan harakatli o‘yinlarni tashkillashtirish jismoniy harakatlani va mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasini, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kunlik faoliyat jarayonida harakatli o‘yinlar bo‘yicha ishlarni tashkil etib borish vazifalarini bajarishni belgilab olish bo‘yicha ishlar tashkil etilmoqda.

Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va tarbiyachi o‘yin jarayoniga rahbarlik qilish metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi o‘yin faoliyatlarini samarali tashkil etilishining eng muhim sharti hisoblanadi. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish belgilangan dasturga asosan tashkil etiladi. Bunda har bir gruhning ish sharoiti inobatga olinadi, bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola salomatligining holati, individual xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, o‘yinni o‘tkazish o‘rni va shu bilan birgalikda bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq bosqichma-bosqich murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini inobatga olgan holda o‘zgartirib boriladi.

- **Kichik guruhda** mazmuni va qoidasiga ko‘ra sodda bo‘lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o‘yinlar tashkil etiladi. Bu o‘yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig‘ini tarbiyachining bevosita ishtirokida bajaradilar.
- **O‘rta guruhda** eng oddiy musobaqa usulidagi o‘yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o‘tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko‘nikmalrining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O‘yinning mazmuni va qoidalarini tushuntirishi pedagogdan chuqur tayyorgarligini talab etadi. Ba’zi o‘yinlarning mazmuni oldindan tashkil etiladigan suhbatlar asosida bolalarning bilimlarini aniqlashtirishi mumkin. Ularning dunyoqarashlari aniqlashadi, o‘yin obrazlariga nisbatan munosabat tarkib topadi. O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra xil-xil o‘tishi mumkin, ammo bu tadbir doimo emotsional jihatdan qiziqarli, bolalarni qiziqarli o‘yin jarayoniga tayyorlaydigan, o‘yinni tezroq boshlash istagini tug‘diradigan va o‘yin topshiriqlarini qiziqish bilan bajarishga undaydigan bo‘lishi lozim. Mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo‘lishi kerak. Tarbiyachi pedagog o‘yindagi harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhda buyumlarni mo‘ljallab, katta guruhlarda esa mo‘ljalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi. O‘yinning qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lgandan so‘nggina o‘yin hushchaqchaqlik va uyushqoqlik bilan tashkil etiladi. Musobaqa elementlari bor o‘yinlarni o‘tkazishda tarbiyachi o‘yinni tushuntirayotib qoidalarni, o‘yin usullarini, musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlar va yaxshi uddalashga ishonch bildirgan holda rag‘batlantiradi Tarbiyachi bolalarning jismoniy komoloti va o‘ziga xos individual xususiyatlarini inobatga olgan holda raqobatlashayotgan o‘zaro kuchlari teng guruhlar jamoalarni birlashtiradi; o‘ziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan birlashtiradi.

Tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo‘riqchisining asosiy vazifasi bolalar ko‘zi o‘ngida o‘yinning ko‘rgazmali manzarasini gavdalantirish, o‘yin obrazlarini aniq tasvirlash, bolalar tasavvuri va hislariga ta’sir ko‘rsatish, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik gruhlarda o‘yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin. O‘rta guruhlarda tanish bo‘lgan o‘yinni taklif etib, qoidalarini eslatib o‘tish ham maqsadga muvofiqdir. Katta guruhlarda esa o‘yin mazmuni eslashni bolalarning o‘zlariga qo‘yib berish lozim. Ulardan biri o‘yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab o‘tadi. Keyinchalik bolalar o‘zlari tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo‘riqchisining yordamisiz ham o‘yinni tashkil eta oladilar.

Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni hursand qilgan holda o‘yinga o‘zi kirishib o‘z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi. Shuningdek boshlovchi saylashni bolalarni o‘ziga xavola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so‘rashi mumkin.

Harakatli o‘yin jismoniy yuklarani kamaytiradigan xolga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin. O‘yin o‘z yakuniga yetgan vaqtda uni yakuniy xulosasini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta’sir etadi. Tarbiyachi va sport yo‘riqchisi o‘yinni baholashida uning ijobiiy tomonlarini ta’kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordami ko‘rsatgan ishtirokchilar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan aloqador harakatini ko‘rsatib o‘tadi.

Harakatli o‘yinlar bolalarni har tomonlara tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani o‘ziga jalb qiladi, ularda ijobiy hislarni uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar bola dunyoqarashini boyitadi, tevarak-atrofni anglashda o‘ziga xos vosita bo‘lib xizmat qiladi. Harakatli o‘yinlardagi qoidalar o‘yinning borishini belgilaydi, bolalar harakat faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy, irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordamchi vosita bo‘ladi. Har bir bolaning o‘yin qoidasini tushunishi va unga amal qilishida pedagoglarning rahbarligi muhim ahamiyatga egadir. O‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. O‘yin faoliyatida

diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tushuncha va mo‘ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o‘yinlar ijodiy hayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga fazoni idrok etish mexanizmini o‘zi ham juda takomillashadi. Harakatli o‘yinlar bolalarda oddiy vaqt mo‘ljalini ola bilishnni shakllantiradi.

Harakatli o‘yinlar bolalarda ijodiylikni rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. Bunda bolalar eshitgan ertaklari mazmuni asosida kichik o‘yinlar o‘ylab topishlari mumkin harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra estetik faoliyat hisoblanadi. Emotsional xushkayfiyat bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otada va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mutanosibligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur’atda bajarilishida namoyon bo‘ladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e’tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o‘yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko‘rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi. O‘yinda yuz beradigan turli vaziyatlar, harakatlar muskul tarangligi darajasining o‘zgarishi zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday aktiv harakat faoliyati bola qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan va muvozanatlashtirgan holda nerv tizimni mashq qildiradi, shuningdek kuzatuvchanlik, topqirlik, o‘zgaruvchan atrof-muhitda mo‘ljal olish qobiliyati, yuz bergan mushkul holatdan qutilish yo‘lini topish, tezda qaror qabul qilish va uni amalga oshirish, botirlik, chaqqonlik tashabbus ko‘rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni badantarbiya va faol jismoniy harakatlar bilan shug‘ullantirish, turli milliy va harakatli o‘yinlarni o‘rgatish: jismoniy tarbiya yo‘qriqchilari, murabbiylar va tarbiyachi pedagoglar zimmasiga yuklatiladigan muhim vazifadir. Farzand tarbiyasi va rivojlanishidagi bunday ahamiyatli jarayon bugungi kundagi dolzarb masaladir. Zotan jismonan sog‘lom rivojlangan yosh avlod kelajak bunyodkoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi T.: 2022.

2. Ashirova S. B. «Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyalari» o‘quv qo‘llanma «Fan va texnologiyalar ijodiy-matbaa uyi» T.: 2024.

3. Ma’murov B. B “Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma “Turon zamin ziyo” T.: 2014.

4. Usmanxodjayev.T.S, Isroilov. Sh.X, Pulatov.A.A Pulatov, Sh.A “Milliy va harakatli o‘yinlar” darslik T.: Iqtisod-Moliya 2015

5. Usmanxodjayev.T.S, A.A Pulatov, Tajibayev. S.S. Pulatov. F.A “Sport va harakatli o‘yinlar” Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent. 2018.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Узбекистан, Преподаватель кафедры ДО НГПИ
Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна
Студентка 2го курса НГПИ
Облокулова Милка Шухратовна

Аннотация: В современном обществе, родители, педиатры сталкиваются с большой проблемой кормления детей дошкольного возраста, посещающих детские учреждения. Дети, которые мало кушают — это не только проблема для всего организма, полноценного роста и развития, но и та проблема, которая скажется на состоянии и психологии ребенка

Они стараются не пробовать новые блюда, которые необходимы для растущего организма, безразличны к еде.

Цель исследования - изучить причины выборочного питания у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: пищевое поведение, пищевой интерес, прикорм, питание, кормление, еда.

Abstract: In modern society, parents and pediatricians are faced with the big problem of feeding preschool children attending child care institutions. Children who eat little are not only a problem for the whole body, full growth and development, but also a problem that will affect the condition and psychology of the child

They try not to try new dishes that are necessary for a growing body, and are indifferent to food.

The purpose of the study is to study the reasons for selective feeding in preschool children.

Key words: eating behavior, food interest, complementary feeding, nutrition, feeding, food, parents, preschoolers, problems, gadgets, violence, little ones.

Избирательный аппетит - новое понятие в педиатрии и нутрициологии. Детей с избирательным аппетитом называют «малоежками».

Почему же некоторые дети отказываются от еды в саду с упорством, достойным иного применения? По моим наблюдениям, в каждой группе есть 4–5 ребенка, о которых говорят: “Он очень плохо ест”. Это значит – очень избирательно: с трудом пробует новые блюда и никогда не ест то, что ему однажды не понравилось.

Как правило, эти дети и дома крайне капризны в еде, и родители мучаются с ними, так как их трудно накормить, просто приготовив что-то для семьи. Они постоянно требуют пищи, которая для них приемлема. В детском саду, как вы понимаете, это сделать невозможно.

По мнению врачей, настоящих малоежек среди детей не более 15-20% в зависимости от возраста, к школе их количество снижается до 7-9%. Малоежками принято считать детей, имеющих проблемы в потреблении основных групп продуктов. К этим продуктам отнесли мясные и молочные блюда, углеводистые продукты с крахмалом (крупы, макаронные изделия), овощи и фрукты. Малоежки потребляют из этого набора далеко не все продукты питания или потребляют их крайне мало.

Типы малоежек

Если разделить всех детей-малоежек на определенные группы с общими признаками поведения за столом, можно выделить три типа:

Малыши с крайне плохим аппетитом. Они не едят никакую еду, насыщаются буквально парой ложек.

Избирательные в питании дети. Отказываются от определенных групп продуктов за счет нескольких предпочитаемых блюд. Капризные, они наотрез отказываются пробовать любые новые блюда, требуя только привычные.

Дети, которые переживают страхи еды. Они боятся есть потому, что ранее у них закрепились с едой неприятные ассоциации (наказание, рвота, боли, удушье).

Разумеется, если ребёнок питается мало и несбалансированно, это может привести к проблемам со здоровьем. Но чем опасны такие проблемы питания? Дефицит нутритивных веществ приводит к замедлению темпов роста и прибавок веса. Это дети худенькие, бледные и малоактивные. Поступление ограниченного количества витаминов и минералов приводит к снижению иммунной защиты, естественно, такие дети болеют чаще других. Риск формирования хронических патологий у них выше, у организма нет резервов для борьбы с недугами. Как следствие, частые болезни и ослабленность могут привести к снижению умственной активности, познавательной деятельности и обучения. У малышей может страдать память, концентрация внимания и многие другие функции.

Гораздо легче предотвратить придирчивость в еде, чем бороться с ней, когда она укоренилась

Причин расстройства пищевого поведения у ребенка может быть много. Это и опыт, связанный с кормлением — когда кормят насильно, и перевозбуждение.

При обнаружении у ребенка расстройства пищевого поведения сначала нужно исключить другие болезни и состояния: гастроэзофагельно-рефлюксную болезнь, аллергию к белкам коровьего молока и целиакию, диафрагмальную грыжу, жестокое обращении с ребенком — детский абъюз, депрессию у матери, а также синдром Мюнхгаузена. Поэтому при наличии сомнений и тревог по поводу питания ребенка важно обратиться к врачу для исключения серьезных болезней, требующих лечения.

Основные причины отказа детей от еды. В основном связано с домашней средой. Первые дни в саду ребенок может плохо есть, но со временем ситуация наладится. Причинами является:

Неправильный прикорм
Привыкание к сладкому
Проблемы с ЖКТ
Принужденное кормление
Использование гаджетов во время корма
Неправильное дозировка
Несбалансированное питание
Отсутствие режима.
Нежелание нового продукта
Нехватка витаминов и минералов

Что делать?

Главное правило — не кормить насильно!

С помощью случайной выборки было опрошено 104 родителя, дети которых посещали либо государственный, либо коммерческий детский сад. Анкетирование было добровольным и анонимным. В работе использовали аналитический, сравнительный и описательный методы. По данным анонимного анкетирования, девочки составляют 43%, а мальчики – 57% в возрасте от 2-х до 7 лет. Большинству детей, в первые годы жизни, неправильно вводили прикорм. Родители не выполняли рекомендации врача-педиатра по вскармливанию. 42 ребенка охотно принимали новые вводимые блюда в меню согласно возрасту, 62 – отказывалась от них: овощного пюре (16%), кефира (19%), творога (40%), мясного пюре (11%), молока и желтка (13%). Из числа опрошенных, большинство детей стоят на учете у аллерголога

41 % (преимущественно по поводу пищевой аллергии: клубника, цитрусовые, белок коровьего молока и другие).

Большая половина детей (65%) отказывается от некоторых продуктов. В настоящее время дети не любят кисломолочные продукты, некоторые овощи, рыбные продукты. Нами проанализировано отношение детей к новой пище: 50% опрошенных –с удовольствием пробуют и едят новое блюдо, 30% – не поддаются уговорам попробовать новое блюдо, 20% – попробуют только после уговоров.

По результатам проведенного анкетирования значимыми причинами нарушения пищевого поведения у дошкольников являются несоблюдение сроков, правил введения прикорма. В данной проблеме необходима совместная работа педиатров, узких специалистов, родителей и их детей. Это говорит о том, что первый неправильный прикорм является основной причиной малоежек. Можно сказать, не хватает знания родителям о прикорме. Дети, которым прикорм вводился в возрасте 6 месяцев и старше имели меньшие риски проблем с питанием («малоежки», придирчивое питание) по сравнению с детьми, начавшими прикорм в период 4-6 мес.

Главная цель прикорма обеспечить ребенку постепенный переход от монопродукта к разнообразному питанию с целью удовлетворения возросших пищевых потребностей и обучить ребенка правилам поведения за столом, знакомство с пищей с семейного стола,

подчинение ребенка определенной семейной иерархии. Постепенно у ребенка появляется пищевой интерес.

Советуем 10 действий, которые вы можете сделать прямо сейчас, чтобы избежать придирчивости в еде. За веру в возможность того, что еда на самом деле может быть счастливой.

1. Способствуйте самостоятельному питанию. Младенцы инстинктивно знают, как есть. Если вы кормите исключительно нетекстурированной пищей с ложечки, постарайтесь ввести в рацион пищу, которую едят руками, к 9-месячному возрасту.

2. Не поддавайтесь желанию вытирать лицо и руки ребенка во время еды и позволяйте ребенку пачкаться во время самостоятельного кормления. Дети, которых слишком тщательно моют или которым не разрешают прикасаться к еде, могут вырасти, думая, что еда «грязная», и даже иметь внутренние реакции на прикосновение еды к их коже или одежде, даже если у них нет других проблем с обработкой сенсорных ощущений за пределами стола.

3. Установите график питания и придерживайтесь его. Следите за тем, чтобы основные приемы пищи не проводились сразу после перекусов или кормления грудью, из бутылочки.

4. Предоставьте возможность выбора: предлагайте небольшие порции различных продуктов (например, 2 белка, 2 овоща и т. д.) при каждом основном приеме пищи, подаваемые в одно и то же время. Если ваш ребенок хочет съесть только одно из них (часто это фрукты), подумайте о том, чтобы подавать эту еду во время перекуса, чтобы она не отвлекала внимание от основных блюд.

5. Проверьте свои эмоции за столом. Если ваш ребенок отказывается есть, не реагируйте и не оказывайте никакого давления. (И в том же духе не хвалите ребенка за то, что он ест.) Если ему отказывают в еде, дайте ему еще несколько минут или около того, а затем продолжайте свой день. Ничего страшного, если ваш ребенок решит не есть.

6. Каждую неделю вводите новые продукты. Убедитесь, что вы не попадаете в колею чередования одних и тех же продуктов каждую неделю. Продолжайте вводить новые продукты с разной текстурой одновременно со знакомыми продуктами. Если ваш ребенок не пробует новую еду с первого раза, продолжайте знакомить ее с ней. Некоторым младенцам и детям нужно много раз видеть новые продукты, прежде чем они почувствуют себя достаточно храбрыми, чтобы попробовать их.

7. Ешьте вместе с ребенком. Сидите с ребенком и, насколько это возможно, ешьте то, что он ест (даже если совсем немного). Если ваш ребенок ассоциировал время приема пищи с пребыванием вдали от вас, это повлияет на то, сколько он ест и как долго он готов оставаться на своем стульчике.

8. Делайте это весело, но не забывайте о еде. Младенцам не нужно отвлекаться, чтобы захотеть есть. (Те, у кого она есть, обычно просто привыкли к ней.) Сядьте с ребенком, поговорите о том, что вы едите (о, эта клубника такая сладкая!) и воздержитесь от использования книг, музыки, устройств или экранов, чтобы заинтересовать ребенка. есть.

9. Откажитесь от гаджетов. Если вы используете видео, телефон или iPad, чтобы успокоить ребенка за столом, остановитесь.

10. Симулируйте безразличие. Прежде всего, если вы расстроены из-за того, что ваш ребенок отказывается есть, не показывайте этого. Притворяться безразличным. Воздержитесь от того, чтобы показывать, что вы расстроены, вздыхать или проявлять какое-либо недовольство. Еда — единственное, что ваш ребенок может контролировать, и он все еще учится.

Список литературы

1.Проблемы современных малоежек в детских садах. Лещева М.Ю., Леднева В.С., Мошурова Л.В. ФГБОУ ВО «Воронежский государственный

медицинский университет им. Н.Н. Бурденко» Минздрава России

2. «Сначала суп, потом десерт», Мария Кардакова.

3. «Вкусно малышам. Учимся готовить для привереД», Мария Иванова.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA O‘YINNING AHAMIYATI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha kafedrasi o’qituvchisi
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna

Annotatsiya: Bugungi kunda chet tillarini ayniqsa ingliz tilini o‘qitish va o‘rgatish jamiyatimizda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lmish maktabgacha ta’lim muassasidan boshlamoq samarali natija beradi. Albatta bu jarayon maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘yin orqali o‘rgatiladi chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi o‘yin hisoblanadi.Ushbu maqolada bolajonlarda ingliz tiliga qiziqish uyg‘otish va rivojlantirish uchun didaktik o‘yinlar va bolajonlarda ingliz tilida gapira olish qobiliyatlarini rivojlantirish ahamiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, ingliz tili, bola, tarbiyachi pedagog, multimediya.

Аннотация: Преподавание и изучение иностранных языков, особенно английского, является сегодня одной из наиболее актуальных проблем в нашем обществе. Начало этого процесса с дошкольного образовательного учреждения, которое является исходным звеном образовательной системы, дает эффективные результаты. Конечно, этому процессу дошкольников обучают посредством игр, ведь основным видом деятельности дошкольников является игровое информирование.

Ключевые слова: игра, английский язык, ребенок, воспитатель, педагог, мультимедиа.

Abstract: Teaching and learning foreign languages, especially English, is one of the most pressing problems in our society today. Starting this process from a preschool educational institution, which is the initial link of the educational system, gives effective results. Of course, preschoolers are taught this process through games, because the main activity of preschoolers is game information.

Key words: game, English, child, teacher, teacher, multimedia.

Chet tillarni o‘rganishni yanada rivojlantirish maqsadida muhtaram prezidentimiz ko‘plab qarorlar qabul qildilar, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu qarorlarda maktabgacha ta'lim tizimi tarmog‘ini yanada rivojlantirish, bolalarni o‘qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta'lim muassalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan . Bugungi kunda ta’lim sohasini yanada rivojlantirish hukumatimiz diqqat e’tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda nafaqat maktab, litsey, kollej o‘quvchilari va oliy ta’lim talabalriga balki MTT tarbiyalanuvchilariga chet tilini, xususan ingliz tilini o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan. Bolani yoshlik chog‘idan boshlab ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib borish kerak. Bu orqali rivojlangan davlatlarning tillarini o‘rganish, jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashga erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga xorijiy tilni o‘rgatish ancha mushkul va ma’suliyatli vazifadir. Til o‘rganish yosh davrlarga bog‘liq jarayon hisoblanib,bolalar tilni kattalarga nisbatan tez va oson o‘zlashtiradilar.Maktabgacha yoshdagi bolalar so‘zlarni ma’nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydilar.

Bu borada ayniqsa, o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim yoshida o‘yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg‘uloti bo‘lganligi tufayli bola atrof olamni ham o‘yin orqali kashf etadi. O‘yin bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratishi kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o‘yindir. Bu mashg‘ulot bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga , atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta ko‘mak

beradi.Shu sababli ota-ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko‘proq o‘yin orqali o‘rganishni targ‘ib qilishlari kerak. Aynan o‘yin orqali bolalar ta’lim oladilar va o‘z iqtidorlarini kashf etadilar. Faqatgina ushbu shakl orqali siz ijobiy natijalarga erishishingiz va bolada chet tiliga nisbatan ijobiy musosabatlarini shakllantirishingiz mumkin. Ta’limiy o‘yinlar qo‘shiqlar kuylash, sher aytish, vidiolar tomosha qilish , qo‘l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o‘z ichiga oladi.Chet tilini o‘rgatishda bir xil metodlardan foydalanish bolada zerikish paydo qiladi. Ingliz tilini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyati shundaki,bola stolda o‘tirib kitob va daftarni varaqlamasligi kerak. Jarayon qiziqarli va bolalarni o‘ziga jalb qilishi kerak. O‘yin faoliyati eng sodda iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga yordam beradi. Chet tilini o‘qitishda o‘ynash ta’lim faoliyatiga zid emas balki u bilan organik ravishda bog‘liqdir. Bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish qobilyati sust bo‘lib, butun mashg‘ulot davomida etiborni jamlashi va egallab olishi qiyin. Shu sababli tarbiyachi bolalarni darsga jalb qilishi va moslashuvchan xona atmosferasini yarata olishi zarur. Guruhda tarbiyachi dars boshida tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda inglizcha qo‘shiqni va uning ohangiga mos ravishda biroz raqs tushadilar. Bu o‘z-o‘zidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo‘lishga va qo‘shiq so‘zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Tarbiyachi pedagoglar ta’lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini yaxshi bilishi va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnalogiyalardan foydalanib o‘rganish va o‘rgatish eng samarali usullardan biridir. Bu jarayonda jumladan kampyuterlardan foydalanganda bolalar chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni, kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin.

Bugungi kunda MTT da interfaol o‘yinlar orqali dars o‘tish an’anaga aylanib bormoqda . Ma’lumki mashg‘ulotning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish , diqatini jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishni taminlaydi.

Multfilmlar. Bolalar chet tilini o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushinishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o‘rganishda qiziq va samarali yo‘l hisoblanadi. Multimediya orqali o‘qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bundan bolaning qiziqishini yuqori darajaga ko‘tarish va ularning etiborini uzoq vaqt jalb qilib turish mumkin. Bolalar o‘rtasida musobaqalar juda ham muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg‘usini shakllantirib borish kerak bo‘ladi. Ana shundagina har bir bolada motivatsiya, tilga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi. Bolalarga chet tillarini o‘rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to‘g‘ri tushintirib borilishi darkor. Kichik yoshdagi bolalarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakdagi oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib hizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim jarayonidagi har bir inson rivojlanishi, ya’ni ularning kelajakda ona yurtga munosib farzand, kuchli shaxs bo‘lib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Chet tillarini o‘rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ularning malakali kadr bo‘lib yetishishi va jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo‘lib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshidagi bolalarga chet tilini o‘qitishda asosan o‘yin, rasmlar, qo‘shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardagi asosiy tushuncha miyasida rasmli holda tasvirlanadi. Bu esa o‘z navbatida bizdan barcha o‘rgatiladigan narsalarni shunga ko‘ra tasvirlashni talab etadi. Maktabgacha ta'limda hamda boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko‘p e’tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko‘proq o‘yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi. Bolalarni o‘qitish - bu maktab o‘quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o‘rgatishi mumkin degani emas. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak. Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o‘qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

•fonetik nuqtai nazardan to‘g‘ri takrorlash qobiliyati inglizcha so‘zlar o‘qituvchi, ona tili yoki ma'ruzachining orqasida, ya'ni eshitish diqqatini, fonetik eshitish va to‘g‘ri talaffuzni bosqichma-bosqich shakllantirish;

•inglizcha so‘z boyligini o‘zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;

•ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Til o‘rganish ham yosh davrlariga bog‘liqdir. Olimlar va psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o‘zlashtiradilar. Shuni e’tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shu sababli maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishni grammatik mavzulani o‘rganishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o‘rgatishning dastlabki bosqichdayoq qiziqishini so‘ndirib qo‘yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ingliz tilini mashg‘ulotlarini olib borganda har bir mavzuni juda qiziqarli tarzda olib borish lozim. She`rlar bilan, video rolliklar, multfilmlar, rang barang rasmlar bilan tashkil etilsa bolajonlarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi yuksalaveradi. Bundan tashqari bolalar bilan til o‘rganganda har bir bola bilan individualno savol javoblar o‘tkazish ham samarali natijaga erishishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ingliz tili mashg‘ulotlari jarayonida har bir metodik usullardan foydalansh lozim , albatta bolalarni yoshini hisobga olgan holda.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko‘p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tiziminboshqarishni takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiysini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi PQ-4312-sonli qarori.
3. M.Qodirova Maktabgacha Pedagogika.
4. Astafieva M.D. Holidays for children learning English. - M.: Mozaika-sintez, 2009.
5. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Theory and practice of teaching foreign languages. Primary school: methodological guide.-M.: Iris-press, 2004.
6. Guseva L.P. We play, teach, master - we want to know English. - Rostov n / a: Phoenix, 2009.
7. Zemchenkova T.V. English for preschool children. - M.: VAKO, 2008.
8. Ivanova M.V. English for children. - M.: AST: Astrel, 2009.

c. O‘tilgan mavzulardan ko’proq so‘rash, bu uladagi hayajoni yoqatadi, ulada yangi mavzuga ko‘nikma hosil bo‘lgunga qadar, biroz bo‘lsada yangi mavzuga nisbatan hayajon saqlanib turadi, buni yengib o‘tishga tarbiyachi kuchli yondashishi kerak [1, B. 27,32]. Maktabgacha yoshdagi bolalarga quyidagi yo‘llar bilan til o‘rgatish samara beradi.

- Qo‘shiq va she’rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo‘lgan, ma’noga ega bo’lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o‘rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo‘shiq qilib o‘rganishlari shunchaki yodlashdan ko‘ra samarali ekanligini ko‘rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar;

- multfilmlar; Bolalar til o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunma- sada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o‘rganishlari uchun samarali yo‘l.

- rol ijro etish (role play) o‘qituvchi biror ma’lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o‘rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o‘quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko‘rsatib bersa, boshqa bir o‘quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur.

- mavzuga oid muhit; O‘qituvchi mavzusiga qarab o‘sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o‘rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o‘qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma’lumot beradi. Bu hoi o‘quvchilarning so‘z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o‘stiradi.

- topishmoqlar; Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o‘qituvchi topishmoqni ingliz yoki o‘zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so‘zlarni tez o‘rganishadi.

- amaliy mashg‘uIotlar (mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni tatib ko‘rish, gullarni hidlab ko‘rish); Bu jumlani bir amaliyotchi psixologning fikrlari bilan izohlash mumkin: " Bolalarning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va, hatto, agar iloji bo’lsa, hidlash va ta’m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak». Masalan: o‘qituvchi bir o‘quvchining olmani tatib ko’rishi paytida uning rangi qizil (red) yoki yashil (green), ta’mi shirin (tasty) yoki nordon(sour), xushbo‘y (aromatic) hidi haqida ma’lumot berishi va boshqa o‘quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o‘sha meva haqida inglizcha ma’lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu hol bolaning keyingi o‘rganishlarida ham yordam beradi. O‘qituvchi o’quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so‘rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o‘quvchining ma’lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta’minlaydi.

- imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O‘qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel (come here), kitobni och (open the book), turing(stand up), doskaga qarang (look at the blackboard) kabi gaplarda imo- ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo‘ladi.

- ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali; ko‘zga ko‘rinadigan va kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish. Masalan: eshik (door), kitob (book), stol (table), doska (blackboard), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko‘zga tushib turishi va amliyotda ko‘p qo‘llanishi bois, bola bu so‘zlarni ixtiyorsiz tarzda o‘rganadi.

– yangiliklar orqali; Bilamizki, bolalar qiziquvchan. Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o‘tish emas, balki I bunday usullarni o‘zgartirib, yangilab dars o‘tish lozim. Aks holda bolalar o‘qituvchining qanday dars o‘tishini

fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko‘rishadi. Usullarni yangilab dars o‘tish bolalarning intilishlarini oshiradi [1, B. 18].

Shu o‘rinda mavzuyimizga hulosa yasab bir qancha tavsiyalarni berib o‘tamiz.

a. Xitoyda yangi ommaviy multimedia vositalari ta’lim sohasida keng qo‘llanilmoqda. Bugungi kunda o‘quv vositalari sifatida, Internet va multimedia texnalogiyalari bolalar bog‘chalarida samarali qo‘llanilib, kichik yoshdagi bolalarning ta’limiga yangi ko’nikmalarni olib kelmoqda. O‘zbekistonda bolalar bog‘chasida yangi multimedia texnologiyalari dasturni rivojlantirish hozirgi kunda eng muhim mavzudir. Raqamli texnalogiyalar maktabgacha ta’limning asosiy modelidir, bolalikdan boshlab sifatli ta‘lim asosida bolalarni tarbiyalash va o‘qitish zarur. O‘zbekistonda yangi ommaviy multimedia vositalarini bog‘chalarga tadbiq qilish, bu kelajak avlod chet tilini o‘rganishga katta hissa qo‘shadi.

b. Bolalik davrida insonining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng yaxshi vaqt deb hisoblash mumkin. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari bolalarning ehtiyojlariga (qiziqishlariga) asoslanib fanni qo’llashlari kerak. fikrlash mashqlari va aqliy rivojlantirishni yangi multimedia texnologiyalari yordamida, eshitish, rang bilish, shakl tanlash qobiliyatini shakllantirib borish zarur. Bolalarning tashqi axborotni qabul qilish qobiliyatini oshirish va ko‘p qirrali fikrlashini rivojlantirishga ko‘maklashish juda zarur.

c. Biz maktabgacha bo’lgan yoshdagi bolalarda chet tilida eshitish qobilyatining oqsoqligini ko’p uchratishimiz mumkin, bu bolalarning yetarli darajada eshitish darslarini egallamagini bildiradi. Real hayotda bolalalarimiz telvizor ostida animatsion multfilmni jimgina tamosha qilishlarini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda bog‘chalarning yuqori texnalogiyalar bilan taminlash vaqti yetib keldi. Ularga doimiy chet tillaridagi multfilm darslani eshitirish lozim, bolaning bo‘g‘cha davridan chet tili qobilyatini rivojlantirish uning keyingi bosqichda barcha bilimlarni yengil qabul qilishiga yordam beradi.

d. Bog‘cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko‘pgina ro‘llar ko‘pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo‘ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta’lim vositasi sifatida qo‘llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi [1, B. 68].

Hozirgi kunda ba’zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo‘lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo‘lib hizmat qiladi. Shuning uchun, o‘qitishda biz Amerika Qo‘shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya’ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki, bu bosqichda yosh bolalar o‘zlarining fikrlash qobiliyatlari va tilni qo‘llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o‘rganib boradilar, ayniqsa bu bosqichdagi yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, Masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun hizmat qiladi. Kichik yoshdagi bolalarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o‘rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to‘g‘ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko‘plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o‘rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo‘lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan — el biladi».

Adabiyotlar

1. A. David, J. Eggen, P. Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning. – USA: Cambridge. 2002. – 27 page. (A. Devid, J. Iggin, P. Kauchak. Metods fo tiching: Premouting student lo‘ning. – USA: Kembrij. 2002. – 27 peij)
2. Liu wang. Ertong xinglixue kaocha. – Pekin: Science. 2017. – 18 page. (Liu Vang. Irtong xinglixue kaocha – Pekin: Saens. 2017. – 18 peij)

3. Feng Wang. Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education. – Pekin: Early Childhood Educ. 2000. 68 page. (Feng Vang. Eplaying teknolodji tu Inkveyari-Beisd Lo‘ning in O‘rli Chayldhud Edukayshn. – Pekin: O‘rli Chayldhud Edukayshn. 2000.68 peij)
4. O.У. Хасанбоева, M.X. Тожиева, Ш.К. Ташпулатова, M.M. Пирмуҳаммедова, Р.Т.Акбарова, М.Ш.Нурматова, Н.М. Қаюмова, Н.М. Джамилова, Х.Сариев, И.А. Кулай. Мактабгача педагогика. – Т.: ИЛМ-ЗИЁ, 2006. – Б. 67. (O.U. Xasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Tashpulatova, M.M. Pirmuhammedova, R.T. Akbarova, M.Sh. Nurmatova, N.M. Qayumova, N.N. Djamilova, X. Sariyev, I.A. Kulay. Maktabgacha ta’lim pedagogika. – T.: ILM ZIYO, 2006. – B.67.)
5. Ш. Содиқова. Мактабгача педагогика. – Т.: Тафаккур бўстони, 2013. – Б. 84. (Sh. Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur bo’stoni, 2013. – B. 84.)
6. С.Х. Жалилов. Мактабгача ёшдаги болалар психологияси. – Т.: Файласуфлар, 2017. – Б. 357. (S.X. Jalilov. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – T.: Faylasuflar, 2017. – B. 357.)
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1997-йил 29-августдаги “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги Қонуни. (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 29-avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g‘risida”gi Qonuni.)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARGA O‘YIN FAOLIYATI ORQALI TA’LIM BERISH

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Yarova Gulhayo Fazliddin qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Bobomurodova Yulduz Rashid qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga o‘yin orqali ta’lim berish hamda bolalar hayotida o‘yin yetakchi faoliyat ekanligi haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yin faoliyati, o‘yin jarayoni, shaxs rivojlanishi, harakati o‘yin, sujetli o‘yinlar.

Annotation: This article discusses teaching preschoolers through play and that the game is a leading activity in children's lives.

Key words: game activity, game process, personality development, action game, plot games.

Аннотация: В данной статье рассматривается обучение дошкольников через игру и то, что игра является ведущим видом деятельности в жизни детей.

Ключевые слова: игровая деятельность, игровой процесс, развитие личности, игра-действие, сюжетные игры.

O‘yin - tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O‘yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san’at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo‘shilib kelgan. Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma-xil o‘yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta’kidlashicha, o‘yin o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim:

a) taasurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarining muhayyoligi;

v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti yetakchi faoliyati bu o‘yindir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkiloti uzluksiz ta’limning

birinchi qadami bo‘libgina qolmay balki faol ijodkor va ma’naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog‘ona hamdir. O‘yin bu bolani o‘zini va atrofdagi dunyoni o‘rganishga undashning tabiiy usulidir. O‘yin bolaning shaxsiyati, uning bilish ijtimoiy hissiy ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O‘yin maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. O‘yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Shuning uchun o‘yin do‘stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantiradi. Bolalar o‘z o‘yinlarida har xil kasblardagi kishilarni aks ettiradilar, bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilibgina qolmay, ularning ishlariga, mehnatiga bo‘lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O‘yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o‘zaro ta’sir etgan holda shakllanadi. O‘yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. O‘yin jarayonida bola shaxs faoliyati sub’ekti sifatida shakllana boshlaydi. Bolalarning o‘yin faoliyatlarini kuzatadigan bo‘lsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy hislarlari (kimning nimaga ko‘proq qiziqishi, qobiliyati irodasi temperamenti) yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Shuning uchun o‘yin bolalarning faoliyatlari individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vositadir. Sayr davomida harakatli o‘yinlarni, qurish – yasash o‘yinlarini tashkil etish foydalidir. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o‘yindan keng foydalaniladi, juda ko‘p o‘yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi. Harakatli o‘yinlar dastur talablari bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishi umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarini rivojlanishi har bir bola sog‘ligini axvoli o‘ziga xos xususiyatlari yil fasli, kun tartibi, o‘yin o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlari hisobga olinadi. O‘yin bolaning shaxsiyati, uning bilish ijtimoiy hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarni rivojlantiradi. O‘yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o‘zaro munosabati nutqi va ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanishga yordam beradi va uning motorikasi takomillashib boradi. O‘yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta’lim olish imkonini yaratadi. Ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi va eng muhimi o‘yin ta’lim olish jarayonini qiziqarli bo‘lishi uchun xizmat qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O‘yin har xil bo‘lishi mumkin – bolalarning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to‘laligicha erkin pedagogning minimal yoki to‘liq ishtirokisiz pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko‘rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘yin o‘ynash imkoniyatini ta’minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o‘yin o‘ynash imkoniyatiga hissa qo‘shish kerak. O‘yinlarni narsa va buyumlarni tasvirlovchi rasmlar orqali ham o‘tkazish mumkin. Bularga “ Bu narsa o‘zi to‘g‘risida nima deydi”, “Kim birinchi bo‘lib aytib beradi”. Bolalarni diqqatini rivojlanishiga qaratilgan qo‘g‘irchoq narsa va ularning shakli rangi to‘g‘risida “Qaysinisi bir xil” kabi o‘yinlarni tashkillashtirsa bo‘ladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodga o‘yinchoqlarning rang – barangligi va turli xil shakllari bola diqqatini tortadi va ularni xotirasida muhrlanadi. Bolalarni tabiat to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlash uchun “Hidiga qarab top”, “Mazasiga qarab top”, “Ushlab ko‘rib top” kabi o‘yinlarni o‘tkazish maqsadga muvofiq. Kichik yoshdagi bolalar bilan so‘zli o‘yinlar o‘tkazilmaydi. Katta va tayyorlov guruhlarda didaktik o‘yinlar o‘zining mazmun va g‘oyasi jihatdan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o‘yinlar ham o‘tkaziladi. Bolalarni aqliy vazifalarini bajarishga undaydigan o‘yinlar ham katta ahamiyatga ega. Bolalarni rang haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va aniqlash uchun quyidagi o‘yinlar o‘tkaziladi. Sharlarni rangiga qarab to‘plash, dumaloqni dumalatish, xalqachalarni ipga o‘tkazish, shu rangdagi dumaloqni dumalatish, kim mana bu rangdagi halqachani topa oladi kabilar. O‘yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko‘rinishi, ya’ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo‘ladi va shuning uchun o‘yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko‘rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o‘yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o‘z ifodasini topadi. Bola o‘yin faoliyatida maktab ta’limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlaming yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Bolalarga ta’lim – tarbiya berish maqsadida o‘yinni to‘g‘ri tanlay , unga to‘g‘ri rahbarlik qilish, daasturda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi. Psixoliklar o‘yinni maktabgacha yosh davrda yetakchi faoliyat deb hisoblaydi. Syujetli rolli – o‘yinlarda asosan o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti- xarakati

aks ettiradilar. O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan ta’lim faoliyatiga tayyorlaydilar. Syujetli rolli o‘yinlar bolalarda salbiy ijobiy harakterlarni o‘z harakatlari orqali ifoda etadilar. O‘yin bolalarning mustaqil erkin faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin faoliyati bilan birga ta’limiy mashg‘ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta’limiy mashg‘ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og‘zaki nutqni lug‘at boyligi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to‘g‘ri so‘zlashlikka o‘rgatish, bog‘lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo‘lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san’at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg‘ulotlarga qaratilgan bo‘ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta’limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi//Mualliflar: I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.-Toshkent, 2018.-59 b.
2. Shoista Sodiqova. Maktabgacha pedagogika (darslik) «Tafakkur Bo‘stoni»
3. Toshkent—2013. Tarbiyachi kitobi “Nutq o‘stirish ” Nasiba Erxonova, Zuhra Ro‘ziyeva 2021-yil.

UCHINCHI RENESANS DAVRIDA ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI

O‘zbekiston, Navoiy pedagogik kolleji
o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Safarov Sohibjon Zokirovich

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimlari va bugungi kunda ularda beriladigan e’tibor, zamonaviy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sherikchilik, xususiy bog‘cha, musiqa va raqs, sport zallari, shaxmat-shashka xonasi, mo‘jaz qo‘g‘irchoq teatri.

Аннотация: в данной статье представлена информация о системах дошкольного образования и внимании к ним сегодня, а также информация о современных организациях дошкольного образования.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, частный детский сад, музыкально-танцевальный зал, спортивные залы, шахматный зал, замечательный кукольный театр.

Abstract: this article provides information about preschool education systems and attention to them today, as well as information about modern preschool education organizations.

Key words: public-private partnership, private kindergarten, music and dance hall, gyms, chess hall, wonderful puppet theater.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish, malakali kadrlarni shu sohaga jalb etish, yetishib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash, buning uchun barcha imkoniyatlardan keng foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yurtboshimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror, farmon, farmoyishlar maktabgacha ta’lim sohasi rivojiga ulkan hissa qo‘shmoqda.

Fikrimizning dalili sifatida “2017-2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2016-yil 29-dekabrdagi P.Q-2707-son qarori, 2017-yil 9-sentabrda’’gi va boshqa bir qator qarorlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Sh.M.Mirziyoyev farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e’tiborga olib, maktabgacha ta’lim vazirligi’’ni tashkil etganligimiz, ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz va buning uchun 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurishimiz, ta’lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozimligi haqida qimmatli fikrlar bildirganlar.Yurtboshimizning so‘zlarida ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim sohaning ba’zi o‘rinlarda orqaroqda qolayotgan jihatlarini aniqlab, kamchiliklarni o‘z o‘rnida bartaraf etish kabi maqsadlar qo‘yilganligi yaqqol sezilib turibdi.

Maktabgacha ta’lim tizimida ro‘y berayotgan yangilanishlar maktabgacha ta’lim tashkilotsining barcha turlarida o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ,,2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2016-yil 29-dekabrdagi P.Q-2707-son qaror asosida sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ilk bor joriy etilib, bunda xususiy sektorlar soliq, boj to‘lovlarida, uzoq muddatli va maqbul shartlarda kreditlar olish kabi qator imtiyozlarga ega bo‘ladi. Bunday sa’y-harakatlar tufayli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hammabop narxlar ta’minlanilishi ko‘zda tutilgan.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotsining faoliyati ilgari ham mavjud bo‘lgan.1909-1910 yillardan boshlab xususiy bog‘chalar paydo bo‘la boshlagan. Bu bog‘chalarga 6 yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziyaga o‘qishga tayyorlangan. Xususiy bog‘chalarning boshqa bog‘chalardan farqi shunda bo‘lganki, xususiy bog‘chalar uylarda ochilar va tomomila ota-onalar ta’minotida bo‘lgan.Shu soha bo‘yicha ma’lumotga ega va chet tillarini biladigan o‘qimishli xonimlar tarbiyachilik qilishgan. Lekin mazkur bolalar bog‘chalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirgan xolos.

Bugungi kunda kelib davlat-xususiy sherikchilik asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tashkil etilayotganligi, ushbu tashkilotlarda hammabop narxlar ta’minlanishi inobatga olinganligi, quvonarli holdir. Masalan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 14-fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijalari tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda shu soha taraqqiyoti uchun olib borilishi zarur bo‘lgan bir qancha masalalar ko‘rib chiqildi. Shulardan biri davlat-xususiy sherikchilik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari borasida ham yurtboshimiz alohida to‘xtalib o‘tdilar. ,,Xususiy bog‘cha uchun yaxshi joydan yer, bino va imtiyozli kredit olib, qurilgan yoki ta’mirlangan binodan 1-2 yildan keyin boshqa maqsadda foydalanaman, degan «xomxayol» bilan yurgan «qo‘shtirnoq ichidagi tadbirkorlar» ham bor.Shu sababli hokimliklar xususiy bog‘chalar uchun yer va bino ajratish, banklar esa kredit berish to‘g‘risidagi o‘z qarorlarida bunday binolardan kamida 15-20 yil davomida bog‘cha sifatida foydalanish zarurligi to‘g‘risidagi shartlarni nazarda tutishi kerak”. Qarorda ko‘rsatib o‘tilganidek:,,O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2018-yilda o‘tkazilgan eksperiment yakunlari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Respublikaning boshqa hududlarida maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar kiritsin’’,- degan fikrlar ta`kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrda’’gi ,,Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qaroriga ko‘ra belgilab qo‘yilganki, 2018-yil 1-yanvardan boshlab

Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sherikchilik shartlarida, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutgan holda yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etiladi:

-zamonaviy-ijtimoiy, hammabop, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish maqsadida investorlarga yer uchastkalari, bo‘sh turgan binolar, shu jumladan, faoliyat

yuritmayorgan va tarbiyalanuvchilar soni kam bo‘lgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini beg‘araz ajratish;

-investorlarga maktabgacha ta’lim tashkilotlarini, ayniqsa shunday tashkilotlarga yuqori ehtiyoj mavjud va infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarda tashkil etish uchun zarur bo‘lgan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalarni, shuningdek imtiyozli kreditlarni taqdim etish imkoniyati;

-investorlar tomonidan vakolatli davlat organlari bilan 50 yil muddatga tuziladigan davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risidagi kelishuv asosida loyihani amalga oshirish;

-investorlar tomonidan davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risidagi kelishuvda nazarda tutilgan shartlarga, maktabgacha ta’lim sohasidagi davlat talablariga, sanitariya-gigiyena meyyorlariga qat’iy rioya etish, kelishuv va amal qilishining butun muddati davomida faoliyat yo‘nalishini saqlab qolish bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xizmati narxlari ijtimoiy hammabopligini ta’minlash va boshqalar.

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda ularni bekor qilish mexanizmlari kabi sa’y-harakatlarning dalili sifatida Qashqadaryo viloyatida xususiy sheriklik asosida barpo etilgan „Wunderkinds’’ maktabgacha ta’lim tashkilotsini keltirib o‘tishimiz joiz. Ushbu tashkilot ingliz tili va kompyuter bilimlarini chuqur o‘rgatishga ixtisoslashgan maktabgacha ta’limda bola shaxsini rivojlantirishga qo‘yiladigan davlat talablarining asosiy yo‘nalishlari qamrab olingan bo‘lib, ta’lim tashkilotsining har bir qavatidan kichkintoylarning intellektual, estetik va jismoniy salohiyatini o‘stirish uchun unumli foydalanilgan. Birinchi qavatda musiqa va raqs, sport zallari, shaxmat-shashka xonasi, mo‘jaz qo‘g‘irchoq teatri joylashgan. Ikkinchi qavatda ovqatlanish, tibbiyot xonalari mavjud. Uchinchi qavatda maktabga tayyorlov guruhi va kichik yoshdagi guruhlar uchun mashg‘ulot xonalari, 2 ta yotoqxona o‘rin olgan. Hovlidagi o‘yin maydonchasi turli attraktsionlar bilan jihozlangan. Ingliz tili va kompyuter bilimlarini chuqur o‘rgatishga ixtisoslashgan mazkur bog‘chada maktabgacha ta`limda bola shaxsini rivojlantirishga qo‘yiladigan davlat talablarining asosiy yo‘nalishlari qamrab olingan. Har bir qavatdan kichkintoylarning intellektual, estetik va jismoniy salohiyatini o‘stirish uchun unumli foydalanilgan. „Wunderkinds’’ maktabgacha ta’lim tashkilotsining tashqi tomondan ko‘rinishi ham har qanday bolajon e’tiborini tortmasdan qolmaydi. Bunday ajoyib, qulayliklarga boy, shinam maktabgacha ta’lim tashkilotlar keyinchalik faqtgina shahar yoki viloyat markazlarida emas balki, har bir tumanda ham tashkil etilishi ko‘zda tutilmoqda.

Xulosa o‘rinida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda maktabgacha ta`lim tizimiga e`tibor mustaqil diyorimizning ertasi, uning porloq kelajagi bo‘lgan e`tibordir.Bu o‘ringa mamlakatimizda faoliyat yuritayotga maktabgacha ta`lim tashkilotlarining o‘rni benihoya katta.

Foylalanilgan adabiyorlar

6. “Ta’lim to‘g‘risida”gi QONUN. T.: 2020 yil, 23-sentabr, 4-bet
7. “Maktabgacha ta`lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun T.:2019- yil, 16-dekabr, O‘RQ – 595-son.
8. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha [matn] / O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti – T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2017- yil, 190-b.
9. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2017 yil.
10. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika T.: 2019**.**

СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ГДОО НА ЗАНЯТИЯХ ИСОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНИКИ «ЭБРУ»

Узбекистан, Навоийской области г.Зарафшан,
методист ГДОО №15
Масимова Кунел Илясовна

Аннотация: В статье показана роль современных форм методической работы в воспитании и развитии современного дошкольника, определены особенности использования данных форм в работе воспитателя в центрах развития детей по государственной программе «Первый шаг».

Ключевые слова: Инновация, нетрадиционная техника рисования, «Эбру».

Annotation: The article shows the role of modern forms of methodological work in the education and development of a modern preschooler, and identifies the features of using these forms in the work of a teacher in child development centers under the state program “First Step”.

Keywords: Innovation, unconventional drawing technique, “Ebru”.

Результаты анализа современной научной литературы свидетельствуют, что условием развития творческого потенциала педагогов является инновационная деятельность. Методическая работа в дошкольном образовательном учреждении представляет собой целостную, основанную на достижениях науки, передовом педагогическом опыте, систему взаимосвязанных мер, направленных на повышение профессионального мастерства каждого педагога, на развитие творческого потенциала педагогического коллектива, на повышение качества и эффективности образовательного процесса.

Инновационную методическую работу определили как часть профессионально-педагогической деятельности, ориентированной на овладении педагогами новыми, инновационными способами профессиональной деятельности. Цель методической работы состоит, прежде всего, в развитии творческих способностей педагогов.

На наш взгляд наиболее целесообразными формами методической работы могут выступить современные инновационные формы работы с дошкольниками. Одним из таких методов является техника «Эбру» (рисование на воде или молоке). Суть создания рисунка в технике Эбру сводится к процессу нанесения его сначала на воду или молоко а затем перенесение на бумагу и др. поверхности. Набор для рисования в технике Эбру можно приобрести в любом художественном магазине. Если у вас нет в наличии специальных красок и загустителей для воды то можно использовать обычное молоко. Для создания более выразительной и необычной картинки следует брать молоко большей жирности, а чтобы рисунок ожил и начал даже передвигаться по поверхности, в молоко необходимо добавить несколько капель жидкости для мытья посуды или клей ПВА. В качестве красок можно использовать обычную гуашь, разбавленную водой. После того как на поверхность жидкости наносятся краски, они создают тоненькую разноцветную плёнку и с помощью кистей либо специальный приспособлений (шпажки, гребни и т.д.) можно перемешать краски , создавая необычные узоры и оригинальные орнаменты. После того как на поверхности воды будет сложена определённая картина, её аккуратно переносят на основу (бумагу, тканьи т.д.) Рисование в технике Эбру – очень увлекательное и совершенно несложное занятие, которое отлично развивает фантазию и чувство цвета. Во время смешивания красок получается непредсказуемые орнаменты и рисунки, которые скорее напоминают узоры на природных минералах либо оперение экзотических птиц, чем результат творчества. Попробовав лишь однажды поэкспериментировать в освоении этого искусства, вы приобретёте хобби, которое внесёт в вашу жизнь новые яркие краски. Это даёт толчок для творчества, проявления самостоятельности, инициативы, выражению индивидуальности. Развивает цветовосприятие, внимание, память, моторику рук, терпение и выдержку. Рисование в данной технике полезно для неуверенных в себе детей, у которых не очень получается творческая работа привычным способом.

Список литературы

1. Попова Е.Д. «Развитие творческих способностей у детей 4-7 лет посредством нетрадиционной техники эбру.2022г
2. Лахути М.Д. «Как научиться рисовать» .2021г
3. Иванов В.И. «О тоне и цвете».2021г.

MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR (Tarbiyachilarga uslubiy tavsiyalar)

O‘zbekiston, Navoiy shahar 3-DMTT uslubchisi
Nurmamatova Mashhura Axtamovna

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida qator islohotlar o‘tkazilmoqda, ularning barchasi kelajak avlodimiz bo‘lgan bolalar va tarbiyachi-pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot oqimining tez o‘sishi, yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ularning imkoniyatlari - bularning barchasi yosh avlodning intellektual rivojlanishiga o‘z talablarini qo‘yadi. Ta‘lim muhitini axborotlashtirishning hozirgi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, avvalambor, ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga aynan axborotli muhit juda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Shu sababdan ta‘lim sohasining boshlang‘ich bo‘gi‘ni maktabgacha ta‘lim yoshidan boshlab bolalarni multimediali jarayonga olib kirish, maktabgacha tadimda AKTdan foydalanish, bolalarlarda bilim olishga qiziqish uyg‘otishda va qisqa muddatda ko‘proq informatsiya olishiga o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta‘lim amaliyotida AKTdan foydalanish asosan quyidagicha amalga oshiriladi:

- Ta’limiy faoliyat uchun illyustratsion va qo‘shimcha materiallarni tanlash;
- bayramlar va boshqa tadbirlarning ssenariylari bilan tanishish;
- masofaviy shaklda tajriba almashish;
- davriy electron nashrlar bilan tanishish,
- raqamli kameralar va fotosuratlarni tahrirlash dasturlaridan foydalanish;
- maktabgacha ta‘lim tashkilotida ish yuritishda kompyuterdan foydalanish asosida turli xil ma‘lumotlar bazalarini yaratish;
- elektron pochta va sohaga oid saytlar xizmatidan foydalanish;
- turli professional tanlovlarda ishtirok etish;
- aqlli gadjetlardan foydalanib, tadimni axbotot olamidagi yangilklar asosida tashkil etish;
- Power Point dasturida prezentatsiyalar, portfoliolar yaratish.

Maktabgacha ta’lim tashkilolarida Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan kompyuterlar, prezentatsiya-slaydlar, televizor, elektron doskalar yordamida namoyish etiladigan materiallar asosida bolalarga matematik bilimlar berishda asosiy mavzu sifatida geometrik shakllar, sanoq, vaqt va fazoviy tushunchalar, mo‘ljal olish, miqdor va matematik munosabat, o‘lcham kabi mavzular tanlanadi. Mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda ko‘rsatma-qo‘llanmalarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda ham, bolalarni dastlabki umumlashtirishlarga keltirish (qo‘shni sonlar orasidagi bog‘lanishlar va munosabatlar, «teng», «ortiq», «kam», «butun», «qism») borasida ham ko‘rsatmalilik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hamma mashg‘ulotlarda kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlar, o‘yinchoqlar, tabiiy materiallardan keng foydalaniladi. Hamma bolalar o‘yinchoqlar bilan o‘ynashlari uchun o‘yinchoqlarning tasvirlari ko‘p miqdorda tanlanadi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida turli narsa va buyumlarni tasvirlashdan

oldin uning turli ko‘rinishlarini ekranda namoyish qilish bolada o‘zgacha tasavvur uyg‘otadi. Tabiat va uning hodisalarini o‘rganish, tevarak-atrof bilan tanishish, nutq o‘stirish bilan bog‘liq faoliyatda aqlli gadjetlarning o‘rni beqiyos. Xususan, bolalarga notanish bo‘lgan muhitni aks ettirish va unga munosabatni tarbiyalashda turli dasturlar: virtual borliq, gologramma, youtube, AR dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy vazifa, tarbiyachining ushbu dasturlarni to‘liq qamrab olishi va kerakli vaqtda ulardan foydalanishni bilishi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, bolalarga oz ona tilida so‘zlashish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida so‘zlovchi alifbo, so‘zni top, bu qaysi ertak kabi o‘yinli mashqlar taklif etiladi.

O‘yin - mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli o‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Psixologlar ta‘kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘lishi lozim.

Kompyuterli o‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlanishi lozim.

Ular quyidagilar.

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Shuni ham inobatga olish zarurki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qanchalik ijobiy, ulkan potensialga ega bo‘lishidan qat‘iy nazar, ular tarbiyachi va bola o‘rtasidagi jonli aloqaning o‘rnini bosa olmaydi va almashtira olmaydi. Buning uchun multimediali vositalarni tanlash va qo‘llashda quyidagi talablarni amalga oshirish zarur:

- Monitor suyuq kristalli yoki plazmadadan iborat bo‘lishi ma‘qul.
- Bolada ko‘rish qobiliyatini buzilishidan saqlashga qaratilgan o‘yinlardan foydalanish kerak.
- Muntazam ravishda ko‘zlar uchun mashqlar olib borilishi: mashg‘ulotda vaqti-vaqti bilan har 1,5-2 daqiqada bolaning ko‘zini monitordan siljitish uchun mashg‘ulot davomida faoliyat turini o‘zgarish ham muhimdir.
- Frontal mashg‘ulotlar uchun proektoridan foydalanib, ekrandan bolalargacha bo‘lgan masofa 2 - 2, 5 metrni tashkil qilishi lozim.

Kompyuterda innovatsion didaktik o‘yinlar taqdimotini tayyorlash. Maktabgacha ta‘lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishning yuqori darajaga ko‘tarilishiga olib keladi. Bolalar obrazli madumot turini egallab boradilar, ta‘lim faoliyatining samarasi uchun tarbiyachining ishini qulaylashtiradi. Xususan, “Farqini top”, “Yil faslini top” “To‘g‘risini tanla”,“Labirint” o‘yinlarini yaratish hamda kompyuter vositasida innovatsion didaktik o‘yinlar taqdimotini tayyorlash zarur.

“Farqini top” o‘yinida bolalar rasmga qarab frontal tarzda mahsulotlarning turini umumlashtirib, ulardan shu to‘plamga tegishli bodmaganini topishi va fikrini izohlab berishi lozim. Dastlab mavzu materialiga mos rasmlar tanlanib, ekran monitorida taqdimot slaydi yoki grafik dasturlar yordamida oldindan tayyorlanib, bolalarga namoyish etilishi kerak. Bunda to‘g‘ri javobni aytgan bolalar rag‘batlantiriladi. Qolganlar esa, to‘g‘ri javob orqali yangi madumotni egallaydilar. Masalan:



1-rasm. „Farqini top“ o‘yini

Ushbu o‘yin faoliyati davomida kompyuter vositalaridan foydalangan holda bolada nazariy fikrlash, rivojlangan tasavvur, harakat natijasini bashorat qilish qobiliyati, fikrlash fazilatlari va boshqalar rivojlanadi va ijodiy qobiliyatlarning keskin o‘sishiga olib keladi.



2-rasm. “Yil faslini top” o‘yini.

“Yil faslini top” o‘yinda monitorda fasllar ko‘rinishi aks ettiriladi. O‘yin mashqida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolaning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Uni qodlash bilan rivojlanayotgan faoliyat yanada yorqinroq va jadalroq bo‘ladi. Fasllar bilan tanishtirishda kompyuterli texnologiyalardan foydalanish ta‘lim jarayonini jozibali va chinakam zamonaviy qilishga, aniqlik asosida kognitiv va ijodiy vazifalarni hal qilishga imkon beradi. O‘yinda bolalar yilning to‘rt fasllarning nomlarini to‘liq aytadilar. Nima sababdan ular turlicha bodishi, bunga ob-havoning ta‘siri haqida tarbiyachi monitorga qarab gapiradi.



3-rasm.”To‘g‘risini tanla” o‘yini

Bu o‘yinda tarbiyachi dastlab bolalar diqqatini monitor ekraniga qaratadi. Ekranda aks etgan hayvonlar, ularning bolalari bilan bolalarni tanishtiradi. Bolalarga har bir hayvon ro‘parasiga uning bolasi turishi kerakligini aytadi. Rasmdagi hayvonning ro‘parasiga uning bolasini qo‘yish uchun nima qilish kerakligini so‘raydi. Bolalarga strelkalar yordamida ularni birlashtirishni aytadi.

Keyingi vazifa har bir hayvonning uyini topish vazifasi bo‘lib, strelkalar yordamida ularga uyini topishga yordam berish vazifasi qo‘yiladi. Bunday o‘yinlar o‘g‘zaki ravishda tashkil etilsa, natijasi unchalik samarali bo‘lmaydi. Ekran namoyishi orqali bolalarning diqqati, tasavvuri va tafakkuri yanada samarali rivojlanadi.

Birgalikdagi tashkiliy faoliyat uchun ta‘limiy materialni tayyorlash va taqdim etishning eng muvaffaqiyatli shakllaridan biri taqdimot prezentatsiyalarini tayyorlashdir. Bunday rangli tasvirlar madumotlarni idrok etish va o‘rganish jarayonini *osonlashtiradi:* »Men eshitdim - va unutdim, ko‘rdim - va esladim».



Tarbiyachi predmetli to‘plamlar (illyustratsiyalar, fotosuratlar, videokliplar, modellar va ularni katta ekranga proyeksiyalash) dan foydalanishi mumkin. Madumotlarni ekranda o‘yin uslubida namoyish qilish bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi va harakatlar, ovoz, animatsiya uzoq vaqt davomida ularning xotirasida saqlanadi. Bunday o‘yinlar mashg‘ulotlarni xilma-xil qilishga, ularni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Har bir o‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta‘lim malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma‘naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, o‘xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, axborot vositalari orqali tashkil etiladigan o‘yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o‘yin metodikasi, soha xususiyati, o‘yin muhiti bo‘yicha tasnif qilingan. Bular yordamida o‘yinning mazmuni, shakllanishi bolalarga shunga mos malaka va qobiliyatlar shakllantirishga, ularni ijodiy fikrlashga, yaxlit idrok qilishni rivojlantirishga hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.
5. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste‘dod, 2008.
6. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste‘dod, 2010.
7. Olimov Sh.Sh., Samiyeva SH.X., Aslanova N.X., Ro‘ziyev F.J. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va metodlari Buxoro-2022.

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI VA OILADA MA’NAVIY-AXLOQIY, FUQAROLIK-VATANPARVARLIK TARBIYASI

Navoiy davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi K.F.Qodirova
NavDPI 2 kurs (sirtqi) talabasi Sh.A. Ismatova

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni yuksak axloqli qilib tarbiyalashda tarbiyachi oldida turgan vazifalar haqida so'z yuritilgan. Bolalarni ilk yoshdan boshlab mehr-muruvvatli qilib voyaga yetkazish, milliy istiqlol goyasini ular ongiga singdirish masalalari yoritilgan. Tarbiyachi oldida turgan vazifalarni hal etish usul va metodlari ko'rsatilib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, istiqlol, milliy g‘oya, axloq me'yorlari, Vatan, ertaklar, pedagogik texnologiyalar, o'yinlar, rivojlantirish.

Annotation. The article talks about the tasks of educators in raising children in preschool educational institutions with high morals. The issues of raising children with kindness from an early age, inculcating the idea of national independence into their minds are covered. Methods and methods of solving the tasks facing the educator are shown and recommendations are given.

Key words: educator, independence, national idea, moral standards, Motherland, fairy tales, pedagogical technologies, games, development.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy istiqlol sharofati tufayli turli jabhalarda har tomonlama qaror topayotgan imkoniyatlar jamiyatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, umuminsoniy qadriyatlar tizimida shaxs omiliga qo'yilayotgan ma'naviy axloqiy, jismoniy va har tomonlama barkamollikni tarbiyalashni taqozo etadi.Darhaqiqat, bugungi kun tarbiyachilari zimmasiga har tomonlama barkamol, fidoiy, komil hamda mehr - muruvvatli insonlarni tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Komillikni har bir inson o'zicha tushunadi va turli yo'llar bilan unga erishishga intiladi. Shuning uchun ham inson komillikka yetaklovchi muhim omillarni falsafiy idrok etishi va anglashi nihoyatda muhimdir. Insonlarni komillashib, o'zligini anglashi bunyodkorlik, fidoyilik ishlarini amalga oshirish, ezgu maqsadlar yo'lida mehr -muruvvat ko'rsatishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.Yangi davr bolasini tarbiyalovchi zamonaviy tarbiyachi har tomonlama yetuk, bazaviy va zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, bolalarga mehribon yoki mehr-muruvvat namunalarini ko'rsataoluvchi pedagog bo'lishi darkor. Ayniqsa, bugungi kun bolalari o'ta ziyrak, ijodkor, teran fikrlovchi va har tomonlama rivojlanishda jadal. Tarbiyachi bo'lishning o'zi mashaqqatli va mas'uliyatlidir, chunki bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda tarbiyachining o'z faoliyatiga tizimli yondashishi samarali natijaga olib keladi, ya'ni yosh avlodni barkamol bo'lishi garovi bo'ladi. Tarbiyachi, avvalo, ma'naviyatli bo'lishi, o'zining yuksak ma'naviyati bilan nafaqat bolalarga, balki ularning ota-onalariga o'rnak bo'la olishi muhim hisoblanadi. Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Demak, tarbiyachi ruhan pok, irodasi baquvvat, iymon-e'tiqodli, qalbi mehrga to'la bo'lishi, insonlarni yaxshilikka yetaklay oladigan bo'lishi eng muhim talablardan biri. Tarbiyachi qanday axloqiy xususiyatlarga ega ekanligi bolalarda o'z aksini ko'rsatadi. Bolalarni tarbiyalash va ularga bilim berishda, avvalo, ular shaxsini hurmat qilish orqaligina hurmat topish mumkin. Bundan tashqari, buyuk mutafakkir Ya.Raynis aytganidek, "...avvaliga biz bolalarimizga o'rgatamiz. So'ngra o'zimiz ulardan o'rganamiz. Kimki buni xohlamas ekan, o'z davridan orqada qoladi".

Tarbiyachilarningvazifasi ularni mashg‘ulot jarayoniga qiziqtirib, bolalarni yuksak axloqli. mehr - shafqatli, mehr - muruvvatli qilib tarbiyalashdir. Buning uchun milliy urf - odat, xalq og‘zaki va yozma ijodi, alloma va donishmandlar merosi va ertaklardan foydalanish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr-shafqat hislatlarini shakllantirishda Vatanni, uning insonlarini qadrlash, uni sevish, unga mehr - muruhabbat ko'rsatish, mamlakat barqarorligini, osoyishtaligini saqlash, ona yurt dovrug‘ini butun olamga yoyish kabi xususiyatlar kamol toptiriladi. Bundadastur talablariga ko'ra:

-Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ona Vatan, ona diyor, uning insonlari, turmush tarzi haqidagi bilimlarini kengaytirish;

-Vatanga, ona yurtga, insonlarga mehr - oqibatli, mehr - muruvvatli, mehr - shafqatli bo'lish, boshqa xalqlarga hurmat tuyg‘ularini ifodalovchi badiiy adabiyotlardan ko'proq foydalanish;

"Bolalani mehr -muruvvatli qilib tarbiyalshda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rnini ham alohida ta'kidlash mumkin. Tarbiyachi har bir mashg‘ulotida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi, audio, video va multimedia vositalariniqo'llashi orqali ham erishish mumkin. Hozirda tarbiyachilar samaralibolgan"Aqliy hujum", "Klaster", "3x4", "Zinama-zina", "Muammo", "Akvarium", "Doira", "Sehrli xaltacha", "Tangram", "Triz" kabi zamonaviy metodlardan o'rinli qo'llab maqsadga erishib kelmoqdalar. Masalan, «Doira» usuli bunda bolalar doira shaklida o'tirib, turli harakatli mashqlarni bajaradilar, bolalarni qator qilib o'tkazish usulidan qulay tomoni shundaki, hech bir bola o'zini ajratilganligini, ya'ni kimdir orqada, kimdir oldinda ekanligini sezmaydi. Har bir bola tarbiyachi nazari va e'tiboridan chetlanib qolmaydi. Hamma o'zini «teng» his qiladi. Bolalar bir-birlariga qarab mehr va do'stlikni, bir xildagi e'tiborni ko'radi. Bu ham ularda yonidagilarga, atrofdagilarga, tarbiyachilariga, oila-a'zolariga va vataniga bo'lgan mehr kurtaklarini shakllantirib boradi. Mashg‘ulotlarda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar rang-barang, bir-birini takrorlamaydigan, qiziqarli bo'lishi har tomonlama axborotlar

oqimiga ega bo'layotgan farzandlarimizni jalb etish, qiziqtira olish imkonini beradi.Har kimning o'z xonadoni, uy-joyi, o'z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligini o'zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi. Vatan ham, vatanga muhabbat to'yg‘usi ham ilohiy ne'mat bo'lib, butun qontomirlarida shu tuyg‘u jo'sh urgan insonda vatanfurushlik, vatangaxiyonatdekjirkanch yo'l hech qachon bo'lmaydi. Vatan muqaddasdir. Undan qimmat, undan aziz, undan shirin, undan ulug‘ ne'mat, boylik yo'qdir. Shu boylikni qadrlagan, undan cheksiz faxrlangan insongina oilasi, xalqi, atrof muxiti, jamiyatiga mehr-muhabbatli bo'ladi. Inson ona uchun kanchalik jonfidolik qilsa, Vatan uchun xam shunchalik qayg‘uradi, uni ardoklaydi, sevadi, avaylab-asraydi, turli ofatlardan, dushmanlardan qo'riqlaydi. Kerakbo'lsa, Ona-Vatan uchun jonini qurbon kiladi. Munis va mo"tabar Ona insonni shu yorug‘ dunyoga keltirsa, Vatan uni hayot belonchagida o'stiradi, ulg‘aytiradi, shaxsni shaxs sifatida namoyon etadi. Shu boisdan inson uchun Ona - Vatandan ulug‘roq, mo"tabarroq, qimmatliroq makon yo'q. Xalqichida Ona degonda - Vatan, Vatan deganda esa Ona tasavvur etilishida ham majoziy mabno bor. Ba'zi bir sabablarga ko'ra, o'zga yurtlarda yashayotgan vatandoshlarimiz ham «Ona-yurtim», «Ota-yurtim», «Kindikqonim to'kilgan yurt» deb faxrlanadilar. Bolalarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni bolaning maktabgacha yosh davridan boshlash ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir.Shunday qilib, Vatan muqaddasligini saqlash, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan xalq, davlat, mamlakat rivojiga ulkan ulush qo'shish har bir fukaroning jamiyat, kelajak avlod oldidagi burchidir. Bu burchni halol, pok, fidoyilik va jasorat bilan bajargan insongina haqiqiy vatanparvar bo'la oladi. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvatlilikni shakllantirish tarbiyaning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun ham maktabgacha yoщdaga bolalar tarbiyasida eng avvalo ularning ruhiy jarayonlarini o'stirish, rivojlantirish va takomillashtirib borishga yordam beruvchi omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Vatan, vatanparvarlik, insonparvarlik va insonda mehr tuyg‘ularining naqadar yuqori tuyg‘u ekanligi va unga sodiq bo'lib qolish, islom diniga e'tiqod qiluvchi har bir mo'min — musulmon hayotining mazmuni ekanligining alomalarimiz asarlarida qayd etilgan. O'zbeklarning urf-odatlari bo'yicha, o'zi yashab turgan joy muqaddas hisoblanadi. Bu muqaddas tuproqqa nisbatan yovuz niyat, yomon so'z aytilmaydi.Vatan, yurt, millat tushunchalari ulug‘vor tushunchalar bo'lib, hamisha mehr-muxabbatdan quvvat oladi. Shu jihatdan qaraganda bu tuyg‘ular egizak - qondoshu jondoshdurlar.Bu his tuyg‘ularni yosh murg‘ak yuragida uyg‘atish, uni rivojlantirish va takomillashtirib borish barcha maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari faoliyatlarida, ota-ona, maxalla fuqarolari va xokazolarning muqaddas burchlari hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T. Ma'naviyat2008y.
2. MahkamovU. Axloq -odobsaboqlari. -T.: Fan, 1994. -134b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATNPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Navoiy viloyati Karmana tumani
24-DMTT tarbiyachisi
Valiyeva Nasiba Boboyor qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Vatanparvarlik tuyg‘usi eng oliy tuyg‘u ekanligini bolalarga yoshligidan singdirish zarurligi va borada olib boriladan asosiy omillar haqida bayon qilingan.

Abstract: This article discusses the formation and development of patriotic feelings in preschool children. The need to teach children that patriotism is the highest feeling from a young age and the main factors to be carried out in this regard were described.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование и развитие патриотических чувств у детей дошкольного возраста. Описана необходимость с раннего возраста приучать детей к тому, что патриотизм – высшее чувство, и основные факторы, которые необходимо осуществлять в этом отношении.

Kalit so‘zi: vatanparvarlik tuyg‘usi, mexr, oila, pedagogik jarayon, milliylik, tabiat.

Key words: patriotism, kindness, family, pedagogical process, nationality, nature.

Ключевые слова: патриотизм, доброта, семья, педагогический процесс, национальность, природа.

Tarbiya mukammal va tizimli jarayon bulib u o‘ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki borliqni hali his qilib ulgurmagan, dunyo haqida hech qanday tushunchaga ega bo‘lmagan vujud uchun hamma narsa yangilk hisoblanadi. Bola uchun dunyoni qanday tariflasangiz, o‘rgatsangiz uning tasavvurlari shu asnoda shakllanib boradi. Shunday ekan bolaga to‘g‘ri tarbiya berish, ijobiy tuyg‘ular: rostgo‘ylik. mehnatsevarlik, do‘stlik, vatanparvarlik kabilarni shakllantirish lozim. Bunday tuyg‘ular ichida vatanparlik eng oliy tuyg‘u hisoblanadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi avvalo o‘z uyiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usidan boshlanadi . Biz bolalarda uyga, oilaga, do‘stlarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga intilamiz va vaqt o‘tishi bilan bu o‘z vataniga mehr va muhabbat tuyg‘usi bilan to‘ldirilishiga ishonamiz. Bolaning vatanparvarlik tarbiyasi murakkab pedagogik jarayon. Bu jarayonda bolaning yaqinlari bilan bir qatorda tevar atrof, muhit, faoliyat ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalarga vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va singdirish uchun:

- Buyuk ajdodlar , siymolar bilan tanishtirish va ularga nisbatan faxr tuyg‘usini his qildirish;
- Tarixiy qadamjolar, milliy meroslar bilan tanishtirish;
- Milliy urf –odatlar bilan tanishtirish ;
- Milliy o‘yinlar va san’at namunalari bilan tanishtirish;
- Milliy bayramlar , an’analar bilan tanishtirish;
- Millatlar aro hamdo‘stlik ruhida tarbiyalash;
- Milliy taomlar va milliylikka aylangan buyum-jihozlar (so‘zani, paranji, kashta uy qoshi…) bilan tanishtirish;
- Milliy liboslar, taqinchoqlar bezaklar bilan tanishtirish;
- O‘z ona tilini chuqur o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Makatabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan faoliyatlar, mashg‘ulotlat jarayonida ham bolalarga vatan tuyg‘usi singdirib boriladi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI 2-bobi davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalarida:

-milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;28 masalalari aniq belgilab qo‘yilgan. Shuningdek “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha sentabr oyi “O‘zbekiston – mening Vatanim”[29] deb nomlanishi va shu nom ostida hafta mavzularining yoritilishi bolalarda vatanparvarlik hissini yanada oshirishga hizmat qila oladi desak mubolag‘a bulmaydi.

Mashg‘ulotlar va foliyatlar jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda turli hil vatan madhi aks etgan rasmlar, kuy-qo‘shiqlar, she’r, hikoyalar, videoroliklar namoyish etish natijasida yanada mustahkamlanadi. Pedagog kichik guruhdan boshlab bolalarda jonajon o‘lka tabiatiga muhabbat o‘yg‘otishi, uning go‘zalligini his etish paytirish istagini uyg‘otib borishi lozim. Buning uchun u bolalar bilan bog‘larga, polizga, issiqxonalarga, paxta dalasiga, gulzorga, daryoga, pillaxonalarga, tovuqxona, fermalarga sayr –ekskursiyalar uyushtiradi.

Kichik yoshdagi bolalar tevarak –atrofdagi voqea, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar Kichik guruhda vatanga muhabbat hissi o‘z uyiga, bog‘chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. O‘rta guruhda bolalar endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular ota –onalari va tarbiyachilardan o‘z shahri, qishlog‘i

[28] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son

[29] “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022

to‘g‘risida ko‘p narsani bilib oladilar.. Katta va tayyorlov guruhi bolalariga esa vatanga bo‘lgan muhabbat hissini tushunchalar orqali ham berib borish mumkin sababi bu guruh bolalari maktabga qadam quyish vaqtiga yetib kelgan, munosabatlarda tushunchalarga ega hisoblanishadi. Tayyorlov guruhi bolalarida ayniqsa maktabga chiqish davri kelganligi ularda keng jamiyatga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Tarbiyachilarning, ota-onalarning bolani maktabga qiziqtirishlari, suxbatlar o‘tkazishlari, ekskursiyalar tashkil etishlari samarali natija beradi. Bunda bolalarda mustaqillik hissi oshadi va jamiyat, vatan tuyg‘ulari oshadi.

Jonajan ona tabiat Vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi.Uning go‘zalligidan zavqlanish, tabiatiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, inson mehnatining
tabiatdagi o‘zgartiruvchanlik rolini tushunish bularning hammasi jonajon o‘lkaga muhabbatni shakllantirish manbalaridir. Bolalarda ona vatanga mexr uyg‘otish ona tabiatga uning nematlariga o‘simliklar, hayvonot olamiga mehr uyg‘otish orqali ham rivojlanib boradi. Tabiatga sayr, ekskursiyalar o‘tkazish orqali bolalarga tabiat haqida tushunchalar berib boriladi. Tabiatni asrashga o‘rgatish orqali ona zamin nematlaridan unumli foydalanish va bu orqali vatan tarraqiyotini gullab yashnashi uchun o‘z hissasini qo‘yish mumkinligiga o‘rgatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Vatanparvarlik eng oliy tuyg‘u ekanligini bolalarga yoshligidan singdirib borish ularda ko‘plab ijobiy tuyg‘ularni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Masalan: oilaga, yaqinlarga bo‘lgan mehr, e’tibor, do‘stlik, sodiqlik, fidoiylik kabilar. Bu borada ijtimoiy muhit, oila, ota-onalar, makatabgacha ta’lim tashkiloti, pedagoglar asosiy ta’sir etuvchilar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022.
3. Sh.M.Mirziyoyev “ Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – ma’naviy g‘oyamizning poydevoridir”– «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent – 2021y.
4. Inomova M. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – T.: Fan, 2012.
5. Isomiddinov S. Kichik maktab yoshdagi bolalarda vatanparvarlik-insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Toshkent, 2000

DAVLAT O‘QUV DASTURI - MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI

O‘zbekiston, Navoiy viloyati, Zarafshon shahar,
16 - sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
Mamurova Mashhura Akbarovna

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalari, Davlat talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga tayanch kompetensiyalarni shakllantirish haqida haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: barkamol avlod, ilk poydevor, kompetentlik, kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyatlar, kommunikativ, ijtimoiy, bilish, shaxsiy.

Аннотация: данная статья содержит информацию об основных компетенциях дошкольников, формировании базовых компетенций дошкольников на основе государственных требований.

Ключевые слова: совершенное поколение, первооснова, компетентность, компетентность, знания, умения, компетентность, ценности, коммуникативные, социальные, знания, личностные.

Abstract: this article contains information about the basic competencies of preschoolers, the formation of basic competencies of preschoolers based on state requirements.

Key words: perfect generation, fundamental principle, competence, competency, knowledge, skills, competence, values, communicative, social, knowledge, personal.

Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun amalga oshiriladigan ishlar birinchi galdagi vazifa sanalib, bu jarayonni ta’lim tizimlarining ilk poydevori hisoblangan maktabgacha ta’limdan boshlash o‘ta muhimdir. Bugungi kunda bolalar uchun muhim bo‘lgan jarayon ularda ijtimoiy ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq ijtimoiy kompetenlikdir. Bizga ma’lumki kompetentlik atamasi lotincha „copeto" so‘zidan olingan bo‘lib „erishyapman, munosibman" degan manoni anglatadi, hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanligini anglatadi. Buni maktabgacha yoshdagi bolalarda ta’lqin qilayotgan bo‘lsak bolalarni egalashi, erishishi hamda ular xabardor bo‘lishi lozim bo‘lgan bilimlar yig‘indisi hisoblanadi[4].

Davlat o‘quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarga kompetensiyaviy yondashuvlar quyidagicha ma’lumotlar berilgan.

Bolalarda boshlang‘ich muhim kompetensiyalarning shakllanishi faoliyat va axloq sub’ekti sifatidagi yaxlit jarayon sifatida amalga oshirilishi talab etiladi[5]. Bolalarda kompetensiyalarni talqin etish jarayonida kompetensiya atamasining ma’nosini izohlash lozim deb bilamiz.

Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar ya’ni bola egallashi, erishishi lozim bo‘lgan BKM rivojlanish sohasidan qat’i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aynan Davlat o‘quv dasturida maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagi turlari ko‘rsatib berilgan[2].



1. Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi hisoblanadi.

2. Shaxsiy kompetensiya (“Men” konsepsiyasini yaratish). **Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o‘z - o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi.**

Bolalar hayotdagi o‘z o‘rnini biladilar, o‘zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilishga o‘rganadilar. Bola mustaqil va u o‘ziga ishonadi. O‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U o‘zining boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi[3].

3. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahoratidir.

4. Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish jarayoni hisoblanib, olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv hamda amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish jarayoni hisoblanadi.



"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasi kompetensiyalari

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola[2]:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiyena malakalarini qo'llaydi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish"sohasi kompetensiyalari

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi[3].

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik to'zilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda to'zish va so'zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni ko‘zatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

“Ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari

”Iodiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- san’at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;
- milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi[3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi QONUN-595-son T.:-2019 yil 16-dekabr .
2. Vazirlar Mahkamasining Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22 dekabr, 802-son.
3. MTV “Takomillashtirilgan Ilk qadam Davlat o‘quv Dasturi.T.: 2022.
4. Zaxarova T.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentsiyasini shakllantirish mexanizmlari va shartlari 2011 yil.
5. Скрябина Валерия Олеговна Формирование социальной компетенции у дошкольников в образовательной организации (Магистрская диссертатция) Екатеринбург 2018.

RIVOJLANTIRUVCHI O‘YIN MUHITIDA MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING REFLEKSIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH -IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

O‘zbekiston, NamDPI mustqail izlanuvchishi
I.S.Raxmonova

Annotatsiya. Mazkur maqolada refleksiya so‘zining mazmun va mohiyati, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o‘yin muhitini yaratish asosida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Refleksiya, rivojlantiruvchi muhit, o‘yin, ta’lim, mashg‘ulot, faoliyat, o‘yin turlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение и сущность слова «рефлексия», формирование рефлексивных умений детей дошкольного возраста на основе создания развивающей игровой среды в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова. Рефлексия, развивающая среда, игра, обучение, обучение, деятельность, виды игр.

Annotation. This article discusses the meaning and essence of the word reflection, the formation of reflexive skills of children of preschool age based on the creation of a developing game environment in preschool educational organizations.

Key words. Reflection, developmental environment, game, education, training, activity, types of games.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining poydevori hisoblangan maktabgacha ta’limda bolalarning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilib, komil inson qilib tarbiyalash masalalari “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi”da ta’kidlanganidek, «maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish; maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish»[1] masalalari ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berildi. Shu asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishning didaktik ta’minotini ishlab chiqish, pedagogik mexanizmlarini yaratish, o‘yin texnologiyalarining bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etish orqali bilim darajasi va intellektual salohiyatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti va amaldagi Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi va “Ilm yo‘li” variativ dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar egallashi lozim bo‘lgan talablar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, ma’lumotlarni kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi. Shu bilan birga bu bosqich maktabgacha yoshdagi bolalarining ijodiy imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilib, unda faqatgina ijodiy qobiliyatlargina emas, balki o‘z-o‘ziga, o‘z mehnatiga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman o‘ziga xos ijodiy munosabatni shakllantirishga erishish nazarda tutilgan. Bu jarayonda esa, maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni yuzaga keltirish muhim hisoblanadi. Shunday ekan avvalo ***Refleksiya*** so‘zini izohlab o‘tamiz.

Refleksiya-so‘zi (lot. reflexio–ortga qaytish, aks etish) ya’ni, bolalarning o‘rganilayotgan bilimlarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyatning alohida bir shakli bo‘lib, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zining shaxsiy harakatlari va ruhiy xolati haqida o‘ylash, hayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi[3;63-b].

Refleksiya - har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti-harakatlari va ularning qonunlarini anglashga qaratilib, inson ma’naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin hislarini ochib beribgina qolmay o‘z-o‘zini bilishga va anglashga yordam beradi. Ilk bor “refleksiya” tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida fikr yuritish jarayoni o‘z fikrlari mazmunini tahlil qilishiga e’tiborini jalb qilishini anglatgan. Dekart, Sokrat, Platon, va boshqa yunon faylasuflari refleksiyani insonning o‘zini-o‘zi bilishiga, nimalarga qodir ekanligini e’tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanini ta’kidlashgan. Lokk, Kant, Gegelь, Fikste, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qaraganlar. Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o‘rganilayotgan refleksiya-psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andragogika, kibernetika va boshqa ko‘plab murakkab fanlarning tadqiqot ob’ekti sifatida tadqiq qilinmoqda.Jumladan, pedagog olim V.A.Slastenin fikricha, refleksiya insonning o‘z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olishidir [4: 88-b]

I.N.Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan refleksiya esa quyidagi turlarga ajratilgan [5:139-b.] (1-rasmga qarang)



1-rasm. Refleksiya turlari

Yuqorida keltirib o‘tilgan refleksiya turlarini izohlab o‘tamiz:

Intellektual refleksiya-muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

Shaxsiy refleksiya- nizoli (konfliktlar) ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta’minlaydi.

Kommunikativ refleksiya-muloqot jarayonida sheriklarining o‘zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta’minlaydi.

Kooperativ refleksiya-jamoa a’zolarining birgalikdagi o‘zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sanaladi.

Bizning fikrimizcha, refleksiv ko‘nikmalar ta’lim jarayonida bolaning mustaqil bilim olishi natijasida shakllanib, chuqur o‘ylangan bilish harakatlarining mahsuli sifatida namoyon bo‘lishini inobatga olib, bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda mashg‘ulotlararo aloqadorlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda ularning ma’naviy dunyoqarashlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarur. Mazkur jarayonlarda qo‘llaniladigan o‘yinlarni o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra to‘g‘ri tanlash, bolalarga o‘rgatiladigan tushunchalar ko‘lami va mazmun-mohiyatiga ko‘ra ularning boshlang‘ich tushunchalari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ularning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni tahliliy fikrlashga o‘rgatish va shu asosda refleksiv faoliyatini tashkil etish zarur, chunki ko‘proq tahliliy fikrlash bolaning o‘zi tomonidan yangi tushunchalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish jarayonlarida, ya’ni bolaga tarbiyachi tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. O‘rganilayotgan yangi tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini bolalar tomonidan mustaqil ravishda tahlil qilish jarayonlari ularning refleksiv faoliyati jarayonlari hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi o‘yin muhitida bolalarning xulq-atvori shakllanib, ijtimoiylashuv jarayoni yuzaga keladi, o‘yinlarning eng muhim jihati uning dramatik san’atga ham mosligidir. Birinchidan o‘yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog‘liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchidan o‘yinlarning aksariyatida mas’uliyatni his etgan xolda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, rivojlantiruvchi o‘yin muhiti aqliy faoliyatni rivojlantirishi va yuqori natijani kafolatlashini nazarda tutib ta’lim jarayonida bolalarni muntazam ishtirok etishini ta’minlashda ishbop o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, syujetli-rolli o‘yinlar, harakatli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312–son qarori

2.O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 22.12.2020 yildagi 802-son Qarori.

3.Горбунова Л.Л.Развитие умений учителя анализировать педагогический опыт. // Формирование профессионально-педагогического мастерства учителей: Сб. Науч. Тр. М.: Изд-во АПН, 1989.- С. 62-71

4. Ушева Т.Ф. Формирование и мониторинг рефлексивных умений учащихся: Методическое пособие. – Красноярск, 2007.- 88 с.

5.Семенов И.Н. Аналитические обзоры по основным направлениям развития высшего образования. Вып. 3: Рефлексивный подход в формировании и развитии личностно-профессионального самосознания студентов как фактор модернизации высшего образования. М.: ФИРО, 2013

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISH SOHALARIGA INTEGRATSION YONDASHISH ASOSIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING ME’YORIY ASOSLARI

O‘zbekiston, ***Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi Jo‘rayeva Zilola Sayfiddin qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalariga integratsion yondashish asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning me’yoriy asoslari va maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bilim, malaka, ko‘nikma, mahorat, meyoriy-huquqiy baza, konsepsiya.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется нормативным основам нравственно-этического воспитания, основанным на комплексном подходе к развитию детей дошкольного возраста, а также нормативно-правовым документам, связанным с областью дошкольного образования и воспитания.

Ключевые слова: дошкольное образование, знания, навыки, умения, нормативная база, понятие.

Abstract: This article focuses on the normative foundations of moral and ethical education based on an integrated approach to the development of preschool children and the regulatory and legal documents related to the field of preschool education and upbringing.

Key words: pre-school education, knowledge, skills, skills, regulatory framework, concept.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta’limda ham me’yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining 2-bob 3- bandida integratsiya tushunchasiga alohida to‘xtalib, integratsiya – bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi jarayon ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarida[1] rivojlanish sohalari bo‘yicha kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo‘lgan keyingi bosqichiga muammosiz o‘tishi va unga tayyor bo‘lishi, boshlang‘ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurligi ta’kidlangan. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bugungi kundagi ta’lim sifatini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati ishlab chiqilayotgan me’yoriy-huquqiy bazada o‘z aksini topadi[2].

Maktabgacha ta’lim sohasi ko‘plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga qaramay, maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bugungi kundagi asosiy talablardan biridir.

Shu munosabat bilan, Konsepsiyani amalga oshirish doirasida maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1) ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo‘yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi Maktabgacha ta’limning davlat standartini ishlab chiqish:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va mahoratlarga qo‘yiladigan talablarni;

-bolalarni parvarishlash, ularga qarash, sog‘lig‘ini saqlash va yaxshilash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish tartibini;

-maktabgacha ta’limning muqobil shakllari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

-maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me’yorlar va standartlarni implementatsiya qilish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalariga integratsion yondashish asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning me’yoriy asoslarini tahlil qilishda uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining V bobida maktabgacha ta’lim sohasiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining ushbu bosqichi o‘z ichiga maktabgacha 3-6 (7) yoshli bolalarni qamrab oladi[3].

Ushbu bosqichda 3-7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan:

- o‘z tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- o‘z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko‘nikmalarining yuzaga kelishi;
- shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo‘lishi;
- ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishga intilish;
- muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug‘ilishi;
- o‘ziga o‘zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo‘lishi;
- bola faoliyatining yetakchi turlari — muloqot, o‘yinlar, mashg‘ulotlar;
- nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi inobatga olinadi.

Tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan ushbu yoshdagi bolalarga:

- asosiy faoliyat turlari jarayonida o‘zini o‘zi anglashga o‘rgatish;
- muloqot, kuzatish va taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasini o‘zlashtirish;
- o‘zining va boshqalarning xulqiga baho berishga o‘rgatish;
- faoliyat va sujetli-rolli o‘yinlar orqali yangi motivlarni paydo qilish va mustahkamlash;
- ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish;
- kundalik turmushda xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish;
- kattalar, ularning mehnati, kasblar, turli kasb egalariga xos shaxsiy fazilatlar to‘g‘risida tushunchalar berish;
- o‘yin, o‘zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojining paydo bo‘lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;
- bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatiladi.

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida 3-6 (7) yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o‘z tuyg‘ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg‘otish, milliy an’analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan “Baxtli bola ma’naviyati” kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish chora-tadbirlari haqida so‘z yuritilgan.

Jumladan, ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi borasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan hududiy o‘quv treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish to‘g‘risida kerakli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda alohida yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan,

axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni nazarda tutadi[4].

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadigan jarayondir.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat’i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-may, PQ-4312-son Qarori. ttps://lex.uz/docs/
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son
4. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-son qarori.
5. Abdusamatova N.J. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fan.b. fals. dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – 12 b.
6. Abdullayev A.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 09.04.2021-yil -184-b.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ЧЕРЕЗ ИГРОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Узбекистан, преподаватель кафедры ДО НГПИ
Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна
студентка 3 курса НГПИ
Ноговицина Ирина Александровна

Аннотация: в работе затронута проблема развития речи детей посредством игровой деятельности. Это связано с тем, что игра способствует формированию новообразований ребенка, его психических процессов, в том числе воображения. Причиной острой необходимости развития речи детей является потребность общения человека с окружающими его людьми. В статье раскрывается значение игр и их роль в развитии речи детей раннего возраста.

Ключевые слова: игра, игровая деятельность, дети дошкольного возраста, речевое развитие дошкольников, дидактические цели, педагогические условия.

Abstract: the paper deals with the problem of children's speech development through play activities. This is due to the fact that the game contributes to the formation of neoplasms of the child, his mental processes, including imagination. The reason for the urgent need for the development of children's speech is the need for a person to communicate with people around him. The article reveals the importance of games and their role in the speech development of young children.

Keywords: game, play activity, preschool children, speech development of preschoolers, didactic goals, pedagogical conditions.

Речь сопровождает практически каждую деятельность ребенка, совершенствует ее и обогащается сама. Чем богаче и правильнее речь ребенка, тем легче ему высказывать свои мысли, тем шире его возможности в познании действительности, полноценнее будущие взаимоотношения с детьми и взрослыми, его поведение, а, следовательно, его личность в целом. Проблема речевого развития – одна из важнейших проблем воспитания детей дошкольного возраста, так как процент дошкольников с различными речевыми нарушениями

остается стабильно высоким. Дети испытывают трудности в звукопроизношении, в овладении лексико-грамматическими формами, имеют скудный словарный запас и не умеют строить связные высказывания. Это обусловлено социальными проблемами общества, которые подчас не позволяют многим родителям уделять достаточно внимания своему ребенку.

Актуальность данной проблемы объясняется тем, чем лучше будет развита речь ребенка в дошкольные годы, тем выше гарантия успешного его школьного обучения, уверенности в своих силах.

Дошкольный возраст является периодом активного усвоения ребенком родного языка и становления всех сторон речи. Игровая деятельность является предпочтительной формой работы над развитием речи ввиду признания педагогикой игры основным видом деятельности дошкольника.

На этапе младшего дошкольного возраста ребенок должен хорошо владеть устной речью для выражения своих мыслей и желаний, чувств. В этом возрасте ребенок должен уметь построить свое высказывание в зависимости от коммуникативной ситуации. Может выделять звуки в словах, в связи с чем складывают предпосылки грамотности, звуковой культуры речи, грамматического строя речи.

В старшем дошкольном возрасте, на этапе завершения образовательной программы детского сада, ребенок должен хорошо владеть активной речью, включенной в общение. Может обращаться с вопросами и просьбами. Хорошо пониманием обращенную речи. Лексикон приближен к состоянию лексикона у взрослого человека.

Речевое развитие дошкольника – важнейшая из всех образовательных областей. XXI век – век компьютерных технологий. У детей, казалось бы, есть все для их развития: компьютеры, телефоны, телевизоры, но почему-то все больше и больше встречается детей с речевыми нарушениями. Поэтому самое щадящее, комфортное обучение детей – это обучение в игре.

Игра – один из тех видов детской деятельности, которые используются взрослыми в целях воспитания дошкольников, обучения их различным действиям с предметами, способами и средствами общения.

Игра успокаивает, лечит и стимулирует речь детей. Речевые занятия в игровой форме дают большой результат. Наблюдается желание абсолютно всех детей участвовать в этом процессе, который активизирует мыслительную деятельность, обогащает словарный запас детей, развивает умение наблюдать, выделять главное, конкретизировать информацию, сопоставлять предметы, признаки и явления, систематизировать накопленные знания.

Применение игровых технологий, активных методов обучения в процессе речевого развития ребенка позволяет сделать образовательный процесс более эффективным.

Развитие речи дошкольника в игровой деятельности происходит как при внедрении игровых технологий в образовательную деятельность, так и при использовании игр на развитие речи в режимных моментах. В любом случае. В образовательном процессе детского сада должны быть созданы необходимые условия для развития речи средствами игры. Для развития речи в воспитательно-образовательном процессе детского сада можно использовать игры на развитие фонематического слуха, на развитие диалогической речи, расширение лексикона и т. д. Для развития речи имеет значение выбор игровой технологии.

Среди них:

– игра дидактическая;

– игра сюжетно-ролевая, театрализованная;

– игра-драматизация;

– пальчиковая игра;

– игровые приемы при заучивании детьми стихотворных произведений;

– игровые приемы при развитии звуковой культуры речи;

– игровые приемы при развитии артикуляционного аппарата, артикуляционная гимнастика в игровой форме.

Дидактическая игра наиболее распространена в педагогической практике при использовании ее для целей развития речи у дошкольников. Дидактическая игра является достаточно сложным педагогическим видом игры. Она является одновременно и методом, и формой организации педагогического процесса. Дидактическая игры для развития речи ребенка может быть организована с использованием предметов-игрушек, настольных печатных игр. Дидактическая игра может быть организована без использования предметов, иметь словесную форму.

Сюжетно-ролевая, игра-драматизация, педагогическая игра так же занята прочное место в организации работы по развитию речи дошкольников. Преимущество такого вида игр состоит в возможности использовать их для решения всех задач развития речи. Так, в игре-драматизации ребенок исполняет роль, создает образ и с помощью комплекса средств вербальной и невербальной выразительности передает воображаемый образ.

Пальчиковые игры занимают особое место среди методов развития речи ребенка. Пальчиковая игра основана на задействовании мелкой моторики ребенка, что само по себе положительно сказывается на развитии подкорковых речевых центров в мозге. Осложнение пальчиковой игры стихами позволяет решить задачи коррекции речевого дыхания, ритма речи, четкости речи.

Использование игровых приемов при заучивании стихотворений состоит в использовании состоит в декламации стихотворения с использованием мимики и жестов. К примеру, воспитатель просит сопровождать декламацию стихотворного произведения с изображением движений действующих лиц. Использование игровых приемов для развития речи в режимных моментах. В различных режимных моментах можно использовать потешки, прибаутки и стихи. Такое использование помогает развитию связной речи, учит использованию средств выразительности речи. Так, можно использовать потешку для расчесывания волос, для сбора на прогулку, сбора игрушек в группе и так далее. Использование игровых приемов для развития звуковой культуры речи. Таким приемами является внедрение в режимные моменты чистоговорок и скороговорок для развития ЗКР.

Например, «СА-са-са – вот летит оса».

Игра обладает уникальными возможностями для развития речи в дошкольном возрасте. Через игру можно побуждать детей к общению друг с другом. Игра способствует:

– закреплению навыков пользования инициативной речью;

– совершенствованию разговорной речи;

– обогащению словаря;

– формированию грамматического строя языка и т. д.

Можно сделать вывод о том, что развитие речи с помощью игровых форм деятельности дает большой результат. Наблюдается желание абсолютно всех детей участвовать в этом процессе, который активизирует мыслительную деятельность, обогащает словарный запас детей, развивает умение наблюдать, выделять главное, конкретизировать информацию, сопоставлять предметы, признаки и явления, систематизировать накопленные знания.

Опираясь на вышеперечисленную информацию, можно сделать вывод о том, что специально подобранные игры и упражнения дают возможность благоприятно воздействовать на все компоненты речи.

Таким образом, дошкольный возраст является решающим периодом в развитии ребенка. Именно в это время, у них формируются основы личности, складывается характер и сила воли в произвольном поведении, развивается воображение, пополняется словарный запас, и ребенок становится более инициативным и творческим. А также малыши начинают правильно строить предложения, с использованием прямой и косвенной речи. У них развивается общая и мелкая моторика и координация движений. И все эти качества формируются в игре, а не в учебных занятиях.

Многие дошкольные педагоги и психологи отмечают существенное изменение в нынешних детских учреждениях. Дети не знают традиционных игр, да и вообще не умеют играть.

Наблюдая за современными дошкольниками, можно сказать, что они не умеют сами организовывать свою деятельность и наполнять её смыслом. У многих из них не развито воображение, отсутствует самостоятельность мышления и творческая инициатива. А поскольку, дынный возрастной период является основным для формирования этих важнейших качеств, то можно смело сказать, что данные способности вряд- ли возникнут сами по себе, в более зрелом возрасте.

И мало кто из родителей и взрослых, задумывается о том, что данная «готовность» к школе мешает и тормозит нормальному школьному обучению. Ребенок уже в саду перезагружен и перенасыщен учебными занятиями и ближе к школе, очень часто, у него пропадает интерес к учебе.

Плюсы такого раннего обучения проявляются только в первые 2–3 месяца школьной жизни. Детей уже не надо учить считать и читать, но как только нужно проявить способность самостоятельно думать и решать – они ждут указаний взрослого и бояться проявить инициативность… Такая пассивность и отсутствие самостоятельности скажется весьма печально не только в школе.

Именно игра используется взрослыми в целях воспитания дошкольников, обучая их различным действиям с предметами, способами и средствами общения. В игре у детей накапливается значительный опыт. Именно оттуда они черпают новые слова и развивают свою речь.

Список литературы

1. Алексеева М.М. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: учебное пособие / М.М. Алексеева, Б.И. Яшина. – М.: Академия, 2021. – 67 с.

2. Белкин А.С. Основы возрастной педагогики: учебник / А.С. Белкин. – М.: Академия, 2017. – 142 с.

3. Бородич А.М. Методика развития речи детей дошкольного возраста: учебное пособие / А.М. Бородич. – М.: Просвещение, 2014. – 255 с.

4. Гербова В.В. Занятия по развитию речи / В.В. Гербова // Дошкольное вос-питание. – 2019. – №2. – С. 12–16.

5. Козырева Л.М. Развитие речи: дети 5-7 лет: учебное пособие / Л.М. Козырева. – Ярославль: Академия развития, 2021. – 93 с.

MILLIYLIK ABADIYDIR

O‘zbekiston, Navoiy shahar 2-sonli DMTT tarbiyachisi
Kamolova Iroda Faxriddinovna

Annotatsiya: bolajonlarda milliylik, urf odat, madaniyatini rivojlantirish kattalar yordamida bolalik davridan boshlab shakllantiriladi va butun umri davomida atrof muhit, tarbiya va faoliyat orqali rivojlanib boriladi. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalash va voyaga yetkazish davomida milliy ruhda, kiyinish qoidasiga milliylik borligiga amal qilmagan holda ba‘zan o‘zlari bilmay xatolar qilishlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirlarimiz, milliy kiyinish, milliy kiyimlar, do‘ppi, maxsi, aytib atlas, adraslar, zar choponimiz, milliy oyoq kiyim, ota ona, yosh avlod milliylik.

Аннотация: развитие народности, обычаев и культуры у детей формируется с детства при помощи взрослых и продолжает развиваться через среду, воспитание и деятельность на протяжении всей жизни. Сообщается, что родители иногда по незнанию допускают ошибки, воспитывая и воспитывая своих детей в духе национализма и не соблюдая правила одежды.

Ключевые слова: наши мероприятия, национальный костюм, национальная одежда, шапка, макси, говорящий атлас, адреса, зар чапон, национальная обувь, отец и мать, национальность молодого поколения.

Abstract: the development of nationality, customs and culture in children is formed from childhood with the help of adults and continues to develop through the environment, upbringing and activities throughout life. It is reported that parents sometimes unknowingly make mistakes by raising and educating their children in the spirit of nationalism and not following dress codes.

Key words: our events, national costume, national clothes, hat, maxi, talking atlas, addresses, zar chapon, national shoes, father and mother, nationality of the younger generation.

Milliylik abadiydir bu so‘zlar zamirida pur ma’no yotadi.Biz kattalar yoinki biz DMTT ustozlari ota onajonlar bilan birgalikda bolalarni milliy ruhda tarbiyalasak milliylik o‘lmaydi.Men ish faoliyatim davomida bolajonlar bilan birga bolajon bo‘lib kuztganimda bolajon bir farishta misolidir.Bolalarni shu jajji miyachasini oppoq qog‘ozga o‘xshataman, sababi ularni to kiyimini kiyishdan tortib ovqatini yeyishi, hojatiyu uxlashi biz ustozlar qo‘lidadir. Shu oppoq qordek oq qog‘ozni biz to‘ldirib boramiz. Shunday ekan bolalarni milliy ruhda tarbiyalasak shundagina milliylik o‘chmaydi. Milliylik birgina kiyinishdan emas uning zamirida tom ma’no yotadi.Bolani erta turishi,uyda dasturxon atrofida o‘tirganda salom berishi,kattalarda hurmatda bo‘lishi vahokazolar misol bo‘ladi. Ana ko‘rdingizmi bu milliy odatimiz odob axloqlarimiz hisoblanadi.Meni maqolamni yozishga undagan narsa maqolam boshida kiritdim va o‘zimni faoliyatlarim davomida bolajonlar bilan “MILLIYLIK ABADIYDIR’’deb nomlangan mashg‘ulot o‘tdim. Bolajonlar mashg‘ulotim davomida markazlarda tayyorlab qo‘ygan barcha milliy urf odatlarimizni mujassam bo‘lgan o‘yinlarimizni ko‘rib xursand bo‘lib bajarishdi. Misol:Qurish yasash va matematika markazida: bolalarda bir qiz bola aks etgan gavda va o‘g‘il bola aks etgan gavda matodan tikilgan holda tayyorlab milliy kiyimda kiyintirish kerakligini aytdim .Bolalar bu faoliyatda juda aktiv bo‘lib bajarishdi va milliy kiyimlar qanday ekanini bilib olishdi.

Til va nutq markazida:”Chopon qovush” usulini qo‘ydim bolalar bu markazdagi faoliyatni ham juda xursand bo‘lib bajarib so‘ng nima ish qilishganini hikoya tarzida so‘zlab berishdi.

Fan va tabiat markazimizda:”Non yopish”qizlarimiz juda ham qiziqishib bajarishdi.Xamir tayyorlanishini ko‘rishdi.

Sa’nat markazida:milliy do‘ppilarimizni tayyorlab naqshlarini yelimlab chiqishdi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazimizda: Beshikdagi bolaga Alla aytib berishdi.

Har bir pedagog tarbiyachi bolani DMTT faoliyatidan milliylik ruhda tarbiyalasa milliylik hech qachon o‘lmaydi va abadiy bo‘lib qon qonmimizga singib boradi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. “Umumiy pedagogika” X.Ibraimov,M.Quronov. 2023yil.
2. “Oliy maktab pedagogikasi” M.Ochilov.2008 yil.
3. www.Ziyonet.uz
4. Uz.eyewated.com
5. Czysto.waw.pl
6. https://www.coaccess.com/uz/blog/listening/

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisim Meyliyeva N.G.
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi Xomidova M.A.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda inovatsion texnologiyalardan amaliyotda foydalanish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ekspermentator-pedagog, kompetensiya, intellektual, psixologik va kognitiv rivojlanish, anketa so‘rovnomalar.

Аннотация: В данной статье говорится о практическом использовании инновационных технологий в формировании речевой культуры детей дошкольного возраста в современном мире.

Ключевые слова: экспериментатор-педагог, компетентность, интеллектуальное, психолого-познавательное развитие, анкеты.

Abstract: This article talks about the practical use of innovative technologies in the formation of the speech culture of preschool children in the world today.

Key words: experimenter-pedagogue, competence, intellectual, psychological and cognitive development, questionnaires.

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida "sifatli ta’lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu esa, maktabgacha ta’lim yoshidanoq bolalarni badiiy-estetik rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy an’analar vositasida etnobadiiy ta’limni keng rivojlantirishni taqozo etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bugungi kunda pedagog-tarbiyachilarga nisbatan mas’uliyat yanada kuchaydi. Mamlakatimizning kelajagi ko‘p jihatdan tarbiyachi va uning saviyasiga, fidoiyligiga, yosh avlodga ta’lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga yetkazishiga bog‘liq. So‘nggi yillarda zamonaviy o‘zbek ta’limi tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ta’lim muassasalari faoliyatining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatdi. Uni modernizatsiya qilish sharoitida pedagog- tarbiyachi shaxsiga alohida e’tibor qaratilib, kasbiy-shaxsiy fazilatlari, pedagogik mahoratiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida zamonaviy mutaxassisni tayyorlashning zarur sharti nutq madaniyatini shakllantirishdir. Nutq madaniyati - bu til me’yorlarini bilish darajasi, shuningdek, ona tilining turli xil aloqa (muloqot) sharoitlarida ifodalash vositalaridan foydalanish qobiliyati. Ya’ni, nutq madaniyati barcha nutqni qamrab olmaydi, balki uning muloqot madaniyati doirasida va adabiy til me’yorlari bilan chegaralangan qisminigina qamrab oladi.

Nutq madaniyati notiqlik san’atining g‘oyat muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning mas’uliyati va mahoratini ifodalaydigai shartlardan biri. Bu san’at nutqdagi har bir masalaning, uning nihoyasida qisqa, lo‘nda, aniq xulosalar chiqarish; og‘zaki va yozma savollarga qisqa, aniq javob berish; bahslashishga to‘g‘ri kelib qolsa, o‘z mavqei, nuqtai nazarini qattiq ishonch bilan, astoydil himoya qilish ma’suliyatini shakllantiradi. Nutq qudratli kuchdir; chunki u ishontiradi, da’vat qiladi, hatto majbur etadi. Nutq so‘zlashdan maqsad kishini ishontirishdir. Tarbiyachi jumlalarni qisqa-qisqa tuzib so‘zlashi, uzundan-uzoq gaplarni bayon etishdan tiyilishi; so‘zlayotganda ovozning goh baland, goh past bo‘lib tovlanishiga alohida e’tibor berishi kerak. Busiz jumla qanday ohangda, urg‘u, talaffuzda aytilishiga qarab turlicha ma’noni anglatishi mumkin. Kishi o‘z nutqining talaffuziga, nutq, so‘zlash ohangiga muttasil va qat’iy talabchan bo‘lmog‘i lozim.

Birinchidan, uning ovozi jarangdor, baland, toza, tiniq, yoqimli, yumshoq bo‘lishi zarur; ikkinchidan, tomoqni asrash; xastalikning, jumladan, shamollashning oldini olish lozim. Albatta, bularni maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlash muhim ahamiyatga ega. Demak, odamlar o‘zining turli-tuman faoliyatlarida – fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko‘rsatishda nutq orqali aloqada

bo‘ladilar. Bundan tashqari, nutq orqali aloqaga kirishish jarayonida har bir kishi o‘z bilimlarining ko‘p qismini boshqa kishilardan til vositasi yordamida oladi. Ta’lim jarayonida to‘plangan tajriba va bilimlar til vositasi asosida amalga oshiriladi. Til yordami bilan fikr almashadilar, odamlar mehnat faoliyatlarini tashkil etadilar.

Ma’lumki, kichik maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun tabiat ob’ektlari, badiiy asarlar bilan tanishtirish; savodga o‘rgatish va bu o‘rinda ijtimoiy foydali mehnat kabilardan foydalaniladi.

Ushbu vositalar asosida nutq madaniyatini shakllantirish maxsus rejalashtirilgan va tashkil etilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirilishi samarali natijalarga olib keladi. Bunda quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

- mashg‘ulotlarning maqsadi, mazmuni va o‘tkazilish muddatini hisobga olgan holda rejalashtirish; bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish mashg‘ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash;
- nutq tarbiyasiga oid aniq masalalarni hal etish (mashg‘ulot mazmuni, vaqti va o‘tkazish metodini aniq belgilash); bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid mashg‘ulotlarga qiziqish uyg‘otish;
- rejalashtirilayotgan mashg‘ulotlar o‘rtasida izchillikka rioya qilish; mashg‘ulotning barcha bosqichlarida aniq maqsadga qaratilgan so‘zlarni o‘rganish. Nutq madaniyati bolaning o‘qishga nisbatan bo‘lgan munosabatida aks etadi. Nutq madaniyati tarbiyalanuvchining bilimga bo‘lgan javobgarlikni his qilish, o‘ziga nisbatan talabchanlik va o‘z-o‘zini tanqid qila bilish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Haqiqatan ham, bu xususiyatlar bolada mavjud bo‘lmasa, unda nutq madaniyati to‘liq rivojlanmaydi. Bular bolada nutq madaniyatini shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Demak, bolaning nutq madaniyati tarbiya jarayonida va uning butun hayoti davomida rivojlanadi. Umuman, maktabgacha yosh davrida bolalarda nutq madaniyatiga poydevor qo‘yiladi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib nutq madaniyati haqidagi bilimlar, tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi, ongliroq tus oladi, umumiylashadi. Bu yoshdagi bolalarda nutq madaniyati haqidagi bilimlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuni aytish kerakki, maktabgacha yoshidagi bolalar xarakter jihatdan o‘zaro farqlanib turadilar. Ularning ba’zilarida o‘ylamasdan so‘zlash, o‘z so‘zini ifoda eta olmaslik kabilar uchrab turadi. Buning asosiy sababi, mazkur yoshdagi bolalar hali yosh bo‘lgani tufayli o‘z so‘zlarini idora qila bilmasliklari mumkin. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish mushkul, deb qarash to‘g‘ri emas. Tarbiya zaminida shaxs hissiyoti yotadi. Shuning uchun har qanday nutq madaniyatini shakllantirish shaxs hissiyoti bilan bog‘liq hodisadir. Shaxsda nutq madaniyatini shakllantirish va uning til xususiyatlarini o‘stirish so‘z, gap, fikr, nutq, muomala kabi xislatlarni o‘z ichiga oladi. Shunga ko‘ra, maktabgacha yoshidagi bolalar nutq madaniyati tushunchasini bir butun holda o‘zlashtirishlari uchun tarbiyachi har bir mashg‘ulotni ularning yosh xususiyatlariga mos tarzda o‘tkazishi maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshidagi bolalar ongida nutq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining roli beqiyos. Agar tarbiyachi shaxsiy ibrat ko‘rsatsagina tarbiyada yaxshi natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Bolalar tafakkurining o‘sib borishi faqat bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga emas, uning jamoada o‘zini erkin tutishidan tortib, ma’naviy yetuk, yuqori saviyali mutaxassis bo‘lib yetishishigacha o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Jamiyatimiz yoshlarni aqlli, teran tafakkurli, mehnatsevar, erkin fikrli qilib tarbiyalashni ustivor vazifa qilib belgilagan ekan, bu vazifani amalga oshirish birinchi navbatda bog‘chadagi ta’lim-tarbiya zimmasiga tushishini unutmaslik lozim. Shunday ekan, nutq madaniyatini shakllantirishga oid olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy mazmuni va mohiyatini joriy qilish yo‘llari va vositalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday yangicha yondashuvlardan biri talim tizimi jaroyonida “Kompetensiya” “kompetentlik” atamalarining qo‘llanayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiya so‘zi aslida lotincha competere so‘zidan olingan bo‘lib, mos kelish degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqsak, kompetensiya – ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobilyatini namoyish eta olishni bildiradi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga

kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy tavsifga ega bo‘lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiy tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi.

Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta’minoti tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalar va nutqiy madaniyatning shakllanganligiga ham bevosita bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim jarayonidagi yangicha yondashuvning bosh maqsadi bola shaxsining har tomonlama rivojini ta’minlashdan, nazariy tafakkurini, lisoniy layoqat va iste’dodini rivojalantirishdan, nutqiy muloqot madaniyatini egallashi va ma’naviyatini shakllantirishdan iborat.

Demak, ta’lim-bu murakkab va mas’uliyatli jarayon. Bu jarayonda tarbiyalanuvchining savodxonligi, mashgulotlar davomida innovasion texnologiyalardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish bolaning keyingi ta’limga sifatli tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirjonovich S. I. et al. Eastern thinkers'views on everywhere education of children //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 309-314.
2. F. R. Qodirova. R. M. Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent- 2006y.
3. Q. Shodiyeva. Nutq o‘stirish uslubiyoti. Nashriyot – manba ijodiy uyi. Toshken – 2008..
4. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Nurboyevna Dilnoza G‘aniyevna

Annotasiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini kompleks ya'ni adabiy, badiiy, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yinlarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: verbal-emotsional, improvizatsiya, adabiyot, musiqa, teatr, ijodiy qobiliyat.

Аннотация: В этой статье говорится о важности игр для детей дошкольного возраста в развитии их творческих способностей, то есть их литературных, художественных, творческих и музыкальных способностей.

Ключевые слова: вербальные-эмоциональные, импровизационные, литературные, музыкальные, театральные, творческие способности.

Annotation: This article talks about the importance of games for preschool children in developing their creative abilities Komplex IE their literary, artistic, creative and musical abilities.

Key words: verbal-emotional, improvisation, literature, music, theater, creative ability.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do‘stona munosabatda bo‘lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy,

badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berish tavsiya etiladi. O‘yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning effekti quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish;
- kreativ maydonni yaratish;
- bir o‘yindan ikkinchi o‘yinga o‘tishi, bunda oddiydan ko‘ra ijodiy murakkabroqga o‘tish;
- mashqlar, etudlar, shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi, bolalar sahna ijodiyoti rag‘batlantiriladi.

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- bolalarga berilgan ijodiy vazifani bajarish;
- ijro jarayonida muammolarni hal qilish;
- bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish;
- o‘yin jarayonida mashqlarni puxta o‘rgatish;
- etudlarni bajarish.

Shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda empatiya, tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi rivojlanadi. Teatrlashtirilgan faoliyat bolalar ijodiyotining faoliyati bo‘lib, ushbu faoliyat tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.

Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalar ijodiy qobiliyatini va bola shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Aynan:

-tarbiyalanuvchilar aktyorlik ifoda vositasi va teatr haqidagi dastlabki bilimlarini shakllantirishga yordam berish;

-tarbiyalanuvchilar mustaqil musiqiy-teatr faoliyati talablarini rivojlantiradi;

-tarbiyalanuvchilarda teatr san’atiga bo‘lgan qiziqishlari uyg‘onadi;

-atrofdagi xodisalarga bo‘lgan shaxsiy – yaxlit estetik munosabatlarini shakllantiradi;

-maktabgacha yoshdagi bolalarda empatiya rivojlanadi;

-diqqatni, xotirani, xayolotni, fikrlashni, nutqni, hissiy va ixtiyoriy sohani, intellektual, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalardan tashqari adabiyot, musiqa, teatrga bo‘lgan qiziqishlarini sahnalashtirish faoliyati orqali uyg‘otadi, ma’lum hissiyotlarni o‘yin mahorati orqali mujassamlashtiradi, yangi obrazlarni yaratishga va fikrlashga undaydi. Teatr bolaning hissiy dunyosiga katta ta'sir ko‘rsata oladi. Bugungi kunda bolalarda diqqat va nutq, ixtiyoriy xatti-xarakatlari, xotirasining yetarlicha rivojlanmagani koplab ota-onalar, psixologlar va tarbiyachilarni o‘ylantirmoqda. Bola tilidan bayon etish, fantaziyalash, o‘ynash orqali bolaning qisiqligini yechish, erkin emotsional bo‘lishining eng qisqa yo‘lidir. Bu barcha ishlarni sahnalashtirish yordamida bajarish mumkin.

Shunday qilib, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolaning teatrlarga borishi, bolalar spektakl va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi, teatrlashtirilgan to‘garaklarga va mashg‘ulotlarga borishini tavsiya qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bugungi kunda ko‘plab rivojlantiruvchi dasturlar yaratilmoqda. Ular bunday holatlarni o‘zlashtirish uchun aniq mazmunga ega, o‘quv materialini o‘z ichiga oladi:

- Bolalar oddiy musiqiy-sahnaviy bilimlarini ifodalay olishi (improvizatsiya, fantaziya, etyud) va aktyorlik mahorati vositasi orqali yo‘nalishni olish.

- Maxsuldorlik faoliyatda ushbu bilimlarni rivojlantirsh va mustaxkamlash, aynan musiqiy-teatrlashtirilgan namoyishlarda amalga oshadi.

- Teatr san’atining paydo bo‘lishi va tashkil topishi, shuningdek musiqiy teatrlar haqida dastlabki bilimlari shakllanishi.

Mashg‘ulotlarning mazmuni va qoidasi; individual va jamoaviy harakatlariga o‘rgatishda bolalarni atrofdagi haqiqatni his qilishi, uni tahlil va nazorat qilish; bolalarning aktyorlik ifoda vositasi asosida pantomimik va og‘zaki hissiyotlarga va verbal-emotsional improvizatsiyaga asoslangan, shuningdek, musiqiy sahna faoliyatida vokal-xor va musiqiy-ritmik komponentlarini o‘zlashtirishi; so‘z omonligi va sahna nutqi ko‘nikmalarini egallashi, aktiv ijodiy unumdorlik faoliyatiga qamrab oladi. Bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatini tuzishda maktabgacha ta’lim

muassasalarining guruhlarida xar-xil burchaklar tashkil qilingani ishni osonlashtiradi (musiqiy, teatrlashtirilgan burchaklar va x.k.) Taniqli musiqachilar, rassomlar, san'atkorlarning ijodiy mahoratini namoyish etish orqali, tabiyki bolalar ijodiy shiddati va qiziqishini namoyon eta boshlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita ko‘plab usul va uslublar tavsiya etilyapti, shuningdek turli xildagi sahnaviy mashg‘ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli ham berilyapti.

Teatr faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi katta rol o‘ynaydi, usbu jarayonni mohirlik bilan boshqaradi. Tarbiyachi nafaqat ifodali so‘zlashi yoki o‘qib berishi kerak, balki qarashni, ko‘rishni, tinglashni va eshitishni ham bilishi lozim, ammo har qanday “obrazga kirishish”ga ham tayyor bo‘lishga majbur, ya’ni aktyorlik mahoratini egallagan bo‘lishi va rejisyorlik malakalariga ega bo‘lishi shart. Aynan shu mahoratlar ijodiy potensialni oshiradi va bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini o‘zlashtirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga hech qaysi holatda, hech qanday bosim, taqqoslash, baho berish, maxkumlikni qo‘llashi mumkin emas. Aksincha, bolalarga gapirish, ichki faoliyatni ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish kerak. Pedagog o‘zining aktyorlik va erkinlik mahorati bilan tortinchoq bolani sahnaga chiqishdan tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligini nazorat qilishi shart. Tarbiyachi bolani “sahnaga” va ijro jarayonida xato qilishdan, qo‘rqib chiqishdan, qo‘rqishiga yo‘l qoymasligi kerak. Bolalar jamoasi “artist” va “tomoshabinlar”ga bo‘linadi, ammo doimiy sahnada ijro etuvchi, doimiy tomoshabinlarga tomosha ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin emas, yani bolalar rollari bilan xam almashib turishlari kerak. Teatr faoliyatidagi mashg‘ulotlar hayotdan olingan mavzularni mustaqil improvizatsiya qilishi, ertaklar, sahna ko‘rinishlari va tasvirlar uchun rol o‘ynashini o‘z ichiga olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595 - sonli qonuni

2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637–sonli qonuni. 23.09.2020 y.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori - “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” .

5.Интерактивные методы ДОУ. http//ds – 11. Kaluga. Prosadiki.ru

6.Современные интерактивные педагогические технологии в работе с детьми дошкольного возраста. www.maam.ru

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING INNOVATSION USULLARI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Islomova Shahlo Madat qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Hamroyeva Lola Komil qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘qitishning afzalliklari, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tili o‘qitishning eng zamonaviy va samarali usullari sifatida o‘yin texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya vositalari va multfilmlardan foydalanish imkonyatlari haqidagi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili, so‘zlar, fonetika, play role, multimedia, red, green, tasty, multfilmlar, ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, Internet, Ritmik musiqa, metodika.

Абстрактный: В данной статье представлены соображения о преимуществах обучения английскому языку детей дошкольного возраста, возможностях использования

игровых технологий, информационно-коммуникативных средств, мультфильмов как наиболее современных и эффективных методов обучения иностранным языкам детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: иностранный язык, слова, фонетика, игровая роль, мультимедиа, красный, зеленый, вкусный, мультфильмы, наглядные пособия, плакаты, Интернет, Ритмическая музыка, методика.

Abstract: This article presents considerations about the advantages of teaching English to preschool children, the possibilities of using game technology, information and communication tools, and cartoons as the most modern and effective methods of teaching foreign languages to preschool children.

Key words: foreign language, words, phonetics, play role, multimedia, red, green, tasty, cartoons, visual aids, posters, Internet, Rhythmic music, methodology.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Jumladan, 2012-yil 10 - dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013-2014-o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o‘rgatishning joriy etilishi buning isbotidir.

Til o‘rganish ham yosh davrlariga bog‘liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o‘zlashtiradilar. Bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyillik bo‘lib, ularda taqlid qilish xususiyati juda ham kuchli hisoblanadi. Katta yoshdagilar tezroq , qisqa vaqt ichida o‘rganishga harakat qilib xatolikka yo‘l qo‘yishadi. Til o‘rganishda shoshma-shosharlik bilan o‘rganish o‘z samarasini bermaydi. Kichik yoshdagi bolalar kattalarga qaraganda vaqtining ko‘pligi til o‘rganishdagi asosiy yutug‘i hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalar ma’lumotlar ma’nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Til o‘rgatishni asosan maktabgacha yoshdagi bolalarda ham, boshlang‘ich sinf bolalarda ham sekin astalik bilan oddiy oson bo‘lgan so‘zlardan qo‘shiqlar orqali, har xil qiziqardi o‘yinlar orqali o‘rgatish zarur. Bolaning asosiy faoliyat turi o‘yin hisoblanganligi sababli bolaga tilni o‘rganish qizaqarli hisoblanadi. Agar bolaga chet tilini o‘rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo‘riqtirib qo‘ysak, bolani qiziqishini so‘ndirib qo‘yishiz mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o‘rgatish ancha mushkul va mas’uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish uchun bir nechta usullardan foydalanish mumkin:

- qo‘shiq va she’rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni kuyga solib o‘rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo‘shiq qilib o‘rganishlari shunchaki yodlashdan ko‘ra samarali ekanligini ko‘rsatish mumkin;
- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar;
- multfilmlar. Bolalar til o‘rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasalarda, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi va ularni avtomatik ravishda yod oladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o‘rganishlari uchun samarali yo‘l;
- rol ijro etish (role play) o‘qituvchi biror ma’lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o‘rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir tarbiyalanuvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko‘rsatib bersa, boshqa bir tarbiyalanuvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur;
- amaliy mashg‘ulotlar (mevalar va boshqa oziq - ovqatlarni ta’tib ko‘rish, gullarni hidlab ko‘rish);

Bu jumlani bir amaliyotchi psixologning fikrlari bilan izohlash mumkin: “Bolalarning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo‘lsa, hidlash va ta’m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak”. Masalan: tarbiyachi bir tarbiyalanuvchining olmani tatib ko‘rishi paytida uning rangi qizil(red) yoki yashil(green), ta’mi shirin(tasty) yoki nordon(sour), xushbo‘y(fragnet) hidi haqida ma’lumot berishi

va boshqa o‘quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o‘sha meva haqida inglizcha ma’lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu hol bolaning keyingi o‘rganishlarida ham yordam beradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan ranglarning inglizcha nomini so‘rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil- red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi;

- ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;
- ritmik musiqiy o‘yinlar bu har qanday an’anaviy o‘yinlardan farqli ravishda, masalan, sheriklar tanlovi bilan raqs tushadigan o‘yinlar bo‘lib, bu muloqot qobiliyatlarni o‘zlashtirishga emas, balki nutqning fonetik jihatlarini yaxshilashga yordam beradigan o‘yinlar sirasiga kiradı. Badiiy-ijodiy o‘yinlar bunday o‘yinlar bolaning badiiy ijod chegarasida turgan faoliyat turi bo‘lib, bunday o‘yinlar orqali bolalarning ichki dunyosini kashf qilish mumkin.

Tarbiyachi kerakli natijalarga erisha olmaslik sabablari. Tarbiyachida bolalarga savol-javobni to‘g‘ri qo‘yilmasligi. Juda ko‘p bog‘cha yoshidagi bolalar kam gap, tabiatan yoqtirmagan narsasi uchun juda e’tiborsizlik bilan munosabat bildiradi. Buni yengib o‘tish tarbiyachidan katta mashaqqatni talab etadi, uning berayotgan savollari tarbiyachining donoligini va bu mavzuni o‘zi juda muhim egallagan bo‘lishi kerak. Biz bolalar bilan ishlagan chog‘imizda shuni bildikki bolalarning sezgi organlari biznikidan ya’ni katta yoshdagilardan ancha yuqori. Ular buni ifoda eta olmasalarda lekin his qilib turishadi va o‘zlarining hatti harakatlari bilan namoyish qilishadi.

O‘zbekistonda bolalar bog‘chasida yangi multimedia texnologiyalari dasturni rivojlantirish hozirgi kunda eng muhim mavzudir. Raqamli texnalogiyalar maktabgacha ta’limning asosiy modelidir, bolalikdan boshlab sifatli ta’lim asosida bolalarni tarbiyalash va o‘qitish zarur. O‘zbekistonda yangi ommaviy multimedia vositalarini bog‘chalarga tadbiq qilish, bu kelajak avlod chet tilini o‘rganishga katta hissa qo‘shadi.

Bog‘cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko‘pgina rollar ko‘pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo‘ladi. Shu sababli, multfilmni samarali ta’lim vositasi sifatida qo‘llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba’zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo‘lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o‘qitishda biz Amerika Qo‘shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya’ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarning miya faoliyati to‘xtovsiz o‘sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miya faoliyati to‘liq shakllanib bo‘lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma’lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga chet tilini o‘qitishda asosan o‘yin, rasmlar, qo‘shiq va she’rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o‘rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishda yoshiga mos ijodiy va didaktik o‘yinlar va ochiq mashg‘ulotlar bilan ularning shaxsiy kamolotını zamonaviy usullar asosida shakillantirish mumkin. Bolalarga chet tillarini o‘rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to‘g‘ri tushuntirib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.
2. Feng Wang，Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education [J]．Early Childhood Educ
3. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi.-T.:O‘qituvchi, 2016 y.
4. Liu wang. Ertong xinglixue kaocha[J]. 2017-18.
5. Xaydarova Z.S Toshkent shahar yuridik texnikumi umumta’lim fanlar kafedrasi o‘qituvchisi “Modern methods of teaching English” maqolasi 2021 y. Dekabr.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING DOLZARBLIGI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna
NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Хатипова Элмира Илдаровна

Annotasiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalar nutqini tushunishi, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi, o‘zini nazorat qilishi, bishqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mantiqiy fikrlash, hamkorlik, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish.

Аннотация: Данная статья требует, чтобы дошкольники овладевали навыками мышления, понимали речь сверстников и взрослых, свободно обменивались с ними идеями, функционировали на основе сотрудничества. Речь идет о том, чтобы дети образно и логически мыслили на родном языке, правильно выражали свое воображение через речь, обладали самоконтролем, рефлексией, умственной подготовленностью к наблюдению, слуху, запоминанию, обобщению, сопоставлению.

Ключевые слова: Логическое мышление, сотрудничество, наблюдение, слух, запоминание, обобщение.

Annotation: This article requires preschool children to have the ability to think, to understand peers and adult speech, to freely exchange views with them, to operate on the basis of cooperation. In the mother tongue of children, it is spoken about the ability of imaginative and logical thinking, the correct expression of their imagination through speech, self-control, firing, observation, hearing, remembering, generalization, comparison, etc.

Keywords: Logical thinking, cooperation, observation, hearing, remembering, summarizing.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni
talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.
(A.A.Leont’ev)

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim – tarbiya berish hamda qulay shart – sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020–yilning 22 dekabrdagi 802-son qarori bilan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” tasdiqlandi. Davlat standartining maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Uning vazifalari qatorida ta’lim – tarbiya jarayonida samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta’lim – tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratni tashkil etish ham bor. Ma’lumki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasi davlat e’tiboridagi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabga ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya’ni bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalar nutqini tushunishi, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi, o‘zini nazorat qilishi, bishqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta nutq

o‘stirishning o‘rni, ahamiyati kattadir. Chunki, nutq kishilarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar nutqda o‘z aksini topadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti - umumiy ta'lim tizimidagi birinchi va eng mas'uliyatli bo‘g‘in. Bolalar bog‘chasida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning ko‘plab muhim vazifalari orasida ona tilini o‘rgatish asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Bolaning tabiat olami va jamiyat bilan tanishishda, matematikada, nutqni rivojlantirishda, vizual faoliyatdagi barcha yutuqlari, agar ular uning faol nutqida ifoda etilmasa, o‘rnini bosmaydi. Biz doimo bolalarning ongli va faol nutqini rivojlantirishga intilamiz.

Aynan nutq faoliyati, uning hajmi va xarakteri o‘quv - kognitiv, o‘yin, kommunikativ, mehnat va boshqa turdagi faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlariga aylanadi. Shuning uchun bolalar bog‘chasida nutq ishlarining umumiy tizimida izchil nutqni rivojlantirish, so‘z boyligini boyitish, uni birlashtirish va faollashtirish katta o‘rin tutadi va bu tabiiydir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatining integral sifatlarini shakllantirishga, atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv yo‘llari va vositalarini zamonaviy davlat ta'lim standartlarida belgilangan vazifalarga muvofiq o‘zlashtirishga qaratilgan interfaol pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etish hozirgi kun talabi hisoblanadi.

O‘qitishning interaktiv shakllari va usullari bugungi kunda tobora ko‘proq tan olinmoqda. Binobarin, maktabgacha yoshdagi bolalarni interfaol o‘qitish - bu o‘quv faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, uning maqsadi har bir bola o‘z muvaffaqiyatini his qilishi va muayyan intellektual ishlarni bajarishi va yuqori mahsuldorlikka erishishi uchun o‘zaro ta'sir o‘tkazish uchun qulay sharoitlarni ta'minlashdir.

Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy obrazlar bolaga jamiyat va tabiatdagi muhitni, insoniy his - tuyg‘ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi. Badiiy so‘z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilishdan iborat emas, balki bu bolada muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim – tarbiya berish hamda qulay shart – sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020 – yilning 22 dekabrdagi 802- son qarori bilan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” tasdiqlandi. Davlat standartining maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Uning vazifalari qatorida ta’lim – tarbiya jarayonida samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta’lim – tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratni tashkil etish ham bor. Ma’lumki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasi davlat e’tiboridagi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda.Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabga ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya’ni bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalar nutqini tushunishi, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi, o‘zini nazorat qilishi, bishqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta nutq o‘stirishning o‘rni, ahamiyati kattadir. Chunki, nutq kishilarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar nutqda o‘z aksini topadi.

Maktabgacha ta’limda nutq o‘stirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1.Bog‘lanishli nutqni o‘stirish.

2.Lug‘atni boyitish.

3.Nutqning grammatik tomonini tarbiyalash, so‘zlarning gapda o‘zaro birikishi va gap hosil qilish uchun zarur bo‘lgan turli grammatik shakllar, qo‘shimchalardan foydalanishni o‘rgatish.

4.Nutqning tovush tomonini tarbiyalash, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, ovoz ohanglarini tushunish, nutqiy nafas olishni to‘g‘ri bajarishni shakllantirish.

5.Maktabgacha ta’limda bolalarning nutqini tushunish, tinglash malakalarini shakllantirish, kattalarga nutq orqali murojaat qilish, dialogik va monologik nutqini o‘stirish, hikoya tuzishga o‘rgatish.

6.Badiiy adabiyot bilan tanishtirish, badiiy asarlar, ertak, hikoyalarni o‘rganish, kitobga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, asar mazmunini tushunish, obrazlar xususiyati, nutqini ajrata bilishga o‘rgatish.

7.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish va maktabga tayyorlash.

Nutq o‘stirishning asosiy vazifalarini aniqlash, uning mazmunini to‘liq belgilash, nutq o‘stirish ishlsrini tashkil etishni yengillashtiradi, bolalar nutqini o‘stirishning samarali bo‘lishini ta’minlaydi, chunki chinakam oqilona ta’lim bola ongini ham, xulqini ham o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir".
2. Babayeva D. R. “Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Toshkent “ Barkamol fayz media”. 2018.
3. Fayzullayeva M, Rahimova Z, Rustamova M. “ Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish”. Toshkent-2010.
4. Safarova R. va boshqalar. “Savodga o‘rgatish darslari”. Toshkent “ Ma’naviyat”. 2003.
5. Shodiyeva Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tog‘ri talaffuzga o‘rgatish”. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1990.
6. Shodiyeva Q. “O‘rta guruhlarda bolalar nutqini o‘stirish”. Toshkent . “O‘qituvchi”,1993.

О ВОПРОСЕ ЗАЩИТНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ УСЛОВИЯХ

Узбекистан,Ташкенский государственный педагогический университет им. Низамий*. *Елена Геннадьевна Алимова

Annotatsiya: Maqolada o‘smirning o‘zini o‘zi qadrlashiga qarab, qiyin vaziyatlarda himoya mexanizmlarini qo‘llash o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarining natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini hurmat qilish, himoya mexanizmlari, shaxsiyat, tuzatish.

Аннотация. В статье изложены результаты научно-исследовательской работы, посвященной изучению взаимосвязи применения защитных механизмов подростком в сложных ситуациях в зависимости от его самооценки.

Ключевые слова: самооценка, защитные механизмы, личность, коррекция.

Abstract. The article presents the results of research work devoted to the study of the relationship between the use of protective mechanisms by a teenager in difficult situations, depending on his self-esteem.

Key words: self-esteem, protective mechanisms, personality, correction.

В направлении воспитания гармонично развитой, самостоятельно мыслящей, инициативной и энергичной молодежи следует отдельное внимание уделять эффективной работе с подростками, так как именно в этот сложный переходный период ребенок находится в ситуации постоянного приспособления к физическим и физиологическим изменениям, подросток как будто все время находится в состоянии стресса, а восстановление личностного равновесия следует считать ведущей характеристикой подросткового возраста. Подросток

взаимодействует с внешним миром, вследствие чего происходит формирование самооценки и возможность проявить себя в стрессовых ситуациях.

В последние годы все большее число авторов обращается к изучению феномена психологической защиты, как важного неосознаваемого механизма регуляции поведения и деятельности человека. Разработкой проблемы психологической защиты у подростков занимались как отечественные, так и зарубежные психологи [1-6] (Р.М. Грановская, Ф.В. Бассин, А.Фрэйд, А.Адлер, А.Б.Карпов и др.). В подростковом возрасте ребенку очень важно сохранять самоуважение и соответствовать собственным идеалам, иначе подросток пребывает в постоянном конфликте с самим собой, что в последствие приводит к депрессии. Чтобы этого избежать подросток начинает использовать механизмы психологической защиты, которая предотвращает снижение самооценки.

Такое важнейшее свойство личности как самооценка, формируясь в подростковом возрасте, развивается в соответствии с внутренними свойствами личности и его сферой социализации, а так же имеет зависимость от оценок родителей, учителей, одноклассников и близких друзей. В этом возрасте самосознание концентрирует в себе изменения, которые происходят в развитии личности.

На самооценку подростка, по мнению А.И.Кравченко, наиболее сильно влияют педагогическая оценка, родители подростка, социально-психологический статус в коллективе сверстников. Недооценка, как и переоценка своих сил и возможностей является далеко не безобидным для подростка. Привычка к определенному положению в классном коллективе – "слабо", "средне" или "сильного", задающего тон в учебе, – постепенно накладывает отпечаток на все стороны жизни ребенка. Все отношения детей также начинают складываться под влиянием этого, уже "узаконенного" деления класса по результатам учебной деятельности [2].

По мере взросления у подростка изменяются характер и особенности видения себя в обществе, восприятие общества, иерархии общественных связей, меняются мотивы и степень их адекватности общественным потребностям.

А.А.Реан считает, что на первой стадии подросткового периода, в 12 – 13 лет, наряду с общим принятием себя сохраняется и ситуативно-отрицательное отношение ребенка к себе, зависящее от оценок окружающих, прежде всего сверстников [3]. В то же время критическое отношение подростка к себе, переживание недовольства собой сопровождаются возрастанием потребности в самоуважении, общем положительном отношении к себе как личности. У ребёнка такого возраста складывается отношение к самому себе, когда самооценка утрачивает зависимость от ситуаций успеха-неуспеха, а приобретает стабильный характер. Самооценка в этом возрасте выражает отношение, в котором образ самого себя относится к идеальному Я.

На второй стадии этого возраста, в 14—15 лет, возникает «оперативная самооценка», определяющая отношение подростка к себе в настоящее время. Эта самооценка основывается на сопоставлении подростком своих личностных особенностей, форм поведения с определенными нормами, которые выступают для него как идеальные формы его личности.

Подростки с повышенной самооценкой отличаются агрессивностью, тревожностью, эгоцентризмом и отсутствием способности находить выход из конфликтных ситуаций.

Подростки с адекватной самооценкой более уверенны в себе, активны, общительны, заинтересованы в различных видах деятельности. Они менее подвержены депрессиям. Подростки с такой самооценкой, как правило, имеют хорошую успеваемость в школе.

Подростки с низкой самооценкой отличаются тем, что более подвержены депрессивным тенденциям, состоянию подавленности, формированию вредных для здоровья привычек. Такие подростки не верят в свои силы и отстают в учебе. Обычно они очень зависимы от общественного мнения и стремятся быть незаметными, часто испытывают напряжение от общения с окружающими и позволяют другим принимать за них решения.

В ряде исследований В.К. Мягер, Е.Т. Соколова, Р.М. Грановская отличали «нормальную, профилактическую, постоянно присутствующую в повседневной жизни» индивида защиту, от патологической, неадекватных форм адаптации [7-9].

Как видно, к проблеме самооценки и применения защитных механизмов не выработано единого подхода и вопрос изучения психологических защит у подростков остаётся открытым.

Целью исследования является изучение формирования самооценки в подростковом возрасте в современных условиях и определить главные факторы её формирования и разработать методы коррекции, направленные на создание положительного образа «Я», который послужил бы основой для саморегуляции поведения и деятельности подростка, актуализации его активности, лучшей реализации своих возможностей. Отличительной чертой проведенного исследования является выявление закономерностей взаимосвязи самооценки подростка и применения им защитных механизмов для разработки коррекционных упражнений для повышения самооценки и гармонизации личности подростка.

На основании экспериментальных данных, полученных при тестировании учеников старших классов различных школ, проведен анализ уровня самооценки подростков и степени применения ими защитных механизмов. Полученные данные приведены в виде таблиц, где повторяющиеся результаты исключены и внесены единожды. Результаты анализа взаимосвязи уровня самооценки и применения защитных показал, что некоторые находятся в состоянии постоянного стресса, что может свидетельствовать о невротическом состоянии. Получены данные, указывающие, что если самооценка у подростка низкая (Опросник на самооценку, в котором указывается, что ниже 42 баллов самооценка считается низкой), то общая напряженность всех защит (ОНЗ) (Опросник Плутчика, в котором по данным В.Г. Каменской, нормативные значения этой величины равны 40-50%. ОНЗ, превышающий 50-процентный рубеж, отражает реально существующие, но неразрешенные внешние и внутренние конфликты), превышает нормативный рубеж и показывает взаимосвязь саммоценки с защитными механизмами. Так же следует отметить, что у современных подростков преобладает уровень самооценки выше среднего.

Можно сделать вывод, что в целом, в обычной ситуации подростки адаптированые, увереные в себе, не применяют каких-либо защитных механизмов. Здесь следует отметить, что у подростков со средней самооценкой уровень использования защитных механизмов варьирует, но лежит в пределах нормы.

Между самооценкой и применением защитных механизмов существует тесная взаимосвязь. Проведенное исследование позволило выявить закономерность применения защитных механизмов в зависимости от самооценки подростка: если социальная адаптация у подростков низкая, то срабатывают защитные механизмы.

Используемая литература

1. Бернс Р.Я. Я - концепция и Я - образы. Самосознание и защитные механизмы личности [Текст] /Р.Я. Бернс.-Самара. Изд. Дом «Бахрах», 2003. -656с.
2. Кравченко, А.И. Родителям о подростках (и подростком о родителях)/ А.И.Кравченко. М., 2002. -320с.
3. Реан А.А., Бордовская Н.В. и др. Психология и педагогика. – СПб, 2002. -432с.
4. Фрейд А. Психология «Я» и защитные механизмы. М.: Педагогика-Пресс, 2013. -144с.
5. Романова Е.С., Гребенников Л.Р. Механизмы психологической защиты: генезис, функционирование, диагностика. Мытищи: Изд-во Талант, 2006. -141с.
6. Каменская В.Г., Зверева С.В. Возрастные и гендерные особенности системы психологических защит. //Психологический журнал. 2005. том 26. -№4. –с.77-88.
7. Мягер В.К. Актуальные вопросы теории и практики психогигиены и психопрофилактики. // Современные формы и методы организации психогигиенической и психопрофилактической работы. –Л.: Медицина. 1985. -С. 8-13.

8. Соколова Е.Т. Феномен психологической защиты. // Вопросы психологии. 2007. -№4. –с. 66-80.
9. Грановская Р.М. Защита личности: психологические механизмы. / Р.М. Грановская, И.М. Никольская. –СПб.: Знание, 1998. –с.-41.

ZAMONAVIY IJTIMOIY-MADANIY SHAROITLARDA BOLA SHAXSINING BARQAROR RIVOJLANISHI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha kafedrasi o‘qituvchisi N.D.Nabiyeva
NavDPI 2 kurs (kechki) talabasi Nurova M.A.

Annotatsiya: Shaxs tushunchasi bu keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Har bir inson tug‘ilibdiki, bu - shaxsdir. Lekin uning o‘sib rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Yosh bola bir yoki ikki yosh paytidan unga tarbiya berish boshlanadi. Yetti yoki sakkiz yosh paytidan esa uning yoniga ta’lim ham qo‘shiladi. Har ikkalasi yilllar davomida teng ravishda berib boriladi. Bilmagan narsalari tushuntirilib, qiziqishlariga asoslanib unga kasb yoki hunarga yo‘naltirish beriladi. Shu paytdan boshlab bola o‘z kelajagiga birinchi qadamni tashlaydi. Endi u omma ichida o‘zini qanday tutishlar va qanday rivojlanishlar haqida fikr yurita boshlaydi. Agar bolani yosh paytidan odamlar ichida ko‘proq olib yurilsa u tez ijtimoiy aloqaga kirishishi oson bo‘ladi va u katta shaxs bo‘lib yetishadi.

Kalit so‘zlar: Shaxs, tarbiya, talim, ijtimoiylashuv, intellektual, biologik va ijtimoiy qonuniyatlar.

Аннотация: Понятие личности является всеобъемлющим понятием. Каждый человек рождается личностью. Но его рост очень важен. Обучение начинается, когда маленькому ребенку исполняется один или два года. С семи-восьми лет к этому добавляется образование. И то, и другое одинаково дается с годами. Ему объясняют то, чего он не знает, и исходя из его интересов дают рекомендации по профессии или ремеслу. С этого момента ребенок делает первый шаг к своему будущему. Теперь он начинает думать о том, как вести себя на публике и как развиваться. Если ребенка с раннего возраста больше носить с людьми, ему будет легче быстрее вступать в социальные отношения и он вырастет взрослым.

Ключевые слова: Личность, воспитание, образование, социализация, интеллектуальные, биологические и социальные законы.

Annotation: The article presents one of the urgent problems - the development of the child's personality in modern realities. The characteristic of the modern «difficult» world, tendencies of its development which are represented as risk for favorable development of the personality of modern children is given. The ways of overcoming the negative influence of the environment through the creation of favorable conditions for the personal development of the child in the modern world are proposed.

Key words: personality, personal transformations, risks of personal transformations, social situation of development.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga

o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me’yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a’zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta’sir etadi. Shaxsning shakllanishiga turli g‘oyalar, ijtimoiy muhit tasir ko‘rsatadi. Odamlar ijtimoiy me’yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o‘rganadilar. Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo‘llanma II qism T.,(tuz. S.Nishonova, B.Hasanova) TDPU 2002 y.

2. Pedagogika tarixidan Xrestomatiya (Tuz. O. Hasanboyeva) T., O‘qituvchi, 1973.

3. Rajabov.S.Pedagogika faning buyuk allomalari. T. «O‘kituvchi», 1990.

4. Hasanov R. K.D.Ushinskiy. (voizga yordam) T. MRDI 1999.

5. Hoshimov K., Nishonova S Pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llanma. T., A.Novoiy nomidagi O‘z.Res "milliy kutibxona" nashryoti, 2006.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga O‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi Eshova Gulrux Tuymurotovna

Annotatsiya: Ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individualligiga yo‘naltirish, nazariyani hayotiy misollar va amaliy tajribalar bilan bog‘lash hamda mashg‘ulot jarayonida doimiy “aks aloqa” o‘rnatish bolalar o‘quv ma’lumotlarini tushunib samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, individual yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsiy samaradorlik, o‘quvchini rivojlanishi, kasbiy kompetentlik.

Аннотация: ориентация учебного процесса на индивидуальность учащихся, связь теоретических знаний с жизненными примерами и практическим опытом, а также

постоянная “обратная связь” в процессе занятия обеспечивают эффективное усвоение учебного материала учащимися.

Ключевые слова: учебный процесс, индивидуально ориентированное обучение, индивидуальная эффективность, развитие учащегося, профессиональная компетентность.

Abstract: the orientation of the educational process towards the individuality of students, the connection of theoretical knowledge with life examples and practical experience, as well as constant “feedback” during the lesson ensure the effective assimilation of educational material by students.

Key words: educational process, individually oriented learning, individual effectiveness, student development, professional competence.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan bir qator direktiv xujjatlarda ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagoglarini jalb qilish, o‘qitish metodikalarini yanada takomillashtirish va ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish vazifalari belgilangan[1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va uslublarini joriy qilish, ta’lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoit yaratish bilan birga pedagog va mutaxasislarning kasbiy kompetentligini ham oshirish kerak bo‘ladi[2]. Chunki xozirgi kunda ta’lim va tarbiya masalasiga eski andozalar vositasida yondashib bo‘lmaydi.

Maktab o‘quvchilari faoliyati samaradorligini oshirishning shakl va metodlari, usul va vositalari tizimini amaliyotga joriy etish alohida pedagogik muammoligicha qolmoqda. Chunki bunday faoliyat pedagog va o‘qituvchilardan zamonaviy pedagogika faniga oid bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarini talab qiladi. Ushbu muammoni hal etish uchun o‘rta umumta’lim maktablarining pedagog-o‘qituvchilari o‘quv-tarbiya jarayonini bolalarning shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishga yo‘naltirishlari kerak. Bu esa ta’lim jarayonini o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, yosh jihatlari va individual o‘ziga xosliklarini hisobga olib tashkil etilishini talab qiladi.

Shu bilan birga, o‘quvchilarning shaxsiy samaradorligini oshirishda millatning etnik xususiyatlari, urf-odatlari va milliy qadriyatlari xisobga olinishi zarur, deb hisoblaymiz.

Shaxs samaradorligi quyidagi uchta g‘oya asosida tavsiflanadi: 1) maqsad va ustuvorliklar; 2) yakuniy natijaga e’tibor qaratish; 3) aql kuchini bekor sarflamaslik. Shaxs faoliyatini boshqarishning turli usullarini ishlab chiqishda ushbu g‘oyalarga tayaniladi. [5]

“Shaxsiy samaradorlik” tushunchasi asosan inson xarakterini, uning intellektual qobiliyatlarini, irodasini, iste’dodini, kasbiy tayyorlik yoki bilim darajasi kabilarni nazarda tutadi, deb xisoblaydi Z.P.Zamarayeva va N.V.Pankratov. [8]

S.Didkovskiy shaxs erishgan natijalarini haqqoniy baholaganida, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga qaraganda nisbati kam yoki ko‘p natijaga erishgan bo‘lsa uning faoliyatini “samarali” deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi, deb hisoblaydi. [2]

S.A.Drujilov faoliyat samaradorligi omillariga tashqi muhitning salbiy ta’sirini tadqiq etgan. Ushbu omillar sifatida shaxsiy sifatlar, motivatsiya, psixologik adaptatsiya/dezadapsiya, ijtimoiy munosabatlar tizimi, bilish funksiyalari va operatsional bloklar o‘rganilgan. Bunda faoliyatni umumiy samaradorligiga shaxsiy omillardan – vijdonlilik, muloqotda qat’iyatlilik va emotsional turg‘unlikning, motivatsiya blokida – ijodiy faollik motivini shaxsiy samaradorlikni oshirishga ta’siri katta ekanligi, komfortga erishish motivi esa samaradorlikni pasaytirishi mumkinligi aniqlangan. [5]

Shaxs o‘z oldiga qo‘yadigan maqsad va vazifalarni belgilashida shaxsiy imkoniyatlarini aniq hisobga olishi keyingi faoliyati jarayonini rejalashtirishida muhim axamiyatga ega bo‘ladi.

Quyidagi ko‘nikmalar inson faoliyati shaxsiy samaradorligining mohiyatini tashkil qilib, ularni rivojlantirish orqali shaxsiy samaradorlik darajalarini / ko‘rsatkichlarini yaxshilash mumkin: 1) maqsadlarni belgilash va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash; 2) vaqtni boshqarish tamoyillariga

rioya qilish; 3) fikrlashning samarali usullaridan foydalanish; 4) odamlar bilan muloqot qilishda kirishuvchanlik. [3]

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash o‘quv mashg‘ulotining turli bosqichlarida o‘quvchining ta’lim subyekti sifatidagi pozitsiyasini shakllantirishda, ushbu pozitsiyaning namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratishda hamda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalarga individual qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berishda o‘z aksini topadi.

O‘rta umumta’lim maktablari o‘quvchilarining shaxsiy o‘sishi murakkab tizimni rivojlantirishning ilg‘or yo‘nalishi bo‘lib, shaxs rivojlanishini yaxlitlikda miqdoriy va sifat o‘zgarishlari darajasiga olib chiqishini amalga oshiradi. Shaxsni ijtimoiylashuv jarayoni uning individualligi, o‘z imkoniyatlarini amaliyotda qo‘llashi va shaxsiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishini o‘z ichiga olib, o‘quvchilar shaxsini yaxlit shakllantirish uchun pedagogik sharoitlar tizimini yaratadi. [3]

V.V.Kovalev tomonidan rivojlantiruvchi-korreksion ish vositasida o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelgan o‘quvchilarda ta’lim motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlovchi quyidagi pedagogik shartlarni taklif qilgan:

o‘quv faoliyatida turli xarakterdagi murakkab vaziyatlarni boshdan kechirayotgan o‘quvchilarning hissiy, intellektual va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirib borish;

bolaning maktab adaptatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan nizolar va manfaatlar to‘qnashuvlarini modellashtirish orqali ijobiy hal qilish;

o‘quvchining motivatsion va semantik funksiyalarini faollashtirishga qaratilgan tizimni shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatlar tarzida qurish. [7]

N.G‘.Dilova hamkorlikda o‘qitish pedagogikasi pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslanganligini hisobga olib, mazkur texnologiya hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalarni bajarish, masalalar yechish kabi yo‘llarini aniqlagan. Tadqiqotchi “ta’lim texnologiyasining mohiyati – shaxsni rivojlantirish, ta’lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish emas, balki unga o‘z-o‘zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat bo‘lishi lozim”, - deb xulosa qiladi. [5]

M.M.Rustamova dars jarayoni o‘quvchilar shaxs samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun o‘quv vazifalari bilim olish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintezlash va baholash kabi didaktik talablarga javob berishi lozim, deb hisoblaydi. [8]

Shunday qilib, shaxsiy samaradorlik insonning salohiyatini – xarakterini, intellektual qobiliyatlarini, irodasini, iste’dodini, kasbiy tayyorgarlik yoki bilim darajasi kabi ko‘rsatkichlarni belgilaydi. Mazkur tushuncha inson oldida turgan yaqin va istiqbol maqsadlarini belgilashi va faoliyatidagi ustuvorliklarni aniqlab, uni vaqt kesimida to‘g‘ri tashkil etishi kabilarni nazarda tutadi.

O‘quvchining shaxsiy samaradorligi – odob-axloq me’yorlariga rioya qilgan holda dars, darsdan tashqari va maktabdan tashqari faoliyatlarda o‘z intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy imkoniyatlarini qo‘llab amalga oshiradigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

“Maktab o‘quvchisining shaxsiy samaradorligini oshirish” deganda o‘quvchini shaxsiy, individual va xarakterologik xususiyatlaridan kelib chiqib bilish jarayonini maksimal darajada faollashtirishni tushunamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni / https://lex.uz/docs/4312785

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekistan”, 2017. – 488 b.

3. Gulyamov D.R., Kalanxodjayeva K.B. K voprosu ucheta osobennostey mejpolusharnoy funksionalnoy asimmetrii mozga obuchayemix v uchebnom protsesse / J. Aktualniye problemi gumanitarnix i yestestvennix nauk. № 11, 2018.

4. Didkovskiy S, Lichnaya effektivnost. NAU Istochnik: Jurnal HRMagazine, № 9, 2007.

5. Dilova N.G. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi. Ped.fan...falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. - Nukus – 2018. – 52 b.

6. Drujilov S.A. Osnovi prakticheskoy psixologii i pedagogiki dlya bakalavrov / ucheb. posobiye dlya studentov texnicheskix vuzov. – M. : FLINTA : Nauka, 2013. – 240 s./ https://www.academia.edu/26297114

7. Kovalev V.V. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya uchebnoy motivatsii podrostkov v protsesse korreksionno-razvivayushego obucheniya. 13.00.01 —obshaya pedagogika, istoriya pedagogiki i obrazovaniya. Avtoref. dis. na soisk. kand.ped. nauk. Voronej, 2004. -24 s.

8. Rustamova M.M. Mehnat ta’limi darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyasi (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida) // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2015, №6. –B.41-46.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Ta‘lim va tarbiya nazariyasi yo‘nalishi
magistranti Shermetova Shahnoza

Annotatsiya.Ushbu maqolada biz media vositalari bolalarga maktabgacha yoshdan boshlab axborot texnologiyasi shakllanishida vosita bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, unda zamonaviy axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bilan bog‘liq dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning muhimligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot, media, kompyuter, raqamli texnologiya, internet, tizim, texnologiya.

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим, что медиаинструменты будут инструментом для развития у детей информационных технологий с дошкольного возраста.Также подчеркивается важность формирования исходных предположений, связанных с соблюдением правил техники безопасности при целенаправленном использовании современных информационных технологий.

Ключевые слова: Информация, медиа, компьютер, цифровая технология, Интернет, система, технология.

Annotation. In this article we will consider that media tools will be a tool for children to develop information technology from the age of preschool.It also highlights the importance of forming initial assumptions related to compliance with safety regulations in the purposeful use of modern information technology.

Keywords: Information, media, computer, digital technology, Internet, system, technology.

Bugungi kunda moddiy va ma'naviy hayot sifatini ko'p jihatdan axborot texnologiyalari vositalari belgilaydi. Raqamli ommaviy axborot vositalarining tez o'zgarib borayotganligini hisobga olsak, hozirgi kunda bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab mediani sifatli o‘rganish, undan to‘g‘ri va unumli foydalanishni o‘rganishi davr talabi va ehtiyojidir. Sh u jumladan, uzluksiz ta’limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 sonli qonunining 53-moddasida ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish-ishlab chiqarish, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilangan.[1]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning an'anaviy shakllari bilan taqqoslaganda, media taqdimotlari bir qator afzalliklarga ega: Taqdimot maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli majoziy turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi; bolalarda ruhiy obrazlar tizimini shakllantiradi. Kichkintoy ko'p narsaga qiziqadi: ertalabdan kechgacha undan savollar to'kilgandek tuyuladi. Qanday qilib tushuntirish, aniq aytish va uzoqlashtirmaslik, bolalarning qiziquvchanligi va ongining

izlanuvchanligini o'chirmaslik kerak? Voyaga etgan odam chaqaloqdan tubdan farq qiladi: biror narsani tushunish uchun unga og‘zaki tushuntirishni va rivojlangan og‘zaki nutqni tinglash kifoya-mantiqiy fikrlash o'z ishini qiladi. "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal" degan naql, birinchi navbatda, kichkina bola haqida. Bu unga aniq edi - obrazli fikrlash faqat bu aniqsiz bir vaqtning o'zida ob'ektning harakatini ko'rib chiqishingiz, eshitishingiz, harakat qilishingiz yoki baholashingiz mumkin. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani ochiq ma'lumot olish uchun kanallarga murojaat qilishni o'rgatish juda muhimdir.

Axborot davri o'qituvchisining vazifasi bolaning tanqidiy fikrlashini, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilish va tanlash qobiliyatini rivojlantirish, bolaning ommaviy axborot vositalarini shakllantirishda axborot muhiti uchun o'z media matnlarini tuzish, umumlashtirish, foydalanish va mazmunli yaratishdir. Kompyuter kundalik hayotda ko'rish mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, bolaga raketani uchirish jarayonini yoki qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasini qanday ko'rsatish mumkin? Kompyuterning imkoniyatlari tanishish uchun taklif qilinadigan material hajmini oshirish imkonini beradi. Bolalarning elektron ensiklopediyalarini o'zlashtirib, yuqori dinamika tufayli material samarali so'riladi, xotira o'rgatiladi, so'z boyligi faol ravishda to'ldiriladi, tasavvur va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.[2] Keyinchalik internetda kattalar yordamida bolalar rasmlarni topadilar, tanlangan ob'ektlarni suratga oladilar va eng qiziqarlilarini chop etadilar. Qiziq ota-onalar va bolalar videoreportajlar suratga olishadi, topishmoqlar, viktorinalar o'ylab topishadi. "Jurnalistlar, fotomuxbirlar o'yinlari" qiziqarli o'yin usullaridan foydalanish bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. U dinamikani, tovushni va tasvirni birlashtiradi, ya'ni bolaning e'tiborini eng uzoq vaqt ushlab turadigan omillar.[3] Media vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi pedagogik yangiliklar tajribasini, psixologik va pedagogik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirishni talab qiladi. Bu muammoni hal qilish usullaridan biri bu bolalar bilan ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning texnologik yondashuvidir. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta`limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bunda esa bizga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarurati paydo bo‘lar ekan. Biz yuqorida sanab o‘tgan barcha jabhalarda ta’lim sifatini oshirishda ulardan foydalanish eng sifatli samarali va yagona usul ekanligiga amin bo‘ldik.[4] Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o‘stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko‘ra, tarbiyachi mashg‘ulotlarda turli o‘quv pedagogik dasturlardan, elektron qo‘llanmalardan, pedagogik o‘yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi to‘siq yo‘qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg‘ulotda majburiy bilim berish bo‘lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTTlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.[5]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda media vositalari zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining asosiy qismiga aylangan bo‘lib, u hayotimizning barcha jabhalarida mavjuddir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dars mashg‘ulotlari jarayonida multimedia vositalaridan ko‘rgazmali vosita, tabiyalanuvchilar mustaqil o‘zlashtirishiga mo‘ljallangan didaktik o‘quv materiali, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ixtirochilik qobiliyatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ijodiy texnologik obyekt sifatida foydalanishga asosiy e’tibor qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 sonli qonuni.

2. https://www.researchgate.net/publication/341735277_Using_Interactive_Media_to_Support_Reading_Skills_among_Underachieving_Children

3. Mavzu bo'yicha uslubiy ishlanma: Multimediali taqdimot maktabgacha tarbiyachining o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish shakllaridan biridir. Bolalar bog‘chasida multimedia vositalaridan foydalanish (muhaz.org)
4. b06fdc_9f114ae39eff48c7a62f201285adadc1.pdf (iupr.ru)
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish-dolzarb vazifamiz (cyberleninka.ru).

BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENSIYANING BARQAROR RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING AHAMIYATI

O‘zbekiston NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II kurs magistri
Otaqulova Gulgunoy Abdunabi qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning ijtimoiy kompetensiyasining shakillanishiga ta’sir etuvchi eng muhim omil bo‘lgan ijtimoiy muhit, uning asosiy ma’no mazmuni, bola hayotidagi o‘rni, ahamiyati, ijtimoiylashtirish yo‘nalishlari va ularning namoyon bo‘lish shakillari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiylashuv, ijtimoiy kompetensiya, ijtimoiy muhit, ijtimoiy yo‘nalish

Abstract. This article contains detailed information about the social environment, which is the most important factor affecting the formation of children's social competence, its main meaning, its place and importance in the life of a child, the directions of socialization and the forms of their manifestation.

Key words: Socialization, social competence, social environment, social orientation

Абстрактный. В данной статье содержится подробная информация о социальной среде, которая является важнейшим фактором, влияющим на формирование социальной компетентности детей, ее основном значении, месте и значении в жизни ребенка, направлениях социализации и формах их проявления. данный

Ключевые слова: Социализация, социальная компетентность, социальная среда, социальная направленность.

Uzoq yillar davomida insoniyat jamiyatining o‘z atrof-muhiti bilan o‘zaro munosabatlarining uzviylik prinsiplari butun dunyoda keng miqyosda o‘rganib kelingan. Buning natijasida sog‘lom ijtimoiy muhitning yaratilishi bolalarning har tomonlama barqaror rivojlanishida yetakchi omil ekanligi aniqlangan. Shu sababli ham bugungi zamonaviy dunyoda bolalarni ijtimoiylashtirish, ularda ijtimoiy kompetensiya elementlarini to‘g‘ri shakillantirishda ijtimoiy muhit ta’sirini o‘rganish jamiyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy muhit – insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi asosiy bilim, tajriba va ko‘nikmalarini, xususiyatlarini shakllantiradigan moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar majmuasi. Ijtimoiy muhit, keng ma’noda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy institutlar majmui, ijtimoiy ong shakllari va jamiyat madaniyatini qamrab oladi (makromuhit). Tor ma’noda, inson bevosita yashaydigan, mehnat qiladigan oila va jamoa, o‘quv dargohi, madaniyat maskanlarini o‘z ichiga oladi (mikromuhit). Ijtimoiy muhit bola ma’naviyatining shakllanishi va rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuvida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan bola va unga ta’sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o‘zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-bola kirishadigan, o‘zini qulay sezadigan ko‘cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o‘zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta’sir qiladi hamda o‘zgartiradi. Ijtimoiylashuv bolaning butun hayoti davomida kechadigan ko‘p qirrali jarayondir. U ayniqsa maktabgacha yosh davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan shu davrda asosiy ijtimoiy me’yorlar o‘zlashtiriladi. Bu me’yorlarni bola

hayotidagi muhim rollarga taqsimlashimiz mumkin. Zotan turli ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish ham shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bola o‘z rivojlanishi davomida o‘zlashtiradigan asosiy roli bu jamoa a’zosi rolidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va turli xil to‘garak mashg‘ulotlarda tengqurlari bilan muomala qilganda bola jamoa a’zosi, o‘rtoq, do‘st, o‘quvchi, yetakchi kabi rollarni o‘zlashtiradi. Har bir inson iste’molchi rolini bajaradi. CHunki u hayoti mobaynida zarur bo‘lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o‘zlashtirishi lozim.
Yana bir muhim ijtimoiy rol-o‘z vatani fuqarosi bo‘lish, uni sevish, u bilan fahrlanish, vatanparvarlikni his etish bilan bog‘liq[2]. Bolalarda ijtimoiylashtirish uchta yo‘nalishda olib boriladi:



Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlari bilan tanishishi va uni keyinchalik kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini bilishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishi kabi hodisalar sodir bo‘ladi. Anglash sohasida o‘z “men”i obrazini shakllantirish, o‘zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o‘rnini anglash ro‘y beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalarda ijtimoiy kompetensiyani shakillantirishda ijtimoiy muhitning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Chunki bola ijtimoiylashuv komponentlarini o‘ziga yaqin bo‘lgan muhitdan qabul qiladi, o‘zlashtiradi va shu asosda shakillanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.“Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, may 15-16, 2023 11 ijtimoiy-madaniy muhit tanqidiy fikrlash vositasi sifatida Gulyamova A.O
2. Ijtimoiy omillar - 9-Mavzu: Ijtimoiylashuv omillari va vositalari (muhaz.org)
3. Ijtimoiy muhit - Vikipediya (wikipedia.org)
4. Социальная среда для особенного ребёнка (b17.ru)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA CHET TILINI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

O‘zbekiston, Finlandiya pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
1-bosqich magistranti Nuriddinova Maxliyo Nuriddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi uzluksiz talimning dastlabki bosqichi hisoblangan Maktabgacha talim tashkilotlarida chet tillini o‘qitishda qo‘llaniladigan texnalogiyalarni yanada takomillashtirish va uning natijali bo‘lishini kafolatlash hamda,bolalarni maktab talimiga tayyorlashda chet tillidan dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishga xizmat qilishni taminlash kerakligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Chet tilini o‘qitish, Uzluksiz ta’lim, Lug‘at, Texnologiya, Nutq madaniyati, Multimedia, Didaktik o‘yin, Chet tilini o‘qitish metodikasi.

Аннотация: В данной статье мыслится необходимость дальнейшего совершенствования технологий, используемых при обучении иностранному языку в организациях дошкольного образования, которое считается первым этапом непрерывного образования в нашей стране, и гарантировать его эффективность, а также обеспечить оказание услуг по приобретению начального понимания иностранного языка при подготовке детей к школьному обучению.

Ключевые слова: Обучение иностранному языку, Непрерывное образование, Лексика, Технология, Культура речи, Мультимедиа, Дидактическая игра, Методика преподавания иностранного языка.

Annotation: In this article, it is thought that it is necessary to further improve the technologies used in teaching a foreign language in pre-school education organizations, which is considered the first stage of continuous education in our country, and to guarantee its effectiveness, and to ensure the provision of services to acquire the initial understanding of a foreign language in preparing children for school education.

Key words; Foreign language teaching, Continuous education, Vocabulary, Technology, Speech culture, Multimedia, Didactic game, Foreign language teaching methodology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi „Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida’’gi ПК-3261 sonli qarori[1] ijrosini taminlash yuzasidan maktabgacha ta’lim sohasidagi ishlar sifati oshirilmoqda.Prezidentimizning bunday qaror va farmonlari maktabgacha talim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash,bolalarni sifatli maktab talimga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash,talim – tarbiya jarayoniga texnalogiya va zamonaviy talim dasturlarni joriy etish kabi dolzarb masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan. Uzluksiz talim tizimida tillarni o‘rgatishga etibor oshirildi.Madaniyatlararo muloqot vositasi hisoblangan til o‘rganish maktabgacha talim tashkilotlaridanoq kuchaytirilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ingliz tili bo‘yicha o‘quv yakunlariga doir umume’tirof etilgan testlar topshirish faoliyati va tizimini tashkil qilish dolzarb vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilindi. Xalqaro e’tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish zarurligi belgilandi.

T.K. Sigal tomonidan yaratilgan “Audirovaniye dlya shkolnikov” (2014) deb nomlangan o‘quv qo‘llanma Elementary darajasidagi ingliz tilini o‘rganishga mo‘ljallangan. ETR Moskva shahridagi Ayris-press nashriyotida tayyorlangan bo‘lib, uning maqsadi - ingliz tilidagi matnlarni tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mazmunli ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish. Tinglash materiallari mashhur afsonalar va ertaklardan moslashtirilgan matnlarga asoslangan. Psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun puxta ishlab chiqilgan

mashqlar mavjud: Ushbu ETR 61,91 MB ni tashkil qiladi.[2] Dunyo mamlakatlari amaliyotiga qaraydigan bo‘lsak chet tillarini bolalarga ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qitishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.Jumladan,Ispaniyadagi Mursiya universitetida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini qo‘shiqlar va ertaklar asosida o‘rgatish,Gretsiyadagi Ayenina universitetida axborot texnologiyalari vositasida,Erondagi Islamik Azad universitetlarida raqamli o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik bo‘lib,ushbu xorijiy tajribalarnio‘rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib boorish zaruriyatga aylanganligini ko‘rsatadi.

Respublikamiz talim tizimida o‘tkazilatotgan tub islohotlar ,chet tillarini birinchi sinfdan boshlab uzluksiz o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi,maktabgacha talim tashkilotlari moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy taminotining mustahkamlanishi, maktabgacha talim sifatini oshirish,bolalarga chet tillini o‘qitishning interfaol metod va usullariga etibor kuchayganligi,,Ilk qadam’’ tayanch dasturi va shu kabi qator meyoriy-huquqiy asoslarning yaratilishi makatbgacha talim sohasini to‘liq modernizatsiyalanishiga olib keldi.Bu Maktabgacha talim tashkilotlari uchun chet tillarini xususan,ingliz tilini o‘rgatishning innovatsion usullarini ishlab chiqish,metodik qo‘llanmalar yaratish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Bolalar uchun chet tillarini o‘rganishning eng maqbul va oson o‘zlashtirish davri maktabgacha bo‘lgan davr bo‘lib,kichik yoshdagi bolalarda til o‘rganishning o‘ziga xosligini tug‘ma qobiliyat deyish mumkin. So‘z-musiqa-harakat horijiy tilni o‘rgatishda bir butun yaxlitlikni tashkil etadi. So‘zlarni qo‘shiq qilib aytish va uning ohangiga mos holda ko‘rsatib, so‘zning nomini aytadi. Bolalarni talaffuzni jo‘rlikda takrorlaydilar. Keyingi bosqichda o‘yinchoq yoki rasmni berib,yangi so‘zni aytishga undaydi. Bu faoliyat bir boladan ikkinchisiga zanjir kabio‘taveradi va qadama qadam o‘stirib brogan holda amalga oshirib boriladi.Pedagog yangi so‘zni o‘rgatish jarayonida,har bir bolaning to‘g‘ri talaffuz qilishini ham kuzatib boradi. Mashq yakunida bolalar o‘zlashtirilgan so‘zlarni jo‘rlikda takrorlaydilar. Kichik yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyat turi o‘yin bo‘lib,u shu qadar universal,shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatki,bu jarayonda bolaning barcha psixik jihatlari va bilish faoliyati ribojlanadi.O‘yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita bo‘lib, ayniqsa syujetli-rolli o‘yinlar malum bir mavzuga oid so‘zlarni o‘zlashtirish va o‘z fikrni mustaqil ravishda bayon etishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda so‘z o‘yinlari, didaktik, harakatli, musiqiy, syujetli-rolli,sahnalashtirilgan o‘yinlardan foydalanish yaxshi samara berishini ko‘rsatdi[3]. Maktabgacha talim tashkilotlarida chet tilli mashg‘ulotlarida yangicha innovatsion metod va usullardan foydalanish bolalarning chet tilli bo‘yicha bilimlarini egallashga yengiliklar yaratadi.Bolalar uchun asosiy faoliyat turidan biri o‘yin bo‘lganligi uchun ham mashg‘ulotlarda o‘yin metodi ko‘proq foydalaniladi. Charades o‘yini.Pictionary o‘yiniga o‘xshash lekin asosiy farqi bunda so‘z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o‘yin o‘quvchilariz sust, zerikkan va uyqusi kelgan vaqtlarda juda qo‘l keladi. Ularni uyg‘oting va harakatlantiring!

O‘quvchilar tanlashi uchun bir necha to‘rtburchak qilib qirqilgan qog‘ozlarga so‘zlar yozing. Fe’llarni ifodalash ancha oson. Lekin siz biroz murakkabroq, shunday bo‘lsada hamma o‘quvchilar biladigan so‘zlardan foydalanishingiz mumkin.

Sinfni ikki jamoaga bo‘ling. Va har bir jamoadan bir o‘quvchi so‘z yozilgan qog‘ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar esa uch daqiqa ichida o‘sha so‘zni topishi kerak bo‘ladi. Har bir to‘gri javob uchun, bir ball beriladi. 10 ball jamlagan jamoa g‘olib hisoblanadi[4]. Ushbu o‘yini bog‘cha yoshidagi bolalarga moslab tashkil qilish kerak.Qog‘ozlarga so‘z o‘rniga hayvonlar rasmini qo‘yib,bolalarni taqlid qilishga o‘rgatish mumkin.O‘yin davomida hayvonlarning ingliz tilidagi nomini ham eslab qolishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.https;//lex.uz.

2.https;//moluch.ru/archive.

3. Akbarova Shakhnoza Hikmatullaevna.Pedagogikafanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertasiyasi.O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

4.hasanboy.uz.Ingliz tili darslarda qiziqarli o‘yinlar.

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA ESTETIK TARBIYA BERISH METODIKASI

O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar unversiteti,
Maktabgacha ta'lim fakulteti sirtqi bosqich talabasi
Abdullayeva Turg'unoy Qosimjonovna

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'limda amalga oshirilayotgan islohatlar maktabgacha ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan'anaviy darslarni tashkil etishning mazmunmohiyati, bog'cha yoshidagi bolalar tarbiyasiga e'tibor shuning jumlasidan.

Bolalarda go'zallik haqidagi bilimlar atrof voqelikni uning butun xilma-xilligida, shuningdek go'zallik eng ko'p jamlangan holda aks etadigan san'atni estetik o'zlashtirish jarayonida tarkib toptiriladi. Hayot xilma-xilligi, san'at turlari va janrlarning xilma-xilligiga sabab bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish asosida ularni intellektual rivojlantirish uchun ta'lim jarayoni sub'ekti sifatida ularning faollikni shakllantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida estetik tarbiyaning o'rni va ahmiyati yorqin misollar orqali keltirilgan.

Kalit so'zlar: estetika, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ahamiyat, ta'lim-tarbiya.

Аннотация: Реформы, реализуемые в образовании сегодня не обошла и систему дошкольного образования. Система дошкольного образования в том числе суть организации нетрадиционных занятий на основе нового подхода, уделение внимания обучению детей детсадовского возраста.

Знания о красоте у детей отражают окружающую действительность в ее во всем ее многообразии, а также в том, что красота наиболее сконцентрирована в процессе эстетического освоения искусства. Разнообразие жизни разнообразие, обусловленное разнообразием видов и жанров искусства.

Особое внимание следует уделить формированию активности детей как субъекта образовательного процесса по их интеллектуальному развитию на основе обучения и воспитания в дошкольных образовательных организациях. В данной статье на ярких примерах представлена роль и значение эстетического воспитания в организации дошкольного образования.

Ключевые слова: эстетика, организация дошкольного образования,
значимость, воспитание.

Abstract: Reforms implemented in education today did not bypass the preschool education system. Preschool education system including the essence of organizing non-traditional classes based on a new approach, and paying attention to the education of children of kindergarten age.

Children's knowledge of beauty is formed in the process of aesthetic mastery of art, reflecting the surrounding reality in all its diversity, as well as the most concentrated beauty. The variety of life leads to a variety of arts and genres.

Special attention should be paid to the formation of activity of children as a subject of the educational process for their intellectual development on the basis of education and upbringing in preschool educational organizations. In this article, the role and importance of aesthetic education in the organization of preschool education is presented through vivid examples.

Keywords: aesthetics, organization of preschool education, importance, education.

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'limning birinchi qadami bo'libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bunga dalildir. Maktabgacha ta'lim muassasa (MTM)larida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori

saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta’limning keyingi bosqichlarida qiynalmasdan davom ettirishga imkoniyatlar yaratadi. Ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy shartlardan biri – bolalarning ingliz tiliga ijobiy munosabatini rag‘batlantirish va turli xildagi ta’lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu vositalar ichida pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan didaktik o‘yinlar asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, dars samaradorligini ta’minlashda ta’lim vositalaridan foydalanish, darslarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi va texnologik xarakterdagi didaktik o‘yinlarning imkoniyatlari beqiyosdir.

Xalqimiz azaldan ma’naviy fazilatlarga boy bo‘lib kelgan. Har bir ota-ona farzand tarbiyasida ularning hulq-atvori, yurish-turishiga, jamiyatda o‘zini tutishiga ayniqsa e’tibor qaratilgan. Ularning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatishlarini, o‘rinsiz nojuya harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikni bola tarbiyasining ahamiyatli omili deb qaraganlar. Bolaning erta davrdagi rivojlanishini atrof muhitni, umumiy dunyoni estetik idrok etishga tayyorlik davri deb qarash mumkin. Bola shu davrda ba’zi aniq shakllarni: ritmik shakllarni, musiqa ovozi, ochiq ranglar, onasi ko‘ngil kuyi, mehri, kayfiyati, tabassumi va yoqimli ohanglarini his etadi va ularga jabov beradi. Bolada bir yoshligida sensor-hissiy idroki rivojlanib boradi. Keyinchalik bola idroki yanada takomillashib, nafaqat ba’zi predmetlar xususiyatlarini idrok etish, balki ba’zi san’at asarlarini estetik tomonlarini ham idrok etishni boshlaydi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta’lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg‘ulotlarda ta’lim berish orqali, ijodiy va qoidali o‘yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o‘z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayrlar o‘tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta’lim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Bolalar bog‘chasining pedagogik jarayonida ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o‘yinda, mehnatda, mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bu davrda maktabgacha ta’limda bir qator yangilanishlar amalga oshirilib, uning maqsadlari tubdan yangilandi. Uning bolalarni intellektual rivojlantiruvchi funksiyasi kengayib ta’lim oluvchilarning o‘ziga xosligini hisobga olish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta’limning yangi mazmuni ko‘pvariatlilik, uzviylik, bolalarda dastlabki ko‘nikmalar va tasavvurlarni shakllantirish, ularning individual xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bolalarga maktabgacha yosh davrida estetik tarbiya berish boalni har tomonlama insonparvar,ezgulik hissi mujassam,vatanparvar shaxs etib tarbiyalanishida va tabiatga,atrofidagi insonlarda shu jumladan ota-onasiga mehr-muhabbat ham estetik tarbiya orqali beriladi.

Estetik his-tuyg‘u esa insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg‘u paydo qiluvchi go‘zallik va xunuklikni, ulug‘vorlik va pastkashlikni, fojiaviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Shu aytilganlardan kelib chiqqan holda, estetik tarbiya masalalarini chuqurroq tushinib yetish uchun uni to‘rtta guruhga bo‘lish mumkin:

1) Estetik idrokni rivojlantirish, estetik emotsiyalar, hissiy tuyg‘ular va munosabatlar, qiziqishlarni shakllantirish;
2) Elementar estetik ongni shakllantirish;
3) Estetik faoliyatni o‘zlashtirish;
4) Estetik va badiiy ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya mazmuniga bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bolalarning estetik faoliyatida amalga oshiriladigan estetik tuyg‘u, qiziqishlar, talablar, baholash va didni tarbiyalash kabi masalalar kiradi. Atrof muhitni estetik idrok etish jarayonida bolalar go‘zallik to‘g‘risidagi bilimlari shakllanadi.

Ota -onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilar quyidagilarga intilishlari kerak.

• barkamol shaxsni shakllantirish;
• bolada go‘zallikni ko‘rish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirish;
• ijodkorlikni rag‘batlantirish va rivojlantirish;

• estetik did va ideallarning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Oilada estetik rivojlanish xususiyatlari.

Kichkina estetning oilaviy tarbiyasi bir necha jihatlardan iborat:

• oila a'zolari o‘rtasida hurmat va sevgi muhiti;

• tartib, toza kiyim;

• musiqiy didni tarbiyalash;

• kitob o‘qish, she'r o‘rganish;

• turli xil texnikalar yordamida rasm chizish;

• bola uchun qulay bo‘lgan darajada qiziqarli va qiziqarli suhbatlar;

• turar joy va bolalar xonasini bezatish, soyalar uyg‘unligi, tartib va poklik.

Har bir bayram zamirida o‘yin-kulgiga yo‘naltirilgan aniq g‘oya yotadi. Unga qo‘shiqlar, she'rlar, musiqa, raqs, spektakllar orqali bezak beriladi. Bayram barcha bolalar uchun quvonch keltiradi. Bunda har bir bola ishtirok etishi mumkin va bu shuning uchun muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, tanish qo‘shiqlar va raqslarni qayta takrorlash zaruriyati albatta ularning katta mamnuniyat va ta'sirchanligi bilan ifodalanadi. Shuning uchun, bir bayram dasturida ayrim o‘zgarishlar (boshqa raqslar, o‘yinlar, ro‘yxati va hokazo.) qilish, moddiy muhim bir qismni o‘z ichiga olishi zarur. MTT xodimlari yil davomida qo‘g‘irchoq teatrining ikki-uchta spektaklini tayyorlashlari mumkin. Tayyorlov guruhining bolalari uchun ikki-uchta mavzuviy konsert uyushtirishi lozim.

Bayramni tashkil etish bo'yicha ish bosqichlari:

1. Dastlabki rejalashtirish. O‘quv yilining boshida pedagogik jamoa yig‘ilishi o‘tkaziladi va yil uchun ish rejasi muhokama qilinadi. “Ilk qadam” dasturi bo‘yicha bayramlar tanlanadi va ularning sanalari belgilanadi.
2. Ssenariy ustida ishlash.Har bir bayram ertalik ssenariy asosida tashkil etiladi.
3. Bolalarni bayram ssenariysida belgilangan repertuar bilan tanishtirish.
4. Ota-onalar bilan ishlash.
5. Ertangilik o‘tkazish
6. O‘tkazilgan bayram ertalik mahokamasi
7. Bayramdan olihgan taassurot

Bayramlar va o'yin-kulgilarga tayyorgarlik bolalar hayotining umumiy kun tartibini buzmasdan, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli ravishda amalga oshiriladi. Bayramlar oldindan rejalashtirish shoshilmasdan tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi. Bayramning davomiyligi uning mazmuniga va unda ishtirok etayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga bog‘liq. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bayramning davomiyligi 20 dan 30 minutgacha, katta va maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalar uchun 40-50 minutdan oshmasligi kerak. Shu bilan birga, uning mazmuni bolalarni ortiqcha zo‘riqmasligi, bayramning tuzilishidagi repertuarlar ketma-ketligini diqqat bilan ko'rib chiqish muhimdir. Bayramga bevosita tayyorgarlik bolalar uchun sh’erlarni taqsimlashdan boshlanib, bunda ularning individual nutq xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ba'zi bolalar uchun, ularning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, individual chiqishlar tayinlangan ma'qul.

Rollarni taqsimlagandan so'ng, bolalar bilan individual ish boshlanadi:

- she'rni ifodali o'qish, yodlash;
- qo'shiq matni, raqs harakatlari va xorovod raqslarni o‘rganish;
- ifodalilik ustida ishlash;
- alohida epizodlar bo'yicha tayyorgarlik.

Bayram ertalik uchun xonani bezashda asosiy quyidagi qoidalarni amal qilinadi:

- Markaziy devor (panno) bayram mazmuniga mos kelishi, bolalar uchun badiiy va tushunarli bo‘lishi;
- badiiy va estetik didni rivojlantirishi;
-barcha ishtirokchilar uchun quvnoq kayfiyatni yaratish, kelgusi tadbirlarga qiziqish uyg‘otishi lozim;

MTTdagi bayramlarga quvonch bag‘ishlashi, ularning kayfiyatlarini yaxshilashi kerak. Bayramlardan pedagoglar bolalarga estetik tarbiya berishda ularda tashabbuskorlik, mustaqillik va xarakterning boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalashda foydalanishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation., 15.12.2022.,136-140pp.International scientific and current research conferences.Virginiya.USA.
2. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool children by means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. https://www.eipublication.com.
3. Nurmatova I.T. Maktabgacha yos’hdagi bolalar hayotida musiqaning o‘rni va roli. Maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash: innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajriba. Respublika ilmiy-amaliy seminari. Tos’hkent. 2019. -B. 119-121.
4. Nurmatova I.T. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga musiqiy ta’lim berishda tarbiyachining faoliyati / “Maktab va hayot” jurnali. 5-son. (161) 2021 2010-5460 ISSN – B. 24. (13.00.00 №4).
5. Нурматова И.Т. “Роль педагога в организации театрализованной деятельности дошкольников”.//“International sonference on yeducational innovations and sciences 2022/8" Toshkent.2022 Page No.: -R.168-171.
6. Nurmatova I.T. Maktabgacha ta’limda zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligi va uning muhim jihatlari. Maktabgacha ta’lim faoliyatini takomillashtirish: innovatsiya va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Navoiy. 2019. -B.101-102.
7. Nurmatova I.T. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqali sahnalashtirish asosidagi faoliyatlarning tashkil etishning shakl,usul va vositalari. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ., международный научно-образовательный электронный журнал. 09/2023.сентябрь. часть 4.том 2.СТР 16

THE ROLE OF ARTISTIC INTELLIGENCE IN IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE SKILLS OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS

Fayzullayeva Zarnigor Abrorovna
Doctoral student of Navoi State Pedagogical Institute.

Abstract: This article provides information about the role of artistic intelligence in improving the professional skills of future fine arts teachers.

Key words: intelligence, mental abilities, worldview, knowledge, understanding, perception mature, mature, self-developed, inquisitive, master of his craft.

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли художественного интеллекта в совершенствовании профессионального мастерства будущих учителей изобразительного искусства.

Ключевые слова: интеллект, умственные способности, мировоззрение, знания, понимание, восприятие зрелый, зрелый, саморазвитый, любознательный, мастер своего дела.

If we look at the history of mankind, respect and attention were paid to people with a well-developed mind and high intellect. When appointing to positions, people with intelligence, that is, intellectual ability, broad outlook are appointed. People who are intellectually developed, mature in all aspects, mature and perfect are elected and selected as leaders in raising children and providing education. If we look from the times of Alisher Navoi, great attention was paid to the quality of a perfect person. In order to adapt to the needs of the times, every person constantly searches and studies for self-development during his life. In this regard, every field needs developed, intelligent, masters of their work, professionally developed and intellectually mature individuals. At this point, the question arises, what is intelligence, what are its types, what does it serve, what is its role? The word intellect (Latin: intellects — knowledge, understanding, perception) is the mental ability of a person; the ability to accurately reflect and change life, the environment in the mind, thinking, reading and learning, knowing the world and accepting social experience; the ability to solve

various issues, come to a decision, act rationally, foresee events. Intellect includes perception, memory, thinking, speaking, etc. mental processes. The development of intelligence depends on social factors such as innate talent, brain capacity, active activity, and life experience. The level of intelligence is determined by the results of human activity, as well as psychological tests. Intellect by itself goes back to artistic taste, sophistication, and education. Future art teachers also have artistic taste and professional education. is an important condition for improving competence. So, what is the relationship between professional competence and intelligence? It is necessary to develop artistic intelligence in improving the professional competence of future artists-pedagogues. Because artistic intelligence is necessary to be able to imagine in advance the location of the work being drawn, the compositional construction, the proportion of colors, the mixture of warm and cold colors. That is, imagination, taste, education, worldview, thinking, creative ability all make up artistic intelligence.

The tool for developing artistic taste in improving the professional competence skills of a future fine arts teacher is the ability to create compositions, intensively form spatial imaginations, determine the level of efficiency and gradually determine the level of formation of decorative image competencies, project the trajectory of the development of the constructivity of the perception of existence. improved on the basis of building, describing words, creativity, increasing the possibility of creating new ideas and imaginations from fantasies, and improving on the basis of gradually developing the qualities of observation, seeing existence, and being attentive to memory. , including the study of modern information technologies. Foreign languages play an important role in the development of artistic intelligence in general, as well as intellectual ability. Learning foreign languages strengthens perception. Therefore, it is necessary to learn foreign languages for future teachers of fine arts. Studying modern information technologies is generally a demand of the times. Because every field is related to information technology. If we look at the history of mankind, respect and attention were paid to people with a well-developed mind and high intellect. When appointing to positions, people with intelligence, that is, intellectual ability, broad outlook are appointed. People who are intellectually developed, mature in all aspects, mature and perfect are elected and selected as leaders in raising children and providing education. If we look from the times of Alisher Navoi, great attention was paid to the quality of a perfect person. In order to adapt to the needs of the times, every person constantly searches and studies for self-development during his life. In this regard, every field needs developed, intelligent, masters of their work, professionally developed and intellectually mature individuals. At this point, the question arises, what is intelligence, what are its types, what does it serve, what is its role? The word intellect (Latin: intellects — knowledge, understanding, perception) is the mental ability of a person; the ability to accurately reflect and change life, the environment in the mind, thinking, reading and learning, knowing the world and accepting social experience; the ability to solve various issues, come to a decision, act rationally, foresee events. Intellect includes perception, memory, thinking, speaking, etc. mental processes. The development of intelligence depends on social factors such as innate talent, brain capacity, active activity, and life experience. The level of intelligence is determined by the results of human activity, as well as psychological tests. Intellect by itself goes back to artistic taste, sophistication, and education. Future art teachers also have artistic taste and professional education. is an important condition for improving competence. So, what is the relationship between professional competence and intelligence? It is necessary to develop artistic intelligence in improving the professional competence of future artists-pedagogues. Because artistic intelligence is necessary to be able to imagine in advance the location of the work being drawn, the compositional construction, the proportion of colors, the mixture of warm and cold colors. That is, imagination, taste, education, worldview, thinking, creative ability all make up artistic intelligence.

The tool for developing artistic taste in improving the professional competence skills of a future fine arts teacher is the ability to create compositions, intensively form spatial imaginations, determine the level of efficiency and gradually determine the level of formation of decorative image competencies, project the trajectory of the development of the constructivity of the perception of existence. improved on the basis of building, describing words, creativity, increasing the possibility

of creating new ideas and imaginations from fantasies, and improving on the basis of gradually developing the qualities of observation, seeing existence, and being attentive to memory. , including the study of modern information technologies. Foreign languages play an important role in the development of artistic intelligence in general, as well as intellectual ability. Learning foreign languages strengthens perception. Therefore, it is necessary to learn foreign languages for future teachers of fine arts. Studying modern information technologies is generally a demand of the times. Because every field is related to information technology.

List of references

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. - T.: "Uzbekistan", 2023. -p. 44.

2. Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" 2020.

3. Mirziyoyev Sh.M. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. PF-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026".

4. Ishmuhamedov R., Abduqadirov A., Pardayev A. Innovative technologies in education (practical recommendations for pedagogues-teachers of educational institutions). - T.: "Talent" Foundation, 2008. - 180 p.

5. OMM on the module "Innovative educational technologies and pedagogical training" / Tuz.: M.H.Usmonboyeva et al. - T.: TDPU, 2016. - 239 p.

6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. UMK on the module "Innovative educational technologies and pedagogical competence". T.: TDPU, 2017. – 63 p.

7. Musurmonova O. Educational and methodological complex of the module "Professional preparation and creativity of the educational manager". - T.: BIMM, 2015. - 288 p.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING “USTOZ-SHOGIRD” ANA’NASI HAQIDAGI QARASHLARI

O‘zbekiston, NavDPI Pedagogika nazariyasi
Pedagogik ta’limotlar tarixi tayanch doktoranti
Abdullayeva Sabohat G‘ayratullayevna

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq mutafakkirlari, tarixiy shaxslarining ustoz shogird an’analari haqidagi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: an’ana, sharq didaktikasida ta’lim tarbiya, ustoz-shogird, tarixiy shaxslar.

Abstract: this article contains reflections on the mentor-disciple tradition of Eastern thinkers and historical figures.

Key words: tradition, education in Eastern didactics, teacher-student, historical figures.

Аннотация: в статье рассматриваются традиции наставника-ученика восточных мыслителей и исторических деятелей.

Ключевые слова: традиция, образование в восточной дидактике, учитель-ученик, исторические личности.

Sharqda ustoz maqomi doimo ulug‘lanib kelingan. Sharq madaniy hayotida, ta`lim-tarbiya jarayonida ustozning nomi yuksak baholangan. Sharq mamlakatlarida har doim farzand tarbiyasi asosiy vazifa bo‘lgan. Unga ta`lim berish kamolotga yetkazish, shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishda ota-ona bilan birgalikda ustozlarning ham o‘rni beqiyos bo‘lgan.

Ota-onalar o‘z farzandlariga yaxshi ta`lim-tarbiya berish bilan birgalikda ularni kelajak hayotga ham tayyorlab borgan. Farzandining yaxshi kasb egasi bo‘lishi uchun ularni yaxshi ustoz qo‘liga berishgan. Ustoz-shogird munosabatlari ko‘p yillar davomida ko‘plab kasblarda o‘rganish va tajriba almashishning muhim usuli sifatida ishlatilgan. Bu munosabat ustoz hisoblangan tajribali shaxs bilan shogird deb ataladigan yangi va malakali shaxs o‘rtasidagi o‘qitish va tajriba almashish munosabatini bildirgan. Ustozlar o‘z shogirdlariga nafaqat kasb-kordan balki hayot saboqlarini ham berib borishgan.

Ustoz-shogird munosabatlari qadim zamonlardan boshlangan bilim olish usulidir. Ustoz-shogird munosabatlarida amaliyot va tajriba ishtirok etganligi sababli, u doimiy o‘rganish usuli hisoblangan.

“Ustoz –shogird” an’anasi turkiy xalqlar qadimiy madaniyati sifatida jahon taraqqiyotida o‘zining salmoqli o‘rniga ega. Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalardek jasur o‘g‘lonlarning hayotida ustoz maqomi o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o‘z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e’tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib kelgan.

Amir Temur bobomiz tilidan keltirishimiz mumkin: -Savod chiqarish uchun muallim sabog‘iga borganimda hali juda yosh edim. Birinchi o‘qituvchim mullo Alibek ismli kishi bo‘lib, maktabimiz mahallamiz masjidida joylashgan edi. Ustoz bergan topshiriqlarni tez va oson o‘zlashtirardim: Qur’on suralarini yod olishda ham, husnixatda ham, talaffuzda ham benuqson edim. Bir kuni mullo Alibek meni otamga alqab: "O‘g‘lingni qadrla-uning idroki va quvvat hofizasi betakror, shuning barobarida u har ikkala qo‘li bilan birdek yoza oladi. Bunday insonlar ulg‘ayib har ikki dunyoda ham nom qoldirar- degan ekan". Buni qarangki ustoz shogirdining kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishini oldindan u egallagan bilimlar-u iste’dodiga qarab ayta olgan va bu maqtov Temur bobomizni dunyoviy va diniy bilimlarni yanada chuqurroq o‘rganib, butun dunyoni qo‘l ostiga birlashtirib, islom dinini yetti iqlimga yoyishga turtki bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Qadimda milliy an’ana bo‘yicha shogirdlikning o‘ziga xos odob-axloq qoidalari bo‘lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin.

Avvalo, o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish;

* o‘z kasbiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish;
* ustoz oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish;
* ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish;
* eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik;
* barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish;
* ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik.

Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin:

* rostgo‘ylik
* vafodorlik
* mas’uliyatlilik
* nasihatni quloqqa olish
* ozor bermaslik
* sir saqlash.

Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so‘rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar, hamkasb do‘stlarini xushnud etish deb javob bergin». Xusayin Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” kitobida ustoz qanday bo‘lshi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Agar shogird shayxulislom, agar qozidur,

Agar ustoz rozi-Tangri rozidur, -deganlar Alisher Navoiy hazratlari.

Hazrat Navoiyning ustoz haqidagi yana bir satrlarini keltiramiz:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.

Ustozning umri barhayot. Chunki, ustozning umriga uning qoldirgan shogirdlarining ham umri qo‘shilib boraveradi.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hazratlari o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik

munosabatlarini barchamiz uchun namuna tariqasida keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiyning hayoti ham, ijodi ham Abdurahmon Jomiyga ixlosmand shogird ekanligini namoyon

etib turadi. “Xamsa”chilikda uning an’anasini davom ettirdi. Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns ” asarini yanada boyitib, “Nasoyim ul-muhabbat ” nomli yangi asarini yozdi. Dostonlari va boshqa ko‘plab asarlarida ustozi nomini tilga olib, unga bo‘lgan izzat hurmatini izhor etadi.

Ustozga bo‘lgan ehtirom va sadoqatini hayotda va ijodda ado eta olgan Alisher Navoiy ustozlik faoliyati ham asrlar davomida ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda.

Biz ta`lim muassasalaridan olgan nazariy bilimlarimiz, albatta, poydevordir, lekin haqiqiy donolik va ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun yana bir qadam tashlashimiz kerak. Bu yerda ustozlarning tajribasidan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Menimcha, ustoz-shogird munosabatlari nafaqat bilimlarni uzatish, balki kasbiy qadriyatlar, axloqiy qoidalar va sohaga xos nozikliklarni ham o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar insonga nafaqat ishni qanday bajarishni o‘rganishga, balki u nima uchun qilayotganini tushunishga ham imkon beradi. Tajribali ustozlardan o‘rganishga vaqt ajratish, savollar berish va ularning tajribalarini o‘rganish bizning kasbiy rivojlanishimizga katta hissa qo‘shadi. Haqiqiy mahorat nafaqat kitoblardan, balki tajriba va ustoz-shogird munosabatlaridan ham keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1 Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.H. va boshq. Umumiy pedagogika.- T:. Fan va texnologiyalar.
2."MENKIM,SOHIBQIRON - JAHONGIR TEMUR" Marsel Brion - Fransiya.(Tarjimonlar:F.Ro'ziyev,F.Tilovatov) - T.: Yangi asr avlodi.2016.
3. Usmonov.B.A..Amir.Temur.davlati.-.T.:.adabiyot.uchqunlari..2016.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN O‘TKAZILADIGAN SOG‘LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI TASHKIL QILISH

O‘zbekiston, NavDPI Jismoniy ma’daniyat kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matova Diyora Dilshod qizi.

Annotatsiya Maktabgacha ta’lim bolalar faoliyatining asosiy bo‘limlaridan biri bu jismoniy tarbiya bo‘yicha olib boriladigan sog‘lomlashtirish tadbirlarining o‘rni

Kalit so‘zlar: Jismoniy rivojlanish, harakatli o‘yinlar, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar, ta’limiy tarbiya

Аннотация. Одним из основных разделов деятельности детей в дошкольном образовании является роль физкультурно воспитательной деятельности.

Ключевые слова: Физическое развитие, активные игры, фитнес-занятия, развивающие тренировки

Abstract. One of the main sections of childrens activities in preschool education is the role of physical education activities.

Keywords: Physical development, active games, fitness exercises, educational training

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi 5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ommaviy sportni rivojlantirish va iste’dodli yoshlarni saralash (selektsiya) sohasida ta’lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshlang‘ich gimnastika va harakatli o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga qiziqishni shakllantirish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori, maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, jismoniy rivojlantirish, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Jismoniy tayyorgarlik va “Salomatlik” poydevorini eng kichik yoshdan qurishni boshlash kerak. Bu yoshdagi bolalarda harakat ko‘nikma va malakalarining shakllanishi shiddatli bo‘ladi.

Ularning bo‘yi va muskul kuchlari ortadi, harakat koordinatsiyalari yaxshilanadi. Harakat amplitudiyasini, tezligini, yo‘nalishini, ritmini va ifodaliligini ajrata bilish ko‘nikmasi takomillashadi, harakatini taxlil qilish qobiliyati ma’lum fazalarga ajratilgan holda rivojlanadi. O‘z-o‘zini nazorat etish va o‘zining hamda o‘rtoqlarining harakatlarini baxolash qobiliyatlari rivojlanadi. Bola harakat natijalarini bajarish sifatiga bog‘liqligini tushunadi, yaxshi natijalarga erishish uchun harakat qiladi.[1]

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy bo‘limlaridan biri bu jismoniy tarbiya bo‘yicha olib boriladigan sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishdir.

Sog‘lomlashtirish tadbirlarini olib borishdan maqsad bolalarni xar tomonlama garmonik rivojlangan, jismonan baquvvat, hayotga, mehnatga, Vatanni himoya qilishga tayyor qilib voyaga, kamolga yetkazishdir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash vazifalari O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya tizimining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib 3-ta asosiy

a) sog‘lomlashtirish,

b) ta’limiy,

v) tarbiyaviy guruhlarga bo‘linadi.

Yangi O‘zbekistonimizda jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor berilishi tufayli bolalar uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda: sport majmuasi, alohida stadionlar, sport zallar, xavzalar, tennis maydonchalari va boshqalar, sport anjomlari va uskunalar. Maktabgacha ta’lim tarbiya muassasalarida, jismoniy tarbiya masalalari yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bog‘cha tarbiyachilari hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bu masala bo‘yicha nazariy va amaliy bilimi yetarli darajada ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg‘un rivojlantirish maktabgacha ta’lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat’iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o‘zgarishlar bilan to‘qnash kelishlariga to‘g‘ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma’no topishga intilishi, qiziqish, hissiyotlari, jismoniy rivojlanishini kuzatamiz. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra o‘ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o‘sib, ulg‘ayishida maktabgacha bo‘lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o‘sish, rivojlanish va o‘zgarishlar ichida yashaydilar.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar: Qo‘llar va yelka kamari uchun mashqlar. Qo‘llarni yuqoriga oldinga, yon tomonlarga ko‘tarish, tovonlarni juftlab oyoq uchlarini ochib, tik tutgan holatda oyoq uchida ko'tarilish, bir oyoqni uchini orqada qoldirib, devorga suyanish. Ko‘llarni ko‘krak oldida tutgan yoki yelkalarga ko‘ygan holatdan ularni yuqoriga yon tomonlarga cho‘zish. Yelkalarni ko‘tarish va pastga tushirish. Tirsakda bukilgan qo‘llarni oldinga va yon tomonlarga shaxdam yozib (barmoqlar musht qilib siqilgan), tirsaklarni orqaga bukish (2-3 marta) va qo‘llarni ko‘krak oldidagi holatdan yon tomonlarga cho‘zish. Qo‘llar tirsakdan bukilgan holda aylana holatdan yon tomonlarga cho‘zish. Qo‘llar tirsakda bukilgan holda aylana harakatlar qilish. Bir qo‘lda barmoqlari bilan xalqani vertikal o‘q atrofida aylantirish, bilaklar va qo‘l panjalari oldinda va yonda. Panjalarni aylantirish, barmoqlarni yoyish va birlashtirish, barmoqlarning uchlarini navbatma-navbat bosh barmoq bilan bukish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi bu – bola jismoniy tarbiyasi shakllanishining umumiy qonuniyatlaridan saboq beruvchi fandir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga va o‘rganish predmetiga ega, ayni paytda u 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar jismoniy tarbiyasi qonuniyatlarini va shunga muvofiq bolaning ta’lim va tarbiya jarayonidagi rivojlanishini boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o‘rganadi. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi har bir yosh bosqichini o‘rganib, ilmiy ma’lumotlar va amaliy tajribani umumlashtirib borib, jismoniy

tarbiya vazifalarini belgilaydi, ularning mohiyatini, butun jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning juda samarali vositalari va metodlarini, maqsadga muvofiq shakllarini kompleks ravishda ochib beradi. .[4] Sog‘lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o‘z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan, maktabdagi o‘qishga hamda kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish, jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama rivojlantirish asoslari sifatidagi alohida ahamiyatini belgilab beruvchi muhim vazifasi hisoblanadi. Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etishning turli shakllarida (mashg‘ulotlar, harakatli o‘yinlar, mustaqil harakat faoliyati va h.k.) tarbiyachining e’tibori fikrlaydigan, o‘z yosh imkoniyatlariga ko‘ra ongli harakat qiladigan, harakat ko‘nikmalarini muvaffaqiyat bilan egallaydigan, atrof-muhitda mo‘ljal ola biladigan, uchraydigan qiyinchiliklarni faol tarzda bartaraf etadigan, ijodiy izlanishga intiladigan bolani tarbiyalashga qaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog‘lom va baquvvat qilib o‘stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishdan iboratdir. Bola organizmining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgani sababli, uning vazifalari ancha aniqroq shaklda ifodalanadi; bola suyagini bexato va o‘z vaqtida qotishiga orqa umurtqadagi egik joylarning shakll anishiga, tovon yuzasining yaxshi rivojlanishiga, pay-bo‘g‘im apparatlarni pishitishga yordam ko‘rsatiladi. Tana qismlarining (proporsiyalar) to‘g‘ri nisbatda rivojlanishiga, suyaklar o‘sishi va vaznini bir tartibga solishga yordam berish; barcha muskullar guruhini rivojlantirish (tana, oyoq, qo‘l va yelka kamari, panja, barmoqlar, tovon, bo‘yin, ko‘z, ichki organlar-yurak-qon tomirlar, nafas olish va boshqa muskullar); ayniqsa, zaif rivojlangan bukuvchi muskullar guruhining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida ta’limiy vazifalarni hal etish ham muhimdir. Chunonchi: harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilik)ni o‘stirish, to‘g‘ri qaddi-qomat, gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish. Bolalar asab tizimining plastikligi tufayli ularda harakat ko‘nikmalari nisbatan yengil shakllanadi. Ularning ko‘pchiligidan (emaklash, yurish, chang‘ida yurish, velosipedda sayr qilish va boshqalar) kundalik hayotda harakat vositasi sifatida foydalaniladi. Harakat ko‘nikmalari tashqi muhit bilan aloqani osonlashtiradi va uni bilishga yordam beradi: bola emaklab o‘zini qiziqtirgan narsalarga yaqinlashadi va ular bilan tanishadi; velosipedda sayr qila oladigan bolalar qor, shamollarni oson idrok etadilar; suzish chog‘ida esa bolalar suvning xossalari bilan tanishadilar. Jismoniy tarbiya mashqlarini to‘g‘ri bajarish muskullar, paylar, bo‘g‘imlar, suyak tizimini rivojlantirishga samarali ta’sir qiladi. Mustahkam shakllangan harakat ko‘nikmalaridan foydalanish bolaga mashqlarni bajarishda jismoniy kuchni tejash va o‘yin faoliyatida e’tiborni kutilmagan vaziyatlarda yuzaga keladigan turli vazifalarni olishga yo‘naltirish imkonini beradi. Bolalarda 7 yoshgacha shakllangan harakat ko‘nikmalari maktabda ularni yanada takomillashtirish uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi va kelajakda sportda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg‘un rivojlantirish maktabgacha ta’lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash-yuksak ma’naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2009.

2. G.Q.Jalolova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash” (metodik tavsiya). Toshkent, 2004.

3. D. Sharipova va boshqalar “Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desangiz“ (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) metodik qo‘llanma. T.: 2006.

4. K.M.Mahkamjonov, M.Sh.Rasuleva va bosh. T.: “Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi”. Tuzuvchi-mualliflar: “Ilm Ziyo” nash. 2006.

5. T.S.Usmonxo‘jayev, S.T.Islomova. T.: “Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya” Tuzuvchi-mualliflar: “Ilm Ziyo” nash. 2006.

6. Usmonxo‘jayev S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati. T., «ILM ZIYO». 2006.

O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA TEATR PEDAGOGIKASI

O‘zbekiston, Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi.
Nurova Rohila Ismoil qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada teatr pedagogikasi, o‘qituvchilik kasbi va uning kasbiy faoliyatida teatr pedagogikasining o‘rni va ahamiyati haqida muloza yuritilgan. Teatr pedagogikasining maqsadi, teatr pedagogikasi orqali talaba va o‘quvchilarda qanday sifatlarning shakllanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, teatr, teatr pedagogikasi, kasbiy faoliyat, dars, aktyor.

Аннотация. В данной статье рассматривается театральная педагогика, профессия педагога, а также роль и значение театральной педагогики в его профессиональной деятельности. Объясняется цель театральной педагогики, формирование качеств у студентов и школьников посредством театральной педагогики.

Ключевые слова: Учитель, театр, театральная педагогика, профессиональная деятельность, урок, актер.

Annotation. This article discusses theater pedagogy, teaching profession and the role and importance of theater pedagogy in his professional activity. The purpose of theater pedagogy, the formation of qualities in students and pupils through theater pedagogy is explained.

Key words: Teacher, theater, theater pedagogy, professional activity, lesson, actor.

O‘qituvchi jamiyatning yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ishtirokchisidir. Shuning uchun ham respublikamiz 1-Prezidenti I.A.Karimov ―Tarbiyachi-ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma`rifiy ziyosidan bahramand etish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o‘zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim,- degan edi. Darhaqiqat, o‘qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o‘z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo‘lmas ekan, u yaxshi ustoz-o‘qituvchi bo‘la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg‘a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi va ana shu ko‘p mingyillik ziyokorlik ishining samarasi bo‘ldi. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan e`tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shuning bilan birga o‘qituvchi oldiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgacha bo‘lmoqda. Chunki bugun O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog o‘qituvchilarning o‘z o‘rni, o‘ziga xos mohiyati borligini unutmaslik lozim.

Teatr pedagogikasi - bu improvizatsiya o'yinlari va haqiqiy samarali harakatlar qonunlariga muvofiq tashkil etilgan, ishtirokchilar uchun qiziqarli sharoitlarda, o'qituvchilar va talabalarning birgalikdagi ijodiy ishlarida, atrofdagi dunyo hodisalarini immersiv va obrazlarda yashash orqali anglash va inson, uning roli to'g‘risida yaxlit g‘oyalar to'plamini berish usuli.

Xorijda va mamlakatimizda o‘qitish metodikasi tarixi, o‘qitishning yangi usullarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi hamisha san’at, tilshunoslik, psixologiya va pedagogikaning yangi yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu fanlardan olingan ma'lumotlar o'rganishga yondashuvni tubdan o'zgartirdi, o'qitishning yangi usullarini keng qo'llash imkonini berdi, yangi o'qitish texnologiyalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Teatr pedagogikasi fanlararo yo'nalish bo'lib, uning paydo bo'lishi bir qator ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy omillar bilan bog‘liq. Teatr pedagogikasining maqsadi talabalarning katta hajmdagi o'quv materialini faol o'zlashtirish, motivatsiyani oshirish, guruhdagi munosabatlarni mustahkamlash, o'qituvchining obro'sini oshirish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordam va hamkorlik jarayonlarini rivojlantirishdir.

Pedagogik san'atda namoyon bo'ladigan o'qituvchining kasbiy faoliyatida teatrga murojaat qilish alohida qiziqish uyg‘otadi. "Ular o'qituvchi haqida "bir kishilik shou" deyishadi.Uning darsi aktyorlik ansamblining ishi bo'lib, unda har kim o'zini namoyon qilish zarurati huquqiga ega, har bir kishi xarakterdir.Pedagogik artistlik teatr pedagogikasining aktyor va rejissiyorlarning badiiy mahorati haqidagi bilimlariga asoslanadi. Pedagogik san'at metodologiyasining ko'plab elementlari teatr pedagogikasidan olingan bo'lib, ular psixofizik, hissiy-estetik, badiiy va mantiqiy komponentlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining kasbiy faoliyatidagi teatrallik insonning boshqa mavjudotga aylanish ehtiyojining uzoq tarixiy rivojlanishi natijasidir.

Sinfdagi teatr ijodiyoti o'quvchilarni yanada sezgir va harakatchan, diqqatli qilishi mumkin. Mashg‘ulotlar davomida turli hikoyalarni tomoshabinlarga ko'rsatish uchun emas, balki xatti-harakatni, muloqotni o'rgatish va bilimingizni kengaytirish uchun improvizatsiya qilish tavsiya etiladi. Teatr pedagogikasida tegishli mashqlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular uchun material dars jarayonining o'zi hisoblanadi. O'qituvchi jismoniy faollikni talab qiladigan turli xil mehnat texnikasini yaxshi bilishi kerak. Bir darsda teatr pedagogikasining bir nechta usullarini birlashtirgan darslar - spektakllar alohida qiziqish uyg‘otadi. Dars - spektakl to'liq rejissyorlik harakatiga ega bo'lishi, voqealar zanjiriga ega bo'lishi, boshlang‘ichdan asosiysigacha, uning harakati improvizatsiyalangan tarzda rivojlanishi kerak. Bunday darslar o'tilgan mavzu bo'yicha umumlashtirish darslari kabi juda muvaffaqiyatli bo'ladi.

Teatr pedagogikasi hissiy sohani jalb qilish, o'quvchilarning harakat faolligini jalb qilish, tasavvur va xayolparastlik parvozlari bilan o'ynash orqali "darsni boshqarish" va materialni o'rganish samaradorligini oshirishning haqiqiy vositasidir.

Nemirovich-Danchenko, rus va sovet teatr rejissyori, o'qituvchi va dramaturg: "Teatr paydo bo'lishi uchun maydoncha, gilamcha, aktyor va tomoshabinning o'zi kifoya qiladi". Xuddi shu tarzda, darsda "teatr" paydo bo'lishi uchun sinf, o'qituvchi va bolalar kifoya qiladi .Teatr va uning vositalari o'quv va ta'lim jarayonida qulay hissiy-psixologik muhitni yaratishning yetarlicha samarali vositasi bo'lib, u yangi bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga imkon beradi, bu esa o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga va ularning estetik rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, darsda teatr pedagogikasidan foydalanish o'quvchilarni yanada sezgir va harakatchan, diqqatli va to'planishi mumkin. Teatr pedagogikasi yordamida o'quvchilar o'zlarini anglay oladigan, ijodiy o'zaro munosabatlarning yangi tajribasiga ega bo'ladigan muhit paydo bo'ladi va bunga improvizatsiya usuli yordam beradi. Talabalar turli hikoyalarni sahnalashtiradilar, lekin ularni tomoshabinlarga ko'rsatish uchun emas, balki xatti-harakatni, muloqotni o'rgatish va bilimlarini kengaytirish uchun. Bunday holda, jamoaviy o'yinning ta'siri, qiziqarli va qiziqarli faoliyatga erishiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘yinlar va ijodiy mashqlar diqqatni, aql-zakovatni, topqirlikni, sheriklik hissini, jamoada ishlash tuyg‘usini, ya’ni o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan barcha fazilatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular tormozlovchi omillarni - xijolat, uyatchanlik, qattiqlik, taranglikni yengib o'tishga yordam beradi va reaktsiya tezligini, harakatga ichki tayyorlikni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ершова А.П., Букатов В. М. Театральные подмостки школьной дидактики, История социоигровой педагогики, драмогерменевтика. М., 1994
2. Ершова А.П. Искусство в жизни детей. Опыт художественных занятий с младшими школьниками. М.: Просвещение, 1991
3. Кашина Е.Г. Театральные действия в профессиональном пространстве выпускников филологических факультетов.-Самара, “Самарский университет” , 2001 – 184с.
4. Кристи Г.В. Воспитание актера школы Станиславского: Учеб. пособие для театр. ин-тов и уч-щ; ред. и предисл. В. Прокофьева: 2-е изд. – М.: Искусство, 1978. ст 60

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Bozorova O‘g‘iloy Kamilovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati va uni talabalarda shakllantirish usullari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: estetik tarbiya, mexanizmlar, estetik madaniyat, yuksak did, jismoniy madaniyat, estetik munosabat, kvest.

Аннотация: В данной статье говорится о сущности эстетического воспитания и методах его формирования у студентов.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, механизмы, эстетическая культура, высокий вкус, физическая культура, эстетическое отношение, квест.

Abstract*:* This article talks about the essence of aesthetic education and methods of its formation among students.

Key words: aesthetic education, mechanisms, aesthetic culture, high taste, physical culture, aesthetic attitude, quest.

Shaxsni estetik hamda badiiy jihatdan tarbiyalash favqulodda murakkab va serqirra jarayondir. Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning barchasi ana shu maqsadni to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan.

Estetik (nafosat, badiiy) tarbiya - bu, eng avvalo, tabiatdagi, mehnatdagi, ijtimoiy munosabatlardagi go‘zallikni idrok etish, his qilish va qadrlay oladigan, estetik ideal nuqtai nazaridan, shuningdek, estetik faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni his eta oladigan, ijodiy faol shaxsni shakllantirishdir. Shaxs kamoloti uchun estetik tarbiya muhim o‘ringa ega. Estetik tarbiya ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma’naviy va jismoniy olamining uyg‘un tarzda rivojlanishiga ulkan xissa qo‘shadi. Estetik tarbiyada insonning tashqi ko‘rinishi, uning jamoat orasida o‘zini tutishi, jismoniy baquvvat bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega. Shubhasiz, yuksak did ma’lum darajada kisining estetik tarbiya ko‘rganidan dalolat beradi. Estetik tarbiya ko‘p asrlar davomida kishilar e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelgan. Estetik tarbiya insonning his-tuyg‘u va ma’naviyatiga estetik munosabat vositasida ta’sir ko‘rsatish mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Tarixdan ijtimoiylashtirishning estetikadan tashqarida, misol uchun o‘tmishda, kishilarga tan jarohati yetkazib jazolash, ijobiy yoki salbiy omillarning sof biologik vositalar orqali bo‘lgan yo‘llari ham ma’lum. Haqiqiy gumanistik tarbiya bunday usullarni rad etib, ularning o‘rniga estetik ta’sir ko‘rsatish vositalaridan foydalanadi. Estetik munosabat insonlarga xos bo‘lib, bu ma’noda odamning voqelikka ijtimoiy munosabatini anglatadi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, u zarur emotsional kechinmalar akti bilan yakunlanadi va bunda harakat obyektiga “xolis, beg‘araz” munosabatda bo‘lib, uni saqlab qolishga yo‘naltiriladi. Bu kabi kechinmalarni biologik qoniqish emas, balki ijtimoiy ma’naviy ehtiyoj ta’minlaydi. Baravar miqdorda estetik kechinmalarni odamni o‘rab turgan tabiat, ilmiy kashfiyot yoki ilmiy nazariya, ma’naviy harakat, mehnat jarayoni va mehnat jarayonining natijasi, badiiy asar keltirib chiqarishi mumkin. Voqelik insonga stixiyali ravishda estetik ta’sir ko‘rsatadi va bu ta’sir tarbiya akti vositasida tashkillanadi. Bunday tarbiya estetik tarbiya deb ataladi.

Ushbu masala yuzasidan ba’zi muammolarning klassik talqinini Platon va Aristotelning ta’limotlaridayoq uchratishimiz mumkin. Ularda aksariyat hollarda san’atning insonga tarbiyaviy va boshqa ta’sirlari haqida nazariy ta’riflar keltiriladi.

Estetik tarbiyada talabalarga voqelikdagi go‘zallik san’atda go‘zallik manbai va olamga estetik munosabat esa go‘zallik qonuniyatlari asosida ijod qilishga intilish ekanligini anglash juda muhim. To‘g‘ri tashkil etilgan estetik tarbiya talabaning o‘zini o‘zi anglashi, shaxsning har tomonlama va erkin rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Estetik tarbiya muammolarini hal qilish uchun tabiat bilan “muloqot”dan (park yoki o‘rmonga sayohatlar, tarixiy obidalarga sayohatlar, insholarda yoki chizmalarda ko‘rgan narsalarni aks ettiruvchi ekologik o‘yinlar),

jismoniy estetikadan kengroq foydalanish kerak. Madaniyat-sport tadbirlari, bayramlar va musobaqalarni tashkil etish, muzey va teatrlarga sayohatlar, adabiy uchrashuvlar va musiqiy kechalar, tanlovlar va viktorinalar, san‘at ahli bilan uchrashuvlar o‘tkazish samarali yechimlardan biri. Mehnat estetikasi ish joyini loyihalash, texnik xizmat ko‘rsatish, ish jihozlari, ta’lim muassasalari yaqinida landshaft tuzilmalarini yaratish go‘zallikni his qilishga omil bo‘ladi.

Estetik tarbiyaning istiqbolli shakllari kvestlar (vazifa yuzasidan o‘yinlarni tashkillashtirish, mantiqiy savollar yuzasidan guruh bo‘lib ishlash) va loyihalardir. Talabalarga taklif etilayotgan loyiha mavzulari zamonaviy kino, televideniya, ijtimoiy tarmoqlarning turli yoshdagi foydalanuvchilarga ta’sirini tahlil qilish, turli teatrlarning repertuarlarini o‘rganish hamda ularning mahalliy va xorijiy adabiyot va dramaturgiya bilan bog‘lanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, xalq hunarmandchiligi tarixi va ularning zamonaviylik bilan bog‘liqligini o‘rganish, ta’lim muassasasi joylashgan hududning madaniy diqqatga sazovor joylariga ekskursiya yo‘nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish samaralidir.

Ta’kidlash joizki, insonning voqelikka estetik munosabati deganda, bu jarayon emotsional reaksiya bilan mohiyat hodisasi bilishning birligi va kishining bir butun, bo‘linmas tajribasi bilan mosligi sifatida tushuniladi. Bunda u o‘zaro munosabatni aniqlaydi. Mohiyat hodisasida ongli yoki ongsiz, intuitiv anglangan bilan odam tajribasining mosligi ijobiy, mos kelmasligi esa salbiy baholash reaksiyasini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sattorov A.E. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari va texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T.: -2019.
2. Искусство и дети: Эстетическое воспитание за рубежом. М.: Искусство,1969.
3. Эстетическое воспитание, его особенности и структура. Арзиматова Иноятхон Мадимаровна, ФерГУ., кандидат философских наук, доцент. 2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA MA’NAVIY –AXLOQIY TARBIYASINI TARBIYALASH USULLARI

O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi
o‘qituvchisi Meyliyeva N.G
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi Ilhomova Sh

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada ijtimoiy tarbiyalash usullari va vositalari yoritilgan bo‘lib, keltirilgan ma’lumotlardan soha vakillari, ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari, tarbiyachilari foydalanishi mumkin.

Аннотация: В данной статье освещены методы и средства социального воспитания дошкольников в семье, а предоставленная информация может быть использована представителями сферы, родителями, педагогами дошкольных образовательных организаций, воспитателями.

Annotation: This article describes the methods and tools for the formation of socio-spiritual behavioral skills of middle school children of preschool age, the information can be used by teachers, educators, family educators of preschool education.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiya, ijtimoiy tarbiya, vosita, o‘rgatish, mashq qilish

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, социальное воспитание, инструмент, обучение, обучение.

Keywords: Preschool education, socio-spiritual behavior, methods, tools, teaching, exercise

Kirish. Bugun O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta’lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. 2019 yil 16-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Qnunchilik palatasi tomonidan 22 oktyabrda qabul qilingan va 14 dekabrda Senat tomonidan ma’qullangan ‘’Maktabgacha ta’lim va

tarbiya to‘g‘risidagi’’Qonunni imzoladi. Qonun maktabgacha ta’lim va tarbiyani bolalarni o‘qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’limning bir qismi sifatida belgilaydi.[1]

Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalaming turli yosh davrlarida shakllanish darajasi Axloqiy onglilik Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘Iadi. Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob - shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo‘Iadi.

Asosiy qism. Ingliz filosofi Frensis Bekon. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo‘lib, ota –onalar bolalar tarbiyasida har doimo ham istagan natijalarga erishavermaydilar.

Hayotning birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug‘ulanish oilaning asosiy vazifasidir. Oila jamiyatning boshlang‘ich qismi bo‘lib, unda yangi inson vujudga keladi; bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota –onalar bolaning birinchi tarbiyachisi va tarbiyachisidirlar.

Bola tarbiyasida haqida Abdulla Avloniy shunday deydi: “Bolani salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmoq, yomon xulqlardan asrab o‘stirmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak zarurdir”[1]

Elkonin bolani “oq qog‘oz”ga o‘xshatadi. Uning fikricha qog‘ozga nimani yozsak shuni ko‘rishimiz mumkin ekan. Shunga ko‘ra bolalarga ijtimoiy-ma’naviy xulq-atvor

ko‘nikmalarini shakllantirish bir necha usullarda olib boriladi. Quyida ular bilan batafsil tanishamiz:

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

Tarbiyachi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. Bolalar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi. [3]

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish bola uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, Bolaning aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. Tarbiyachi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

1) faoliyatda mash qilish;

2) kun tartibi mashqlari;

3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtdan

to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Ijtimoiy va axloqiy tarbiya metodlarining bir necha tasnifi mavjud. Masalan, V.I. Loginova, ta'lim jarayonida axloqiy rivojlanish mexanizmini faollashtirishga asoslangan usullarni tasniflab berdi:

- Tuyg‘u va munosabatlarni rag‘batlantirish usullari (kattalarga misol, rag‘batlantirish, talab, jazo).
- Bolaning axloqiy xulq-atvorini shakllantirish (o‘qitish, mashq qilish, faoliyatni boshqarish).
- Bolaning axloqiy ongini shakllantirish (tushuntirish, taklif, axloqiy suhbatlar shaklida ishontirish).

B. T Lixachevning tasnifi axloqiy tarbiya jarayonining o‘zi mantig‘iga asoslanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ishonchli ta'sir o‘tkazish usullari (hurmat, pedagogik talablar, ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilish, ishontirish).
- Ta'lim ta'siri (tushuntirish, stressni yo‘qotish, ong, iroda, harakat, hissiyotga murojaat qilish).
- Kelajakda ta'lim jamoasini tashkil etish va o‘zini o‘zi tashkil etish (o‘yin, musobaqa, yagona talablar).[2]

Maktabgacha yoshdagi ma’naviy va axloqiy tarbiya, bola birinchi axloqiy baholash va mulohazalarni ishlab chiqishi bilan belgilanadi, u axloqiy me’yor nima ekanligini tushunishga kirishadi va unga nisbatan munosabatini rivojlantiradi, ammo bu har doim ham haqiqiy harakatlarda unga rioya qilinishini ta'minlamaydi. Bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi ularning hayoti davomida amalga oshiriladi va u rivojlanib, o‘sib boradigan muhit bola axloqini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun, sog‘inmaslik juda muhimdir muhim fikrlar bola hayotida, shu bilan unga shaxs bo‘lish imkoniyatini beradi.

Ma’naviy- ijtimoiy va axloqiy rivojlanish muammolarini hal qilishga o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan model asosida tashkil etish yordam beradi, bu bolalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlarining hukmlari, takliflari va kelishmovchiliklarini qabul qiladigan va mavjudligini hisobga oladigan tarbiyachi bilan yaqin aloqalarini ta'minlaydi. Bunday sharoitda aloqa dialog, birgalikda muhokama qilish va umumiy yechimlarni ishlab chiqish xususiyatiga ega bo‘ladi. [4 Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg‘ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev “ Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi ” Qonun - 2019 yil 16-dekabr
2. Qodirova F.,Toshpo‘latova. Sh,,Kayumova .N, Azamova .N Maktabgacha ta’lim pedagogikasi Toshkent-2019
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari
4. Karimova V.M “ Ijtimoiy Psixologiya” . Darslik- T.: “Fan va texnologiya ”, 2012.

Elektron ta’lim resurslari

1.www.ziyonet.uz
2.www.gender.uz
3.www.pedagog.uz
4.www.pscholog.uz
5.www.tdpu.uz

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI VA OILADA MA’NAVIY-AXLOQIY, FUQAROLIK-VATANPARVARLIK TARBIYASI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi K.F.Qodirova
NavDPI 2 kurs (sirtqi) talabasi Sh.A. Ismatova

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni yuksak axloqli qilib tarbiyalashda tarbiyachi oldida turgan vazifalar haqida so'z yuritilgan. Bolalarni ilk yoshdan boshlab mehr-muruvvatli qilib voyaga yetkazish, milliy istiqlol goyasini ular ongiga singdirish masalalari yoritilgan. Tarbiyachi oldida turgan vazifalarni hal etish usul va metodlari ko'rsatilib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, istiqlol, milliy g‘oya, axloq me'yorlari, Vatan, ertaklar, pedagogik texnologiyalar, o'yinlar, rivojlantirish.

Аннотация: статье говорится о задачах, стоящих перед педагогом при воспитании высоконравственных детей в дошкольных образовательных учреждениях. Освещены вопросы воспитания детей в доброте с раннего возраста, внедрения в их сознание идеи национальной независимости. Показаны методы и приемы решения задач, стоящих перед педагогом, и даны рекомендации.

Ключевые слова: педагог, самостоятельность, национальная идея, нравственные нормы, Родина, сказки, педагогические технологии, игры, развитие.

Annotation. The article talks about the tasks of educators in raising children in preschool educational institutions with high morals. The issues of raising children with kindness from an early age, inculcating the idea of national independence into their minds are covered. Methods and methods of solving the tasks facing the educator are shown and recommendations are given.

Key words: educator, independence, national idea, moral standards, Motherland, fairy tales, pedagogical technologies, games, development.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy istiqlol sharofati tufayli turli jabhalarda har tomonlama qaror topayotgan imkoniyatlar jamiyatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, umuminsoniy qadriyatlar tizimida shaxs omiliga qo'yilayotgan ma'naviy axloqiy, jismoniy va har tomonlama barkamollikni tarbiyalashni taqozo etadi.Darhaqiqat, bugungi kun tarbiyachilari zimmasiga har tomonlama barkamol, fidoiy, komil hamda mehr - muruvvatli insonlarni tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Komillikni har bir inson o'zicha tushunadi va turli yo'llar bilan unga erishishga intiladi. Shuning uchun ham inson komillikka yetaklovchi muhim omillarni falsafiy idrok etishi va anglashi nihoyatda muhimdir. Insonlarni komillashib, o'zligini anglashi bunyodkorlik, fidoyilik ishlarini amalga oshirish, ezgu maqsadlar yo'lida mehr -muruvvat ko'rsatishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.Yangi davr bolasini tarbiyalovchi zamonaviy tarbiyachi har tomonlama yetuk, bazaviy va zamonaviy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, bolalarga mehribon yoki mehr-muruvvat namunalarini ko'rsataoluvchi pedagog bo'lishi darkor. Ayniqsa, bugungi kun bolalari o'ta ziyrak, ijodkor, teran fikrlovchi va har tomonlama rivojlanishda jadal. Tarbiyachi bo'lishning o'zi mashaqqatli va mas'uliyatlidir, chunki bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda tarbiyachining o'z faoliyatiga tizimli yondashishi samarali natijaga olib keladi, ya'ni yosh avlodni barkamol bo'lishi garovi bo'ladi. Tarbiyachi, avvalo, ma'naviyatli bo'lishi, o'zining yuksak ma'naviyati bilan nafaqat bolalarga, balki ularning ota-onalariga o'rnak bo'la olishi muhim hisoblanadi. Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Demak, tarbiyachi ruhan pok, irodasi baquvvat, iymon-e'tiqodli, qalbi mehrga to'la bo'lishi, insonlarni yaxshilikka yetaklay oladigan bo'lishi eng muhim talablardan biri. Tarbiyachi qanday axloqiy xususiyatlarga ega ekanligi bolalarda o'z aksini ko'rsatadi. Bolalarni tarbiyalash va ularga bilim berishda, avvalo, ular shaxsini hurmat qilish orqaligina hurmat topish mumkin. Bundan

tashqari, buyuk mutafakkir Ya.Raynis aytganidek, "...avvaliga biz bolalarimizga o'rgatamiz. So'ngra o'zimiz ulardan o'rganamiz. Kimki buni xohlamas ekan, o'z davridan orqada qoladi".

Tarbiyachilarningvazifasi ularni mashg‘ulot jarayoniga qiziqtirib, bolalarni yuksak axloqli. mehr - shafqatli, mehr - muruvvatli qilib tarbiyalashdir. Buning uchun milliy urf - odat, xalq og‘zaki va yozma ijodi, alloma va donishmandlar merosi va ertaklardan foydalanish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr-shafqat hislatlarini shakllantirishda Vatanni, uning insonlarini qadrlash, uni sevish, unga mehr - muruhabbat ko'rsatish, mamlakat barqarorligini, osoyishtaligini saqlash, ona yurt dovrug‘ini butun olamga yoyish kabi xususiyatlar kamol toptiriladi. Bundadastur talablariga ko'ra:

-Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ona Vatan, ona diyor, uning insonlari, turmush tarzi haqidagi bilimlarini kengaytirish;

-Vatanga, ona yurtga, insonlarga mehr - oqibatli, mehr - muruvvatli, mehr - shafqatli bo'lish, boshqa xalqlarga hurmat tuyg‘ularini ifodalovchi badiiy adabiyotlardan ko'proq foydalanish;

"Bolalani mehr -muruvvatli qilib tarbiyalshda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rnini ham alohida ta'kidlash mumkin. Tarbiyachi har bir mashg‘ulotida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi, audio, video va multimedia vositalariniqo'llashi orqali ham erishish mumkin. Hozirda tarbiyachilar samaralibolgan"Aqliy hujum", "Klaster", "3x4", "Zinama-zina", "Muammo", "Akvarium", "Doira", "Sehrli xaltacha", "Tangram", "Triz" kabi zamonaviy metodlardan o'rinli qo'llab maqsadga erishib kelmoqdalar. Masalan, «Doira» usuli bunda bolalar doira shaklida o'tirib, turli harakatli mashqlarni bajaradilar, bolalarni qator qilib o'tkazish usulidan qulay tomoni shundaki, hech bir bola o'zini ajratilganligini, ya'ni kimdir orqada, kimdir oldinda ekanligini sezmaydi. Har bir bola tarbiyachi nazari va e'tiboridan chetlanib qolmaydi. Hamma o'zini «teng» his qiladi. Bolalar bir-birlariga qarab mehr va do'stlikni, bir xildagi e'tiborni ko'radi. Bu ham ularda yonidagilarga, atrofdagilarga, tarbiyachilariga, oila-a'zolariga va vataniga bo'lgan mehr kurtaklarini shakllantirib boradi. Mashg‘ulotlarda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar rang-barang, bir-birini takrorlamaydigan, qiziqarli bo'lishi har tomonlama axborotlar oqimiga ega bo'layotgan farzandlarimizni jalb etish, qiziqtira olish imkonini beradi.Har kimning o'z xonadoni, uy-joyi, o'z ona yurti naqadar qadr-qimmatli ekanligini o'zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi. Vatan ham, vatanga muhabbat to'yg‘usi ham ilohiy ne'mat bo'lib, butun qontomirlarida shu tuyg‘u jo'sh urgan insonda vatanfurushlik, vatangaxiyonatdekjirkanch yo'l hech qachon bo'lmaydi. Vatan muqaddasdir. Undan qimmat, undan aziz, undan shirin, undan ulug‘ ne'mat, boylik yo'qdir. Shu boylikni qadrlagan, undan cheksiz faxrlangan insongina oilasi, xalqi, atrof muxiti, jamiyatiga mehr-muhabbatli bo'ladi. Inson ona uchun kanchalik jonfidolik qilsa, Vatan uchun xam shunchalik qayg‘uradi, uni ardoklaydi, sevadi, avaylab-asraydi, turli ofatlardan, dushmanlardan qo'riqlaydi. Kerakbo'lsa, Ona- Vatan uchun jonini qurbon kiladi. Munis va mo"tabar Ona insonni shu yorug‘ dunyoga keltirsa, Vatan uni hayot belonchagida o'stiradi, ulg‘aytiradi, shaxsni shaxs sifatida namoyon etadi. Shu boisdan inson uchun Ona - Vatandan ulug‘roq, mo"tabarroq, qimmatliroq makon yo'q. Xalqichida Ona degonda - Vatan, Vatan deganda esa Ona tasavvur etilishida ham majoziy mabno bor. Ba'zi bir sabablarga ko'ra, o'zga yurtlarda yashayotgan vatandoshlarimiz ham «Ona-yurtim», «Ota-yurtim», «Kindikqonim to'kilgan yurt» deb faxrlanadilar. Bolalarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni bolaning maktabgacha yosh davridan boshlash ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir.Shunday qilib, Vatan muqaddasligini saqlash, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan xalq, davlat, mamlakat rivojiga ulkan ulush qo'shish har bir fukaroning jamiyat, kelajak avlod oldidagi burchidir. Bu burchni halol, pok, fidoyilik va jasorat bilan bajargan insongina haqiqiy vatanparvar bo'la oladi. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvatlilikni shakllantirish tarbiyaning eng muhim qismlaridan biridir. Shuning uchun ham maktabgacha yoшdaga bolalar tarbiyasida eng avvalo ularning ruhiy jarayonlarini o'stirish, rivojlantirish va takomillashtirib borishga yordam beruvchi omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Vatan, vatanparvarlik, insonparvarlik va insonda mehr tuyg‘ularining naqadar yuqori tuyg‘u ekanligi va unga sodiq bo'lib qolish, islom diniga e'tiqod qiluvchi har bir mo'min — musulmon hayotining mazmuni ekanligining alomalarimiz asarlarida qayd etilgan. O'zbeklarning urf-odatlari bo'yicha, o'zi yashab turgan joy muqaddas

hisoblanadi. Bu muqaddas tuproqqa nisbatan yovuz niyat, yomon so'z aytilmaydi.Vatan, yurt, millat tushunchalari ulug‘vor tushunchalar bo'lib, hamisha mehr-muxabbatdan quvvat oladi. Shu jihatdan qaraganda bu tuyg‘ular egizak - qondoshu jondoshdurlar.Bu his tuyg‘ularni yosh murg‘ak yuragida uyg‘atish, uni rivojlantirish va takomillashtirib borish barcha maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari faoliyatlarida, ota-ona, maxalla fuqarolari va xokazolarning muqaddas burchlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T. Ma'naviyat2008y.
2. MahkamovU. Axloq -odobsaboqlari. -T.: Fan, 1994. -134b.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA «MEN» - OBRAZI VA O‘Z-O‘ZIGA BAHO

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi N.D.Nabiyeva
NavDPI 2 kurs (kechki) talabasi G.E. Raxmonberdiyeva

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bola shaxsini rivojlantirishda bolaning «Men» - obrazi va o‘z-o‘ziga baho berishi xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: men obrazi, bola shaxsi, o‘z – o‘ziga baho berish, o‘z – o‘zini anglash, o‘z – o‘zini tarbiyalash.

Annotation: this article presents ideas about the child's self-image and selfevaluation in the development of the child's personality of preschool age.

Key words: self-image, child personality, self-evaluation, self-realization, selfeducation.

«Men» - obrazi asosida ham bir shaxsda o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo‘lishi mumkin. Ushbu baho aslida shaxsga boshqalarning hayotiy munosabatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya’ni uning o‘zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog‘liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o‘qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o‘z-o‘ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o‘qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin.Ya’ni bu baho ko‘proq shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, u subyektiv xarakterga egadir. O‘z-o‘ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘lishi,balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin. Bunday o‘smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o‘zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo‘lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya’ni o‘z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday sharoitda paydo bo‘ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchraganda yoki o‘zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o‘zgalarda deb biladi va shunga o‘zini ishontiradi ham masalan, «xalaqit berdi-da», «falonchi bo‘lmaganida» kabi bahonalar ko‘payadi. Ya’ni nimaiki bo‘lmasin, aybdor o‘zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog‘i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog‘dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o‘z-o‘ziga baho realistik, adekvat, to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi referent guruhning roli katta bo‘ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo‘lishi (masalan, ota-ona, o‘qituvchi, ustoz, yaqin do‘stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo‘lishi

O‘z-o‘ziga baho o‘ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun’iy tarzda bo‘rttirilishi, noo‘rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o‘tishga intilish tufayli shakllanadi. O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi ko‘pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki tazyiq ko‘rsatish kerak bo‘lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o‘ynashi oqibatida shakllanadigan o‘z-o‘ziga baho o‘zo‘zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi.

Bola va katta yoshdagi odam. Ontogenezda kattalar bilan muloqot bolalarda birdaniga paydo bo‘ladi, ancha keyin esa bolaning tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatiladi. Dastlab bola butunlay kattalarga bog‘liq bo‘ladi. Tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar ko‘p jihatdan kattalarning bola bilan o‘zaro munosabati xususiyatiga bog‘liq. Kattalarga ergashib bolalar o‘zini ismi bilan atay boshlaydilar. Ikkinchi yil oxiriga kelib o‘zini ismi bilan chaqirish «men» kishilik olmoshi bilan almashinadi. «Men» tizimi – erta bolalikda (L.I Bojovich) paydo bo‘luvchi markaziy hodisadir. Bola o‘zini kattalardan ajratishni o‘rganadi, o‘ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo‘la boshlaydi, ya’ni unda o‘zini anglashning boshlang‘ich shakli paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga ta’lim – tarbiya berish. Toshkent, “O‘qituvchi”,1989 yil.
2. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2006 yil.
3. Bolalar nutqini o‘stirish metodikasi. Toshkent, 1991 yil.
4. Borodich M. “Metodika razvitiya rechi detey” Moskva, 1981 yil.
5. Jo‘raqulov R. To‘xtayeva Sh. “Bog‘chalarning kichik guruhlarida bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” Samarqand, 1991 yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGIGA OID OLIB BORILADIGAN ISHLAR

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Yarova Gulhayo Fazliddin qizi
Navoiy shahar 18 – Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi
Shomurodova Maqsuda Sharopovna

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali oila hamkorligi va uning mohiyati, bola tarbiyasidagi muhum jihatlari to‘g‘risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila hamkorlik, ota-ona, bola tarbiyasi, bola shaxsi, tarbiyachi,hamkorlik metodlari,tanlovlar.

Аннотация: В статье рассматривается семейное сотрудничество, его сущность и аспекты воспитания детей.

Ключевые слова: До конца учебного года, образовательная организация, семейное сотрудничество, родители, воспитание детей, идентичность ребенка, воспитатель, методы начала обучения, отбор.

Annotation: This article discusses family cooperation and its essence and aspects of raising children.

Key words: Up to the end of the school year, the educational organization, family cooperation, parental, child rearing, child identity, educator, commencement methods, selections.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g‘oyani ilgari surgan edilar. Bu g‘oya fransuz xayoliy sotsalistlari Sen Semon, Shari Fure asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug‘ullanishi kerak degan g‘oyani ilgari surganlar. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug‘ullanishi kerak degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar. Jamiyat hayoti, farzand tarbiyasi va yurt ravnaqi uchun maktabgacha ta`lim tashkiloti nihoyatda ahamiyatli tashkilot hisoblanadi. Har bir bolaning o‘z olami fe’l atvori turfa xil bo‘ladi. Shunday ekan bu kichik beg‘ubor olamlarini tushunib yana ma’no mazmun bag‘ishlash, o‘z “men”ini shakillantirish uchun ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik metodlarini yo‘lga qo‘yish ahamiyatlidir. Ahamiyatli jihati ota -onalar bilan munosabatlarga yangi yondashuvlar bilan ularning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda tarbiyalanuvchilarga bilim berish hamda talab qilishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o‘zaro munosabatlariga zamonaviy yondashuvlar "O‘zaro ta'sir" atamasi fikr, his-tuyg‘ular, tajriba almashish, muloqotni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachilarning ota-onalar bilan o‘zaro munosabati o‘zaro yordam, o‘zaro hurmat va o‘zaro ishonchni, tarbiyalanuvchining oilaviy ta'lim sharoitlarini bilishi va e'tiborga olishini, ota-onalarning esa sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi bosqichda oilaviy tarbiya yetakchi deb tan olingan, bu san'atda o'z aksini topgan. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo‘lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

-bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

-maktabgacha tarbiya tashkilotining yillik ish rejasi to‘g‘risida;

-ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Ota-onalar muloqotga ko'proq ochiq bo'lishadi. Dam olish tadbirlari turli bayramlarni o'z ichiga oladi, masalan "Yangi yil kechasi", "Onalar kuni", "Hosil bayrami", "Ota-onalar bilan sport bayrami","Oilaviy teatrlar" tashkil etish kabilarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadbirlarda ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotining mehmonlari emas, balki ishtirokchilardir. Ular o'ynaydilar, qo'shiqlar kuylashadi, she'r o'qiydilar, o'zlarining to'plamlarini, uy-ro'zg‘or buyumlarini, mukofotlarini va hokazolarni olib kelishadi. Shuningdek, "Chaqaloq og‘zi bilan", "Yarmarka" o'yinlari, "Rojdestvo archasini bezang", "Shirin soat" tanlovlari, chiqindilardan bolalar uchun maxsus narsalar yasash va boshqalar. Ota-onalar va bolalar ijodiy vazifalarni bajaradilar "Yosh usta", "Yaxshi uy bekasi". Ota-onalar va maktabgacha yoshdagi bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish ijobiydir, masalan, "Men va oilamning sevimli oshpazlik retseptlari", "Teatr festivallari", "Ijodiy ustaxonalar", "Ijod quvonchi" ko'rgazmalari va boshqalar. Mohiyati kognitiv shakllar ota-onalarni maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlari bilan tanishtirish, ularning ta'limdagi amaliy ko'nikmalarini shakllantirish. Asosiy rol noan'anaviy shakldagi uchrashuvlar, guruh maslahatlashuvlariga tegishli.

Hamkorlikning turli shakllarini mohirona uyg‘unlashtirish, bu ishga maktabgacha ta’lim tashkiloti jamoasining barcha a’zolari va tarbiyalanuvchilarning oila a’zolarini faol jalb etish orqali bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishiladi. Biz ota-onalarning bolalar bog‘chasining ta'lim jarayoniga jalb qilinganida, ota-onalarning faol ishtirokisiz va noan'anaviy hamkorlikning an'anaviy shakllari mavjudligini aniqladik. MTT va oila bilan hamkorligi turli shakllarda amalga oshiriladi. Ushbu shakllar an'anaviy (ota-onalar yig‘ilishi, ota-onalar uchun maslahat) va noan'anaviy (ota-onalar bilan davra suhbati, oilaviy klublar) bo'linadi. Bog‘cha tarbiyachilari, metodistlari, bolalar bog‘chasining boshlig‘i va boshqa mutaxassislari ushbu ishning mazmuni va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirib boradilar, maktabgacha ta'lim tashkilotida va oilada bolaga tarbiyaviy ta'sirning organik uyg‘unligiga erishishga, har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga intiladi.

Xulosa qilib aytganda MTTda ota-onalar bolalarini tarbiyasiga e’tiborsiz bo‘lishlari bolani qiziqishi kelajakda qanday yo‘nalishda ketishi, mehr muhabbat nimaligini bilmasiligi, tarbiyachini onasini o‘rniga qo‘yishligiga olib kelyapti, shuning uchun MTT bilan doimiy aloqada bo‘lishi kerak. Hayot huddi oziq zanjiri kabidir bir joyi uzilsa uni tiklashi qiyin boladi bola shu narsa yuz

bersa butun umr davomida qiyinchilikga uchrashi mumkin shuning uchun ota-onalar bolalarga e’tiborsiz bo‘lmasliklari kerakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fayziyeva Z. “MTM va oila hamkorligi” Maktabgacha ta‘‘lim jurnali 2/2016

2. Glebova, S. V. Bolalar bog‘chasi - oila: aspektlari o'zaro ta'sirlar. G. A. Antipova / Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi. – 2011. -№12. -BILAN. 88 – 94

3. Maktabgacha pedagogika darslik / F.R.Qodirova -Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d.,Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA’zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b.

MILLIYLIK ABADIYDIR

O‘zbekiston, Navoiy shahar 2-sonli DMTT tarbiyachisi
Kamolova Iroda Faxriddinovna

Annotatsiya: bolajonlarda milliylik, urf odat, madaniyatini rivojlantirish kattalar yordamida bolalik davridan boshlab shakllantiriladi va butun umri davomida atrof muhit, tarbiya va faoliyat orqali rivojlanib boriladi. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalash va voyaga yetkazish davomida milliy ruhda, kiyinish qoidasiga milliylik borligiga amal qilmagan holda ba‘zan o‘zlari bilmay xatolar qilishlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirlarimiz, milliy kiyinish, milliy kiyimlar, do‘ppi, maxsi, aytib atlas, adraslar, zar choponimiz, milliy oyoq kiyim, ota ona, yosh avlod milliylik.

Аннотация: развитие народности, обычаев и культуры у детей формируется с детства при помощи взрослых и продолжает развиваться через среду, воспитание и деятельность на протяжении всей жизни. Сообщается, что родители иногда по незнанию допускают ошибки, воспитывая и воспитывая своих детей в духе национализма и не соблюдая правила одежды.

Ключевые слова: наши мероприятия, национальный костюм, национальная одежда, шапка, макси, говорящий атлас, адреса, зар чапон, национальная обувь, отец и мать, национальность молодого поколения.

Abstract: the development of nationality, customs and culture in children is formed from childhood with the help of adults and continues to develop through the environment, upbringing and activities throughout life. It is reported that parents sometimes unknowingly make mistakes by raising and educating their children in the spirit of nationalism and not following dress codes.

Key words: our events, national costume, national clothes, hat, maxi, talking atlas, addresses, zar chapon, national shoes, father and mother, nationality of the younger generation.

Milliylik abadiydir bu so‘zlar zamirida pur ma’no yotadi.Biz kattalar yoinki biz DMTT ustozlari ota onajonlar bilan birgalikda bolalarni milliy ruhda tarbiyalasak milliylik o‘lmaydi.Men ish faoliyatim davomida bolajonlar bilan birga bolajon bo‘lib kuztganimda bolajon bir farishta misolidir.Bolalarni shu jajji miyachasini oppoq qog‘ozga o‘xshataman, sababi ularni to kiyimini kiyishdan tortib ovqatini yeyishi, hojatiyu uxlashi biz ustozlar qo‘lidadir. Shu oppoq qordek oq qog‘ozni biz to‘ldirib boramiz. Shunday ekan bolalarni milliy ruhda tarbiyalasak shundagina milliylik o‘chmaydi. Milliylik birgina kiyinishdan emas uning zamirida tom ma’no yotadi.Bolani erta turishi,uyda dasturxon atrofida o‘tirganda salom berishi,kattalarda hurmatda bo‘lishi vahokazolar misol bo‘ladi. Ana ko‘rdingizmi bu milliy odatimiz odob axloqlarimiz hisoblanadi.Meni maqolamni yozishga undagan narsa maqolam boshida kiritdim va o‘zimni faoliyatlarim davomida bolajonlar bilan “MILLIYLIK ABADIYDIR”deb nomlangan mashg‘ulot o‘tdim. Bolajonlar mashg‘ulotim davomida markazlarda tayyorlab qo‘ygan barcha milliy urf odatlarimizni mujassam bo‘lgan o‘yinlarimizni ko‘rib xursand bo‘lib bajarishdi. Misol:Qurish yasash va matematika markazida: bolalarda bir qiz bola aks etgan gavda va o‘g‘il bola aks etgan gavda matodan tikilgan holda tayyorlab milliy kiyimda kiyintirish kerakligini aytdim .Bolalar bu faoliyatda juda aktiv bo‘lib bajarishdi va milliy kiyimlar qanday ekanini bilib olishdi.

Til va nutq markazida:”Chopon qovush” usulini qo‘ydim bolalar bu markazdagi faoliyatni ham juda xursand bo‘lib bajarib so‘ng nima ish qilishganini hikoya tarzida so‘zlab berishdi.

Fan va tabiat markazimizda:”Non yopish”qizlarimiz juda ham qiziqishib bajarishdi.Xamir tayyorlanishini ko‘rishdi.

Sa’nat markazida:milliy do‘ppilarimizni tayyorlab naqshlarini yelimlab chiqishdi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazimizda: Beshikdagi bolaga Alla aytib berishdi.

Har bir pedagog tarbiyachi bolani DMTT faoliyatidan milliylik ruhda tarbiyalasa milliylik hech qachon o‘lmaydi va abadiy bo‘lib qon qonmimizga singib boradi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. “Umumiy pedagogika” X.Ibraimov,M.Quronov. 2023yil.
2. “Oliy maktab pedagogikasi” M.Ochilov.2008 yil.
3. www.Ziyonet.uz
4. Uz.eyewated.com
5. Czysto.waw.pl
6. https://www.coaccess.com/uz/blog/listening/

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY ALOQAGA KIRISHISHIDA TENGDOSHLARI VA KATTALARNING AHAMIYATI

O‘zbekiston, Qiziltepa tuman Bo‘ston
MFY 8-DMTT tarbiyachi
Dilmurodova Fotima Bobomurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning erta bolalikdan onasi, yaqinlari bilan aloqasi sog‘lom aqliy rivojlanishi, tengdoshlar bilan muloqot bola uchun alohida ahamiyatga ega ekanligi, bolaning tengdoshlar safidagi o‘rni, asosan, suhbat olib borish qobiliyatiga bog‘liqligi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, muloqot, ona, ota, oila a'zolari, tengdoshlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается здоровое психическое развитие отношений ребенка с матерью и близкими с раннего детства, то, что общение со сверстниками имеет для ребенка особое значение, а место ребенка среди сверстников во многом зависит от умения вести беседа.

Ключевые слова: Речь, общение, мать, отец, члены семьи, сверстники.

Annotation: This article discusses the healthy mental development of a child's relationship with his mother and relatives from early childhood, the fact that communication with peers is of special importance for a child, and the child's place among peers mainly depends on the ability to conduct a conversation.

Key words: Speech, communication, mother, father, family members, peers.

Nutq, tabiatning ajoyib sovg‘asi, insonga tug‘ilishdanoq berilmaydi. Bolaning gaplashishi uchun vaqt kerak. Oilaning katta yoshli vakillari, ayniqsa, ota-onalar bolaning nutqi to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlanishi uchun ko‘p kuch sarflashlari lozim. Ona-ota va boshqa oila a'zolari bolaning nutqini rivojlantirish yo‘lidagi birinchi suhbatdosh va ustozlardir. Erta bolalik davrida miyaning nutq sohalarining anatomik kamoloti asosan tugaydi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini o‘zlashtiradi va muhim so‘z birikmalarini to‘playdi. Ota-onalar va ustozlar bolaga nisbatan sezgir bo‘lishlari, u bilan ko‘p muloqot qilishlari, diqqat bilan tinglashlari, yetarli vosita erkinligini ta'minlashlari kerak. Bunday holda, bolada nutqni rivojlantirishning barcha bosqichlari muvaffaqiyatli o‘tadi va yetarli ma’lumotlarni to‘play oladi. Bu jarayonda bolada muloqot rivojlanadi va o‘zini namoyon qiladi. Bola tilini rivojlantirish manfaatlari uning ijtimoiy aloqalarini bosqichma-bosqich kengaytirishni talab qiladi. Ular nutqning mazmuniga ham, tuzilishiga ham ta'sir qiladi. O‘zining ijtimoiy rivojlanishida bola, boshlang‘ich ijtimoiy birlikdan (ona va bola, u

tug‘ilish vaqtida a'zo bo‘lgan) boshlab, odamlar bilan doimiy aloqa qiladi va bu, albatta, uning nutqining o‘sishi va namoyon bo‘lishiga ta'sir qiladi.

Erta bolalikdan boshlab inson hayoti til bilan bog‘liq. Bola hali biron narsani biron narsadan ajrata olmaydi; so‘z uning uchun belgilangan mavzu bilan mos keladi. Til vizual, samarali tarzda rivojlanadi. Ismlarni berish uchun, bu nomlar birlashtirilishi kerak bo‘lgan barcha narsalar yuzida bo‘lishi kerak. So‘z va narsa inson ongiga bir vaqtning o‘zida taqdim etilishi kerak, lekin birinchi navbatda - bilim va nutq ob'ekti bo‘lgan narsa. Bu haqda Y.A. Komeniskiy “Bola hali bir yoshga to‘lmay nutq tovushlarini tinglaydi va o‘z ona tilini tushunishga, o‘zlashtirishga harakat qiladi”, - deb aytgan. Ota-onalar bolaning nutqini rivojlantirishni diqqat bilan kuzatadilar. Bir yoshga to‘lgan bola nutqida birinchi so‘zlar, ikkita-uchta iboralarni aytsa, uch yoshga kelib 1000 ga yaqin so‘zlardan foydalanadi va nutq to‘liq aloqa vositasiga aylanadi. Nutqda taqlid jarayoni rivojlanadi.

Psixologlarning fikriga ko‘ra, odamlarga taqlid qilish shartsiz refleks, instinkt, ya'ni o‘rganilmagan va u bilan tug‘ilmagan tug‘ma qobiliyat, nafas olish, yutish va hokazolar bilan bir xil bo‘ladi. Bola avvalo artikulyatsiya, nutq harakatlarini taqlid qiladi, u bilan suhbatdoshning yuzida ko‘rgan harakatlari (ona, ota, kattalar, tanish va notanishlar) takrorlaydi. Bolaning erta bolalikdan onasi, yaqinlari bilan aloqasi sog‘lom aqliy rivojlanish uchun zarur, shartdir. Vaqt o‘tishi bilan tengdoshlar bilan muloqot bola uchun alohida ahamiyatga ega. Bolaning tengdoshlar safidagi o‘rni, asosan, suhbat olib borish qobiliyatiga bog‘liq.

Nutqni o‘zlashtirish - bu murakkab, ko‘p tomonlama aqliy jarayon: uning paydo bo‘lishi va keyingi rivojlanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Bolaning miyasi, eshitish, artikulyar apparati ma'lum bir rivojlanish darajasiga yetganda shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshda bola, qoida tariqasida, oila bilan cheklanmaydi. Uning muhiti nafaqat ona, otasi va buvisi, balki tengdoshlaridir. Bola qanchalik katta bo‘lsa, u boshqa bolalar bilan muloqot qilishi shunchalik muhimdir. Savollar, javoblar, xabarlar, e'tirozlar, nizolar, talablar, ko‘rsatmalar - bularning barchasi og‘zaki muloqotning har xil turlaridir.

Bolaning tengdoshlari bilan aloqalari bola hayotining alohida sohasi bo‘lib, u kattalar bilan bo‘lgan aloqalaridan keskin farq qiladi. Yaqin kattalar odatda bolaga e'tiborli va do‘stona munosabatda bo‘lishadi, uni iliqlik va g‘amxo‘rlik bilan o‘rab olishadi, o‘ziga xos mahoratni o‘rgatishadi. Tengdoshlar bilan har xil. Bolalar bir-biriga kamroq e'tibor berishadi va do‘stona munosabatda bo‘lishadi. Odatda ular bolaga yordam berishga, uni qo‘llab-quvvatlashga va tushunishga unchalik qiziqishmaydi. Ular o‘yinchoqni tortib olishlari, xafa qilishlari, hatto ko‘z yoshlaridagi zarbani payqamasliklari mumkin, lekin shunga qaramay, bolalar bilan muloqot qilish maktabgacha yoshdagi bolaga misli ko‘rilmagan zavq keltiradi. To‘rt yoshdan boshlab tengdoshlar bola uchun kattalarga qaraganda afzalroq sherik bo‘ladi. Tengdoshlar bilan og‘zaki muloqotning birinchi ajralib turadigan xususiyati, bu ayniqsa yorqin hissiyotga boyligidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy aloqalarida kattalar bilan bo‘lganidan ko‘ra, tengdoshlari bilan muloqotida deyarli 10 marotaba ko‘proq ifodali-taqlidiy belgilar va yorqin ifodali intonatsiyalar, qiziqarli iboralar mavjud. Bundan tashqari, bu iboralar turli xil shartlarni ifodalaydi - g‘azabdan "Siz nima qilayapsiz?”, “Yomon quyoncha”, “Qarang, nima bo‘ldi! Yana sakrab chiqaylik!” kabi. Tengdoshlar bilan muloqotda, bolalar o‘zlarini, istaklarini, kayfiyatlarini ifoda etishni, boshqalarni boshqarishni, turli xil munosabatlarga kirishishni o‘rganadilar. Shubhasiz, nutqning normal rivojlanishi uchun bolaga nafaqat kattalar, balki boshqa bolalar ham kerak.

Zamonaviy tadqiqotlarda nutq muhitini yaratishning ahamiyati, ta'lim muhitining tarkibiy qismi sifatida nafaqat tashqi dunyoga, balki ona tili tizimiga ham faol kognitiv munosabatni yaratishga, shu bilan ona tili va nutq hodisalari haqida elementar tushunchani shakllantirishga qaratilgan samarali ta'lim ta'sirini yaratishga imkon beradi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish muhitini tashkil qilish, bolalarni rivojlantirish bo‘yicha ish sifatini oshirishning muhim sohasiga aylandi. Bolalarda nutqni rivojlantirish darajasini oshirish uchun zamonaviy usullar va texnikalarning asosiy tizimidan foydalanish: badiiy so‘z, pedagog tarbiyachi hikoyasining namunasi, bolalar uchun o‘qish, nutq, didaktik va og‘zaki o‘yinlar haqidagi savollar, bolalar qo‘llarining nozik motorli ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar shular jumlasidan. Bugungi kunda bolalar uchun ma'lumotlar juda ko‘p bo‘lganligini hisobga olsak,

o‘quv jarayoni ular uchun qiziqarli, ko‘ngilochar va rivojlantiruvchi bo‘lishi talab etiladi, bu jarayonning faol ishtirokchilari sifatida oila a’zolari va tengdoshlarni jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 14. // Xalq so‘zi. 2016 yil 15 dekabr. – № 247. – 2 b.

2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

3.Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas’ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a’zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

4. Bespalko, V.P. O vozmojnostyax sistemnogo podxoda v pedagogike / V. P. Bespalko // Sovetskaya pedagogika, 1990. - № 7. - S. 59 – 62

5.file:///C:/Users/sony/Downloads/bolalarda-nutq-madaniyatini-shakllantirishga-ta-sir-etuvchi-omillar.pdf

TINGLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Homiyatova Mavluda Amon qizi

Annotatsiya: Tinglash madaniyatini rivojlantirish bolalik davridan boshlab shakllantiriladi va butun umri davomida atrof muhit, tarbiya va faoliyat orqali rivojlanib boriladi. Ota-onalar farzandlarini tarbiyalash va voyaga yetkazish davomida ba’zan o‘zlari bilmagan holda xatolar qilishadi. Masalan: bola maktabda matematika darsida ustozi bergan masalani birinchilardan bo‘lib to‘g‘ri bajardi. Ustozi uni butun sinf oldida maqtadi. Bola xursand bo‘lib uyiga keldi onasi eshikni ochdi, bola onasiga bu yangilikni aytmoqchi bo‘lib turganida onasi aytdi: tez kiyimlaringni almashtir, ovqat tayyor keyin gaplashamiz deb javob berdi. Bu holat ko‘pchilik oilalarda uchrashi mumkin. Oilada bola fikri eshitilmasa, uni gapi e’tiborga olinmasa kelajakda bu holat ota-ona keksayganida bola tomonidan ota-onasini eshitmaslik holatlari kuzatiladi. Aksariyat o‘z oilasida eshitilmagan bolalar jamiyatda bir qancha to‘siqlarga uchrashi mumkin.

Аннотация: Развитие культуры слушания формируется с детства и развивается на протяжении всей жизни через окружающую среду, воспитание и деятельность. Родители иногда совершают ошибки, не осознавая этого, на протяжении всего воспитания и взросления своих детей. Например: ребенок одним из первых правильно выполнил задачу, поставленную учителем на уроке математики в школе. Его учитель похвалил его перед всем классом. Мальчик пришел домой счастливым, его мать открыла дверь, когда мальчик собирался сообщить маме эту новость, Мама сказала: быстро переоденьтесь, еда готова, тогда мы поговорим. Это состояние может возникнуть в большинстве семей. В семье, когда мнение ребенка не слышно, когда его говорят, игнорируется в будущем, когда родитель становится старше, наблюдаются случаи, когда ребенок не слышит своих родителей. Дети, о которых большинство не слышит в своей семье, могут столкнуться с рядом препятствий в обществе.

Annotation: The development of listening culture is formed from childhood and is developed throughout its life through the environment, upbringing and activities. Parents sometimes make unintentional mistakes during the upbringing and maturation of their children. For example: the child was one of the first to correctly cope with the issue that his teacher gave him in a mathematics lesson at school. His teacher praised him in front of the whole class. The child came home gladly his mother opened the door, while the child was trying to tell his mother this news, his mother said: change your clothes quickly, the food is ready then he replied that we will talk. This condition can occur in most families. When a child's opinion is not heard in the family, it is ignored

in the future, there are cases when this condition is not heard by the child by his parents when the parent is old. Most unheard of children in their own family can meet a number of obstacles in society.

Kalit so‘zlari: Madaniyat, tinglash, tarbiya, oila, bola, ota-ona, jamiyat.

Ключевые слова: Культура, слушание, воспитание, семья, ребенок, родитель, общество.

Keywords: Culture, listening, upbringing, family, Child, Parent, Society.

Tinglash bu shunchaki eshitish emas balki eshitish va diqqat qilish. Tinglash bu ovozli ma’lumotni maqsadli idrok etish. Tinglash orqali insonlar o‘zlari uchun maqsad va yangi imkoniyatlar, tajribalar ochadilar. Tinglash orqali biz o‘zimizga boshqalar bilan chuqurroq aloqada bo‘lishga imkon beramiz va o‘sishimizga yordam beradigan bilimlarga ega bo‘lamiz. Tinglash ko‘pincha kam baholanadigan mahoratdir. Biz doimo shovqin va chalg‘ituvchi narsalar bilan to‘la dunyoda yashayapmiz va kimnidir yoki nimanidir tinglash qiyin bo‘lishi mumkin. Ammo biz haqiqatan ham tinglash uchun vaqt ajratsak, bu go‘zal va boyituvchi tajriba bo‘lishi mumkin. Tinglashni bir qancha afzalliklari bor. Hozir bir nechtasi bilan tanishamiz.

- Tinglash aloqani kuchaytiradi. Biror kishini tinglaganizda, siz uni va uning fikrini qadrlashingizni ko‘rsatasiz. Bu kuchli aloqalar va uzoq muddatli munosabatlarni yaratishga yordam beradi.
- Tinglash o‘rganishga olib keladi. Biror kishini tinglaganingizda, siz unga o‘z bilimi va tajribasini siz bilan baham ko‘rish imkoniyatini berasiz. Bu sizga dunyo haqidagi shaxsiy tushunchangizni kengaytirishga va shaxs sifatida o‘sishga yordam beradi.
- Tinglash shifo bo‘lishi mumkin. Agar siz kimnidir chinakam tinglash, qadrlash va tushunish uchun joy yaratsangiz, bu uning farovonligiga yordam beradi. Ba’zida boshqalarni davolash harakati o‘zimizni davolaydi yoki o‘zimizdagi umidsizlikni yoki og‘riqni yengillashtiradigan yangi ongni yaratishi mumkin.

Tinglash – bu rivojlantirishga arziydigan mahorat va u bilan birga keladigan ko‘plab afzalliklar mavjud.

Tinglash bolalikdan boshlab shakllanadi. Tinglash madaniyati oilada shakllanadi oila a‘zolari ham o‘rgatishi ham o‘rnak bo‘lishi zarur. Nega aynan oiladan boshlanadi deyapmiz? Aksariyat ota-onalar farzandlari, ularni quloq solishi, farzandlariga maslahat bersa farzandlar so‘zsiz itoat qilib bajarishini istashadi. Ammo ota-onalar farzandlariga xuddi shunday munosabatda bo‘lyaptilarmi? Farzandlarini haqiqattan tinglayaptilarmi yoki o‘zlarini xuddi tinglagandek ko‘rsatyaptilarmi? Farzandlari ularni maslahatini qilmayotgan ota-onalar, farzandlarini emas balki aybni o‘zlaridan qidirishga urinsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Farzandlari ularni eshitmayaptimi demak ular yaxshi o‘rnak bo‘la olmagan hisoblanadi. Dono xalqimizning hikmatli so‘zlari bor: Bolani tarbiyalamoqchi bo‘lsang unda o‘zingdan boshla. Chunki hech qaysi bola eshitganini emas ko‘rganini qiladi. Bolaga tarbiya berishni eng samarali usuli bu o‘rnak bo‘lish. Bolani xususiyatida taqlitchanlik bor. Shuning uchun ham u ko‘rganiga taqlid qiladi. Agar siz farzandingiz gapirganida xuddi uni eshitayotgandek emas balki haqiqattan eshitsangiz, ular ham sizni tinglaydi. Masalan: bir bola darsda o‘qituvchi bergan masalani birinchi bo‘lib to‘g‘ri ishladi. O‘qituvchi butun sinf oldida uni maqtadi, rag‘batlantirdi. Bola bu muvaffaqiyatini onasi bilan bo‘lishmoqchi bo‘ldi. Uyga keldi onasi eshikni ochdi bola dedi: “Onajon bugun nima bo‘ldi bilasizmi?” dedi hayajon bilan . “Keyin aytarsan bor kiyimlaringni almashtir ovqat tayyor tez bo‘l” dedi onasi va oshxonaga qarab yo‘l oldi. Shunda bola juda xafa bo‘ladi va hayollariga turli salbiy fikrlar kela boshlaydi: “onam meni yaxshi ko‘rmaydi”. Yana bir misol: bir bola musiqa to‘garagiga borayotgan o‘rtog‘iga havas qilib musiqa to‘garagiga bormoqchi bo‘ldi. Musiqa ustozi unga: “sening ovozing juda shirali sen musiqa bilan shug‘ullanishing kerak” dedi. Kechki payt ota-onasiga bu haqida aytmoqchi bo‘ldi. kechki ovqat paytida bola “bugun musiqa darsiga o‘rtog‘im elektron pianino olib keldi…” deb endi boshlamoqchi edi otasi unga qarab: “Ovqatingni ye” dedi va “ovqatdan keyin aytarsan gapingni “ dedi. Ovqatdan so‘ng ota o‘z xonasida Gazeta o‘qib, choy ichib o‘tirgan edi bola kirib keldi. Bola “Otajon bilasizmi” deb gapini boshladi ammo otasi gazetadan ko‘zini uzmadi bolaga ahamiyat bermayotgan edi. Ota: “Nima demoqchi eding gapir” dedi, bola: “bugun musiqa darsiga o‘rtog‘im

elektron pianino olib keldi…” afsuski ota gazeta o‘qish va choy ichish bilan band edi. U o‘zini xuddi bolani eshitayotgandek qilib ko‘rsatayotgan edi aslida esa u bolani umuman eshitmayotgan edi. Agar ota haqiqattan uni eshitsaydi qo‘lidagi gazetasini bir chetga qo‘yib Bolani yoniga o‘tirg‘izib ko‘ziga qarab “qani bolam gapir men seni eshitaman” degan bo‘lar edi. Bola otasi uni eshitmayotganini sezdi va gapirishdan to‘xtadi xonadan chiqib ketdi.

Eshitishni bilmagan odam, qayerda qanday gapirishni ham bilmaydi. Eshitmagan odam gapira olmaydi. Bilasizmi! Eshitish gapirishdan qiyin desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ilmsiz va so‘zlashayotganda beodobligi ko‘rinib turgan ikki insonning suhbatini yoki janjallariga guvoh bo‘lar ekansiz ular ikkalasi ham gapirayotganini va ikkalasi ham bir-birini tinglashga sabri yetmayotganligiga shohid bo‘lasiz.

Ba’zi muhokama dasturlarda qarshi tomonni tinglash maqsad qilingan bo‘lsa ham ammo aksariyat hollarda tinglanmaydi balki tinglayotgandek harakat qiladi. Gapirayotgan odam haqlimi? yo‘qmi? Uni tushunishga harakat qilinmaydi.

Ko‘p oilalarda uchraydigan hollardan biri kattalar gapiradi kichiklar jim o‘tiradi. Bunday holat mentalitetdan balki tarbiya uslubi shunaqa. Odob – axloq tushunchalarida bor shunday qoidalar. Kichiklarning kattalar so‘ziga aralashishi ayb sanaladi ammo bunda ham me’yor bo‘lishi kerak. Agar ota-onalar, oila a’zolari bolani eshitmasa bir kun u o‘zini eshitadigan boshqa begonani topadi. Oiladan uzoqlashadi, qadriyatlar o‘zgaradi, biz tarbiya deb bilgan qoidalar buzuladi. Tinglash mahoratini oshiruvchi bir qancha tavsiyalar mavjud:

- Haqiqiy va samarali tinglash bu qiziqish. Hurmat va hamdardlik kabi iliq insoniy tuyg‘ularni o‘z ichiga olgan tinglash.
- Bolani tinglayotganingizda unga qarata aytilishi kerak bo‘lgan so‘zlar: men seni yaxshi ko‘raman, men seni tushunishga harakat qilaman, men seni eshitaman
- Farzandingiz sizga his-hayajon bilan gapirganida ishingizni tashlab tanangizni yoki ko‘zingizni unga qarating.
- Tinglash paytida maslahat berish, ayblash, tanqid qilish, aql o‘rgatish kabi odatlardan holi bo‘ling.
- Farzandingiz siz uni haqiqattan ham tinglayotganingizni bildiring masalan : bosh irg‘ab qo‘ying, ko‘zlaringizni yumib – oching, hmm, ha, shunaqami, voy shu kabi so‘zlardan foydalaning
- Farzandingizni qo‘rquvi, quvonchlari, hayajoni, shubha va ikkilanishlarini tushunishga harakat qiling.
- Bolaning yohud suhbatdoshingizning hislarini tanqid yoki masxara qilmang
- Agar unga maslahat bermoqchi bo‘lsangiz to‘g‘ridan – to‘g‘ri maslahatingizni aytmasdan avval izn so‘rang. Masalan: meni shu holat bo‘yicha fikrimni bilmoqchimisiz. Bilasizmi meni hayolimga bir fikr keldi agar ruhsat bersangiz ayataman.

Oilada gapirish huquqi berilmagan bolalar ota-onalari bolalar bilan gaplashayotganda ayniqsa maslahat berayotganlarida ota-onalarini tinglayotgandek qilib o‘zlarini ko‘rsatadilar lekin hayollari boshqa joyda bo‘ladi. Psixologlar bunday holatlarni “karlarni tinglash” deb atashar ekan. Farzandingiz sizni tinglashini istasangiz, ularni tinglayotgandek ko‘ringmang, haqiqattan ham ularni tinglang.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO‘YXATI

1. Zunnunova A.Maktabgacha adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.2010

2. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur” -T., 2019

3. Nargiza Kayumova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2013

4. Sh.Sodiqova. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur bo‘stoni”

5. www.ziyonet.uz

6. Çocuklar Dinlemeyi De Ailede Öğrenir! | ZaferDergisi.com

BOLALARDA NUTQ VA NUTQIY ETIKET SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Abdurahmonova K.E. Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy etiketning ma'nosi, o'ziga xos qonuniyatlari, qoidalari haqida ma'lumot berilgan. Nutqiy etiket keng qamrovli tushuncha ekanligi, uning ma'lum birliklari, lingvopragmatika, xalq tilida salomlashish, uning o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: etiket, nutqiy etiket, murojaat shakllari,ilmiy nutq, nutqiy vosita, lingvopragmatika, salomalshuv, xayrlashuv, kognitiv muhit, pragmalingvistika.

Аннотатция: В данной статье представлена информация о значении, конкретных законах и правилах речевого этикета. Отмечено, что речевой этикет представляет собой комплексное понятие, его отдельные единицы, лингвопрагматика, приветствие в просторечии, а также его специфические особенности.

Ключевые слова: этикет, речевой этикет, формы обращения, научная речь, речевой инструмент, лингвопрагматика, приветствие, прощание, когнитивная среда, прагмалингвистика.

Abstract. This article provides information about the meaning, specific laws and rules of speech etiquette. It is noted that speech etiquette is a complex concept, its individual units, linguopragmatics, greetings in common speech, as well as its specific features.

Key words: etiquette, speech etiquette, forms of address, scientific speech, speech instrument, linguopragmatics, greeting, farewell, cognitive environment, pragmalinguistics.

Oila – bu bolalarning nutqi shakllanishida asosiy maskan hisoblanadi va bu dargohda bola kamol topib, voyaga yetadi. Barchamizga ma'lumki, farzandlarimiz uch yoshga to'lguncha nutqiy tarbiya asoslarini oila a'zolaridan o'rganadilar va bu jarayon nutqni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi bilan alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda, bolalarning chaqaloqlik davrlaridan boshlab nutqining rivojlanishiga oid ayrim fikrlarni keltiramiz.

Chaqaloqlar ikki oylik bo'lganlaridan so'ng yig'lash, qo'llarini qimirlatish va turli shakldagi tovushlarni chiqarishni boshlaydilar. Chaqaloqlar 3-4 oyga to'lganlarida ota-onasi, birga yashovchi va boshqa insonlar bilan ko'z hamda tabassum orqali aloqa qilishni boshlaydilar va o'sha odamning yuz ifodasini kuzatadilar. Agar chaqaloqqa nisbatan erkalatuvchi so'zlar bilan murojat qilinsa, ularning yuz ifodasida kulgu alomatlari seziladi. Aksincha, do'q-po'pisaga o'xshash so'zlar qo'llansa, (ha, seni qara-yu, yig'lamasdan birpas jim yotsang bo'lmaydimi) ularning yuzlarida yig'i alomatlari bilina boshlaydi, lablarini bujmaytirib yig'lashni boshlaydilar. Asta-sekinlik bilan shu davrdan boshlab quvnoq va kulgiga o'xshash tovushlarni chiqara boshlaydilar. Taxminan, 5 oylikdan boshlab tovush hosil bo'lishini va artikulyatsiya harakatlarini boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Ovozlari bilan qiyqiriq tovushlar chiqarishni boshlaydilar. Chaqaloqlar 6 oylik bo'lganlaridan boshlab, atrofdagilarga ko'proq e'tibor berishni boshlaydilar va asta-sekin kattalar e'tiborini o'zlariga jalb qilish uchun imo-ishoralar, qarashlar, tovushlardan foydalanadilar. Ular 10 oyliklardan boshlab inson nutq tovushlariga o'xshash tovushlarni baqiriqlar, chinqiriqlar orqali chiqara boshlaydilar. Ular ilk so'zlarni 9-12 oyliklarida ayta boshlaydilar, bir yoshga to'lganlarida esa bir necha so'zlarni va qisqa iboralarni tushunishni boshlaydilar. Shu yoshdan boshlab kichkintoylar oddiy ko'rsatmalarni tushunishlari va ularga amal qilishlari mumkin. Masalan, yoshini so'rasalar, ko'rsatkich barmog'ini ko'rsatish orqali 1 yoshga to'lganini qo'l harakatida ifodalaydilar, shu bilan birga, ular uchun sevimli bo'lgan uy hayvonlaridan tovuqlar, jo'jalarning sonini so'ralganda ham, barmoqlari bilan ifodalaydilar. Yaqin insonlari (onasi, buvisi, opasi, akasi) tomonidan salomlashish o'rgatilganda, garchi ular to'liq gapira olmasalar-da, o'ng qo'lini uzatib ko'rishishni o'rganadilar yoki, aksincha, xayrlashganda qo'llarini, asosan, barmoqlarini silkitish orqali xayrlashishni ifodalovchi xarakatni ko'rsatadilar Ularning og'zaki nutqi bir yoshda noaniq bo'lib, nutq tovushlarining deyarli barchasini o'z ichiga oladi. So'z boyligi doimiy ravishda oshib

boradi. Bu yoshdagi chaqaloqlar o‘rtasida ham farqlar mavjud bo‘lib, ba’zilari ko‘plab so‘zlarni gapirishni boshlaydilar, boshqalari esa hali ham dastlabki so‘zlarni aytishga qiynalayotgan bo‘ladilar. Masalan, 1 yoshlik Foziljon “dada”, “amma”, “choy” so‘zlarini bemalol ayta oladi, 1 yoshlik Abror esa yuqoridagi so‘zlarni to‘liq ayta olmaydi. “dada-dad, dad”, “choy-umma”. Bola 1-1,5 yoshga yetganda, endi yura boshlaganda, aka-opasini, ota-onasini odiga kelib “meni ko‘taring” so‘zini ayta olmay, “xo‘ppa” deb ikkala qo‘lini yuqoriga ko‘tarib, qo‘l xarakati orqali fikrini ifodalashga urinadi. 2 yoshli bolalar oddiy ko‘rsatmalarni tushuna oladilar. Ular o‘z ismlarini ayta oladilar va ikki-uchta so‘zlardan iborat jumlalardan foydalana oladilar. 3 yoshli bolalar oddiy hikoyalarni, takliflar, ko‘rsatmalarni tushunishlari mumkin. So‘roq gaplar, buyruqlar va inkor jumlalardan foydalanadilar. Bu yoshda bolalarning nutqi to‘liq va aniq tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga, savollar berishni boshlaydilar. Birgalikda kitoblar o‘qishni, rasmlarga ishora qilib, kitobdagi voqealar haqida suhbatlashishni uddalaydilar. 4-5 yoshli bolalarning nutqi tobora kattalar nutqiga o‘xshay boshlaydi. Bu yoshda bolalar o‘z tasavvurlarini tengdoshlariga va kattalarga aytishni yaxshi ko‘radilar. Ayniqsa, bu yoshda ko‘p savol beradigan, sergap, mahmadona bo‘ladilar.

Odob har qanday shaxsning xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu faqat dasturxon atrofida yoki ziyofatda bajarilishi kerak bo‘lgan qoidalar emas, balki bular insoniy munosabatlarning barcha me’yorlari hisoblanadi. Bunday qoidalar yordamida boshqalar bilan munosabatlar tartibga solinadi. Muloqot madaniyati va insoniy xulq-atvor madaniyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, insoniy munosabatlarning barcha sohalarida – ishda, oilada, shaxsiy, siyosiy va hokazolarda namoyon bo‘ladigan muloqot madaniyatiga e’tibor qaratish lozim.

Nutq etiketi salomlashish, minnatdorchilikda namoyon bo‘ladigan nutq odobiga asoslanadi. “Etiket” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “yorliq” degan ma’noni anglatadi. Ammo u yunoncha “etos” – “odat”, “xarakter” asosida shakllangan. “Axloq lug‘ati” tushunchasini beradi. Odob − bu insonlarga munosabat (boshqalar bilan muomala qilish, murojaat qilish va salomlashish shakllari, jamoat joylarida o‘zini tutish, o‘zini tutish va kiyim-kechak) bilan bog‘liq xatti-harakatlar qoidalari to‘plami.1 Nutq etiketi insoniy madaniyatning asosiy ifodasidir. Etiket keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u ma’lum ma’noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha turli taraflama o‘rganadi. Namunaviy nutqning asosiy talablaridan yana biri aytilmoqchi bo‘lgan muddaoning tinglovchiga to‘g‘ri va aniq borib yetishi, ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Hamda bu masalalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi, bu esa kommunikativ aspekt muammolaridan hisoblanadi. Nutqiy etiket deyilganda, so‘zlashuv odobi qoidalarini tartibga soluvchi milliy, o‘ziga xos stereotiplar, suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish, aloqani tanlangan tonallikda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilgan formulalari nazarda tutiladi. Ma’naviyati yuqori bo‘lgan inson barkamolligi uning omilkorligi, bilimdonligi, donishmandligida namoyon bo‘ladi va unda albatta nutq madaniyati ham yuqori darajada bo‘ladi. Til odobi ko‘nikmalarini, nutq madaniyati malakalarini egallash, adabiy til me’yorlariga amal qilish oliy ma’lumotli shaxs uchun juda muhim. Umumiy tarzda aytiladigan bo‘lsa, nutq madaniyati sohasi adabiy til doirasida fonetikadan tortib to uslubiyatgacha bo‘lgan barcha lingvistik sohalarni qamrab oladi. Ilmiy jihatdan asoslangan nutqning o‘ziga xos jihatlari mavjudligi va u qaysi fan sohasida bo‘lishidan qat’iy nazar ma’lum me’yorlarga bo‘ysunishi kerakligi nutq etiketining boshqa nolingvistik sohalar bilan aloqadorligini ko‘rsatuvchi omillardan sanaladi. Chunki nutq etiketi bu eng avvalo, nutqning to‘g‘riligi demakdir, ya’ni yaxshi nutq noaniqlikka, uzundan uzoq jumlalarga qarshi bo‘lishi, qisqalik va aniqlik uning o‘lchovi bo‘lishi lozim.

Har qanday ilmiy nutq uchun bu mezonlar asosiy talablar hisblanishini bilamiz. Keng ma’noda esa nutq etiketi nutqiy ta’sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o‘tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Bu jihatdan istalgan soha vakili og‘zaki nutqining madaniy me’yorlarga asoslanishi, ma’lum normalarga bo‘ysunish zarurati muhimki, bu holat har qanday notiqning madaniyati va saviyasini ko‘rsatuvchi jihatlar sanaladi. Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo‘ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: “Bitta salom bilan beshta narsaga - o‘zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo‘lish va nihoyat uzoq umr ko‘rishga erishiladi”.

Tilning, uning faollashgan amaliy ko‘rinishi – nutqning va uni tashkil etuvchi nutq birliklarining, shu jumladan, gaplarning lingvopragmatik aspekti muammolarining tadqiqi haqida ham shunday deyish mumkin. Ijtimoiy meyorlar va til o‘rtasidagi bog‘liqlik lingvopragmatika doirasida o‘rganilib, qisman sotsiologiya va qisman lingvistikani o‘z ichiga oladi. S.Levinson ta’kidlagandek, jamiyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish va ijtimoiy qonun qoidalarga rioya qilish uchun sotsiopragmatika, yani ijtimoiy ong, xulq-atvor, mentalitet kabi qadriyatlarni nazariy jihatdangina bilishning o‘zi yetarli emas. Shu bilan birga pragmalingvistika, yani jamiyat tiliga bog‘liq lingivistik qonun-qoidalarni bilish bilan cheklanish ham to‘g‘ri kelmaydi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. Oliy ta’lim tizimida nutq madaniyatining o‘rni. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999, 38-b

2. Iskandarova Sh. O‘zbek nutqi odatining muloqot shakllari. Avtoreferat. – Samarqand: 1993, 87-b

3. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

4. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2000, 65-b

5. Abdurahmonova K.E. “Formation of national-speech etiquette through folk oral oral creativity in preschool children” Journal of advanced scientific research (ISSN:0976-9595) Vol 5. issue 3. 2024, 2-b

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

O‘zbekiston, Navoiy viloyati
Karmana tumani 24-DMTT tarbiyachisi Valiyeva Nasiba Boboyor qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Vatanparvarlik tuyg‘usi eng oliy tuyg‘u ekanligini bolalarga yoshligidan singdirish zarurligi va borada olib boriladan asosiy omillar haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zi: vatanparvarlik tuyg‘usi, mexr, oila, pedagogik jarayon, milliylik, tabiat.

Abstract: This article discusses the formation and development of patriotic feelings in preschool children. The need to teach children that patriotism is the highest feeling from a young age and the main factors to be carried out in this regard were described.

Key words: patriotism, kindness, family, pedagogical process, nationality, nature.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование и развитие патриотических чувств у детей дошкольного возраста. Описана необходимость с раннего возраста приучать детей к тому, что патриотизм – высшее чувство, и основные факторы, которые необходимо осуществлять в этом отношении.

Ключевые слова: патриотизм, доброта, семья, педагогический процесс, национальность, природа.

Tarbiya mukammal va tizimli jarayon bulib u o‘ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki borliqni hali his qilib ulgurmagan, dunyo haqida hech qanday tushunchaga ega bo‘lmagan vujud uchun hamma narsa yangilk hisoblanadi. Bola uchun dunyoni qanday tariflasangiz, o‘rgatsangiz uning tasavvurlari shu asnoda shakllanib boradi. Shunday ekan bolaga to‘g‘ri tarbiya berish, ijobiy tuyg‘ular: rostgo‘ylik. mehnatsevarlik, do‘stlik, vatanparvarlik kabilarni shakllantirish lozim. Bunday tuyg‘ular ichida vatanparlik eng oliy tuyg‘u hisoblanadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi avvalo o‘z uyiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usidan boshlanadi . Biz bolalarda uyga, oilaga, do‘stlarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga intilamiz va vaqt o‘tishi bilan bu o‘z vataniga mehr va muhabbat tuyg‘usi bilan to‘ldirilishiga ishonamiz. Bolaning vatanparvarlik tarbiyasi murakkab pedagogik jarayon. Bu jarayonda bolaning yaqinlari bilan bir qatorda tevar atrof, muhit, faoliyat ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalarga vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va singdirish uchun:

- Buyuk ajdodlar , siymolar bilan tanishtirish va ularga nisbatan faxr tuyg‘usini his qildirish;
- Tarixiy qadamjolar, milliy meroslar bilan tanishtirish;
- Milliy urf –odatlar bilan tanishtirish ;
- Milliy o‘yinlar va san’at namunalari bilan tanishtirish;
- Milliy bayramlar , an’analar bilan tanishtirish;
- Millatlar aro hamdo‘stlik ruhida tarbiyalash;
- Milliy taomlar va milliylikka aylangan buyum-jihozlar (so‘zani, paranji, kashta uy qoshi…) bilan tanishtirish;
- Milliy liboslar, taqinchoqlar bezaklar bilan tanishtirish;
- O‘z ona tilini chuqur o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Makatabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan faoliyatlar, mashg‘ulotlat jarayonida ham bolalarga vatan tuyg‘usi singdirib boriladi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti 2-bobi davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalarida:

-milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;30 masalalari aniq belgilab qo‘yilgan. Shuningdek “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha sentabr oyi “O‘zbekiston – mening Vatanim”[31] deb nomlanishi va shu nom ostida hafta mavzularining yoritilishi bolalarda vatanparvarlik hissini yanada oshirishga hizmat qila oladi desak mubolag‘a bulmaydi.

Mashg‘ulotlar va foliyatlar jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda turli hil vatan madhi aks etgan rasmlar, kuy-qo‘shiqlar, she’r, hikoyalar, videoroliklar namoyish etish natijasida yanada mustahkamlanadi. Pedagog kichik guruhdan boshlab bolalarda jonajon o‘lka tabiatiga muhabbat o‘yg‘otishi, uning go‘zalligini his etish paytirish istagini uyg‘otib borishi lozim. Buning uchun u bolalar bilan bog‘larga, polizga, issiqxonalarga, paxta dalasiga, gulzorga, daryoga, pillaxonalarga, tovuqxona, fermalarga sayr –ekskursiyalar uyushtiradi.

Kichik yoshdagi bolalar tevarak –atrofdagi voqea, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar Kichik guruhda vatanga muhabbat hissi o‘z uyiga, bog‘chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. O‘rta guruhda bolalar endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo‘la boshlaydilar. Ular ota –onalari va tarbiyachilardan o‘z shahri, qishlog‘i to‘g‘risida ko‘p narsani bilib oladilar.. Katta va tayyorlov guruhi bolalariga esa vatanga bo‘lgan muhabbat hissini tushunchalar orqali ham berib borish mumkin sababi bu guruh bolalari maktabga qadam quyish vaqtiga yetib kelgan, munosabatlarda tushunchalarga ega hisoblanishadi. Tayyorlov guruhi bolalarida ayniqsa maktabga chiqish davri kelganligi ularda keng jamiyatga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Tarbiyachilarning, ota-onalarning bolani maktabga qiziqtirishlari, suxbatlar o‘tkazishlari, ekskursiyalar tashkil etishlari samarali natija beradi. Bunda bolalarda mustaqillik hissi oshadi va jamiyat, vatan tuyg‘ulari oshadi.

Jonajan ona tabiat Vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi.Uning go‘zalligidan zavqlanish, tabiatiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish,insonmehnatining
tabiatdagi o‘zgartiruvchanlik rolini tushunish bularning hammasi jonajon o‘lkaga muhabbatni shakllantirish manbalaridir. Bolalarda ona vatanga mexr uyg‘otish ona tabiatga uning nematlariga o‘simliklar, hayvonot olamiga mehr uyg‘otish orqali ham rivojlanib boradi. Tabiatga sayr, ekskursiyalar o‘tkazish orqali bolalarga tabiat haqida tushunchalar berib boriladi. Tabiatni asrashga o‘rgatish orqali ona zamin nematlaridan unumli foydalanish va bu orqali vatan tarraqiyotini gullab yashnashi uchun o‘z hissasini qo‘yish mumkinligiga o‘rgatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Vatanparvarlik eng oliy tuyg‘u ekanligini bolalarga yoshligidan singdirib borish ularda ko‘plab ijobiy tuyg‘ularni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Masalan: oilaga, yaqinlarga bo‘lgan mehr, e’tibor, do‘stlik, sodiqlik, fidoiylik kabilar. Bu

[30] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son
[31] “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022

borada ijtimoiy muhit, oila, ota-onalar, makatabgacha ta’lim tashkiloti, pedagoglar asosiy ta’sir etuvchilar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022.
3. Sh.M.Mirziyoyev “ Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – ma’naviy g‘oyamizning poydevoridir”– «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent – 2021y.
4. Inomova M. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – T.: Fan, 2012.
5. Isomiddinov S. Kichik maktab yoshdagi bolalarda vatanparvarlik-insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish. Toshkent, 2000

BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA OILA BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI

O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi Boymurodova Dilshoda,
Ilmiy rahbar: N.K.Musayeva

“Birinchi vazifa - biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”

Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila bilan hamkorlik hamda oilada qaror topgan sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol, notiq bo‘lib voyaga yetishishlaridagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: Oila, ota-ona, ta’lim-tarbiya, bola, nutq madaniyati, suhbatlashish, ovoz, fikr, xotira.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность сотрудничества с семьей и здоровой духовно-духовной среды в семье для того, чтобы дети выросли зрелыми, всесторонне развитыми и красноречивыми.

Ключевые слова: Семья, родители, воспитание, ребенок, культура речи, разговор, голос, мысль, память.

Abstract: This article discusses the importance of cooperation with the family and a healthy spiritual and spiritual environment in the family for children to grow up mature, well-rounded, and eloquent.

Key words: Family, parents, education, child, speech culture, conversation, voice, thought, memory.

O‘zbek oilasining o‘ziga xos, betakrorligi - o‘zbekona odob-axloq, rasm-rusumlar, urf-odat, milliy qadriyatlar, an’analar, ta’lim-tarbiya, ma’naviy yetuklikka intilish kabilarning barhayotligidadir.

Bolalarning ta’lim-tarbiyasiga, bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan oiladir. Bolalarda insoniylik, avvalambor, oilada, ota-onalardan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta’lim-tarbiyani, nutq madaniyatini, odamiylik hislatlarini qunt bilan singdirib borsalar, yetuk, barkamol, sog‘lom, mustaqil fikrlovchi eng asosiysi, odobli shaxs bo‘lib yetishadilar.

Inson hayotda bilim olishga intilishni, Vatanni sevishni, ardoqlashni, kattalarni hurmat qilishni, muomala madaniyatini ota-onadan o‘rganadi. Oila birinchi navbatda ta’lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Yosh avlodga ma’naviy, axloqiy-madaniy tarbiya berishning yo‘llari va vositalari xilma-xil bo‘lib, bular ichida bolalarning nutqi, muomalasi alohida o‘rin tutadi. Farzand ota-onaning baxti va boyligi hisoblanadi, ota-onalarning bolalarni sevishi, o‘z navbatida bolalarning

ota-onalaridan o‘rgangan, eshitgan muomalalari, so‘zlashish madaniyati bolalarning ota-onalarini astoydil hurmat qilishi oila ko‘rki bo‘lib hisoblangan. Ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasining eng muhim metodlaridan biri hisoblangan. Ota-onalarning o‘zaro bir-birlari bilan suhbatlashishi, ovozlarining past-balandligi, sizlab gaplashishlari, bir-birlarini tinglashlari, yurish-turishlari, munosabatlarining ta’siri ostida o‘sib-ulg‘ayishlari shular jumlasidandir.

Ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasining eng muhim metodlaridan biri hisoblanadi. Bolalarni yuksak axloqli va odobli qilib tarbiyalash qadim zamonlardanoq, barcha xalqlarning orzusi, istagi bo‘lib kelgan. Ota-ona o‘z bolalarida mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, o‘zidan kichiklarga shafqatli bo‘lish va g‘amxo‘rlik qilish, yovuzlikka nafrat kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga harakat qilganlar.

Ba’zi oilalarda ota-onalarning o‘zaro kelishmovchiliklari sababli bolalar hayotda juda qiynaladilar. Bunday oilalarda bo‘lib turadigan janjal-to‘palonlar, haqoratli so‘zlar oilada o‘sib kelayotgan farzandlarga katta ta’sir etadi. Bolalarda ota-onasiga bo‘lgan hurmat yo‘qoladi. Bola yurish turish va o‘zaro munosabat qoidalari, yoshlarning ota-ona va kattalar oldidagi burchi, mehnati, kasb-kori va ularning inson hayotidagi roli haqidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlarni oilada oladilar, odob hamda ma’naviy hayot oilada uyg‘onadi. Shuning uchun ota-onaning jamiyat oldidagi eng katta va birinchi vazifasi farzandlarning qobiliyatlari va qiziqishlariga e’tibor bergan holda ularga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berishlaridir.

Bugungi kunda farzandlarining ehtiyoj va intilishlari asosida yuksak darajada ta’lim-tarbiya berayotgan oilalar juda ko‘p. Bola har qadamda, har daqiqada kattalardan ta’sirlanadi, o‘rganadi, eshitgan ko‘rganlarini takrorlaydilar. Ota-onalaridan muloqotga kirish madaniyatini o‘rganadilar, bu narsa keyinchalik ularning hayoti mazmunini belgilaydi. Ota-onalar bolalariga nutq madaniyatiga muvofiq nimani qanday gapirish mumkin, nimani aytmaslik kerakligini yaxshi biladilar. Nutq madaniyati inson ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq madaniyati bu avvalo fikrlash madaniyatidir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlabgina qolmasdan, ota-onalarda o‘ziga xos faolikni ham yuzaga keltiradi. Oilada qaror topgan sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo‘lib voyaga yetishishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Ota-onalar o‘z ijtimoiy burchini bajarar ekanlar, farzandlarning mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash, turli ko‘rinishdagi munosabatlarini me’yorlarga og‘ishmay rioya etish, sog‘lom turmush tarzini yaratish, ko‘zda tutiladi.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom, ma’naviy barkamol, ijtimoiy mehnat hamda oilaviy hayotga tayyor, nutq madaniyatni shakllangan, so‘zga boy shaxsni o‘sib ulg‘aytirib beradi. Ota-onalar bolalarining yetuk, barkamol va sog‘lom o‘sishlarida ularning kundalik hayotiy rejimiga amal qilishlari nihoyatda muhimdir.

Oilada uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Odob-axloq mavzusida uyushtirilgan muloqotlar farzandlarning til vositalarini mustaqil tarzda qo‘llashlariga erishish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday oilaviy suhbatlar farzandlarning kundalik faoliyatida, sayru sayohatlarda samarali natija berishi shubhasizdir.

Hozirgi zamon talablariga muvofiq oilada bolalar ona tilini, adabiy talaffuz me’yorlariga binoan barcha tovush va so‘zlarni aniq va tiniq talaffuz etib, so‘z boyligini rivojlantirmog‘i lozim. Bolalar shaxsini shakllantirish, nutqini rivojlantirish borasida yo‘l qo‘yiladigan kamchiliklar hali-hanuz oilalarda yetarli darajada yechimini topgan emas. Ota-onalarning bolalarga beparvoliklari, so‘zlashganda nutq madaniyatiga ahamiyat bermasliklari oilada bola nutqining buzilishiga olib kelmoqda.

Oilada bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi birgalikda uyushtiriladigan o‘yinlarda, sayrlarda yuqori darajada shakllanadi. Bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda oiladagi katta-kichiklar, tengdoshlari bilan qilinadigan muomalalari ko‘proq rol o‘ynaydi.Farzandlarning o‘z harakatlari va xulqini boshqara bilishi diqqat, fikr va xotira sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilganda, oilada biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog‘liq. Shuning uchun ham oilada tarbiya, madaniy xulq-atvor odatlarini shakllantirishga muayyan darajada e’tibor berish, ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to‘g‘risidagi axloqiy tasavvurlarini tarkib toptirish kerak. Oilada farzandlar nutq madaniyatini shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo‘shadigan, barkamol avlodni voyaga etkazishda o‘z samarasini berishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quvonova F. Ona va bola. Qo‘llanma. – Toshkent, 2019y.

2. Oilaviy ta’lim dasturi. Ilk bolalik davrida rivojlanish. Qo‘llanma. – Toshkent, 2014 y.

3. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2007. – 305 б.

4.Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2016. – 314 б.

5.Фишер Р., Юри У. Путь к согласию или переговоры без поражения – М.: Наука, 1990 – 158 с.

6.Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: “ISTIQLOL”,2006y.

7. Shodiyeva S. Q. “O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish“ o‘quv qo‘llanma T.: “O‘qituvchi” 1993 yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY, FUQAROLIK-VATANPARVARLIK TARBIYASINI OILA HAMKORLIGIDA SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston, Ne’matova Sevinch Axmadovna
Navoiy davlat pedagogika insituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilada ma’naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirilishi, bolaning yetuk barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida vatanparvarlik tuyg‘usi orqali vatanni sevadigan shaxs etib tarbiyalash, kelajagi porloq bo‘lgan yosh bolajonlarimizni tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila, bolalar va davlatning birgalikdagi sa’y harakatlari orqali bolajonlar tafakkurini rivolanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Vatan, oila, tarbiya, bola, axloq, xalq, mehr, muhabbat, urf-odat, ilm, faoliyat, maktabgacha ta’lim tashkiloti, tafakkur, milliy, ajdod.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация дошкольного воспитания и формирование духовно-этического, гражданско-патриотического воспитания в семье ребенка, любящего Родину через чувство патриотизма в развитии зрелой и всесторонне развитой личности. его место в обществе Думается о развитии детского мышления посредством совместных усилий организации дошкольного образования и семьи, детей и государства в воспитании наших маленьких детей, у которых есть светлое будущее.

Ключевые слова: Родина, семья, воспитание, ребенок, нравственность, народ, доброта, любовь, традиция, наука, деятельность, организация дошкольного образования, мышление, национальное, предок.

Abstract: In this article, the organization of preschool education and the formation of spiritual-ethical, civil-patriotic education in the family, the child who loves the motherland through the feeling of patriotism in the development of a mature and well-rounded person and his place in society It is thought about the development of children's thinking through the joint efforts of the

preschool education organization and the family, children and the state in educating our young children who have a bright future.

Key words: homeland, family, education, child, morality, people, kindness, love, tradition, science, activity, preschool education organization, thinking, national, ancestor.

Mustaqil diyorimizda bolalarni vatanparvarlik, oilaparvarlik ruhida, o‘z kasbining fidoiysi sifatida tarbiyalashda nafaqat oila, balki maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ham hissasi katta sanaladi. Vatanparvarlik, oilaparvarlik ijtimoiy, tarixiy-axloqiy his tuyg‘ular sifatida odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo‘ladi va atrofdagi muhit, hayot davomida shakllanadi, sayqallanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi ularning milliy ma’daniyati, urf-odatlari, vatanining tarixi, buyuk bobokalonlari ajdodlari bilan tanishtirish vazifasini o‘z ichiga oladi va barcha xalqlar ya’ni qo‘shni davlatlarimiz urf-odatlarini,dinini hurmat qilinishini ta’minlaydi va shu bilan bir qatorda fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismlari bilan to‘ldiradi. O‘z vataniga muhabbat, o‘z yurtidan g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash, har bir shaxsga individual tarzda xayrixoh munosabatni shakllantirish bilan ulug‘lanishi kerak.

Maktabgacha tarbiya davrining oxiriga kelib bola bilishi kerak mamlakatimizda turli millat vakillari yashaydi, har bir xalqning o‘z tili urf-odat va an’analari, san’ati va me’morchiligi bor, har bir xalq iste’dodli hunarmandlarga, rassomlarga, buyuk mutaffakirlariga o‘zining tarixiga boy. Vatanga va oilaga muhabbat his-tuyg‘ulari maktabgacha yoshdagi bolajonlarimizda kattalar tomonidan bolalarimizning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazliligini e’tiborga olgan holda ma’lum izchillik bilan tarbiyalanib boriladi. Oila kishilar hayotining butun bir jamiyatimizning eng muhim va muqaddas qismidir, poydevori, ko‘p asrlik, ma’naviy dargohidir. [32]

Bolajonlarimizning ma’naviy-axloqiy tarbiyasining shakllanishiga, vatan tuyg‘usi tushunchasi avvalo oila a’zolarining ota-ona, bobo-buvi, aka-uka, opa-singillarining bolajonlarimiz yonidagi o‘zaro hurmati, muomalasi, mehr-muhabbat tuyg‘ulari katta ta’sir etadi, va ,,Qush uyasida ko‘rganini qiladi’’ deganlaridek bolajonlar ham oila a’zolaridan o‘rnak olishadi, taqlid qilishadi, bu bolani uyi va yaqin atrofi, qarindosh-urug‘lari bilan bog‘laydigan ildizlardir.

Tarbiyachilarning ma’naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlikni shakllantirish jarayonini amalga oshirishga tayyorligi ularning tegishli kasbiy komptenesiya, kasbiy mahorat, malaka shuningdek, o‘z-o‘zini tartibga solish, vazifalarni hal qilish uchun o‘zini o‘zi sozlash qobiliyatiga ega ekanligi orqali amalga oshadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositalaridan biri bu o‘z ona yurtining tabiati, o‘z shahriga, mahallasiga bo‘lgan mehri.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositalaridan yana quyidagilarini ko‘rib chiqishimiz mumkin;

-O‘yin; o‘rtoqlari bilan o‘yinchoqlarini kelishib o‘ynash, jamoa bo‘lib ishlash.

-Mehnat; gullar, ko‘chatlarga suv quyish orqali mehnat faoliyati va tabiatni sevish, asrab-avaylash.

-Badiiy faoliyat; ertaklar, she’rlar, masallar, hikoyalar o‘qib berish orqali fikrlashini, dunyoqarashini kengaytirish, nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirib tasavvur qilish intillektini rivojlantirish.

-Sayr; omma oldida o‘zini tutish muzelarga sayrlar orqali o‘z tarixini va istirohat bog‘lariga sayr orqali atrof muhitni anglash.[33]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy va vatanparvarlik ruhida tayyorlashda musiqaning o‘rni ham beqiyosdir. Shu bilan bir qatorda bolajonlarga tarixiy multifilmlar, kinolar va har xil ko‘ngilochar vedio roliklar taqdimotlarini ham namoyish etsak bo‘ladi. Bolajonlar bilan ,,Vatan

[32] SH.Sodiqova Maktabgacha pedagogika. darslik,.T.Fan va texnologiya

[33] F.Qodirova Maktabgacha pedagogika darslik,.T.Fan va texnologiya 2019

tuyg‘usi’’, „Bugun elning tug‘ulgan kuni’’, „Ona tabiat’’, „Vatan himoyachilari’’ mavzularida tadbirlar tashkil etish kerak.

Bu kabi tadbirlar bolalarda o‘zligini anglashga vataniga, oilasiga kelajakda o‘z kasbiga jamiyatiga fidoiy, ma’daniyatli, tarbiyali-axloqli barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.R.Raxmonov Uzluksiz ta’lim tizimida milliy iftixor tuyg‟usini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida “Uzluksiz ta‟lim” ilmiy uslubiy jurnal //2020- Toshkent.
2. F.Qodirova Maktabgacha pedagogika darslik,.T.Fan va texnologiya 2019
3. SH.Sodiqova Maktabgacha pedagogika. darslik,.T.Fan va texnalogiya
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva “Pedagogika nazariyasi” Fan va texnologiyaToshkent-2008y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston,Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha talim yo‘nalishi sirtqi talabasi
Xalilova Muhayyo Rashid qizi,
Usmonova Bonugul Yunus qizi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarda vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish va bunday tuyg‘u asosida bolalarda vatanparvarlik kamolotini o‘stirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi aks etgan qahramonlar timsoli misol qilib olingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, vatanparvarlik, tarbiya, ta’lim, axloq, milliy tarbiya

Аннотация. В статье разработаны рекомендации по пробуждению чувства любви к Родине у детей дошкольного возраста и на основе такого чувства развитию у детей зрелости патриотизма. В статье на примере характеров героев проявляются любовь к Родине.

Ключевые слова: дошкольное образование, патриотизм, воспитание, образование, нравственность, национальное образование

Abstract. In the article, recommendations were developed on awakening the feeling of love for the country in preschool children and on the basis of such a feeling, developing the maturity of patriotism in children. The article takes as an example the characters of heroes who show love for the country.

Key words: preschool education, patriotism, upbringing, education, morality, national education

Xalqimiz qadimdan yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. Bu kabi yuksak insoniy fazilat va bunday mukqaddas tuyg‘u xalqimizning qon-qoniga singib ketgani ayni haqiqatdir. Shu o‘rinda tarixga nazar solsak, yurtimiz svilizatsiyalar chorrahasida joylashgani bois ushbu jannatmakon zaminga egalik qilishni ko‘plab imperiyalar, hukmdorlar istagan. Afsonalarga aylanib ketgan Shiroq, To‘maris, Spitamen kabi shaxslar vatanni himoya qilish, uni dushmandan ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lida bor kuch imkoniyatini safarbar etib, bu yo‘lda moli-yu jonini, sha’nini, hayoti va oilasini ham ayamagan. Shuning uchun ham bunday vatanparvar insonlarning vatan oldidagi buyuk xizmatlari tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan.

Bizning pedagogik, psixologik, falsafiy adabiyotlar tahlillarmiz shuni ko‘rsatadiki, davlatdagi siyosiy va ijtimoiy-madaniy vaziyatdan qat’i nazar, vatanparvarlik tarbiyasi, shubhasiz, tarbiyaning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Shu bois, bizning “vatanparvarlik” tushunchasining talqinlarini tahlil qilishimiz bugungi kunda, birinchi navbatda, xolisona sodir bo‘lgan haqiqiy

vatanparvarlik tushunchasi mazmunini buzish va almashtirishlarni aniqlash uchun, vatanparvarlik tarbiyasi muammolarini ilmiynazariy asoslash va amaliy hal etish maqsadida zarur bo‘ldi. Tahlil natijalari “vatanparvarlik tarbiyasi” tushunchasini belgilashda asos bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Bizning fikrimizcha, vatanparvarlikning zamonaviy talqini uning atrofdagi dunyoga: tabiatga, inson jamiyatiga, uning madaniy qadriyatlariga ma’naviy-axloqiy munosabat sifatidagi an’anaviy tushunchasidan kelib chiqishi kerak. Xususan, vatanparvarlik deganda o‘z vataniga: uyiga, qishlog‘iga, shahri yoki viloyatiga, butun mamlakatga muhabbat tushuniladi. Vatanparvarlik eng muhim insoniy fazilatlardan biri bo‘lib, Vatanga muhabbat, uning manfaatlariga xizmat qilishga tayyor bo‘lishni, Vatan manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishni nazarda tutadi. Bu shaxsning jamiyatdagi or-nomus va burch, ma’suliyat tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, bu o‘z xalqiga, ona yurtiga, tabiatiga, tiliga, milliy an’analariga tabiiy bog‘liqlikdir. Bu konsepsiyaning fundamental asoslari dunyoning istalgan davlatida mavjud. Qolaversa, g‘oya sifatida u har qanday davlat mavjudligining zaruriy shartidir.

Vatanparvarlik tarbiyasi muammosini qo‘yish orqali biz quyidagilarni nazarda tutamiz. Biz vatanparvarlikni ma’naviy umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyat deb bilamiz. Turli xil ta’riflarni umumlashtirib, biz turli vaqtlarda vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini belgilab bergan va zamonaviy sharoitlarda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan quyidagi vazifalar ro‘yxatini olishimiz mumkin:

- vatanga, uning tarixi va madaniyatiga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- fidoyilik, davlat tuzumiga moyillik tarbiyasi;
- o‘z millatiga, milliy xususiyatlariga muhabbatni tarbiyalash;
- ona tabiatiga muhabbat va g‘amxo‘rlikni tarbiyalash;
- ona vatanga, kichik vatanga muhabbatni tarbiyalash;
- insoniyat tajribasini kelajak avlodga yetkazish, yuksak axloqli, bilimli, ma’naviyati boy, Vatanini sevuvchi insonlarni tarbiyalash.

Bugungi kun sharoitini hisobga olgan holda, vatanparvarlik tarbiyasining vazifalari va mohiyatini to‘g‘riroq tushunish uchun quyidagi tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni to‘g‘ri ko‘rib chiqish zarur, deb hisoblaymiz: fuqarolik (yoki huquqiy) tarbiyasi, milliy tarbiya va vatanparvarlik tarbiyasi. Bu tushunchalar, bizning fikrimizcha, mutanosib emas. Fuqarolik tarbiyasi (ya’ni, fuqaroni tarbiyalash) ma’lum bir mamlakatning har bir fuqarosi uchun tegishli huquqiy hujjatlarda belgilangan huquq va majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bilimlar, ma’lumotlar to‘plamini taqdim etish, jamiyat oldidagi ma’suliyat hissini ko‘rsatish, qonunlar asosida ijtimoiy tarafdorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan. Biroq, fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi o‘rtasida “tenglik” belgisini qo‘yish mumkin emas. Majoziy ma’noda aytganda, har bir qonunga bo‘ysunuvchi fuqaro vatanparvar emas va fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyati o‘z vatanida “vatanparvarlik” tushunchasida nazarda tutilgan hissiy munosabatning bunday darajasiga erishishni kafolatlamaydi. Milliy urflar, odatlar, diniy e’tiqodlar, til, madaniyat, turmush tarzini saqlash va bu bilimlarni yangi avlodga yetkazishni maqsad qilgan milliy ta’lim ham tashqi va ichki siyosiy sabablarga ko‘ra faol migratsiya jarayoni bilan bog‘liq holda panatseya bo‘lib hisoblanmaydi. Turli xil madaniy-maishiy sohaga, turmush tarziga, milliy urf-odatlarga, dinga mansub qo‘shni mamlakatlardan kelayotgan muhojirlar oqimi aynan qishloqlarda, iqlimlashtirish uchun maqbul joy sifatida o‘nlab yillar davomida mavjud bo‘lgan turli milliy jamoalarni (diasporalarni) shakllantiradi yoki to‘ldiradi. Binobarin, o‘z madaniyatini bilish jamiyat a’zosini boshqa madaniyatlarni o‘rganishdan ozod etmaydi, o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbat esa boshqa xalqlarga hurmatni istisno etmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar, boshqalar ularni sevishini istashadi, ular kattalarga bog‘lanishga muhtoj. Bu xususiyat bolaning to‘liq rivojlanishi uchun zarurdir. U ularning taqlidini

oziqlantiradi. Biror bir kattalarga bog‘lanmagan bolalar qo‘rquv va iztirob qurboni bo‘lishadi. Katta maktabgacha yoshdagi davrda bolaning ma’naviy-axloqiy asoslari, hissiyotlari, tuyg‘ulari, tafakkuri, jamiyatda ijtimoiy moslashish mexanizmlari shakllana boshlaydi, atrofdagi dunyoda o‘zini anglash jarayoni boshlanadi. Inson hayotining ushbu bo‘lagi bolaga hissiy va ruhiy ta’sir qilish uchun eng qulaydir, chunki uning idrok tasvirlari juda yorqin va kuchli, shuning uchun ular uzoq vaqt davomida, ba’zan esa butun hayoti davomida xotirada qoladi, bu esa vatanparvarlik tarbiyasida juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi muammosini keyingi hal etish vatanparvarlik tarbiyasi masalalari bo‘yicha tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotining maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalashning muhim pedagogik sharti sifatida oila bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich maktabda vatanparvarlik tarbiyasining uzluksizligini amalga oshirish muammolarini o‘rganishning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахимова Д. А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий рухда тарбиялашда халк эртакларидан фойдаланиш: дис. пед. фан. ном. / Д. А. Абдурахимова; ЎзР Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги . – Тошкент: 1998.
2. Баринова Р.К. Воспитание любви к родному городу ./Подготовка детей к школе общее дело. - Махачкала.: Изд-во Дагучпедгиз, 1980.
3. Mukhtarov, U. M. (2019). Methods of teaching philosophicial subjects at higher education. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(5), 191-196.

OILADA YOSHLARNI IQTISODIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

O‘zbekiston, Xalqaro Nordik Universiteti
Ta’lim muassalari boshqaruvi yo‘nalishi 1-kurs magistranti
Hamroyev Murodullo Nemat o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu tezisda oilada tejamkorlikni shakllantirish, dastlab iqtisodiy tarbiya oilada shakllantirilishi zarurligi, so‘ng esa maktabgacha ta’lim tashkilotida va maktablarda boshlang‘ich ta’lim olib borilishi zarurligi haqida ma’lumot yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, iqtisod, iqtisodiy tarbiya, tejamkorlik, tadbirkor, tadbirkorlik, biznes, mol-mulk, pul, sotuvchi, xaridor, bozor, market.

Аннотация: В данных тезисах представлена информация о необходимости формирования сбережений в семье, необходимости формирования сначала экономического образования в семье, а затем необходимости проведения начального образования в дошкольных учреждениях и школах.

Ключевые слова: семья, общество, экономика, экономическое образование, бережливость, предприниматель, предпринимательство, дело, собственность, деньги, продавец, покупатель, рынок, рынок.

Abstract: In this abstract provides information on the need to form savings in the family, the need to first form economic education in the family, and then the need to conduct primary education in preschools and schools.

Key words: family, society, economy, economic education, thrift, entrepreneur, entrepreneurship, business, property, money, seller, buyer, market.

Kirish. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faol kishilarni tarbiyalashni taqozo etadi. Oila jamiyat hayotini olg‘a

suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas’ul bo‘lgan g‘oyat muhim boshlang‘ich guruhdir.

Asosiy qism. Yurtimizda tadbirkorlik azaldan xalqimiz uchun xos bo‘lgan va jamiyatda yuksak qadrlangan. Xususan, Amir Temur o‘z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarni g‘oyat qadrlagan: “Tajribamda ko‘rilganki, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi” shunday buyuk fikrlarni olg‘a surgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g‘oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko‘maklashish va mazkur yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Har bir oila — tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi PQ–3777-sonli qarorlari bo‘yicha imkoniyatlari yaratildi.[1]

Ma’lumki, “iqtisod” so‘zining ma’nosi keng bo‘lib, chuqur mazmunga ega. Ko‘p o‘rinda bu so‘z xalq ichida “ tejamkorlik” so‘zining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tejamkorlik haqida so‘z ketganda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmaslikni tushunamiz.

“Iqtisod ”tushunchasiga , mashhur o‘zbek adibi Abdulla Avloniy quyidagicha ta’rif berdi: “Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qdrini bilmakka aytilur”. [2]

Idtisodiy tarbiya yosh avlodda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida fikrlashga o‘rgatadi. Iqtisod, iqtisodning o‘zi nima? Bu tushuncha yunon olimi Geliot tomonida kiritilgan bo‘lib, bu- “uy xo‘jaligini boshqarish sanoati” ma’nosini anglatadi.

Bolalarni iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga tayyorlash, buning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish va chuqurlashtirish imkonini beruvchi turli vaziyatlarni ishlab chiqish, bu vaziyatlarning yechish variantlarini amalga oshirishga sharoit yaratish, iqtisodiy bilimlarni egallashga zamin bo‘luvchi mantiqiy, matematik fikrlarni rivojlantiruvchi o‘yinlar kompleksini amalga oshirish zarur.[3]

Bolalarimiz yoshligidanoq beixtiyor ravishda iqtisod bilan to‘qnash keladilar. Ular ilk yoshdanoq oilada “meniki”, “seniki”, “boy”, “kambag‘al”, “arzon”, “qimmat” “ sotib olish”, “sotish”, “pul” kabi tushunchalar bilan qurollanadilar. Shunday ekan, bolalarimizni oilada o‘rganganlarini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davom ettirishimiz lozim, ya’ni ilk sodda iqtisodiy tushunchalarni berib borishimiz kerak bo‘ladi. Misol tariqasida o‘lari o‘zaro o‘ynayotganlarida “ bozor”, “rasta”, “market”, “kassa”, “sotuvchi”, “xaridor”, “do‘kon”, “bankamat”, “terminal ” shu kabi sodda tushunchalarni o‘rgatib boorish bu tarbiaychining mohir pedagogligidan darak beradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ilk iqtisodiy tushuncha va atamalr bilan tanishtirish uning shaxs sifatida ulg‘ayib kamol topishida asos bo‘la oladi. Shuning uchun har bir guruh tarbiyachisi bolalarni iqtisodiy saboqlar bilan tanishtirish bo‘yicha dastur talablarini, ya’ni bolalarga beriladian tushunchalar hajmini va ularni amalga oshirish yo‘llarini va uslublarini bilishi kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning iqtisodiy savodxonlik darajasi mezonlarni ishlab chiqish. Shunga ko‘ra dastur bo‘limlarini integratsiya qilish. “Matematika-iqtisodiyot-mehnat”, “tarbiya-iqtisodiyot”, “Ma’naviyat-iqtisodiyot”, “xorijiy til- iqtisodiyot” kabilar.[3]

Iqtisodiy tarbiyalangan kishida hayotimizdagi ko‘pgina kundalik muammolarni hal etishga bo‘lgan qarashi o‘zgaradi va quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:



1-jadval

Shu sababli maktabgacha yoshdanoq matematika mashg‘ulotlarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib boorish lozim. Buning uchun bolalarni oila budjeti asoslariga o‘rgatish kerak. Shunda ular turli xil oila xarajatlari, oila a’zolari daromadi(ish haqi, pensiya, stepindiya, yordam puli va boshqalar)ning qanday manbalar hisobiga qoplanishini bilib oladilar.[3]

Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslarini tadqiq etgan olima A.Muxsieva o‘z tadqiqotida oilada iqtisodiy tarbiyasini yo‘lga qo‘yish jarayonida tadbirkorlik hamda xo‘jalikni oqilona boshqarish asosida bolalarda millatparvarlik, tejamkorlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, uddaburonlik, ziyraklik, mas’uliyatlilik va tadbirkorlik kabi fazilatlarning tarbiyalanishiga erishish mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tgan: “Bozor munosabatlari bolalarga oila hamda ta’lim muassasalarida puxta iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, shu jumladan, oila xo‘jaligini yo‘lga qo‘yish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni taqozo etadi. Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar mavjud sharoitda bolalarning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishinigina emas, ayni vaqtda ro‘zg‘orda tejamkor, xo‘jalikni yuritishda tadbirkor bo‘lishlariga erishishdek pedagogik vazifani ham ijobiy hal etish maqsadga muvofiqdir”.[4]

Xulosa: Oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga alohida e’tibor berilishiga qaramasdan, ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada jadal sur’atlarda rivojlanishi uchun ulardagi boshqaruv faoliyatini hozirgi davr darajasiga chiqarish talab etilmoqda. Zamonaviy boshqaruv usullari va tamoyillaridan foydalanish sohasida, iqtisodiy resurslardan foydalanish tartibi sohasida, mehnat resurslarini boshqarish faoliyati sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777-son ”Har bir oila - tadbirkor” Dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018 y., 07/08/377/1325-son.
2.“Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami (30-sentabr, 2021-yil) «Mahalla va oila nashriyoti» Toshkent – 2021
3. F. R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N. M. Kayumova, M. N. A'zamova “Maktabgacha pedogogika” T- 2019.
4. Muxsieva A.Sh. “Oilada milliy tarbiya jarayonining ” metodik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi. Diss.-T.,-2005.-B.56

ERTAK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta‘lim) 2-bosqich magistranti
Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna

Annotatsiya. Maskur maqolada bola hayotida ertaklarning ahamiyati haqida, bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklarining roli, bolaning xulq-atvorini salbiylikdan, ijobiylikka o‘girishi va bolani hayotga tayyorlashdagi eng asosiy vosita sifatida belgilanishi, ertak orqali bolalarni Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini o‘stirish haqida so‘z boradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, ertak, tarbiya, nutq, tasavvur, qahramon, ezgulik, insonparvarlik, vatanparvarlik.

Аннотация: В статье Маскура говорится о значении сказок в жизни ребенка, роли народных сказок в духовно-нравственном воспитании детей, изменении поведения ребенка от негативного к позитивному и определении его как главного инструмента подготовки ребенка к жизни. , привитие детям чувства любви к Родине через сказки. Речь идет о взрослении.

Ключевые слова: Дошкольники, сказка, воспитание, речь, воображение, герой, добро, человечность, патриотизм.

Abstract. Maskur's article talks about the importance of fairy tales in a child's life, the role of folk tales in the spiritual and moral upbringing of children, changing a child's behavior from negativity to positivity, and defining it as the main tool for preparing a child for life, instilling in children a sense of love for the Motherland through fairy tales. it is about growing.

Key words: Preschool children, fairy tale, education, speech, imagination, hero, goodness, humanity, patriotism.

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki davrlaridanoq farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan, bu tarbiya jarayonining asosiy vositasi hisoblangan ertaklar orqali bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat, jasorat kabi fazilatlar shakllantirilgan. Ertaklarni anglash natijasida bolaning nutqi, tafakkuri, dunyoqarashi kengayib boradi. O‘z navbatida, ertaklarning bola ongiga har bir xalqning madaniyati, ma’naviy-axloqiy qarashlari, o‘tmish qadriyatlarini singdirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Shu bilan birga ro‘y berayotgan raqamlashtirish jarayonlari bolalarni tarbiyalash tizimida ertaklarning o‘rni va mavqeyini birmuncha pasayishiga sabab bo‘ldi, deyish mumkin. Ayniqsa hozirgi zamonaviy hayotda eng so'nggi texnologiyalar bilan to'yingan bir vaqtda, kattalar bilan bir qatorda, bolalar ham kuchli axborot oqimida yashayapdilar, va bu yerda jonli muloqotni kompyuter, televizor, planshet yoki telefon orqali amalga oshirilayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Ota-onalar va ularning farzandlari o'rtasidagi aloqaning yo'qligi bolalarni tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda va bu albatta ta’limiy-tarbiyaviy va ma’naviy oziqlantiruvchi o‘zbek xalq ertaklari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Bu vazifalarning barchasi maktabgacha ta'lim bosqichida amalga oshirilishi lo‘zim chunki erta keshitib o‘sgan bola jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, hayotda uchraydigan pastu-balandliklarda osonlik bilan yo‘l topib, chiqib ketishida ertaklarning o‘rni birmuncha katta chunki xalq ertaklari eng yaxshi o‘qituvchi hisonlanadi. Bu shuni anglatadiki, ertaklarni o'rganish zamonaviy maktabda dolzarb, zarur ish sohasi bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism. Insoniy yaxshi fazilatlarni targ‘ib qilish yoki aksincha xarakterdagi yomon jihatlarni bayon etishda eng qulay va ta'sirchan usullardan biri ertak hisoblanib, bolalarga yaxshi va yomonni ajratishga, hayotni bolalar tilida tushunishga yordam beradi. Garchi ertaklar haqiqatga to‘g‘ri kelmasada, bolalarga ijobiy ta'sir qiladigan ta'lim berishning eng samarali usullaridan hisoblanadi. Ertaklar bolalar rivojlanishi uchun asosiy bilimlarni qiziqarli,sodda ko‘rinishda

yetkazib beradi. Shuningdek, ertak bolalarning tafakkur doirasini kengaytirib, xotirasini yanada kuchaytirish maqsadida mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sanaladi.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishi, fikrlashni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu ertak yordamida bajariladi. Ertak - bu shunday belgilar tizimi bo‘lib, uning yordamida bola atrofdagi voqelikni o'zi tushungandek talqin qiladi. Ertak tanlayotganda, bolalarning yoshini va ruhan rivojlanganligini hisobga olish lozim. Tarbiyachi va ota-onalar bunga e'tibor bersagina ertaklar bolalalarga foyda keltirishi mumkin. Ertaklar bolaga jonajon o‘lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko‘rsatayotgan qahramonliklarini yoritib berishga xizmat qiladi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko‘rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga undaydi.[3]

Bolaga ertak o‘qib bergandan so‘ng u yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, ahmoqlik va topqirlikning mavjudligini tushunadi. Shuningdek, to'g‘ri tanlangan ertak ota-onalarga inqirozli vaziyatlarni engishga yordam beradi. Barcha ertaklarda axloq bor, u orqali siz bolaga qiyin vaziyatdan chiqishga yordam berishingiz mumkin. O'qib bo'lgach, qahramonning ishi va harakatlarini muhokama qiling. Ijobiy belgilar eng yaxshi tomonlarga ega: mehnatsevarlik, zukkolik, mehribonlik, halollik, go'zallik.[4]

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'pchiligining yosh xususiyatlari tengdoshlari bilan muloqot qila olmaslik, o'yinchoqlarni baham ko'rishni istamaslik, qiyin vaziyatda do'stiga yordam berishdan bosh tortish, tajovuzkorlikka moyillikdir. Kichkintoylar hali ham bir-birlarini qanday his qilishni, qo'llab-quvvatlashni bilishmaydi. Zero, maktabgacha yoshda shaxsning axloqiy fazilatlari shakllanadi. Kattalarning vazifasi bolani atrofidagi dunyoga befarq qolmasligi uchun tarbiyalashdir. Ertaklar insonning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda foydali asosdir. Unda inson va tabiatning yaqinligi, odamlarning qanday munosabatlari va hissiyotlari borligi, yaxshilik va yomonlikni qanday ajratish mumkinligi ko'rsatilgan. [2]

Xulosa. O'ziga xos tarbiya vositasi hisoblangan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va hayratlanarlidir. Ertaklar bolaning dunyoqarashini, fikrlashini, tasavvurini boy etibgina qolmay uning hayotga bo‘lgan ongli munosabatini shakllantiradi. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib, voyaga yetgach u ezgu ishlarga odatlanadi. Har bir ona ertaklarni o'z farzandlariga obrazli va qiziqarli tarzda aytib berishsa, farzandlari hayoti davomida ezgulik,yaxshilik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg‘usida voyaga yetadi.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.G.A.Tojiboyeva *Bolalar tarbiyasida ertakning o‘rni* Scientific progress 2022

2.U.X.Musayeva *Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning ahamiyati* Oriental renaissance 2022

3. Ma'lumotlar bazasi mualliflik huquqi bilan himoyalangan ©fayllar.org 2023

4. Matrizayeva B.S “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida ertaklarning ahamiyati” ta’lim fidoyilari. issn:2180-2130 vol.1,issue 1 iyun(2022)

BOLALARDA NUTQ VA NUTQIY ETIKET SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Abdurahmonova K.E. Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy etiketning ma’nosi, o‘ziga xos qonuniyatlari, qoidalari haqida ma’lumot berilgan. Nutqiy etiket keng qamrovli tushuncha ekanligi, uning ma’lum birliklari, lingvopragmatika, xalq tilida salomlashish, uning o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: etiket, nutqiy etiket, murojaat shakllari,ilmiy nutq, nutqiy vosita, lingvopragmatika, salomalshuv, xayrlashuv, kognitiv muhit, pragmalingvistika.

Аннотатция: В данной статье представлена информация о значении, конкретных законах и правилах речевого этикета. Отмечено, что речевой этикет представляет собой комплексное понятие, его отдельные единицы, лингвопрагматика, приветствие в просторечии, а также его специфические особенности.

Ключевые слова: этикет, речевой этикет, формы обращения, научная речь, речевой инструмент, лингвопрагматика, приветствие, прощание, когнитивная среда, прагмалингвистика.

Abstract. This article provides information about the meaning, specific laws and rules of speech etiquette. It is noted that speech etiquette is a complex concept, its individual units, linguopragmatics, greetings in common speech, as well as its specific features.

Key words: etiquette, speech etiquette, forms of address, scientific speech, speech instrument, linguopragmatics, greeting, farewell, cognitive environment, and pragmalinguistics.

Oila – bu bolalarning nutqi shakllanishida asosiy maskan hisoblanadi va bu dargohda bola kamol topib, voyaga yetadi. Barchamizga ma’lumki, farzandlarimiz uch yoshga to‘lguncha nutqiy tarbiya asoslarini oila a’zolaridan o‘rganadilar va bu jarayon nutqni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi bilan alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda, bolalarning chaqaloqlik davrlaridan boshlab nutqining rivojlanishiga oid ayrim fikrlarni keltiramiz.

Chaqaloqlar ikki oylik bo‘lganlaridan so‘ng yig‘lash, qo‘llarini qimirlatish va turli shakldagi tovushlarni chiqarishni boshlaydilar. Chaqaloqlar 3-4 oyga to‘lganlarida ota-onasi, birga yashovchi va boshqa insonlar bilan ko‘z hamda tabassum orqali aloqa qilishni boshlaydilar va o‘sha odamning yuz ifodasini kuzatadilar. Agar chaqaloqqa nisbatan erkalatuvchi so‘zlar bilan murojat qilinsa, ularning yuz ifodasida kulgu alomatlari seziladi. Aksincha, do‘q-po‘pisaga o‘xshash so‘zlar qo‘llansa, (ha, seni qara-yu, yig‘lamasdan birpas jim yotsang bo‘lmaydimi) ularning yuzlarida yig‘i alomatlari bilina boshlaydi, lablarini bujmaytirib yig‘lashni boshlaydilar. Asta-sekinlik bilan shu davrdan boshlab quvnoq va kulgiga o‘xshash tovushlarni chiqara boshlaydilar. Taxminan, 5 oylikdan boshlab tovush hosil bo‘lishini va artikulyatsiya harakatlarini boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Ovozlari bilan qiyqiriq tovushlar chiqarishni boshlaydilar. Chaqaloqlar 6 oylik bo‘lganlaridan boshlab, atrofdagilarga ko‘proq e’tibor berishni boshlaydilar va asta-sekin kattalar e’tiborini o‘zlariga jalb qilish uchun imo-ishoralar, qarashlar, tovushlardan foydalanadilar. Ular 10 oyliklardan boshlab inson nutq tovushlariga o‘xshash tovushlarni baqiriqlar, chinqiriqlar orqali chiqara boshlaydilar. Ular ilk so‘zlarni 9-12 oyliklarida ayta boshlaydilar, bir yoshga to‘lganlarida esa bir necha so‘zlarni va qisqa iboralarni tushunishni boshlaydilar. Shu yoshdan boshlab kichkintoylar oddiy ko‘rsatmalarni tushunishlari va ularga amal qilishlari mumkin. Masalan, yoshini so‘rasalar, ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘rsatish orqali 1 yoshga to‘lganini qo‘l harakatida ifodalaydilar, shu bilan birga, ular uchun sevimli bo‘lgan uy hayvonlaridan tovuqlar, jo‘jalarning sonini so‘ralganda ham, barmoqlari bilan ifodalaydilar. Yaqin insonlari (onasi, buvisi, opasi, akasi) tomonidan salomlashish o‘rgatilganda, garchi ular to‘liq gapira olmasalar-da, o‘ng qo‘lini uzatib ko‘rishishni o‘rganadilar yoki, aksincha, xayrlashganda qo‘llarini, asosan, barmoqlarini silkitish orqali xayrlashishni ifodalovchi xarakatni ko‘rsatadilar Ularning og‘zaki nutqi bir yoshda noaniq bo‘lib, nutq tovushlarining deyarli barchasini o‘z ichiga oladi. So‘z boyligi doimiy ravishda oshib boradi. Bu yoshdagi chaqaloqlar o‘rtasida ham farqlar mavjud bo‘lib, ba’zilari ko‘plab so‘zlarni gapirishni boshlaydilar, boshqalari esa hali ham dastlabki so‘zlarni aytishga qiynalayotgan bo‘ladilar. Masalan, 1 yoshlik Foziljon “dada”, “amma”, “choy” so‘zlarini bemalol ayta oladi, 1 yoshlik Abror esa yuqoridagi so‘zlarni to‘liq ayta olmaydi. “dada-dad, dad”, “choy-umma”. Bola 1-1,5 yoshga yetganda, endi yura boshlaganda, aka-opasini, ota-onasini odiga kelib “meni ko‘taring” so‘zini ayta olmay, “xo‘ppa” deb ikkala qo‘lini yuqoriga ko‘tarib, qo‘l xarakati orqali fikrini ifodalashga urinadi. 2 yoshli bolalar oddiy ko‘rsatmalarni tushuna oladilar. Ular o‘z ismlarini ayta oladilar va ikki-uchta so‘zlardan iborat jumlalardan foydalana oladilar. 3 yoshli bolalar oddiy

hikoyalarni, takliflar, ko‘rsatmalarni tushunishlari mumkin. So‘roq gaplar, buyruqlar va inkor jumlalardan foydalanadilar. Bu yoshda bolalarning nutqi to‘liq va aniq tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga, savollar berishni boshlaydilar. Birgalikda kitoblar o‘qishni, rasmlarga ishora qilib, kitobdagi voqealar haqida suhbatlashishni uddalaydilar. 4-5 yoshli bolalarning nutqi tobora kattalar nutqiga o‘xshay boshlaydi. Bu yoshda bolalar o‘z tasavvurlarini tengdoshlariga va kattalarga aytishni yaxshi ko‘radilar. Ayniqsa, bu yoshda ko‘p savol beradigan, sergap, mahmadona bo‘ladilar.

Odob har qanday shaxsning xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu faqat dasturxon atrofida yoki ziyofatda bajarilishi kerak bo‘lgan qoidalar emas, balki bular insoniy munosabatlarning barcha me’yorlari hisoblanadi. Bunday qoidalar yordamida boshqalar bilan munosabatlar tartibga solinadi. Muloqot madaniyati va insoniy xulq-atvor madaniyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, insoniy munosabatlarning barcha sohalarida – ishda, oilada, shaxsiy, siyosiy va hokazolarda namoyon bo‘ladigan muloqot madaniyatiga e’tibor qaratish lozim.

Nutq etiketi salomlashish, minnatdorchilikda namoyon bo‘ladigan nutq odobiga asoslanadi. “Etiket” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “yorliq” degan ma’noni anglatadi. Ammo u yunoncha “etos” – “odat”, “xarakter” asosida shakllangan. “Axloq lug‘ati” tushunchasini beradi. Odob − bu insonlarga munosabat (boshqalar bilan muomala qilish, murojaat qilish va salomlashish shakllari, jamoat joylarida o‘zini tutish, o‘zini tutish va kiyim-kechak) bilan bog‘liq xatti-harakatlar qoidalari to‘plami.1 Nutq etiketi insoniy madaniyatning asosiy ifodasidir. Etiket keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u ma’lum ma’noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha turli taraflama o‘rganadi. Namunaviy nutqning asosiy talablaridan yana biri aytilmoqchi bo‘lgan muddaoning tinglovchiga to‘g‘ri va aniq borib yetishi, ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Hamda bu masalalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi, bu esa kommunikativ aspekt muammolaridan hisoblanadi. Nutqiy etiket deyilganda, so‘zlashuv odobi qoidalarini tartibga soluvchi milliy, o‘ziga xos stereotiplar, suhbatdosh bilan aloqa o‘rnatish, aloqani tanlangan tonallikda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilgan formulalari nazarda tutiladi. Ma’naviyati yuqori bo‘lgan inson barkamolligi uning omilkorligi, bilimdonligi, donishmandligida namoyon bo‘ladi va unda albatta nutq madaniyati ham yuqori darajada bo‘ladi. Til odobi ko‘nikmalarini, nutq madaniyati malakalarini egallash, adabiy til me’yorlariga amal qilish oliy ma’lumotli shaxs uchun juda muhim. Umumiy tarzda aytiladigan bo‘lsa, nutq madaniyati sohasi adabiy til doirasida fonetikadan tortib to uslubiyatgacha bo‘lgan barcha lingvistik sohalarni qamrab oladi. Ilmiy jihatdan asoslangan nutqning o‘ziga xos jihatlari mavjudligi va u qaysi fan sohasida bo‘lishidan qat’iy nazar ma’lum me’yorlarga bo‘ysunishi kerakligi nutq etiketining boshqa nolingvistik sohalar bilan aloqadorligini ko‘rsatuvchi omillardan sanaladi. Chunki nutq etiketi bu eng avvalo, nutqning to‘g‘riligi demakdir, ya’ni yaxshi nutq noaniqlikka, uzundan uzoq jumlalarga qarshi bo‘lishi, qisqalik va aniqlik uning o‘lchovi bo‘lishi lozim.

Har qanday ilmiy nutq uchun bu mezonlar asosiy talablar hisblanishini bilamiz. Keng ma’noda esa nutq etiketi nutqiy ta’sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o‘tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Bu jihatdan istalgan soha vakili og‘zaki nutqining madaniy me’yorlarga asoslanishi, ma’lum normalarga bo‘ysunish zarurati muhimki, bu holat har qanday notiqning madaniyati va saviyasini ko‘rsatuvchi jihatlar sanaladi. Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo‘ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: “Bitta salom bilan beshta narsaga - o‘zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo‘lish va nihoyat uzoq umr ko‘rishga erishiladi”.

Tilning, uning faollashgan amaliy ko‘rinishi – nutqning va uni tashkil etuvchi nutq birliklarining, shu jumladan, gaplarning lingvopragmatik aspekti muammolarining tadqiqi haqida ham shunday deyish mumkin. Ijtimoiy meyorlar va til o‘rtasidagi bog‘liqlik lingvopragmatika doirasida o‘rganilib, qisman sotsiologiya va qisman lingvistikani o‘z ichiga oladi. S.Levinson ta’kidlagandek, jamiyat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish va ijtimoiy qonun qoidalarga rioya qilish uchun sotsiopragmatika, yani ijtimoiy ong, xulq-atvor, mentalitet kabi

qadriyatlarni nazariy jihatdangina bilishning o‘zi yetarli emas. Shu bilan birga pragmalingvistika, yani jamiyat tiliga bog‘liq lingivistik qonun-qoidalarni bilish bilan cheklanish ham to‘g‘ri kelmaydi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. Oliy ta’lim tizimida nutq madaniyatining o‘rni. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999, 38-b

2. Iskandarova Sh. O‘zbek nutqi odatining muloqot shakllari. Avtoreferat. – Samarqand: 1993, 87-b

3. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

4. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari:Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2000, 65-b

5. Abdurahmonova K.E. “Formation of national-speech etiquette through folk oral oral creativity in preschool children” Journal of advanced scientific research (ISSN:0976-9595) Vol 5. issue 3. 2024, 2-b

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA INNOVATSION, STEAM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri Dotsent E.M.Mardonov
70110201-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) 2-bosqich magistranti N.T.Jomurodova

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rangbarangdir. Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgcha ta'lim tashkilotlaridagi har bir faoliyat turini to'g‘ri tashkil qilish lozim. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, va ularning samaradorligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, bolalar psixologiyasi, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: Педагогический процесс, направленный на обеспечение всестороннего развития детей в дошкольных образовательных организациях, сложен и многообразен. Для достижения эффективности образования необходимо правильно организовать каждый вид деятельности в дошкольных образовательных организациях. В данной статье описано использование современных технологий в дошкольных образовательных организациях и их эффективность.

Ключевые слова: система дошкольного образования, детская психология, развитие, образование, воспитание, инновационные технологии.

Abstract: The pedagogical process aimed at ensuring the comprehensive development of children in preschool educational organizations is complex and diverse. To achieve the effectiveness of education, it is necessary to properly organize each type of activity in preschool educational organizations. This article describes the use of modern technologies in preschool educational organizations and their effectiveness.

Key words: preschool education system, child psychology, development, education, upbringing, innovative technologies.

Maktabgacha ta’lim mutaxassislari ta’lim tizimida innovatsion g‘oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar bog‘chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishadi. Moliyalashtirish yuzasidan davlat muassasalari "Maktabgacha tarbiyachiga pul ketayotganda" innovatsion tashkiliy echimlarining kundalik tartibida kiradigan innovatsion tashkiliy echimlarning kunlik tartibiga kiritilishi institutning obro'sini sezilarli darajada oshiradi va rivojlanishning keyingi yo‘nalishlarini belgilab beradi.

O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish Psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o‘zgartiradilar. O‘z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya Ota-ona jamoatchiligi, bolalar bog‘chasini o‘quvchilarning oilalari bilan o‘zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim ning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim ning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta’lim ga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish maktabgacha ta’lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta’lim muassasasiga biriktirilgan sog‘liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta’lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta’lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta’lim muassasasida yong‘in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar “Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g‘risida Nizom” bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari - O'zbekiston Respublikasidagi ta’lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta’lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog‘lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo‘lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta’lim sifat va darajasiga bo‘lgan talablari, nizom, maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta’sischilar tomonidan belgilanadi.[34]

STEAM ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarni yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida - fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san’at (Art), matematika (Math) bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan. STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir. Bolalarni ilmiy-texnika yo‘nalishlarida kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir, ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat guruh devorlarida o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari «uqib oladilar».

Maktabgacha yoshdagi bolalar STEAM faoliyati uchun juda mosdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagi hamma narsa qanday ishlashini bilishni, amaliy mashg‘ulotlarni, tajribalar o'tkazishni ko'proq xohlashadi. Bolalar bu yoshda kattaroq tushunchalarni tushunishga qodir. Shuningdek, ular o'z dunyosida nima sodir bo'layotganini chuqurroq o'ylab ko'rishlari va ularni nima qiziqtirayotganini aytib berishlari mumkin. Bu davrda bola bilan STEAM mashg‘ulotlarini o'tkazish uchun ajoyib imkoniyat. Bolaga imkoniyat berish, o'zining xayolot dunyosiga sho'ng‘ishiga qo'yib berish lozim.

Bizning kundan kunga taraqqiy etib borayotgan zamonaviy dunyomiz aholining STEAM sohalarida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini talab qiladi. STEAM esa maktabgacha yoshidagi bolalarga asosiy tarkib bilan bog‘liq bo‘lmagan, masalan, jamoa bilan ishlash, qat’iyat va mehnatsevarlik, ijodkorlik va zukkolik, mantiqiy tafakkur, tanqidiy fikr kabi ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ham STEAM bo'yicha asosiy tushunchalarni o'rganish qobiliyatiga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM ta'limining eng foydali jihatlaridan biri shundaki, STEAM faoliyatida hosil qilingan ko'nikmalar, masalan, san’at, fan yoki matematikada o‘rganilgan jarayon ko‘nikmalari har qanday fan sohasida va kundalik hayotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardir. [35] Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqish va ijodkorlik hissi bilan ilm-fanga tabiiy moyillikka ega.

Bu yoshda bolalar konstruktorlash, modellash, robotexnika hamda dasturlash sohasiga juda qiziqadilar. Ta'lim-tarbiya faoliyatiga STEAM yondashuvimizning muhim qismi bu bolalarni to'g‘ri vaqtda to'g‘ri faoliyat bilan tanishtirishdir. Biz bolalarni rivojlanishga tayyor bo'lganda yangi ko'nikmalar va tushunchalar bilan tanishtiramiz, bu esa o'rganishni qiziqarli va tabiiy qiladi.

STEAM bolaga beriladigan har bir ma'lumotni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatidir.

[34] M.Qodirova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv jarayonlarning rivojlanishi borasidagi tatqiqotlar va tavsiyalar” 2021.

[35] Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim - tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2020-y.

STEAM faoliyatida bolalar har bir mavzu bo'yicha modellashtirish ishlarini olib boradi, quradi, yasaydi. Masalan, bolalar mashina modelini yasaydi, keyin uni sinovdan o'tkazadi, kutilgan natijaga erishmasa, uning sababini aniqlashga harakat qiladi, balkim mashinaning bir g‘ildiragi katta bo'lgandir. Har bir sinovdan keyin bola o'zining kamchiliklarini to'g‘irlab boradi. Bolalar ko'prik qurish, mashina va samolyot modelini yaratib, uni sinovdan o'tkazib, modelni takomillashtirib boradi, ularda o'z kuchiga ishonch hissi shakllanadi. Bolalarda faol kommunikatsiya va jamoada birgalikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi. Muloqot vaqtida bola mustaqil o'z fikrini bildira oladi. Bahs-munozarali erkin muhit hosil bo'ladi. Eng muhimi bola zerikmaydi. Bolalarning nafaqat ijodiy o'sishi, balki psixologik muammolarni hal qilish, muloqot qilish qobiliyatini oshirish uchun ham san'atning o'rni yuksakdir. San'at STEAMning kaliti hisoblanadi. Rang bolalarni ilm-fan bilan tanishtirishning ajoyib usuli. Bu yorqin va qiziqarli. Bolalikda o'rganadigan eng katta narsalardan biri ranglardir. O'rganish harflar, raqamlar, shakllar va ranglardan boshlanadi. Ranglar o'zgarishlarni anglash uchun juda ajoyib vosita.

Xulosa qilib aytganda, yaqin o‘tkan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi dominant pozitsiyani egallash maktabgacha ta’limda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo‘shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, kelasi yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yettita yo‘nalishdagi strategik vazifalar belgilab berildi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san’at asarlari bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san’at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg‘ulotlari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida keltirilgan mashg‘ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang‘ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg‘ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi. Shundan kelib chiqib.Maktabgacha yoshdagi bolalarda STEAM ijodkorligini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ishmuhamedov R.J., Yo‘ldoshev M. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: - Nihol nashriyoti, 2016-yil

2.International online scientific theoretical conference “The Interaction of science and society-the path to modernization and innovatrive development” UO‘K 001.1:004:37:330:796/799 KBK 94.3 T-2/ UDC 371.322.3/10.06.2020/ Namangan/243-bet

3.M.Qodirova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv jarayonlarning rivojlanishi borasidagi tadqiqotlar va tavsiyalar” 2021.

4.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim - tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2020-y.

5.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.

-T., “Ma’naviyat”. 2019.-685 b.

6.Boymurodova G., Tosheva N. Boshlang‘ich ta’limda bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkillashtirishda hamkorlikda o ‘qitishning o ‘ziga xos xususiyatlari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. - 2020. - Т. 1. - №. 1.

7.Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T:. 2013.- 288 b.

ПРИМЕНЕНИЕ STEAM- ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Узбекистан, Евстафьева Любовь Григорьевна
доцент кафедры «Методика дошкольного образования»
Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций. г. Ташкент

Anotatsiya. Maqolada STEAM texnologiyalarining mohiyati, xususiyatlari, shuningdek, maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, zamonaviy ta'lim, dizayn va tadqiqot faoliyati, muhandislik tafakkuri.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность, особенности STEAM технологий, а также возможности использования STEAM технологий в дошкольном образовании.

Ключевые слова: STEAM технологии, дошкольное образование, современное образование, проектная и исследовательская деятельность, инженерное мышление.

Annotation.The article discusses the essence, features of STEAM technologies, as well as the possibilities of using STEAM technologies in preschool education.

Key words: STEAM technologies, preschool education, modern education, design and research activities, engineering thinking.

Введение

Воспитание и образование детей дошкольного возраста в Узбекистане направлено на комплексное развитие социальных, эмоциональных, познавательных и физических потребностей ребёнка, в целях обеспечения прочной и широкой основы для образования и благополучия на протяжении всей жизни. В связи с введением в действие Государственных требований к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан, и реализации Государственной учебной программы дошкольного образования «Ilk Qadam», которая направлена на выявление и развитие творческих и познавательных способностей, возникает необходимость поиска и освоение инновационных технологий для внедрения в педагогический процесс.

Одной из развивающих, интересных, современных технологий, как для взрослых, так и для детей дошкольного возраста является *STEM-технология.*

Это обусловлено тем, что ориентации на практическое применение получаемых знаний, в выстраивании тесных связей между образовательной деятельностью и жизнью окружающего мира.

Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан ставят перед педагогами задачу формирования не только целостной, всесторонне развитой, гармоничной личности, но и личности конкурентоспособной, быстро адаптирующиеся, способной эффективно работать в условиях стремительно развивающегося, высокотехнологичного мира.

С этой целью начата реализация стратегии «Цифровой Узбекистан-2030». Она настроена на инвестирование в так называемый интеллектуальный капитал — молодых высококвалифицированных и креативно мыслящих IT-специалистов, программистов, инженеров, способных решать сложные производственные задачи, обеспечивая непрерывный рост экономики.

Современный мир ставит перед образованием непростые задачи: подготовить ребенка к жизни в обществе будущего, которое требует от него особых интеллектуальных способностей, направленных в первую очередь на работу с быстро меняющейся информацией. Развитие умений получать, перерабатывать и практически использовать полученную информацию и лежит в основе STEAM-образования.

Методика.

STEAM-образование – это обучение, которое включает в себя изучение естественных наук вместе с инженерией, технологией и математикой. В отличие от традиционного обучения, STEAM-образование представляет собой смешанную среду, которая демонстрирует на практике, как данный изучаемый научный метод может быть применен в повседневной жизни.

STEAM-образование – это инновационная образовательная программа, которая позволяет на профессиональном уровне подготовить детей с самого раннего возраста к технически развитому современному миру: научиться быстро, ориентироваться в огромном потоке информации и эффективно реализовывать полученные знания на практике.

Целью STEAM-образование, является развитие интеллектуальных способностей ребенка с возможностью вовлечения его в научно-техническое творчество, развитие интереса у детей к точным наукам.

Основное содержание

Сегодня STEAM -технология развивается, как один из основных трендов, сочетая в себе естественные науки с технологиями, инженерией и математикой/

STEAM-образование детей дошкольного возраста ориентируется на Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан. В данном документе познавательное развитие выделяется в отдельную область развития. Эта область развития личности дошкольника включает в себя:

- ▶ интеллектуально-познавательные навыки;
- ▶ элементарные математические навыки;
- ▶ исследовательско-познавательная и продуктивная рефлексия.

Интеграция данной области развития с другими областями такими как, физическое развитие и формирование здорового образа жизни; социально-эмоциональное развитие; речь, общение, навыки чтения и письма; творческое развитие, позволяет сформировать у детей познавательные интересы к различным видам детской деятельности.

Использование STEAM технологий в дошкольной образовательной организации осуществляется в формате проектной и исследовательской деятельности. Стоит отметить, что важным условием для реализации проектов и исследований в рамках STEAM технологий ***является создание предметно развивающей среды***. Предметно-развивающая среда организуется так, чтобы каждый ребенок имел возможность свободно заниматься любимым делом. Размещение оборудования *по центрам развития*, позволяет детям объединиться подгруппами по общим интересам: в центре строительства, конструирования и математики, сюжетно ролевых игр и драматизации. центр развития речи, науки и природы и центр искусства. Обязательными в оборудовании являются материалы, активизирующие познавательную деятельность: развивающие игры, технические устройства и игрушки, модели, предметы для опытно-поисковой деятельности, роботы -магниты, увеличительные стекла, пружинки, весы, мензурки и прочее; большой выбор природных материалов для изучения, экспериментирования, составления коллекций.

В дошкольном возрасте у ребенка наблюдается развитие всех высших психических процессов, таких как восприятие, внимание, память, воображение, мышление и речь. Эти познавательные процессы позволяют ребенку ориентироваться в окружающем мире, в себе самом и регулируют его деятельность.

Погружение ребенка в STEAM-среду, можно начать с конструирования, в рамках которого воспитанники, используя элементы из различных материалов: (дерево, бумага, пластик) приобретут элементарные технические навыки и умения, познакомятся с принципами инженерии. Различные конструкторы помогут ребенку научиться узнавать различные сенсорные эталоны, а к тому же еще и конструировать.. Наборы робототехники помогут приобщить детей к творчеству с использованием передовых технологий. Лепить из пластилина и развивать навыки моделирования, делать игрушки из подручного материала и одновременно знакомиться с длиной, шириной и высотой предметов или создавать объемные

конструкции из картона, все это развивает в детях творчество и пространственное мышление.

Для каждого возраста могут быть свои STEAM игрушки. Для 3-5-детей – это наборы для творчества и опытов, игровые наборы Монтессори, игрушки которые двигаются благодаря солнечной энергии, несложные 3D-пазлы и техника «на колесах».

В 6-7 лет дети могут проводить опыты, которые показывают природу химических и физических явлений. Для этого возраста можно подобрать роботы, манипуляторы, которые несложно сделать совместно с детьми. Малышу нужно будет следовать инструкциям, иногда включить логику, а иногда и сообразить, что нужна подсказка взрослых.

Использование STEAM технологий в дошкольном образовании дает возможность детям научиться вникать в логику происходящих явлений, устанавливать причинно-следственные связи, выходить из критических ситуаций. У детей проявляется любознательность, вырабатывается инженерный стиль мышления, развиваются исследовательские навыки и творческие способности., Все это обеспечивает кардинально новый, более высокий уровень развития ребенка и дает более широкие возможности в будущем при выборе профессии.

Литература.

1. Закон Республики Узбекистан // О дошкольном образовании и воспитании ЗРУ-595 16.12.2019 г.
2. Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан. 18 июня 2018г № 1-мх
3. Государственная учебная программа “Ilk qadam”(Издание второе дополненное)2022г.
4. Методическое пособие Государственной учебной программы Ilk qadam// «Индивидуализация процесса обучения в дошкольном образовании» 2020г
5. Беляк Е.А. Руководство для воспитателей к учебно-методическому пособию «Детская универсальная STEAM-лаборатория». - Ростов-на-Дону: Издательский дом «Проф-Пресс»,2019.
6. rt-talant.org/publikacii/47684-tehnologiya-stem-obrazovaniya-obrazovatelynyy-moduly-didakticheskaya-sistema-f-frebelya

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ «STEAM» ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Узбекистан, НавГПИ старший преподаватель кафедры «Биология»,
Рахмонова Рухсора Бахриддиновна
Узбекистан, НавГПИ студентка 1 курса направления обучения «Биология»,
Кенжаева Одина Фарходовна

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning jonsiz va jonli tabiat haqidagi bilimlarini rivojlantirish, shuningdek, tabiiy fanlardan tushunchalarini shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida "STEAM" texnologiyasidan foydalanish metodologiyasi ko'rib chiqilgan. Bunga misol tariqasida STEAM dasturining moduli sifatida tirik va jonsiz tabiat bilan tajribadan foydalanish metodikasi berilgan.

Kalit so‘zlar: atrof muhit, texnologiya, modul, STEAM, bilim, kunikma, malaka, tajriba

Аннотация:Данная статья рассматривает методику использования «STEAM» технологии в дошкольных организациях в целях развития у детей понятий о неживой и живой природе, также формирование природоведческих знаний. На примере применение экспериментирования с живой и неживой природой как модуля программы STEAM.

Ключевые слова: окружающая среда, технология, модуль, STEAM, знание, умение, навыки, эксперимент

Annotation: This article discusses the methodology for using STEAM technology in preschool organizations for the development of children in inanimate and animate nature, and also

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAMning afzalliklari va ahamiyati muhokama qilinadi,maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda STEAM texnologiyasidan foydalanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, STEAM texnologiyasi, STEAM ta'limi, STEM loyihalari, STEM faoliyati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества и актуальность использования STEAM-технологии в работе с детьми дошкольного возраста.

Ключевые слова: STEAM, STEAM-технология, STEAM-образование, STEM-проекты, STEM-активность.

Annotation: The merits and importance of this article are discusseduse of STEAM technology in working with preschool children.

Key words: STEAM, STEAM technology, STEAM education, STEM projects, STEM activity.

Педагоги и родители используют разные подходы, один из ключевых на сегодня считается STEAM-технология. Это такое направление в образовании, которое объединяет научные дисциплины (Science), технологии (Technology), инженерию (Engineering) и математику (Mathematics) в единую систему обучения. Оно ориентировано на практическое применение знаний, взаимосвязь между учебными предметами и визуализацию научных явлений для более глубокого понимания теории. Способствует развитию творческого мышления и практических навыков, а также подготавливает к успешной адаптации в быстро меняющемся мире технологий и научных открытийю

Впервые STEM-технология была внедрена в США, а потом уже распространилась по всему миру.

Что такое STEAM?

STEAM-образование основано на слиянии всех пяти направлений в

единую схему развития и демонстрирует дошкольникам, как применять науку и искусство в жизнедеятельности, дает детям возможность изучать мир системно, вникать в логику происходящих вокруг явлений, обнаруживать и понимать их

взаимосвязь, открывать для себя новое, необычное и очень интересное

Глобальная цель — развить у детей ключевые навыки и знания, которые станут фундаментом для успешного функционирования в современном технологичном и научно-ориентированном мире. Сюда можно включить и другие цели:

- развитие критического мышления — умение задавать вопросы, искать ответы, анализировать информацию, делать выводы и решать сложные проблемы. Этот навык важен для адаптации к постоянно меняющемуся миру и принятия информированных решений;
- развитие навыков командной работы — STEM-активности часто предполагают работу в группах, что позволяет детям учиться сотрудничать, обмениваться идеями и решать задачи вместе. Это способствует развитию коммуникативных и лидерских навыков;
- практическое применение знаний — STEM-образование ставит детей перед реальными задачами и вызовами, что позволяет им применить свои знания на практике и видеть результаты своей работы;
- заинтересованность в науке и технологиях — стимулировать интерес детей к науке, технологиям, инженерии и математике;
- подготовка к современной реальности — обеспечить детям необходимые компетенции для успешной адаптации к миру, где технологии и наука играют важную роль во всех сферах жизни.

Одной из эффективных технологий обучения пониманию знаний детей является технология **STEM-образования**. **STEM-образование** одно из приоритетных направлений формирования инженерного, инновационного мышления. Полученные знания обучающиеся применяют, создавая реальные продукты в рамках проектно- ориентированного подхода.

STEM-проекты могут быть выполнены в сферах робототехники, 3D-анимации, программирования. Целенаправленное создание в дошкольном образовании научно-образовательных лабораторий, реализация **STEM-проектов**, проектов с решением задач технической направленности и внедрение их в образовательную деятельность, позволит не только дать знания детям, но научит их понимать, применять в практической деятельности. В последнее время технология адвент-календарей стала входить в практику работы детских садов, так как создает условия для проявления познавательной активности ребенка дошкольного возраста. Такой календарь помогает разнообразить учебное время, планировать тематические недели, превратить познавательный процесс в игру, а также сделать взаимодействие между педагогом и учащимися более продуктивным и интересным. Адвент помогает малышам познакомиться с такой категорией, как время - познакомиться с числами и датами, увидеть движение времени, отсчитывать дни до праздника.

Литература:

1. Байкова Т.В., Захарова Л.М., Майданкина Н.Ю. Формирование дошкольников естественнонаучной картины мира

2. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM образование для детей дошкольного и младшего школьного возраста: парциальная модульнаяпрограмма развития интеллектуальных способностей М.: [б.и.], 2017.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING ZARURIY IMKONIYATLARI

O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lım kafedrası o'qıtuvchısı
G‘ıyasova Nargıza Yunusov qızı
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha talım 2-bosqıch sirtqi talabasi
Ismoılova Zulxumor

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda STEM ta’lim texnologiyasining ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. STEM ta’lim texnologiyasi haqidagi tushinchalarga ham alohida urg‘u berilgan. STEM ta’lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat - muammoni hal qilish qobiliyati shakllanishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog va tarbiyachilarning innovasion darajasi, innovatsion faoliyat, STEM, kreativlik, qunt, qiziquvchanlik.

Аннотация. В статье представлена информация о значении образовательных технологий СТЭАМ в обучении детей дошкольного возраста. Особый акцент также делается на концепции образовательных технологий СТЭАМ. Благодаря системе образования СТЭАМ у ребенка формируются творческие способности, трудолюбие, любознательность и самое главное на сегодняшний день качество – умение решать задачи.

Ключевые слова: инновационный уровень педагогов и воспитателей, инновационная активность, ПАР, креативность, трудолюбие, любознательность.

Abstract. The article provides information about the importance of STEAM educational technology in the education of children of preschool age. Special emphasis is also placed on concepts of STEAM educational technology. Through the STEAM education system, creativity, diligence, curiosity and today's most important feature - the ability to solve problems are formed in the child.

Key words: innovative level of pedagogues and educators, innovative activity, STEAM, creativity, diligence, curiosity.

Maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik tomonlama rivojlantirish uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini yangilash hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni amalga oshirishdan iboratdir. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim, bunda bolalarda vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni bolalarning yoshiga mos qilib tanlab olish bilan birga ulardan foydalanish, bolalarni sog‘lom turmush tarzini yuritishga o‘rgatish, shaxsiy gigienaga e’tiborini qaratish, o‘z vaqtida kerakli vositalardan: sovun, salfetka, spirtli suyuqliklardan muntazam foydalanishga, faol o‘yinlar o‘tkazish, musobaqalar uyushtirish, gimnastikalar bajarish bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarni axloqiy, estetik, jismonan sog‘lom o‘sishiga zamin yaratish. STEAM an’anaviy o‘qitishga muqobil yondashuv hisoblanadi. Bunda bolalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at) va Mathematics (matematika)ni fanlararo bog‘lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o‘rganadilar.

Ushbu maqsadlarni bajarish uchun 2016-yildan boshlab milliy ta’lim tizimida STEAM O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. “Zamonaviy maktablarni tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizi mini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Qarori, “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori va boshqa ko‘plab respublikamizdagi ta’lim tizimini dunyodagi yetuk ta’lim tizimlariga teng lashtirish borasidagi islohotlarni ta’kidlab o‘tish mumkin.[1,2]

Hozirgi kunda STEAM ta’lim tizimi dunyo miqyosida keng tan olinmoqda. Ba’zi mamlakatlarda ushbu ta’lim tizimi milliy ta’lim tizimi etib tayinlangan. 2016- yil natijasiga ko‘ra STEAM ta’lim tizimi bo‘yicha maktabni tamomlaganlar taqsimotiga ko‘ra yuqori texnologiyalar bo‘yicha jadal tarzda rivojlanib borayotgan Xitoy birinchi o‘rinni, AQSH va Rossiya munosib ravishda 3 va 4 o‘rinni egalladi.

STEAM ta’limi nima degani? STEAM so‘zi ingliz 4 so‘zning bosh harflaridan tashkil topgan abreviatura bo‘lib, unda: S-Science - Fan, T- Technology - Texnologiya, E-Engineering - Injinerlik, M – Mathematics – Matematika, yaqin kunlarda ushbu apreviaturaga A-Art -San’at bo‘limi ham qo‘shilgan.

STEAM tizimida ta’lim ushbu 4 y o‘nalishga urg‘u bergan holda, undan tashqari ularning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan holda olib boriladi. Globallashuv davridagi texnologik o‘zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun’iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta’lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda. STEAM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga kiritib beradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, STEAM ta’lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem- solving skills) qobiliyati shakllanadi. O‘zbekiston Respupblikasida STEAM ta’lim tizimini davlat ta’lim tizimiga kiritish bo‘yicha o‘tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda.[3]

Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEAM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Aslida STEAM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog‘liqligi, ketma- ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta’lim tizimida STEAM tizimi bo‘yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik va musiqiy tarbiya berish hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM - o‘qitish asoslarini joriy etish, bolaning kelgusida o‘z muvaffaqiyatini namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularning qiziqishini uyg‘otishdan iborat. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ma’naviy yetukligi uchun yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM - faqat o‘qitish usullari emas balki bolalarni aqlini charxlash hamda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga ham katta yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar STEAM - o‘qitish orqali bilim olish bilan birgalikda undan qanday foydalanish haqidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar. STEAM - o‘qitish orqali ta’limga yondashuv, fan va texnologiyalarni, qurish- yasash va matematikani chuqur o‘rganib boradilar. STEAM - o‘yinlari orqaliy bolalarning bilimlari mustahkamlablanib borishiga erishiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g‘risida Respublikasining Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan

2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T .: BMT bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), 2018.
3. Ilk qadam. Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), 2018. Tuzuvchilar: I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, SH.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.- T.:MTV, 2018
4. X.Jalilova, S.M.Aripova.Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, 2013y

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM TEXNOLOGIYALARI

O‘zbekiston, Profi University Navoiy filiali
“Ta’lim faoliyati va tillar” fakulteti dekani
Homidova Zilola Yunusovna

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tizimi tobora rivojlanib bormoqda. Maqolada maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va o‘rni haqida ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tilgan. STEAMni ahamiyati haqidagi ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: STEAMga yondashuv, o‘z-o‘ziga ishonch, emotsional ta’sir, zamonaviy tadqiqotlar, maktabgacha ta’lim tizimi.

Аннотация. Система дошкольного образования развивается все больше и больше. В статье акцентируется внимание на информации о важности и роли использования CTEAM-технологий в дошкольном образовании. Выделена информация о важности CTEAM.

Ключевые слова: Подход к НТИИМ, уверенность в себе, эмоциональное воздействие, современные исследования, система дошкольного образования.

Annotation. Preschool education system is developing more and more. The article focuses on information about the importance and role of using STEAM technologies in preschool education. Information about the importance of STEAM is highlighted.

Key words: Approach to STEAM, self-confidence, emotional impact, modern research, preschool education system.

STEAM ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashishi mumkin. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar: lego-texnoligiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiritilgan. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib dunyoni muntazam o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi. O‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o‘z qo‘llari bilan yaratgan ko‘rik va yo‘llar, samalyotlar va avtomobillarni «ishga tushurib» suv osti va havo tuzilmalari «rivojlantib», sinovdan o‘tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan «mahsulot»ni qayta-qayta sinovdan o‘tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o‘zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g‘alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g‘alaba, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch uyg‘otadi. Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkil etishni o‘rgatadi. Shu asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda STEAM texnologiyalar, emotsional ta’sir vositalari orqali kasb-hunarga oid tasavvur va tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlantirish, barkamol inson qilib tarbiyalash, salohiyatini namoyon eta olishini ta’minlash, bolalarda vatanparvarlik, qonunlarga hurmat, intiluvchanlik, mehnatsevarlik, o‘zgalar mehnatini qadrlash kabi ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kasb-hunarga qiziqtirish modellarini takomillashtirish, STEAM texnologiyalarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim tizimiga qamrab olish, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy,

intellektual, jismoniy tarbiyalash, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb-hanarga qiziqtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirildi.

STEAM ta'limi nima degani? STEAM so'zi ingliz 4 so'zning bosh harflaridan tashkil topgan abreviatura bo'lib, unda: S – Science – Fan T – Technology – Texnologiya E – Engineering – Injinerlik M – Mathematics – Matematika yaqin kunlarda ushbu apreviaturaga A - Art – San'at bo'limi ham qo'shilgan ya'ni STEAM tizimida ta'lim ushbu 4 yo'nalishga urg'u bergan holda, undan tashqari ularning birbiri bilan bog'liqligini ko'rsatgan holda olib boriladi. Globallashuv davridagi texnologik o'zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun'iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta'lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda. STEAM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta'lim tizimiga kiritib beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati shakllanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar STEAM tizimi maktab ta'lim tizimiga oid bo'lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, maktabgacha davrdan boshlab tadbiq etish muhim ekanligini ta'kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEAM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir. Aslida STEAM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketma- ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimida STEAM tizimi bo'yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi lozim.

Shunday ekan, O'zbekiston dunyoga, dunyo xalqlari O'zbekiston nazar tashlayotgan, butun o'zbek xalqi o'z Prezidenti atrofida tobora mustahkamroq jipslashib, milliy ma'naviyat, milliy ong, milliy mafkura haqida har qachongidan ham ko'proq qayg'urayotgan bugungi kunda talim jarayonlarida nimalar e'tibor berish lozimligini avvalo o'zimizga va boshqalarga o'rgatamiz. Zero, hech bir inson, hech bir millat o'zligini teran anglamasdan turib o'zgani to'laqonli tushunib yetmagan. Shu bois STEAM texnologiyasi sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalarlardan biri hisoblanadi. Chunki, davlatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va yetuk shaxs etib tarbiyalash har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga IT muhandislarigina emas, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari, shu bilan birga ertangi kun avlodlarini tarbiya qilayotgan tarbiyachilar va ularning bilimi, saviyasi, shu bilan birga aqliy salohiyatiga ham bog'liqligini qayta-qayta ta'kidlash zarur.

Tarbiyachi malakasi va madaniyati tarbiyachining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo, tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Bolalarga STEAM texnologiyasi orqali pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuygulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Bu bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun bolaning ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, tarbiyachining ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga tarbiyachi rahbarlik qiladi. U tarbiyalanuvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning pedagogik jarayonda ishtirok etishlari uchun

shart-sharoitlar yaratadi. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish mazmunida tarbiya mohiyati ifodalangan bo‘lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqib asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Develop creativity in students opportunities for innovation A.D. Ibrokhimovna - International journal of advanced research in education, technology and management 2023/2/16
2. Caregivers in the system of higher education that creative potential development options . D.I. Asqarova. International scientific research journal 4, 1-13
3. Use of innovative technologies in the educational process to develop students’creativity. A.D.Ibrokhimovna, Y.D.Tolkinovna - International journal of advanced research in education, technology and management 2023/2/16

STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston, NavDPI Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi Xayrullayeva Marjona Sobirjon qizi,
Ilmiy rahbar: N.K.Musayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davrida bolaning intellektual qobiliyatlarining rivojlanishining bir qator xususiyatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit sozlar: STEAM, ta’lim, badiiy izlanish, qobiliyat, baholash, aqliy faoliyat.

Аннотация: В данной статье высказаны мнения о ряде особенностей развития интеллектуальных способностей ребенка в дошкольном возрасте.

Ключевые слова: STEAM, образование, художественные исследования, способности, оценка, мыслительная деятельность.

Abstract: In this article, opinions are expressed on a number of features of the development of the child's intellectual abilities during the preschool age.

Keywords: STEAM, education, artistic research, ability, assessment, mental activity.

Zamonaviy dunyo ta’lim olish uchun qiyin vazifalarni qo‘yadi: bolani kelajak jamiyatida hayotga tayyorlash, bu birinchi navbatda tez o‘zgaruvchan axborot bilan ishlashga qaratilgan maxsus intellektual qobiliyatlami talab qiladi. Olingan ma’lumotlami olish, qayta ishlash va amalda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish STEAM - ta’lim dasturining asosini tashkil etadi. STEAM - ta’lim texnologiyasi har doim bilim va badiiy izlanishning holatiga asoslangan loyiha uslubiga asoslangan bo‘lib, u o‘z amaliy tajribasi asosida bilim olishda va keyinchalik olingan bilimlarni bolalar faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarida qollashda: o‘yin, dizayn, bilim va tadqiqot faoliyati texnik ijod elementlari bilan STEAM texnlogiyasi bolalarga dunyoni tizimli o‘rganish, atrofdagi hodisalarning o‘zaro munosabatlarini aniqlash va tushunish, yangi, g‘ayrioddiy va juda qiziqarli narsalarni kashf qilish imkonini beradi. Yangi narsalar bilan tanishishni kutish qiziqish va kognitiv faoliyatni rivojlantiradi; o‘zingiz uchun qiziqarli vazifani aniqlash, usullarni tanlash va uni hal qilish uchun algoritm yaratish, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati - muhandislik fikrlash uslubini ishlab chiqish va jamoaviy faoliyat qobiliyatini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta’minlaydi va kelajakda kasb tanlashda yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

STEAM ta’lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun bir vaqtni o‘zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg‘unligini ta’minlaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning 3-7 yosh davrida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM ta’lim texnologiyasida foydalanish juda qo‘l keladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning eng qulay davri ekanligini isbotlaydilar. Bola hayotining maktabgacha yosh davrida shaxsiy intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Uch yoshga to‘lgach, bola hissiy faoliyati, beixtiyor diqqat-e’tibori va og‘zaki nutqi, kommunikativ ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Bola

dunyoni o‘zgacha qiziqish bilan o‘rgana boshlaydi, tabiat va ijtimoiy hayotning eng oddiy hodisalari haqidagi fikrlarini modellashtiradi. O‘yin faoliyati va nutqiy muloqoti bilish va idrok etish jarayoni uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: o‘zi va atrofdagi odamlar, tengdoshlari, makon va vaqt, rang va shakl, butun va qism.

Bolada analitik va sintetik faoliyatning murakkab turlari rivojlanadi. Sezgi a’zolari - ko‘rish, eshitish, hid bilish va ta’m bilish sezgi jarayonlarida, idrok tufayli atrofdagi olam bolaga rang-barangligi, turli tovushlar bilan ajralib turadi. Bolani idroki rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi: 3-4 yoshda idrok obyektiv bo‘ladi ya’ni bola narsa obyektning xususiyatlarini obyektning o‘zi bilan ajrata olmaydi. 4-5 yoshga to‘lgach, asosiy shakllar, ranglar, makon va vaqt haqida ilk tasavvurlari shakllanadi. U obyektning kattaligi va ularni taqqoslash haqidagi g‘oyani shakllantiradi. 5-7 yoshda esa bola obyektlar va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlari kengayadi, idroki yanada jadal, mazmunli va maqsadga muvofiq rivojlanadi. Bola o‘zining shaxsiy tajribasini egallay boshlaydi va shu bilan birga ijtimoiy tajribani ham o‘zlashtiradi. Idrok orqali tafakkurni rivojlanishiga yo‘l ochiladi, og‘zaki nutq, diqqat, xotira, tasavvumi rivojlanadi.

Maktabgacha katta yoshda bola o‘yin faoliyatida tasavvurlarini rivojlantirish eng samarali yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Bu davrda bola yangi g‘oya yaratish va uni amalga oshirishni rejalashtirish qobiliyati rivojlanadi bu esa xayolning o‘sishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, maktabgacha yosh davrining har bir bosqichida bolaning intellektual qobiliyatlarining rivojlanishi bir qator xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda eng ustuvor faoliyatlarda o‘yin, kognitiv tadqiqotlar, dizayn, animatsiya va badiiy yo‘nalishlarda ishlab chiqarish faoliyati asosida yuzaga keladi. Intellektual qobiliyatlarning rivojlantirishning asosiy bilish jarayonlari - idrok, xotira, tasavvur va tafakkuri takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Kognitiv jarayonlarni shakllanishi darajasiga ko‘ra mustaqil ijodiy bilish qobiliyatiga, aqliy va amaliy kichik tadqiqotlar o‘tkazish, umumlashtirish, o‘z faoliyati jarayoni va natijalarini tahlil qilish, o‘xshashliklarni yaratish hamda xulosalar chiqarishni o‘rganadilar. Bolalar bu jarayonni o‘yin faoliyati orqali amalga oshiradilar. Bolalar o‘yinlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi asosan bilvosita usullardan foydalanadi, o‘yinni kuzatish davomida faol va lider bolalar o‘z o‘rtoqlarini tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashlari, tortinchoq bolalarni ham o‘yinga qiziqtirish, jalb qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlashga yordam beradi. Bolalar bir-birlari bilan aloqa munosabatlari yaxshilanadi, tengdoshlarining harakatlariga o‘z munosabatlarini bildiradilar, o‘z fikr va qarashlarini himoya qiladilar. Tarbiyachi rejissyor sifatida o‘yinga mavzu bo‘yicha oldindan kelishib olishga, rollarni taqsimlashga undaydi. STEAM ta’lim texnologiyasi o‘yin faoliyatidan foydalanilganda, bolaning yoshi va individual xususiyatlariga mos ravishda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar ta’minlanadi.

Belgilangan maqsadlarga erishishda maktabgacha yoshdagi bolalarga xos o‘yinlar, qurilish, bilish va tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy va texnik ijodkorlik, badiiy va ijodiy faoliyatning turlari-dizayn, multfilmlar yaratish kabi ijodiy chiqishlar amalga oshiriladi.

XXI asr zamonaviy texnologiyalarini rivojlantirishda yuqoridagi faoliyat asos hisoblanadi va bolalarda dasturlash, raqamli texnologiyalar elementlarini o'zlashtirishga yordam beradi. STEAM ta’lim texnologiyasidan asosiy modullarini amaliyotda qo‘llashda quyidagi yo‘nalishda amalga oshiriladi: - o‘yin-qurilish-kognitiv va tadqiqot faoliyati; - badiiy va ijodiy faoliyat turlari hamda dasturlash elementlari va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish. Har bir modul STEAM ta’lim maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan aniq vazifalami kompleks ravishda hal qilishga qaratilgan kognitiv tadqiqotlar jarayonida bolalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy-texnik ijod qilishga o‘rgatib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-texnik ijodiyotni sintez qilish, umuman olgnda AKT va raqamli texnologiyalami rivojlantirish, media ma’lumotlarni takomillashtirish asosida animatsion samarali foydali mustaqil faoliyatini tashkil etish, bolalarni mantiqiy va algoritmik fikrlashi, rejalashtirish va modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maxmutazimova Y. R. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari / O‘quv qo‘llanma/- Toshkent: “TAMADDUN”, 2022,145 bet.

2. Erkayev A.Yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa. MT jurnali 4-son 2012 yil, 2-3 betlar.
3. Abdusamatova N. Bolalarni integratsiyalashganta'lim jarayonida ma'naviy- axloqiy tarbiyalashda tarbiyachining o'rni. Maktabgacha ta'lim jurnali 6/ 2012 yil, 2-3 betlar.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimiga doir huquqiy – me`yoriy hujjatlar to'plami", 2009 yil.
5. Bo'tayeva U., K.Oqilova. Maktabgacha yoshidagi bolalarni shakllantirishda o'yin-mashg'ulotlarning o'rni // metodik tavsiyanoma Samarqand 2009 y. 24 b
6. Kayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika" TDPU nashriyoti T:. 2013 y.

Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz

BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA STEAM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha talim kafedrasi o'qituvchisi N.Y.G'iyasova
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha talim yo'nalishi talabasi Rashidova Sevinch

Annotatsiya. *Bo'lajak tarbiyachilarni malakaviy amaliyot jarayonida STEAM texnologiyasi bo'yicha bilim ko'nikmalarini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatli jarayon ekanligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiyachi, kompotensiya, zamonaviy ta'lim tizimi, ko'nikmalar, malakaviy amaliyot.*

Аннотация. *Пояснено, что совершенствование навыков владения технологией НТИИМ в ходе квалификационной практики будущих учителей и развитие их профессиональной компетентности является важным процессом.*

Ключевые слова: *педагог, компетентность, современная система образования, навыки, профессиональная практика.*

Abstract. *It has been explained that improving the knowledge skills of STEAM technology during the qualification practice of future teachers and developing their professional competence is an important process.*

Key words: *educator, competency, modern education system, skills, professional practice.*

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajal pedagog tarbiyachilarning ham ahr tamonlama bilimli, mahoratli bo'lishi talab etiladi. E'tirof etish joizki, ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa bo'lajak pedagog kadrlarni malakaviy amaliyot jarayonida tarbiyalanuvchilarga har tamonlama STEAM texnologiyasi asosida ta'lim berish har tamonlam barkamol shaxs tarbiyalashda muhim jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida bo'lajak pedagog tarbiyachilarning bilim, ko'nikma, malakalari tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan shart –

sharoitlarga alohida hamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim Konsepsiyasida ular quyidagicha izohlanadi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o‘tmoqda; -
- nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i kengaymoqda;
- ta’limning ilg‘or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;
- qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida bo‘ljak pedagoglarni innovatsion va tajriba-sinov ishlari sezilarli darajada samarali amalga oshirish muhimdir. Biroq ushbu jarayonlarga muvofiqlashtirish, yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatish uchun uning keng qamrovli natijalarining monitoringi asosida samaradorlik darajasini aniqlab borishning optimal mexanizmini ishlab chiqish, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar ham maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi ta’lim jarayoni va uning samaradorligini ta’minlash yo‘nalishidagi maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishini, jumladan, bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinishini, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida ularni tarbiyalash va o‘qitish darajasi hamda sifatini o‘rganishga, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirishga doir nazorat-tahlil tadbirlari tashkil etildi. Hozirgi zamon talablari va standartlarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishga, ularni qayta qurish va modernizatsiya qilishga, shuningdek, davlat byudjetidan moliyalashtirishga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda.

Bu metodika bo‘lajak pedagog tarbiyachilarni ta’limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabgacha ta’lim tashkilotida va maktabdan tashqarida loyiha va o‘quv−tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishdan tashqari, texnologiya bolalarning ijodkorligini ham ko‘rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv bolalarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, bolalar ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o‘rganadi. Bunday vazifalar yordamida bolalar g‘oyalarni nafaqat o‘ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o‘rganadi. Shu tariqa, bolalar o‘z faoliyatini oldiga qo‘yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni.T; 2020 yil
2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
3. Djanpeisova G.E., Xodjimuratova B.N. Matematik tasavurlarini shakllantirish. T.: “Innovasiya-Ziyo”, 2020

BULG‘USI TARBIYACHILARGA QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALABLAR

O‘zbekiston, Navoiy pedagogika kolleji direktori
D.H.Hamroyev

Annotasiya:ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta’limga beriladigan e’tibor va bo‘lg‘usi tarbiyachilarga qo‘yiladigan talablar, odob-axloq meyyorlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, talablar, jamiyat talablari, odob-axloq meyyorlari, shaxsiy sifatlar.

Аннотация: в данной статье содержится информация о внимании, уделяемом сегодня дошкольному образованию, требованиях к будущим воспитателям, нормах этики.

Ключевые слова: дошкольное образование, требования, требования общества, моральные нормы, личностные качества.

Abstract: this article contains information about the attention paid today to preschool education, requirements for future educators, and ethical standards.

Key words: preschool education, requirements, requirements of society, moral standards, personal qualities.

Respublikamizda ta’lim tizimida asosiy e’tiborni qaratish har doimgidan ham dolzarb masalaga aylandi. Ta’lim bosqichlarining boshlag‘ich nuqtasi bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimiga assosiy e’tiborni qaratilishi bu bejiz emas. Chunki bir guruh olimalrimiz tdqiqotlarining natijasi sifatida inson umri davomida oladigan barcha axborotlarning asosiy qismini ana shu davrda olar ekan. Bugungi kunda nafaqat maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish masalasi balki mana shu yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya beradigan pedagog xodimlar masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, 2017 yil sentaybr oyida ”Maxsus sirtqi bo‘limlar”ning ochilishi, maktabgacha ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan nomutaxasis xodimlarni qayta tayyorlash maqsadida yaqindagina o‘z ishini boshlagan ”Qayta tayyorlov kurslari”ining barchasi respublikamiz Prezidenti tominidan tarbiyachi–pedagoglar uchun imkoniyatlar eshigidir. Chunki, jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirishda ana shu tarbiyachi-pedagoglarning o‘rni beqiyosdir.

Bundan ko‘rinadiki, o‘qituvchi, tarbiyachilar avvalo zamonaviy bilim bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

Bizga ma’lumki insonni shakllantirish muammosi nihoyatda murakkab va ko‘p qirralidir. Bu muammoning quyidagi jihatlari hozirgi zamon pedagogika fanida anchagina samarali tadqiq etilmoqda:

- pedagogik jarayon yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaning istiqbolli modeli, kasbiy, ma’naviy-axloqiy shaklllanganlikning nisbatan ideal holati kabi muammmolar ustida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Chunki bola xulqining u yoki bu darajadagi tavsifi, ularda shaxsiy sifatlar shakllanganligining mavjud darajasi aniqlanib, mo‘ljaldagi ideal darajasini loyihalashtirish nazarda tutiladi;
- ta’lim-tarbiyaning samarali vositalari, shakl, usullari tizimini yaratish; belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bilimlarni tanlash va tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- shaxsda shakllantirish talab etiladigan zaruriy sifatlar, xulq-odatlarni shakllantirish jarayonining xususiyatlarini psixologik, pedagogik jihatdan o‘rganish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etiladigan bolalar tarkibining o‘ziga xos xususiyatlarini sotsiologik-psixologik jihatdan tahlil qilish;
- bolalarda ma’lum sifatlar va xususiyatlar shakllanganligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;
- ta’lim-tarbiya jarayonining borishini nazorat qilishning samarali tizimini – ta’lim jarayoni monitoringini yaratish kabilar.

Yuqorida keltirilgan masalalardan har birining ko‘lamini aniqlash, ularni yaxlit bir tizimga birlashtirish – ta’lim-tarbiya ishlarini samarali boshqarish muammosi doirasida hal etiladi. Tarbiya jarayonini samarali boshqarishning mohiyati shundaki, tarbiyalashning qulay vosita va usullarini qo‘llash orqali mo‘ljallangan natijaga erishishdan iborat. Ta’lim-tarbiya ishlari muayyan izchillik asosida tizimli tashkil etilsagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Bizning asosiy g‘oyamiz shundan iboratki, pedagogika o‘quv yurtlarining talabalarida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining asosini tashkil etishi lozim. Kasbiy-axloqiy tarbiyani bunday tashkil etish talabalarda atrof-borliqqa tarbiyachiga xos faol hayotiy nuqtai nazar, namunali odob meyorlarini egallash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Kasbiy-axloqiy ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish uchun:

1) kasbiy-axloqiy shakllanganlikning talab etiladigan ideal holatini aniq tasvirlash, asoslab ifodalash;

2) talabalar kasbiy-axloqiy shakllanganlik darajasining mavjud holatini aniqlash;

3) mavjud holatni istalgan ideal sari o‘zgartira oladigan aniq yo‘llar, vositalar, ish usullari, shakllarini belgilash;

4) ta’lim-tarbiya ta’sirida vujudga keladigan o‘zgarishlarni nazorat qilish, taqqoslash, zarur bo‘lganda tuzatishlar kiritish lozim.

Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish muammoning uchta jihati: talabalarning kasbiy-axloqiy shakllanganlik darajasi qanday bo‘lishi kerak?, mavjud holati qanday? degan savollarga javob topgan holda uni istalgan ideal tomon qanday o‘zgartirish mumkinligiga e’tibor berishni talab etadi.

Kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxasis qanday bo‘lishi kerak? degan savolga aniq, to‘g‘ri javob topish bu sohadagi ko‘pgina muammolarning yechimini topishga yordam beradi. Darhaqiqat, kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan ideal mutaxasisning imkoniyatlari ma’lum darajada real yoki noreal, ko‘p qirrali yoki bir yoqlama bo‘lishi mumkin. Masalan, kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxasis ideali noreal, ya’ni, amalda erishib bo‘lmaydigan darajada bo‘lsa, nazariy jihatdan ta’limning samaradorlik darajasi yuqori bo‘lmaydi. Chunki bunday yuqori ideal darajasiga sanoqli talabalargina erishishlari mumkin. Aksincha, ideal oddiy, soddalashtirilgan bo‘lsa ko‘pchilik talabalar bunga osongina, maxsus ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarsiz ham erishishlari mumkin. Bunda samaradorlik birmuncha yuqori bo‘ladi. Lekin uning ahamiyati nimada? Agar ideal mavhum bo‘lsa, bo‘lajak mutaxasisning xulqi, xatti-harakatlari uchun uning ta’siri kam bo‘ladi. Agar kasbiy-axloqiy jihatdan shaklangan mutaxasis ideali bir yoqlama bo‘lsa, unda bo‘lajak mutaxasisda ayrim kasbiy sifatlar takomillashib, boshqalari rivojlanmay qolaveradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy-axloqiy shakllangan mutaxasisning muayyan ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Juda mavhum, noreal idealni amalda baholab bo‘lmaydi va bu talabaning kasbiy-axloqiy darajasini obyektiv baholashni qiyinlashtiradi. Aksincha ideal aniq, real bo‘lsa, talabaning kasbiy-axloqiy xatti-harakatlarini taqqoslash va obyektiv baholashga imkoniyat tug‘iladi. Lekin bu yo‘lda ham ayrim qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bunda belgilangan mezon juda oddiy, yengil bo‘lishi va talabada ayrim zarur sifatlar rivojlanmay, o‘z holida qolishiga olib keladi.

Pedagog odobini shaklantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun mo‘ljallangan ideal masalasi o‘ta muhim bo‘lganligi tufayli pedagog odobi fazilatlari shakllanishining ideal modeli masalasini talabalarda tarbiyachi odobiga xos sifatlar misolida quyida batafsil ko‘rib chiqamiz.

Pedagog odobi tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta’kidlash lozim. Zero tarbiyachining kasbiy axloqi bolalar bilan muloqot jarayonidagina namoyon bo‘lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Axloqiy tarbiya bilan pedagogik odob tarbiyasi o‘rtasida murakkab aloqadorlik munosabatlari mavjud.

Pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Unda insonning kasbiy barkamolligi ijtimoiy taraqqiyotning oliy ne’mati va mezoni hisoblanadi. Pedagog

odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, axloqiy ta’lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo‘nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

Jamiyatning tarbiyachi shaxsiga munosabati.

Tarbiyachi shaxsining jamiyatga munosabati.

Insonning insonga munosabati ikkinchi guruh aloqalar doirasiga kiradi. Kasbiy-axloqiy ta’lim-tarbiya jarayonida ular qisman qamrab olinadi, xolos.

Yuqorida bayon etilganlar pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishni ta’lim-tarbiyaning alohida sohasi sifatida ajratishni taqozo qiladi. Ayniqsa, pedagogika o‘quv yurtlari ta’lim tizimi uchun bu juda muhim, chunki tarbiyachilik kasbi uchun bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilish pedagog odobining asosini tashkil qiladi.

Bu o‘z navbatida ideal, kasb odobiga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaning mazmuni qanday bo‘lishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Chunki ta’lim-tarbiya jarayoni bo‘lajak tarbiyachilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilishi va o‘quv jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim.

